

O'ZBEKISTON TARIXI

IX

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI,
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

@tarixchi_kutubxonasiga

O'ZBEKISTON TARIXI

(Samarqand tarixi)

IX jild

(O'zbekiston tarixi va manbalari)

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2023

UO'K 94(575.141)
KBK 63.3(5O'-2Samarqand)
O' 17

Tahrir hay'ati:

*Ahmadali Asqarov – hay'at raisi, tarix fanlari doktori, akademik,
Azamat Ziyov, Bahrom Abdihalimov, Anatoliy Sagdullayev, Akbar Hakimov,
Gulchehra A'zamova, Ashraf Ahmedov, G'aybulla Boboyorov, [Dono Ziyoyeva],
Muhayyo Isoqova, Farhod Maqsudov, Shokir Pidayev, Qahramon Rajabov,
Rustam Sidaymonov, Sherzod Abdullayev, Dilorom Yusupova, Xalim To'rayev*

Mualliflar:

B.S. G'oyibov, [J.M. Djuraqulov], M.X. Isamiddinov, Q.K. Rajabov,
A.M. Malikov, K. Kattayev, O.T. Ergashev, M.X. Sidikova, O.J. Irisqulov,
[A.J. Bodirov], S.I. Muxiddinov

Mas'ul muharrir, nashrga tayyorlovchi va ijodiy guruh rahbari

B.S. G'oyibov – tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

M.M. Is'hoqov – tarix fanlari doktori, professor,
I.M. Saidov – tarix fanlari doktori, professor,
B. Ergashev – tarix fanlari doktori, dotsent.

Jamoaviy monografiya jahonning qadim shaharlaridan biri bo'lgan Samarqand tarixiga bag'ishlanadi. Tadqiqot markaziy Zarafshon vohasining eng qadimgi va qadim davri, Samarqand shahrining vujudga kelishi va antik davri, ilk o'rta asrlar (V–VIII), rivojlangan o'rta asrlar (IX–XIV), Amir Temur va temuriylar davri, o'zbek xonliklari davri, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri, sovet totalitarizmi davri, shaharning eng yangi davri tarixini o'z ichiga oladi. Monografiyani yaratishda markaziy Zarafshon vohasining insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lganligiga, Samarqand shahrining vujudga kelishi va tarixda turli davlatlarning markazi sifatida muhim siyosiy ahamiyat kasb etganligiga, shaharning turli davrlardagi madaniy jarayonlar markazida turganligiga, mintaqa shaharlari orasidagi o'zmi hamda mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan ulushiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot tarixchilar, arxeologlar, etnologlar va Vatan tarixi bilan qiziqqan keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

SO'ZBOSHI

Markaziy Osiyo tarixiy-geografik madaniy o'lkalarining uzoq o'tmishdan boshlab umumiy taraqqiyot yo'llari tutash va birga ekanligini fan alaqachon isbotlagan. Geografik o'rniga ko'ra, Markaziy Osiyo nisbatan quruq kontinental iqlimli mintaqa bo'lib, uzoq tarixiy jarayonlarda ikki yirik xo'jalik ukladi – nomadik (ko'chmanchi chorva) hamda sug'orma dehqonchilik o'troq xo'jalik madaniyatining uyg'unligi asosida taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan. Etno-madaniy jihatdan mintaqa xalqlari qadim zamonlardan boshlab asosan turkiy va eroniy xalqlarning yetakchi mavqeda bo'lganligi uning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi.

Demak, tarixiy mushtaraklik haqida gap ketganda o'tmish jarayonlarini ayni tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib xolisona yondashuvlar asosida o'rganmoq zarurdir. Tarix tadqiqotlarining turli metodologik yondashuv tamoyillari bo'lgani holda, ularning asosida xolislik, dalil va isbotlilik, voqea-hodisalarga tarixiylik nuqtayi nazaridan baho berish lozim bo'ladi. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida kechgan davlatchilik jarayonlari yaxlit bir jarayon bo'lib, ularni alohida sulolalar shaklida tadqiq etish mumkin, lekin shaharlar tarixini boshqacha shaklda tadqiq etish lozim. Ushbu kitobda e'tibor ko'proq Samarqandning siyosiy tarixiga emas, iqtisodiy, madaniy, shahar hayotiga qaratilgan. Shuni ta'kidlash joizki, davlatchilik tushunchasi, asosan, davlatning huquqiy asoslari, boshqaruv tizimi, chegaralar va ma'muriy bo'linishi, qo'shin, ichki va tashqi munosabatlari, tovar-pul munosabatlari, soliq tizimi, xalqaro maqomi, mulkchilik, ma'naviy va g'oyaviy asoslari kabi jihatlarini qamrab oladi.

Shu asosda O'zbekiston hududidagi davlatchilikni sulolalar tarixi emas, balki bir butun yaxlit va uzviy tarix deb talqin qilish tarixiy haqiqatga yaqin hisoblanadi. O'zbekiston tarixi konsepsiyasida ham davlat tarixini sulolalarga emas, davriy ketma-ketlikda o'rganish asoslab berilgan¹. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek,

¹ O'zbekiston tarixi konsepsiyasi (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) loyihasi. – Toshkent, 2019. Qarang: 2-ilova.

tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avloddan avlodga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir¹.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi ilmiy tarixshunoslik jarayoni nuqtayi nazaridan bir necha asrlar davomida u yoki bu manfaatlar talash maydonida qolib kelgan. Jumladan, Rossiya tarixshunosligi Markaziy Osiyoga, ayniqsa, XIX asrdan boshlab, imperiya manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashuv asoslarini ishlab chiqdi. Bu masalada mahalliy ziyolilarni ham ustalik bilan jalb etib, ularning ma'lumotlaridan ham keng foydalanildi. Gap shundaki, Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasi Yevropaning Angliya va Rossiya o'rtasida manfaatlar kurashi mintaqasiga aylangan edi. Shu tufayli, xususan, Turkistonda bir vaqtning o'zida va ketma-ket mazkur davlatlarning turli maqsadlardagi ekspeditsiyalari va missiyalari ish olib borgan ma'lum. Maqsad esa bir xil edi: har bir davlat mintaqa xalqlari tarixini madaniyatini, xo'jalik xususiyatlarini, tabiiy resurslarini o'zicha o'rganishga va bilishga harakat qilardi. Rossiya S.Oldenburg rahbarligida, Angliya A.Steyn, Fransiya R.Pelo boshchiligida o'lkani o'rganish va zarur manfaatli ma'lumotlarni to'plash uchun ekspeditsiyalar uyushtirgan². Natijada o'lka tarixi va madaniyati to'g'risida katta miqdorda ma'lumotlar to'planib, Sankt-Peterburg, London, Berlin, Parij fondlariga joylashtirildi. Biroq bu materiallardan foydalanish asnosida har bir mamlakat olimlari o'z yo'llaridan borib, siyosiy maqsadlariga mos talqinlarni o'rtaga qo'yidilar. Ushbu tarixiy materiallar to'plangani ularning saqlanib qolishiga ijobiy xizmat qilgani holda, ilmiy talqin davomida mohiyatan buzib ko'rsatishlarga zamin bo'lib xizmat qildi. Qolaversa, yaqin vaqtlargacha ushbu son-sanoqsiz yozma va moddiy yodgorliklar o'z tarixiy egalari uchun qo'l yetmas holatda bo'ldi. Keyingi o'n yilliklar davomida mazkur materiallarning turli xil nashrlari yuzaga kelishi ulardan mahalliy tadqiqotchilarning ham foydalanish imkoniyatini yaratdi.

XX asr davomida Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yoritishda yana turli metodologik og'ishlar kuchaydi. SSSR tarixi nuqtayi nazaridan umumittifoq tarixining ajralmas qismi qilib ko'rsatish tendensiyasi Markaziy Osiyoning g'arbiy tomonida joylashgan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, oltoy xalqlari tarixini yuzaki yoritishga olib keldi. Rus xalqi tarixini yetakchi o'ringa qo'ygan holda mazkur xalqlarning tarixlarini «qoloq o'lka»lar tarixi sifatida qarash g'oyasi singdirildi. Masalan, «Древнейшие государства на территории СССР» nomli kitobda O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy dav-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 29-b.

² Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана / Соч. – М: Изд. Вос. Лит., 1963. – Т. II.

latchiligi haqida bir og'iz ham gap yo'q. Holbuki, 1940-yillarning oxirlaridan boshlab Markaziy Osiyo xalqlari tarixi mafkuraviy jihatdan SSSR tarixi konsepsiyasiga muvofiqlashtirilgan. Ushbu mafkura asosida nashr qilingan ishlarda qadimiy, antik, ilk o'rta asrlar va o'rta asrlarda amal qilgan o'nlab davlat uyushmalari, sulolaviy tarixlar haqida eslab o'tishga loyiq ma'lumotlarga umumiy tavsif berilgan, xolos. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hozirgi kunda Markaziy Osiyo tarixining davlatchilik an'analari bilan bog'liq tarixga noto'g'ri qarashlar ham borki, ular tarixni anglash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga tamomila ziddir. Tarixga bunday baho berish tarixiy haqiqatga to'g'ri emas.

Arxeologik tadqiqotlar hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari hisoblangan shaharlarda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jarayoni qishloqlardagiga qaraganda nisbatan tezroq borganligini ko'rsatmoqda. Masalan, metall, muhr, qurol-yarog' singari hokimiyat ramzlari aks etgan ashyolar va diniy xususiyatdagi buyumlar mavjud bo'lgan qabrlar aksariyat holda ilk shaharlar – Oltintepa, Ulug'tepa, Jarqo'ton, Sopollitepa kabi yodgorliklarga tegishli.

Shu o'rinda davlatchiligimiz tarixining g'oyaviy asoslari haqida Avesto kitobida aks etgan ma'lumotlarning tarixiy talqiniga bir nazar tashlash o'rinlidir.

Avvalo, Avestoning asosiy obyekti inson bo'lganligini ta'kidlash lozimdir. Undagi barcha fikr insonga, uning sidqidildan e'tiqodiga, jismoniy va ruhiy pokligiga, ezgu dunyoning ravnaqi uchun astoydil safarbarlik bilan qilinadigan yaratuvchilik mehnatiga, ijtimoiy barqarorlikka, tinchlik va osoyishtalikka qaratilgan¹.

Avesto va arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyoda ilk davlatlar o'troq aholi yashaydigan vohalarda – dastlab Murg'ob, Amudaryo va Zarafshon kabi daryolar havzalarida vujudga kelgan². Davlatning paydo bo'lishiga olib kelgan omillarning xususiyatlari esa davlatlarning tasnifini belgilab beradi. Ushbu omillar davlat fuqarolarining hududiy joylashuv jihatlari, hokimiyatning siyosiy xususiyatlarida, soliq tizimida, xalqaro munosabatlardagi mustaqillikda, davlatning huquqiy me'yorlarida, mansablar iyerarxiyasida namoyon bo'ladi³. Davlatni shakllantirishga xizmat qiluvchi mazkur holatlar Markaziy Osiyo mintaqasida davlatning vujudga kelishi-

¹ Аскарлов А.А. Сапарлитепе. – Ташкент: Фан, 1973. С. 7.

² «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'ri. «Avesta» and its place in the development of humanity / Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent-Urganch: Fan, 2001. – 186-b.

³ Shirinov T. Qadimgi Baqtriya podsholigi. Katta Xorazm // O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent, 2001. 8-9-betlar.

ni «sivilizatsiyaviy yondashuv» asosida tushuntirib berish mumkinligini ko'rsatmoqda. Zero, sivilizatsiyaviy yondashuvda davlatchilikning vujudga kelishini belgilovchi asosiy omillar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'lchamlari, uning ma'naviy-mafkuraviy xususiyatlari, tabiiy-geografik holati bilan bog'liq holda qaraladi¹.

«Sivilizatsiyaviy yondashuv»ga ko'ra, davlatning rivojlanishi dehqonchilikning taraqqiy etishi, hunarmandchilikning mustaqil ishlab chiqarish sohasiga aylanishi natijasida mulkiy munosabatlardagi tengsizlik vujudga kelib, qabila boshliqlari, kohinlar, harbiylarning jamiyatdagi mavqeyi oshib, ilk shahar-davlatlar vujudga kelgan². Ilk o'rta asrlar davriga kelib esa o'troq turmush tarzi hukmron bo'lgan ziroatchilik vohalarida qabilalar harbiy tashkilotlari ahamiyatining oshishi natijasida hududiy-siyosiy uyushmalar ko'rinishidagi davlat birlashmalari shakllangan³.

O'zbek davlatchiligi tarixining ilk qadamlari bronza asrida aholining mulkiy notengligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida boshlangan. Ilk temir asriga kelib bu munosabatlar kichik vohalardan katta-katta daryolarning vodiylarga yoyildi. Zarafshon, Sherobodaryo, Surxondaryo, Qashqadaryolarning ulkan vodiylari, Amudaryoning delta mintaqalari voha davlat uyushmalari uchun makon bo'ldi. Ularning ma'muriy-madaniy markazlari sifatida bir qator ilk shahar markazlari vujudga keldi. Bular Kesh vohasida Uzunqir, Samarqand vohasida Ko'ktepa-Afrosiyob majmualari kabilar edi⁴.

Darhaqiqat, mamlakatimizning muhim tarkibiy sarhadlarini tashkil qiluvchi Zarafshon havzasi hududi ajdodlarimizning bir necha mingyilliklarga teng, boy tarixga ega, asrlar osha ilm-fan va ma'rifat markazlari bo'lib, jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markazlar, shaharlar shakllangan. Shulardan biri ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahridir. Samarqand insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshigi va markazlaridan biri, O'zbekiston hududidagi davlatchilik jarayonlarida muhim o'rin tutgan. Samarqand jahon madaniyati, fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan shaharlardan bo'lib, u o'zining qariyb 3 mingyillik tarixi jarayonida o'z taqdirida muhim tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan, beshafqat davrlar sinovlaridan omon qolib, ajdodlarimiz uzoqni ko'z-

¹ *Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Y.V.* Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: Adolat, 2001. 28–29-betlar.

² *Rtveladze E.V. va b.* Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. ... 19-b.

³ *Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В.* Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и право. – Ташкент: Адолат, 2001. С. 22–25.

⁴ *Морозова Л.А.* Теория государства и права. – М.: Изд. Эксмо, 2009. С. 74.

lab yaratgan intellektual merosni, fan va madaniyatimizning yuksak an'ana-fazilatlarini avlodlarga yetkazib kelishda ham xizmati buyuk va mashhur shahardir. Samarqand shahrining yaxlit tarixini yaratish Samarqandning umumjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasining hajmi va salmog'ini, uning ahamiyatini tushinishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, O'zbekiston tashqi ilmiy aloqalarining kuchayishi yangicha tadqiqot usullarining boyishi natijasida Samarqand tarixini tadqiq etish yana bir pog'onaga ko'tarildi. Yaratilgan ilmiy adabiyotlar dunyo ilmiy hamjamiyatida Samarqand tarixi va madaniyatiga nechog'lik qiziqish mavjud ekanligidan dalolat beradi. Turli davlat olimlarining xalqaro ilmiy aloqalari natijasi Samarqand tarixini chuqurroq tadqiq etish imkoniyatini beradi. Xalqaro ilmiy hamkorliklar natijasi o'laroq shahar tarixini o'rganishda yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Shuningdek, sharqshunos olimlarning shahar tarixiga oid yangi manbalar ustida olib borgan tadqiqotlari samarasi natijasida Samarqand shahri tarixining turli davrlariga oid ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Samarqand olimlari tomonidan yaratilgan fundamental tadqiqotlar ham shahar tarixining dunyo miqyosida o'rganilishida o'ziga xos alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi tufayli ajdodlarimiz asrlar osha yaratgan ilmiy, tarixiy va tafakkur mahsuli bo'lgan boy tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz va qadriyatlarimiz tarixini bilish hamda o'zligimizni anglashga keng imkoniyat yaratildi. Endilikda ajdodlarimiz kim bo'lganligini, o'zimiz tavallud topib, voyaga yetgan makon, qishloq, ilm-fan va ma'rifat rivoji haqida avlodlarimizga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan olganda Samarqand tarixining qadim davridan bugungi kungacha bo'lgan tarixini qayta yaratish muhim va dolzarb masala hisoblanib, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, Samarqand shahri tarixini o'rganishga doir tadqiqotlarning chuqurlashib borishi ilmiy adabiyotlarda turlicha qarashlarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, shahar tarixining u yoki bu jihatiga bag'ishlangan dissertatsiyalarning yaratilishi, muammo dorasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda, amalga oshirilgan tadqiqotlar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish shahar tarixini qayta yaratishning nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatadi;

Ikkinchidan, xalqning tarixi, asrlar davomida to'plagan tajribasi, bilim va tasavvurlari, shakllangan qadriyatlari, moddiy va ma'naviy madaniyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, millat tarixiy tajribasining moddiy va ma'naviy madaniyat shakllarida aks etishini obyektiv o'rganish orqali shahar tarixini tadqiq etish muhim masaladir;

Uchinchidan, o'tmish tajribasining o'zlashtirilishi, vorislikning ta'minlanishi, shahar tarixini tadqiq etishdagi ilmiy izchillikning yuzaga kelishida, jamiyatda qaror topgan, keng qamrov va mazmun kasb etadigan demokratik ruh muhim o'rinni egallaydi. Bu ma'naviy-ma'rifiy omil, uning konkret ko'rinishlarining milliy tarixni o'rganishga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq tadqiq etish lozimligini anglatadi;

To'rtinchidan, yaqin o'tmishdan farqli ravishda mustaqillik sharoitida shahar tarixini ilmiy asosda o'rganish keng qamrovli xarakter kasb etmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarining nazariy va amaliy ahamiyati beqiyos. Bu esa Samarqand tarixini o'rganishga doir tadqiqotlarning mustaqillikkacha va undan keyingi davrga xos bo'lgan xususiyatlarini qiyosiy o'rganish va shundan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi;

Beshinchidan, har qanday hodisa kabi milliy tarixni, xususan, Samarqand shahri tarixini o'rganish jarayoni har doim ham bir tekis kechmasligi, har bir davrda o'ziga xos muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning samaradorligini ta'minlaydigan konkret amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish o'ta muhim ekanini ko'rsatadi va bu, o'z navbatida, shahar tarixiga oid manbalarni ilmiy xolislik asosida tadqiq etish zaruratini belgilab beradi.

Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlab yaratilgan 2 tomli «Samarqand tarixi», shaharning 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari, D.Alimova, Y.Buryakov, Sh.Rahmatullayev¹, A.Berdimurodov² va A.Malikovlarning³ shahar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlari Samarqand shahri tarixini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim samara bermoqda.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarni e'tirof etgan holda aytish mumkinki, keyingi davrlarda to'planib qolgan ilmiy xulosalar, erishilgan yutuqlar va olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari, Samarqandning qadim davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan tadqiqotning qayta to'ldirilgan holda yaratilishini taqozo etmoqda.

¹ Исмаилов М. О дате основания Самарканда // ОНУ. – 1997, №5. – С.62-67; Его же. К вопросу о возникновении древнего города на Афрасиабе / Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития: материалы международного научного симпозиума, посвященного 2750 летию юбилею город Самарканда. – Ташкент-Самарканда: Фан, 2007. – С. 101-104.

² Samarqand tarixi // mas'ul muharrir I.M. Mo'minov. 2 tomli. – Toshkent: Fan, 1971.

³ Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni // Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007.

Shu munosabat bilan tuzilgan ijodiy guruhda quyidagi mualliflar ishtirok etishdi: **I BOB** – tar.f.d., prof. M.D. Djuraqulov va PhD. O.T. Ergashev; **II BOB** – tar.f.d., prof. M.X. Isamiddinov; **III BOB** – tar.f.d., dots. B.S. G'oyibov; **IV BOB** – tar.f.n., dots. A.M. Malikov; **V BOB** – tar.f.d., prof. Q.K. Rajabov va tar.f.d., dots. B.S. G'oyibov; **VI BOB** – K. Kattayev; **VII BOB** – PhD. O.J. Irisqulov va PhD. S.I. Muxiddinov; **VIII BOB** – tar.f.d., prof. Q.K. Rajabov (bobning VIII.3.§ va VIII.5.§ fasllari PhD. A.J. Bodirov hammuallifligida); **IX BOB** – tar.f.d., dots. B.S. G'oyibov, PhD. M. Sidikova va PhD. O.J. Irisqulov.

I bob.

**SAMARQAND VOHASINING ENG QADIMGI
VA QADIM DAVRI**

Banibashar paydo bo'lganidan to hozirgi davrga qadar bo'lib o'tgan insoniyat tarixi hech qachon bir tekisda rivojlanmagan. Odamzod tabiatdagi boshqa jonli mavjudotlar kabi ibtidoiylikdan asta-sekin murakkablik tomon rivojlanib borgan. Ularning mehnat qurollari va u bilan bog'liq bo'lgan faoliyati, ongi, dunyoqarashi o'zgarib borgan. Agar inson o'zining ilk bosqichida tabiatdagi tayyor mahsulotlar – yovvoyi daraxtlarning mevalari va boshqa jonivorlar, yirik yovvoyi hayvonlar go'shti bilan tirikchilik o'tkazgan bo'lsa, keyinroq tabiat sirlarini o'rgandi, tabiatda bor ne'matlardan unumli foydalanish yo'l-yo'riqlarini bilib oldi va nihoyat u hozirgi zamon holatiga, jamiyatning yuksak rivojlanish darajasiga yetib keldi. Dunyoda barcha xalqlarning ham eng qadimgi o'tmishi shunday rivojlanishni boshdan kechirgan. Samarqand vohasi ham bundan mustasno bo'lmagan.

Samarqand shahri hududi va uning atrof tumanlari, xullas, Samarqand vohasi juda qadimgi zamonlardan inson ajdodining makoni bo'lib kelgan. Tadqiqotlarning natijasiga qaraganda, Samarqand vohasida odamzod avlodlari o'rta paleolit, ya'ni ibtidoiy to'da davrining ilk bosqichidan boshlab yashab kelgan. Bu degani bundan 100–40 ming yillar oldin bu voha odamzod tomonidan o'zlashtirilgan¹.

Ozodlik zamonini bergan imkoniyat tufayli har bir kishining o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishlog'i, shahri, viloyati madaniyat tarixini bilishni istab yashashi tabiiy hol bo'lib, eng qadimgi zamonlardan ajdodlarimiz aql-zakovati bilan yaratilgan madaniy va ma'naviy merosimizning ma'rifiy-tarbiyaviy an'analarga boyligi va namunali ekanligidan g'ururlanib, iftixor tuyg'usi bilan yashashga chorlaydi. Bu borada Samarqand va u bilan bog'liq vohaning qadimgi tarixiy shahar va o'lka sifatida o'tmish madaniyati tarkibiga nihoyatda boy markazlar qatoriga kirishi ilmiy tadqiqotlar natijasi tufayli isbotlangan. Shu boisdan ushbu bobda Samarqand shahri

¹ *Jo'raqulova D.M.* Mustaqillik yillarida O'zbekistonda paleolit davrining o'rganilishi. – Toshkent: Fan, 2019. 27–31-betlar.

va u bilan bevosita bog'liq vohaning eng qadimgi davrlardan boshlab ilk davlatchilik kurtaklari yuzaga kelgan davrga qadar sodir bo'lgan taraqqiyot pillapoyalarini ko'rib chiqishni maqsad qilib oldik.

Mamlakatimizning azaldan muhim tarkibiy sarhadlarini tashkil qiluvchi Zarafshon havzasi hududida ajdodlarimizning bir necha mingyilliklarga teng, boy tarixi mavjud. Bu zaminda asrlar osha jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markaziy shaharlar shakllangan. Shulardan biri Samarqand shahridir.

Samarqand insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy shahri va markazlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati, san'ati va fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan shaharlardan biridir. Bu xususiyat jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham alohida qayd qilingan. Samarqand o'zining qariyb uch ming yil tarixi jarayonida o'z boshidan ne-ne tarixiy silsilalarni kechirmadi deysiz, ammo beshafqat davrning shiddatli sinovlaridan omon qolib, ajdodlarimizning uzoqni ko'zlab yaratgan intellektual merosini, fan va madaniyatimizning yuksak ibratli fazilatlarini avlodlarga avaylab yetkazib kelayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Samarqandning qadimgi tarixi voha tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligidan kelib chiqib, voha haqida qisqacha ma'lumot keltirishni lozim ko'rdik.

Samarqand vohasi Zarafshon vodiysining o'rta qismini tashkil qilgan holda Samarqand botig'ida joylashgan bo'lib, shimoldan G'ubdintog' – Oqtog', Qoratog', janubdan Qoratepa – Zirabuloq – Ziyovuddin kabi uncha katta bo'lmagan tog'lar bilan o'rab olingan va vodiyning bu vohasi 50 km gacha kenglikni tashkil qiladi. Vohaning yer yuzi tekis, uni Zarafshon daryosi va vaqtincha oqarsoylar kesib parchalagan, ba'zi joylarida chuqur soylar va jarliklar hosil qilgan. Bu yerda neogen davrida dengiz bo'lgan.

Dengiz cho'kindisi qoldiqlari bilan bog'liq joylarni vohaning ko'pgina joylarida hozirda ham kuzatish mumkin. Jumladan, Zarafshon daryosining so'l qirg'og'ida joylashgan Cho'ponota yassi tog' massivi ana shunday yodgorliklardan biri sanaladi. Shuningdek, bunday joylar Xatirchi tumaniga tegishli Dizmon, Uchqara, Oltinsoy tog'oldi qishloqlari bilan bog'liq, suv seli o'pirib ketgan chuqur jarliklarning pastki qatlamlari kesmalarida dengiz cho'kindi jinslari va jonivorlarning – baliqlarning qatlam-qatlam umurtqa suyak qoldiqlarini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, Xatirchi tumaniga tegishli qishloqlarda ichimlik suvi olish uchun qazilgan quduqlarning pastki chuqurliklaridan ham shunday manzaralar kuzatilganligi haqida ma'lumotlar bisyor.

Alp aroenezida vodiy quruqlikka aylangan, neogen – yer geologiya tarixida oxirigidan oldingi davri yotqizilgan tog' jinslari qatlami bo'lib,

bu davr 25 million yil muqaddam boshlangan va 21,75 million yilgacha davom etgan. Oddiy qilib aytganda, neogen davri kaynozoy erasiga mansub bo'lib, paleogen davridan keyin va antropogen davridan oldin turadi¹. Bu voha o'zining jug'rofik joylanishi, tabiati, iqlim va ekologik sharoitining ma'qulligi hamda kishilik hayoti uchun turli resurslarning nihoyatda seroblighi tufayli o'rta paleolit davridan, ya'ni 350–100 ming yillar oldin odamzod e'tiborini jalb qilib kelgan. Shuni eslatib o'tish lozimki, O'zbekiston diyori antropogenez, ya'ni odamzodning evolutsion yo'l bilan asta-sekin, galma-gal shakllangan tarixiy mintaqalar qatoriga kiradi. Jumladan, Farg'ona va Ohangaron vodiylarida qo'lga kiritilgan arxeologik va antropologik manbalar – topilmalarning 1 million yillar bilan sanalanganligi bundan guvohlik beradi. Samarqand vohasida hozircha bunday eng qadimgi yodgorliklar topilmagan bo'lsa-da, lekin alohida ko'rinishdagi toshdan yasalgan mehnat quollarining kuzatilishi vohaning juda qadimgi zamonlardan boshlab odamzod tomonidan o'zlashtirilib, o'z davriga xos mahalliy madaniyat yaratilganligidan guvohlik beradi.

Arxeologik jihatdan ilk va o'rta paleolit (qadimgi tosh davri) davriga muvofiq keluvchi ibtidoiy to'da davri hisoblanadi. Odamzodning biologik tadrijiy rivojlanishi tufayli va hozirgi zamon «aqli odam» (*homo sapiens*) holatiga kelgunga qadar o'zining taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular eng oddiy tosh qurollardan foydalanganlar, qurol yasash texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirib va nafaqat tabiiy, shuningdek, sun'iy olov chiqarishni o'rgandilar. Madaniyatning dastlabki kurtaklari vujudga keldi, tafakkur va nutq paydo bo'ldi. Inson asta-sekin biologik jihatdan takomillasha bordi, eng ibtidoiy tipdan yuksak taraqqiy etgan va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan odam darajasiga yetdi. Odamzodning asta-sekin shakllanishida mehnat jarayoni muhim rol o'ynadi. Avval mehnat, so'ngra so'zlash ikkita muhim sabab bo'ldiki, bu sabablar ta'siri ostida eng ilk ajdodlarimizning miyasi asta-sekin aqli odam miyasiga aylandi.

Vohada ko'p yillar davomida bajarilgan arxeologik ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bu yerda ham O'rta Osiyo va boshqa mintaqalardagidek odamzod ibtidoiy jamiyat tuzumining barcha taraqqiyot bosqichlarini boshdan o'tkazganligini tasdiqlamoqda².

Shahar bilan bog'liq voha tarixining eng qadimgi davrlarini o'rganishda arxeologlardan D.N. Lev, A.Asqarov, M.Djuraqulov, N.Avanesova,

¹ Zarafshon vodiysi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2002. 3-tom. 675-b.

² Jo'raqulov M.J. O'rta Osiyo ibtidoiy arxeologiyasi. – Toshkent, 1984. I qism. 24-b.

N.Tashkenbayev, N.Xolmatov, R.Sulaymanovning xizmatlari ta'rifiga sazovordir.

Ibtidoiy jamiyat – ibtidoiy odamning paydo bo'lishidan to ilk davlatning yuzaga kelgunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Jamoa bo'lib mehnat qilish va jamoa bo'lib iste'mol qilish ibtidoiy jamiyatning o'ziga xos xususiyatidir. Eng oddiy mehnat qurollariga ega bo'lgan ibtidoiy odam yakka-yakka holda tabiat kuchlariga va vahshiy hayvonlarga qarshi kurasha olmas edi. Shuning uchun ham ibtidoiy odamlar to'da bo'lib birlashib, jamoa-jamoa bo'lib mehnat qilib, o'z mehnatlarining mahsulini teng taqsimlar va iste'mol qilar edilar.

Samarqand bilan bog'liq voha ibtidoiy davr tarixi jahonning boshqa mintaqalari singari uch taraqqiyot bosqichidan iborat bo'lib kechganligini ko'rsatish mumkin: uning eng qadimgisi – ibtidoiy to'da bo'lib yashash davri bo'lsa, ikkinchi bosqichi urug'-jamoa bo'lib yashash davri edi. Urug'-jamoa davri, o'z navbatida, ikki taraqqiyot bosqichidan – ona urug' jamoasi (matriarxat) va ota urug' jamoasi – patriarxat tuzumlari davrlaridan iborat bo'lgan.

Vohada ibtidoiy to'da davri 500–50 minginchi yillarni o'z ichiga olib, bu davrga doir qator yodgorliklar – makon, manzilgohlar topib o'rganilgan va ulardan olingan materiallar vohada yashagan ibtidoiy odamzod vakillarining turmush tarzi, hayoti, mashg'uloti, xullas, madaniyat tarixini tiklashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu davrda vohaning tog'li va tog'oldi mintaqalari, shuningdek, adir va tekisliklardagi zilol suvli chashma atroflari, baliq va parrandalarga serob daryo sohillari, xullas, yashash resurslariga boy ekologik burchaklar odamzod tomonidan keng doirada o'zlashtirilgan. Masalan, aynan shu davrga doir odamzod guruhlarining manzilgohlari Urgut tog'ining Omonqo'ton, Takalisoy, Go'rdara g'orlaridan O'rta Zarafshon havzasining Zirabuloq, Qo'tirbuloq va boshqa joylarda ham ko'plab topilgan. Bu yodgorliklar vohada yashagan ibtidoiy to'da odamlarining turmush madaniyati haqida qiziqarli ma'lumotlar berdi. Ma'lum bo'ldiki, ular to'da-to'da bo'lib, birlashib hayot kechirganlar. Bu davrning oxirgi bosqichlariga kelib mehnat qurollari ancha takomillashadi, oddiy qo'l cho'qmori bilan birgalikda turli qurollar: pichoq, nayza tig'i, qirg'ich, randa kabi qurollar kashf qilindi. Lekin hamon mehnat qurollarining zaifligi yirik hayvonlarni birgalashib ov qilishni talab qilardi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan hali ularda tartibsiz «nikoh» alomatlar hukmron edi. To'da bo'lib yashash muayyan tartibga itoat etilardi. Har bir to'daning sardori bo'lgan. U, avvalo, chaqqon ovchi, to'dani boshqarishga qobiliyatli,

ov mahsulotlarini to'da a'zolariga teng taqsimlashni to'g'ri hal etuvchi, to'da manfaati uchun xizmat qiladigan, tashkilotchi, kuchli va ziyrak bo'lishi talab qilinardi. Turli ozuqabop narsalarga terimchilik va ovchilik qilib yashardilar¹. Ovdan, terimchilikdan kelgan mahsulot to'da o'rtasida teng taqsimlanib, iste'mol qilinardi. Iste'moldan tashqari mahsulotning o'zi bo'lmagan.

To'dada odamlar muayyan bir joyda, turli ozuqabop narsalarga, hayvonot dunyosi boy ekologik burchaklarda qo'nim topib yashaganlar. Masalan, Omonqo'ton g'or makoni uchta, Qo'tirbuloq makoni beshta madaniy qatlamdan iboratligi bundan guvohlik beradi. Ular bu davrda nafaqat tabiiy g'orlarda, shuningdek, chashma atroflari va daryo qirg'oqlarida kulbalar qurib yashaganlar. Bir kulbada muayyan guruh yashagan. Bu davrda O'rta Osiyo, shuningdek, Samarqand vohasiga ham abadiy muzliklarning ta'siri katta edi. G'or makonlaridan tashqarida yashagan to'dalar daraxt shox-shabballari, qamish, hayvon terisidan foydalanib, kulbalar qurishni o'zlashtirganlar. Har bir kulba bir to'da a'zolarining makoni bo'lgan. Ulardan qolgan madaniy qatlamlar bizgacha yetib kelgan. Madaniy qatlamlar makonda yashagan odamlarning turmush faoliyati bilan bog'liq qoldiq ashyo topilmalardan iborat. Bu davrda ibtidoiy odamlar faqat tabiiy olovdan foydalanib qolmasdan, sun'iy olov chiqarishni kashf qilgan va bu hodisa insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu davrdan boshlab odamlar ov mahsuloti bo'lgan go'shtni chala pishirib yeyishni o'rgandilar.

Darhaqiqat, barcha g'orlarda ham odamlar yashamagan. Buning uchun turli talablarga javob beradigan sharoit mavjud bo'lishi shart edi. Bu davrdagi odamlar faqat tagi tuproq (yer), kirish-chiqish og'ziga quyosh nuri tushib turgan, uning atrofida zilol suvli chashmalar, atrofi ovchilik va terimchilik uchun turli ozuqabop narsalarga serob ekologik burchaklardagi g'orlarda yashagan. Masalan, Urgut, Qoratepa, Ingichka tog' tizmalarida 200 dan ko'proq g'orlar borligi aniqlangan. Biroq aytilganidek, ibtidoiy davr yashash talablariga javob beradigan uchta – Omonqo'ton, Takalisoy, Go'rdara g'orlaridan odamlar makon sifatida foydalanganliklari ma'lum².

¹ Jo'raqulov M.J., Avanesova N.A., Amirqulov B.A. Zarafshon vohasining ibtidoiy madaniyati. – Samarqand, 1995. 13–16-betlar.

² Ташикентцев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, 1980. С. 3–8; Лес Д.Н. Пещера эпохи палеолита вблизи г. Самарканда. «Природа», № 6. – М., 1953. С. 12.

Bu davr odamlarining hayot tarzi aslida o'zlashtiruvchi xo'jalikdan iborat edi. Ular tabiatdagi tayyor oзуqabop narsalardan foydalanib hayot kechirganlar. Shunga binoan ularning qurollari ham hali ancha zaif edi. Ular tosh cho'qmorlardan, tayoqdan, hayvon suyaklaridan qurol sifatida foydalanganlar. Toshni, odatda, sifatli chaqmoqtoshni parchalab, qirg'ich, pichoq, randa, nayza tig'i kabi qurollarni yasashni bilganlar, shu bilan bir vaqtda bu jarayon asta-sekin doimiy takomillashtirilib borilgan.

Paleobotanika, paleozoologiya fanlarining ma'lumotlariga qaraganda, bu davrda Samarqand vohasi turli hayvonot, mevali o'simlik dunyosiga, daryolari esa turli baliqlarga boy bo'lgan. Manzilgohlardan olingan manbalarga qaraganda, ular fil, ot, buqa, ayiq, cho'chqa, bug'u, tog' qo'yi, bo'ri, tulki, jayron kabi jonivorlarni ov qilganlar. Omonqo'ton, Qo'tirbuloq kabi makonlardan topilgan hayvonot dunyosi suyak qoldiqlari shundan guvohlik beradi. Hayvon terilaridan nafaqat kulba, shuningdek, kiyim-kechak tikib, foydalanishni bilganlar. Vahshiy, yirik hayvonlarni ov qilish to'da odamlarining hamjihatlikda birikib ish ko'rishini talab qilardi. Ovchilikda turli usullardan, jumladan, yirik hayvonlarni odatda chashmalar atrofida chuqurlar qazib, ichlariga nayzalarni qadab qo'yib, ustlarini daraxt shoxchalari, xashak va qamishlar bilan bekitib, ov obyektlarini shunday xandaqlarga to'da bo'lib cho'chitib haydash kabi usullardan keng foydalanganlar. Olov yordamida cho'chitib ov qilish usuli keng tarqalgan. Baliqlarga serob daryolar oзуqasidan ham keng foydalanganlar. Ov qilishda ko'pincha uchiga tosh paykon biriktirilgan uzun nayzalardan, qo'l cho'qmorlaridan, tosh irg'itadigan palaxmondan foydalanishgan. Bu davr odamzod to'dalarining hayotida ijtimoiy nuqtayi nazardan qaralganda, yuqorida zikr etilganidek, hali kuchli tartibsiz biologik munosabatlar hukm surardi. Shuning uchun ham bu davrni aralash qon-qardoshlik tuzumi hukm surgan davr deb bilsa ham bo'ladi. Bu davrda ibtidoiy diniy tasavvurlarning paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Dastlab jonga, ruhga, shuningdek, hayvon zotlariga, ayrim predmetlarga, olovga hamda o'simliklarga, quyoshga, oyga, sayyoralarga, shamolga sig'inish alomatlari vujudga keladi. Masalan, aynan shu davrga doir Teshiktosh g'or makoni odamzod to'dalari tog' echkisiga sig'inishgan.

Bu davr odamzod to'dalari muayyan vohada tanho yashamagan, ular qo'ni-qo'shni, shuningdek, boshqa viloyatlarda yashagan to'dalar bilan o'zaro madaniy aloqalar olib borgan. Masalan, Surxondaryodagi Teshiktosh g'ori, Tojikistondagi Og'zikichik, Chirchiq vodiysidagi Obirahmat g'or makonlaridan topilgan mehnat qurollarining yasalish texnologik uslubi

Samarqand vohasida uchrashi ham olimlar tomonidan aniqlangan. Omonqoʻton, Takalisoy, Qoʻtirbuloq, Zirabuloq makonlaridan topilgan tosh qurollarga yaqin oʻxshashligi bundan guvohlik beradi¹.

Ibtidoiy toʻda odamlarining tadrijiy rivojlanish va hozirgi zamon aqlli odamlarining shakllanishida mehnat asosiy rol oʻynagan. Bu davrda har bir goʻshada yashagan odamzod toʻdalari muayyan, oddiy, hali uncha boy boʻlmagan nutqqa ega boʻlganlar. Nutqning paydo boʻlishi mehnat jarayonining mahsuli edi. Ular hali sanoqni, hisoblashni oʻzlashtirmagan boʻlsalar-da, lekin hayvon, daraxt turlarini oʻrganib, tabiatda nimalar borligini idrok qila bilgan. Shu yoʻnalishda asta-sekin mavhum tushunchalar rivojlana borgan.

Ibtidoiy toʻda davrida undan keyingi urugʻ jamoalari turmushida mehnat qurollarini yasash uchun sifatli tosh, xususan, chaqmoqtosh (bovurtosh) muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan shu davrda toʻdalararo chaqmoqtosh xomashyosi almashuvi yuzaga kelgan. Masalan, Navoiy shahriga yaqin Uchtut qishlogʻi atrofida joylashgan paleolit va neolit davrlariga tegishli chaqmoqtosh ustaxonasi xomashyosidan yasalgan ayrim qurollarning vohadagi Zirabuloq, Qoʻtirbuloq makonlaridan topilishi bundan guvohlik beradi.

Bu davrda yashagan odamzod jamoalari oʻz davriga nisbatan yuksak madaniyat, xoʻjalik sohiblari boʻlganlar. Ular toshdan turli qurollar yasashning ustalari boʻlishgan. Bu hodisa ularning nutq, madaniy, maʼnaviy dunyosining oʻz davriga nisbatan boshqa mintaqalarga qaraganda yuksakligidan guvohlik beradi.

Ilmiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, vohada keyinchalik yashagan urugʻ-jamoalari joyli, mahalliy odamzod toʻdalarining merosxoʻrlari ekanligini koʻrsatmoqda. Demak, vohada kishilik hayoti uzluksiz rivojlanishda boʻlgan. Bu tarixiy jarayonni jamoalarning mehnat qurollarini ishlab chiqishdagi texnik va texnologik uslublarida kuzatish mumkin. Demak, ibtidoiy toʻda va dastlabki urugʻchilik tuzumining boshlanish davrida tashkil topgan madaniy va maʼnaviy, xoʻjalik oʻzgarishlar oʻzga yurtlardan kirib kelgan emas, balki oʻz davrida yashagan ajdodlarimizning aql-zakovati mahsulidir, deb bilish lozim.

Ilk va oʻrta paleolitdan uning soʻnggi bosqichiga oʻtish davrida tosh qurollarni yasashda, ovchilik xoʻjaligida ancha yutuqlarga erishildi. Ibtidoiy toʻdadan soʻnggi paleolitga oʻtish davrida ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasi ancha oʻzgarib, taraqqiy etdi. Oʻrta Osiyoda, jumladan, Oʻzbekistonda ibtidoiy jamiyatning har bir davriga mansub mehnat

¹ *Ташкентбаш Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. - Ташкент, 1980. С. 94-95.*

qurollari, odamzod guruhlarining makon va manzilgohlari, shuningdek, o'sha davr odam qoldiqlari ko'pgina joylardan, jumladan, Farg'ona vodiysidagi Seleng'ur g'orida, Chirchiq vodiysidagi Obirahmat, Surxondaryoning Boysun tog'ida joylashgan Teshiktosh g'orida va boshqa joylarda topildi¹.

Hozirgi vaqtdan 50 ming yillar avval ibtidoiy to'da davrining oxirlariga kelib, mehnat qurollarining takomillashuvi va abstrakt tushunchaning yuzaga kelishi natijasida urug'chilik tuzumi yuzaga keladi. Tarixan aslida birinchi ijtimoiy-iqtisodiy birlashma ibtidoiy urug'chilik jamoasi edi. U urug' jamoalarining paydo bo'lishidan to' ilk davlatchilik asoslarining shakllanishiga qadar bo'lgan davrni – 50 minginchi yillardan miloddan avvalgi II mingyillik oxiriga qadar davrni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy to'da davrida ishlab chiqarishning o'zi bo'lmagan. Bu davr odamzodning uzoq davom etgan tadrijiy shakllanish bosqichi bo'lib, u haqiqatan ibtidoiy jamiyatga o'tish davri hisoblanadi.

Voha tarixida ham shunday. Urug' jamoasining rivojlanishi davomida insoniyat hayotida juda katta sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu davrda dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtagi paydo bo'ldi. Bu kurtak urug' jamoasining tarkib topishiga asos solgan onalar atrofida yuz berdi. Shuning uchun ham urug'chilik jamoasining bu ilk fazasi ona urug'i – matriarxat deb ataldi. Urug'chilikning birinchi tadrijiy rivojlanish fazasida ishlab chiqarish munosabatlari to'laligicha urug' manfaatiga mos tushadi. Jamoada ijtimoiy ishlab chiqarish hukmron edi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri urug'-jamoada, oilada, urug'da, ishlab chiqarishda, bola tarbiyasida onalar hukmron edi. Matriarxatda ayollar hukmronligiga ega bo'lgan, mulk va nasl-nasab ijtimoiy mavqeyi ona urug'i bo'yicha o'tgan, nikohdan so'ng er xotin jamoasiga ko'chgan (matriallokal nikoh) yoki er va xotin o'z jamoasida alohida-alohida yashagan. Xullas, matriarxat (lotincha *mater* – ona va yunoncha *arche* – ibtido, hokimiyat) aynan ona hukmronligi, asosan, ibtidoiy jamiyatning ilk davridagi ijtimoiy tuzum shakllaridan biridir².

Ilk urug'chilik jamoasi davrida odamzod birinchi bor amaliy san'atni kashf etdi. Ya'ni san'at dastlab ayol haykallarini tosh, fil suyagi va boshqa suyaklardan yasashdan, birinchi navbatda homilador ayol tasvirini ishlashdan boshlandi. Bu davrning boshqa bir o'zgarishi odamzodning

¹ Jo'raqulova D.M. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda paleolit davrining o'rganilishi. – Toshkent: Fan, 2019. 14–17-betlar.

² Периц А.И. и др. История первобытного общества. – М., 1968. С. 21; Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 1994. 22-b.; Морган А.Г. Древнее общество. – Лондон, 1877. С. 6.

biologik jismoniy tuzilishida ro'y berdi, ya'ni yevropeoid, negroid va mongoloid irqi shakllandi va nihoyat eng qadimgi ajdodlarimiz tabiiy boshpanalarni tark etib, ma'lum mintaqalarda o'zlari uchun kulba yasash yo'lini kashf qildilar. Ibtidoiy ajdodlarimiz hayotidagi bu inqilobiy o'zgarishlar ona urug'i – matriarxatning dastlabki mingyilliklari davomida, ya'ni miloddan avvalgi 50–40 mingyilliklarda sodir bo'ldi. Ibtidoiy to'da davrida ilk ajdodlarimiz o'rtasida biologik aloqalar cheklanmagan, tartibsiz holda yuz bergan bo'lsa, ibtidoiy urug'chilik jamoasi tarkib topishi bilan odamlar o'rtasidagi biologik aloqalar endi ikki urug' jamoasi a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan bo'ldi. Uzoq davom etgan bu nikoh tartibi va axloq normalari ona urug'i doirasida erkaklar rolining kuchayishiga olib keldi. Iqtisodiy hayot tashvishlari endi erlar qo'lida jamlandi. Erkaklar iqtisodiy xo'jalik jilovini o'z qo'llariga oladilar va ularning farzandlari oldidagi nufuzi ortib boradi. Xullas, ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida urug' jamoalari xo'jaligida qo'shimcha daromad paydo bo'ladi, u esa, o'z navbatida, mol ayirboshlashni keltirib chiqaradi. Ana shu davrdan boshlab urug'larning qabilalarga birlashishi boshlanadi. Qabilalararo iqtisodiy aloqalar vujudga keladi va ularning oqibat natijasi sifatida kishilik tarixida harbiy demokratiya davri boshlanadi. Bu inqilobiy o'zgarishlar otalar urug'i (patriarxat)ga xos bo'lib, ular ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminida dehqonchilik va chorvachilikning kashf etilishi bilan bog'liq edi.

Ibtidoiy urug' jamoalariga taalluqli yodgorliklar – makon va manzilgohlar vohaning turli joylaridan, jumladan, Samarqand shahrining sobiq kashshoflar binosi atrofidan, Siyobcha arig'ining o'ng qirg'og'idan, Bulung'ur tumanining Xo'jamazgil qishlog'i atrofidan, Qoratepa-Sazag'on tog'i shimoli-sharqiy massivlaridan 30 dan ortiq manzilgohlar, Darg'om kanali atrofidan, Urgut tog'ining Ilonsoy darasidan va boshqa joylardan topilganligi urug'-jamoalar vohaning deyarli barcha ma'qul ekologik burchaklarini keng doirada o'zlashtirib yashaganligidan guvohlik beradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu urug'-jamoalar shu vohada yashagan ibtidoiy to'da ajdodlarning merosxo'rlari bo'lib, ular tabiiy g'orlarda hamda oddiy chaylasifat kulbalarda yashaganlar. Har bir makonda bir urug' jamoasi yashagan.

Urug' jamoasiga tegishli manbalarga eng boy makonlardan biri Samarqand shahridan oqib o'tadigan eski Siyobcha arig'ining o'ng sohilida joylashgan Samarqand so'nggi paleolit davri makoni nomi bilan tarixga kirgan yodgorlik hisoblanadi. Makonni tadqiq qilish ishlari 1958-yildan 1972-yilgacha davom ettirildi, 1967-yilgacha arxeologik ishlarga D.N. Lev rahbarlik qilgan bo'lsa, 1967-yildan 1972-yilgacha – M.D. Djuraqulov bosh-

chilik qildi. 1958-yildagi qazishma N.G. Xarlamovning 1939-yilda yotqizilgan qazishmasiga tutashtirilgan holda amalga oshirildi¹. Tadqiqotlar davomida Samarqand makonining stratigrafiyasi aniqlandi; unda uchta madaniy qatlam aniqlanib, ular sof qatlamlar bilan ajratilgan edi. «Makonning madaniy qatlamlari ikkita yassi tepaliklar ustida joylashgan katta konsentratsiyani tashkil qiladi», tadqiqotchilar ularni soʻnggi paleolitning boshlariga taalluqli deb hisoblashadi². Stratigrafik holatni bunday talqin qilish S.A. Nesmeyanovning fikricha, toʻgʻri emas³.

1967-yilda Samarqand makonining quyi madaniy qatlamini radiokarbon usuli yordamida davrlashtirish ishlari amalga oshirilgan (Oʻzbekistonda birinchi marotaba) va u 38 mingyillik sanani bergan. Ushbu radiokarbon sana D.N. Lev tomonidan tosh buyumlar kolleksiyasini tahlil qilish asosida nisbiy davrlashtirish hamda geolog A.A. Yuryevning (u tomonidan Chashmasiyobning less yotqiziqlari Yalangdasht yarusiga oid deb topilgan edi va bu yuqori pleystotsen davriga toʻgʻri keladi) maʼlumotlariga mos keladi⁴.

1962-yilda makondan odamning tishi, yelka suyagi boʻlagi va 9 ta tishli pastki jagʻning bir qismi topilgan. V.V. Ginzburgning aniqlashicha, suyak qoldiqlari, 25 yoshlardagi kromanyon ayolga tegishlidir. 1966-yilda bu yerdan 10 ta yaxshi saqlangan tishlarga ega pastki jagʻ topildi. V.Y. Zezenkovaning aniqlashicha, u birinchi topilgan jagʻga oʻxshash va 35 yoshlardagi erkak kishiga tegishli⁵. Tish apparatining odontologik tahlili ularning *Homo sapiens* ga tegishli ekanligini tasdiqladi⁶.

Makonning tosh buyumlari kolleksiyasi bir necha mingni tashkil qilib, baxtga qarshi hanuz ular haqida barcha mavjud materiallarning tahlilini qamrab olgan va umumlashtirilgan ilmiy ish qilinmagan. Tasnif qilingan materiallar asosida quyidagi xarakterli xususiyatlarni ajratish mumkin.

¹ Лев Д.Н. Поселение древнекаменного века в Самарканде. Исследования 1958–1960 гг. // Труды Самаркандского Государственного университета. Новая серия. – Самарканд, 1964. – Вып. 135. С. 5–108.

² Джуракулов М.Д., Сулейманов Р.Х. Новые находки останков первобытного человека на Самаркандской палеолитической стоянке // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1973. – № 10. С. 23.

³ Рапов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе, 1973. С. 88–90.

⁴ Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987. С. 21.

⁵ Гинзбург В.В., Гохман И.И. Костные останки человека из Самаркандской палеолитической стоянки. Проблемы этнической антропологии и морфологии человека. – Л.: Наука, 1974. С. 42.

⁶ Зубов А.А., Гохман И.И. Некоторые дополнительные одонтологические данные в связи с описанием костных останков человека с палеолитической стоянки Самарканд // Вестник антропологии. Научный альманах. – М.: Наука, 2003. – № 10. С. 68–79.

Kolleksiyaning nukleuslari orasida parallel yoki qarama-qarshi tarzda chaqmoqlangan bir yoki ikki zarb maydonlilari ko'pchilikni tashkil qiladi. Yo'nilg'ilari asosan uchirindilardan iborat va ikkilamchi ishlov berilgan buyumlarning foizi yuqori¹. Samarqand makonining farq qiluvchi xususiyati tarixshunoslikda ko'p bora ta'kidlanganidek, uning industriyasida ma'lum foiz chopperlar va choppinglardan iborat bo'lgan galkali qurollarning mavjudligidir². Texnik-tipologik xarakteristikasiga ko'ra Samarqand makoni industriyasi doirasiga Siyobcha va Xo'jamazgil ham kiritilgan.

Samarqand makoni yuqori paleolitning asosiy yodgorligi hisoblanadi, negaki bu yerda boy tosh buyumlar kolleksiyasi mavjud va nisbatan aniq stratigrafiya kuzatiladi. Shuning uchun ham Samarqand makoni madaniy-davriy sxemalarning asosiga qo'yilgan ko'p yillik qazishmalar tufayli makondan 10 mingdan ziyod toshdan ishlangan ashyolar, aksariyati mehnat qurollari, paleontologik va antropologik topilmalar qo'lga kiritilgan. Mehnat qurollarining ko'rinishi o'sha davr mahoratli ustalari qo'llagan texnik-texnologik asosda yasalganligidan guvohlik berib, bu qo'llagan texnik madaniyat butun O'rta Osiyo miqyosida etalon – namuna bo'lganligi fanda tan olingan³. Makondan bu davrga oid odam qoldiqlarining topilishi alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi⁴. Bu makon 3 ta madaniy qatlamga ega yodgorlik.

Samarqand makonida kamida 3 ta urug' jamoasi qo'shni bo'lib yashaganlar. Kulba uchun foydalanilgan ustun va o'choq qoldiqlarining mavjudligiga qaraganda, ularning har biri o'z kulbalariga ega bo'lib, kulbalarning har birida 30–45 kishi hayot kechirgan. Har bir kulba o'rtasida urug' jamoasi «o'chmas» muqaddas olovli o'chog'i bo'lib, shuningdek, uning

¹ Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987. С. 172.

² Рапов В.А. Галечная техника в культурах каменного века Сибири и Средней Азии // Сибирь и ее соседи в древности. – Новосибирск: Наука, 1970. – Вып. 3. С. 17–26; Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987. С. 172; Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratum plus. – 2000. – Вып. 1. С. 385–462.

³ Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит среднего Зарафшана. – Ташкент, 1991. С. 89–91.

⁴ Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент, 1987. С. 3–5; Jo'raqulova D.M. Zarafshon vodiysining tosh va bronza davri madaniyati. – Toshkent, 2011; Джуракулов М.Д., Сулейманов Р.Х. Новые находки ископаемого человека на Самаркандской верхнепалеолитической стоянке / ИМКУ, вып. 10. – Ташкент, 1973. С. 12.

atrofida har bir juft oilaning ham o'z o'chog'i bo'lgan. Makondan topilgan qizil tabiiy bo'yoqlarning mavjudligiga qaraganda, ular bu bo'yoqlarni hayvon yog'i bilan aralashtirib ishlov berib, olovda toblab, o'zlarining yuzlarini, badanlarini, mehnat qurollarini bo'yashda foydalanganlar. Ayollar uy ishlari va bola tarbiyasidan tashqari ozuqabop narsalar topishgan, terimchilik ishlariga qatnashganlar, hayvon terilariga ishlov berib, ulardan kiyim-kechaklar tikishgan. Paleobotanika va paleozoologiya fanlarining, shuningdek, arxeologik manbalarning o'rganilishiga qaraganda, o'sha zamonlarda makon atrofi turli mevali to'qayzorlar va o'rmonlardan iborat bo'lib, hayvonot olamiga boy bo'lgan. Makondan topilgan va ov obyektlari bo'lgan hayvonlardan ot, buqa, ayiq, bug'u, fil, bo'ri, tulki, jayron kabi jonivorlarning olovda toblangan suyak qoldiqlari bundan guvohlik beradi. Bu jamoalar o'z mehnat qurollarini yasashda Cho'ponota yassi tog' balandligida joylashgan chaqmoqtosh konidan ham foydalanganlar. Samarqand makonidan o'rta yoshlarga taalluqli ikkita ayol kishiga tegishli odamlarning jag', boldir suyaklarining topilishi fan uchun juda ahamiyatli manbalar hisoblanadi.

Samarqand makonidagi urug'-jamoalar tanho yashamaganlar. Masalan, bu jamoalarning madaniyat izlari shaharga qarashli g'isht zavodi atrofidan, Dahbed ko'chasidan, Registon maydonining turli joylaridan, Afrosiyob shaharchasi hududidan topilganligi bu atrofda kamida 6-8 ona urug'i jamoalari keng doiradagi joylarni o'zlashtirib yashaganlaridan guvohlik beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, faqat Samarqandning qadimgi hududida 10-12 ta urug'-jamoalari bir-birlari bilan yaqin va qizg'in aloqadorlikda yashaganlar.

Samarqand urug'-jamoalarining makonidan topilgan turli-tuman va shakl-shamoyilga ega mehnat qurollarining yuksak did bilan ishlab chiqilganligi bu jamoalarning mehnat qurollarini yasashda o'z davriga nisbatan, aytish mumkinki, yuksak texnologiyadan foydalanganligidan guvohlik beradi. Samarqand makoni urug'-jamoalarining mehnat qurollarini yasashda qo'llanilgan bu texnologik madaniyat voha bo'ylab, shuningdek, qo'ni-qo'shni jamoalar turmushiga ham kirib borganligini ko'rsatmoqda. Masalan, Ohangaron vodiysidagi Ko'lbuloq, Janubiy Tojikistondagi Og'zikichik g'or makonlarida yashagan urug'-jamoalar orasida bu texnologiya usuli keng qo'llanilgan. Bu hodisani ularning mehnat qurollari yasalish texnikasida Samarqand urug'-jamoalarining qurol ishlab chiqarish an'analarini kuzatish mumkin¹.

¹ Тамкенибев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, 1980. С. 4-5.

Samarqand makoni aholisi san'at bilan ham tanish bo'lgan. Makondan dengiz chig'anoq'ini hamda hayvon suyagidan yasalgan ma'jonlarning topilishi bundan guvohlik beradi. Bu yerdan topilgan dengiz chig'anoqlarining asl vatani Hind okeani va Qizil dengiz ko'rfazlari ekanligiga qaraganda, Samarqand urug'-jamoalari uzoq-yaqindagi qo'ni-qo'shni ibtidoiy jamoalar bilan o'zaro madaniy aloqalarni qizg'in olib borgan. Xullas, Samarqand urug'-jamoalarining qurol ishlab chiqarishdagi yuksak texnologik usullari an'analarning mavjudligi bundan guvohlik beradi.

Samarqand urug'-jamoalarining merosxo'rlari miloddan avvalgi XII-IV mingyilliklarda vohaning tog'oldi massivlarini keng doirada o'zlashtirib yashaganlar. Bu davr ona urug'dosh jamoalarining matriarxat tuzumi gullab-yashnagan bir necha urug'-jamoalarining birlashmalaridan qabilaviy birlashmalar yuzaga keladi.

Urgut-Ingichka tog'lari shimoliy-sharqiy massivlarida bu jamoalarga tegishli 30 dan ziyod manzilgohlar topilgan va tekshirish ishlari davom ettirilmoqda. Shu kungacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu mintaqada yashagan jamoalarning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma'naviy dunyosini ifodalab beruvchi boy manbalar qo'lga kiritildi. Xullas, bu taraqqiyot davriga kelib, mintaqada urug'-jamoalari hayotida keskin o'zgarish va yutuqlar yuz bergan. Jumladan, kulolchilik kashf qilindi, ip yigirish, to'qimachilik dastgohlari, toshni silliqlash, parmalash yo'li bilan turli qurollar ishlab chiqish paydo bo'ldi. Hayvonlarni xonakilashtirish asosida uy chorvachiligi tashkil topdi, ziroatchilik paydo bo'ldi. Ibtidoiy san'at yanada rivoj topdi. Jamoalararo madaniy aloqalar yanada tezlashib, kuchaydi. Ijtimoiy hayotda o'zgarishlar yuz berdi. Xullas, avval hayotda hukmron bo'lgan o'zlashtiruvchi xo'jalik o'rniga ishlab chiqarish jarayoni yuzaga keldi. Shuning uchun ham bu davrni ingliz olimi G.Chayld «neolit inqilobi» deb atagan.

Kulolchilikning kashf qilinishi bilan kishilar chorva mahsulotlarini saqlash, ovqatni pishirib iste'mol qilishga o'tdilar. To'qimachilikning yuzaga kelishi ortidan zarur kiyim-kechak, ust-boshlarga, ziroatchilik va chorvachilikning kashf qilinishi bilan o'zlariga zarur oziq-ovqat zaxirasiga ega bo'ldilar. Mavhum tushunchaning rivojlanishi, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida mehnat unumdorligi muayyan tarzda oshdi. Kishilarda tabiat hodisalariga nisbatan o'z fikrlarini bildirish qobiliyati paydo bo'ldi. Uzoq-yaqin jamoalar bilan o'zaro aloqalar bog'lashda sayyoralardan «yo'l ko'rsatkich» sifatida foydalanishni bilib olishdi.

Dehqonchilikning kashf qilinishi nafaqat ularni ozuqa bilan ta'minlar edi, balki jamoalarning muayyan o'troqlashib yashashiga zamin yaratdi. Sazag'on-Qoratepa tog'oldi massivlarida yashagan urug'-jamoalar Zarafshon vodiysida yashagan urug'-jamoalari orasida dehqonchilikni kashf qilgan dastlabki jamoalardan bo'lib chiqdi. Bu atrofda o'rganilgan makonlardan topilgan yorg'uchoq, tosh o'roq tig'lari, kelisop, non yopadigan silliq yalpoqtoshlarning olovda toblangan nusxalarining topilishi shundan guvohlik beradi. Avvallari O'rta Osiyoda dastlabki dehqonchilikning paydo bo'lishi Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' etaklarida yashagan Joyitun urug'-jamoalari hayotidan izlanar edi. Tadqiqot manbalari Zarafshon vodiysi va uning Samarqand vohasi ham eng qadimgi dehqonchilik yuzaga kelgan markazlardan biri ekanligidan guvohlik bermoqda. Bu yerda yashagan ajdodlarimiz mil. avv. IV minginchi yillardayoq o'troq dehqonchilikni kashf qilib, sivilizatsiya sari dadil qadam tashlaganini ko'rsatmoqda. Bu mahalliy jamoalar tariq, no'xat, arpa, javdar, bug'doy kabi donli o'simliklardan foydalangan bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga ovchilik ham o'z kuchini to'la saqlab qolgan. Sazag'on, Jangal, Tapaqul kabi makonlardan echki, tog' qo'yi, to'ng'iz, bo'ri, jayron, tulki kabi jonivorlarning suyak topilmalari bundan guvohlik beradi. Bu jamoalar mayda tuyoqli jonivordan echki, qo'y, shuningdek, it kabi jonivornlarni xonakilashtirishni bilishgan.

Yuqorida zikr etilganidek, Sazag'on-Qoratepa tog'lari shimoliy-sharqiy tog' bag'ri massivlarida 30 dan ko'proq mezo-neolit davri manzilgohlari topilgan. Har bir manzilgohda bir ona urug'i jamoasi yashagan bo'lib, o'zlarining chaylasifat kulbalariga ega bo'lgan bo'lishlari mumkin. Aynan shunday jarayonni Zarafshonning Mohandaryo o'zani qirg'oqlarida yashagan jamoalar hayotida kuzatish mumkin bo'ldi. Jumladan, Darbozaqir I, Darbozaqir II nomi bilan atalgan makonlarda 100-120 kishi yashaydigan kulbalar topilgan¹.

Kulbalarni tiklashda yog'och ustunlardan va qamishdan qurilish materiallari sifatida foydalanilgan. Har birida bitta urug'-jamoasi yashagan va kulbaning o'rta qismida «o'chmas olovli» muqaddas o'choq bo'lgan, uning atrofida esa har bir juft oila o'z o'choqlariga ega bo'lganlar.

Shuni takroran bo'lsa-da, alohida qayd etish lozimki, urug'chilikning birinchi tadrijiy rivojlanish fazasida ishlab chiqarish munosabatlari to'laligicha urug'-manfaatiga mos tushadi, jamoada ijtimoiy ishlab chiqarish hukmron. Endi urug' ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida ishlab chiqarish munosabatlari asta-sekin urug' manfaati doirasidan chiqa

¹ Гулямов Я.Г., Исмаилов У.И., Асқаров А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент, 1966. С. 41-44.

boshlaydi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ibtidoiy jamoa xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi, rivojlanishi, jamoada ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi va bozor munosabatlarining tarkib topishi bilan bog'liq edi.

Bu davrga kelib, ya'ni mil. avv. IV mingyillik oxiri va III mingyillik boshlarida xo'jalik hayotiga metallning kirib kelishi juda muhim rol o'ynadi. Eng muhimi, hayotda metall qurollardan keng foydalanish mehnat unumdorligini keskin oshirishga olib keldi, sug'orma dehqonchilik rivojlandi. Chorvachilik xo'jalikning muhim sohasiga aylandi. Vohalarda aholisi ko'p bo'lgan yirik qishloqlar qad ko'tardi, ularning aksariyatida hunarmandchilik tashkil topdi. Bu taraqqiyot aholi orasida kasbiy tabaqalanishning yuzaga kelishiga olib keldi. Dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlarning o'zaro mol almashuv aloqalari kuchaydi.

Sazag'on-Qoratepa tog'oldi hududlarida yashagan urug'-jamoalar g'alla donlaridan non pishirishni bilishgan. To'g'ri, bu vaqtda hali non yopish tandirlari kashf qilinmagan edi. Lekin ular yalpoq, usti silliq toshlarni olovda toblab, xamirdan «non» pishirishni bilishgan. Makonlardan yorg'uchoq, kelisop, tosh o'roq tig'lari hamda bir tomoni olovda toblangan silliq yalpoq toshlarning topilishi bundan guvohlik beradi.

So'nggi paleolit, ya'ni bundan avvalgi 50 ming yillar oldin paydo bo'lgan san'at neolit, ya'ni miloddan avvalgi IV mingyillikka kelib ancha rivojlandi. Kishilarning tabiatni, uning hodisalarini idrok qilishi ancha kuchaydi. Tasviriy san'at rivojlandi. Jumladan, Navoiy shahriga yaqin joydagi Sarmishsoyda, Xatirchi tumaniga qarashli Oltinsoy, Uchqara, Dizmon kabi tog'li qishloqlar atrofida qoyatoshlarga solingan suratlarini ko'plab uchratish mumkin. Suratlarida turli hayvonlarning ov jarayoni va har xil «diniy» marosimlar tasvirlangan. Odatda suratlar toshni qirish, cho'kichlash, silliqlash kabi texnik usullar orqali bajarilgan. Bunday suratlar esa bo'yoqlarda chizilgan.

Xullas, so'nggi paleolit urug'chilikning gullagan davri, ya'ni qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichidan keyin kelgan mil. avv. XII-VI mingyilliklarda mezolit (o'rta tosh asri), neolit (yangi tosh asri) davrlari matriarxat davri hisoblanib, bu davrda urug'chilik jamoasi ancha uyushqoq ijtimoiy-iqtisodiy kurtakka aylangan bo'lib, kishilar birgalikda mahsulot tayyorlar va iste'mol qilar edi. Ular ovchilik, baliqchilik, terim-termachilik bilan shug'ullanganlar. Keyinchalik esa motiga bilan yer haydab, dehqonchilik qilganlar va uy hayvonlarini boqib, tirikchilik o'tkazishgan. Matriarxatning rivojlangan davrida mehnat taqsimoti tufayli xo'jalikda va jamiyatda ayollar muhim rol o'ynay boshladi. Ibtidoiy guruh-guruh oiladan alohida

xo'jalikka ega bo'lmagan beqaror juft-juft oilaga o'tildi. Patriarxat davrida qishki turar joy, kiyim va bezaklar, qurollarning murakkab turlari, jumladan, o'q-yoy, bumerang va boshqalar ixtiro qilindi, terini qayta ishlash, mato to'qish, kulolchilik, tasviriy san'at va din vujudga kela boshladi. Bu davrning so'nggi bosqichida etnik birlik – qabila tarkib topdi. O'rta Osiyoda shu davrga oid ko'p yodgorliklar topilgan. Masalan, Janubiy Turkmanistonda Joytun madaniyati, Amudaryo va Sirdaryolarning quyi oqimlari bo'ylab tarqalgan kaltaminorliklar madaniyati, Samarqand vohasida Sazag'on madaniyati, Janubiy Tojikistonda Hisor madaniyati.

Bu davrning so'nggi bosqichida, ya'ni mil. avv. IV mingyillik oxirida va bronza davrining boshlarida ona urug'chilik jamoasining ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chorvachilik, omoch bilan yer haydash, baliq tutish, metallni oddiy usulda qayta ishlash yuzaga keldi. Natijada ayollarning xo'jalik yuritishdagi roli pasayib, erkaklarning roli oshdi. Kishilar tabiat kuchlariga qarshi kurashish uchun turli qurollardan foydalandilar. Erkaklar o'zlari topgan boyliklarini endilikda umumiy jamoaga emas, balki o'z bolalariga berishga intildilar. Shu tariqa patriarxatdan patriarxat davriga o'tildi, urug'chilik oilalariga ota boshchilik qiladigan bo'ldi.

Bu vaqtga kelib, urug'-jamoalarning birlashmalaridan qabilaviy tuzilmalar vujudga kela boshlagan. Qabila boshlig'i etib biror urug'-jamoasining sardori umumiy yig'ilish kelishuvi bilan tayinlanardi. Qabila boshlig'i etib barcha birlashgan urug'-jamoalarning manfaatini baravar himoya qiladigan, o'z davrining bilimdoni, jamoalar an'analarining ijrosini ta'minlaydigan, tashkilotchi kishi tayinlanardi. Ilmiy tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, Sazag'on-Qoratepa tog'oldi massivlarida kamida 3 ta qabilaviy birlashmalar yashagan bo'lishi mumkin. Bu qabilaviy birlashmalar ko'rinishidagi jamoalar qo'ni-qo'shni va masofali viloyatlarda yashovchi jamoalar bilan qizg'in madaniy aloqalar olib borgan. Bu jarayonni, avvalo, ularning mehnat qurollari ishlab chiqarishdagi texnika an'analarida kuzatish mumkin.

Patriarxat tuzumi ibtidoiy jamiyat davriga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar shakli bo'lib, bunda jamiyat, xo'jalik, oilada erkak hukmron mavqega ega bo'lgan. Patriarxatning xo'jalik faoliyati odatda omoch bilan yer haydash, chorvachilik bilan shug'ullanish, metallga ishlov berish kabi mehnati og'ir ishlar bajarilardi. Bu davrda ibtidoiy jamiyat yemirilib, uning so'nggi bosqichida mulkiy tabaqalanish va davlat vujudga keladi. Bu davrda ota urug'i asosida katta patriarxal oilalar tashkil topdi. Patriarxal oilada urug'chilik tuzumining kurtagi saqlangan bo'lsa-da, uning asta-sekin

yemirilayotgani sezilib turardi. Barqaror nikoh vujudga kelishi bilan ayol kishi erkak turgan joyga borib yashaydigan bo'ldi. Bolalar ota ismining va mulkining merosxo'rlari bo'ldilar, uyda ota hukmronligi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi xususiy xo'jalikning paydo bo'lishiga, urug' jamoasining yemirilishiga o'ziga to'q yuqori tabaqaning ajralib chiqishiga olib keldi. Bu tabaqa dastlab harbiy asirlar, so'ng qashshoqlangan qabilalarni qullarga aylantirdi. Qabilalararo xo'jalik va madaniy aloqalarning rivoji tufayli etnik birlikning yangi shakli – elat vujudga keldi. Natijada sinflar va davlatlar paydo bo'ldi. Urug'-qabila boshliqlaridan davlat hokimiyati tashkil topa boshladi. Bronza davrida, ya'ni miloddan avvalgi II mingyillikda O'zbekiston hududida bo'lgani singari Zarafshon vodiysida ham sug'orma dehqonchilik rivojlana boshladi. Bu davrga oid arxeologik topilmalar moddiy-madaniy belgilari va etnik xususiyatlariga qarab ko'pgina arxeologik madaniyat ismlari bilan ataladi. Jumladan, Amirobod madaniyati, Sopollitepa madaniyati, Zamonbobo madaniyati, Suvyorg'on madaniyati, Tozabog'yob madaniyati, Chust madaniyati, Zarafshonning yuqori vohasidagi Sarazm madaniyati va boshqalar tashkil topdi. Umuman qaralganda, O'rta Osiyo hududida bronza davri yodgorliklarining juda boy majmuasi vohalarda iqtisod va madaniyat taraqqiy etganidan, bu yerda qadim davrlardayoq ilk shahar-davlatlar vujudga kela boshlaganidan dalolat beradi.

Vohada olib borilgan tadqiqotlar tufayli qabrlar va qishloqlar tipidagi ko'pgina yodgorliklar topilib o'rganildi. Ibtidoiy davrda vohaning keng doirasi bo'ylab chorvador va dehqon qabilalari yashaganlar. Ulardan bizgacha Urgut tog'i shimoliy-sharqida joylashgan Mo'minobod, Soyg'us, Samarqanddan 9 km g'arbda, Zarafshon daryosining so'l qirg'og'ida joylashgan Chakka, Afrosiyob shaharchasining shimoliy chegarasidan Siyobcha, Nurobod tumaniga qarashli Jom qishloqlari atroflarida o'rganilgan qabr va qabristonlar, Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi hududida o'rganilgan To'qayli metallurglar qishlog'i va boshqalar miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalarida vohaning sersuv va serhosil joylarida qator o'troq qishloqlar qad ko'targanligidan guvohlik beradi. Zikr etilgan yodgorliklardan boy arxeologik ashyolardan tashqari xilma-xil san'at namunalari – ko'plab zargarlik zeb-u ziynat buyumlari topilgan. Mo'minobod qabrlaridan birida suyakdan yasalgan nay topilgan. Bu manbalarni o'rganish o'sha zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o'z davriga nisbatan yuksak madaniyat sohiblari bo'lganligidan guvohlik beradi. Bunday qishloqlar o'z davrining talab va xususiyatiga binoan (bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da) mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Aytish mumkinki, ba'zida

sodir bo'lib turadigan qabilalararo nizolar unga sabab bo'lgan. O'sha davrdagi yirik qishloqlardan, keyinchalik, mil. avv. IX–VIII asrlarga kelib, ular zamirida qad ko'targan ilk shaharlardan Ko'ktepa, Afrosiyob, Xo'jabo'ston kabilarning tashkil topishi shaharlashish, ya'ni urbanistik jarayonlarning boshlanib ketganligidan guvohlik beradi¹.

Aynan shu davrdan boshlab, Samarqand vohasi, shuningdek, Sug'diyona tarixida qadimgi Sug'd davri, ilk davlatchilikka asos solingan davr boshlandi; Zarafshon vodiysining qadimgi dehqonchilik madaniyati Sug'diyonaning rivojlangan tarixiy-madaniy o'lkaga aylanishga olib keldi. Bu voha xalqi hayotida yuz bergan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar Ko'ktepa ilk shahri materiallariga ko'ra, mil. avv. I mingyillikning boshlarida yuz berdi. Bularning barchasi Samarqand vohasida urbanistik jarayonlar va ilk shaharsozlik hamda davlatchilik madaniyatining paydo bo'lishi va tadrijiy rivojlanishidan dalolat beradi. Antik davrga kelib (mil. avv. IV asrdan) o'lkamizda tom ma'nodagi shaharlar, ko'p tarmoqli hunarmandchilik markazlari, tovar-pul munosabatlari asosida qurilgan va xalqaro savdo markazlariga aylangan yirik shaharlar tarkib topdi. Bularni, aytilganidek, Ko'ktepaning III, Afrosiyobning III–IV madaniy qatlamlari misolida ko'rishimiz mumkin.

¹ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002. С. 8–10.

II bob.

SAMARQAND SHAHRINING VUJUDGA KELISHI VA
ANTIK DAVRI

1-§. Samarqandning vujudga kelishi va Sug'dda ilk shahar markazlari

O'rta Osiyoning markaziy hududlari urbanizatsiyasi muammolari bilan ko'plab olimlar shug'ullanishgan. Ushbu olimlarning aksariyat qismi bu hududlarda shahar madaniyati axomaniylar hukmronligi davridan boshlanganligini ta'kidlashadi¹. Urbanizmning bir qator nazariy muammolari ishlab chiqilgan o'tgan asrning oxirlarida olib borilgan yirik arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab yangi ma'lumotlar olingan bo'lib, ular O'rta Osiyoning markaziy mintaqalarida shaharlarning va proto-shaharlarning paydo bo'lishi muammolarini tushunishga imkon berdi². Bundan tashqari, arxeologik tadqiqotlar natijasida urbanizmning dastlabki bosqichlari haqidagi fikrlarimizni sezilarli darajada o'zgartirgan bir qator yangi yodgorliklar topildi.

B.A. Litvinskiy nazariy jihatdan O'rta Osiyoda shahar jarayonining besh bosqichini ajratib berdi. Bular: 1) proto-shaharlar; 2) eng qadimgi shahar

¹ *Шихкина Г.В.* Древнейшая оборонительная стена Самарканда // ОНУ. – Ташкент: 1970. – № 9. С. 102–107; *Shishkina G.V.* Ancient Samarkand, Capital of Soghd / The Archaeology and art of Central Asia. Studies From the Former Soviet Union. Bulletin of the Asia Institute. Vol. 8, 1994. P. 81–99; *Шихкина Г.В.* Древний Самарканд и его округа / В кн. Городская среда и культура Бактрии-Тохаристана и Согда IV в. до н.э. – VIII в. н. э. Античность, раннее средневековье. / Материалы международного colloквиума (Самарканд, 1986). – Ташкент: Фан, 1987. С. 164–170. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии / Отв. ред. тома Г.А.Кошеленко. – М., 1985. С. 493; *Тереножкин А.И.* Вопросы историко-археологической периодизации древнего Самарканда / ВДИ. – М., 1947. С. 127–135; Его же. Вопросы историко-археологической периодизации древнейшего Самарканда / СА. – М., 1972. – №3. С. 90–99; *Иневаткина О.Н.* Акрополь древнего Самарканда в структуре города (VI в. до н.э. – V в. н.э.). Диссертация на соис. ... канд. ист. наук. – М., 1995. С. 135.

² *Литвинский Б.А.* Древний среднеазиатский город (Местные традиции и иноземные модели). Древний Восток. Города и торговля (III–I тысячелетия до н.э.) – Ереван, 1973. С. 118; *Массон В.М.* Алтын-Депе / Тр. ЮТАКЭ. Том. XVIII. – Л.: Наука, 1981. С. 172; *Сянтаниди В.И.* Исследования памятников Дашлинского оазиса // Древняя Бактрия. Материалы 1969–1973 гг. – М.: Наука, 1976. С. 21–86; *Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш.* Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии // Под ред. Н.И. Гуляева. – Самарканд, 1993. С. 162; *Аскарлов А.А., Буряков Ю.Ф., Коирквелия О.Р., Радилмовский В.В.* Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. – Ташкент: Фан, 1988. С. 200.

manzilgohlari (miloddan avvalgi II mingyillik oxiri, miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi choragi); 3) shaharsozlik dualizmi va O'rta Osiyo – ellinistik sintezning boshlanishi (miloddan avvalgi IV–II asrlar); 4) eng yuqori O'rta Osiyo – ellinizm sintezi va 5) qadimiy shaharning yuksalishi (miloddan avvalgi I asr va II–IV asrlar)¹. Aniqlangan shahar jarayonining ushbu besh rivojlanish bosqichi O'rta Osiyoning asosiy ilk shaharlarining rivojlanish yo'llarini to'liq qamrab oladi. Masalan, qadimgi Oltintepa shahar xarobasida V.M. Masson, A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinov Jarqo'ton shaharlarida olib borilgan tadqiqotlari orqali ilk shaharning qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatdilar. Olimlar qadimiy manzilgoh va qadimgi shaharni aniqlash uchun zarur bo'lgan eng muhim belgilar sifatida monumental va diniy ibodatxonalar, turar joylar hamda mudofaa devorlari, hunarmandchilik ustaxonalarini keltiradilar².

Shu bilan birga, urbanizatsiya muammolari bilan shug'ullanadigan olimlar orasida O'rta Osiyoning dastlabki shaharlari vujudga kelganligi xususida turli xil qarashlar mavjud. V.I. Sarianidi shahar tipidagi yodgorliklarning shakllanishi miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalarida, ya'ni bronza davrida deb hisoblaydi, bu qarash ilk shaharlar paydo bo'lishining qadimiyroq bo'lganligini ko'rsatadi³. Shu bilan birga, Jarqo'tondagi ilk shaharning vujudga kelishi xususida V.I. Sarianidi biroz boshqacha fikrni bildiradi. Uning ta'kidlashicha, Jarqo'ton yirik qishloqlar aglomeratsiyasi bo'lib, kuchli devorlar bilan mustahkamlangan ma'muriy markaz atrofida joylashgan bir vaqtning o'zida bir nechta turli xil aholi punktlarini o'z ichiga olgan⁴.

¹ Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский... С. 99–125.

² Массон В.М. Алтын-депе... С. 172; Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская... – 162 с. илл.

³ Шишкина Г.В. Древнейшая оборонительная стена Самарканда // ОНУ. – Ташкент: 1970. – №9. С. 102–107; Shishkina G. V. Ancient Samarkand, Capital of Soghd. The Archaeology and art of Central Asia. Studies From the Former Soviet Union. Bulletin of the Asia Institute. Vol. 8, 1994. P. 81–99; Шишкина Г.В. Древний Самарканд и его округа. / В кн. Городская среда и культура Бактрии-Тохаристана и Согда IV в. до н.э. – VIII в. н. э. Античность, раннее средневековье. Материалы международного colloquiuma (Самарканд, 1986). – Ташкент: Фан, 1987. С. 164–170. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии / Отв. ред. тома Г.А.Кошеленко. – М., 1985. С. 493.

⁴ Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город (Местные традиции и иноземные модели) Древний Восток. Города и торговля (III–I тысячелетия до н.э.) – Ереван, 1973. С. 118; Массон В.М. Алтын-Депе. / Тр. ЮТАКЭ. Том XVIII. – А.: Наука, 1981. С. 172; Сарияниди В.И. Исследования памятников Дашлинского оазиса // Древняя Бактрия. Материалы 1969–1973 гг. – М.: Наука, 1976. С. 21–86; Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии // Под ред. Н.И. Гуляева. – Самарканд, 1993. С. 162.

XX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning janubida Markaziy Osiyoning dastlabki shahar madaniyatini o'rganish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, qadimgi shahar tipidagi Oltintepada olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar O'rta Osiyoning dastlabki shahar madaniyatining o'chog'ini aniqlashga xizmat qildi. Bular miloddan avvalgi III-II mingyillikka taalluqli qadimgi sharq tipidagi mahalliy sivilizatsiyaning mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, qadimgi sharqiy mintaqa madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. A.Asqarovning Amudaryo o'rta oqimi va I.S. Masimov tomonidan Murg'obda ochilgan yodgorliklar bu makon bilan uzviy bog'liqdir. Bular urbanizatsiya elementlarining rivojlanishini va ular asosida yangi madaniyatlarning yaratilishini namoyon etadi. Bu yodgorliklar orasida Surxondaryo viloyatidagi Sopollitepa madaniyati katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha ilk shaharlar va ularga tegishli nazariy muammolar O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari bilan bog'liqdir. A.A. Asqarovning fikriga ko'ra, ushbu hududlar dehqonchilik madaniyatining tarqalishiga xizmat qilgani ikkinchi markaz bo'lgan¹.

O'rta Osiyoning markaziy mintaqalariga kelsak, uzoq vaqt davomida bu hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishi antik davr yoki O'rta Osiyo axomaniylar mustamlakasi bo'lgandan so'ng boshlangan deb hisoblangan. Buning sababi ilk temir davriga oid yodgorliklar qatlamlarining yetarlicha o'rganilmaganligi edi. Shu bilan birga, O'rta Osiyoning shahar madaniyati qisqa muddatli akt emas va tashqi tomondan yaratilmagan. U janubiy hududlarda bronza² davridan boshlangan urbanizatsiya jarayonlarining uzoq rivojlanishining samarasidir. Baqtriyadagi ilk shahar madaniyati Sopolli madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan³.

S.Bobomulloyev yaqinda Panjikentdan 1 km g'arbda Jarqo'ton va Dashtli kabi madaniy materiallar bilan dafn etilgan Xalifa Zarchasi manzilgohini topgan bo'lsa-da, qadimgi Sug'd hududida Sopollidagidek qadimiy dehqonchilik madaniyatiga oid aniq qoldiqlar topilmagan⁴. A.S. Sagdullayev Qashqadaryo vohasining yuqori qismida Daratepa qishlog'ida miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oid bu joylar uchun ikkita noyob topilma: guldon

¹ Asqarov A.A. Древнеземледельческая культура Южного Узбекистана // Под ред. М.П.Грязнова. - Ташкент: Фан, 1977. С. 158-159.

² Asqarov A.A., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская... С. 11.

³ Asqarov A.A., Бураков Ю.Ф., Кайракелмя О.Р., Рахимовский В.В. Теоретические и методологические... С. 13.

⁴ Bobomulloyev S.G. Земледельческо-скотоводческая культура верховья Зарафшана во II тысячелетии до н.э. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Душанбе, 1996. С. 12-17.

(vaza) va Sopolli madaniyatiga xos kuldonlar topilgan¹. Sopolli madaniyatining izlari Jom hududida ham topilgan, ammo Sopolli madaniyati bilan uyg'unlashgan yirik aholi manzillari Qashqadaryo vohasi hududida ham, Samarqand vohalarida ham aniqlanmagan.

Shu bilan birga, Sug'dning ikki vohasida Sopolli madaniyatining izlari topilishi bejiz emas, chunki O'rta Osiyoning janubiy va markaziy mintaqalarining qadimgi o'troq dehqonchilik vohalari bilan doimiy aloqalari bo'lgan. Bu esa O'rta Osiyoning asosiy vohalarida o'troq dehqonchilik rivojlanishining umumiyligidan dalolat beradi.

M.X. Isamiddinov Sug'd hududida birinchi davlat birlashmalari shakllanishi hamda ilk shaharlarning vujudga kelishini ko'rsatuvchi besh omilni ajratib ko'rsatdi²: 1) yer unumdorligi, tog' daryolarining sersuvligi va issiq iqlim sharoiti; 2) eneolit davridan (Sarazm madaniyati) boshlangan barqaror dehqonchilik an'analari va hunarmandchiligi; 3) Samarqand Sug'di eneolit davridan boshlab mis rudalarining asosiy markazi bo'lib, bu yerga uzoq hududlardan mis sotib olish uchun odamlar kelishgan. Shubhasiz, ushbu iqtisodiy omil shaharni shakllantirish jarayonida juda muhim rol o'ynagan va natijada davlatning vujudga kelishiga turtki bo'lgan; 4) Samarqand va Samarqand Sug'di savdo yo'llari chorrahasida joylashgan. Buyuk ipak yo'li paydo bo'lishidan oldin ham yirik Sug'd savdo markazi bo'lib, bu mintaqaning rivojlanishini ta'minlagan asoslardan; 5) Samarqand Sug'di doimo ko'chmanchi aholi bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bronza davridan boshlab ko'chmanchi qabilalar mahalliy dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qabilalar bilan yaqin munosabatda bo'lib kelishgan³. N.A. Avanesova tomonidan topilgan Sarazm madaniyatining so'nggi bosqichiga oid Tug'aynoy manzilgohidagi topilmalar bunga yaqqol dalil bo'la oladi⁴. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining chorvador aholi bilan yaqin joylashuvi, bir tomondan, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarining ko'payishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan, kuchli mudofaa devorlariga ega bo'lgan aholi manzilgohlarining qurilishiga sabab bo'lgan.

¹ Сагдуллаев А.С. Два редких сосуда из Даратепы. ОНУ. Ташкент, 1986. №3, рис.1.

² Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент: Изд. народного наследия им. А.Кадери, 2002. С.131–132.

³ Шкода В.Г. Две каменные скульптуры эпохи палеометалла / СГЭ, LVII, Санкт-Петербург, 1997. С. 48–51.

⁴ Lyonnet B., Isakov A., Avanesova N. Sarazm (Tadjikistan) ceramiques (chalcolithique et Bronze Ancien). Memoires de la mission archeologique francaise en Asie Centrale, tome VII. – Paris. 1996. P. 117–131.

Agar ilk temir davridagi qo'lda yasalgan bezakli kulolchilik madaniyati ushbu hududda keyingi urbanizatsiya jarayonini rivojlantirish uchun o'ziga xos asos bo'lgan bo'lsa, bunga qadimgi dehqonchilik madaniyati va «Andronova qabilalari»ning o'zaro ta'siri muhim rol o'ynadi. Ko'rinib turibdiki, ikki madaniyatning uyg'unlashuvidan ilk temir davrining bo'yalgan keramika madaniyati paydo bo'ldi va shu yerdan u boshqa hududlarga tarqala boshladi. Shu sababli, Sug'd, Choch va Farg'ona hududlarida ganchli tasviriy keramika namunalari bilan bir qatorda, Sangirtepa va Ko'ktepadagi juda sodda ibtidoiy ko'rinishda qazilgan uylar va yarim qazilgan joylar, shuningdek, paxsa, loy me'morchiligi namunalari topilgan¹.

O'troq dehqonchilik har doim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, turli xil hunarmandchilik buyumlarini, xususan, keramika buyumlari, jun, matolarni va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash hamda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Ko'ktepa manzilgohidagi tosh qurollari asosida o'ndan ortiq hunarmandchilik turlari aniqlandi².

O'rta Osiyoning asosiy vohalarida joylashgan yirik aholi manzilgohlari qadimda chorvachiliksiz taraqqiy eta olmagan. Chorvadorlar ishlab chiqaruvchi kuchning asosiy iste'molchilari hisoblangan.

Dehqonchilik vohalari va chorvachilik dashtlari o'rtasida doimiy ravishdagi savdo munosabatlari katta aholi manzilgohlarida qulay sharoitda yashovchi aholining boyishiga xizmat qildi.

Sug'd hududiga shahar madaniyati qay tarzda kirib borganligi katta ahamiyat kasb etadi. Sug'd hududida dastlabki shaharlar paydo bo'lganida, asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar yuqori darajada rivojlangan dehqonchilik, mis rudali zaxiralarning mavjudligi, chorvachilik dashtlariga yaqinlik va qulay geografik sharoitlar bo'lgan. Baqtriya hududi taraqqiyoti shahar madaniyatining yanada rivojlanishiga muhim turtki bo'ldi.

Aynan shu yerdan Sug'd hududiga ilg'or texnologiyalar kirib kelgan. Kulolchilik pechlari va dastgohlar, shahar me'morchiligi, kuchli qal'a devorlari va qal'alar, shuningdek, monumental diniy ibodatxonalar shular jumlasidandir. Biroq so'nggi vaqtlardagi tadqiqotlarda urbanizatsiya jarayonlarida avtohton mahalliy aholi bilan birga Xorazm hududida yashagan aholi juda muhim rol o'ynaganligini ko'rsatuvchi muhim faktlar

¹ Исмаилов М., Раев К. Некоторые новые данные к проблеме ранней урбанизации на территории Самаркандского Согда / O'zbekiston urbanistik madaniyati. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2003. С. 70–73.

² Алмазова Н.И. Каменные орудия древнего и средневекового Согда (по данным комплексного изучения). Автореферат дисс. на соис. уч. ст. к.и.н. – Самарканд, 2002. С. 19–21.

turadi. Eronning shimoliy va Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida yashaydigan qabilalar bosimi ostida Xorazm hududida yashaydigan qabilalar Sug'd hududlariga kirib borishi mumkinligining ehtimoli yuqori. Hududda yashovchi qabilalarning ta'sirida biz ilk temir davrida Eron shimolidan Amudaryoning Sariqamish deltasiga kirib borgan Quvisoy madaniyatiga o'xshash ko'chishni ko'rishimiz mumkin. Quvisoy qabilalarining joylashgan hududi, janubiy Turkmaniston yoki Shimoliy Eron hududida, janubdan Qizil-Arvat va Dashti-Kabir cho'llari orasida, g'arbda Go'rg'onning yuqori oqimlari va sharqda Shirvon va Nishopur o'rtasida joylashgan bo'lishi kerak edi¹.

Ma'lumki, bronza davrida O'zbekistonning janubida paydo bo'lgan ilk shahar madaniyati miloddan avvalgi XII asr oxirlarida O'rta Osiyoning asosiy dehqonchilik vohalarida boshqa ziroatkor qabilalarning kelib joylashuvi bilan to'xtab qolgan. Ushbu qabilalar xo'jaligida dehqonchilik asosiy mashg'ulot hisoblangan. Ular sopol buyumlarni asosan qo'lda yasaganliklari uchun, arxeologlar ularning madaniyatini «qo'lda yasalgan rangli kulolchilik madaniyati» deb nomlashadi. Shu bilan birga, O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida kulolchilik g'ildiraklarida keramika ishlab chiqarish dastlabki temir davrida ham davom etgan. Yoz-I, Kuchuk-I, Qizil-I va hatto Ko'ktepa-I, To'rtko'ltepa qatlamlarida uchraydigan kulolchilik buyumlari Burg'uluq (Xorazm) va Chust (Farg'ona) madaniyatiga xos emas.

Shu bilan birga, o'troq dehqon aholisining madaniy an'analari davom etgan. Xususan, janubiy hududlarda paxsa va xom g'ishtdan qurilgan binolar qurilishi davom etgan. Yoz-I-II, Qizil-I-II, Kuchuk-I-II manzilgohlaridan yuqori sifatli sopol idishlar topilgan. Bu buyumlarning umumiy ko'rinishi – idishning shakli, ishlab chiqarish texnikasi, loy, to'qima qoplamasi va bir qator belgilar ular Sopolli madaniyatining avlodlari tomonidan yaratilganligini ko'rsatadi. Sopolli madaniyatiga xos bo'lgan sopol buyumlarning bu hududlarda topilishi miloddan avvalgi VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab shahar madaniyatining yoyilganligini isbotlaydi. Usta hunarmandlar an'analarni saqlab qolgan qadimgi Baqtriya an'anasi asta-sekin qo'shni hududlarga tarqala boshladi.

Baqtriya madaniyati birinchilardan bo'lib Sug'd hududlariga ta'sir qilgan. Buning asosiy sabablari Sug'dning Baqtriyaga yaqin joylashganligi, tabiiy iqlim sharoitlarining o'xshashligi va etnik-madaniy an'analarning umumiyliigi bo'lgan. Sug'dning dehqonchilik madaniyati juda rivojlangan

¹ Вайнберг Б.И. Памятники Куяусайской культуры. Кочевники на границах Хорезма // ТХАЭ. Т. IX. – М., 1979. С. 48–49.

hunarmandchilik mahsulotlari va aholining dunyoqarashi Baqtriya va Yoz-IIga yaqin bo'lgan. Aynan sug'dliklar shu davrga kelib shahar madaniyatini qabul qilishga tayyor bo'lishgan¹.

Sug'd hududida Yoz-II, Kuchuk-II va Qizil-II davriga oid sopol buyumlar hali topilmagan. Bizningcha, Yoz-II yoki Kuchuk-II majmualarining ku- lolchilik markazlari Baqtriyaning chap qirg'og'idagi hududlar bo'lgan. Ushbu markazdan sharqqa yoki shimolga uzoqroq borganda V.M. Masson tomonidan aniqlangan Yoz-II manzilgohi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Bu esa ushbu hududlarda hali ham Sirdaryo havzasi va quyi Amudaryoda yashaydigan shimoliy qabilalarning ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Sug'd hududida mahalliy dehqonchilik an'analari Yoz-II yoki Kuchuk-II manzilgohlari bilan yaqinroq bo'lgan. Shu sababli Sug'd hududida ilk urbanizatsiya jarayonlari boshlangan. Bu hududlarda yirik monumental binolar yassi tekis g'ishtlardan qurilgan. Binolarni bu uslubda qurish, ayniqsa, qurilish materiallari asosan Farg'ona vodiysi va Samarqand vohasi aholisiga xos bo'lgan. Baqtriya va Marg'iyona hududida yassi tekis g'ishtlardan qurilgan monumental binolar topilmagan. Sug'd hududidagi ilk temir davriga oid arxeologik yodgorliklarni o'rganish, hozirgi kunda Zarafshon havzasidagi ikkita yodgorlik – Ko'ktepa va Afrosiyob, Qash-qadaryo havzasidagi – Sangirtepa – Uzunqir va Yerqo'rg'on shahar mar- kazi bo'lgan yirik yodgorliklar tipiga daxldor ekanligini ko'rsatmoqda. Ular orasida Ko'ktepa yirik, nisbatan qadimiyroq bo'lib, qadimgi Sug'- diyona tarixi va madaniyati haqida ko'plab ma'lumotlarni bera oladi.

Ko'ktepa. Ko'ktepa shahar xarobasi Samarqanddan 35 km shimoli- g'arbda, tabiiy tepaliklar yuzasida, Bulung'ur kanalining yuqori o'ng qis- mida joylashgan. Eng qadimiy shaharga asos solingan joy, bir tomonda Bulung'urning o'ng qismidagi jarliklar bilan kesishgan. Ichki shahar maydoni taxminan 23 gektar bo'lgan kvadrat shaklga ega. Relyefdan har tomondan o'ralgan mudofaa devorini va devorning har tomonining o'rtasida to'rtta darvozani aniq ko'rish mumkin.

Himoya devori tashqarisida, g'arbiy tomonida va xandaq orqasida unga tutashgan tekis uchburchak tepa bo'lgan. Hozirgi vaqtda u to'liq tekislangan va o'zlashtirilgan. Shahar xarobasining sharqiy tomonida ikkita alohida oval shakldagi tepaliklar ham joylashgan.

Ko'ktepa shahar xarobasining «tashqi devori» masalasi murakkabligicha qolmoqda. Ko'ktepaning tashqi devori uning devor emasligi, balki shimol- dan butun Samarqand vohasini o'rab turgan Kampir devorning davomi bo'lishi mumkinligi haqidagi qarama-qarshi savollar paydo bo'ladi. Gap

¹ Исмаилов М.Х. Истоки городской культуры... С. 12-134.

shundaki, shahar xarobasini faqat ichki devor ichida kuzatish mumkin. Birinchi savol – Ko'ktepa ikkinchi mudofaa devori bilan o'ralganmi? Nima uchun mudofaa devorining saqlangan qismi uni 500 m masofada, faqat g'arbiy tomondan o'rab olgan? Nega shahar xarobasining shimoliy-g'arbiy mudofaa devorlari Bulung'ur kanaliga tutashadi?

Shu bilan birga, Ko'ktepaning shimoli-sharqiy tomonidan 500 m masofada qadimgi topografik xaritada qal'a devorining qoldiqlari yoki qadimgi yassi tepalikning chetlari ko'rinadi. Bu xaritada janub tomondan alohida binolar ham qurshab olinganligini ko'rish mumkin. Shahar xarobasi g'arbida olib borilgan izlanishlar bu qism to'rtburchak shakldagi g'ishtlardan ko'tarilganligini ko'rsatadi. Ammo bu yerning ba'zi joylarida to'rtburchak g'ishtlar biroz yumaloq shakldaligi ko'rinib turadi. Devorning umumiy qalinligi 12 metrga yetadi.

Agar bu xulosa to'g'ri bo'lsa, unda Ko'ktepa Sug'd hududidagi yirik shaharlardan birining qoldig'i bo'lishi kerak. Chunki u markazda zich binolar va ikkinchi mudofaa devori ichidagi bo'sh qismlarga ega bo'lgan Qalayi-Zoxaki-Maron shahar xarobasiga o'xshaydi.

Ichki devorning atrofida ikkita ulkan tepalikka o'xshash hudud va unga tutash maydon bo'lgan. Ulardan birining o'lchami 70×70 metr bo'lib, shahar xarobasining markazida, kvadrat tepalikda joylashgan. Ushbu tepalikka taxminan 100×120 metr o'lchamdagi to'rtburchak tekis yassi tepalik tutashgan, ular ko'rinishidan bir binoning qismlari bo'lgan yoki uning maydoni bo'lgan. Hozirgi vaqtda tepalikning asosiy 80 foizi allaqachon buzilgan. Traktor bilan buzilgan qismlarning qoldiqlari orqali mayda vertikal bloklar bilan yotqizilgan tekis-konveksli g'ishtlardan yasalgan mustahkam devorni ko'rish mumkin. Rejada, har bir devor bloki kichik vertikal bloklarda yotqizilgan ikki yoki uch qatorli g'ishtlardan iboratligi ko'rinadi. Yassi g'ishtlar bilan birga to'rtburchak g'ishtlar ham uchraydi. G'ishtlarning o'lchamlari: 46×24×7-8; 44×24×6-7; 60×23×7-6 sm. Ko'pgina g'ishtlar yuzasiga *nol*, ba'zan *f* harfi shaklidagi belgilar va boshqa belgilar ko'rinishidagi shtamplar qo'yilgan. Platformaning saqlangan qismining balandligi 2 metrdan oshadi¹.

Manzilgoh maydonining perimetrda olib borilgan qazish ishlari natijasida tashqi tomondan yumaloq minora ko'rinishidagi tekis g'ishtlar devori topildi. Ushbu devor butun majmuani o'rab olgan². Stratigrafiyani

¹ Исалиддинов М.Х. Истоки городской культуры... . С. 35–41.

² Исалиддинов М.Х., Хасанов М.Х., Иванюцкий И.Д. Раскопки в северной части «культурного комплекса» и в «резиденции правителя» городища Коктепа // Археологические исследования в Узбекистане. 2002 год. – Ташкент, 2003. С. 68–69.

o'rganish natijasida, u majmua platformasidan ancha oldin qurilganligi aniqlandi.

Platformaning janubi-sharqiy qismida majmuaga asosiy kirish joyi aniqlandi. U ikki qudratli minoralar bilan bezatilgan bo'lib, 10x10 m. bo'lgan kvadrat shakldagi dahlizga olib boradigan zinapoyalar va qalinligi 3 metr bo'lgan o'rtadagi devor bilan o'ralgan. U ibodatxonaga kirishdan oldin poklanish bilan bog'liq ba'zi amallarni bajaradigan asosiy marosim xonasi bo'lgan¹. Shunday qilib, shaharning markazida joylashgan bu majmua «diniy marosimlar markazi» bo'lishi mumkin.

Ko'ktepa shahar xarobasi maydonida arkda «hukmdorning qarorgohi» joylashgan. U qal'adagi boshqa binolardan 10 metrdan balandroq qilib qurilgan. Uning maydoni 200x100 metrni tashkil etadi. Arxeologik tadqiqotlar tabiiy tepalikning chetlari bo'ylab yassi g'ishtlardan qurilgan taxminan 5 metr qalinlikdagi himoya devori bo'lganligini ko'rsatadi. Janub va g'arbiy devor bo'ylab katta binolar bo'lgan. Ko'rinishidan ular markazda joylashgan maydonni o'rab turgan. Hukmdorning qarorgohiga kirish qismi majmuaning sharqiy tomonida joylashgan.

Obyekt stratigrafiyasini o'rganish natijasida saroy binosi ostida qalinligi 2 metrdan oshiq bo'lgan, qo'lda yasalgan rangli kulolchilik madaniyati davriga oid qatlamlar aniqlandi. Bu holat ibodatxonada ham kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, qo'lda yasalgan rangli kulolchilik davrining oxiridan boshlab katta monumental binolar qurilishi boshlangan. Hukmdorning qarorgohidagi g'isht ostidan olingan radiokarbonli tahlil 2690 yil + 50 yilni ko'rsatadi. Bu qo'lda yasalgan rangli kulolchilik davrining tugagan arxeologik sanasiga, ya'ni miloddan avvalgi VIII asr oxiri va VII asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu esa Ko'ktepa hududidagi ilk shahar silueti bo'lganligini ko'rsatadi. U «ibodatxona» va «hukmdorning qarorgohi»ni o'rab turgan devorga ega bo'lmagan.

Afrosiyob. Afrosiyob Samarqandning shimoli-sharqida Siyob arig'ining irmoqlari va jarliklari tutashib ketgan Cho'ponota tepaligining yonbag'rida joylashgan. Afrosiyobning topografik xaritasida shaharning 4 qavat mudofaa halqasi yaqqol ko'rinib turibdi. Ulardan birinchi va to'rtinchisi birmuncha qadimiyroq. Qolgan 2- va 3-halqalari ilk o'rta asrlarda barpo etilgan.

Afrosiyob mudofaa devorlarini o'rgangan olimlar birinchi va to'rtinchi devorlar yo'lakli galereya rejasi asosida barpo etilganligiga duch kelishgan. Devorlar to'g'ri to'rtburchakli standart g'ishtlardan barpo

¹Ратен К., Исмаилов М.Х., Грицина А.А. Раскопки в центральной части городища Коктепа // Археологические исследования в Узбекистане. 2002 год. – Ташкент, 2003. С. 143–150.

etilgan¹. U miloddan avvalgi I mingyillik o'rtalarida qurilgan². Shuningdek, shahar mudofaa devorlarining vujudga kelgan davrini noto'g'ri davrlashtirgan holatlar mavjud bo'lib, bu Afrosiyob hududida shaharning paydo bo'lishi sanasini aniqlashda chalkashlikka sabab bo'ladi³.

O'tgan asr 90-yillari boshlarida mudofaa devorining birinchi halqasida enida bo'lgan g'ishtdan qurilgan devorlar aniqlangan. Bunday g'ishtlar 4 halqada ham aniqlangan. Axomaniylar davriga oid devorlar ostidan Ko'ktepa g'ishtlariga o'xshash tekis g'ishtlardan qurilgan yaxlit devorlar⁴ topilgan. Bunday tekis g'ishtlardan qurilgan yaxlit devorlar Afrosiyobning birinchi va to'rtinchi halqalarini tashkil qilgan. Afrosiyobning birinchi mudofaa halqasi devorlarining qalinligi 7 metrni tashkil qilgan, balandligi esa 7 metrdan kam bo'lmagan. Ammo ayrim olimlar bu devorlarni keyingi davr devorlari uchun poydevor bo'lgan deb talqin qilishadi. Afrosiyob devorlari bo'ylab stratigrafik kuzatishlar bu muammoni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Monolit devorlarning ichki tomoni bo'ylab ikki metrgacha qalinlikdagi madaniy qatlam mavjud. Bu esa ichkaridagi madaniy qatlam mudofaa devorlarining uzoq muddat mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Afrosiyob arkining janubiy qismidagi eng qadimiy mudofaa devorlari uch-to'rt marta, uning g'arbiy qismidagi 4-mudofaa devori 4–5 marta ta'mirlangan⁵. Bu holat Samarqandning axomaniylarga qadar bo'lgan ilk devorlari uzoq vaqt bo'lganligidan dalolat beradi. Axomaniylar mudofaa devorlari to'rtburchakli standart g'ishtdan qurilgan bo'lib, koridorli galereya shakliga ega. Axomaniylar davri devorlari ham ko'p vaqt mobaynida mavjud bo'lgan. Devor ichidagi ichki yo'lakda vujudga kelgan madaniy

¹ *Shishkina G.V.* Les remparts de Samarkanda a l'epoque hellenistique in, la fortification dans l'histoire du monde grec. – Paris, 1986. P. 71–79.

² *Тереножкин А.Н.* Вопросы историко-археологической периодизации древнего Самарканда / ВДИ. – М., 1947. С. 127–135. Его же: Вопросы периодизации и хронологии древнейшего Самарканда / СА. – М.: 1972. №3. С. 90–99; *Шишкина Г.В.* Древнейшая оборонительная стена Самарканда / ОНУ. – Ташкент: 1970. – №9, С. 102–107; *Шишкина Г.В., Сулейманов Р.Х., Кошелев Г.А.* Согд / Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – М., 1985. С. 32–34; *Турбеков М.* Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда (VII–VI вв. до н.э. – VII в. н.э.). Каракалпакстан. – Нукус, 1990. С. 154.

³ *Пачос М.К.* К изучению стен городища Афрасиаб / СА. – М., 1967. – №1. С. 60–73.

⁴ *Bernard P., Grenet F., Isamiddinov M.* Fouilles de la mission franco-uzbeke a l'ancienne Samarkand (Afrasiab), deuxieme et troisieme campagnes (1990–1991) // Comptes - rendus de l'Academie des inscriptions et Belles-Lettres. – Paris. 1992. fig. 3-5; *Исамиддинов М.Х.* Истоки городской культуры... рис. 46, 47-I, 47-II, рис. 49–52.

⁵ *Иневаткина О.Н.* Акрополь древнего Самарканда в структуре города (VI в. до н.э. – V в. н. э. Диссертация на соиск. ... канд. ист. наук. – М., 1995. С. 135; *Исамиддинов М.Х.* Истоки городской культуры... рис. 84.

qatlam bundan dalolat beradi. Ark g'arbidagi 12 qazishmadagi ichki koridor mil. avv. VI–V asrlardan kech bo'lmagan sopol bilan to'lib qolgan¹. Bu esa axomaniylar davrida qurilgan dastlabki devor kerak bo'lmaganligi sabab u sopol chiqindilari bilan to'ldirilib tashlangan. Arkning g'arbiy qismida mudofaa devorlari ichida sopolchilik ustaxonalari bo'lgan. U yerdan M.I. Filanovich miloddan avvalgi I mingyillikka oid sopol chiqindilar topgan². Bu esa akropolning g'arbiy qismida katta hovuz ilk axomaniylar davridayoq bo'lganligini ko'rsatadi.

Birinchi halqa mudofaa devorlari va akropolning janubi-g'arbidagi devorlar relyefida «uzilish» ko'zga tashlanadi. Mazkur joyda qazish ishlarini olib borgan S.K. Kabanov tuproqdan bunyod etilgan mudofaa devorlarini³, miloddan avvalgi I mingyillik o'rtalariga oid ekanligini aniqlagan.

O'rta Osiyo yunonlar tomonidan bosib olingach, qurilish texnikasida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, kvadrat shakldagi g'ishtlardan foydalana boshlangan. Bu davrga kelib O'rta Osiyoda kechgan siyosiy voqealarga hamohang ravishda yangicha me'moriy mudofaa qurilishi va yangi innovatsion jarayonlar sodir bo'lgan.

Axomaniylarga qadar bo'lgan qatlamlar faqatgina mudofaa devorlari va ark platformadan olib tashlangan bo'lsa, to'rtinchi halqada doimo uchraydi. Xuddi shunday qatlamlar Qo'rg'oncha manzilgohi va bugungi Siyob bozori atrofida ham uchraydi. Bundan tashqari, Registon va unga yondosh hududlar universitet xiyobonining janubi-g'arbiy qismida joylashgan Lolazor manzilgohi va uning eng g'arbiy nuqtasi bo'lgan kulollar mahallasi, Sartepo manzilgohi ham yuqoridagi qatlamga xos. Lolazor mavzesida ham magistral xonalar tarmog'i aniqlangan bo'lib, kanallar tubidan axomaniylar va axomaniylargacha bo'lgan davrlarga xos sopol va boshqa materiallar aniqlangan⁴. Bu qadimiy shaharning ulkan rabodi bo'lganligidan dalolat beradi. O'rta Osiyoning hech bir shahri bunday keng rabodga va shahar tashqarisidagi irrigatsion tizimga ega emas.

Sangirtepa va Uzunqir. Qashqadaryo vohasi eng qadimiy dehqonchilik vohalaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi II mingyillikning yarmi va I mingyillikning birinchi yarmida odamlar tomonidan to'liq o'zlashtirilgan.

¹ Исмаилов М.Х. Истоки городской культуры... рис. 72; рис. 117.

² Филанович М.И. К характеристике древнейшего поселения на Афрасиабе / Сб. Тр. Афрасиаб. – Вып. I. – Ташкент, 1969. С. 206–220.

³ Кабанов С.К. Раскопки лессовой стены на городище Афрасиаб / ИМКУ. – Вып. 26. – Ташкент, 1992. С. 69–76.

⁴ Бурыкова Э.Ю. Поселение Лолазор – предшественник города на Афрасиабе / В кн. К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981. С. 3–21.

Qadimiy qabilalar tog', soylari va buloqlari bilan sug'oriladigan tog'oldi zonalarini o'zlashtirganlar.

Qashqadaryo vohasi milloddan avvalgi I mingyillik boshlarida quyidagi yettita hududdan iborat bo'lgan: Qayrag'ochsoy, Guldursoy, Sho'robsoy, Tanhozdaryo, Qizildaryo, Yerqo'rg'on va Nishon. Ulardan uchta Sho'robsoy, Qizildaryo va Guldaryo 1,5–2 gektardan¹ iborat manzilgoh ko'rinishida shakllangan. Sangirtepa Sho'robsoy bo'yida joylashgan.

Sangirtepa manzilgohining o'rganilishi natijasida ma'lum bo'ladiki, manzilgoh mil. avv. I mingyillik boshlarida markazi mustahkamlangan va atrofi bilan 2 gektarli manzilgoh bo'lgan. Keyinroq axomaniylar bosqini arafasida kengayib, paxsa devor bilan o'ralgan 3 gektarli² manzilgohga va rangli kulolchilik madaniyati davrida (mil. avv. IX–VIII asr) bir-biridan alohida qurilgan manzilgohlardan iborat, atrofi paxsa bilan o'ralgan manzilgohga aylangan³.

Sangirtepaning markazida 85x65 metrli to'rtburchakli tepalik mavjud. Uning madaniy qatlami 7 metr. Sangirtepa o'rmiida axomaniylargacha va axomaniylar davrida to'rtburchakli, atrofi ikki qatorli paxsa devor bilan o'ralgan, 3 gektarga ega ibodatxona majmuasi mavjud bo'lgan. Markaziy tepalikning atrofida qazilgan joylar bu yerda turar joy (yashash) izlari mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu yer chorva boqishga mo'ljallangan. Ammo Sangirtepa quyi qatlamlaridan qo'lda yasalgan bezakli sopollar parchalari aniqlangan. Bu yerda axomaniylargacha va axomaniylar davrida ayvon, katta to'g'ri burchakli dahliz asosiy binoga ega ibodatxona mavjud bo'lgan. Asosiy binoda mehrob va zardushtiylik diniga mansub jihozlar bo'lgan. Bu ilk axomaniylar davriga oid dastlabki to'liq yopiq zardushtiylik ibodatxonasidir.

Sangirtepadan 650 metr shimolda Sho'robsoyda o'z davri uchun ulkan shahar – 76 gektarli Uzunqir shakllangan. Bu shahar mudofaa devorining bir qismidan boshqa hech narsa saqlanib qolmagan. Mudofaa devorlarining qalinligi 1,85 metr bo'lgan. Devorlar 50–52x24–25x16–18 sm o'lchamga ega xom g'ishtdan bo'lib, inshoot poydevorlari yalpoq g'ishtdan tashkil topgan. Mudofaa devorlari to'g'ri burchakli minoralar, minoraning ichki xonalari pilyastralar (ustun, kolonna), harbiy va soxta tuynuklardan iborat (shinak)⁴. Devorning tashqi tomoniga to'g'ri burchakli, ichida soqchi kameralari bo'lgan minoralar qo'shilgan.

¹ *Лушпенко О.Н. Раннежелезный век Южного Согда (по материалам памятников Кытабского и Яккабагского районов). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Самарканд, 1998. С. 7–8.*

² *Лушпенко О.Н. Раннежелезный век. ... С. 7–8.*

³ *Сагдullaев А.С., Лушпенко О.Н. Кеш vohasidagi eng qadimgi shahar// Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1998. 46-b.*

⁴ *Лушпенко О.Н. Раннежелезный век... С. 9.*

Shuningdek, shaharning markaziy qismida, uning ikkinchi bosqichida (Uzunqir II) bunyod etilgan mudofaa devorlari, uchinchi bosqichidagi g'ishtli galereya, minorali ichki binolar o'rganilgan. Mudofaa devorlarining qalinligi 6 metrgacha yetgan.

Sangirtepa va Uzunqir shaharlarining stratigrafiyasi va sopollarini o'rganish, ularning Sangir I va II hamda Uzunqir I–II va III bosqichlarida rivojlanganligini ko'rsatib berdi.

Sangir I manzilgohi miloddan avvalgi IX–VIII asrlarga oid bo'lib, u yerdan qozonlar, qadahlar va kosalar topilgan. Ular orasida bezaklilari ham bor (Uzunqirdan topilgan bezakli qozon). Sangir I da O'rta Osiyo janubi bronza davri an'analariga xos kulolchilik charxida tayyorlangan sopol parchalari ham aniqlangan¹.

Sangir II va Uzunqir II davriga kelib qo'lda yasalgan sopollar kamaygan. Bu davrga kelib, xum va ko'za tipidagi idishlar paydo bo'lgan. Uzunqirdan silindrsimon idishlar topilgan bo'lib, ularning gardishi angob bilan bo'yalgan to'lqinsimon shaklga ega. Tadqiqotchilar ularni miloddan avvalgi 6 asrga oid deb hisoblashadi. Bu davrda Sangirtepa o'rnida qadimiy shaharning ark-qo'rg'oni bo'lgan.

Qashqadaryo vohasining yuqori qismida yangi manzilgohlar vujudga keladi. Shulardan biri Daratepadir. Bu yerda patriarxal dehqonlar oilasi istiqomat qilishgan. Poleobotanik va osteologik tahlillar bu fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi.

Uzunqir o'zining mudofaa me'morchiligiga ko'ra ilk temir davrining yuksak darajadagi sivilizatsiyasi bo'lgan. Demak, Sangirtepa va Uzunqir miloddan avvalgi VII–VI asrlarda bunyod etilgan.

Yerqo'rg'on. Yerqo'rg'on shahri Qarshidan 10 km shimolda joylashgan. U ikki qator quadratli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Ichki shahar besh burchakli 34 gektar maydonni egallagan. Tepalik ko'rinishidagi shahar markazining ichki devori ichida ibodatxona, arkning shimoli-sharqiy burchagida va birmuncha g'arbda saroy majmuasi joylashgan². Shaharning markaziy qismida ark devoriga parallel ravishda uzunligi 600 metr, kengligi 200 metrli tepalik joylashgan. Uning pastida alohida tepaliklar yaqqol ajralib turibdi.

Tepalikning turli qismlarida olib borilgan qazishmalar natijasida bu yerda ilk temir davridan to V–VII asrlargacha tinimsiz rivojlanish bo'la-

¹ *Лутиненко О.Н.* Раннежелезный век... С. 12.

² *Миссон М.Е.* Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Ташкент: Фан, 1973. С. 11–12; *Тереножкин А.И.* Археологическая реконструкция в западной части Узбекистана // ВДИ. 1947. – №2. С. 185–190; *Кабанов С.К.* Археологические работы 1948 г. в Каршинском оазисе / Тр. ИИА АН УзССР, т. II. – Ташкент: 1950; Его же. К вопросу о столице кидаритов / ВДИ. – Вып. 2, 1953.

ganligi ma'lum bo'ldi. Milodiy I asrda bu yerda kulollar mahallasi va ustaxonalari bo'lgan¹.

Shaharning mudofaa devoriga tashlangan stratigrafik qazishlar shaharning ichki devori miloddan avvalgi VI–V asrlarda, tashqi devori esa miloddan avvalgi III–II asrlarda barpo etilganligini ko'rsatadi².

1999-yili Yerqo'rg'onning 13 obyektida qazishlar yangilandi. Bu yerdan kutilmaganda qimmatli materiallar chiqdi. Ulardan eng muhimi miloddan avvalgi VIII asrda bunyod etilgan ilk mudofaa devori bo'ldi³.

Bu devor shaharning ilk qismidir. Yerqo'rg'onning ilk rivojlanish bosqichi ikki qismdan – «diniy markaz» va «hukmdor qarorgohi»dan iborat bo'lgan. Bu ko'rinish Ko'ktepa, Afrosiyob, Sangirtepa va Uzunqirga ham xosdir.

Umumiy xulosalar. Ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Sug'd hududlarida qadimdan dehqon va mahalliy chorvador qabilalar qo'shni bo'lib yashab kelishgan. Bu yerda Sarazm qadimiy dehqonchilik madaniyati va ilmiy adabiyotlarda «Andronova madaniyati» nomini olgan chorvadorlar madaniyatini nazarda tutmoqdamiz. Sarazm va Tug'oyna materiallariga ko'ra, bu ikki madaniyat vakillari tinch va osoyishta qo'shni bo'lib yashashgan.

Bronza quyish va bronza buyumlar tayyorlash ikki madaniyat vakillari hamkorligidagi mehnat bilan amalga oshgan. Arxeologik materiallar asosida bu ikki xil xo'jalikka ega madaniyatlar o'rtasida dushmanlik bo'lganligini isbotlovchi belgilar aniqlanmagan.

Ilmiy adabiyotlarda qadimgi dehqonchilik Sarazm madaniyati va qo'lda yasalgan bezakli sopol davri dehqonchilik madaniyatlari o'rtasida «oq dog'» mavjud. Bizda qadimgi protodehqonchilik madaniyatlarining keyingi qo'lda yasalgan bezakli sopol madaniyatiga almashinish sabablariga javob yo'q. Ko'ktepaning quyi qatlamida kulrang marmardan yasalgan diniy buyumlarning topilishi «diplomat» shaklidagi belgilar ham aniqlangan. Bular bronza davriga xosdir.

Sug'd hududidagi qo'lda yasalgan bezakli sopol madaniyatining mustahkam joylashtirilganligi bu yerda urbanizatsiya jarayonlari ilk temir davridan boshlanganligini ko'rsatadi. Xususan, bu yerda Ko'ktepa hukmdor saroyi atrofida mudofaa devori vujudga kelgan. Aynan shu

¹ Исмаилов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Ташкент: Фан, 1984. С. 9–137; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII вв. до н.э. – VII в. н. э. – Самарканд–Ташкент: Фан, 2000. С. 24–26; Исмаилов М.Х. Стратиграфия древнейших слоёв Еркургана // ИМКУ. вып. 17, 1982. С. 182–178.

² Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб ... С. 24–26.

³ Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб ... С. 24.

davrga kelib, diniy markaz qanday ko'rinish olganligini bilmaymiz. Diniy markazning quyi qatlamlarida qazishmalar boshqa o'tkazilmagan. Shuningdek, bu davrda Sangirtepada diniy markaz shakllangan. Axomaniylargacha va ilk axomaniylar davrida diniy markaz bo'lganligi bizga ma'lum. Shunga qarab qo'lda yasalgan bezakli sopol davrida ham bunday markazlar bo'lgan deb hisoblaymiz.

Yerqo'rg'on kulollar mahallasi (PI-13) qudratli monumental devorlarning mavjudligi hukmdor saroyi yoki diniy majmua an'anasi ham bo'lganligini anglatadi. Yerqo'rg'onning quyi qatlamlaridan qo'lda yasalgan bezakli sopol davrining qudratli qatlamlari aniqlangan bo'lsa-da, me'morchilik qoldiqlari mavjud emas. Shahar ichki devori atrofida miloddan avvalgi VII-VI asrlarga doir monumental arxitektura yodgorliklari qoldiqlari saqlanib qolgan. Yerqo'rg'onning mudofaa devorlari 3 metrdan ziyod bo'lib, yapaloqsimon g'ishtdan qurilgan. Bu inshootlarning rejaları Ko'ktepaniki kabidir.

Shu tariqa hukmdor saroyining qurilishi Sug'dda qo'lda yasalgan bezakli sopol davridan ancha ilgari sodir bo'lgan. Biroq Samarqand Sug'dida qudratli monumental inshootlar xuddi Qashqadaryo vohasi kabi miloddan avvalgi VIII asr oxiri - VII asr boshlarida vujudga kelgan.

Biz shu paytga qadar Sug'd hududlaridagi urbanizatsiya jarayonlariga asosiy turtki janubdan, ya'ni Baqtriya va Marg'iyona tomonidan bo'lgan deb hisoblardik. Biroq Sug'dning asosiy to'rtta yirik poytaxt shaharlaridagi qurilish materiallari (yalpoq tekis g'isht) mahalliy ildizlarga ega ekanligi tadqiqotlar natijasida oydinlashdi.

Sug'dning yirik to'rt shahrida - Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir va Yerqo'rg'onning quyi qatlamlarida yuqoridagidek yapaloq g'ishtlar aniqlangan. Bunday g'ishtlardan atrofida xo'jalik va jamoaviy hayot rivojlangan diniy markazlar bunyod etilgan. Bu VIII asr ikkinchi yarmi va VII asrning boshlariga oiddir.

Biz Afrosiyob arkining platformasi qachon barpo etilganligini aniq bilmaymiz. Lekin u Ko'ktepadagi g'ishtlarga o'xshash g'ishtlardan qurilgan. Afrosiyobdan qadimiy diniy majmua topilmagan. Agar qadimgi davr ibodatxonalari yoki masjidlari qadimgi diniy majmua o'rnida barpo etilganligini hisobga olsak, Afrosiyobning qadimiy diniy majmualari saroy binolari yonida barpo etilgan bo'ladi.

Hukmdor qarorgohi va diniy majmualarning sinxron tarzda vujudga kelishi Ko'ktepa, Uzunqir, Sangirtepa bilan birgalikda Yerqo'rg'onda ham yuz bergan. Aftidan yirik mudofaa devorlarining paydo bo'lishi keyingi bosqichga xos bo'lib, ilk bosqichda bir-biridan alohida bo'lgan hukmdor qarorgohi va diniy majmua barpo etilgan.

Odatda qadimiy diniy markazlarda doimo mahalliy aholi yig'ilishgan va bu yerda ibodatxona bunyod etilgan. Shuning uchun ilk axomaniylar davrida Sangirtepa va Yerqo'rg'ondagi qadimiy diniy majmualar o'z rejalari asosida vujudga kelgan. Bu qadimgi sharqda axomaniylardan to arablar bosqinigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo ibodatxonalarining asosiy rejasini, masjid va ibodatxonalarining asosiy qurilish rejasiga aylangan. Bularga Yerqo'rg'on, Jartepa, Panjikent, Akbeshim kabi ibodatxonalar misol bo'la oladi.

2-§. Samarqand to'g'risida yunon-rim tarixchilari asarlaridagi ma'lumotlar tavsifi

Samarqandning antik davri tarixi ko'plab antik davr tarixchilarining yozma manbalarida, maqola va kitoblarda hamda arxeologik manbalarda saqlangan. Shunday manbalardan eng qadimgisi miloddan avvalgi I asrlarda yozilgan «Strabon geografiyasi» nomli asar bo'lib, unda keltirilgan voqea va hodisalar, Samarqand shahri nomining eslatilishi miloddan avvalgi IV asrning oxirgi choraklariga, Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyo hududlariga yurishi davriga to'g'ri keladi (329-327-yy.).

Miloddan avvalgi 334-yilda Aleksandr Makedonskiy 30 ming piyoda, 5 ming otliq armiya va 150 ta harbiy kema bilan, 5 yil davomida axomaniylar imperiyasining asosiy viloyatlarini bosib oladi. Axomaniylar imperiyasining oxirgi podshosi Doro III (mil. av. 336-330-yy.) uchta yirik jangda mag'lubiyatga uchragandan keyin tobora sharqiy hududlarga tomon chekina boshladi. Axomaniylar imperiyasining taqdiri miloddan avvalgi 331-yil 1-oktabrda Gavgamel yaqinida bo'lib o'tgan jangdan keyin hal bo'ldi. Aleksandr Bobil shahrini, axomaniylar imperiyasining qarorgohi – Suza, Persepol, Pasargada kabi yirik shaharlarni ham bosib olib, Kaspiy darvozasi tomon yo'l oldi.

Shu bilan Aleksandrning sharqiy hududlar tomon yurishining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Ammo imperiyaning sharqiy hududlaridagi janglar uning g'arbiy hududlariga nisbatan keskin farq qildi. Hamma gap shundaki, sharqiy hududlarda, ayniqsa, Sug'd hududlarida Spitamen boshchiligida bosqinchilarga qarshi keskin janglar boshlanib ketdi. Haqiqatan ham Aleksandr Axomaniylar imperiyasining butun sharqiy hududlarini bosib olish davrida bunchalik qattiq qarshilikka hech qayerda uchramagan edi.

Aleksandr tuzgan rejaga asosan uning «zafarli yurishlarini» tarixchilar, yozuvchilar yozib yurishlari kerak edi. Bu to'g'risida Sitseron ham xabar qiladi: Buyuk Aleksandrning topshirig'iga ko'ra uning yurishlarida tarixchilar va yozuvchilar qatnashib, yunon-makedon armiyasining zafarli yurishlarini doimiy ravishda yozib borishlari va abadiyatga muhrlashlari

kerakligi to'g'risida buyruq berdi¹. Voqea va hodisalarning ichida, ya'ni armiya tarkibida bo'lib, ularni yozib yurganlar ichida lashkarboshi Aristovul o'g'li Aristobul, Laganing o'g'li Ptolemey ham bor edilar. Aynan ularning yozganlari ancha keyinroq yozilgan asarlarda ishlatildi.

Aleksandrning sharqqa yurishi to'g'risidagi ma'lumotlar bir necha asr keyinroq yashagan, lekin uning hayoti va faoliyati to'g'risida tarixchi va yozuvchilar tomonidan yozilgan birlamchi asarlar bilan batafsil tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan Arrian, Kvint Kursiy Ruf kabi tarixchilar tomonidan qoldirilgan². Ayniqsa, Aleksandrning O'rta Osiyo hududlariga yurishlarining batafsil, aniq va ishonarli tafsilotlari yunon Arrian (milodiy II asr)da yaxshi berilgan. Ammo rimlik faylasuf Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) asarlarida ham Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishi to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlar bo'lsa-da, ularning ko'pchilik qismi falsafiy mushohadaga boy. Shunga qaramay, uning asarlaridan ham ko'plab ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shu bilan birga Plutarx (I–II asrlar) va Yustin (II asr) asarlarida Aleksandrning O'rta Osiyoda olib borgan janglari deyarli eslatilmaydi. Miloddan avvalgi I asrda yashagan sitsiliyalik Diodorning XVII kitobi «Tarixiy kutubxona» deb atalib, uning mundarijasida Aleksandr Makedonskiyning barcha yurishlari batafsil bayon qilinganga o'xshaydi. Ammo hamma gap shundaki, uning Amudaryoning o'ng tomonida olib borgan janglari to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qolgan.

Bizgacha yetib kelgan asarlar ichida eng muhim ikkita asar bo'lib, ular Kvint Kursiy Ruf va Arrian asarlaridir. Flaviy Arrianning «Aleksandr Anabasisi» («Aleksandrning yurishlari») yunon tilida yozilgan asardir. Bu asar 7 ta kitobdan iborat bo'lib, shaxsan Aleksandrning xatlari, saroyda tutilgan kundaliklardan, yurishlarning qatnashchilari, ayniqsa, Aristovul va Ptolemey Laganing hamda bizgacha yetib kelmagan manbalarga asoslanib yozilgan. Arrian asli yozuvchi-harbiy bo'lib, imperiyaning turli viloyatlarida xizmat qilib, harbiy san'at to'g'risida ham asar yozgan. Lekin uning O'rta Osiyo hududlaridagi «Aleksandrning yurishlari» to'g'risidagi kitobi eng ishonchli ma'lumotlar qatoriga kiradi³.

Arriandan farqli o'laroq Kvint Kursiy Ruf (I asr boshlarida) ko'pincha falsafiy mushohadalar bilan badiiy tilda yozishga harakat qilib, qahramonlarining so'zlarini ulug'lashga intilgan yozuvchidir. Shuning uchun uning asarlarining qimmatli Arrian asarlarining qimmatidan pastroq. Shunga

¹ Цицерон. «Pro Archia», 10.

² Тревер К.В. Александр Македонский в Согде. (Из истории народов Средней Азии) / ВИ. 1947, №5. С. 113.

³ Арриан. Поход Александра / перевод М.Е.Сергеевко. – М.-Л., 1962. С. 12.

qaramay, Kvint Kursiy Ruf asarlarida Arrian asarlarida uchramagan joylarning borligi hammamiz uchun ham qimmatlidir¹.

Manbalarda keltirilishicha, miloddan avvalgi IV asrning uchinchi choragidan Axomaniylar imperiyasining sharqiy viloyatlarida, shu jumladan, Baqtriya va Sug'd Axomaniylar hokimiyati tomonidan qo'yilgan satrap va uning yaqinlari tomonidan boshqarilar edi. Lekin jamiyatda ham, boshqaruvda ham mahalliy zodagonlar katta rol o'ynar edi. Ayniqsa, yunon-makedon armiyasi hujumi davrida to'g'ridan to'g'ri Baqtriya satrapi Bessga bo'ysunishgan. Boshqa paytlarda esa markaziy boshqaruv apparatiga ham, shuningdek, Baqtriya satrapiga ham bo'ysunilmay qo'yilgan paytlar bo'lgan.

Yunon manbalarida Sug'diyonaning chegarasi janubda Amudaryo va shimolda Sirdaryoning yuqori oqimlari bilan chegaralanishi eslatiladi². Sug'diyona to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni geograf Klavdiy Ptolemeyning asarlarida ko'rish mumkin. U bu ma'lumotlarni bizgacha etib kelmagan geograf tirlik Marinning (milodiy II asr) ma'lumotlariga asoslanib yozgan. Ptolemeyning yozishicha, «Sug'diyonaning janubiy chegarasining bir qismi Oks (Amudaryodan), boshqa qismi Kavkaz tog'lari, Hind tog'lari deb ham ataladi». Bu yerda Paropamiz tog'larining davomi nazarda tutilgan (Paropamiz – Hindukush tog'larining hindcha atalishi).

Ptolemey bo'yicha, Sug'diyona g'arbda Oks daryosi bilan Marg'iyonadan ajralib turgan. Shimolda «Oks tog'lari» «Skifiya» mamlakatidan ajratib turgan bo'lsa, sharqda Yaksart (Sirdaryo) daryosi va Komed tog'lari saklar bilan Sug'diyona o'rtasidagi chegarani tashkil etadi.

Shunday qilib, Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida Sug'diyonaning chegarasi janubda Amudaryo bo'lgan, hatto janubiy Tojikiston, O'zbekistonning Surxondaryo viloyati hududlari (o'rta asrlardagi Toxariston ham) bo'lsa, shimoliy va sharqiy chegarasi Sirdaryo bo'lgan. Ammo keyingi davrlarda, ayniqsa, o'rta asrlarda arab geograflari tomonidan Sug'd deganda faqat Zarafshon vodiysi tushunilgan.

Miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid axomaniy podsholari tomonidan qoldirilgan yozuvlarda, bu podsholik tomonidan bosib olingan satrapliklar sanalgan ro'yxatda Suguda (*Suguda*) atamasi ishlatilgan. Yozilgan xatlarning birida Axomaniylar imperiyasining podshosi Doro III ning Suzadagi saroyini bezash uchun qimmatbaho toshlar Sug'ddan lojuvard va qizil serdolik, Baqtriyadan oltin, Xorazmdan «qora tosh» olib kelingani

¹ *Квint Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги / под редакцией В.С.Соколова. – М., 1963. С. 21.*

² *Страбон. «География» (II, 73; XI, 514, 517).*

to'g'risidagi xabar bor. Lekin Old Osiyoda miloddan avvalgi IV ming-yillikdan boshlab lojuvard qazib olinadigan asosiy makon Badaxshon hisoblangan¹. Aslida Sug'd hududida lojuvard konlarining borligi ma'lum emas. Shuning uchun lojuvard minerali bor hudud Badaxshon axomaniylar imperiyasi davrida Sug'd satrapligiga kirgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, miloddan avvalgi VI–V asrlarda axomaniylar sulolalarining yozuvlari bo'yicha Sug'd alohida satraplik sifatida eslatilgan deb tushunishni taqozo qiladi.

Axomaniylar imperiyasiga soliq to'laydigan okruglar ro'yxatida Sug'd Parfiya, Xorazm va Ariyaning (hozirgi Hirot o'rnidagi viloyat) XVI okrug tarkibiga kirganligi to'g'risidagi xabar bor. Aynan shu ro'yxat axomaniylar podsholaridan biri Kserks hukmronligi (486–465-yy.) va Artakserks I (465–423-yy.) davrlarida sharqiy Eron satrapliklarining ancha kengayib borganligini ko'rsatadi. Axomaniylar davri yozuvlarining yana boshqa talqini, ya'ni shu imperiyaning ancha qadimgiroq davri Gerodot bo'yicha talqin qilinganda Kir, Kambiz va Doro I davrining siyosiy-ma'muriy bo'linishini va hatto Midiya imperiyasi davrini eslatuvchi manba ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bor².

Arrian va Kvint Kursiyning miloddan avvalgi IV asrda yashagan podshoh Doro III davriga oid ma'lumotlarida Sug'd viloyati hindlar va baqtriyaliklar bilan birgalikda, ya'ni Baqtriya satrapligi tarkibida uchraydi. Ularda ta'kidlanishicha, Axomaniylar imperiyasi o'zining yunon-makedon armiyasiga qarshi kurashida doimo turli satrapliklarning yordamiga tayangan. Masalan, Doro III davrida sug'diylar Bess boshchiligidagi Baqtriya satrapligi tarkibida hindlar (Hindistonning shimoliy chegaralaridagi qabilalar bo'lishi kerak) baqtriyaliklar bilan birgalikda janglarda qatnashishgan. Arrianning xabar berishicha, Gavgamej jangida skiflar ham qatnashishdi (Osiyo skiflari), ammo ular Bessga bo'ysunishmagan, balki to'g'ridan to'g'ri Doroning ittifoqchisi sifatida jangda qatnashib katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Bu jangda saklarga Mavak bosh bo'lgan bo'lib, ular o'ni boshqarishda, otdan kamon otishda mohir edilar³. Kvint Kursiy Ruf sharqiy Eron va o'rta osiyolik harbiylarning harakatini quyidagicha tasvirlaydi: armiyaning chap qanotida baqtriyalik mingta otliq, yana shuncha daxlar, araxozlar va suzianlar to'rt ming kishini tashkil etishdi. Ularning orqasidan yuzta o'roqsimon tumshuqli aravalar,

¹ *Hersfeld. Altpersische Inschriften.* – Berlin: 1938. P. 232–233.

² *Дьяконов И.М. История Мидии.* – М.-Л., 1956. С. 349–357.

³ *Арриан. III. 8. 3. Квинт Курций Руф. IV. 12. С. 6–8.*

ularning ortidan 8 ming otiqdan iborat baqtriyaliklar, bu otiq baqtriyaliklarning orqasidan 2 mingta massagetlar harakatlanishgan. Ko'p hollarda piyodalarni otiqlar bilan qo'yishmas edi. Lekin har qaysi qo'shin guruhi o'zlarining guruhlari bilan birga bo'lishga harakat qilishar edi¹.

Shunday qilib, biz Bessning Gavgameldagi harbiy harakati misolida uni qaysi satrapliklar va xalqlar qo'llab-quvvatlaganini aniq ko'rishimiz mumkin. Bu urushda yunon-makedon armiyasining qo'li baland keldi. Endilikda yunon-makedon armiyasiga qarshi kurashda ilgari Eronning birlashgan armiyasi tarkibida bo'lgan xalqlarning o'zlari qarshi kurashishi kerak edi. Ilgari Eronning juda og'ir soliqlarini to'lab kelgan sharqiy Eron, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari Aleksandrning juda yirik harbiy mashinasiga qarshi jang qilishi kerak edi. Bu janglarda faqat forslarning o'zlari qatnashishmagan. Axomaniylar o'z paytida ularni soliqlardan ham ozod qilishgan. Axomaniylarning satrapliklardan har yili to'playdigan soliqlarining miqdori 14560 talant bo'lgan. Bu to'rt tonna kumushning qiymatiga to'g'ri kelgan. Bu to'lanadigan soliqlarning katta qismi g'arbdagi satrapliklarga to'g'ri kelar edi. Chunki bu hududlar iqtisodiy jihatdan ancha to'q bo'lgan hududlar qatoriga kirgan. Sharqiy Eron va O'rta Osiyo xalqlari ham anchagina soliq to'lashlari kerak edi. Gerodotning xabar berishicha, Baqtriya 360 talant, Parfiya, Xorazm, Sug'd va Ariya 300 talant, saklar va kaspilar 250 talant, umuman, O'rta Osiyoning uchta satrapligi axomaniylarga 910 talant kumush to'lashi kerak edi. Bu miqdor Axomaniylar imperiyasiga soliq to'laydigan eng boy satrapliklar Bobil va Ossuriyadan biroz kam edi, xolos². Bulardan tashqari, satrapliklardagi aholi natural soliq ham to'lashar edi. Bunday soliqlar podsholarga (satraplarga ham bo'lsa kerak) atalgan turli mahsulotlar va ayniqsa, vino sovg'a tarzida berib turilgan. O'rta Osiyoda suvga ham soliq joriy etilganligi, ayniqsa, suv omboridagi shluzlarni ochish uchun soliq bo'lganligi to'g'risida yozma ma'lumotlar saqlanib qolgan³.

Sug'diylar ham bosib olingan xalq sifatida majburiy mehnatga jalb etilgan. Bundan tashqari, barcha satrapliklar aholisi, shu jumladan sug'diylar ham majburiy harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan. Ular harbiy to'qnashuvlar davrida axomaniylar imperiyasining askari sifatida jang qilishga majbur edilar. Axomaniylar imperiyasining turli hududlaridagi harbiy qismlarda turli satrapliklarning askarlari xizmat qilgan.

¹ *Кавитт Киртуйи Ругф.* IV, 12. С. 6–8.

² *Геродот.* III. С. 92–93.

³ *Геродот.* III. С. 117.

Shunday qilib, Aleksandr Makedonskiy armiyasi o'rtta osiyoliklarning harbiy kuchi, ularning qurol-aslahalarining mustahkamligi va ayniqsa, ularning qarshilik kuchlarining qanchalik yuqori ekanligini sezishgan.

Sug'd va unga kirgan hududlar to'g'risida eng qadimgi diniy ma'mun va rivoyatlardan iborat bo'lgan asar Avestoda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgilari miloddan avvalgi VIII–VII asrlarga oid bo'lib, ularning ham asosiy qismlari milodning IV–V asrlarida ko'chirilgan nusxasi tufayli biz shunchalik qimmatli materiallarga egamiz. Qolaversa, Avestoning bizgacha yetib kelgan ma'lumotlari ham juda qisqa bo'lib, uning katta qismi yo'qotilgan.

Bizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarning eng muhimi Sug'd va uning turli hududlari to'g'risida berilgan ma'lumotlarning borligidir. Jumladan, bu asarda Hirot yaqinidagi Paropamiz tog'laridan Marv vohasigacha, Amudaryo qirg'oqlaridan Orol dengizi va Sirdaryo atroflaridagi viloyatlargacha bo'lgan hududlar to'g'risida ma'lumotlar bor. Bularning hammasi Mitra tufayli bo'lganligi qayd etiladi. Va bu hududlarda Ishkat va Parutga, Hirot va Marvga, Sug'd Gavasiga va Xorazmga daryolar qaynab, toshib tog'lardan suv olib kelishi yozilgan. «Sug'd Gava» atamasi Avestoning Videvdad I bobida, dunyoning yaratilishi jarayonlari to'g'risida yozilgan qismida uchraydi. Unda aytilishicha, Eranvej yaratilib bo'lishi bilanoq buyuk xudo Ahuramazda sug'dlarning yashash makoni Gavani yaratdi¹. Sharqshunos olimlarning fikricha, «Gava» atamasi dastlab «hayvonlar uchun qo'ra», keyin «turar joy, qishloq» va «yashash makoni» kabi ma'nolarni bildirgan. «Gav» atamasini ayrim olimlar arab manbalari tomonidan eslatilgan «Qay» – «Fay» bilan qiyoslaydi. Chunki V.V. Bartoldning aytishicha, «Qay» atamasi arab tilida «Fay» bo'lib o'qilishi kerak². Shuning uchun Markaziy Sug'd hududidagi eng yirik kanallardan birining nomi ham «Nahri Fay» deb atalgan.

«Gava» atamasi «Sug'd» atamasining sinonimi ekanligini juda ko'p olimlar ta'kidlashgan. Gavani Yerning yettita juda muhim o'lkasidan biri sifatida ifoda etgan. Sug'd to'g'risida o'rtta fors davri manbalari ham xabar beradi. Gava mamlakati afsonalarning butun boshli sikli bo'lib, ular ichida eng mashhurlari Gopatshoh bo'libdir. U mamlakat podshosi sifatida ta'riflanadi (Gopatshax – dunyoning egasi). Bu podshohning

¹ Benzeniste E. L'Eran-vezet l'origine Kegendaire des Iraniens / «Bulletin of the School of Oriental Studies», London, vol. VII, pt. 1, 1936. P. 269.

² Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинения. Том I. – М., 1963. С. 144, 148, 184; Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана / Сочинения. Том III. – М., 1965. С. 117, 197–198.

ko'rinishi tasviriy san'at asarlarida ham tasvirlanganligi ma'lum¹. Avestoda Gopatshoh nomi oriylar bilan turlar o'rtasidagi jang tafsilotlarida uchrasa, aynan shu epizodlarga o'rta asrlardagi «Shohnoma»da ham duch kelamiz.

«Sug'd» atamasi miloddan avvalgi VI asrlardan boshlab yozma manbalarda uchraydi. Axomaniylar va qadimgi fors manbalarida (elam va akkad yozuvlarida) Suguda (*Suguda*) tarzida yozilgan bo'lib, «Sug'd» atamasi to'g'ri yozilganligini ko'rsatadi. Yunonlar bu atamani Sogdiana deb aytishdi. Avestoda «Sug'd» atamasi sharqiy Eron shakli sifatida Sug'da, *Suxda*, qadimgi arman matnlarida *Sovdik* (*Sovdik*), suriyaliklar tilida *Sod* (*Sod*), qadimgi turk tilidagi runiy yozuvlarida *Sog'd*, *Sog'diq*, Mahmud Koshg'ariy lug'atida *Sog'dak* shaklida berilgan. Sug'dlarning o'zlari o'z mamlakatlarini *Sug'd*, *Sg'ud* va *Sug'ud* deb aytishgan. Milodiy VII asrda xitoy sayyohi Syuan Szyan Sug'dni *Suli* deb aytadi va bu hududga Chu daryosidan Temir darvozagacha bo'lgan hududlarni kiritadi.

Albatta, Sug'dning chegaralari eng qadimgi davrlardan o'rta asrlargacha bo'lgan vaqt ichida tobora torayib borgan va «Kichik Qandiya» asarida Samarqand podsholigi ellik sakkiz farsang masofada ekanligi va unga Xo'jand daryosidan Temir darvozagacha bo'lgan hududlar kirishini, shuningdek, Samarqand atrofida joylashgan «kasaba»lar va shu bilan birga Sug'd atrofida joylashgan «kasaba»lar to'g'risida yozadi². Haqiqatan ham Kitob-Shahrisabz vohasida yashagan aholi o'zini *sug'uti*, ya'ni sug'diylar deb kelganliklari to'g'risida etnografik ma'lumotlar bor³.

Shunday qilib, Sug'd o'lkasi va sug'diylar nafaqat Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida, shu bilan birga Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Sharqiy Turkiston va Chuy vodiysi hududlarida juda katta ta'sir darajasiga ega edilar.

3-§. Makedoniyalik Aleksandrning Samarqandga yurishi

Miloddan avvalgi 334-yilda Aleksandr Makedonskiy Eron hududlarini bosib olish uchun o'zining yurishlarini boshladi. Bunday katta hajmdagi harbiy yurishni insoniyat o'sha davrgacha bilmagan edi. Oxiri butun imperiya Aleksandr armiyasi oldida taslim bo'ldi.

¹ Григорьев Г.В. Поселения древнего Согда (по данным исследования городищ Самаркандского района), КСИИМК VI. – М.-Л., 1940. С. 28; Тревелл К.В. Гопалшах – пастух-царь / Труды Отдела культуры Востока Государственного Эрмитажа. Том. II. – Л., 1940. С. 71–86.

² Кандия Малая / перевод В.А.Вяткина // СКСО, вып. VIII. – Самарканд, 1906. С. 253.

³ Кармышев Б.Х. Этнические и территориальные группы населения северо-восточной части Кашкадарьинской области Узбекской ССР // Краткие сообщения Института Этнографии АН СССР. Вып. XXXIII. – М., 1960. С. 56–57.

Gavgamel jangi Axomaniylar imperiyasi taqdirini hal qilgan bo'lsa, ammo Bess boshchilik qilgan Baqtriya satrapligining armiyasi o'zining harbiy qudratini yo'qotmagan edi. Shuning uchun bu armiya sharq tomonga chekinib, o'zining armiyasini dushmanga qarshi kurashga tayyorlay boshladi. Miloddan avvalgi 329-yilda Doro III o'limidan keyin Bess o'zini podsho deb e'lon qilib, Artakserks nomini oldi va «Osiyo podshosi» degan nomga sazovor bo'ldi. Juda tezlik bilan jangdan qochgan askarlarni, baqtriyaliklarni, forslarni, sug'diylar, saklar va Tanais bo'ylab yashaydigan boshqa qabilalarni ham yordamga chaqirib, o'z armiyasini to'ldira boshladi¹. Aleksandr armiyasi esa Kaspiy dengizi bo'ylab yurib, biron-bir keskin qarshilikka uchramadi va natijada Parfiyani to'liq egallab o'z armiyasiga biroz dam bergandan keyin Baqtriya tomon yurishni boshladi.

Bess imkon qadar Baqtriya hududlaridan Tanais Sirdaryo bo'ylarigacha bo'lgan hududlardagi aholidan jang qila oladigan qismini armiyaga chaqirishga harakat qildi. U mahalliy aholining o'z yerini dushmandan himoya qilish hissiyotidan foydalanib axomaniylar taxtini, ularning sulolasini saqlab qolishga harakat qildi. Bess sharqiy viloyatlarning (Baqtriya Sug'd bilan, Arey, Afg'onistonning janubiy viloyatlari) koalitsiyasini tuzishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa ham, ammo Aleksandr Makedonskiyning juda katta kuchiga teng keladigan armiyani tuza olmadi.

Aleksandr Areyada tashkil etilgan qo'zg'olonni bostirgandan keyin Bess boshchiligidagi Baqtriyani zabt etishga yo'l oldi. 329-yilning bahorida Aleksandr Hindukush tog'laridan oshib o'tib Baqtriyaga kirib bordi va Drapsaku shahrini egalladi (Qunduz bo'lishi kerak). Arrianning xabar berishicha, bu vaqtga kelib, Doro davrida qamalgan baqtriyalik 7000 asir ozod bo'lib, Bess armiyasiga kelib qo'shilgan. Tanaisning narigi tomonidagi daxlardan ham kelishdi. Shunga qaramay Bess armiyasining umumiy soni Aleksandr armiyasidan ikki barobar kam edi. Buning ustiga baqtriyaliklarning o'zi Bessni unchalik qo'llab-quvvatlashmadi. Bess esa faol harakatlar olib bora olmadi. U faqat Aleksandr bostirib kelayotgan joylarni cho'lga aylantirishga harakat qildi. Aleksandr juda qiyinchilik bilan harakat qildi, chunki bu yerlarda ancha qalin qor yog'ar edi². Bess Baqtriyani qo'ldan boy bergandan keyin Oks daryosidan Sug'd hududi tomon o'tdi va uning maqsadi bu yerdan Aleksandr armiyasiga qarshi kuch to'plash edi. Bess bilan birgalikda Oks daryosidan sug'dlik Spitamen, baqtriya aslzodalarining vakili Oksiart, peretakilik Katan va Tanais ortidan kelgan daxlar ham daryodan o'tishdi. Ammo daryodan o'tishgandan keyin

¹ Арриан, III, 25, Э; Коштин Курций, VI, 6, 13.

² История таджикского народа. Т. I. С. 241.

Bessning qochganligini bilishgach, u bilan kelgan barcha jangchilar ham tarqab ketishdi¹. Shunday qilib, Aleksandr Baqtriyani deyarli qarshiliksiz bosib oldi. U dastlab Baqtriyaning Aorna (hozirgi Toshqo'rg'on) va mamlakat poytaxti Baqtrani egallab oldi.

Aleksandr shundan keyin, Sug'd tomon hujumga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Aleksandrning Baqtriya va Areyada o'zini tutishi, uning mahalliy aholiga bo'lgan munosabati, yunonlarning qilayotgan ishlari axomaniylardan ham ko'ra yomon bo'layotganligini bilgan mahalliy aholi hamda janglarda qatnashgan sug'diylar, daxlar va boshqa xalqlar uchun katta maktab bo'ldi. Ayniqsa, atrofdan kelgan jang qatnashchilari yunonlar armiyasining tarkibini, ularning harakat qilish, turli hiylalarni ishlatish yo'llarini o'rganib olishdi. Bu yerdagi janglardagi tajribalar Sug'dda kelgusida olib boriladigan janglar uchun ijobiy natija berishiga ishonch hosil qilishdi.

Aleksandr Makedonskiyning Sug'd hududlaridagi harakati to'g'risida sharqshunos olimlardan V.V. Grigoryevning «Buyuk Aleksandrning G'arbiy Turkistonga yurishi» asari², nemis astronomi F.Shvarsning «Yunon-Makedon armiyasining Amudaryo ortiga yurishi» nomli asari³, ingliz tarixchisi V.V. Tarnning urush davrini o'rganib sug'diylarning xaloskori Spitamenga bergan baholari⁴, sovetlar davri sharqshunosi K.V. Treverning O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashidagi mardonavorliklari⁵, B.A. Litvinskiyning yunon-makedon bosqini davriga oid tadqiqot va kuzatishlari alohida ahamiyat kasb etadi⁶.

Bess Amudaryodan o'tgandan keyin barcha qayiq va kemalarni yoqib Nautakaga jo'nab ketdi. Ko'pchilik olimlar bu shaharni Kesh vodiysidagi Uzunqir va Sangirtepa xarobalari bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

Aleksandr armiyasining Amudaryodan o'tishi 5 kun muddatni talab qildi. Teridan yasalgan meshlarga somon tiqishib, sollar yasaldi va ular yordamida barcha askarlar Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib olishdi (Amudaryodagi kechuvning o'rni unchalik aniq emas. Olimlar bu kechuv Kelif, Cho'chqaguzar yoki Termiz yaqinida bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi).

¹ *Арриан*, III, 28, 10.

² *Журнал Министерства народного просвещения / Часть ССХVII. – СПб., 1881. С. 24–67; 175–208.*

³ *История таджикского народа. Т. I. С. 28–29.*

⁴ *Tarn W.W. Alexander conquest of the Far East / The Cambridge ancient history. Vol. VI. – Cambridge, 1933. P. 390–400.*

⁵ *Тревер К.В. Александр Македонский в Согде / В книге История народов Узбекистана, Т. I. – Ташкент, 1950. С. 57–69.*

⁶ *Литвинский Б.А. История таджикского народа. Т.I. С. 236–274, 523–532.*

Aleksandr Amudaryodan o'tgandan keyin birinchi qilgan ishi yunon-branxidlar yashaydigan shaharchaga keldi. Branxidlar asli Yunonistonning Milet shahridan bo'lib, miloddan avvalgi V asrda ularga ishonib topshirilgan didimlik Apollon ibodatxonasida saqlanadigan qimmatbaho xazinani Kserksga bergan va buning uchun o'zlarining vatandoshlarining g'azabi oshishidan qo'rqishib, Kserks bilan birga Osiyoga jo'nab ketgan edilar. Shundan boshlab miletliklar branxidlarning sotqinligidan nafratlanib yurishar edi. (Ayrim manbalar Aleksandr branxidlar yashaydigan joyni qidirib topib, ularning bittasini ham qoldirmasdan qirib tashlagani to'g'risida xabar berishadi.) Shunday qilib, branxidlar ibodatxonada saqlanadigan buyumlarni begonalarga berib yuborganiga yaqin yuz yildan oshiqroq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, o'sha gunohkor odamlarning o'g'il-qizlari yoki nabiralari javob berishdi, ya'ni ota-bobolari qilgan ish uchun nabiralar qatl etildi¹.

Ko'p o'tmay Bess yashiringan qal'a topilib, u qo'lga olinadi. Shundan keyin Aleksandr o'z armiyasini mahalliy otlar bilan to'ldirib, Sug'dning yirik poytaxt shahri Marokanda (Samarqand) tomon yo'l oladi².

Aleksandrning Marokandaga qaysi tomon bilan yo'l olganligi to'g'risida olimlar o'rtasida munozaralar bo'lib, ulardan biri M.E. Masson Aleksandr Kelif atrofida Amudaryodan o'tgandan keyin qumli cho'l zonalarini orqali, Qarshi vohasidagi eng yirik va qadimgi shahar xarobasi Yerqo'rg'onga kelgan deydi. Chunki u Navtaka shahrini Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar bo'lishi kerak deb o'ylaydi. Ammo hozirgi paytda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar bu Ksennipa va aksincha, Navtaka Kesh-Shahrisabz vohasida bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, Aleksandr qo'shinlari Navtaka orqali Zarafshon tog'larini janubi-g'arbiy tomondan aylanib o'tib Jom qishlog'i tomondan Marokandaga borgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Jom atroflaridagi dasht hududlari mahalliy aholi tomonidan «Dashti Iskandar» deb aytiladi. Ayrim tarixchilar Aleksandrni Marokandaga kelib muzokaralar olib borishi natijasida uni urushsiz egallaganligi to'g'risida yozishadi. Ammo Kvint Kursiyning yozishicha, Aleksandr Marokandani olgandan keyin u yerda harbiy qism qoldirib, atrofdagi qishloqlarning aholisini qirib, uylarini yoqib yuboradi³. Marokandada garnizon qoldirib Aleksandr Ustrushona orqali Sirdaryo tomon yo'l oladi. Ammo bu armiyani tog'li hududlarda

¹ O'sha davrni yoritgan eng mashhur Arrian asarida branxidlarning o'ldirilganligi to'g'risida biron-bir fikr aytilmaydi.

² *Appian.* III. C. 30, 6.

³ *Квинт Курций.* VII. C. 6, 10.

pistirmalar kutib turgan edi. Aleksandr katta kuchni tog'li sug'diylarga qarata boshladi. Tog'lik sug'diylar turli pistirmalardan foydalanib dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Juda ko'plari qirib tashlandi. Tog'li qochqinlarning umumiy soni 30 000 edi. Ulardan faqat 8000 tasi tirik qoldi. Bu urush Ustrushona tog'larida bo'lib o'tdi. Ushbu hududlar manbalarda «Sug'd tog'lari» deb keltiriladi¹.

Aleksandr Sug'd tog'laridagi qarshilikni sindirgandan keyin Sirdaryo bo'ylari tomonga yo'l oldi. U Yaksart daryosiga yetib borganidan keyin daryoning ikkinchi tarafidagi skiflar («abiy skiflari» va «yevropa skiflari») dan elchilar kelganligi va ular bilan muzokaralar olib borganligi to'g'risidagi xabarlar bor. Aynan shu joylar to'g'risida gap ketganda, mualliflar Sirdaryoni Tanais daryosi deb yozishadi. Ammo Strabon Eratosfengga havola qilgan holda «Yaksart daryosi saklarni sug'diylardan ajratib turadi» deb keltiradi².

Aleksandr bilan uchrashish uchun elchilar kelgandan keyin u ham, o'z navbatida, skiflar tomonga elchilar jo'natgani to'g'risida ma'lumotlar bor. Aleksandr mahalliy aholiga «skiflar bilan do'stlik shartnomasini tuzyapmiz, desa ham ammo ularning asosiy maqsadi skiflarning tabiati bilan tanishish, aholi sonining umumiy miqdori, ularning urf-odati, urushga qanday qurollar bilan borishi» kabi maqsadlarni qo'ygan edi³. Xuddi shu masalada Kvint Kursiy Rufning ham qarashlari saqlanib qolgan bo'lib, u Aleksandr yuborgan elchilar «skiflarning daryodan so'roqsiz o'tmasliklari kerak»ligini aytib qo'yishlari kerak edi⁴.

Ammo Aleksandr Yaksart bo'ylarida o'zining «Uzoq Aleksandriya» nomli shahrini qurishni boshlab, saklar bilan muzokaralar olib borayotgan bir vaqtda «daryo bo'ylaridagi skiflar» qo'zg'olon ko'tarib, yunonlar shaharlarda qoldirib ketgan harbiy qismlarga hujum boshlashgani to'g'risida xabarlar keldi. Shu qo'zg'olonlar bilan bir vaqtning o'zida Spitamen boshchiligidagi sug'diylar Marokanda qal'asida qoldirilgan garnizonni qurshovga olishdi⁵. Aleksandr Spitamen bilan Kraterga murojaat qilib, aholini tinchitishda yordam berishini so'raydi. Ammo Spitamen Aleksandrning bu iltimosi hiyla ekanligini yaxshi tushunadi va bu taklifga qarshi butun aholini qo'zg'olon ko'tarishga chaqiradi.

«Spitamen» nomi «yaxshi niyatlar egasi» ma'nosini bildiradi. Spitamenning qizi Aleksandrning buyrug'i bilan Selevkka xotinlikka berilgan-

¹ Клавдий Птолемей, VI. С. 12, 2.

² Страбон. География, XI. С. 8.

³ Арриан. IV. С. 3.

⁴ Квинт Курций. VII. С. 12.

⁵ Пьянков И.В. Мараканды / ВДИ. – М., 1970. С. 32–48.

ligi ma'lum. Avestoda esa Spitama ismi doimo Zaratushtra ismi bilan birgalikda keladi. Aleksandrning Ustrushona tog'laridagi qo'zg'olonidan keyin ularni ayovsiz qirganligini yaxshi bilgan Spitamen ham va uning orqasidan ergashuvchilar ham yunon bosqinchilariga qarshi imkon qadar kurashish rejasini tuzishdi¹. Samarqandliklar bilan bir vaqtning o'zida Sirdaryo bo'yidagi shahar va qishloqlarning aholisi ham qo'zg'olon ko'tarishdi. Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning biri Gaza shahri bo'lib, mutaxassislar bu shahar Nov shahri o'rnida bo'lganligi to'g'risida yozadilar². Shunda Aleksandr Marokanda qal'asida qurshovda qolgan harbiy kuchlarga yordam berish uchun lashkarboshilaridan Farnuk va Karen boshchiligida qo'shimcha katta kuch yuboradi. Qo'shimcha kuch kelgunga qadar Spitamen shaharni to'liq egallaydi.

Yaksart bo'ylaridan Aleksandr yuborgan qo'shimcha kuch nihoyatda ko'p bo'lganligi uchun ham Spitamen Marokandani tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Shunda Aleksandr qo'shinlari Marokandani butunlay yoqib yuborigani ehtimoli yuqori. Afrosiyobdagi ko'p yillik qazishma ishlari bunga guvohlik beradi.

Samarqand shahrining axomaniylar davridagi maydoni 220 gektar yerni egallagan bo'lib, u yo'laksimon qilib qurilgan (koridor tipidagi), usti tom shaklida yopilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan edi. Bundan tashqari, shaharning ark-u a'losi ham uning boshqa qismlaridan xuddi shunday devor bilan ajratilgan edi. Shaharning barcha yeridagi mudofaa devorlarida qancha arxeologlar ish olib borgan bo'lsalar, ularning hammasi ham mudofaa devorlarining ichini xuddi tandirning ichiday bo'lib kuyganligiga iqror bo'lishgan. Shuning uchun ham biz Aleksandrni «Marokandani tinch yo'l bilan, muzokaralar yo'li bilan oldi» degan xabarga ikki xil yondashamiz.

Yunon tarixchisi Arrianning Spitamen «Marokandani tashlab shimolga, «Sug'd poytaxtiga» (Basileyaga) ketdi» degan xabari bor³. Tarixchining aynan shu xabari to'g'risida juda ko'p vaqtlardan buyon matbuotda turli darajadagi ilmiy munozaralar bo'lib kelmogda. Chunki bu xabardan ikki xil ma'noni anglashimiz mumkin. Yo «Sug'dda ikkita poytaxt shahar bo'lgan» yoki «bu manbani yozishda Arrian adashgan», degan tushunchalarni olish mumkin.

Bu yozma manbaga ellinizm davri yozma manbalari mutaxassislari V.V. Grigoryev, I.G. Droyzen, K.V. Trever, V. Tomashek, B.A. Litvinskiy, V. Shvars, I.V. Pyankov, V.V. Bartold kabi yirik olimlar o'z munosabatlarini bildirganlar. Jumladan, V.V. Grigoryev, I.G. Droyzen, K.V. Trever va

¹ Treвер К.В. Александр Македонский в Согде. ... С. 115.

² История таджикского народа. ... С. 255, 528–529.

³ Арриан. IV. С. 5

V.V. Bartold «ikkinchi poytaxt» Zarafshonning quyi qismiga, Buxoro o'rnida joylashganligini ilgari surishadi. Y.A. Monchadskaya «podshoning ikkinchi shahri» yoki «Sug'dning ikkinchi poytaxti borligi» to'g'risidagi ma'lumot noto'g'ri ekanligi, u yozuvdagi «Basileya» emas, balki «Basista», ya'ni ov qiladigan qo'riqxonaga bo'lishi kerakligi to'g'risida yozadi. Xullas, ko'pchilik olimlarning fikricha, Sug'dning ikkinchi poytaxti bo'lgan va uni Buxoro bilan bog'lashadi¹.

Boshqa bir guruh olimlar, jumladan, A.S. Sagdullayev bu poytaxt shaharning o'rnini Qashqadaryo vohasi (Yerqo'rg'on) bilan bog'lashga moyilligini bildiradi. Bunday turli munozaralarning vujudga kelishining asosiy sababi arxeologlarning 1990-yillarning boshlarigacha Samarqanddan 30–35 km shimolda Ko'ktepa degan yirik yodgorlik borligini, uning quyi qismlari axomaniylar va axomaniylargacha bo'lgan davrga tegishli ekanligini bilmaganliklarida edi.

Shu o'rinda tarixchilar qoldirgan «Spitamening Marokandani tashlab chiqib ketishi» to'g'risidagi epizodni eslashimiz kifoya. Yozma manbada «Spitamen Marokandani tashlab shimol tomonga ketdi» deyilgan, «g'arbga» emas. Haqiqatan ham Ko'ktepa Samarqandga nisbatan shimol tomonda joylashgan, g'arbda, ya'ni Buxoro tomonda emas. Xuddi shuningdek, Qashqadaryo vohasidan «ikkinchi poytaxt»ni qidirishga hojat qolmaydi, chunki u mutlaqo qarama-qarshi tomonda joylashgan².

Ko'ktepada olib borilgan arxeologik izlanishlar bu yer miloddan avvalgi mingyillik o'rtalariga oid yirik shahar xarobasi ekanligi, shahar tarkibiy qismlaridan yirik ibodatxona qoldig'i, shahar hokimi saroyining o'rnini va shaharning 100 gektarga yaqin maydonni o'rab olgan mudofaa devori topib o'rganildi. Shularni hisobga olib, o'sha yozma manbalarda eslatilgan «ikkinchi basileya» yoki «podsho shahri» aynan Ko'ktepa o'rnida bo'lganligini ta'kidlash lozim³.

Bizningcha, aynan shu yerda Sug'd davlati podshosining qarorgohi bo'lganligi ehtimoli yuqori. Chunki Spitamen Marokandani Aleksandr qo'shinlarining katta bosimi ostida tashlab Ko'ktepa qal'asi, ibodatxonasi va shaharning mudofaa devorlari mustahkam ekanligini hisobga olib, shu yerda qo'shimcha kuch to'plab yana jangga tayyorlanishni maqsad qilib qo'ygan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham yozma manbada uni «shimolga, Basileyaga ketdi» deya keltiriladi.

¹ Мончадская Е.А. О «царском городе» или «второй столице» Согдианы / ВДИ. – М., 1959. – №2. С. 116–121.

² Исмаилов М.Х. Истоки городской культуры. ... С. 136–142.

³ Арриту. IV. С. 6.

Aleksandr qo'shinlari Spitamenni bu yerda ham tuta olmaganlaridan keyin shaharga, jumladan, mahalliy aholi uchun eng muqaddas bo'lgan ibodatxonaga o't qo'yib yuborgan. Biz bu yerda qazishma ishlarini olib borish jarayonida ibodatxonaning katta yong'in tufayli halokatga uchraganligining guvohi bo'ldik.

Shundan keyin Spitamen Aleksandrga qarshi kurashni payt poylab turib vaziyatga qarab amalga oshirishga harakat qildi. Yozma manbalarda keltirilishicha, Spitamen serdaraxt joy hisoblangan, yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan va ov qilinadigan qo'riqxonada pistirma qo'yib Aleksandrning kelishini kutgan¹.

Podsholar ov qiladigan qo'riqxonaning o'rmi to'g'risida ham olimlar turlicha fikrlarni bildirishgan. Manbalarda bu yerdagi qo'riqxonada faqat mahalliy podsholargina emas, balki Aleksandr ham ov qilganligi to'g'risida ma'lumot bor².

Ulardan sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy geografiya» asari juda qimmatli bo'lib, boshqa hech qaysi muallif foydalanmagan manbalar asosida yozilgan. Undagi bo'limlardan birining mazmuni bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham uning sarlavhasi yetib kelgan. Bu sarlavha quyidagicha mazmunda: «Basistadagi ov va unda hayvonlarning ko'pligi to'g'risida». Bu sarlavhaning o'zi haqiqatan ham Marokanda atroflarida qo'riqxonalar bo'lganligi va unda ko'p yillardan buyon ov qilinmaganligi tufayli bu yerda hayvonlarning ko'pligini ko'rsatib turibdi.

Shu qo'riqxonaning o'rmi to'g'risidagi qator nuqtayi nazarlar orasida V.Tomashekning fikri diqqatni tortadi. U «bu qo'riqxonalar tog'li hududdagi serdaraxt, o'rmonli va buloqlarga boy, shu bilan birga Marokandaga yaqin joyda» deb aytadi. Bu fikrga biz ham qo'shilmaymiz, chunki tog'li hududning atrofini devorlar bilan o'rab bo'lmas edi. Manbalarda bu qo'riqxonalar atrofida maxsus devorlar bilan o'rab olinganligi to'g'risida yoziladi.

E.A. Monchadskaya yunonlardagi «paradis» so'zining o'zi ham eron tillaridan (fors tilidan emas) olingan bo'lib, «atrofi o'ralgan serdaraxt joy» ma'nosidadir va keyinchalik bu termin bilan qo'riqxonalar ataladigan bo'ldi» deydi. Bunday qo'riqxonalar dastlab Midiyada borligi ma'lum edi va bunday an'ana u yerdan boshqa hududlarga tarqalganga o'xshaydi.

Aleksandrning Marokanda atroflarida bo'lishiga doir voqealarni kuzatishda davom etar ekanmiz, yana quyidagi jihatlarga ahamiyat bersak

¹ Арриан. IV. С. 6.

² Григорьев Г.В. Тали-Барзу как памятник домусульманского Согда // Архив Республиканского Музея Истории, культуры и искусства Узбекистана. – Самарканд, 1941. – № 636. С. 67.

yaxshi bo'lar edi. Aleksandr Makedonskiy Spitamen izidan shimol va shimoli-g'arb tomonlarga yuradi. Spitamen o'rmonliroq joy hisoblangan, yovvoyi hayvonlar boqiladigan va ov qilinadigan qo'riqxonada pistirma qo'yib Aleksandrning kelishini kutdi¹.

Bizningcha, yovvoyi hayvonlar boqilib ov qilish mumkin bo'lgan o'rmonli joy faqat Zarafshon daryosining havzasida bo'lgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, uning atrofi suvlar bilan o'ralgan orol sifatida ham eslatiladi.

O'rta Osiyo tog'larining tabiati bilan tanish odamlarga ma'lumki, bu yerdagi tabiiy o'rmonlar faqat 2000–3000 metr balandlikdagina bo'ladi. Lekin Zarafshon daryosining havzasida bunday to'qayzor va o'rmonzorlar ilgari ham bo'lgan va qisman hozirda ham saqlanib qolgan.

Bu qo'riqxonada Qoradaryo va Oqdaryo hosil qilgan Miyonqol yoki Zarafshon daryosining yuqori oqimlarida, daryoning vohaga tutashgan, ya'ni hozirda Zarafshon to'g'oni qurilgan joy atroflarida ham bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu joyni ilk o'rta asrlarda «Varagsar» deb ham atashgan (To'g'on boshi ma'nosida).

Manbalarda qo'zg'olon ko'targan sug'diylarga saklar yordamga kelganliklari va makedoniyaliklardan 2000 piyoda va 300 otliq halok bo'lganligi to'g'risida ma'lumot bor. Bundan tashqari, Spitamen Samarqand yaqinidagi serdaraxt yerlardan biriga pistirma qo'yganligi tufayli makedoniyaliklarning bitta katta bo'lim askarlari shu pistirmaga tushib qolganligi tufayli halok bo'lganligi to'g'risida xabar bor.

Shundan keyin Aleksandr vujudga kelgan xavfli vaziyatni tushunadi va Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shimcha kuch yuboradi. Juda katta kuch kelayotganini tushungan Spitamen Samarqand qal'asi qamalini tashlab chekinishga majbur bo'ladi. Aleksandr qo'zg'olonchilar yashiringan barcha qishloqlarni yoqib, aholini qiradi. Diodorning xabar berishicha, bu janglarda 120 mingdan ortiq sug'diylar halok bo'lishgan.

Miloddan avvalgi 329–328-yilgi qish faslini Aleksandr Baqtriyaning poytaxtida o'tkazdi. U yerga Sirdaryo ortidagi saklardan ham elchilar keladi. Ular o'zlari bilan ko'plab sovg'a-salomlar olib kelishgan bo'lib, Aleksandr bilan ittifoq tuzishga harakat qildilar. Bu yo'lda Aleksandrga «skiflar» podshosining qizini nikohga olishni taklif qilishdan ham tortinmadilar.

Shu davrning o'zidayoq Xorazm podshosi Farasman 1500 otliq askari bilan Aleksandr oldiga kelib do'st tutinishni taklif etdi va mabodo

¹ Appian. VIII. C. 14.

Aleksandr Qoradengizbo'yi skiflariga qarshi kurashguday bo'lsa, itti-foqchi sifatida kurashib Aleksandrga yordam berishini bildirdi¹.

Baqtriyaning poytaxtida bunday muzokaralar ketayotgan bir paytda Sug'ddan yana Spitamen boshchiligidagi aholi qo'zg'olon ko'targanligi, ular qal'alarni egallab Aleksandr qo'ygan satraplarga bo'ysunmayotganliklari to'g'risida xabar keladi. Bu qo'zg'olonchilarga Baqtriyaning bir nechta hududlari ham qo'shiladi. Shunda Aleksandr yana Sug'diyonaga yo'l oladi va qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostiradi. Qirg'in shu darajada katta bo'ladiki, Sug'd shaharlari deyarli odamsiz qoladi. Sitsiliyalik Diodorning xabar berishicha, 120 000 sug'diy o'ldiriladi.

Odamlarsiz, moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan ishchilarsiz katta-katta yurtlarning Aleksandrga keragi yo'q edi. Aleksandr aynan moddiy boyliklar ishlab chiqaradigan va ulardan mo'may soliq to'laydigan vaziyatni vujudga keltirish uchun harakat qiladi. Buning uchun o'zining lashkarboshilaridan biri Gefestionga Baqtriya va Sug'dda 8 ta (Arrian), Yustin ma'lumotlari bo'yicha 12 ta shaharni qayta qurishni topshiradi.

Yuqorida yozilganlardan ma'lumki, Ko'ktepa xarobalarining ichki mudofaa devori aynan shu Aleksandr davridagi to'rtburchak g'ishtlardan tiklangan. Shuning uchun Aleksandr buyrug'iga binoan qurilgan shaharlarning bittasi – Ko'ktepani ichki mudofaa devori doirasida qurilgan «shahar» deb hisoblash mumkin.

Chunki Ko'ktepaning yuqori qatlamlarida Aleksandr zamonidan keyin 50 yil ham o'tmasdan hayot so'ngan. Shu bois ham Ko'ktepaning ustki qatlamlarida hosil bo'lgan yaqin yarim metr qalinlikdagi qatlamlar faqat Aleksandr zamon, juda ham uzog'i bilan Salavkiylar davriga to'g'ri keladi².

Aleksandr qurdirgan shaharlarning eng sharqdagisi Tanais (Sirdaryo) bo'ylarida bunyod etilgan. Manbalarda bu yerda Aleksandr qoldirgan qo'shinlar joylashgan lager atrofini 60 stadiy (10–11 km) maydonda o'rab olishni buyruq beradi. Bu ish 20 kun ichida amalga oshiriladi. Shahar mahallalari ham tez orada bitgandan keyin bu yerga kasalligi yoki qariligi tufayli armiyaga yaroqsiz bo'lib qolganlar, Aleksandrga yordam bermoqchi bo'lgan saklar va asirlar joylashtirildi. Bu shahar «Aleksandriya Esxata» deb nomlangan.

Bu davrda bizga ma'lum bo'lgan boshqa shaharlar «Areya Aleksandriyasi» (Hirot), «Oksdagi Aleksandriya» (Termiz yoki Kulob), Oyxonim, «Baqtriya Aleksandriyasi» (Baqtra bo'lishi mumkin), «Marg'iyona Aleksandriyasi» (hozirgi Bayramali) shaharlari qad ko'taradi.

¹ Толстой С.П. Древний Хорезм. – М., 1948. С. 341–342.

² Исмаилов М.Х. Истоки городской культуры. ... С. 130–135.

Ko'p o'tmay Spitamen yana boshqa jang usulini o'ylab topdi. Aleksandr Sug'diyonada «tozalash» ishlarini o'tkazayotgan bir paytda u Baqtriyada paydo bo'ldi. Devorda poyloqchilik qilayotgan bitta harbiy qismni hiyla ishlatish yo'li bilan yo'q qildi. Lekin ancha o'ljaga ega bo'lib qaytib kelayotgan Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilar oldidan Marg'iyonadan kelayotgan Krater chiqdi va Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarni tarqatib yubordi. Ular yana cho'lning ichiga kirib yashirinishga majbur bo'lishdi.

Aleksandr 328-yil yozini Sug'diyonada o'tkazdi va Nautakada qishladi. Shunda Spitamen sahrodan yana ichkariga kirib sug'diylar bilan skif-massagetlar yerining chegarasida joylashgan «Bagi» degan qal'aga yaqin yerga joylashdi.

Olimlar «Bagi» nomidagi aholi punktining qayerda bo'lishi mumkinligi yuzasidan izlanishlar olib borishdi. A.S. Sagdullayev «Bagi»ning o'rni Buxoro shahrida bo'lishi mumkin» degan farazni ilgari surdi¹.

Yozma manbalarda Bagi «sug'diylar bilan skif-massagetlar o'rtasida joylashgan joydir» deb keltiriladi. Buxoro shahri esa quyi Zarafshon vohasining qoq markazida joylashgan, lekin biroz kechroq vujudga kelgan yirik markazdir. Chunki uning ostki qatlamlaridan ellinizm davriga oid qatlamlar topib o'rganilgan bo'lsa ham, axomaniylar davriga oid va yozma manbada eslatilgan qal'aning biron-bir qoldiqlari topilgan emas.

Sug'diylar bilan skif-massagetlar chegarasi Varaxsha hududlaridan yoki Samarqand vohasining shimoli-g'arbiy qismlaridan o'tgan bo'lishi mumkin. Aynan shu yerlarda keyinroq vohalarni o'rab turgan «Kanpir devor», «Kanpirak»lar paydo bo'lgan. Bizningcha, o'sha keyin qurilgan mudofaa devorlari aynan qadimgi davrlardan shakllangan sug'diylar yerlari bilan sak-massagetlarni ajratib turadigan «chegara»dan o'tgandir.

Yozma manbadagi «Bagi» qal'asi yuqorida eslatilgan «chegara hududlarida» joylashgan qadimgi yirik aholi punktlaridan biri Dabusiya qal'asi, ya'ni «Dabusqal'a» bo'lishi ehtimoli mavjud. Aynan shu aholi punkti o'sha davrlarda Samarqand vohasining eng g'arbiy qismida, ya'ni sug'diylar bilan sak-massagetlar chegarasida joylashgan qal'alardan biri edi.

328-yil yozining oxirida Aleksandr yana Marokandaga keladi. U Zarafshon daryosida joylashgan qo'riqxonada ov qilgandan keyin Marokandada Gefestion va Artabazni kutadi. Artabaz kelib uni bu yerning hukmdori vazifasidan ozod qilishini so'raydi. Marokanda va uning atrof-

¹ Сагдуллаев А.С. Бактрия и Согд (эволюция древнейших границ оседлого расселения) / Тезисы докладов научной конференции «Теоретическое наследие народов Средней Азии в памятниках искусства, архитектуры и археологии». – Ташкент, 1985. С. 116–118.

larini boshqarishni o'zining do'sti Klitga topshirmoqchi bo'lganligiga qaramasdan, Klitning o'limidan keyin bu vazifani Amintaga topshirgan.

Yozma manbalarda Aleksandr mast holda o'zining do'sti Klitni Marokanda qal'asida o'ldirganligi to'g'risidagi lavha ham saqlagan.

328-yilning qishini Nautakada o'tkazayotgan Aleksandr shimoldan Spitamen boshchiligida kelishi mumkin bo'lgan xavfni qaytarish uchun Ken boshchiligidagi butun boshli armiyani tayyorlab qo'ydi.

Shunda Spitamen xalq orasida o'ziga nisbatan paydo bo'lgan mish-mishlarni biroz kamaytirish maqsadida saklar, baqtriyaliklar va sug'diylar bilan birga Ken armiyasiga qarshi hujum boshlaydi.

Lekin juda katta armiyaga ega bo'lgan Ken Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilar hujumini qaytaribgina qolmasdan, balki ularga qarshi hujumga o'tdi. Sug'diylar va baqtriyaliklardan iborat armiya makedoniyaliklarga taslim bo'ldi. Deyarli armiyasiz qolgan Spitamen saklarga qo'shilib orqaga chekindi. Saklar yo'l-yo'lakay qochayotgan sug'diylarning boyligini talashdi. Bu ham yetmaganday «Aleksandr qo'shinlari Spitamenni baribir quvib keladi, yaxshisi, undan o'zimiz qutulganimiz yaxshi» deb saklar uning boshini tanasidan judo qilib, Aleksandrga yuborishdi. Bu bilan o'zlarining Aleksandrga taslim bo'lganliklarini namoyish qilishdi.

Xullas, Spitamen o'z xalqi, ona yurti ozodligi yo'lida mardlarcha kurashgan milliy qahramon sifatida tarixga kirdi.

Qadimgi Sharqda eng yirik imperiyani tuzgan Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari, ayniqsa, Sug'diyonani zabt etish jarayoni va undan keyin hosil bo'lgan madaniyat o'zining chuqur izini qoldirgan. Ularning eng dastlabkisini Ko'ktepaning ichki mudofaa devori qurilishi jarayonida ko'rish mumkin. Chunki uning qurilishi aynan Aleksandr davriga to'g'ri keladi va bevosita uning buyrug'iga binoan qurilganligi yaqqol sezilib turibdi. Aynan ichki mudofaa devorining shu davrda qurilganligini uning kvadrat shaklidagi g'ishtlaridan bilsa bo'ladi. Bu devor ichida shaharni mudofaa qilayotgan askarlar bemalol aylanib yurib tashqaridan kelayotgan dushmani nayzasimon shaklda yasalgan tuynukdan otishi mumkin edi. Bunday mudofaa devorini arxeologlar «yo'laksimon tipdagi devor» yoki «koridor tipidagi devor» deb ham aytishadi. Hatto Ko'ktepadagi mudofaa devorining kesmasida bir emas, ikki qator shu tipdagi devor bor ekanligiga guvoh bo'ldik. Bizningcha, tashqi qatordagi mudofaa devori haqiqiy mudofaa vazifasini o'tasa, ichki tomondagi «yo'lakcha» askarlar uchun «kazarma» vazifasini o'tagan bo'lishi mumkin.

O'sha davrdagi mudofaa tizimlari, ayniqsa, uning ichkari tarafi turar joy maskanlari sifatida ishlatilgani haqiqatga yaqin. Ko'ktepada ham asosiy

yirik inshootlar mudofaa devorining ichkari tarafi bo'ylab qurilganligi ko'rinib turibdi.

Aleksandr zamon va undan keyingi salavkiylar va yunon-baqtriya davrida Ko'ktepada juda aniq, simmetriyaga ega bo'lgan turar joy va jamoa inshootlari quriladi. Xuddi shunday inshootlardan biri qadimgi ibodatxonaning ustidan tushgan.

Bizningcha, Ko'ktepada bu davrda qurilgan inshootlar, asosan, harbiy inshootlar bo'lib, ko'proq ellinlar tomonidan qoldirilgan garnizonlar uchun mo'ljallangan. U davlat tomonidan, yagona reja asosida qurilganligi bu yerda ochilgan xonalardan ham ko'rinib turibdi.

Ko'ktepada Aleksandr va salavkiylar zamonida hayot davom etgan bo'lsa ham, u ko'pga cho'zilmaydi. Uning ustki qismlaridan topilgan kulolchilik buyumlari haqiqiy ellinizm davri sopollariga aylanishga ulgurmagan. Bu yerdagi ilk ellinizm davriga oid qatlamlar 50 yildan ko'p vaqt davom etmaganligini ko'rsatadi. Hozircha Ko'ktepadagi hayotning birdan inqirozga yuz tutishining sabablari to'liq aniqlangani yo'q.

Bu davrdagi Marokandada hayot qizg'in bo'lgan, desak adashmagan bo'lamiz. Bu yerda ham Ko'ktepadagi kabi asosiy e'tibor mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga va katta harbiy holatlarda ishlatiladigan oziq-ovqat va boshqa zaxiralarni hozirlashga qaratilgan. Jumladan, Afrosiyobning mudofaa devorlarida katta ta'mirlash ishlari bajariladi. Shu bilan birga uning qal'asi mustahkamlanadi.

Shaharning ark-u a'losining ichida, o'rta asrlardagi «Jome masjidi»ning ostki qatlamlari qazilganda 5–6 metr chuqurlikdan aynan ellinizm davriga oid, yirik kvadrat g'ishtlardan tiklangan monumental 4 ta xonaning qoldig'i topildi. Xonalarning hammasining devorlari tandirning ichiday bo'lib kuyib ketgan. Chunki bu xonalar g'alla saqlanadigan omborxonalar bo'lib, favqulodda yuz bergan yong'in tufayli kuyib ketgan. Gap shundaki, yong'inda qolgan xonalarning birida arpa, ikkinchisida tariq, uchinchisida bug'doy kabi g'alla mahsulotlari saqlangan. Bu yerdagi g'allaning aksariyat qismi yong'inda kulga aylangan, lekin uning markaziy va ostki qismlari yonib tugashga ulgurmaganligi sababli kuyib ko'mirga aylanib qolgan. Shuning uchun ham xonalarda saqlangan g'allani arpa, bug'doy, tariq kabi xillarga ajratish imkoniyati tug'ildi¹.

Xonalarda saqlangan bu mahsulotlar aynan harbiy zaxiralar ekanligini g'alla turlariga qarab, ya'ni arpa va tariq saqlanganligidan ham bilsa bo'ladi. Aynan tariq, yoki arpa juda ko'p yillar saqlansa ham ular o'zlarining sifatini yo'qotmaydi. Ayniqsa, tariqni 10 yil saqlasangiz ham u aynimaydi

¹ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры. ... С. 166–176.

yoki chirimaydi. Faqat namdan saqlansa bo'lgani. Biroq bug'doyni uzoq muddat saqlash biroz mushkulroq. Bug'doy ozgina nam bo'lsa unib, o'sib chiriy boshlaydi.

Qolaversa, ularning aynan harbiy zaxira ekanligini shu mahsulotlar saqlangan xonalarning nihoyatda kattaligidan va ark-u a'lo hududida saqlanganligidan, ya'ni mamlakatni boshqaradigan hukmdorga yaqin joyda saqlanganligidan ham bilsa bo'ladi.

Shunday qilib, Aleksandr va Yunon-Baqtriya hukmdorlari hukmdorlik qilgan paytda mamlakatning asosiy tayanchi, o'z ozodligi yo'lida imkoni boricha kurashayotgan mahalliy aholiga qarshi tura oluvchi armiyani mustahkamlashga, uni boqish imkoniyatlarini qidirib topishga, mudofaa tizimlarini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Aleksandr O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan bosqinchi edi. Lekin u bosib olgan yirik imperiya turli mamlakatlardan va turfa xalqlardan iborat ekanligini hisobga olib uni saqlash, mustahkamlash va kengaytirish uchun qo'l ostida bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalandi, turli usullarni qo'llashga harakat qildi. Buning uchun, eng avvalo, ellinlar madaniyati bilan mahalliy aholining urf-odatlarini yaqinlashtirishga harakat qildi. Jumladan, u o'zidan oldin hukmronlik qilgan Eron shohlari saroyidagi urf-odatlarini qabul qildirishga harakat qildi. Shunday qilsa uni barcha mahalliy hukmdorlar qo'llab-quvvatlar edi. Shuning uchun miloddan avvalgi 325/324-yil u Eronga qaytdi. Pasargadada bir vaqtlar buzib tashlangan Kirning qabrini tiklatdi. Chunki xalq orasida Kirga nisbatan hurmatning nihoyatda yuqori ekanligini bildi. Eronliklar odatini takrorlab ayollarga pul tarqatdi.

Makedonlar bilan Eron zodagonlarini yanada yaqinlashtirish maqsadida o'zi boshchiligidagi 90 ta lashkarboshisini mahalliy zodagonlarning qizlariga uylantirdi. Shu paytgacha u baqtriyalik zodagonning qizi Ruxshonaga (Roksana) uylangan bo'lishiga qaramasdan, eronliklar taomiliga ko'ra «shohlarning ko'plab xotin olishi mumkinligi»ni ro'kach qilib, o'zi ham yana uylanishni afzal ko'rdi. U qalliq sifatida Doroning katta qizini tanladi. Doroning kichik qiziga Gefestion uylanib, Aleksandrga qarindosh ham bo'lib oldi. Doroning jiyani Krater uylandi va h.k.

Baqtriyalik Spitamenning qizi (Aleksandrga qarshi kurashgan Spitamen emas) Apamaga Aleksandrning eng yirik lashkarboshilaridan biri Selevk uylandi. Keyinchalik Selevk va Apamaning nikohidan o'g'il tug'ilib, unga Antiox degan ism qo'ydilar.

Miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr vafotidan keyin, 301-yildan boshlab uning imperiyasiga boshchilik qilayotgan yirik lashkarboshilari (diadoxlar) hokimiyat uchun kurashni boshladi va natijada u tashkil etgan

butun boshli imperiya mustaqil 3 ta davlatga ajralib ketdi. Bu Makedoniya, Misr va salavkiylar davlatidir.

Miloddan avvalgi 312-yilda salavkiylar sulolasining asoschisi, baqtriyalik Spitamenning (Sug'd xaloskori emas) kuyovi, Antioxning otasi Selevk Bobilda bo'lgan katta yig'ilishda Salavkiylar davlatining satrapi sifatida tan olindi. U Baqtriyani, Parfiya va Sug'dni qaytadan bosib oldi. Miloddan avvalgi 293-yilda mamlakatning juda ham kattaligi uchun o'zining o'g'li Antioxni (Antiox I) sharqiy o'lkalarga, ya'ni O'rta Osiyo hududlariga vakil qilib yuborgan.

Antiox I hukmronligi davrida u dastlab hind uslubida tayyorlangan tanga chiqardi. Bu tanganing bir tomoniga haqiqiy podsho Selevk I nomi yozilgan bo'lsa, uning orqa tomoniga Antiox I ning nomi yozilgan edi. Miloddan avvalgi 280-yilda Antiox otasi Selevk o'limidan keyin yana 20 yil mobaynida mamlakatga hukmronlik qildi. Endilikda o'zining nomidan tangalar chiqara boshladi.

Uning hukmronligi davrida O'rta Osiyoda hayot me'yorlashib ancha izga tushdi. Hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, savdo rivojlangan.

Aleksandr tirikligida orzu qilgan o'zining juda katta imperiyasida turli xalqlarning, davlatlarning madaniyatini yaqinlashtirish, ularning tilini, dinini birlashtirish to'g'risidagi orzusi qisman bo'lsa ham uning o'limidan keyin amalga oshdi. Uning imperiyasi hududlaridagi xalqlar o'zining madaniyati darajasi bilan bir-biriga yaqinlashdi.

Bu madaniyat mutaxassislar tomonidan umumiy nom bilan «ellinizm madaniyati» yoki biroz keyinroq davr «antik davr madaniyati» deb ataldi va bu madaniyat Sug'd va Baqtriya zaminida 800 yil davom etgan.

Xo'sh, Samarqand shahri va uning atroflariga ellinistik madaniyat kirib kelgandan keyin uning ichki va tashqi tuzilishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Aytish mumkinki, bu, eng avvalo, me'moriy holatning o'zgarishida ko'rinadi. Jumladan, Samarqandning arxitekturasida juda keskin o'zgarishlar bo'lib, mudofaa inshootlari uchun ishlatiladigan to'liq kvadrat shakldagi 42×42×13-14; 44×44×14 hajmli g'ishtlardan faqat mudofaa devorlarigina emas, balki ibodatxonalar, saroylar va oddiy fuqarolarning uylari qurila boshlaydi. Ayniqsa, mudofaa inshootlari tashqi tomondan to'g'ri burchak shakldagi burjlar bilan mustahkamlangan bo'lib, ular tashqi tomonga otish uchun mo'ljallangan kamon o'qining uchi shaklidagi nishaklar bilan bezatilgan edi¹. Xuddi shunday devor Afrosiyobning ikkinchi mudofaa

¹ Бертар П., Исмаилов М., Соколовская Л. Первый полевой сезон узбекско-французской экспедиции на Афрасиабе / ОНУ. – Ташкент, 1990. №6. С. 45–51; Они же. Основные результаты работы узбекско-французской экспедиции на Афрасиабе в 1990–1991 гг. / ОНУ. – Ташкент, 1994. №3–4.

devori bo'lib, bu devor shaharning 4 ta darvozasi – janubda «Kesh darvozasi», g'arbda «Nauvexar darvozasi», sharqda «Xitoy darvozasi», shimolda «Buxoro darvozasi» bilan mustahkam o'rab olingan edi. Afro-siyob yodgorligida ellinizm davriga oid darvozaxona ochilgan bo'lib, uning mudofaa devori ustida qorovul turadigan joy va xuddi shunday joy mudofaa devorining ichki qismida yasalganligining guvohi bo'ldik.

Antik davr shahar strukturasi shahar arkidagi yirik inshoot – davlat ahamiyatiga ega bo'lgan don saqlanadigan omborxonalar ham ochilgan bo'lib, u ilk ellinizm davriga oiddir.

Ellinlar davrida O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida to'liq yunonlarning shaharlari tipidagi shaharlar qurila boshlandi. Jumladan, Afg'onistonning shimolida Panj daryosining Amudaryoga quyiladigan joyida ham yirik shahar qurilgan bo'lib, uni arxeologlar Ayxanum deb aytishadi. Bu yodgorlikni fransuz arxeologlari ochishgan bo'lib, uning moddiy madaniyatida yunonlar davri arxitekturasi, san'ati, madaniyati va dini yaqqol namoyon bo'lgan¹.

Yunonlar madaniyatining O'rta Osiyoda ochilgan yana bir yirik inshooti Vaxsh daryosining bo'yida qurilgan, mahalliy aholi tomonidan Taxti Sangin deb ataladigan ibodatxona, Saksonoxur deb ataladigan inshoot yunonlar davri madaniyatini yaqqol namoyon etadigan topilmalar hisoblanadi. Xuddi yuqoridagiday shahar xarobasi hozirgi Termiz shahrining o'rnida yunon shaharlaridan biri borligi to'g'risida taxmin qilmoqdalar². Aynan shunday yirik shaharlar orqali O'rta Osiyo hududlariga yunonlar davri madaniyati va san'ati kirib keldi.

Bu esa shu paytgacha bo'lgan butun insoniyat tarixi taqdirining o'zgarishiga, butun boshli madaniyatning inqirozga uchrashiga olib keldi. Bu davrda paydo bo'lgan madaniyatni «ellinistik madaniyat», ayrim joylarda esa «ellinlashgan madaniyat» deb aytishdi. Bu yerdagi eski madaniyatlarning kirib kelgan madaniyatlar bilan qarishuvi bu hududlarda ham mutlaqo yangi madaniyatlar yoki qarishgan madaniyatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu degani Samarqand shahri hududiga yunonlarning madaniyati to'liq kirib kelgan emas, balki ular madaniyatining

¹ Бернар П. Греческий город на Оксе / В мире науки. – М., 1983. – № 1. С. 75–83; Бернар П. Греческий город на Оксе / В мире науки. Scientific American. Изд. на русск. яз. – М., 1983. – №1. С. 75–83; Бернар П. Проблемы греческой колониальной истории и урбанизма эллинистического города Центральной Азии. Проблема античной культуры. – М., 1986. С. 249–257.

² Пидяев Ш.Р. Стратиграфия городища Старого Термеза в свете новых раскопов / Городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. Античность, раннее средневековье. – Ташкент: Фан, 1987. С. 87–97.

ayrim elementlari kirib kelgan, xolos. Shuning uchun ham bu hududlarda shakllangan madaniyatni «ellinistik madaniyat» emas, balki «ellinlashgan madaniyat» deb aytish to'g'ri bo'ladi.

Samarqand shahri uchun suv ta'minoti boshqa shaharlarning suv ta'minotiga qaraganda biroz murakkabroq bo'lgan, aslida Samarqand shahri qurilishi uchun joy Cho'ponota tog'i etagidagi balandlikdan tanlangan bo'lib, uning bir tomoni oqib o'tgan Siyob kanali bilan o'ralgan bo'lsa, shaharning g'arbiy qismi «Otchopar» jarligi bilan o'ralgan edi. Shuning uchun mahalliy aholi Afrosiyob o'rnidagi tepalikda shahar qurish uchun bu yerga suv chiqarish masalasini hal qilish kerak edi.

4-§. Shaharning suv ta'minoti, yo'llar va turar joylar

«Afrosiyobga qachon va qay tarzda suv kelgan bo'lishi mumkin?» degan savolga javob qidirib hozirgi zamon texnika vositalari hisoblanmish kosmik suratlardan foydalanib qaralganda, Zarafshon daryosidan oqib tushadigan yomg'ir va sel suvlaridan to'yinadigan soylar aynan Afrosiyob tomon yo'nalganligiga guvoh bo'ldik.

Shaharga Darg'om kanalidan ham suv kelganligi aniq. Faqat bu suvdan foydalanish qachondan boshlab amalga oshirilgan? Buni aniqlash Darg'om kanalini qaysi davrdan boshlab ishlay boshlagan, degan muammoli masalaga ham javob topishni taqozo qiladi.

Bu masalani yoritishda eng qadimgi va eng aniq suv manbayi – bu Siyob arig'i ekanligini ham unutmashimiz kerak. Chunki Afrosiyob ustidan tosh davriga oid juda ko'plab tosh qurollari topilgan bo'lib, bu yerda hayotning juda qadimdan paydo bo'lganligidan dalolat beradi¹.

Samarqand shahrini sug'orishning yana bir murakkab tomoni Afrosiyob tepaligining ustiga suv chiqarish uchun o'rta asrlarda «Juyi arziz»dan foydalanilgan. Xuddi shunday qurilma qadimgi davrda ham bo'lgani haqiqatga aniq. Chunki Afrosiyobning antik davr qatlamlaridan ham suv o'tkazuvchi sopol quvurlar bo'lganligi ma'lum.

Qadimgi shaharga suv janubi-g'arbiy tomondan kelib, uch qismga bo'lingan. Birinchi ariq shaharning g'arbiy tomonidan janubdan shimol tomonga oqqan. Ikkinchi ariq shaharning qoq o'rtasidan ark tomon yo'nalgan bo'lsa, uchinchi ariq shaharning sharqiy tomonlarini sug'organ. Shahar hududini sug'oradigan to'rtinchi ariq ham bo'lgan, u biroz kichikroq bo'lib, ko'proq shaharning janubi-g'arbiy tomonlarini ham sug'organ².

¹ Tashkenbayev N.X., Isaniddinov M.X. Samarqand qadimiy davrdan boshlab to XIII asr boshlarigacha (Afrosiyob materiallari asosida). – Samarqand, 1995. 25-b.

² Мухамеджанов А.Р. К вопросу о водоснабжении Афрасиаба. Сб.Тр. Афрасиаб. вып. I. – Т., 1969. С. 294–300.

Shaharning ark qismini g'arbiy chekkasida juda katta hovuz bo'lib, bu hovuzning miloddan avvalgi VII–VI asrlarda ham ishlaganligi to'g'risida ma'lumotlar bor¹. Shuning uchun biz «butun Afrosiyob hududida bir xil tipdagi hovuzlar qadimgi davrlarda ham bo'lgan» deyishdan yiroqmiz. Ammo arkning shimoli-g'arbiy chekkasidagi hovuz eng qadimgi davrlarda ham, shuningdek, o'rta asrlarda ham bo'lgan.

Yo'llar. Afrosiyobning o'rta asr yo'llari o'rganilganda bu yo'llar eng qadimgi davrlardan buyon o'z joyidan siljimaganligiga guvoh bo'ldik. O'rta asr yo'llarining asosiy katta qismi shaharning janubiy qismidan shimoliy qismiga eng asosiy magistral ariqlar yoqalab yo'nalganligini ko'rish mumkin. Sharqdan g'arbga tomon ham yo'llar o'tgan bo'lib, ko'p hollarda ular shahar mahallalarini bog'lashdan tashqari, tashqi darvozalarni ham bir-biriga bog'lab turgan. Jumladan, G.V. Shishkina Buxoro darvozasi oldida, N.B. Nemseva janubiy darvoza oldida, Y.F. Buryakov esa Nauvexar darvozasi oldida qazishmalar olib borib, bu yo'llarni o'rganganlar va ularning asosiy xulosalari bu qadimgi yo'llar shaharning mahallalari bilan birga asosiy yirik darvozalarni ham bog'lab turgan².

Buxoro darvozasi o'zbek-fransuz ekspeditsiyasi tomonidan qo'shimcha o'rganilganida, miloddan avvalgi VII–VI asrlarda ancha chuqurda, jarliklarda bo'lgan darvozaning ustidan yunonlar darvoza qurishib, faqat piyodalar o'tishi mumkin bo'lgan darvoza, yo'lak qoldirishgan va bu yo'l Siyob yoqalab g'arbga tomon (Buxoro tomon) yo'nalganligini ko'rish mumkin.

Turar joylar. Shahar ichidagi aholining turar joylari unchalik yaxshi o'rganilmagan. Afrosiyob yodgorligi ko'p qatlamli yodgorlik bo'lganligi uchun ham uning yuqori qatlamlaridagi uy-joylar, butun boshli mahallalar, turli hunarmandchilik sohalari bilan bog'liq mahallalar o'rganilgan³. O'rganilgan va antik davrga oid turar joylarning deyarli hammasi to'liq ochilmagan, favqulodda chiqib qolgan turar joylardir. Ammo shu holat ham butun boshli antik davr to'g'risida to'liq xulosa chiqarishga yordam

¹ Филипович М.И. К характеристике древнейшего поселения на Афрасиабе. Афрасиаб. Вып. I. – Ташкент, 1969. С. 206–220.

² Буряков Ю.Ф. Некоторые материалы к исторической топографии шахристана Самарканда. Афрасиаб. III. Ташкент, Фан, 1974. С. 55–56; Немцева Н.Б. Стратиграфия южной окраины Афрасиаба. Афрасиаб. Вып. – I. Ташкент, 1969. С. 153–205; Шихкина Г.В. Древнейшие оборонительные стены Самарканда / ОНУ. Ташкент, 1970. №9. С. 102–107.

³ Шихкина Г.В. Древний Самарканд и его округа / В кн. Городская среда и культура Бактрии, Тохаристана и Согды IV в. до н.э. – VIII в. н.э. Античность, раннее средневековье. Материалы международного colloquium (Самарканд, 1986). – Ташкент: Фан, 1987. С. 164–170.

beradi. Ularning eng muhimlari O'rta Osiyoning katta hududlarini yunon-makedon qo'shinlari bosib olgandan keyin bu yerdagi eski to'g'ri burchakli yoki guvalaksimon g'ishtlar o'rniga yirik kvadrat shakldagi g'ishtlar tarqalganini yuqorida aytgan edik. Shu bilan birga eski an'anaviy paxsadan qurilgan uylarning qurilishi ham davom etdi¹. Aynan Afrosiyobning shimoli-g'arbiy qismidagi mudofaa devorining oldidan topilgan, milodiy I-II asrlarga oid turar joy majmuasi o'z davri turar joylarining yorqin xususiyatlarini ko'rsatadi².

Biz Afrosiyob qatlamlarini o'rganish jarayonida juda yaxshi saqlangan va monumental qilib qurilgan uylardan tashqari yarim yerto'la tipidagi uylar ham bo'lganligini Afrosiyobning shimoliy qismidagi qazishmalardan topib o'rgandik. Chunki O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham antik davr qatlamlaridan yerto'la, yarim yerto'la kabi turar joy makonlari borligi ma'lum. Masalan, Qoradaryo bo'yidagi miloddan avvalgi V-IV asrlarga oid Laylakuyatepa turar joy makonidagi uylar butunlay yarim yerto'lalardan iborat³.

Shunday qilib, Aleksandr Makedonskiyning o'limidan keyin u tuzmoqchi bo'lgan dunyoni egallagan «yagona davlat», «yagona xalq» tuzish orzusi yo'q bo'ldi. Ammo Misrdan Baqtriya va Sug'dgacha bo'lgan hududlarda yunoncha yashash tarzini xush ko'rgan odamlar paydo bo'ldi. Yaqin va O'rta Sharq hududlarida, shuningdek, O'rta Osiyoning janubiy hududlarida tarixiy-madaniy hududlar tashkil topdiki, buni mutaxassislar «ellinlar dunyosi» deb aytishdi. Chunki O'rta Osiyoning juda ko'p hududlarida butun boshli yunonlarning shaharlari qurilganligini yuqorida aytib o'tdik.

Jumladan, Vaxsh daryosining bo'yida ibodatxona qurilgan bo'lib, bu daryo Oks xudosisiga bag'ishlangan ekanligi toshga o'yib yozilgan yozuvlardan ma'lum edi. Bunday yirik ibodatxonalarni qurishda yunonlar madaniyati bilan mahalliy xalq an'analari qorishganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Taxti Sangin ibodatxonasida ishlatilgan ustunlar, ularning toshdan yasalgan tag qismlari yunonlar me'morchiligiga xos bo'lsa, ibodatxonalarning tarxi (rejasi) axomaniylar davri an'analarga borib taqaladi⁴.

¹ Кабитов С.К. Стратиграфический раскоп в северной части городища Афрасиаб. Сб. Афрасиаб. Вып. II. – Ташкент, 1973. С. 69–76; Бернар П., Исмаилов М.Х., Соколовская Л. Первый полевой сезон узбекско-французской экспедиции на Афрасиабе. ... С. 45–51.

² Иневаткина О.Н. Акрополь древнего Самарканда в структуре города (VI в. до н. э. – V в. н. э.). Диссертация на соиск. ... канд. ист. наук. – М., 1995. С. 135.

³ Вафаев Г., Ивашицкий И.Д. Лайлакуйатепа – раннеантичное сельское поселение Самаркандского Согда / Тезисы докладов конференции молодых ученых республики «Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда». – Самарканд, 1992. С. 40–42.

⁴ Литвинский Б.А., Пичикян И.Р. Археологические открытия на юге Таджикистана / Вестник АН. – М., 1980. – №7. С. 15–18; Те же авторы. Тахти-Сангин – Каменное городище / АРТ. – Вып. 19. – Душанбе, 1986. С. 41.

Hozirgi Janubiy Turkmanistonda deyarli Yunon-Baqtriya davlati bilan bir vaqtda, balki biroz avvalroq Parfiya davlati tashkil topdi. Miloddan avvalgi III asrda bu davlat yunonlardan chorvador aholi – parnlarga o'tdi. Parnlar mahalliy dehqon jamoalari bilan ham qon-qarindosh edilar. Juda ko'p davrlarda Parfiya podsholari Eronning shimoli-g'arbiy qismlarini, ya'ni qadimgi Midiya yerlarini bosib oldilar. Miloddan avvalgi 141-yilda arshakid Mitridat I Bobil podshosi deb tan olindi. Mitridat II davrida (mil. av. 123–88-yy.) Parfiya dunyodagi eng yirik davlatlar bilan bellashgan davlatga aylandi. Miloddan avvalgi 92-yilda Yevfrat (Furot) daryosining bo'yida rimliklar bilan parfiyaliklar o'rtasida to'qnashuv bo'ldi. O'sha davrlardan sosoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelmaguniga qadar Parfiya bilan Rim o'rtasidagi to'qnashuv to'xtamadi. Parfiyaliklar o'zlarining kelib chiqishlarini bir tomondan salavkiylar bilan bog'lashsa, ikkinchi tomondan mahalliy aholiga borib taqalishlarini aytishar edi. Bu davlat hududlaridagi madaniyatda ham mahalliy an'analar bilan birga yunonlar madaniyati, ellinlar madaniyati ustuvor edi. Yaqin 500 yil davomida yunon yozuvi, tili, madaniyatining ta'siri juda katta bo'ldi.

Xorazmda ham xuddi yuqoridagiday yunonlar ta'sirini ko'rish mumkin. Xorazm Aleksandr O'rta Osiyo hududlarini bosib olmasdan turib axomaniylar imperiyasidan ajralganligini e'lon qilgan edi. Keyinroq Xorazm Aleksandr hujumidan saqlanib qoldi. Xorazm podshosi mil. av. 329–328-yilning qish oylarida Aleksandr oldiga kelib, mustaqil davlat sifatida u bilan tinchlik, do'stlik shartnomasi tuzgan.

Xorazmning moddiy madaniyatida yunonlarning ta'siri Baqtriya, Marg'iyona yoki Parfiyadagidek bo'lmasa ham, har holda ularning madaniyati ta'siri seziladi. Shu bilan birga Xorazmda skif-sarmat tipidagi aholining ta'siri ham katta ekanligini ko'rish mumkin.

Samarqand shahri va uning atroflarida ham so'zsiz, yunonlar madaniyatining ta'siri seziladi. Ammo bu yerda ham Xorazm hududlariga o'xshab, birinchidan, mahalliy dehqon jamoalarining an'analari, ikkinchidan, skif-sarmat tipidagi chorvador aholining ta'siri ham katta bo'lgan. Sug'd hududlaridagi yunonlar madaniyatining ta'siri haykaltaroshlikda, terrakota haykallarini yasashda va ayniqsa, devoriy suratlarni solishda ilk o'rta asrlarda ham sezilib turadi.

III bob.

ILK O'RTA ASRLARDA (V-VIII) SAMARQAND

1-§. Sug'd hukmdorliklarining Samarqand atrofida birlashishi

Sug'dda mavjud hukmdorliklarning Samarqand¹ markazli ittifoqqa birlashish jarayoni Sug'dning Yunon-Baqtriya podsholidan ajralib chiqishi (Yunon-Baqtriyadagi taxt uchun kurashlar sabab) va mustaqillashuvi davri bilan boshlangan. Sug'd mil. avv. II asrdan boshlab Yunon-Baqtriya

¹ «Samarqand» toponimining ikkinchi qismini tashkil etgan «Kan» yoki «Qand» sug'diy tilda *kuð(h)* (*kand / l*) – شهر «shahar» ma'nosini ifodalab keladi (Qarang: *Gharib B. Sogdian Dictionary. ... P. 190*). Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida ham bu so'z aynan «shahar» nomi (Konibodom shahri) ma'nosini ifodalab kelgan. «Samarqand» toponimi esa sug'diy hujjatlarda *sm'rkud* – *Smarkand* shaklida uchraydi (Qarang: *SDGM II. S. 79, 111*). IX–X asrlarga kelib sug'diy til unutila borgan va uning o'rniga kelgan forsiy (dariy) tilida *Smrakand* so'zi *Samarqand*ga aylangan deb taxmin qilish mumkin. Mahmud Koshg'ariy «Samarqand» toponimini turkiy til asosida *semiz kand* – «semiz (boy) shahar» deb keltirgan (Qarang: *Maxmud al-Kashgari. Dūvān Lugāt al-Turk / перевод, предисловие и комментарии З.А.М. Ауэзовой. Индексы составлены Р. Эрмерсом. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. С. 852*). Demak, toponimning birinchi qismini «semiz», «boy» ma'nosida talqin etgan. Ba'zi tadqiqotlarda yevropalik olimlarning ma'lumotlariga asoslangan holda, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha (qadimgi hindcha) *samarya* so'ziga yaqin bo'lib, «yig'ilish, yig'in», «mashvarat» so'zidan kelib chiqqan deb izohlanadi (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. – Tom 8. 458-b.). Lekin bu fikr toponimni sun'iy ta'riflash bo'lib, asl ma'nodan yiroq. «Samarqand» toponimining birinchi qismi *s'm'r* – *samar* so'zi sug'diy asosga ega bo'lib, «oraliq», «chegara» ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan (Qarang: *Gharib B. Sogdian Dictionary. ... P. 351*). Ushbu ma'no esa Samarqandning geografik holatiga ham yaqin. M.Is'hoqovning fikriga ko'ra, *kuð* – *kent* «qazilgan», «o'yiqlik» ma'nosidagi so'zdir. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda shaharlar devor bilan o'ralgan. Shaharning birinchi xususiyati, bu mudofaa devori bilan o'ralganlik bo'lib, shahar devorlari *Kanpir* (*Kan+pir*) devor deyilgan. Bu so'z qo'sh o'zakli bo'lib, uning birinchi qismidagi «kan» – «o'yiqlik joy», «qazilgan», «o'yib olingan» (shahar mudofaa inshootlarining xandaq bilan o'ralgan qismiga nisbatan ishlatilgan) degan ma'noni anglatadi (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. – Tom 8. 439-b.). Masalan, o'zbek tilidagi «kon», «kom» (tanglay) kabi so'zlar ham ana shu so'zdan shakllangan. Ushbu ma'no shaharlarning joylashgan o'rniga qarab ham ishlatilgan. Masalan, Qandahor, Qandiza va h.k. «Kan» so'zi davr o'tgani sayin tildagi tovush o'zgarishi natijasida *qan*, *qand*, *ken*, *kent* kabi shakllarga kirgan va o'zgaragan

imperiyasidan ajralib chiqqandan keyin ham Sug'd hukmdorlari ularga taqlidan yunon yozuvidagi o'z tangalarini zarb etishda davom etishdi¹. Ko'p o'tmay milodiy I asrda Sug'dda bir tomonida *hukmdor tasviri*, ikkinchi tomonida *yoychining rasmi* aks ettirilgan mustaqil sug'diy yozuvli kumush tangalar zarb qilina boshlangan².

Lekin manbalarning yetishmasligi Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Sug'dning davlat boshqaruvi va siyosiy-ma'muriy tuzilishini o'rganish uchun to'liq imkon bermaydi. Yunon-Baqtriya podsholari davrida ham Sug'dda noiblik asosida mahalliy boshqaruv bo'lgan, deb taxmin qilish

(Qarang: Lurje P.B. The element – *kath / kand* in the place names of Transoxiana // ST. 32, fascicule 2, 2003. R. 185–212). *Kanpir* so'zining ikkinchi qismidagi *pr* – «pir» so'zi esa sug'diycha *p'u* – «himoyalamoq» degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatilgan (Qarang: СДГМ II. С. 206). «Piri ustoz», «pir», «piri murid» so'zlarining zamirida «himoyachi» ma'nosi anglashiladi (shaharni himoyalab turgan devorga nisbatan ishlatilgan). Ushbu ikki *kan+pir* so'zlarining qo'shiluvidan «shaharning xandaq bilan o'ralgan himoyasi», ya'ni umumiy ma'noda «devori» ma'nosi kelib chiqadi. «Samarqand» toponimi tarkibidagi *kand* (kent) – nafaqat Sug'dda, balki undan tashqarida ham ko'p uchraydigan geografik atama. Sug'dshunos V.A. Livshis *kat* so'zi bilan *kand* so'zining genezisi bir, tafovut shevaviy talaffuz oqibatida bo'lib, sug'diy hujjatlarda *Kan* shahar ma'nosini ifodalab keladi, degan fikrni bildirish orqali buni izohlashga harakat qiladi (Qarang: СДГМ II. С. 89–90). *Kan* toponimi *Kat* ko'rinishida ham shahar nomini ifodalaganligi Xorazmning qadimgi poytaxti nomlanishida yaqqol ko'rinadi. *Kan* komponenti bilan yasalgan boshqa toponimlarda ham ayni ma'no anglashiladi. Ustrushonaning qadimiy shahri bo'lgan Bunjikat toponimidagi *kat* komponentining kelib chiqishini A.R. Ayubov Sibir va Oltoyda yashagan oriy qabilalari bilan bog'laydi. Unga ko'ra, bu ibora din bilan bog'liq bo'lib, sovuq havoda vafot etgan qabiladoshlarini ular to'rt kunlar kelguniga qadar *kada* (kede)da saqlashgan. *Kada* yoki *kata* ushbu qabila tilida «uy», «хона» ma'nosini anglatgan (Qarang: Любов А.Р. Топонимы Уструшаны: истоки их происхождения и значения. – СПб.: 2009. С. 32–48). Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va keyinchalik «qishloq», «shahar», «ovul», «qal'a» kabi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatilgan *kat* (kad) atamasi, ibtidoiy *kad*, *kat* yoki *kata* so'zidan kelib chiqqanligi ehtimoli yo'q emas. Lekin bu iborani oriy qabilalari bilan bog'lash qanchalik o'rinli degan savol tug'iladi. Shunday ekan, *kent* – «shahar» ma'nosidagi ushbu so'z *kat* iborasining dialektal shakli hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariy *kent* atamasini turkiy deb hisoblab, turkiy so'zlar lug'atida keltirishiga sabab ham *kent* so'zining dastlab sug'diy aholi orasida ishlatilib, so'ngra turkiy aholiga o'tganligi deb hisoblash yuqoridagi asoslardan ma'lum bo'ladi. *Kan* komponentining kelib chiqishiga asos bo'lgan *kam / kam* iborasi esa *Šāfurkām* – Shofurkom, *Kāmišāry* – Komi Sharq kabi bir necha gidronimlarning tarkibiy qismi sifatida «kanal» ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan (Qarang: Лурье П. Историко-лингвистический анализ современной топонимии: Дисс. ... канд. филол. наук. – СПб.: 2004. С. 181). Bu esa *kud* so'zining «Samarqand» toponimining tarkibida shubhasiz shahar devorining atrofidagi «qazilgan xandaqqa» nisbatan ishlatilganligini tasdiqlaydi.

¹ G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasining shakllanishiga doir yangicha qarashlar // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand, 2012. – №6. (76). 20–24-betlar.

² Ernazarova T., Kochinev B. Tangalar o'tmish darakchilari. ... 9-b.

mumkin. Dastlabki sug'diy noiblar davrida Yunon-Baqtriya tangalarining zarb qilinganligi bundan darak beradi¹.

Yunon-Baqtriya davlatining parchalanishiga sabab yuechji qabilalarining hujumi bo'lib, bu bilan bog'liq tarixiy jarayonlar xususida tadqiqotchilar bir xil fikrda emaslar. Yapon olimi I. Kubavaraning fikrlariga asoslangan holda K.Rapen yuechjilarning Sug'd markazi Samarqandga dastlabki hujumlari mil. avv. 145-yil, ikkinchi davri mil. avv. 130-yillarga to'g'ri keladi degan xulosaga kelgan². Xitoy yilnomalariga ko'ra, yuechjilarning g'arbga siljishlari mil. avv. 177–176-yillarga to'g'ri kelib, aynan Samarqandga kirib kelishlari esa mil. avv. 145-yillar atrofiga to'g'ri kelishi ehtimoli yuqori.

Yunon-Baqtriya davlati qulagandan keyin ham Baqtriya hududida podsho Evkratid tangalari muomalada bo'lgan. Janubiy Tojikiston (Sharqiy Sug'd) hududidan topilgan tangalar mil. av. II–I asrlarda zarb qilinganligini ko'rsatadi³. Shuningdek, Samarqandda ham *yoychi* tasviri tushirilgan Yevtidem va Girkod tangalariga taqlidan tangalar zarb qilingan⁴. Keyinchalik milodiy V asrga kelib bu tangalarning zarb qilinishi to'xtatilgan⁵.

Samarqand markazli Sug'd konfederatsiyasining shakllanishidagi muhim davr, bu Qang' davri (mil. avv. II – milodiy V asr o'rtalari) hisoblanadi. Yunon-Baqtriya davlati tanazzulga yuz tutib, uning o'rniga Kushonlar imperiyasi tashkil topgan. Kushonlar davlati bilan qariyb bir vaqtda Qang' davlati hukm surgan bo'lib, Sug'd ushbu davlat tarkibida bo'lgan. Sug'dning Qang' davlati tarkibida bo'lgan davrida qanday boshqarilganligi xususida tadqiqotlar juda siyrak.

Xitoyshunos A.Xo'jayevning ta'kidlashicha, Qang' (*Kanszyuy*) davlati tanazzulga yuz tutgach, Kan (*Kang-guo*) davlati (markazi Samarqand bo'lgan Sug'd konfederatsiyasi) vujudga keldi⁶. Olimning fikricha, Samarqand (*Kang-guo*) markazli konfederatsiyaning vujudga kelishi V asrning 30-yillariga to'g'ri keladi. Ushbu sana keltirilgan manbada Samarqand hukmdori xonadon sulolasining nomi (familiyasi) *Ven*, ismi – *Shifubi* deb qayd qilingan. Mazkur hukmdorning ajdodlari mil. avv. II asrda Tangri-

¹ Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. ... С. 269–273.

² Rapin Cl., Isamiddinov M., Khasanov M. La tombe d'une princesse nomade a Koktepe pres de Samarkand // *Akademie des inscriptions et belles lettres. Comptes rendus de seances.* – Paris: 2001. P. 75–79, 81–82.

³ Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. ... С. 269–271.

⁴ Мусакаева М. Монеты Гиркода // ИМКУ. 2004. – №34. С. 76–88.

⁵ Ernazarova T., Kochnev B. Tangalar o'tmish darakchilari. ... 9.

⁶ Ходжаев А. Сведения древнекитайских путешественников о Самарканде // *Цивилизация и культура Центральной Азии в единстве и многообразии.* 2009 г. 7–8 сентябрь. – Самарканд, 2009. С. 142–144.

tog'ning sharqiy qismi va Pomir orqali Samarqand hududlariga kelib o'rnashganlar¹.

A.Otaxo'jayev ham Sug'd konfederativ davlat tuzilmasi Qang davlati parchalangach shakllangan deb keltiradi². Ammo Sug'd konfederatsiyasi Qang' ichida ham Qang' davlatining noibi tomonidan konfederativ asosda boshqarilgan³. Bu haqda K.Shoniyozov ham Sug'd yerlarining Kan (Samarqand) atrofida birlashuvi Qang'gacha bo'lganligiga ishora beradi. Ya'ni Qang' Sug'dni o'z tarkibiga kiritgan vaqtda u konfederativ asosdagi boshqaruvga ega bo'lgan⁴.

Bizningcha, Qang' davlati tanazzulga yuz tutgandan keyin Sug'd konfederatsiyasi vujudga kelmagan, balki avval Qang' tarkibidagi oldindan mavjud bo'lgan mazkur ittifoq o'z faoliyatini Qang'siz davom ettirgan. Aslida imkoniyat bo'lganida Qang' davlati tobeligidan qutulgan, o'z qo'sh-nilariga nisbatan ancha qudratli bo'lgan Sug'd (Samarqand) ixshidlari markazlashgan, yakkahokimlik tizimidagi mumtoz davlatchilikka ehtimol asos solgan bo'lardilar.

Samarqand Sug'd konfederatsiyasining markazi sifatida bir muddat Qang' davlati inqirozidan keyin milodiy 437-yildan to 470-yilga qadar xioniylar davlati tasarrufida bo'lgan⁵. Jumladan, IV asrning ikkinchi yarmida syunnular (xunlar)⁶ Sug'd (Samarqand?) hukmdorini o'ldirib, uning mamlakatini egallaganlar⁷. Yuqorida keltirilgan xunlarning IV asrda Shimoliy Xitoyni egallagan xunlar yoki hindchada *huna* deb keltiriladigan xioniylar ekanligi aniq isbotga ega emas. Ma'lumki, xunlar va xioniylarning tashqi ko'rinishi bir-biridan farq qilib, aftidan, xunlar xioniylar tarkibiga singib ketganlar⁸. Xioniy va eftaliy (Vizantiya manbalarida «oq xunlar» deb

¹ O'sha joyda.

² Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 65, 67-betlar.

³ Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN Южной и Северной династии / Согдийский сборник. Выпуск 4. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согды в Узбекистане // Ред. Ш. Камалиддин. – Lambert Academic Publishing: LAP, 2017. С. 41.

⁴ Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. ... 54-b; Yana qarang: Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN Южной и Северной династии. ... С. 41.

⁵ Гафуров Б. Таджик. ... Кн. 1. С. 247-248.

⁶ Aftidan, VI asrning oxiri va VII asrning boshidan *xun* etnonimi sug'diy tilda turklarga (g'arbiy va sharqiy) nisbatan ishlatilgan. Bu haqda Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida keltirilgan *yun* yoki *xun* «turk», *xun'uk* «turkiy» kabi so'zlarning bir necha marotaba keltirilganligi misol bo'ladi (Qarang: SDGM II. S. 117).

⁷ Энәки К. On the nationality of the Eptalites. ...P. 34-40.

⁸ Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite period / Proceedings of the British Academy CXVI. – London: 2002. P. 209-214.

keltiriladi) tangalaridagi unvonlarda aks ettirilgan sug'diycha *xub* [xuv], baqtriycha *xoβo* [xuv] so'zlarining kelib chiqishi xalq yoki elat nomini ifodalashi bilan bog'liq¹. Gap shundaki, tarixda turli bosqichlarda turkiy hukmdorliklar ma'muriy, mahkamaviy ishlarda eroniy tildan foydalanib kelganlar. Lekin bu hol siyosiy hukmronlik tarixini faqat eroniy deb hisoblashga asos bermaydi.

Xioniylar davlati davrida Sug'dda konfederatsiyalashuv va uning xususiyatlari borasida manbalarda ma'lumot keltirilmagan.

Ahmad Hasan Doniy va Karl Yetmar boshchiligidagi Germaniya – Pokiston ekspeditsiyasi (1979-y.) tomonidan bu yerda olib borilgan tadqiqotlar natijasida minglab qoyatosh suratlar hamda bir yarim mingdan ortiq 17 tildagi bitiklar topilgan bo'lib, bu yozuv namunalari 450 tasi sug'diycha ekanligi aniqlangan². Ulardan sug'diylar Qoraqurum vodiysining tog'li Shtial yo'lida faol savdo olib borib, o'z harakatlarini janubiy va sharqiy yo'nalishda davom ettirganlari ma'lum bo'ladi. Ushbu sug'diy yozuv namunalari X.Xumbax tomonidan o'rganilgan³. Yozuvlarni tadqiq etganlardan biri – K.Yetmarning fikrlariga ko'ra, yozuvlar Hindiston va Sug'd o'rtasidagi savdo munosabatlarini himoya qilgan xioniylar davrida vujudga kelgan⁴. Bitiklarda Maymurg', Kesh va Sug'dning boshqa hududlaridan borgan savdogarlarning nomlari tilga olingan bo'lib, ularning yonida Samarqand tangalaridagi tamg'alar aks ettirilgan⁵. Yozuvlarda tilga olingan Sug'd hukmdorliklarining fuqarolari o'zlari mansub bo'lgan joy nomi (keshliklar, maymurg'liklar va h.k.) ostida tilga olingan.

Sug'diy bitiklardan biri samarqandlik savdogar Nanay-Vandak tomonidan yozilgan bo'lib, u o'zidan keyingi savdogarlarga shu joyda xabar qoldirgan. Nanay-Vandak sug'diy savdogarlar boshlig'i sifatida ularning faoliyatini nazorat qilib turgan⁶. Shtialdagi qoyada Afrosiyob va Panjikent devoriy suratlarida aks ettirilgan kiyimdagi sug'diy savdogarlar tasviriga o'xshash tasvir toshga o'yilgan. Unda savdogar qo'lida tutatqi ushlab turgan, tutatqidan qanotli afsonaviy maxluq chiqib kelayotgan holda aks

¹ *Лившиц В.А. Согдийские и бактрийские настенные надписи на городище Афрасиаб / Royal Nauruz in Samarkand Proceedings of the Conference Held in Venice on the Pre-Islamic Paintings at Afrasiab. – Pisa-Roma: 2006. P. 59–74.*

² *Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. . . . С. 133.*

³ *Humbach H. Die Soghdischen inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Allgemeine und vergleichende Archäologie – Beiträge. Bd 2. – München: 1980. – P. 201–228.*

⁴ *Етмар К. Чилас / перевод с англ.: Ж.Войников (Qarang: www.iranicaonline.org).*

⁵ *Г'оуилов В. Маумург' то'г'risida tarixiy ma'lumotlar // O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand, 2013. – №1 (6). 105–110-betlar.*

⁶ *Етмар К. Чилас / перевод с англ.: Ж.Войников (Qarang: www.iranicaonline.org).*

ettirilgan. Bu tasvir Afrosiyobdagi «ot» va «qanotli echkilar» tasyiriga juda o'xshash¹.

Samarqandda xioniylar davlatining hukmronligi 30 yilcha davom etgan bo'lib, bu davrda Sug'd boshqaruvi va uning xususiyatlari qanday bo'lganligi ma'lum emas. Shatial qoyatosh suratlari va sug'diy yozuvlaridan shu ayon bo'ladiki, xioniylar davrida sug'diylar mustaqil tashqi savdo aloqalarini olib borishgan.

Sharqiy Turkistondan (Xitoyning shimoli-g'arbi) topilgan milodiy III–VII asrlarga taalluqli sug'diycha xatlar va hujjatlar ham bu boradagi tasavvurlarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 1907-yilda Auriel Steyn tomonidan topilgan xitoy qog'oziga yozilgan (dastlab to'la saqlangan 6 ta va yana 3 ta bo'lak maktub) «Ko'hna xatlar» (hozirda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda) deb yuritiluvchi Xitoy devorining qorovul bekatidan (Dunxuandan g'arbda) milodiy 313–317-yillarga² taalluqli sug'diy maktublar topilgan bo'lib³, ular Dunxuandan Samarqandga jo'natilish uchun yozilgan. Maktublarda sug'diy savdogarlar jamoasi (qaysi shahar ekanligi nomi maktubdan o'chib ketgan)⁴, Loyangdagi sug'diylar, Samarqand shahri va Dunxuandan Sug'dga boradigan savdo yo'nalishlariga doir ma'lumotlar keltiriladi⁵. «Ko'hna xatlar»ni tadqiq etgan mutaxassislar

¹ Буряков Ю.Ф. К вопросу о связях Согды и Индии в древности и раннем средневековье // Индия и Центральная Азия (доисламский период). – Ташкент, 2000. С. 161–162.

² «Ko'hna xatlar» sanasi eronshunos V.B. Xenning tomonidan aniqlangan (Qarang: Henning W.B. The date of Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – vol. 12. P. 601–615) bo'lib, bunga asos sifatida olim 307-yilda E va 312-yilda Loyang shaharlarining egallanishini keltiradi (Qarang: Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, III) // ППВ. – М., 2008. – № 1 (8). С. 173). Ushbu fikr F.Grene va N.Sims-Vilyams tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan (Qarang: Grenet F., Sims-Williams N. The Historical Context of the Sogdian Ancient Letters. Transition Periods Iranian History. Actes du Symposium de Fribourg-en-Brisgau, Studia Iranica. (22–25 mai 1985). – Cahier-Leuven: 1987. – vol. 5. P. 101–122). Y.Xarmatta esa ushbu hujjatlarning sanasi milodiy 196-yilga daxldor deb ko'rsatishni taklif etib, bu sanani yuz yildan ortiqroq muddatga qadimiylashtirishga harakat qiladi (Qarang: Xarmatta J. Sogdian Sources for the history of Preislamic Central Asia // Probegomena to the History of Preislamic Central Asia. – Budapest, 1979. P. 153–165). Bizningcha, V.B. Xenning talqini to'g'ri bo'lib, unda xunlarning hujumlari va Loyangning yong'in ostida qolishi bilan bog'liq tarixiy jarayon haqida gap boradi. Bu esa o'sha zamon tarixiy jarayonlariga mos keladi.

³ G'oyilov B. Sug'diy yozuv madaniyatimiz ko'zgusi // Imom al-Buxoriy saboqlari. – Toshkent, 2013. – №4. 278–284-betlar.

⁴ Etienn de la Vessier ushbu savdogarlarni o'z asarida nomma-nom keltirib o'tadi (Qarang: Vaissière de la É. Sogdian traders: ... P. 48–49).

⁵ Vaissière de la É. Sogdian traders: ... P. 43–45; Ртшеладле Э.В. Великий шелковый путь / Энциклопедический справочник. – Ташкент: ЎМЭ, 1999. С. 107–112.

mazkur savdogarlarning ismlariga o'xshash ismlar ushbu hujjatda ham keltirilganligini ta'kidlashadi¹.

Hujjatlarning birida *Mevancha* ismli qiz bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, chopar uning xatini Samarqandga yetkazish uchun yo'lga chiqqan edi. Chopar bu xatni Samarqandga yetkaza olmagan. *Mevancha* va boshqa xat egalari ham choparning xatni yetkaza olmaganligidan bexabar bo'lishgan. Chopar 5 yil o'tib qaytib kelgan. Chunki uning Samarqandga borish yo'li xunlar tomonidan egallangan edi. Chopar ikkinchi marotaba yo'lga chiqqan va o'zi bilan yana xatlar olgan. Ikkinchi marotaba ham xavf-xatarga to'la yo'l uning mazkur xatlarni qorovul minorasi tagiga yashirishga majbur etgan. Natijada oradan o'n besh asrdan ortiq vaqt o'tib ushbu maktublar olimlar tomonidan topilgan².

Sug'diy savdogarlar Buyuk ipak yo'li bo'ylab Xitoy va Hindistonga savdo ishlari bilan qatnaganliklari ushbu manbalar tahlili natijasida yanada oydinlashadi. Ta'kidlash joizki, sug'diylarning Sharqiy Turkiston va Xitoy bo'ylab o'z manzilgohlarini tuzishlari Kushonlar davridan boshlab, eftaliylar davrida jadallashgan³.

Sug'd konfederatsiyasi va uning markazi Samarqandning mazkur davrdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rnini yanada aniqroq tasavvur qilishda xitoy yilnomalarida keltirilgan ba'zi ma'lumotlar yordam beradi. Yilnomalarda *Kan* (Samarqand), *Mi* (Maymurg'), *Shi* (Kesh) va boshqa bir qator «Xu mamlakatlari»dan savdogarlar Xitoyga borib, bu mamlakatdagi Gansu, Dunxuan (sug'diylar eng ko'p joylashgan viloyat) o'lkalarida⁴ va Sharqiy Turkistondagi Turfon, Ko'cha, Koshg'ar, Xo'tan shaharlarida bir necha savdo koloniyalarini barpo etganligi keltiriladi⁵. Xitoyda o'z savdo manzilgohlarini barpo etishga uringan Sug'ddan kelgan samarqandliklar, keshliklar, maymurg'liklar bitta mavzeda istiqomat qilishsa-da, o'zlari mansub bo'lgan hukmdorlik fuqarosi bilan qo'shni bo'lishni afzal bilishgan va shu asosda sug'diylar jamoalari birgalikda yashaydigan manzil-qishloqlarni bunyod etishga urinishgan.

Loyang shahrida samarqandlik kishiga mansub qabrlar o'rganilganda marhumlarning ismlari Kang Mojya va yana bir qabrda dafn qilingan kishi-

¹ Sims-Williams N. The Sogdian Inscriptions of the Upper Indus // Antiquities of North Pakistan / Reports and Studies. Ed. K.Yettmar. – Mainz, 1989. – P. 40.

² Is'hoqov M.M. Sug'diyona – tarix chorrahasida. – Toshkent: Fan, 1990. 7-b.

³ История Узбекской ССР. В четырех томах. С древнейших времен до середины XIX века / Отв. ред. Я.Г. Гулямов. – Ташкент: Фан, 1967. Том 1. С. 157.

⁴ Mori M. Soğdlularin Orta Asya'daki Faaliyetleri. TTK, Belleter, Ocak. – Ankara: 1983. S. 341–345.

⁵ Xo'jayev A. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar. ... 57–58-betlar.

ning ismi Kang Danung ekanligi aniqlangan. Ismlarga «Kang»ni qo'shib ishlatish samarqandlik ekanligini bildirish uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, Uyg'ur xoqonligining (745–840) Tan imperiyasining ichki ziddiyatlarini bostirish uchun bergan yordami evaziga imperiyaning uyg'urlarga bergan savdo imtiyozlaridan sug'diylar ham foydalanib, o'zlarini uyg'ur deb ko'rsatib, savdo ishlarini olib borganlari ma'lum bo'ladi¹.

Milodiy 470–480-yillardan boshlab Samarqand eftaliylar davlati (V asr o'rtalaridan – VI asr o'rtalarigacha) tarkibida bo'lgan². Eftaliylar davlati tarkibida Sug'dning rivojini ta'minlovchi muhim asoslardan biri, bu – Sug'd shaharlari taraqqiyoti bo'ldi. Bu davrda Samarqand shahri devorining qayta ta'mirlanishi, Poykent shahrining kengayib 21 gektar maydonga ega bo'lishi, Varaxsha shahrining kengayishi, Romitan, Panjikent³, Ishtixon shaharlarining rivojlanishi Sug'd taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qildi⁴. Mazkur shaharlarning tipologik jihatdan ark, shahriston, rabod va qabriston qismlariga bo'linganligi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ladi⁵.

Eftaliylar hukmronlik qilgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tarixiy manbalarda to'liq aks etmagan. Ammo numizmatik materiallar tahlili natijasida ma'lum bo'ladiki, eftaliylar davrida Samarqand hukmdorliklari va ularga tobe hukmdorliklar mustaqil tanga zarbiga ega bo'lishgan. Masalan, Naxshab va Panch hukmdorligida mustaqil tanga zarbi bo'lgan⁶. Sosoniylar ustidan qozonilgan g'alabaga erishishda sug'diylar eftaliylarni qo'llab-quvvatlab, ularning iqtisodiy tayanchi bo'lgan⁷. Bu holat Sug'dning markaziy hokimiyat oldida o'zining konfederativ holatini saqlashida va davlatchilik an'analarini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

¹ Xo'jayev A. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar. ... 59–60-betlar.

² Гафуров Б. Таджики. ... Кн. 1. С. 252.

³ Сулейманов Р. Древний Нахшаб. ... С. 69.

⁴ Пузаченкова Г.А. Древности Мпачкаля. – Ташкент: Фан, 1989. С. 162; G'ayibov B. «Ishtixon» toponimi va uning mohiyati xususida // Tarixshunoslik va manbashunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. 1 qism. – Samarqand, 2015. 52–56-betlar.

⁵ Беленицкий А.М., Белтович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973. С. 149.

⁶ Кабатов С.К. Нахшабские монеты V–VII вв. // ВДИ. 1961. – №. 1 (75). С. 136–138; Ильясов Дж.Я. Об этнической принадлежности правителей Пенджикента // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент, 2004. – Вып. VIII. С. 59.

⁷ Otah'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 149-b.

2-§. Samarqand hukmdorlarining etnik mansubligi

Bugungi kun sug'dshunosligidagi bahsli muammolardan biri Sug'd markazi Samarqandni boshqargan hukmdorlar shajarasi va ular mansub bo'lgan sulolaning kelib chiqishi masalasidir. Sug'dni ilk o'rta asrlarga qadar boshqargan hukmdorlarning ismlari fanga ma'lum emas. Sug'dni ilk o'rta asrlarda boshqargan hukmdorlar aksariyatining ismlari esa, asosan, xitoy yilnomalari va tangalar orqali yetib kelgan. Yozma manbalar orqali faqat Devashtich, G'urak yoki Tarxun kabi hukmdorlarning ismlari yetib kelgan, xolos.

Xitoy yilnomalarida keltirilgan ba'zi ma'lumotlar bu masalani yechishda yordam berishi mumkin. Xususan, «Bey shi», «Suy shu» va «Tan shu» yilnomalarida Kan (Samarqand) hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu o'lkasidagi hududga borib taqalishi qayd etiladi hamda markazi Choch va o'rta Sirdaryo bo'lgan Qang' davlati hukmdorlarining ham Samarqanddagi Kan xonadoni bilan qarindoshligi tilga olinadi¹.

Xitoy yilnomalarida keltirilgan Kan (Samarqand) hukmdorlarining kelib chiqishi xususida K.Shoniyozov o'z fikrlarini bildirib, ularni Qang' davlati hukmdor xonadoni tarmog'idandir, degan mulohazani bildirib, ta'kidlaydiki: «Xan sulolasi davridan (mil. av. 206 – mil. 220-yillar) boshlab hokimiyatning avloddan avlodga o'tib kelishi odat tusiga kirgan². Keyingi asrlarda bu odat muayyan ravishda davom etib kelgan hamda Kan hukmdori Yuechji hukmron xonadonidan chiqqan»³.

Ushbu ma'lumot izohtalabdir. Xan sulolasi Xitoyni boshqargan davr 2 bosqichga bo'linadi: G'arbiy Xan (mil. av. 206 – mil. 25) hamda Sharqiy Xan (mil. 25–220). Bu esa Kan xonadonida hokimiyatning ushbu

¹ Yilnomada bu haqida quyidagilar keltirilgan: «[Yuechji xalqi] dastlab Silyan tog'idan shimoldagi Chjaovu shahrida yashagan. Tukyuelardan mag'lub bo'lgach, janubga siljib, Suanlin (Pomir)ga yaqin joyga joylashishdi. Shu yerdan hozirgi joylariga borib o'rtnashishdi hamda 9 ta hukmdorlar sulolasiga bo'linishdi: Kan (Samarqand), An (Buxoro), Sao (Kabudon), Shi (Choch), Mi (Maymurg'), Xe (Kushoniya / Kattaqo'rg'on), Xosyun (Xorazm?), Maodi (Bitik?), Shishi (Kesh). Boshqaruvchilari nasldan naslga o'tadigan «to'qqiz xonadon» deb yuritiladi va barchasi Chjaovu familiyasiga ega» (Qarang: O'zbekiston tarixi. (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. ... 30-b.; Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 310).

² Tadqiqotchi T.Yuy xitoy yilnomalari ma'lumotlari asosida «Xan shu» yilnomasining 96-bobida keltirilgan Shu-le davlatini qadimgi Sug'd deya talqin etgan. Unga ko'ra mazkur davrda (mil. avv. 206 – mil. 220-yillar) Sug'dda 1510 ta oila yashagan. Davlatning umumiy aholisi 18 647 kishini tashkil etib, ulardan 2 000 kishi quroldan foydalana olgan (Qarang: Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN Южной и Северной династии. ... С. 49.)

³ Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. ... 53-b.

davrlarning qaysi biridan boshlab meros sifatida o'tganligini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. K.Shoniyozov ushbu sanani mil. avv. 206 – mil. 25-yillar deb ko'rsatib, bunga asos sifatida milodiy 25–220-yillarda Sug'dning Kushon davlati tarkibida bo'lganligini keltiradi¹. B.Gafurov esa Sug'dning Kushon davlati tarkibiga qo'shib olinganligi sanasini Kanishka (78–123) hukmronligi davri bilan bog'lashga harakat qiladi². Ammo soha mutaxassislarining aksariyat ishlarida Sug'dning Kushon davlati tarkibida bo'lganligi masalasi ochiq qoldirilgan. Bu borada tadqiqotchilar orasida yagona fikr yo'q. Bunga sabab manbalar yetishmasligi bo'lib, arxeologik materiallar hamma vaqt ham kerakli xulosaga kelishga asos bo'lavermaydi.

Yilnomalarda keltirilgan Kan (Samarqand)dagi xonadon to'qqizta suloladan biri ekanligi ta'kidlanishi bilan birgalikda, ular orasida uning markaziy mavqega ega ekanligiga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, «Bey shi» va «Suy shu»da *Xe* (Kushoniya) va *Mi* (Maymurg') hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu sulolasidan ekanligi va ularning nasli Kan (Samarqand) xonadoniga borib taqalishi haqidagi ma'lumotlar³ yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Bu Chjaovu shahridan kelgan xonadon vakillari dastlab Samarqandga kelib o'z sulolasini tashkil qilgani borasidagi fikrga asos beradi⁴. Bu esa K.Shoniyozovning Samarqandda hokimiyat mil. avv. 206-yildan boshlab avloddan avlodga o'tib kelgani borasidagi fikrining tarixiy haqiqatga yaqinroq ekanligidan dalolat beradi⁵.

Ba'zi tadqiqotchilar Sinlyan tog'i atrofidan kelgan Chjaovularning tamg'alari asosida masalaga oydinlik kiritishga harakat qilishadi. Ular Sug'd konfederatsiyasi, Buxoro va Choch hukmdorlari o'rtasida bog'liqlik borligini taxmin qiladilar. Xususan, VI–VIII asrlarga taalluqli *ϰϰϰ ϰϰϰ* – «Choch hukmdori» unvonli, \mathfrak{K} shaklli tamg'ali tangalar bilan qariyb xuddi shu davrlarda muomalada bo'lgan \mathfrak{K} shaklli tamg'ali Buxoro tangalari va \mathfrak{F} shaklli tamg'ali Samarqand ixshidlari tangalari orasida yaqinlik bo'lishi mumkin. Balki ushbu tamg'alar markaziy xonadon bo'lmish Samarqand Chjaovular sulolasining tamg'asidan o'sib chiqqandir: $\mathfrak{K} \leftarrow \mathfrak{F} \rightarrow \mathfrak{K}$. Tamg'alardagi shakliy o'xshashlik Samarqand, Buxoro va Choch markaziy boshqaruvchilarining qarindosh va Chjaovu xonadoniga mansub bo'lishi

¹ Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. ... 53.

² Gafurov B.G. Таджики. ... Кн. 1. С. 189.

³ Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 272, 274–275, 282, 286–287.

⁴ O'zbekiston tarixi (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. ... 30.

⁵ G'oyibov B. Sug'diy hukmdorlar shajarasi xususida (Panch misolida) // Ilmiy axborotnoma. Nauchnyy vestnik. – Samarqand, 2014. – №2 (84). 11–15-betlar.

mumkinligi haqidagi taxminga kelishga imkon beradi¹. Bunga Xitoy yilnomalarida keltirilgan Samarqand, Buxoro, Choch hukmdorlarining nasli bir ekanligi borasidagi ma'lumot yanada aniqlik kiritadi². Chjaovu sulolasining dastlabki tashkil topishida turkiylar va keyinchalik sug'diylar yetakchilik qilganligi yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi.

Xitoyshunoslar yilnomalarda keltirilgan «... yuechjilarning tukyue (turk) lardan mag'lubiyatga uchragach, janubga qarab siljiganliklari» mazmunidagi ma'lumotni mil. avv. II asr o'rtalariga, aniqrog'i, 177–176-yillarga taalluqli deb hisoblashadi³. Ayni mana shu davrda chjaovular Kangkiya (Kan / Samarqand) davlatlariga asos solishgan⁴. Bu esa Chjaovularning janubi-g'arbiyga siljishi hamda Sug'dga kelib joylashuvi ayni miloddan avvalgi II asrning oxirida yuz berganligidan darak beradi.

O.I. Smirnova tangalarda uchraydigan Chjaovu sulolasi vakillari ismlarining eroniy asosga ega ekanligi va ularning kuchli eroniylashgani haqidagi fikrni ilgari suradi⁵. Olima xitoy manbalaridagi *chjaovu* iborasining Tan davridagi xitoycha (*t'siä miu*) va Xan davridagi arxaik xitoycha (*tiog miwo*) o'qilish shaklini izoh sifatida keltiradi⁶ hamda mazkur iborani arab va mahalliy manbalarda Markaziy Osiyoning islomdan oldingi aslzoda tabaqasi nomi sifatida tilga olingan *جموك* – «jamuk» («qimmatbaho tosh» ma'nosida⁷) so'zi bilan taqqoslaydi⁸. O.I. Smirnova fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, *chjaovu* atamasini nafaqat Sug'd hukmdorlariga, balki boshqa sulolalarga ham nisbatan ishlatish mumkin. Xususan, kushonlar davridagi davlat boshlig'ining unvoni *yabyü* – yabg'u bo'lib, u ham *jamuk* va undan keyin *chjaovu* bilan aloqador⁹.

A. Otaxo'jayev esa H.V. Haussigga suyangan holda *yabyü* – yabg'u unvoni turkiy *jibu* unvoni ekanligini va musulmon manbalarida *siljibu* va yunon manbalarida *siljibul* shaklida keltirilganligini hamda «g'arbiy turk xoqonlari»ning nasabi ekanligini ilgari suradi¹⁰. At-Tabariy ham o'zining

¹ Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). – Toshkent: Yangi nashr, 2010. 27-b.

² Захидов П. Государство Кангуй. ... С. 23–29.

³ Хо'jayев А. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar. ... 53–54-betlar.

⁴ Хо'jayев А. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar. ... 54-b.

⁵ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 25.

⁶ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 28.

⁷ Frye R.N. Jamuk, sogdian real? // JOAS, 1952. P. 105–106.

⁸ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 32–35.

⁹ Захидов П. Государство Кангуй. ... С. 31–33; Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 36.

¹⁰ Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 66-b.

«Podsholar va payg'ambarlar tarixi» asarida *jamuk* haqida keltirib الترك عظماء منهور – «ular turk azimlaridan» deb keltiradi¹. Bizningcha, Chjaovu sulolasining kelib chiqishida eroniy qabilalarning ham o'rni bo'lgan. Sug'ddagi davlat qurilishida har ikkala etnosning ulushi bo'lgan. Bu esa Sug'd hukmdorlarining kelib chiqishida ikkita etnik asos bor deb xulosa qilishga imkon beradi.

Samarqand boshqaruvchi sulolasining kelib chiqishi xususida Afrosiyob devoriy suratlaridagi bitiklarda ham ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, 1965-yilda topilgan Afrosiyob shaharchasining shimoliy qismidagi saroy majmuasidagi devoriy suratlarda aks ettirilgan 16 satri sug'diy yozuvda Samarqand hukmdori Varxumanning urug'i *'wnš'w* – *Unashu* (yoki *Unshu*) deb keltirilgan² bo'lib, devoriy suratlardagi yozuv sug'dshunos V.A. Livshis tomonidan o'qib chiqilgan³. Bitikdagi yozuv dastlab *'βrywm'n 'wnyw MLK'* – «Xun hukmdori Avarxuman» deb talqin etilgan⁴. Keyinchalik esa olim mazkur iborani *'βrywm'n 'wnš MLK'* – «Unash (urug'idan) hukmdor Avarxuman» deb o'qishni paleografik jihatdan to'g'ri deb hisobladi. O'z fikrlariga dalil sifatida V.A. Livshis *'wnš'w* (*Unashu*) iborasining etnonim sifatida o'xshashi xitoy yilnomalarida Kan (Samarqand) hukmdorlari xonadonining nomi sifatida *Vin shu* tarzida uchrashini keltirdi⁵. Shu bilan birga, ushbu masalada keyingi yillarda V.A. Livshis tomonidan yana boshqa fikr taklif qilindi. Unga ko'ra, *'wnš* so'zini Xitoy yilnomalarida keltirilgan *wen-na-sha* («wen-nasha»⁶) so'zi bilan bog'liq holda talqin qilish va bu so'z xitoychada Sug'd (*Su-te*) mamlakatining nomlaridan biri bo'lishi mumkin, deb hisoblasa bo'ladi⁷. Keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlarda Avarxuman – Varxuman nomidan zarb qilingan tangalardagi yozuvlar asosida Varxuman ismli hukmdor ikkita (Varxuman I va Varxuman II)

¹ История ат-Табари. ... С. 253.

² Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... С. 124.

³ Лившиц В.А. Надписи на фресках из Афрасиаба // Тезисы докладов сессии, посвященной истории живописи стран Азии. – Л., 1965. С. 17.

⁴ Лившиц В.А. Правители Согда и «цари хуннов» китайских династийных историй // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. IX годовичная научная сессия АН ИВ АН СССР (аннотации и краткие сообщения). – М., 1973. С. 26.

⁵ Лившиц В.А. Правители Панча (согдийцы и тюрки) // НАА. – М.: Наука, 1979. – № 4. С. 69; Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... С. 315.

⁶ Юй Т. Эфталиты и Согдиана / Согдийский сборник. Выпуск 4. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане // Ред. Ш. Камалидин. – Lambert Academic Publishing, 2017. С. 31.

⁷ Лившиц В.А. История изучение Согда. ... С. 198–199; Хо'jayev A. Xitoy manbalarida sug'dlarga oid ayrim ma'lumotlar. ... 53-b.

bo'lgan, degan fikrlar (Varxuman nomidan zarb qilingan tangalardagi yozuvning tuzilishi asosida) ilgari surildi¹.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, V.A. Livshis va shu asosda ilgari surilgan bu boradagi fikrlar o'zini oqlamaydi. Ularning yozishicha, avvalo, V.A. Livshis tomonidan keltirilgan «Xitoy manbalarida Samarqand hukmdorlari mansub urug' nomi *Vin-shu*» mazmundagi ma'lumot xitoy yilnomalarida aslida boshqacha shaklda keltirilgan. Ularga ko'ra, yilnomada ushbu ma'lumot – «(*Samarqand*) hukmdor xonadonining nomi *Ven bo'lib, kelib chiqishi Yuechjilardan*» tarzida uchraydi. «Tan-shu» yilnomasini xitoy tili-dan ruschaga o'g'irgan N.Y. Bichurin ushbu jumlani «*Собственно владе-тель проывается Вынъ; происходит из Дома Юечжи*» shaklida tarjima qilgan bo'lsa², turkshunos E.Shavann mazkur jumlani «*Le nom de famille du prince est Wen. C'étaient à l'origine des Yue-tche*» tarzida fransuz tiliga tarjima qilgan. Samarqand hukmdorlari mansub bo'lgan xonadon nomi sifatida uchraydigan *Ven* so'zi «*Suy-shu*» (636-y.) yilnomasida ilk bor tilga olingan. Keyinchalik esa ushbu jumla «*Bey-shi*» (659-y.) va «*Tan-shu*» (945-y.) yilnomalarida ayni ko'rinishda takrorlanadi³.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, G'arbiy Turk xoqonligining nomi qadimgi turkiy bitiktoshlarda *On Oq* – «*O'n O'q / qabila*»⁴, Xitoy yilnomalarida esa «*Ven* familiyasi o'n aymoq / qabila» tariqasida ham uchraydi⁵. Bu esa Samarqand hukmdori Avarxuman (650-yillar) kelib chiqishi G'arbiy turk xoqonligiga, O'n O'qlarga mansub hukmdor bo'lgan, mazmunidagi fikr bildirishga imkon beradi. Ya'ni yilnomalarda Samarqand hukmdorlari urug'i sifatida tilga olingan «*Vin shu*» so'zi *'wnš'w* – «*Unashu*» tarzida emas, balki *'wny'w* yoki *'wny'w* tarzida o'qiladi⁶. Sug'd ixshidi Mastich tangalaridagi hukmdor urug'ining nomi paleografik jihatdan *'wny* – «*O'n*

¹ Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... С. 117–125.

² Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 285–290.

³ Бабаяров Г., Кубанин А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканда из надписей в росписях Афраснаба // Самарқанд shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. 217-b.

⁴ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л., 1951. С. 30.

⁵ Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN Южной и Северной династии. ... С. 58.

⁶ Бабаяров Г., Кубанин А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканда из надписей в росписях Афраснаба. ... С. 218–220.

O'q» deb o'qish imkonini beradi¹. Bu esa ushbu so'zni «un'ug» yoki «o'n o'q» deb talqin qilishga asos hisoblanadi.

Yozuvlar talqinini tarixiy jarayonlarga solishtirganda ham ushbu so'zning turklar bilan bog'liq «O'n O'q» sulolasiga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi². Afrosiyob devoriy suratlarini talqin qilgan L.I. Albaurning keltirishicha, VII asrning 40-yillarida G'arbiy turk xoqoni Yuquqxon (Ib Duluxon) Janubiy O'rda hukmdori Ishbaraxon (Shexuxon) bilan Yettisuvda ro'y bergan nizolar sababli Sug'd orqali Toxaristonga qochishga majbur bo'ladi³. Mana shu paytda uning lashkarboshilaridan biri, G'arbiy turklarning «Dulu» urug'i vakili bo'lgan Varxuman Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritgan va o'zini bu yerning hukmdori deb e'lon qilgan bo'lishi mumkin⁴. Varxumanning aynan sug'diy yoki turkiy ekanligini aytish qiyin. Lekin manbalar tahlili uning ko'proq sug'diydan ko'ra, turkiy etnos vakili ekanligiga ishora beradi. Shuningdek, boy turkiy zodagonlarning sug'diy ismga ham ega bo'lganligi Mug' tog'i sug'diy hujjatlari orqali ma'lum⁵. «Dulu» va «Nushibi» qabila ittifoqlari o'rtasidagi urushda mag'lubiyatga uchragan «Dulu» Sug'dda hukmronligini o'rnatgan va bu Varxumandan keyingi hukmdorlarning ana shu urug'dan bo'lishi mumkinligiga ishora beradi.

Sug'd markazi Samarqandni boshqargan sulolaning kelib chiqishi manbalarda *chjaovular* deb keltirilgan. Mahalliy shakli *jamuk* yoki *chamuk* bo'lgan deb taxmin qilinadigan ushbu sulolaning etnik kelib chiqishida sug'diy va turkiy etnoslar ishtirok etganlar. «Suy shu» yilnomasida Xe (Kushoniya) va Mi (Maymurg') hukmdorlarining kelib chiqishi *Chjaovu* sulolasidan ekanligi hamda ularning nasli Kan (Samarqand) xonadoniga borib taqalishi keltirilgan bo'lib, bu sug'diy hukmdorlarning yagona xonadondan tarqalganliklari borasidagi fikrni kuchaytiradi.

Xullas, VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqanddagi sulola g'arbiy turklarning O'n O'q ittifoqi bilan bog'liq bo'lsa, ungacha bo'lgan konfederatsiya hukmdorlari shajarasi xitoy yilnomalarida keltirilgan chjaovular yoki mahalliy Kan xonadoni vakillari bo'lgan sug'diylar bilan aloqador.

¹ O'sha joyda. С. 219.

² Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. С. 36–38.

³ Саъидов В., Хиџанов Н. Turkish – Sogdian impact on the epoch of Turkish Khaganate in Southern Tokharistan / International journal of scientific Research and Education. Volume-7, Issue-3. March, 2019. P. 834–839.

⁴ Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 38.

⁵ САГМ II. С. 27.

3-§. Samarqand Sug'dida boshqaruv va uning xususiyatlari

III o'rta asrlarda taraqqiy etgan Sug'd markazi bo'lgan Samarqandni, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida *xšēb* – *ixshid* shaklida¹, arabiy manbalarda *اخشيد* – *ixshid* shaklida keltirilgan unvonli² hukmdorlar boshqargan. Lekin Sug'd konfederatsiyasini 650–670-yillarda boshqargan hukmdor *βrywm'n* – Avarxuman va undan oldin hukmronlik qilgan *šyšpyr* – Shishpir (640-yy.) nomidan zarb qilingan tangalarda ularning unvonlari *MLK'* – «podsho» deb keltiriladi³. Afrosiyob devoriy suratlarida ham Varxuman *MLK'*, ya'ni «podsho» deb keltiriladi⁴. Shuningdek, sug'diy tangalarda mintaqa hukmdorlarining unvoni sifatida *MR'Y* ham uchraydi. Mazkur ibora oromiy geterogramma hisoblanib, so'zma-so'z «hukmdorim» ma'nosini anglatib, sug'diycha *xwβ(w)*, *xwt'w* – «hukmdor», «hokim» iborasini ifodalash uchun ishlatilgan⁵. Ammo mazkur ikki unvonning bir-biridan farqli jihatlari, qaysi biri ustun turishi va muvofiqlik darajasi haligacha to'liq ochib berilmagan.

Mug' tog'i sug'diy hujjatlaridan Sug'dda *'w'zypt* – *aavazipat* (sug'orish bilan bog'liq ariq tozalash, hashar ishlariga mas'ul...)⁶, A-5 raqamli sug'diy hujjatida uchraydigan *prōyyp'(n)* – *pardezbon* (saroyga qarashli bog'lar, xiyobonlar ustidan nazoratchi)⁷, *γwpt* (*šwpt* ?) – *g'upat* («daro-madlar noziri», boshqacha aytganda, «moliya ishlari mutasaddisi») ⁸, *β'zkr'm* – *bozkrom* (bojxona noziri)⁹, *n'ztyyryw* – *naztig'riv*¹⁰ («hukmdor yordamchisi», «yordamchi») ¹¹, *δp'yrpt* – *dapirpat*¹² («bosh kotib,

¹ СДГМ II. С. 127.

² Kurat A.H. Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'i zebti (higri 93-94-miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gografiya dergisi. – 1948. Cilt VI. – № 4. S. 387–430.

³ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 35–43.

⁴ Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 38.

⁵ Бабажаров Г., Кубатин А. К вопросу об употреблении титула *MR'Y* в Средней Азии (по нумизматическим данным) / Согдийский сборник. Выпуск 2. Новейшие исследования по истории и истории культуры Сога в Узбекистане // Ред. Ш. Камалдин. – Lambert Academic Publishing: LAP, 2015. С. 89.

⁶ СДГМ II. С. 71–72.

⁷ СДГМ II. С. 208.

⁸ Is'hoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 54-b.

⁹ Is'hoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 24-b.

¹⁰ *n'ztyyryw* – *naztig'riv* iborasining unvon yoki shaxs ismi ekanligi masalasida hanzgacha ikkilanishlar mavjud – G'.B.

¹¹ СДГМ II. С. 79–83.

¹² СДГМ II. С. 176.

devonxona boshlig'i»¹, *prw'nk' kr'k* – *parvonak krak* («hujjat to'plovchi», «farmon yetkazuvchi», «mukofotlarni topshirishga ma'sul»)², *'rspn* – *arspan* («qishloqlar ustidan nazorat qiluvchi» yoki «haram og'asi»)³, *'pš'rspn* («arspanlar yordamchisi»)⁴, *ky'βš'yws* – *katiyabshauz* («qishloq oqsoqoli»)⁵, *'wrnyk'm* – *urnikam*⁶ («qonun ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor»)⁷, *mywpt* – *mag'upat*⁸ («bosh kohin»)⁹, *βynpw* – *vag'npat*¹⁰ («ibodatxona olovini saqlovchi»)¹¹ kabi mahalliy unvonlar boshqaruvda qo'llanilganligi ma'lum bo'ladi¹².

Sug'dda VII–VIII asrlarda mavjud unvonlar tahlili natijalari Sug'dni muayyan davlatchilik asoslariga ega siyosiy uyushma sifatida e'tirof etishga imkon beradi. Lekin ushbu boshqaruvning tub mohiyatini anglash, boshqaruvdagi markaziy va mahalliy unvonlarning vazifalarini aniqlash hamda mazkur boshqaruvning barcha davrlarini, xususan, ilk o'rta asrlar davridagi holatini chuqurroq tadqiq etish lozimdir. Chunki ayni ilk o'rta asrlarda yer egaligining shakllari o'zgarib, boshqaruv manfaatlarini ko'zlagan xususiyat kasb etdi. Aksincha, yaxlit podsholik mulki hisoblangan yer endilikda mulkdor aslzoda qatlam qo'lga o'tib taqsimlanish ro'y berdi. Har bir yer egasi o'z hududi markazida qo'rg'on, qasrlar qurish, shaxsiy harbiy guruhlar saqlash kabi ijtimoiy va mulkiy munosabatlarga ega bo'ldi. Ixshidlik boshqaruvi asos e'tibori bilan yer mulkdorlari bilan hisoblashadigan bo'ldi. Bu jarayon birmuncha ilgari

¹ Sug'dning barcha hududida davlat boshqaruvida sug'diy yozuvning yetakchi ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, *dapirpat* lavozimidagi amaldor barcha hukmdorliklarda davlat xizmatchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan – G.V.

² СДГМ II. С. 183; *Is'hoqov M.M.* Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 53-b.

³ *Лившиц В.А.* Согдийская эпиграфика. ... С. 179–182.

⁴ СДГМ II. С. 176.

⁵ СДГМ II. С. 177.

⁶ *Лившиц В.А.* Согдийская эпиграфика. ... С. 62–63.

⁷ СДГМ II. С. 57.

⁸ СДГМ II. С. 182.

⁹ *Is'hoqov M.M.* Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 15–32-betlar.

¹⁰ СДГМ II. С. 171.

¹¹ Sug'd boshqaruvining uzviyligida o'ziga xos xizmatda bo'lib, diniy boshqaruvi amalga oshirganlar. Konfederatsiya markazi Samarqand, uning hukmdorliklari Kesh, Kabudon, Ishtixon, Panjikentda zardushtiylik ibodatxonalari bo'lganligi nafaqat yozma manbalar orqali, balki arxeologik tadqiqotlar natijasida ham o'z tasdig'iga ega (Qarang: *Смирнова О.И.* Места домусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимики) // СНВ. – М.: Наука, 1971. – Вып. X. С. 90).

¹² *Gayıbov B.* About Confederate Administration Ruling of Sogd // International Journal of Central Asian Studies. South Korea. Volume 20. 2016. P. 167–179.

milodiy II asr oxiri – III asr boshlarida boshlangan. Ayni davrni Markaziy Osiyoda, jumladan, Sug'dda ham ilk o'rta asrlarning boshlanishi deb hisoblash maqsadga muvofiqdir¹.

Qang' davlati parchalangach, Sug'dda mulkchilik munosabatlari o'ziga boshlagan. Yer egaligining «dehqon»² mulkchiligi shakllanishi tezlashdi. Sug'dda mulkchilikning turli xil shakllari, jumladan, xususiy, jamoa mulklari va zardushtiy ibodatxonalariga tegishli «vag'nze» (*βγνζ'υη*) xillari tarkib topdi. Bu esa mahalliy zamindorlarning hukmronligini mustahkamladi. Davr o'tgani sayin zodagonlar (*xvabu – γωβω*), erkin dehqonlar (*aazat (kor) – 'z't (k'r)*) boyib, dehqon jamoalari (*kashovarz – kšw'rz*) ularga mulkiy bog'lanib kadivar (*k'δw'r*)larga aylandi³. Lekin Sug'dda dehqon zodagonlarining ham Erondagi kabi tabaqalarga bo'linganligi ma'lum emas⁴.

VII asrning o'rtalari Sug'd hukmdorliklari Kesh atrofida birlashgan bo'lsalar, shu asr ikkinchi yarmidan boshlab barcha konfederatsiya a'zolari Samarqandni markaz sifatida tan olishgan. Turk xoqonlaridan biri bo'lgan, xoqonlik boshqaruvida islohotlar o'tkazgan Tun yabg'u-xoqon davrida (618–630) xoqonlikning barcha hududlarida bo'lgani kabi Sug'dda ham ma'muriy boshqaruv takomillashtirilib, isloh qilinadi. Islohotga ko'ra, Sug'dga dastlab *eltabar* unvonidagi shaxs jo'natilgan va uning ustidan nazorat o'rnatish maqsadida *tudun* jo'natilgan⁵. Lekin ushbu ikki unvonning

¹ Ilk o'rta asrlar davrining V asrdan boshlanishi Rim quldorlik imperiyasining bo'linishi va yer mulk munosabatlarining o'rnatilishi bilan bog'liq jarayonlar Yevropa tarixshunosligi orqali kirib kelgan rus tarixshunosligidan ma'lum. Sharqda Eron va asosan, O'rta Osiyo hududida jamiyat taraqqiyoti hamda rivojlanishi ancha tez bo'lib, feodal munosabatlar oldinroq milodiy II–III asrlardan boshlangan (Qarang: *Мартынов А.И. Вопросы истории и археологии Сибирского средневековья // Этнокультурные процессы в Южной Сибири и Центральной Азии в I–II тысячелетиях н.э. – Кемерово, 1994. С. 8–9*).

² Ilk o'rta asrlar davriga xos «dehqon» atamasi yer bilan bog'liq boshqaruvchi ijtimoiy tabaqaning boshida turgan. Sug'dda zodagonlar yoki katta yer egalari, ba'zan qishloq oqsoqollari «dehqon» deyilgan. Ular mustahkam qalalarda yashashgan. Butun boshli qishloqlar dehqonlar tasarrufida bo'lgan. Shuning uchun ham ilk o'rta asrlarda qishloq hokimi «dehqon» deb atalgan (Qarang: *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2002. – Tom 3. 395-b.*). Dehqon iborasi eroniy va turkiy asosga ega diha («qishloq», «ovul») va qoon («xon», «hokim») so'zlaridan tashkil topgan. Dehi-baland («Balanddagi qishloq»), Dehi-nav («Yangi qishloq») kabi bugungi joy nomlari diha komponenti asosida yasalgan.

³ *Отхо'jayев А. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 67.*

⁴ *Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. ... С. 239.*

⁵ *Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата: автореферат дисс. на соис. ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 2012. С. 7.*

ilk o'rta asrlarda Sug'dda olib borgan faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ancha mavhum.

Sug'ddagi hukmdorliklar markazga va, o'z navbatida, mulklar hukmdorliklarga konfederativ tartibda o'z sodiqliklarini bildirganlar. Ba'zi hollarda mulklarning hukmdorlikka yoki markazga tobelik holatini aniqlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Y.Yoqubovning Mug' tog'i sug'diy hujjatlariga suyanib keltirishicha, Parg'ar, Buttam (Yuqori Zarafshon) kabi qishloqlarni anchayin erkin harakat olib borganliklari va to'g'ridan to'g'ri markaz Samarqandga itoat etmay, avval Panchga, so'ngra uning ixtiyori bilan markazga bo'sungan deb hisoblaydi¹. Xuddi shunga o'xshash holatni Naxshabning Keshga tobeligi holatida ham kuzatish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozim bo'lgan yana bir masala shuki, bu Sug'dning nisbiy muxtoriyat holatidagi boshqaruvidir. Sug'dning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shu ediki, u aksariyat hollarda biror yirik saltanat tarkibiga kirgan davrda ham turli xil yo'llar bilan o'z nisbiy mustaqilligini (muxtoriyatini) saqlashga intilgan. Sug'd hukmdorlari nisbiy avtonomiya ko'rinishdagi boshqaruvning daxlsizligini ta'minlash maqsadida yangi xo'jayinlari bilan turli vosita va usullardan foydalangan holda murosa qilish yo'lini tutib kelishgan.

VII asrga kelib Samarqand markazli Sug'd Turk xoqonligi siyosiy nazorati ostida nisbiy mustaqil bir holatda bo'lgan². Dastlabki Turk xoqonlari Sug'dning ichki ishlariga ortiqcha aralashmagan³, hatto, ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, xoqonlikning butun tarixi mobaynida⁴ Turk xoqonligi va Sug'd orasidagi munosabatlar asosan xoqonlik ulardan o'lpon olish bilan cheklangani, ularning ichki ishlariga aralashmagani va voha hukmdorliklarining har biri yarim mustaqil bo'lgani haqida fikrlar mavjud. G'. Boboyorov va A. Kubatin esa numizmatik materiallar asosida 580-yillarda zarb etilgan «tegin» unvonidagi tangalarni Turk xoqonli-

¹ Якубов Ю. Паргар в VII-VIII веках нашей эры. – Душанбе: Дониш, 1979. С. 21–56.

² Отахо'jayев А. İlk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 11, 42, 67-betlar; Гафуров Б.Г. Таджики. ... Кн. 1. С. 315.

³ Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi: tarix fanlari doktori avtoreferati. ... 37–44-betlar; Гафуров Б.Г. Таджики. ... Кн. 1. С. 280.

⁴ Stark S. Nomaden und Selbsthafte in Mittelasiien – und Zentralasiien // Grenzüberschreitungen. Formen des Kontakts zwischen Orient und Okzident im Altertum. – Stuttgart: 2002. P. 389; Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi: tarix fanlari doktori avtoreferati. ... 37–42-betlar.

gining Sug'ddagi ilk boshqaruviga daxldor deb hisoblashadi¹. Lekin bizda mavjud yozma manbalar ushbu fikrni inkor etish yoki tasdiqlash imkonini bermaydi.

Sug'd mavjudligi davrida uning nisbiy muxtoriyat holatida bo'lganligini ko'rsatadigan dalillar borligini e'tirof etish kerak.

Sug'dning nisbiy muxtoriyatini ko'rsatuvchi birinchi ilk dalil iqtisodiy asos, ya'ni konfederatsiya hukmdorlarining o'z nomlaridan tanga-pullar zarb ettirganligi hisoblanadi. Sug'd hukmdorliklari milodning boshlaridanoq sug'diy yozuvdagi o'z tanga-pullarini zarb qildirishga erishgani² uning ichki boshqaruvda mustaqil bo'lgani va iqtisodiy masalalarni o'zi hal qilganidan darak beradi. Sug'd hukmdorliklaridagi tanga zarbi xususida Yunon-Baqtriya, xioniylar yoki eftaliylar davriga oid materiallar kam saqlanib qolgan bo'lsa-da, numizmatik manbalar tahlili natijasida muammo-ning ba'zi jihatlarini borasida muayyan tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

Milodiy IV asrdan boshlab Sug'd hukmdorliklarining qariyb barchasida hukmdorlikning o'ziga xos belgisi – tamg'alar aks etgan holda tanga zarbining yo'lga qo'yilganligi³ nafaqat iqtisodiy zaruriyat bilan, balki siyosiy mustaqillashuv bilan bog'liq edi.

Sug'dda tanga zarbi masalasini tadqiq etish shundan darak beradiki, hukmdorliklarda mahalliy sulolalar saqlanib qolgan bo'lib, Yunon-Baqtriya, xioniylar yoki eftaliylar saltanati davridagi Sug'ddagi boshqaruv orasida katta farq bo'lmagan va hukmron davlat oldindan amalda bo'lgan davlatchilik tamoyillarini saqlab qolishga harakat qilgan. Faqat Sug'dda sulola almashinuvi yuz berganligini hisobga oladigan bo'lsak, Sug'd ustidan nazorat o'rnatgan davlatlar bu yerdagi davlatchilikni tubdan o'zgartirib yubormagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Sug'd markaziy hokimiyati siyosiy jihatdan hukmron davlatga qaram bo'lsa-da, iqtisodiy va boshqa bir qator masalalarda mustaqil bo'lgan. Konfederatsiya shakllanishiga e'tibor qaratilsa, vo-ha hukmdorliklarining yagona ittifoqqa birlashuvi jarayoni nisbiy mustaqillik bilan uzviy ravishda mavjud bo'lgan. Chunki Sug'd hukmron davlat xazinasiga

¹ Babayrov G., Kubatin A. Заметки к происхождению некоторых титулов Караханидского каганата и их параллели в титулатуре Западно-тюркского каганата / История и культура Центральной Азии. History and Culture Central Asia. – Tokyo, 2012. С. 6–8.

² Ergazarova T., Kochnev B. Tangalar o'tmish darakchilari. ... В. 9; Зейдмалъ Е.В. Древние монеты Таджикистана. ... С. 269–273; <http://www.zeno.ru> – Pre-Islamic Asia & North Africa – Central Asia.

³ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и права. – Ташкент: Адолат, 2000. С. 76.

yirik daromad keltiruvchi hudud bo'lib, bu yerga majburiy ravishda o'zgacha boshqaruv kiritilsa, hukmron davlat xazinasiga kelib tushadigan daromad tizimiga putur yetishi tayin edi. Sug'dning iqtisodiy salohiyati uning nisbiy mustaqilligi uchun zamin bo'lgan. Bu esa tarixiy asoslarga ega¹.

Sug'dning geografik joylashuvi va tabiiy sharoiti ham uning nisbiy muxtoriyatini vujudga keltirgan omillardan biri sanalgan. Buni yaxshi tushungan Sug'd ustidan hukmron bo'lgan davlatlar asrlar davomida shakllangan uning ma'muriy boshqaruv tizimini o'zgartirishga harakat qilmaganlar. Yunon-Baqtriya podsholari davrida ham Samarqandda noiblik asosida boshqaruv bo'lganligi konfederatsiyada sug'diy yozuvli tangalar zarb qilinganligi orqali ma'lum². Faqat ba'zi hukmron davlatlar boshqaruvi-ga konfederatsiya boshqaruvi yaqinlashtirilgan yoki moslashtirilgan. Jumladan, Sug'd ustida Turk xoqonligi hukmronligi o'rnatilgan davrda konfederatsiya boshqaruvini xoqonlik boshqaruvi-ga yaqinlashtirishga harakat qilinish, bu yerdagi boshqaruv tizimi takomillashtirilgan³. Masalan, Sug'ddagi boshqaruv tizimi saqlangan holda uni nazorat qilish uchun noib *eltabar* va *tudunlar* yuborilgan. Shunday ekan, Sug'd markaziy hokimiyati-ning nisbiy mustaqil bo'lganligi va bu huquqdan uning yuqori darajada foydalanganligini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Bundan tashqari, Sug'd markazi Samarqand hukmdorlari turk xoqonlarining kuyovlari sifatida vohadagi boshqa hukmdorlarga nisbatan imtiyozlarga ega bo'lganliklari ham Xitoy manbalari orqali ma'lum⁴.

G'arbiy Turk xoqonligining Sug'dni o'z tasarrufiga olgan 560–580-yillar oralig'idan to 650-yillargacha (taxminan 80, 90 yil) xoqonlik konfederatsiyani bilvosita boshqarishga harakat qilgan⁵. Ya'ni Sharqiy Turkiston va undan g'arbda joylashgan hududlarga nisbatan Xitoyning ta'siri tobora kuchaya borgan bir pallada xoqonlik o'z e'tiborini ko'proq tasarrufidagi ko'chmanchi xalqlarga qaratib, Sug'd kabi o'troq hududlarga o'z noiblarini jo'natish orqali yoki konfederatsiya hukmdorlari bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatish vositasida mamlakatni boshqargan⁶.

¹ *Латипов В.В.* Известия древних писателей о Скифах и Кавказе // ВДИ. – 1947. – № 1. С. 253–279.

² *Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В.* Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: ... С. 70.

³ *Отхо'jayев А.* İlk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 88-b.

⁴ *Бабаяров Г.* Государственный строй Западно-Тюркского каганата ... С. 42.

⁵ *Бичурин Н.Я.* Собрание сведений. ... II. С. 271; *Gibb H.A.R.* The Arab conquests in Central Asia. – London, 1923. P. 13.

⁶ *Boboyorov G'.* G'arbiy Turk xoqonligining o'z vassallarini boshqaruvida qo'llagan usul va vositalari masalasiga doir // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2011. – №4. 3–15-betlar.

Darhaqiqat, konfederatsiya markazi bo'lgan Samarqand hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalar turk xoqonlari tangalariga shaklan juda o'xshash¹. VI asr oxirlari – VII asr boshlarida Turk xoqonligi taxti tepasida turgan xoqonlar Kan (Samarqand) hukmdorlari bilan qalin aloqa o'rnatishga harakat qilishgan. Jumladan, Tardu xoqon (576–603) o'z qizini *Shifubi* ismli, Tun yabg'u-xoqon (618–630) esa *Kyuymuchji* ismli Samarqand hukmdoriga turmushga berganligi xitoy yilnomalarida qayd etiladi². Ya'ni Samarqand hukmdorlari o'z qaynotalari yoki qudalari nomidan tanga zarb qilganlar. Afsuski, manbalarda bu borada to'g'ridan to'g'ri ma'lumotlar keltirilmagan. Mazkur holat nafaqat Turk xoqonligi uchun foydali, balki Sug'd uchun xoqonlik tarkibida Xitoy ta'siridan saqlanishda muhim edi. Chunki markaziy Sug'dda Xitoy tangalariga taqlidan tangalar zarb qilina boshlangan edi³. Turk xoqonligi saltanati tarkibida Sug'dning Xitoy ta'siridan himoyalaniishi konfederatsiyaning o'z faoliyatini davom ettirishda muhim omil hisoblanadi.

Ko'chmanchi xalqlar hisoblangan turkiylar Sug'd hayotida faol qatnasha boshlashgan. Turkiylar va sug'diylar bir-birlariga yetkazib beradigan hunarmandchilik va dehqonchilik mahsulotlariga muhtoj edilar⁴. Natijada savdo-sotiq rivojlangan. Bu savdo aloqalari esa xoqonlik xazinasiga daromad keltirishi bilan birga⁵, Sug'dning taraqqiy etishiga xizmat qilgan. Tashqi kuchlar ta'siri esa mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqarib, xo'jalikni barbod qilar edi. Shu bois tinchlikni saqlash ikkala tomon uchun ham mavjud bo'lishning asosiy omili hisoblangan⁶. Ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyoga va shu asnoda Sug'dga Xitoy ta'siri nafaqat Turk xoqonligi davrida, balki Talos jangi (751-y.)ga qadar sezilarli bo'lgan⁷. Darvoqe, Talos jangidan so'ng arablarga asir tushgan xitoy jangchilari orasida qog'oz tayyorlash sirini biladigan hunarmandlar ham bo'lib, ular Samarqandda tut

¹ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 21.

² Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 311.

³ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 7–20.

⁴ Гафуров Б. Таджики. ... Кн 1. С. 280–081.

⁵ Otaxo'jayev A. III o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 12-b.

⁶ Bu hududlarda yashagan etnoslar tarixda o'z mustaqilligi va tinchligini saqlash uchun birgalikda kurashlar olib borishgan. Xususan, Kulto'badan (Janubiy Qozog'iston) topilgan sug'diy bitiklarda Samarqand, Kesh, Naxshab va Buxoro hukmdorlari Choch lashkarboshisi bilan birgalikda tashqi kuchlarga kurash olib borganliklari to'g'risida gap boradi (Qarang: Sims-Williams N. The Sogdian inscriptions of Kultobe: text, translation and linguistic commentary // Труды Центрального Музея. – Алматы, 2009. Том: 2. С. 153–171).

⁷ Xo'jayev A. Talos jangi // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. – Tom 8. 240-b.

daraxti po'stlog'idan qog'oz tayyorlashni shaharda birinchi bo'lib yo'lga qo'yganliklarini ta'kidlash joiz.

Sug'dning nisbiy muxtoriyati bilan bog'liq yana bir masala shuki, xioniylar, eftaliy va Turk xoqonligi davrida ham ularga tobe ko'chmanchi qabilalar o'zining ichki boshqaruvini saqlab qolishi hukmron davlat uchun doimiy jiddiy muammo bo'lib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, hukmron davlatlarning asosiy e'tiborini mamlakat tarkibidagi ko'chmanchi xalqlarni bo'ysundirishga qaratishini taqozo etardi¹. Sug'diylar ko'proq savdoga e'tibor qaratib, hukmron davlat tarkibidagi o'zlarining nisbiy avtonomiyasini iqtisodiy asoslar bilan mustahkamlashga intilishgan². Ayniqsa, Turk xoqonligi davrida bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Shuningdek, xoqonlar Sug'd konfederatsiyasi kabi ma'muriy tuzilmalar boshqaruvchilariga o'zlarining qizlarini berib, qarindoshlik munosabatlarini o'rnatish vositasida davlatni boshqarishga harakat qilishgan³. Jumladan, Turk xoqonlari Samarqand hukmdorlari kabi nisbatan kuchliroq voqa davlatlari bilan nikoh munosabatlarini yo'lga qo'yish, ularning hukmdorini kuyov qilish, ya'ni «ko'ragonlik tizimi» asosida davlatni boshqarishgan⁴. Mazkur fikrga oid ma'lumotlar numizmatik materiallar va xitoy yilnomalari orqali ham ma'lum bo'lib, bu boshqaruv faqat xoqonlik uchun manfaatli edi. Balki Sug'd uchun ham bir qator imtiyozlar bergan.

Sug'd o'troq hayot tarzi hukm surgan mintaqalardan bo'lib, unda hayotiy resurslardan to'g'ri foydalanish va yer-suv egaligi mulkchiligi-ning rivojlanishi natijasida siyosiy-hududiy va ma'muriy tizim shakllangan. Markaz va hududiy birliklar o'rtasidagi boshqaruvchi hokimiyat organlari vujudga kelgan. Bunda hukmdorlik markazi va mulklar o'rtasidagi boshqaruvchilar bo'lganligi manbalarda keltiriladi. Masalan, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida *kty'βš'yws* – katiyabshauz, «qishloq

¹ *Greuet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarit and Hephtalite period / Proceedings of the British Academy CXVI. – London: 2002. R. 209-214.*

² *Boboyorov G'. Turk xoqonligi tashqi siyosatida nikoh munosabatlarining o'rni // O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlar: tarix va hozirgi holat. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011. 46–54-betlar; Гафуров Б. Таджики. ... Кн. 1. С. 276–277; Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 6–15.*

³ *Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // Turks, 2. – Ankara: 2002. S. 100; Boboyorov G'. Turk xoqonligi tashqi siyosatida nikoh munosabatlarining o'rni. ... 47–48-betlar; Greuet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarit and Hephtalite period / Proceedings of the British Academy CXVI. – London, 2002. P. 209-214.*

⁴ *Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата ... С. 42.*

oqsoqoli» ma'nosini anglatadigan unvon egasi tilga olingan. Sug'dda qishloqlarning qishloq oqsoqoli tomonidan boshqarilishi avvaldan mavjud bo'lgan. Bu esa davlatchiligimiz tarixida qadimiy qishloq jamoaviy boshqaruvining o'z o'rniga ega bo'lib, Sug'd konfederatsiyasi misolida uning davomiy ekanligini tasdiqlaydi.

Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimliklar o'rtasidagi munosabatlar esa yirik zamindorlar, boy savdogarlar va shaharlik aslzodalar tomonidan tuzilgan «Oqsoqollar kengashi» orqali amalga oshirilgan. «Ixshid» unvonli hukmdorlar «Oqsoqollar kengashi» fikriga tayangan holda cheklangan hokimiyatga ega bo'lgan. Har bir hukmdorlikning harbiy sarkardalari va *chokarlari* bo'lgan². Samarqandda mavjud davlat boshqaruv tizimining bo'linmaganligi, ya'ni uning faqat yagona davlat organi bo'lgan «Oqsoqollar kengashi»dan iborat ekanligi bugungi konfederatsiyaga qo'yilgan me'yor-qoidalarga ham mos tushadi.

Samarqand hukmdorlari – *ixshidlar* «Oqsoqollar kengashi» tomonidan tayinlangan. Sug'd konfederatsiyasi ustidan hukmronligini o'rnatgan davlatlarning aksariyatida ko'chmanchi madaniyat hukmron bo'lib, mazkur ko'chmanchi davlatlarda boshqaruvda demokratik omillarga nisbatan urug'-qabilaviy boshqaruv ustun bo'lgan³. Masalan, Turk xoqonligi boshqaruvida urug'-qabilaviy va qarindoshlik tamoyillariga amal qilinar edi. Keyinchalik Sug'd hukmdorlari va Turk xoqonlari o'rtasidagi qarindoshlik rishtalarining bog'lanishi natijasida Sug'dda ham qarindoshlik boshqaruviga amal qilina boshlandi⁴.

Samarqandda *ixshidlardan* keyingi boshqaruv pog'onasida yirik yer egalari bo'lgan «ozodlar» – «ozodkor», ya'ni erkin yer-mulk egalari turgan⁵. Ushbu ma'lumotlar Sug'd konfederatsiya va uning tarkibidagi

¹ СДГМ II. С. 177; Мамрахилова Б. Дворцовое хозяйство и управление хозяйственными отношениями в Согде (по данным документов с горы Мур) / Согдийский сборник. Выпуск 2. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане // Ред. Ш. Камалидин. – Lambert Academic Publishing; LAP, 2015. С. 40.

² Otaxo'jayev A. III o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 67-b.; Beckwith C.I. Aspects of the Early History of the Central Asian Guard corpus of Islam // АЕМАе. – Wiesbaden: 1984. – Tom IV, P. 36–38.

³ Гонибов Б. Согдийская конфедерация: формирование и особенности // Отан тарихи. Ғылыми журнал. – Алматы, 2015. – №3. (71). С. 47–60.

⁴ Goyibov B. Soğd merkezi yönetimi ve onun Köktürk kağanlığına bağlılık şartları // Gazi Türkiyat. – Ankara, 2013. – №13. S. 81–90; G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi xususida // Ilmiy xabarнома. Научный вестник. – Andijon, 2015. – №1. 60–65-betlar.

⁵ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 23–37.

hukmdorliklar uchun xos bo'lib, bularni sug'diy hujjatlar ham tasdiqlaydi. «Ozodlar» doimiy ravishda ixshidlar xizmatida bo'lib, ular soliqlardan ozod etilgan edi¹.

Bu masalada Mug' tog'i sug'diy hujjatlariga murojaat qiladigan bo'lsak, Sug'dda aslzodalar toifasi quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi. Ixshid *xšayatiya*, oromiy ideogrammada MLK' deb ataluvchi amaldor bo'lgan². MLK' yozuv shakli sug'diy Nov. 3 va Nov. 4 hujjatlarida Tarxunga nisbatan, V-8, V-4, A-14, A-20, Nov. 2, V-10, V-17, V-17, A-18, A-2, A-3, A-16 raqamli hujjatlarda esa «Sug'd hukmdori» tarzida Devashtichga nisbatan qo'llanilgan. Ushbu unvon arabiy tilda *ixšīd/d* – *ixshid* tarzida talaffuz etilgan. Tadqiqotchi A.Kubatin (i)xšēd (>xšēt/xšāt) *ixšīd/d* – *ixshid* unvoni asosida G'arbiy turk xoqonligining yuqori unvonlaridan biri bo'lgan *šad* – *shad* unvoni o'zlashganligini keltiradi³. Lekin *shad* unvonining qay tarzda va qachon xoqonlik boshqaruviga kirganligi masalasi qo'shimcha dalillarga muhtoj. *Ixshid* unvoni esa nafaqat Sug'd konfederatsiyasi hukmdorlariga nisbatan, balki Farg'ona hukmdorlariga nisbatan ham ishlatilganligi o'рта asr manbalarida tilga olinadi⁴. Sug'diy hujjatlarning V-17 raqamlisida Farg'ona hukmdorlariga nisbatan ham MLK' – 'γšyδ unvoni keltirilgan⁵. Sug'diy hujjatlarda ko'plab marotaba uchraydigan MLK' – «podsho» va MR'Y (MRY' yozilish varianti) – «hukmdor» ma'nolaridagi ideogrammalar bir ma'noni anglatish uchun ishlatilgan.

Shu o'rinda arabiy manbalarda uchraydigan, Sug'd konfederatsiyasi boshqaruviga daxldor *افشين* – *afshin* (*βšyn – *afšīn* – *afshin*) unvoni xususida gapirib o'tish lozim. *Afshin* unvonini yuqorida keltirilgan MR'Y / MRY' unvonlariga yaqin ma'noni anglatishi haqidagi mulohazalar unchalik asosli emas. Chunki arab lashkarboshisi Qutayba ibn Muslim (86–96 / 705–715) va Sug'd ixshidi G'urak (710–738) o'rtasida tuzilgan «Samarqand shartnomasi»da (712-y.) G'urak «Sug'd afshini, ixshidning o'g'li» deb keltiriladi⁶. *Afshin* unvoni sug'diy manbalarda uchramaydi⁷. Shunday ekan, uni oliy sug'diy unvonlar bilan solishtirish ancha qiyinchilik

¹ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 38.

² Sug'diycha «ixshid» Avestocha xšau so'zining sifatdosh shakli bo'lib, «nurlanuvchi» degan ma'noni anglatadi (Qarang: *Лившиц В.А., Храмов А.Л. Согдийский язык. ... С. 351*).

³ Кубатин А.В. Система титулов в Тюркском каганате. Генезис и преемственность. – Ташкент: Yangi nashr, 2016. С. 77.

⁴ *Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. ... 129-b.*

⁵ СДГМ II. С. 115–123.

⁶ *Kafesoglu I. Turk Milli kulturu. – Istanbul, 1993. S. 387–430.*

⁷ СДГМ II. С. 50.

tug'diradi. Ushbu unvon arabiy tilli manbalarda ko'proq Ustrushona hukmdorlarining bosh unvoni sifatida qayd etilgan¹. Ustrushona taxminan Sug'd konfederatsiyasining hukmdorliklari maqomidagi ma'muriy birlik bo'lib, uning bosh unvoni konfederatsiya bosh unvonidan past bo'lgan. Ehtimol, ushbu unvonni «ixshid» yoki «xvabu»ga nisbatan past darajada ekanligini bilgan arablar G'urakka «afshin» deb murojaat qilish orqali uning Devashtich (708–722) bilan aloqalariga rahna solishni rejalashtirib, o'z maqsadlariga erishmoqchi bo'lishgan. Yoki haqiqatan ham, G'urak Ustrushona afshinlari avlodidan bo'lishi mumkin².

MR'Y unvoni Sug'd konfederatsiya hukmdorlari bilan aloqali ravishda milodiy III asrga oid Kulto'ba bitiklarida *symrkntč* MR'Y (Samarqand hukmdori), *kšynk* MR'Y (Kesh hukmdori), *nxšpyk* MR'Y (Naxshab hukmdori) shaklida uchraydi³. Lekin mazkur unvon Chochda bo'lmagan⁴. Matnda ushbu hukmdorlarning dashtlik ko'chmanchilarga qarshi kurashganliklari haqida gap boradi⁵. Sug'd tarkibidagi mahalliy hukmdorlar (viloyat hokimlari) mana shu unvon bilan atalgan⁶.

Xullas, Samarqand tarixining ilk o'rta asrlar ijtimoiy, ma'muriy tizimga xos markaziy lavozimlari amalda qo'llanilgan bo'lib, bu davlat huquq tizimining me'yorlari shakllanganligidan dalolat berar edi.

4-§. Samarqandning Sug'd konfederatsiyasi tarkibidagi maqomi

Bugungi kunda Sug'd konfederatsiyasi hukmdorliklarining umumiy soni xususida ikkilanishlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar Markaziy Sug'dda 11 ta ixshidlik bo'lganligi va ularning Samarqand ixshidligiga bo'ysun-

¹ *Пардаев М.Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1997. С. 20.*

² СДГМ II. С. 50.

³ *Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe // Shygyz. – 2006. – № 1. R. 96–100.*

⁴ *Бабазаров Г., Кубатин А. К вопросу об употреблении титула MR'Y в Средней Азии (по нумизматическим данным) / Согдийский сборник. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане. Выпуск 2. Редактор Ш. Камалидин. LAR LAMBERT Academic Publishing, 2015. С. 89–92.*

⁵ *Байнаков К. Города округа Кенджид-Кендже / Цивилизации и культура Центральной Азии в единстве и многообразии. Материалы международной конференции. Самарканд, 7–8 сентября 2009 г. – Самарканд-Ташкент, 2010. С. 5–15.*

⁶ *Gayibov B. Sogdian Confederation: The Kingdoms Position and Peculiarity // The international journal of Humanities & Social Studies. Vol. 4. Issue 6. June. – India: 2016. – P. 88–94*

ganligini keltirishadi¹. Aslida esa ixshidlik bitta bo'lib, uning tarkibidagi ma'muriy birliklar «ixshidlik» hisoblanmaydi. «Ixshid» o'ziga teng mavqedagi «ixshid» unvonli hukmdor ustidan hukmdorlik qilishi mantiqan noto'g'ri. Bundan tashqari, konfederatsiya birlashgan hukmdorlik soni ham 11 ta emas. Sug'd konfederatsiyasining 9 ta hukmdorligi bo'lib (ixshidlik markazi Samarqand bilan birga), Afrosiyob devoriy suratlarida keltirilgan 11 ta tug' G'arbiy turk xoqonligining xoqon, ya'ni «O'n O'q» va «yabg'u-xoqon»ga tegishlidir². Afrosiyob devoriy suratlarining G'arbiy devoridan joy olgan 9 tug' esa Sug'd hukmdorliklariga oid bo'lib, ular xitoy yilnomalari, sug'diy hujjatlar va arabiy manbalarda uchraydigan Samarqand (konfederatsiya markazi), Kesh, Naxshab, Maymurg', Panch, Ishtixon, Kabudon, Kushoniya, Fay hukmdorliklari hisoblanadi³.

Zarafshon tog' tizmasi janubda Samarqand va Qashqadaryo vohasini ajratib turgan tabiiy chegara hisoblangan. Bu tabiiy chegara Sug'd konfederatsiyasining ma'muriy tizimining vujudga kelishiga ham ta'sir etgan omil ekanligi shubhasiz. Konfederatsiya markazi Samarqand hukmdorligi Darg'om va Siyob kanallari orasida joylashgan bo'lib, undan sharqda Panch, janubda Kesh va Naxshab, uning shimoli-g'arbiy hududida Ishtixon, shimolda Kabudon hukmdorliklari joylashgan. Samarqandning janubiy-sharqida esa Maymurg' hukmdorligi joylashgan bo'lib, konfederatsiya markazi bo'lishiga sabablardan biri ham Samarqandning Sug'd markazida joylashganligida edi⁴.

Xitoy yilnomalarida *Kang* iyeroglifi Samarqand toponimining qisqartirilgan xitoycha transkripsiyasi ekanligi keltiriladi. Ikkinchi iyeroglif *guo* «davlat» yoki «hukmdorlik» ma'nosini anglatadi. Qadimgi xitoyliklar Samarqanddan kelgan kishilarni shuning uchun ham hukmdorlik nomidan kelib chiqib *Kan* familiyasi bilan atashgan⁵. Shunday tarzda «Kan» atamasi ham joy nomi, ham Samarqand sulolasi nomi sifatida Xitoy manbalaridan joy olgan holatlar ko'zga tashlanadi.

Ushbu o'rinda Samarqand to'g'risida Xitoy yilnomalarida keltirilgan ma'lumotlarni keltirish ayni muddao bo'ladi. «Tan shu» yilnomasida bu

¹ Asanov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 387-b.

² Бабуров Г., Култиев А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканде из надписей в росписях Афрасиаба. ... С. 216–220; Отахо'лиев А. İlk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 73-b.

³ G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasining tarixiy-ma'muriy bo'linishi xususida ayrim muhokazalar // Ilmiy xabarotoma. Nauchnyy vestnik. – Andijon, 2014. – №1. 57–62-betlar.

⁴ G'oyibov B. Samarqand – Sug'd konfederatsiyasining boshqaruv markazi sifatida // Ilmiy xabarotoma. Nauchnyy vestnik. – Samarqand, 2014. – № 4 (86). – 11–17-betlar.

⁵ Ходжаев А. Сведения пренекизтайских путешественников о Самарканде. ... С. 142–144.

haqda quyidagilar keltiriladi: «Samarqand (boshqa nomi «Samogyan» yoki «Limogyan») Yuan-vey sulolasi davrida «Sivangin» deb nomlangan. Undan janubga *Shi* (Kesh) hukmdorligigacha 150 li, shimoliy-g'arbda G'arbiy *Sao* (Kabudon)gacha 100 li atrofida, janubi-sharqda *Mi* (Maymurg') gacha 100 li, shimolda Markaziy *Sao* (Ishtixon)gacha 50 li. *Nami* (Zarafshon) daryosi uning markazidan oqib o'tadi. Hukmdorning (xonadon) ismi *Vin*. U *Yuehji* xonadonidan kelib chiqqan. Dastlab bu xonadon *Silyan* tog'leri (hozirgi Sinzyan (Xitoy))ning shimoliy qismida *Chjaovu* shahrida istiqomat qilishgan. Turklardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng, ular janubga Piyozsimon (Pomir) tog'larini aylanib o'tishib, hozirgi yerlari (Sug'd)ni egallashgan. U (Sug'd) G'arbiy hududlarning katta qismini itoatda tutgan¹. Ular quyidagilar: *Mi* (Maymurg'), *Shi* (Kesh), *Sao* (Ishtixon), *Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on), *Kichik An*, *Nashebo* (Naxshab), *Unaxe*, *Mu*². *Ibodatxonada Xu*³ (sug'diy) nizomi saqlanadi».

Yuqorida keltirilgan «turklardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng ...» ma'lumoti xitoyshunoslarning fikricha, «Bey-shi» va «Suy-shu» yilnomalarida «xunlardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng» shaklida keltiriladi. Bu yerda xitoylik mualliflar chalkashlikka yo'l qo'yishgan, ya'ni xunlar davrida (tax. milodiy III–IV asrlarda) bo'lib o'tgan voqealarni Turk xoqonligi tarixi bilan chalkashtirib qo'ygan bo'lishlari mumkin⁴. Ehtimol, bu holat ular xunlar va turklarni bitta xalq deb bilganliklari yoki turklarni xunlardan kelib chiqqan, deb talqin qilganliklari bilan izohlanishi ham mumkin⁵.

¹ O'zbekiston tarixi (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. ... 31-b.

² *Unaxe* va *Mu* hukmdorliklarining aniq qaysi hududlarga nisbatan lokalizatsiyalash masalasi muammo bo'lib qolmoqda. Agarda yilnomalarda keltirilgani kabi bu hududlar hozirgi Turkmaniston hududiga to'g'ri kelsa, u holda konfederatsiya hukmdorlarining ta'siri ham ayni hududlarga qadar yoyilgan.

³ A. Otaxo'jayevning xitoy yilnomalariga suyanib keltirishicha, *Xu* – «Turk yo'riq (qonun)lari» bo'lib, Sug'dda mazkur qonun asosida ish ko'rilgan (Qarang: Otaxo'jayev A. Ikk o'rtta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 89-b.). Xitoy yilnomalari tarjimalarida *Xu* atamasini «turk», «turkiy» deb tarjima qilish chalkashlik sababli tadqiqotlarda takrorlanavergan. Aslida *Xu* atamasi Xitoydan g'arbdagi hudud – Sug'dga nisbatan ishlatilgan va *Xu* qonunlari sug'diy qonunlarni anglatadi (Qarang: O'zbekiston tarixi (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. ... 31-b.). Balki *Xu* qonunlari to'plami Sug'dda Turk xoqonligiga qadar mavjud bo'lgandir.

⁴ Gayibov B. About to the Question of the Main Origin of Sogdian Rulers // International journal of Humanities & Social Science Studies. Volume-III, Issue-I. July. – Karimganj-Assam, India, 2016. – P. 235–242.

⁵ O'zbekiston tarixi (Xrestomatiya). 2-jild. 1-qism. ... 34-b.

Xitoy yilnomalarida keltirilishicha, VI asrning so'nggi choragidan VII asrning o'rtalarigacha Samarqandni *Shifubi (Tayshebi)* (VI asrning so'nggi choragi), *Kyuemuchji* (600–620)¹, *To'nga* (642) singari hukmdorlar boshqargan. Samarqand hukmdorlaridan *Shifubi* va *Kyuemuchji* ismlari bizga yilnomalar orqali, *To'nga* ismi tangalar orqali ma'lum. 645-yilda Xitoyga elchi jo'natgan Samarqand hukmdorining ismi M.Is'hoqov tomonidan *wzwrk* – *Vazurg* shaklida talqin qilingan bo'lsa², G'.Boboyorov va A.Kubatin *mwk'* – *Tmuga* yoki *Tonuga* (*To'nga*) shaklida o'qishni to'g'ri deb hisoblaydi. Bundan tashqari, ayni tadqiqotchilar Samarqanddagi *O'n O'q* sulolasiga Varxuman emas, balki undan oldin *To'nga* asos solgan deb taxmin qilishadi³. Lekin ushbu 𐰉 – «sirtmoq» va 𐰚 – «triskeles» shakllar tushirilgan tangalar sug'diy tangalar katalogida ancha ko'p bo'lib⁴, ulardagi sug'diy iboralarni o'qishda bugungi kunga qadar yakdillik yo'q. Yozma manbalarda esa *To'nga* haqida ma'lumot keltirilmagan⁵.

Kyuymuchji ismli hukmdor to'g'risida xitoy yilnomalarida ma'lumot uchraydi. Xitoy yilnomalarida u to'g'risida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: «*Chjen guan* hukmronligining beshinchi yilining (631-y.) bahorida *Kan* hukmdori *Guyumuchja* (*Kyuymuchji*) Xitoydan o'z himoyasiga olishini so'raydi. Shunda Xitoy hukmdori «quruq obro' uchun xalqni xarob qilish nimaga kerak», 10 ming li uzoqlikka askarlarni yubormayman», deya javob bergan»⁶. Aftidan, mana shu voqeadan keyin Sug'd hukmdorlari Turk xoqonligi bilan aloqalarni mustahkamlashga yanada qattiqroq kirishganlar va buning natijasi o'laroq xoqonlar va Samarqand hukmdorlari o'rtasida qarindoshlik aloqalari o'rnatilgan.

Sug'diy yozuvli bronza tangalar ham Sug'dning ilk o'rta asrlar tarixini tadqiq etishda birlamchi manbalar hisoblanib, ularda (Qarang: Ilova №21, 22) quyidagi Sug'd (Samarqand) hukmdorlarining nomlari keltirilgan⁷.

Tangalarda ismi keltirilgan Sug'dning birinchi hukmdori *šyšpyr* (yoki *šēšpēr*) – *Shishpir* bo'lib, ushbu ism so'zma-so'z «Din (zardushtiylik?)

¹ Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 311.

² Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... С. 177.


³ Бабаяров Г., Кубатин А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканда из надписей в росписях Афрасиаба. ... С. 219.

⁴ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 453–454.

⁵ Гогибов Б. К нумизматической истории Согда // Илмий ахборотнома. Научный вестник. – Самарқанд, 2016. – №4 (98). С. 6–11.

⁶ Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 311.

⁷ Смирнова О.И. Каталог монет с городища Пенаджикента. – М.: Наука, 1963. С. 61–91; O'sha muallif. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 36–45, 103–227, 423–424.

targ'ibotchisi» deb tarjima qilingan¹. V.A. Livshis ushbu ismni ikki qismga: *šyš* – «sochilmoq, erib ketmoq», *pyr* – «din, dinga ishonmoq» deb izohlashga harakat qilgan². Mazkur hukmdor ismi Xitoy yilnomalarida («Tan shu») 642-yilda Xitoy imperatoriga jo'natilgan elchilik munosabati bilan tilga olinadi. Shishpir 650 yoki 655-yillargacha taxtni boshqargan va Xitoy yilnomalariga ko'ra, uning hukmronligi davrida Sug'd konfederatsiyasining markazi Kesh bo'lgan deb keltiriladi. Shishpir tomonidan zarb qilingan tangalar (tangalarda ushbu hukmdor ismi *šyšpyr MLK'* deb keltiriladi) ushbu hukmdorning Varxuman taxtga o'tirganidan keyin ham Keshni idora etganligi borasidagi fikrga kelishga turtki bo'ladi³. Shishpir va undan keyingi Kesh hukmdorlari zarb etgan tangalarda konfederatsiya markazi Samarqand tangalaridagi  shakllarning mavjudligi bu fikrga kelishga imkon beradi. Mazkur hukmdor davrida Sug'dda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar xususida manbalarda ma'lumotlar qariyb yo'q hisobi.

Shishpirdan so'ng Samarqand taxtiga Afrosiyob devoriy suratlarida ismi *'brxwm'n* – *Avarxuman* (yoki *Varxuman*) (655–675) deb talqin qilingan hukmdor chiqqan. *Varxuman* (*'brxwm'n* yoki *'brxwm'n*) ismining ma'nosi sug'dshunoslar tomonidan **Bara(t)-humānah*, ya'ni «ezgu fikr eltuvchi», deb talqin qilingan⁴. Ushbu hukmdorning taxtga chiqishi va uning kelib chiqishi bo'yicha turli fikrlar bildirilganini aytib o'tish lozim. *Varxuman* ismining tangalarda *'brxwm'n* – *Varxuman* hamda Afrosiyob devoriy suratlaridagi shakli esa *'brxwm'n* – *Avarxuman* ko'rinishida keltiriladi. Uning davrida Sug'dda sulola almashinuvi yuz berib, mamlakat boshqaruvida turkiy sulola vakillari hokimiyat tepasiga keladi⁵. Afrosiyob devoriy suratlaridagi turkiy etnosga mansub kishilar Sug'd ixshid *brγwm'n* – *Varxuman* saroyining xos mulozimlari bo'lib, ular marosim egalari (mezbon) sifatida tasvirlangan⁶. *Varxuman* hukmronlik qilgan yillar Sug'dda konfederatsiya taraqqiy etgan davr hisoblanib, bu Afrosiyob devoriy suratlarida keltirilgan Sug'dning mustaqil tashqi aloqalar o'rnatganligi bilan bog'liq ma'lumotlar asosida o'z isbotiga ega.

¹ Лившиц В.А. История изучения Согда. ... С. 198.

² СДГМ II. С. 40.

³ Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... С. 177.

⁴ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ... С. 44; O'sha muallif. История изучения Согда. ... С. 198.

⁵ Альбаум А.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 34–36.

⁶ Аржанцев И.А. Новые хозяева Азии / Материалы международной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения С.П. Толстова. – Нукус, 2007. С. 104–105.

Shishpir va Varxuman hukmronligi yillari orasida hech qanday uzilgan bo'sh yil bo'lmasa-da, ular oralig'ida Vazurg («buyuk», «katta» ma'nolarini anglatadi) ismli hukmdor o'tganligi numizmatik manbalarda o'z ifodasini topgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida 30 dan ortiq Vazurg nomidan zarb qilingan tanga pullar topilgan. Ammo Vazurg ismining o'qilishi hanuzgacha taxminiy bo'lib kelmoqda¹. Yuqorida ta'kidlanganidek, Vazurg ismi To'nga deb ham talqin etilmoqda. Buni hokimiyat uchun kurash ketayotgan bir pallada To'nga (Vazurg) o'zining hokimiyatga da'vosini ko'rsatish maqsadida tanga-pullar zarb qilgan deb izohlash mantiqli bo'ladi.

Sug'd hukmdorlari to'g'risida numizmatik manbalar bilan birga Xitoy yilnomalarida keltirilgan ma'lumotlar qimmatli ahamiyatga ega. Yilnomalarga ko'ra, Varxumandan keyin taxtga *Dusoboti* kelgan. Sug'diycha *twk'sp'òk* («Kuchli qo'shin sohibi») – *Tukaspadak* ismining xitoycha talaffuzi *Dusoboti* shaklida keltiriladi². Dusoboti 695–696-yillarda Sug'd konfederatsiyasini boshqargan.

Varxuman hukmronligi tugagandan (675-y.) keyin Tukaspadakkacha (695-y.) 20 yilga yaqin davr bo'lib, bu orada Sug'dni boshqargan hukmdor ismi yozma manbalarda keltirilmagan.

Numizmat olimi O.I. Smirnovaning Xitoy manbalariga suyangan holda bergan ma'lumotlarga ko'ra, Tukaspadak o'zidan oldingi hukmdor – Varxuman mansub bo'lgan suloladan bo'lmasligi mumkin. Bunga sabab esa mazkur hukmdor tomonidan zarb qilingan tangalarda Varxuman tangalaridagi S shaklli tamg'aning yo'qligi hisoblanadi. Balki Tukaspadak hukmdor avlodidan bo'lmaganligi uchun ham tangalarda sulolaviy belgi o'zgargandir. Yoki turkiy sulola vakillari hokimiyatdan chetlashtirilib, yana «Oqsoqollar kengashi» sug'diylardan hukmdor tayinlagan.

Varxuman va Tukaspadak o'rtasida 675–695-yillar oralig'ida hukmronlik qilgan Samarqand hukmdorining ismi uning nomidan zarb etilgan tangalarda *'wrk wrtmwk MLK'* – hukmdor *Urk Vartramuk* deb keltirilgan bo'lib³, ushbu hukmdorning ismi yozma manbalar orqali ma'lum emas. Lekin uning nomidan zarb etilgan tangalardagi tamg'alar sug'diy hukmdorlar tangalaridagi tamg'alarga o'xshash. Afsuski, *Urk Vartramuk*ning hukmronlik yillari xususida boshqa manbalar orqali ma'lum emas.

O.I. Smirnovaning Xitoy manbalari asosida bergan ma'lumotida Samarqand taxtiga 698-yilda o'tirgan hukmdor ismi, u zarb etgan tangalarda

¹ Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. ... С. 179.

² Лившиц В.А. История изучения Согда. ... С. 198.

³ <http://www.zeno.ru> – Pre-Islamic Asia & North Africa – Central Asia

nnyšyš – Nineshish (yilnomalarda *ninje-shi-shi* ko'rinishda) deb keltirilgan bo'lib, u Varxumanning o'g'li bo'lgan¹. Agarda Nineshish Varxumanning o'g'li bo'lsa, u holda nima uchun otasidan keyin taxtga chiqmagan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bizningcha, buning sababi Nineshish voyaga yetmagan bo'lib, hali taxtni boshqarishga erta edi. Shuning uchun ham lashkarboshilardan biri bo'lgan *twk'sp'd'k* – Tukaspadak («Kuchli qo'shin sohibi») homiyligida Samarqand taxti boshqarilgan.

Nineshishdan keyin Samarqand taxtiga Mastich (yoki Mastan) (*m'stč*) (tax. 698–700) o'tirgan bo'lib, uning nomidan zarb qilingan tangalarda mazkur hukmdorning *'wnš / unaš* – «unash» urug'idan ekanligi keltiriladi². Lekin ushbu hukmdor urug'ining nomi *unaš* – «unash» tarzida emas, balki O'n O'q tarzida talqin qilingan hamda *m'stč/n 'wny MLK'* – «O'n O'q (urug'idan) hukmdor Mastich» deb qayta tiklangan. Varxuman tangalarida keltirilgan *ʃ* – «sirtmoq» va *ʃ* – «triskeles» shakllar Mastich tangalaridagi ushbu tamg'alarga juda o'xshash³. O.I. Smirnova mazkur hukmdor ismini *m'stn n'wy'n MLK'* – hukmdor Mastan Navyan deb talqin etgan⁴. Bu esa Varxuman va Mastichning bir urug'dan ekanligi borasidagi fikrni yanada kuchaytiradi.

Xitoy yilnomalarida ta'kidlanishicha, Samarqand xalqiga *Tuxun* (700–710) ismli bir kishi hukmdor etib tayinlanadi. Uning ismi sug'diy manbalarda *trywn* (Tarxun), musulmon manbalarida esa *ثرخون* sifatida uchraydi⁵. Ba'zi tadqiqotchilar Tarxun ismining «tarxon» unvoni bilan aloqador ekanligini ta'kidlashadi⁶. Lekin Tarxun ismining arab manbalarida *tarxon* unvoni bilan chalkashtirilganligi o'z isbotini topgan⁷.

Tarxun arablarning O'rta Osiyoga yurishlari davridagi voqealarda muhim rol o'ynagan. Arab xalifaligi kuchlariga qarshi o'n yil davomida (700–710) urush olib borgan. Tabariy asaridagi 85/704-yil voqealari bayonida Tarxunning Muso ibn Abdullohga qarshi kurashganligi haqida ma'lumot keltiriladi⁸. U to'g'risida alohida ma'lumot esa

¹ Smirnova O.I. Очерки из истории Согда. ... С. 170–171.

² Smirnova O.I. Очерки из истории Согда. ... С. 171.

³ Бабляров Г., Кубатин А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканда из надписей в росписях Афрасиаба. ... С. 219.

⁴ Smirnova O.I. Каталог монет с городища Пенджикент. – М.: Наука, 1963. С. 8–15.

⁵ История ат-Табари. ... С. 100.

⁶ Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 383-b.

⁷ СДГМ II. – С. 66–67; G'oyibov B. Ilk o'rta asrlarda Sug'd konfederatsiyasida Panchning o'mi. ... 28-b; Boboyorov G., G'oyibov B. Ilk o'rta asrlar Sug'd boshqaruvidagi eltebar, tudun va tarxon unvonlari xususida. ... 67–78-betlar.

⁸ История ат-Табари. ... С. 100.

88/707-yilda Qutayba ibn Muslimning Buxoroni egallashi bayoni orqali keltiriladi¹. V.A. Livshis Tabariy asarining birlamchi nashriga (Табари, II. 1230) suyangan holda, Buxoroning Qutayba tomonidan egallanishi va kelishuv hamda shartnomasi 90/710-yilga to'g'ri keladi deb keltiradi². Bizningcha, Buxoroning arablar tomonidan egallanishining tarixiy sanasi borasida manbalarda ba'zi qarama-qarshiliklar mavjud. Ushbu qarama-qarshiliklar hijriy yil sanasini milodiy yilga o'girish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, har bir sug'diy hukmdor taxtga kelgan yilidan boshlab o'zining erasini (Tarxun erasi, Devashtich erasi) boshlagan. Bu esa ilk o'rta asrlar davridagi vaqt hisobi masalasini o'rganishni murakkablashtiradi.

Masalan, Qutayba ibn Muslimning o'z ukasi Abdurahmonni Samarqandga Tarxundan o'lpon olish uchun jo'natishi, oradan ko'p vaqt o'tmasdan, Tarxun yaqin kishilari tomonidan taxtdan ag'darilishi hamda o'z joniga qasd qilgan (yoki o'ldirilgan) bo'lishi mumkinligi masalasida ham noaniqliklar ko'p. Bu haqda Mug' tog'i sug'diy Nov. 3 va Nov. 4 hujjatlarida keltirilgan podsho Tarxunning hukmronlik yillari bilan bog'liq voqealar ham guvohlik beradi³.

Manbalar va muammoga doir ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida ma'lum bo'ladiki, Tarxunning arablarga qarshi sustkashlik siyosati natijasida mahalliy zodagonlardan iborat «Oqsoqollar kengashi» uni taxtdan mahrum etgan va u o'z joniga qasd qilgan. Bu esa Qutayba uchun qo'l keldi va u o'zini Tarxunning qasoskori deya e'lon qilib, Buxoro hukmdori bilan ittifoqchilikda Samarqandni qamal qiladi. Sug'd konfederatsiyasining yangi ixshidi *Ghurak* – *G'urak* (710–738) shaharni mudofaa qilolmay arablar bilan sharmandali sulh imzolagan⁴.

Samarqand hukmdorlari bo'lmish aka-uka Tarxun va G'urak munosabatlari turli darajalarda o'zgarib turgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga

¹ *Мухаммад Наршахи. История Бухары / перевод с персидского Н. Лыкошина. – Ташкент, 1897. С. 15–17.*

² Bundan tashqari, olim Tarxun vafot etgan sanani hijriy 91-yil deb keltiradi. Hijriy 91-yil 710-yilning oktabriga to'g'ri keladi. U holda G'urakning taxt tepasiga kelgan sanasi milodiy 711-yilga to'g'ri keladi. Ushbu o'rinda chalkashliklar mavjud – (Batafsil qarang: СДГМ II. С. 66)

³ СДГМ II. С. 65–67.

⁴ O.I. Smirnovaning Tabariyning ilk nashriga (Табари, II. 1230) suyanib keltirishicha, sug'diyalar Samarqandni tark etishga va 2 000 000 dirham tovon to'lab, har yili 200 000 dirham to'lashga majbur bo'lishgan. Buning natijasida esa sulhga ko'ra, arablar G'urak hokimiyatini tan olishgan va uning avlodlarini qo'llab-quvvatlashgan. G'urak va Qutayba o'rtasidagi sulh shartnomasining to'liq matniga batafsil (Qarang: *Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 221–240*).

ko'ra, G'urak 93/711–712-yilda Samarqand arablar tomonidan egallanganidayoq ularning hokimiyatini tan olgan¹. Lekin u arablar ta'sirini rasman tan olgan bo'lsa-da, amalda Xitoydan yordam so'raganligi to'g'risida maktub saqlanib qolgan². Bu holat G'urakning xatosi sifatida tilga olinadi³.

Tarxunga qadar Sug'd taxtida sulolaviy (otadan o'g'ilga yoki akadan ukaga taxtning meros bo'lib o'tishi) boshqaruv mavjud bo'lmagan⁴. Tarxundan so'ng taxtga *'wyrk* – G'urakning (غرک) (lug'aviy ma'nosi «Kuchli», «Baquvvat» ma'nolarini anglatadi) chiqishi bu yerda sulolaviy boshqaruvni ta'minladi⁵. Bu shaxs ismi Xitoy yilnomalarida *Ulega*, Sug'd tangalarida *'wyrk* (Ug'rak) yoki *'wr'kk* (Urak) shaklida keltiriladi⁶. Tarxundan so'ng taxtga chiqqan G'urak 710–738-yillarda hukmronlik qilgan⁷.

712-yilda Samarqand arab xalifaligi qo'shini tomonidan egallangach, G'urak «Samarqand shartnomasi»da keltirilgan bandlarni qabul qilib, so'ngra Samarqand taxtida qolishni Qutayba ibn Muslimdan iltimos qildi. Lekin unga Samarqandda qolishga ruxsat berilmaydi. Natijada, G'urak hozirgi Ishtixon hududidagi qarorgohiga borib, o'sha yerdan davlat ishlarini boshqaradi⁸. 712-yil «Samarqand shartnomasi»da G'urak *ixshid* emas, *afshin*⁹ deb keltirilgan. Sug'diy manbalarda, jumladan, Mug' tog'i arxivida afshin unvoni qayd etilmagan¹⁰. G'urakni *ixshid* emas, *afshin* deb keltirish orqali arablar uni podsho deb tan olmay, Devashtich bilan raqobatiga qasddan yo'l ochgan bo'lishlari ham mumkin¹¹.

¹ G'oyibov B., *Qo'shbnqov H.* Ikk o'rta asrlar Miyonqol vohasi – Ishtixonning Sug'd konfederatsiyasidagi o'rni va hukmdorlik xususiyatlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2018. – №4. 28–31-betlar.

² *Chavannes E.* Çin yilliklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007. S. 262–264.

³ *Kurat A.H.* Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'l zebti (higri 93-94-miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gografiya dergisi. – 1948. Cilt VI. – № 4. S. 407.

⁴ Ushbu masalada Sug'd konfederatsiyasining Qang', xioniylar, eftaliylar davriga oid biron ma'lumot saqlanib qolmagan – G.B.

⁵ *Otaxo'jayev A.* Ikk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 91-b.

⁶ *Смирнова О.И.* Сводный каталог согдийских монет. ... С. 166–182.

⁷ *Камалиддинов Ш.С.* Новые данные о потомках царя Согда Гурака // ОНУ. – 2003. – №3. С. 15.

⁸ *Бартольд В.В.* К истории арабских завоеваний в Средней Азии. ... С. 380–388.

⁹ *Аббас В.И.* Среднеазиатский политический термин афшин // ВДИ, 1959. – №2. С. 112.

¹⁰ *Kurat A.H.* Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'i zebti. ... S. 407.

¹¹ Bu o'rinda bir qancha taxminiy fikrlarni ilgari surish mumkin. Biz A.Otaxo'jayevning bu boradagi fikrlariga qo'shilamiz. (Qarang: *Otaxo'jayev A.* Ikk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 117-b.)

Abu Xafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning «Al-Qand fi zikri ulamo Samarqand» («Samarqand ulamolari xotirasiga doir qanddek shirin kitob») nomli asarida G'urak turkiy sulola vakili bo'lganligi keltiriladi¹. Manbada G'urakning avlodlaridan biri hadis roviysi bo'lganligi haqida xabar berib, uning shajarasi quyidagi tartibda keltirilgan: *Abuhusayn Ubaydulloh ibn al-Marzbun ibn Turkish Taqiy ibn Kasiyr ibn Tarxun ibn Banoyjur ibn G'urak*².

G'urak hukmronligi davrida Sug'd Xitoy bilan ittifoqchi bo'lishga harakat qilgan. Arablarga (dashi³) qarshi kurash olib borgan G'urak 719-yilda Xitoyga elchi jo'natib, arablar bosqinini bartaraf etish uchun yordam so'ragan⁴. Ammo Xitoydan Sug'dga yordam kelganligi manbalarda keltirilmaydi. G'urakning arablarga qarshi faoliyat olib borganligiga qaramay, uning 738-yilgacha taxt tepasida turganligi borasida manbalarda aniq ma'lumot yo'q⁵.

Sug'd hukmdori G'urakning 719-yilda Xitoy imperatoridan harbiy madad so'rashi barobarida, u Turk xoqonligining yordamidan umidvor bo'lgan⁶. Ayni shu yilda Panch hukmdori Devashtichning Turk xoqoni huzuriga elchisi Fatufarni yuborishi arablarning Sug'ddagi hokimiyati-

¹ G'urakning turkiy etnosdan bo'lganligi borasidagi fikrlar qo'shimcha dalillarga muhtoj – G.B.

² *Najmiddin an-Nasafiy*. Samarqandiya / Arabchadan Usmonxon Temurxon o'g'li va Baxtiyor Nabixon o'g'li tarjimai. – Toshkent: O'ME, 2001. 127-b.

³ Yilnomalarda arablarga nisbatan «Dashi» atamasi ishlatilgan. Bu atama sug'diy hujjatlarda *tazik* «arab» ma'nosida kelgan (Qarang: *Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика. ...* С. 95). Keyinchalik islom dinini qabul qilgan eroniyzabon mahalliy aholining etnik nomi sifatida «tojik» shaklida amal qila boshlagan (*Гафуров Б.Г. Таджики. ...* Кн. 1. С. 92).

⁴ *Chavannes E.* Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007. S. 263-264.

⁵ *G'oyibov B., Qo'shbaqov H.* İlk o'rta asrlar Miyonqol vohasi – Ishtixonning Sug'd konfederatsiyasidagi o'rni va hukmdorlik xususiyatlari // *Imom al-Buxoriy saboqlari*. 2018. – №4. 29-b.

⁶ Bu davr voqealarini aniqlash anchayin mushkul. Qutayba ibn Muslim vafot etgan, Sug'd shaharlari va qishloqlarida arablarga qarshi norozilik harakatlari kuchaygan bo'lib, arablar Devashtichning yordamidan umidvor bo'lishgan. Hech bo'lmaganda uning G'urakni bir yoqli qilguncha, betaraf turishini ta'minlash kerak edi. Mug' tog'i sug'diy I.I. raqamli hujjatida keltirilgan «agarda Devashtich amirning buyrug'iga bo'ysunmasa, amirning munosabatlari o'zgarishi» mazmunidagi jumla, arablarning harakatlaridan dalolat beradi (Qarang: *СДГМ II*. С. 108-110). Voqealar jarayoni o'zgarib, ko'p o'tmay 721-yilning bahorida amirning fikri o'zgartirildi. Arablar Panjikent yaqinidagi Qum qishlog'ida sug'diyfarga qarshi jang qilishgan. Lekin bu jangda aynan Devashtichning ishtiroki ma'lum emas – G.B.

ning zaiflashib qolganligidan va mahalliy hukmdorlar bundan foydalanib qolishga harakat qilayotganligidan dalolat berardi¹.

«Tan shu» yilnomasida *Ulega* (G'urak) *Doge* (Turg'ar) (738–750) ismli o'g'lini *Sao* (Ishtixon)ga, *Mochjo* (Bek-cho'r) ismli ikkinchi o'g'lini *Mi* (Maymurg') shahriga hokim etib tayinlagan². G'urakdan so'ng taxtga chiqqan shaxs ismi uning nomidan zarb etilgan tangalarda *twry'r MLK'* yoki *twry'r xšēō* shaklida uchraydi³. Bu Xitoy yilnomalarida keltirilgan *Doge* bo'lishi mumkin. Turg'ar tangalari xitoycha kvadrat shaklidagi teshikli bo'lib⁴, bu Sug'dda Xitoy tangalariga taqlidan tanga zarb qilinganligidan darak beradi.

Sug'd hukmdori sifatida tangalarda nomi uchraydigan yana bir hukmdor ismi tadqiqotchilar tomonidan *Turak* (*MLK' twrk*) deya talqin qilingan. Uning hukmronlik yillari boshqa manbalar orqali ma'lum emas⁵. Lekin *Turak* ismining aynan ushbu shaklda o'qilishi yanglish bo'lishi ham mumkin⁶. Ushbu tangalardagi yozuvlar talqini natijasida Samarqand hukmdorlari VI asr oxiri – VII asr boshlariga taalluqli *xwβ twrnyn* – «Turon hukmdori» (I tip) yoki *xwβ twrnyn x'γ'n* – «Turon hukmdori Xoqon» (II tip) iboralari bilan tanga zarb qilganliklari aniqlangan. Ushbu sug'diy yozuvli Samarqand tangalarining unvon va ikonografik jihatlari ularning xoqonlikka bevosita aloqadorligi bilan izohlanadi⁷.

Tadqiq etilayotgan davrda Samarqand markaz sifatida konfederatsiya hayotida muhim mavqega ega bo'lib, bu yerda mamlakat qonunchiligini aks ettiruvchi «qonunlar majmuasi» saqlanadigan maxsus ibodatxona

¹ Bu davrda turklar Sug'dga yordamga kelishadi. Zaiflashib qolgan arablar vaqtinchalik Samarqanddan tashqari barcha hukmdorliklarni qo'ldan boy berishgan. Bu hol Said al-Xaroshiy (721–723)ning noib etib tayinlanguniga qadar davom etganligi ehtimoli ancha yuqori (Qarang: *Grenet F.* «Les «huns» dans les documents sogdiens du mont Mugh» / *Études irano-ariennes offertes à Gilbert Lazard*. Ed. C.H. de Fouchecour and P.Gignoux. – Paris: 1989. – Volum 7. R. 176).

² *Бичурин Н.Я.* Собрание сведений. ... I. С. 311.

³ *Смирнова О.И.* Сводный каталог согдийских монет. ... С. 191.

⁴ *Смирнова О.И.* Очерки из истории Согда. ... С. 172.

⁵ *Смирнова О.И.* Каталог монет с городища Пенджикента. ... С. 61–91; *Алишиц В.А.* История изучения Согда. ... С. 200.

⁶ (Bu haqda batafsil qarang: *Boboyorov G., G'oyibov B., Kubatin A.* Ikk o'rtta asr Samarqand tangalarida «Turon» toponimi / *O'zbekiston arxeologiyasi*. 2015. – №2 (11). 17–23-betlar).

⁷ *Бабаяров Г., Кубатин А.* К новому чтению и интерпретации легенд на некоторых доисламских монетах Самаркандского Согда // *Tarix tafakkuri*. «Barkamol avlod» yiliga bag'ishlangan Respublika tarixchi olimlarining ilmiy ishlar to'plami / Mas'ul muhar. va tuzuvchi: Sh.H. Vohidov. – Buxoro, 2010. 26–29-betlar.

mavjud bo'lgan¹. Ibodatxonada konfederatsiya hukmdorlari yilning belgilangan kunida birgalikda markazga sadoqatlarini ifodalash maqsadida diniy amallarni, aniqrog'i, qurbonlik marosimini birga bajarishgan². «Bey shi» va «Suy shu» yilnomalarining nashrlarida yozilishicha, «Kan (Samarqand)da ibodatxonada turadigan tuzuklar (majmuasi) bor. (Biron-bir) jazoni belgilashda ushbu tuzuklar (majmuasi)ni olib, unga asoslangan holda hukm chiqaradilar»³. V.A. Livshis taxminiga ko'ra, mazkur ibodatxona bilan Nov. 3 va Nov. 4 raqamli sug'diy nikoh hujjatlarida O'ttegin va Dug'dg'uncha orasida nikoh shartnomasi tuzilgan joy sifatida qayd qilingan «Qonunlar uyi» bitta joydir⁴. Ushbu qonunlar uyi mahkama hisoblanadigan bo'lsa, uning Samarqand yaqinidagi Kofirqal'ada bo'lganligi borasida fikrlar mavjud⁵. Kofirqal'ada olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu yerdagi muhrlarning tahlili ushbu taxminga kelishga imkon beradi. Shuningdek, Samarqand Sug'dning markazi bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, qonunlar to'plamining Samarqandda bo'lganligi ehtimoli yuqori.

Xullas, Samarqand ixshidlari tomonidan VII asr ikkinchi yarmidan to VIII asrning o'rtalarigacha zarb qildirilgan xitoy taqlid tangalardagi sug'diy bitikda Shishpir (640-yy.), Varxuman (650-yy.), Tukaspadak (690-yy.), Mastich (698–700), Tarxun (700–710), G'urak (710–738), Turg'ar (738–750) kabi hukmdor ismlari o'rin olgan bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar asosan xitoy va arabiy manbalarda, qisman esa sug'diy hujjatlarda uchraydi. Ammo ushbu hukmdorlardan oldin (VI asrlar o'rtalaridan VII asrning 40-yillarigacha) yoki keyin hukm surgan sug'diy hukmdorlarning ismi tangalarda joy olgan-olmaganligi bugungi kunga qadar ma'lum emas.

Sug'd markazi Samarqandga tobe hukmdorliklar ham ixshidiylar tomonidan boshqarilgan. Masalan, Maymurg' Samarqandga tobe bo'lib, uni ixshidiylar xonadoni vakillari boshqargan. 720–740-yillarda Maymurg' G'urakning kichik o'g'li *Mochjo* (*Mangucho'r*, *Banicho'r*) tomonidan bosh-

¹ СДГМ II. С. 38.

² Bu marosim konfederatsiya hukmdorlarining yagona xonadonga mansubliklarini bildirish uchun amalga oshirilgan (Qarang: Гафуров Б. Таджики. ... Кн. 1. С. 315). Hukmdorlarning konfederatsiyaga birlashishlarining asosiy sharti mazkur qurbonlik marosimida qatnashish bo'lgan – G'V.

³ Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. С. 271, 281.

⁴ СДГМ II. С. 38.

⁵ Бердимуродов А., Маттемини С., Матбабев Б. Кафиркала – загородная резиденция Самаркандских правителей / Самарqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. С. 73–77.

qarilgan. *Mochjo* ismining turkiy – *Bekcho'r* yoki *Banicho'r* bo'lganligini¹ va uning G'urakning ikkinchi o'g'li ekanligi hamda u arablar tomonidan Toxariston hukmdori qilib tayinlangani² to'g'risidagi ma'lumotga asoslangan holda aytish mumkinki, *Banicho'r*, Toxariston hukmdori bo'lishidan oldin Samarqand rustoqlaridan biri Maymurg'da hokimlik qilgan³.

Samarqand tarixi bilan bog'liq bo'lgan yana bir masala shuki, VII asr oxiri – VIII asr boshlariga taalluqli, deb taxmin qilinuvchi ☞ shaklli tamg'a va turkiy qiyofali ikki shaxs «hukmdor» hamda «malika» tasvirli tangalarda *x'ttwn* – «xotun, malika» unvonli tangalar xoqonlik va konfederatsiya o'rtasidagi nikoh rishtalari tufayli Samarqand hukmdorlari tomonidan zarb qilingan⁴. Bu esa Samarqand hukmdorlarining Turk xoqoni sharafiga uning unvonini qo'yib tanga zarb qilganligidan va ayni shu yo'l orqali Sug'dning konfederativ boshqaruvini saqlab qolganliklaridan dalolat beradi.

Keyinchalik esa Samarqand tangalarida hukmdor tasvirlari o'rnini xitoycha o'rtasi to'rtburchak teshikli tangalar egallaydi⁵. Bu esa xoqonlikning o'z vassallari ustidan nazorati birmuncha zaiflashgan paytda Samarqand hukmdorlari mustaqil tangalarini Xitoy ta'sirida zarb qila boshlaganligini bildiradi.

Xitoy yilnomalari va numizmatik materiallar tahlil qilinganda shu ma'lum bo'ladiki, VII asr ikkinchi yarmidan to shu asrning oxirigacha bo'lgan vaqt mobaynida Samarqand hokimiyatida sulola almashinuvlari bo'lib turgan. Bu voqealar qisman yozma manbalarda va numizmatik materiallarda aks etgan bo'lib, Samarqandning an'anaviy «sirtmoq» shaklidagi tamg'asi (☞) bilan birgalikda boshqacha tamg'alar o'rin olganida ham ko'zga tashlanadi⁶.

¹ Ushbu hukmdor ismidagi *cho'r* Turk xoqonligida unvonlardan biri bo'lganligi manbalar orqali ma'lum (Qarang: *Boboyorov G', G'oyibov B.* Ikk o'rtta asrlar Sug'd boshqaruvidagi elitebar, tudun va tarxon unvonlari xususida. ... 67–69-betlar).

² *G'oyibov B., Xujonov N.* Turkish – Sogdian impact on the epoch of Turkish Khaganate in Southern Tokharistan. ... P. 838.

³ *Boboyorov G'.* Turk xoqonligi davrida Sug'd. ... 119–129-betlar.

⁴ *Смирнова О.И.* Сводный каталог согдийских монет. ... С. 359–370; *Бабаяров Г., Кубатин А.* К вопросу о монетах Согда с титулом «хатун» // *Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari. V to'plam, 2-qism.* – Toshkent: TDShI, 2013. 95–108-betlar.

⁵ *Смирнова О.И.* Сводный каталог согдийских монет. ... С. 316.

⁶ *Смирнова О.И.* Сводный каталог согдийских монет. ... С. 92–93.

5-§. Samarqand arab xalifaligi hukmronligi davrida

Sosoniylar davlatini bosib olgan arab xalifaligi qo'shinlari 651-yilda Marvni qo'lga kiritib, Amudaryoning narigi tomonidagi yerlarni bosib olishga harakat boshlaydilar. Ular ikki yo'nalishda, Poykent va Buxoro hamda janubda Kesh orqali mamlakatning ichkarisiga kirib borishga harakat qilishgan¹. Bu haqda Xitoy yilnomalari va musulmon tarixchilarining asarlarida qariyb bir xil ma'lumot keltirilganligini kuzatish mumkin².

Arablarining O'rta Osiyo hududiga uyushtirgan dastlabki harbiy harakatlari davrida Sug'd konfederatsiyasining markazi Keshdan Samarqandga ko'chgan davr hisoblanib, konfederatsiya markazi Samarqand atrofida Panch, Maymurg', Ishtixon, Kushoniya, Fay, Kabudon, Kesh va Naxshab kabi hukmdorliklar birlashgan edi.

Arab xalifaligi kuchlarining Movarounnahrda birinchi yurishlari VII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda Sug'dda ixshid Varxuman (655) hukmronlik qilgan³. Arablarining birinchi marotaba Samarqandga yurishlari 675-677-yillarda, Xuroson noibi Said ibn Usmon davrida (676-678) amalga oshirilgan⁴. Shahar yaqinidagi janglardan so'ng Said ibn Usmon sug'diylar bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan va sulhga ko'ra qo'lga kiritilgan asirlarni olib ketgan⁵. Keyingi davr manbalariga ko'ra, Said ibn Usmonga payg'ambarning (Muhammad s.a.v.) tutingan ukalari Qusam ibn Abbos ham hamrohlik qilgan⁶. Sug'dni to'liq zabt etishda arab xalifaligining Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim (705-715) jonbozlik ko'rsatdi.

Sug'dda arablarga qarshi kurash olib borgan hukmdorlardan biri Samarqand hukmdori Tarxun (700-710) bo'lgan. Tarxun arablarining O'rta Osiyoga yurishlari davrida va voqea jarayonlarida katta rol o'ynagan. Arab xalifaligi kuchlariga qarshi o'n yil davomida urush olib borgan. Tabariy asaridagi 85/704-yillar bayonida Tarxunning Muso ibn Abdullohga qarshi kurashganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Xitoy manbalari asosida aytish

¹ *Pardayev M.* IX-X asrlarda Jizzax – g'oziyalar shahri // *Tarix va qadriyatlar.* – Toshkent: 2015. 33-38-betlar.

² *Chavannes E.* Documents sur les Tou-kiue (Tures) occidentaux. ... P. 172.

³ *Альбаум А.И.* Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. С. 28-31.

⁴ *Смирнова О.И.* Очерки из истории Согда. ... С. 200.

⁵ *Смирнова О.И.* Очерки из истории Согда. ... С. 200.

⁶ *Najmiddin an-Nasafiy.* Samarqandiya / Arabchadan Usmonxon Temurxon o'g'li va Baxtiyor Nabixon o'g'li tarjiması. – Toshkent: O'ME, 2001. B. 19; *Маликов А.М.* История Самарканда. Том 1. – Ташкент: Paradigma, 2017. С. 120.

mumkinki, Tarxunning tarix sahnasiga kelishi ancha oldingi davrga, ya'ni 696-yilga borib taqaladi. U to'g'risida alohida ma'lumot esa 88/707-yilda Qutaybaning Buxoroni egallashi bayoni orqali keltiriladi¹. Tabariyning ma'lumotlariga ko'ra esa kelishuv va shartnomalar 90/709-yilga to'g'ri keladi. Buxoroning arablar tomonidan egallanishining tarixiy sanasi borasida manbalarda ba'zi qarama-qarshiliklar mavjud. Keyinchalik bu shartnoma Tarxunning o'limiga sabab bo'lgan. Keyingi yilda Qutayba ukasi Abdurahmonni Samarqandga Tarxundan boj olish uchun jo'natadi va Tarxun unga boj to'laydi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan, Tarxun yaqin kishilari tomonidan taxtdan ag'darilgan va o'z joniga qasd qilgan yoki o'ldirilgan bo'lishi ham mumkin. Lekin Yoqubiy bergan ma'lumotlarda Tarxunni G'urak o'ldirgan deb keltiriladi².

Samarqand hukmdorlari bo'lmish Tarxun va G'urak munosabatlari turli darajalarda o'zgarib turganligi ma'lum. Tarixchilarning fikrlariga ko'ra, G'urak 93/711–712-yilda Samarqand arablar tomonidan egallanganidayoq ularning hokimiyatini tan olishi kerak edi. Lekin u arablar ta'sirini og'izda tan olgan bo'lsa-da, amalda Xitoydan yordam so'raganligi to'g'risida maktub saqlanib qolgan. Bu esa ba'zida G'urakning xatosi sifatida tilga olinadi³.

Samarqand arablar qo'liga o'tgach, Sug'd ixshidi G'urak va Qutayba ibn Muslim o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, G'urakka Samarqandda hukmronlik qilishga ruxsat berilmagan va u o'zining Ishtixondagi qarorgohiga jo'natilgan. Shartnomaga muvofiq Samarqand hukmdori G'urak dastlab ikki million dirham, so'ngra har yili ikki yuz ming dirhamdan tovon to'lash majburiyatini oladi⁴. Shahar egallangach, uni arablar tomonidan tayinlangan noiblar boshqargan. Masalan, 716–717-yillarda Samarqand arablar noibi Muoviya ibn Yazid tomonidan boshqarilgan⁵.

Samarqandda arablarga qarshi kurash G'urak va taxtga da'vogarlik qilgan Devashnich davrida yanada keskin tus oldi⁶. 719-yilning boshlarida

¹ *Мухаммад Наршахи. История Бухары / перевод с персидского Н.Лыкошина. – Ташкент: 1897. С. 15-17.*

² *Biblioteka geograforum arabikorum edidit M.J.De.Goeje. I-III. Lugduni Batavorum, I, Viae regnorum..... autore Abu Ishak al-Istakhri, 1870; III, Descriptio imperii moslemiki auctore.... Al-Mokaddasi, 1877. P. 269.*

³ *Kurat A.N. Kuteybe bin Muslim'in Hvarizam ve Semerkend'i zabti (higri 93-94 – miladi 712) // Ankara Universitesi Dil ve Tarih – Geografiya dergesi. – Cilt VI. – №4. S. 407.*

⁴ *Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 208.*

⁵ *История ат-Табари. ... 168.*

⁶ *Отхо'jayev A. Ikk o'rtta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 142-b.*

Markaziy Sug'd va Buxoro hukmdorlari Xitoyga xat yozib, harbiy ko'mak so'raydilar. Bu davrda sug'diylar arablarga qarshi bosh ko'tarib, islom dinidan qaytib, yana qo'zg'olon boshlaydilar¹. I.Yakubovichning F.Grene fikrlariga asoslangan holda keltirishicha, arab xalifaligining Ishtixonidagi armiyasi G'urakni qattiq nazorat qilgan. Uni uy qamog'ida saqlagan va u voqealarga faol qatnasha olmagan. Bu esa Devashtichning taxt uchun kurashlarida qo'l kelgan². Mazkur boshboshdoqliklarda Sug'd hukmdorlari bir-birlariga dushmanlik kayfiyatida bo'lib, bu haqda sug'diy hujjatlar orqali ma'lumotlar yetib kelgan. Ayniqsa, Panch va markaz Samarqand o'rtasidagi munosabatlar juda keskin tus olgan. Bu davrda Panch hukmdori bo'lgan Devashtich qaramog'idagi Tarxunning o'g'illari regenti sifatida arablarga o'zini islom dinida deb ko'rsatib, taxtga da'vosini namoyish etadi³.

Samarqandda arablarga qarshi kurash 715-yil Qutayba ibn Muslimning Farg'onada o'ldirilishidan so'ng yanada kuchaydi. Qutayba ibn Muslimning o'limidan so'ng, O'rta Osiyoda izdan chiqqan boshqaruvni qayta tiklash maqsadida arablar tomonidan 99/717-yilda Amir al-Jarroh Xuroson noibi etib tayinlangan. Al-Jarroh arablarning avvalgi hukmronligini saqlay oldi. Hattoki, arablar hokimiyatini Sirdaryo tomonlarga yoyishga ham harakat qildi. Lekin uning bu harakatlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Manbalar asosida aytish mumkinki, Amir al-Jarrohning xalifa bilan munosabatlari buzilishiga ichki siyosatning beqarorligi sabab bo'lgan. Bu davrda Xurosonda ham musulmon dinini qabul qilganlardan ma'lum soliq va majburiyatlar olinmagan. Bu esa xazinaga kelib tushadigan daromadga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun unga hamma xalifa va hukmdorlar ham rioya etmagan. Umar II davrida bir qator shikoyatlardan so'ng, bu to'lovlar to'xtatilgan. So'ngra Amir al-Jarroh islomga o'tishni yanada qiyinlashtiradigan talablarni joriy qildi. Jumladan, islomni qabul qilganlarning sunnat – xatna qilinishi ko'pchilikning noroziligiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, xalifaning noroziligiga ham sabab bo'ldi va 100/719-yilning aprelida Xuroson hukmdori o'z lavozimidan chetlashtirildi⁴. Xalifa Xurosondagi musulmon bo'lmagan mahalliy aholiga nisbatan kelishuv asosida ish ko'rishni ma'qul ko'rgan bir sharoitda Amir al-Jarroh bu hududni faqat qilich va tig' bilan boshqarish mumkin der edi. Ularning bu boradagi fikrlari bir joydan chiqmadi.

¹ История ат-Табари. ... С. 175-176.

² Якубович И. Проблемы современной этимологии. ... С. 141.

³ Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 7-b.

⁴ Кратковская В.И. и акад. Кратковский И.Ю. Древнейший арабский документ из Средней Азии // СС. – А., 1934. С. 53–56.

Mazkur jarayonlar Samarqandda mahalliy aholi va arablar o'rtasidagi munosabatlarni taranglashtiradi. Dastlab islom dinini qabul qilmagan aholidan *jiz'ya* solig'i, dehqon, savdogar va hunarmandlardan esa *xiroj* solig'i olingan¹. Keyinchalik Umar II (717–720) davridan boshlab islom dinini qabul qilgan aholi qatlamidan *jiz'ya* solig'i olinmagan. Odamlar islom dinini nomiga qabul qilib, aslida o'z dinlarida qolaverdilar. Endilikda islom diniga o'tish uchun *xatna* qildirish va Qur'on suralarini yod olish shart qilib qo'yildi². Alohida mintaqalarda islom diniga o'tish uchun mahalliy noiblarning o'z maqsadlari yo'lida ba'zi qo'shimcha shartlarni ham joriy qilganliklari ehtimoldan xoli emas.

Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor (738–748) bosqin davrida shaharni tark etgan Sug'd dehqonlarini shaharga qaytishiga ruxsat bergach, shaharda hayot jonlana boshladi. U barcha musulmon dinida bo'lganlarni teng huquqli deb e'lon qildi. Musulmonlarning bir qismi hatto *jiz'ya* solig'idan ozod qilingan. Lekin *xiroj* to'lash barcha uchun shart qilib qo'yildi³.

Ummaviylar davridan boshlab Samarqand shahrida qozilik boshqaruvi yo'lga qo'yilib, shaharning birinchi qozisi 727-yilda tayinlangan G'olib ibn Muso bo'lgan. So'ngra uning o'g'li Hoshim ibn G'olib Samarqandda qozilik qilgan⁴.

Ummaviylar siyosatiga qarshi harakat olib borgan Abu Muslim (728–755) Xuroson noibi etib tayinlangach, Samarqandni o'z qarorgohi sifatida tanlaydi. Keyinchalik «Devori qiyomat» sifatida tilga olingan Samarqand atrofidagi devor qurilishi aynan Abu Muslim nomi bilan bog'liq⁵. Abu Muslimning jamiyatdagi yuqori mavqeyidan xavfsiragan abbosiy xalifa Abu Ja'far uni saroyda xufiyona o'ldirtiradi. Manbalarda Abu Muslimning qabri Samarqandda Xoja Tamim Ansori qabri yaqinida dafn etilganligi keltiriladi⁶.

Markazi Samarqand bo'lgan Sug'd konfederatsiyasining to'la inqirozga yuz tutgan davrini aniqlash Samarqand tarixini tadqiq etishda muhimdir. Xususan, A.Asqarov Sug'dning turklar ta'siridan arablar qo'lga o'tganli-

¹ Кадиров Т. Из истории крестьянских восстаний в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С. 65–67.

² Отахо'jayев А. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. ... 123–124-betlar.

³ Маликов А.М. История Самарканда. Том 1. – Ташкент: Paradigma, 2017. С. 123.

⁴ Маликов А.М. История Самарканда. ... С. 122.

⁵ Бартольд В.В. Абу Муслим // Сочинения. Том 7. – Москва: Наука, 1971. С. 480.

⁶ Кандия Малая / Перевод с персидско-таджикского В.Вяткина // Справочная книга Самаркандской области. Выпуск 8. – Самарканд, 1906. С. 252.

gini 737-yil voqealari bilan bog'lab, dalil sifatida turklarning arablar tomonidan mag'lub etilganligini keltiradi¹. Lekin G'urak va undan so'ng uning o'g'li Turg'ar 750-yillarga qadar Ishtixondan turib arablar qo'l ostida tanga zarb ettirib², mamlakatni idora qilgan bo'lsa, Keshda ham 760-yillarga qadar Al-Ixrid Taran taxt tepasida turgan³. Panch arab xalifaligi qo'shini tomonidan 720-yildagi qo'zg'olon bostirilayotganda yondirib yuborilgan⁴. Shaharda yong'in yuz berib, uylar yonib ketadi. Shahar aholisi atrofga tarqoq holda qochib yashay boshlagan. 740-yilga kelib panjikentlik sug'diylarning O'rta Osiyodagi arab xalifasining noibi bo'lgan Nasr ibn Sayyor (739–748) bilan kelishuvlari natijasida odamlar shaharga qayta ko'chib o'ta boshlagan va avvalgi shahar qayta tiklanadi⁵. Yetti yildan ko'proq vaqt (776–783) davom etgan Muqanna (Hoshim ibn Hakim) boshchiligida qo'zg'olonda ham Samarqand ahli faol qatnashgan. Hatto Samarqand Muqanna tarafdorlari tomonidan bir muddat egallangan. Lekin kuchlar nisbatining teng emasligi ularning mag'lubiyatiga sabab bo'lgan⁶. Ayni shu davrdan (VIII asrning 70-yillari oxirlari) boshlab Samarqand hukmdorlari manbalarda Sug'd hukmdorlari sifatida eslatilmaydi.

Xullas, markazi Samarqand bo'lgan Sug'd konfederatsiyasining tanazzuliga arab xalifaligi kuchlarining yurishlari vosita bo'ldi. Arablarga qarshi kurashlarda Samarqand hukmdorlari jonbozlik ko'rsatishdi. Ayniqsa, Tarxun, G'urak kabi hukmdorlar arablarga qarshi kurashgan hukmdorlar sifatida tarixga kirdi. Lekin kuchlar nisbatining teng emasligi va barqaror yagona dinning yo'qligi Sug'dda arablar hokimiyatini o'rnatishda muhim asos bo'ldi. Bu paytda islom dini va madaniyati butun dunyoga turli yo'llar hamda usullar orqali, shiddat bilan kirib kelayotgan bir paytda, eskicha ta'bir bilan aytganda, kuchli siyosiy tarqoqlik yuz bergan, mayda davlatlarga bo'linib ketayotgan, Turk xoqonligi qudrati xitoyliklar tomonidan sindirilgan Movarounnahrda bundan boshqacha tarixiy taqdir bo'lishi qiyin edi.

¹ Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 382-b.

² Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. ... С. 191.

³ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... С. 180, 182.

⁴ Раскопова В. Жилища Пенджикента. – Л.: Наука, 1990. С. 53, 173.

⁵ Большаков О.Г. Отчет о раскопках северо-восточной части объекта III // МИА. – М., 1964. – №124. С. 119.

⁶ Беленицкий А.М., Бенетович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. ... С. 159.

6-§. Ilk o'rta asrlarda Sug'dda din, tasviriy san'at va yozuv

Din. Markaziy Osiyoda arablar bosqinigacha bo'lgan davrda zardushtiylik rivojlangan hududlardan biri Zarafshon vohasi bo'ylab joylashgan Sug'd bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Ushbu davrda vohada zardushtiylik dini bilan bir qatorda, xristianlik, buddaviy, moniylik kabi din vakillari ham istiqomat qilishgan.

Sug'dda diniy qarashlar va ularning xususiyatlari to'g'risida Sug'd shaharlari xarobalaridan topilgan devoriy surat namunalari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ilk o'rta asrlarga mansub Panjikent shahri VI / 26 tartib raqamli bino xarobalarida devorga chizilgan suratlar orqali Sug'd aholisining osmon jismlariga (quyosh, oy, yulduzlar, sayyoralar) ham e'tiqod qilganliklari ma'lum bo'ldi. VI /11-binoning devoriga ayolning sher ustiga mingan holati tasvirlangan. Sher Venera sayyorasining ramzi bo'lib, bu tasvir orqali ham ularning osmon jismlariga sig'inishlarini bilsa bo'ladi. Panjikent devoriy suratlarida, ayniqsa, ibodatxonalaridagi devoriy suratlarda o'sha davrda ma'lum bo'lgan quyosh sayyorasi tizimidagi sayyoralarning ramziy ifodasi turli xil ko'rinishlarda aks ettirilgan. Hattoki, har bir kun uchun alohida iloh bo'lgan¹.

Bu haqda Mug' tog'i Sug'd hujjatida ham so'z yuritilib, ularda hafta kunlari sayyoralar nomlari bilan nomlangan holda keltiriladi. Yetti kunlik haftaning har bir kuni alohida ilohga bag'ishlangan. Ularning tahlili natijasi quyidagicha: Mixsh zamon – Mitra kuni (quyosh) – yakshanba; Max zamon – Oy kuni – dushanba; Varaxan zamon – Mars kuni – seshanba; Tir zamon – Merkuriy kuni – chorshanba; Hurmo'zd zamon – Yupiter kuni – payshanba; Anaxita zamon – Venera kuni – juma; Kayvan zamon – Saturn kuni – shanba².

Panjikent ibodatxonalarining birida aks ettirilgan devoriy surat fanga «yig'i marosimi» yoki «aza marosimi» nomi bilan kirgan. Devoriy suratda yozma manbalarda ma'lumotlar keltirilgan haqiqiy ko'mish marosimi jarayoni aks ettirilgan. Unga erkak va ayollarning ko'mish marosimi oldidan urf-odatga ko'ra yig'i marosimlari tasvirlangan. Erkaklar turkiy yuz tuzilishida aks ettirilgan. Ayollarning sochlari to'zg'igan holda tasvirlangan bo'lib, ular ko'kraklari va yuzlarini timdalangan holda tasvirlangan.

¹ Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись, скульптура. – М.: Искусство, 1973. С. 44.

² Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. Вып. II. – М.: Наука, 1962. С. 46–49.

Shuningdek, yana bir ayolning qulog'i pastki qismini kesib olayotgan holda tasvirlanganligini ko'rish mumkin¹.

Aftidan, yuzni qonatishdan maqsad ko'z yoshi va qon birga oqishini ko'rsatish bo'lsa kerak. Hozirgi kunda ham ko'pgina o'zbek va tojik xalqlarida aza marosimlarida yuzni timdalab yig'laganlarini kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan devoriy suratlardagi tasviriy ko'rinishlar Sug'd aholisining ajdodlar ruhiga ishonishlaridan darak beradi.

To'rt qo'lli iloh qiyofasining aks ettirilishi O'rta Osiyo rassomchilik san'ati uchun yangilik emas. Ibodatxona ichidagi 5/16 raqamli bunday tasvir to'raligicha bizga yetib kelmagan. Uning xususiyatlarini ochib beruvchi ko'pgina elementlar ko'chib tushgan. Tasvirda to'rt qo'llik iloh ajdarho shaklidagi taxtga o'tirgan holda oyog'ining ostida daryo oqib o'tayotgan va taxt orqasidagi fonda har xil maxluqlarning tasviri aks ettirilgan. To'rt qo'lli ilohning qo'lida quyosh va oy ramzlari aks ettirilgan. Shuningdek, bu tasvirda kumush qadahlar va bu qadahlarining Xorazmda yasalganligini anglatuvchi xorazmcha yozuv namunalari ham aks ettirilgan².

N.V. Dyakonov va O.I. Smirnova ushbu devoriy surat ustida tadqiqot olib borib, uni Sug'dda avvaldan ma'lum bo'lgan Nana ilohi ekanligini talqin etdilar. Tadqiqotchilar Nana ilohi (ma'buda)ni Sug'd homiysi deb hisoblaydilar³.

Devoriy suratlarda aks ettirilgan to'rt qo'lli ma'buda hind mifologiyasida ham uchrab, u Makara deb nomlanadi. Butun boshli devor suratlari to'xtaladigan bo'lsak, u ham hind ikonografiyasiga yaqin turadi. Unda daryo tasviri Gang va Jamku daryolariga ishoradir. Devoriy suratdagi bu jarayonning qaytarilishi xalq hayotida Zarafshon daryosining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatish bilan bog'liq⁴. Bu tasviriy san'at namunasini aks ettirish orqali rassom Sug'd aholisining tabiat jismlari bo'lgan daryo va osmonni ilohiylashtirganliklarini bildirishga harakat qilgan bo'lishi mumkin⁵.

¹ Беленицкий А.М. Раскопки согдийских храмов. // - М.: 1953, МИА. - №37. С. 37.

² Беленицкий А.М., Маршак Б.И. Черты мировоззрения согдийцев VII-VIII вв. в искусстве Пенджикента // История и культура народов Средней Азии. - М.: Наука, 1976. С. 77.

³ Беленицкий А.М., Маршак Б.И. Черты мировоззрения согдийцев VII-VIII вв. в искусстве Пенджикента // История и культура народов Средней Азии. -М.: Наука, 1976. С. 77.

⁴ Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись скульптура. - М.: Искусство, 1973. С. 45.

⁵ Goyilov B. From the history of relations between Sogd and India / South and Central Asia: insights and commentaries // Edited by A. Sengupta, M. Rakhimov // - New Delhi: KW Publishers Pvt Ltd, 2015. P. 85.

Panjikent rabodida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida zardushtiylikka oid bir qator manbalarga duch kelingan. Panjikent rabodining to'rtinchi va beshinchi xonalarida ossuariylarning qoldiqlari topilgan. Ossuariylar xonadagi ko'tarma yo'l – panduslarda joylashtirilgan. Ossuariylar uyning shiftida bo'lgan va yong'in davrida shift o'pirilgach, ular pastga tushib maydalanib, undagi suyaklar bir-biriga qo'shilib ketgan¹.

Sug'dda islom diniga qadar zardushtiylik hukmron din bo'lib, bu yerda ham inson o'lganidan so'ng, uni yerga dafn etmay, ossuariyga qo'yganlar. Bir necha ossuariy nausga qo'yilgan. Panjikent qabristoni ikki qismdan iborat bo'lib, 12 ta nauslar zanjiridan iborat janubi-g'arbiy bo'lak, 138 ta nausni o'z ichiga olgan ikkinchi bo'lak bo'lib, umumiy nauslarning soni 150 tani tashkil qiladi². Bu haqda boshqacha fikr ham bor. Panjikent shahri uchun 150 ta nausdan iborat qabriston kichik bo'lishi mumkin. Bu yerda ikkinchi nauslar qabristoni ham bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Chunki Panjikent shahri 400 yil mavjud bo'lgan.

Har bir nausda 3 tadan suyak qutisi saqlanganligi hisobga olinsa, qabristonda umumiy hisobda 400 yoki 450 kishining suyaklari dafn etilgan bo'lib chiqadi. Har bir naus alohida tepalik bo'lib, uning atrofidagi mayda tepaliklar bilan birga qo'shib hisoblaganda bu yerga bir urug'ga mansub kishilarning nauslari qo'yilgan bo'lishi mumkin. B.Y. Staviskiy nauslarga faqat jamiyatning yuqori tabaqa vakillari qo'yilgan degan fikrni ilgari suradi³.

Panjikent nauslari bir kamerali, balandligi 2 metr bo'lib, 4 m² maydonni egallaydi. Ular asosan paxsa va pishiq g'ishtdan qurilgan. Nauslardagi ossuariylarning yig'ilgan bo'laklariga qarab ularning uzunligi 53 sm, eni 27,5 sm, balandligi 15 sm ekanligi aniqlangan. O'rtacha hisobda hamma naus va ossuariylar bir xil hajmda. Chuqurining kovlanishi va nausning qurilish xususiyatlarini e'tiborga olib bu ishga mas'ul kishi bo'lgan deyish mumkin. Agarda qabristonda bu ishga mas'ul bo'lmagan bo'lsa, u holda nauslarning qurilishi borasida yagona qoida bo'lib, unga hamma qat'iy ravishda amal qilgan. Chunki ko'pgina nauslarning joylashtirilishi va chuqurining qurilishi xususiyatlari bir xil.

Nauslarning biridagi (29-chisi) ossuariyning uzunligi 46 sm, eni 31 sm, balandligi 23,5–24 sm hajmda. Ossuariyning atrofi «3» raqamiga o'xshash

¹ Большаков О.Г. и Негматов Н.Н. Раскопки в пригороде древнего Пенджикента // МИА. – М., 1959. – №66. С. 191.

² Ставиский Б.Я., Большаков О.Г., Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь // МИА. – М., 1953. – №37. С. 64.

³ Ставиский Б.Я., Большаков О.Г., Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь. ... С. 72.

shakllar va «xoch» shaklidagi hoshiyali naqshlar bilan bezatilgan. Bu ko'rinishdagi ossuariylar Afrosiyob xarobalaridan ham topilgan¹. Shu asosda samarqandlik shu dinga mansub kishi kelib Panjikentda vatot etgan va ossuariyga qo'yilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Panjikent ossuariylarining topilishi Sug'dning o'zidan birinchi topilgan bunday topilmalar sirasiga kiradi. U yerdagi ossuariylarning ko'pchiligi qaysi bir davrlarda talangan, qimmatbaho oltin buyumlar o'g'irlab ketilgan.

Ossuariylar bilan bog'liq diniy ma'lumotlarni sug'diy hujjatlar ham tasdiqlaydi. Mug' arxivida framandar O'tt (*prn'nd'r 'wt*) shaxsi bilan bog'liq ko'plab hujjatlar uchraydi. Sug'd, jumladan, Panch viloyatida yuqori lavozim egasi bo'lgan O'ttni ham zardushtiylikni qabul qilgan turkiy edi, deyish mumkin. Turkiy va sug'diylar aralash yashagan hududlardan topilgan ostadonlar² misolida bu ikki qavmning zardushtiylik ta'sirida urf-odati ham sintezlashganligini kuzatamiz. Hatto Sug'ddagi zardushtiylik dini sosoniylar Eroni zardushtiyligidan farqlangan. Eronda zardushtiylik rasmiy davlat dini maqomida, qat'iy talablar asosida rivojlangan. O'rta Osiyoda esa diniy bag'rikenglik negizida unga amal qilingan.

Shunday ekan, Buyuk ipak yo'lidagi uzluksiz aloqalar o'zaro ma'naviy va madaniy almashinuvlar uchun qulay imkoniyat yaratdi. Sug'ddagi dinlararo murosa zardushtiylik dini misolida yanada kamol topdi. Sug'diylarning yetakchi dini zardushtiylikka bu yerda yashagan boshqa etnos vakillari, shu jumladan, turkiylarning xayrixohligi ham alohida e'tiborga molikdir. Xususan, Sharqiy Turkistondagi zardushtiylik ibodatxonalari va ulardagi *vag'npat* – kohinlar faoliyati, Mug' arxivining I.1 raqamli hujjatidagi sug'diy Nijitak va turkiy kohin Ko'rchi (Qo'rchi)ning Devashtich vakili sifatidagi tinchlikparvarlik missiyasi diniy murosaning eng adolatli yo'li tanlanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sug'diylar hayotida buddaviylik, xristianlikning nestorian oqimi, moniylik kabi dinlar ham munosib o'rin topdi. Natijada sug'diy tilli betakror buddaviy, xristian va moniy mazmundagi boy yozma meros bizgacha yetib keldi hamda ularning mualliflari bu madaniy merosni avlodlarga yetkazishni o'z vazifalari deb bildilar.

Sug'd shaharlari aholisi asosan zardushtiylikka e'tiqod qilgan. Buni yozma manbalardagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, I.1 raqamli sug'diy hujjatda keltirilgan *βγνπτ* – *vag'npat*, zardushtiylik diniy tabaqasining

¹ Статиский Б.Я., Большаков О.Г., Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь. ... С. 76.

² Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь // МИА. – М., 1953. – № 37. С. 82–88.

yuqori mavqeli diniy amaldori¹ sifatida tilga olingan. Hujjatdan ma'lumki, Qo'rchi Vag'npat ibodatxonada zardushtiylik otashkadasini saqlovchi shaxs bo'lgan.

Arablar bosqiniga qadar va bosqindan keyin ham Sug'dda buddaviylik va zardushtiylik dinlari vakillari bo'lganligi ma'lum. Bunga Sug'd shaharlarida arxeologik qazishmalar chog'ida topib o'rganilgan devoriy suratlar guvohlik beradi². Qator Mug' hujjatlarida zardushtiy va budda rohiblari qayd etilgan. Ular ham boshqaruvning uzviy qismi bo'lib, diniy boshqaruvni amalga oshirganlar.

mag'upat – mag'upat, Mug' tog'i sug'diy A-5 hujjatidagi bosh diniy rahbar sifatida ko'rsatilgan. Unga katta maosh – 50 drahm tayinlanganligi hujjatda keltiriladi. M.Is'hoqov bu atamani quyidagicha izohlaydi: «Mag'upat – diniy lavozim nomi – «bosh koin» keyinchalik ma'bud shaklini olgan. G'upat – matnda aytilishicha, bu lavozim egasiga 50 drahm pul berilgan. V.A. Livshis Avestodagi «gāv» o'zagi bilan bog'lab, bu so'zni «foйда, daromad» deb izohlaydi. Shu asosda g'upatni – «daromadlar noziri», boshqacha aytganda, ibodatxonada moliya ishlari mutasaddisi deb tushunish mumkin³.

Moniylik dinining asoschisi bo'lgan Moniy ibn Fatak taxminan milodiy 216-yilda tug'ilib, 277-yilda vafot etgan. Moniy o'z ta'limotiga asos solishdan oldin O'rta Osiyo, Hindistonga safar qilib, buddizm, brahmanizm va boshqa dinlar bilan tanishgan. Dastlab o'z ta'limotini yoyishga harakat qilgan Moniy Eronda xristianlik va mahalliy dinlarning qarshiligiga duch kelgan. Zardusht koinlarining qarshiligiga uchragan Moniy va uning tarafdorlari Erondan qochishga majbur bo'lganlar. Natijada esa taxminan III asrning oxiri va IV asrning boshlarida uning tarafdorlari O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan. Jumladan, Sug'dda ham moniylik dinining tarqalishi ana shu davrga to'g'ri keladi. IV asrda Sug'dda dastlabki moniy ibodatxonalari – monastirlari paydo bo'ldi⁴.

Yillar davomida moniy ta'limotining sug'diy qo'lyozmalari vujudga keldi. VII asrda Sharqqa qarab yoyilgan moniylik cherkovining rasmiy tili sug'diy til bo'lib, asosiy diniy o'g'itlar va qarashlar yoki asarlar shu tilga

¹ Согдийские документы с горы Мут. Юридические документы и письмо / Чтение, перевод и комментарий В.А. Лившица. – Вып. 2. Москва, 1962. С. 171.

² Беленицкий А.М., Маршак Б.И. Черты мировоззрения согдийцев VII–VIII вв. в искусстве Пенджикента // История и культура народов Средней Азии. – М.: Наука 1976. С. 75–88.

³ Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992. 54-b.

⁴ Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. С. 347–500.

tarjima qilindi. Moniy ta'limotida tasviriy san'atga alohida e'tibor berilgan. Dastlab diniy mazmundagi kitoblarda Moniy talqinidagi syujetlar aks ettirilgan¹. Buning ta'sirini hatto Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent tasviriy san'ati namunalarida va o'rta asrlar davri O'rta Osiyo miniatura san'atida kuzatish mumkin.

Moniy tarafdorlari Erondan quvg'in etilgach, moniy jamoalarining katta qismi O'rta Osiyodan panoj topganlar. O'rta Osiyoda bu ta'limot Mar (Ustoz) ismli shaxs tomonidan targ'ib qilingan. Ammo Moniy ta'limotining ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyodagi targ'ibotida asli samarqandlik Kan Syuan – Chan Min («Mangu yog'du»)ning munosib hissasi borligi manbalarda keltiriladi². Buyuk ipak yo'li bo'ylab madaniy ilg'or aloqatlarining tashuvchilari bo'lgan sug'diylar ta'sirida Moniy ta'limoti vakillari bu diniy qarashlarni Xitoyga olib kirganlar³.

584-yilda Xitoy sharqida moniy jamoalarining ilk ibodatxonasi qurilgan. 694-yilda esa bu ta'limot Xitoy poytaxti bo'lgan Chan'angacha yetib borgan⁴. Milodiy 600-yilga kelib esa Moniy tarafdorlari orasida bo'linish ro'y berdi. Ularning katta bir qismi O'rta Osiyodan boshpana topdilar. A.M. Belenitskiyning ma'lumotlariga ko'ra, moniylikning dinavoriy (dēnāwarih) mazhabi markazi Sug'd bo'lib, tadqiqotchilarga yanada aniqlik kiritib, uning Samarqand bo'lganligini ta'kidlaydi⁵.

Tarixdan ma'lumki, o'rta asr arab-fors manbalarida diniy masalalarga munosib joy ajratilgan. Jumladan, Moniy qarashlari to'g'risida arab-fors tarixchilaridan Tabariy, Bal'amiy, Firdavsiy, Gardiziy, Ibn al-Asir va «Hudud ul-olam» asarining muallifi ma'lumotlar keltiradi.

Ularda moniylik qarashlari xususida quyidagilar keltiriladi. Ularda aytilishicha, moniylik diniy-falsafiy oqimi milodiy III asrda vujudga kelgan. Moniyning o'zi va uning tarafdorlari iqtidorli rassom bo'lganlar. Yuqorida ta'kidlanganidek, A.M. Belenitskiy va B.I. Marshak Panjikent

¹ *Goyibov B. From the history of relations between Sogd and India / South and Central Asia: insights and commentaries // Edited by A. Sengupta, M. Rakhimov // – New Delhi: KW Publishers Pvt Ltd, 2015. P. 83–85*

² *Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматы: Дайк-пресс, 2002. С. 184.*

³ *Goyibov B. Sogd and China: priority trade ties // II Международная научная конференция «История и археология». г. Пермь май, 2014 г. – Пермь, 2014. С. 9–12.*

⁴ *Кыдматов Л.Р. Историко-культурное взаимодействие иранских и тюркских народов в средние века (язык, письменность, религия) // Вести Московского Университета. Сер. 8. – 2004. – № 3. С. 13.*

⁵ *Беленицкий А.М. Вопросы идеологии и культов Согда (по материалам панджикентских храмов) // Живопись древнего Панджикента. – М., 1954. С. 39–52, 62–81.*

hamda Ustrushona markazi bo'lgan Bunjikat devoriy suratlarini chizgan rassomlar moniyning izdoshlari bo'lganliklarini taxmin qilganlar¹.

Sug'dda moniylik diniy qarashlarining taqdiri to'g'risida Beruniy quyidagilarni keltiradi: «Moniy vafotidan keyin uning qarashlarini targ'ib qiluvchilar turli hududlarga yoyilib ketdi. Islom dini hukmron bo'lgan shaharlardan faqatgina Samarqandda o'zlarini «sabiyam»lar deb ataydigan Moniy tarafdorlari o'z jamoalarini tuzganlar. Musulmon bo'lmagan mamlakatlardan esa moniylik asosan Xitoy, Tibet va Hindistonning bir qismida mavjud bo'lgan»². Moniylik tarqalishining geografik chegarasi Beruniyning «Ma'sud qonunlari» asarida ham keltiriladi³. Afrosiyob va Panjikent devoriy suratlarida keltirilgan lavhalar va tarixiy asoslarga qarab xulosa qilish mumkinki, Samarqanddagi moniy jamoalari vakillari asosan rassomlar bo'lganlar. Moniylarning Xitoy va Tibetga ham borganliklari ma'lum bo'lib, bu masalaga quyidagi asos oydinlik kiritishi mumkin.

431-yilda Konstantinopol patriarxi Nestorning faoliyati xristian cherkovi tomonidan qoralangach, Nestor tarafdorlari xristianlikda alohida *nestorianlik* oqimini vujudga keltirganlar. Lekin bu mazhab xristian dunyosining markaziy hududlaridan quvg'inga uchragach, uning vakillari o'z targ'ibotlarini sharqiy o'lkalarda davom ettirganlar.

Ayni mana shu davrdan boshlab xristianlik Markaziy Osiyoga kirib kelgan. Xristianlikning Markaziy Osiyoda, xususan, uning markazi bo'lgan Sug'dda mavjud bo'lganini cherkov, monastir, xristianlikka oid buyum, qabrtosh hamda tanga kabi tarixiy ashyoviy dalillar isbotlaydi. Arablar bu hududni egallaganidan so'ng xristian jamoalarining faoliyati to'xtagan.

Sug'dda xristianlikning tarqalishida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati yuqori bo'lgan. Sug'dda xristianlikning tarqalishi Eron orqali missionerlarning kirib kelishi va ipak yo'li bo'ylab Xitoygacha borishiga sabab bo'ldi. Missionerlarning kirib kelishi natijasida o'sha hududda cherkov tashkiloti tuzilgan, lekin savdo yo'llari orqali kelgan missionerlar orqali xristianlik aholi orasida ma'lum bo'lgan⁴. Shuning uchun ham Sug'dda xristianlikning kirib kelishini milodiy III asr boshlarida boshlangan deb

¹ Беленицкий А.М. Вопросы идеологии и культов Согда (по материалам пенджикентских храмов) // Живопись древнего Пенджикента. – М., 1954. С. 39–52.

² Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. Т.1. Памятники минувших поколений // Пер. и прим. М.А. Салье. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1957. С. 213.

³ Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. – Т. V. 4.1. – Кн. 1-5. Канон Мас'уда // Отв. ред. С.Х. Сираждинов и Г.П. Матвиевская. Вступит. статья, пер. и прим. П.Г. Булгакова и Б.А. Розенфельда. – Ташкент: Фан, 1973. С. 117.

⁴ Никитин А.Б. Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье). Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М., 1984. С. 123.

taxmin qilish mumkin. Eronda Shopur II hukmronligi davrida xristian dini vakillarining bir qismi quvg'in qilingandan keyin kushonlar davlatida bu din tarafdorlari ko'paya boshladi¹. Faqatgina 431-yildagi xristianlarning Konstantinopoldan quvg'ini natijasida bu jarayon jadallashdi. Bu jarayon eftaliylar hukmronligi davriga kelib ancha jadal tus olgan. Milodiy 549-yilda eftaliylarning nestorian patriarxidan o'zlariga yepiskop tayinlashlarini so'rganliklari yuqoridagi fikrlarga asos bo'ladi. Bu davrda Buxoro harbiylari orasidagi turklarning ko'pchiligi xristian dinining ordenlari bilan taqdirlangan².

V asrning boshidan boshlab Samarqand Sug'dida xristianlikning diniy markazi (metropoliya) tashkil etilgan. Bunga asosiy sabablardan biri Samarqandning Sug'd markazida joylashganligi va sug'diylarning xristianlikni Buyuk ipak yo'li bo'ylab faol targ'ibotchilari bo'lganliklari deb tushuntirish mumkin. Sharqiy Turkistondan topilgan sug'diy tilidagi xristian matnlarida keltirilgan ma'lumotlar bu borada asos bo'ladi. Nestorianlikning tili suryoniy bo'lib, bu tildan sug'diylar xabardor bo'lganlar. Sug'd mahalliy aholisining suryoniy tilni o'zlashtirishlaridan maqsad xristian dini amallarini bajarish bo'lgan. Panjikentdan topilgan sopolga yozilgan Bibliyaning suryoniycha matnidan lavha buni tasdiqlaydi³. Ko'rinib turibdiki, xristianlik Panjikent va uning atrofida keng tarqalgan bo'lib, xristian diniy muassasalarida ularning muqaddas kitoblarini o'qitish va uni yozish o'rgatilgan. Bu esa bevosita xristianlik diniy amallarining aholiga targ'ib qilinganligidan dalolat beradi.

Sug'dda xristianlikning tarqalishi O'rta Osiyodagi madaniy jarayonlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, milodiy III asrda Marvda, V asrda Sug'dning markazi bo'lgan Samarqandda xristian jamoalari va mitropoliyasi vujudga kelgan edi⁴. Keyinchalik sug'diy nestorianlar orqali bu din Sharqiy Turkiston (Koshg'ar)ga yoyildi⁵. Bunda sug'diylar din bilan birga madaniy ilg'or alomatlarini ham bu o'lkalarga yoydilar. 196-yilda yozilgan suryoniy manbalariga ko'ra, eftaliylar orasi-

¹ Бартольд В.В. О христианстве в Туркестане в домонгольский период / Соч. – М.: Наука, 1964. – Т. 2 (2). С. 65.

² Никитин А.Б. Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье). Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М., 1984. С. 124.

³ Пайкова А.В., Маршак Б.И. Сирийская надпись из Пенджикента // КСИА. – М., 1976. – № 147. С. 34.

⁴ Лившиц В.А. Согдийские тексты, документы и эпиграфика / Источниковедение Кыргызстана (с древности до XIX в.). – Бишкек: Илим, 2004. С. 131.

⁵ Буряков Ю.Ф. Христианство в Средней Азии в древности и средневековье / Культура народов Центральной Азии. Религия и демократия. – Самарканд: МИЦАИ, 1999. С. 12.

da xristianlik II–III asrlardan tarqalgan bo'lib¹, arman manbalarida, 451-yildagi Avarayr jangida, armanlar va eftaliylar sosoniylarga qarshi «nasroniylik qasami» bilan sulh tuzganlar². Ushbu ma'lumotlar O'rta Osiyoda xristianlikning tarqalish davrini yanada aniqlashtiradi. Samarqand Sug'di, Buxoro va Chochga xristianlik 412–720-yillar orasida tarqalib, yepiskopiya va mitropoliya kabi diniy muassasalar tashkil qilingan³. Shulardan biri Samarqand janubidagi Shavdorning Vazkerd qishlog'ida X asrgacha faoliyat yuritgan⁴. Qishloqning shimoli-sharqidagi qoyada suryoniy yozuv va xoch tasviri⁵, soy jarliklaridan topilgan ostodonlardagi xoch tasviri esa zardushtiylik va xristianlik o'rtasidagi sintez elementlarini ko'rsatadi. Samarqandning Urgut tumani yaqinidagi Qo'shtepadagi ehrom kompleksidan topilgan xumda cho'qintirish marosimida biri o'tirgan, biri tik holda qo'lida xoch ushlagan ikkita erkak tasvirlangan. Bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida zardushtiylarning otashdonlari ham topilgani⁶ bu yerda turli diniy jamoalar ibodat qilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yerosti ibodatxonalari ko'plab qurilgan. Yerosti ibodatxonalari Qarshi vohasining Shayxali qo'rg'onidan, Qo'jartepa xarobalaridan va Kultepa yodgorligidan, Toshkent vohasidagi Iloq markazi Tunkentdagi Korxonona manzilgohidan, Samarqand Afrosiyobining g'arbiy qismidan hamda Registondan, O'zgan shahristonidan topilgan bo'lib, ular VI asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlariga oid hisoblanadi⁷. Buxoro Sug'di va Ustrushonadan xristian dini timsollari tushirilgan buyumlar va tangalar topilishi⁸ ham Sug'dda xristianlik tarqalgan hududlar ko'lamini belgilaydi. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, xristianlar o'z

¹ *Mingana A. The Early Spread of Christianity in Central Asia and the Far East A New Document // Bulletin of the John Rylands Library. – Manchester, 1925. – vol. 9. – pt. 2. P. 301.*

² *Египие Варданет. О Вардане и войне армянской / История. Пер. Шаншиева. – Тифлис, 1853. С. 79.*

³ *Лившиц В.А. Согдийские тексты, документы и эпиграфика / Источниковедение Кыргызстана (с древности до XIX в.). – Бишкек: Илим, 2004. С. 131.*

⁴ *Бенгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абул-Касыма ибн Хаукаля // Тр. САГУ, Археология Средней Азии, IV, Ташкент, 1957. С. 18.*

⁵ *Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. – М.: Наука, 1963. – Т. I. С. 145.*

⁶ *Исхаков М.М., Ташходжаев Ш.С., Ходжаев Т.К. Раскопки Коштепе // ИМКУ. – Ташкент, 1977. – Вып. 13. С. 88–97.*

⁷ *Раимкулов А. Подземные культовые сооружения христиан Средней Азии // Qadimgi Qarshi. O'rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1999. 8–10-betlar.*

⁸ *Иванюцкий И.Д. Христианская символика в Согде // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994. С. 64–70.*

dinlarini aholi orasida targ'ib qilish bilan shug'ullanganlar hamda hukmdorlarning saroylarida tabib, olim va tadbirkor sifatida ham davlat ishlarida faol ishtirok etishgan.

Tasviriy san'at. Arablar Markaziy Osiyoga kelgunlariga qadar bu zaminda madaniyat taraqqiy etgan edi. Me'morchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, tosh va yog'och o'ymakorligi, xattotlik, musiqa va boshqa san'at turlarida yuksak natijaga erishilgan edi. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent shaharlari xarobalarining ochilishi va tadqiq etilishi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Sug'dda ilk o'rta asrlarda elchilik munosabatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni Afrosiyob devoriy suratlaridagi «Qabul marosimi» va Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida keltirilgan rasmiy murojaatlar hamda boshqa qaydlar orqali bilish mumkin.

1965-yilning bahorida Afrosiyob xarobalarida devorlariga rasmlar solingan yana olti imorat ochilgan. Ulardan birining janubiy devorida tik turgan ikki erkakning tasviri chizilgan. Ulardan biri qizil chakmonda, orqasiga o'girilgan. Ikkinchisi esa oq chakmon kiygan bo'lib, chakmonning ochiq joyida sug'diy yozuv bor¹. Yozuv deyarli to'liq saqlangan. Maxsus kotib tomonidan yozilgan o'ziga xos bu ishonch yorlig'i 16 satr keladigan vertikal mandan iborat. Matn V.A. Livshis tomonidan o'qilgan.

Milodiy VII asr o'rtalarida Samarqandga elchi yuborgan Chag'oniyon (Toxariston hukmdorliklaridan biri) hukmdorining ismi *twr'ntš* (Turontosh) shaklida Afrosiyob (Samarqand) devoriy rasmlaridagi bitiklar orqali ma'lum bo'ladi². V.A. Livshis *Turontosh* ismini eroniy asosda *Battle-ax of Tūrānians* – «Turonliklarning jangovar boltasi» tarzida izohlaydi³. Darhaqiqat, bu davrda Chag'oniyonni turkiy sulola boshqargan bo'lib, bu xitoy va arab manbalari hamda numizmatik materiallar orqali o'z tasdig'iga ega. Syuan Szan ma'lumotiga ko'ra, 644-yilda Chag'oniyon hukmdori *turkiy* edi⁴. At-Tabariy asarida qayd etilishicha, 710-yillarda Chag'oniyonni *shad* unvonli turkiy

¹ *Лившиц В.А. Надписи на фресках из Афрасиаба / Тезисы докладов сессии, посвященной истории живописи стран Азии. – Л., 1965; Livsic V. The Sogdian Wall Inscriptions on the Site of Afrasiab // Royal Nauruz in Samarkand Proceedings of the Conference Held in Venice on the Pre-Islamic Paintings at Afrasiab. Rivista Degli Studi Orientali, Nuova Serie Vol. LXXVIII, Supple mento N. 1 (2004). Ed. M. Comparetti, E. de la Vaissiere. – Pisa-Roma, 2006. P. 62.*

² *Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. С. 55.*

³ *Livsic V. The Sogdian Wall Inscriptions on the Site of Afrasiab. ... P. 63–64.*

⁴ *Shaban M.A. Khurasan at the Time of Arab Conguest // Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky. – Edinburg, 1971. P. 485.*

hukmdor boshqargan. At-Tabariy asarining ruscha nashrida bu unvon *ashShazz* tarzida berilgan bo'lib, izohda Toxaristonning turkiy hukmdorlaridan birining ismi yoki unvoni ekanligi aytilgan¹. Bundan tashqari, X.Gibb ham uning *shad* unvonli turkiy hukmdor bo'lganligini ta'kidlaydi².

Yoki devoriy suratlardagi sug'diy yozuvda ismi *Rūkar* (yoki *Pūgar*) *zādag* (Pukarzoda / Pugarzoda) shaklida keltirilgan Chag'oniyon elchilari boshlig'i – kanselariya boshlig'i – *dipīrpat* (vazir) sifatida qayd etilgan elchi ismlarining ayni manba orqali ma'lum bo'lishi muhimdir³. Sug'diy hujjatlarda ham devonxon boshlig'i ayni shu nomda keltirilgan bo'lib, uning saroy devonxonasida muhim vazifani bajarganligi hujjat matridan bilinadi.

Devoriy suratlarda nafaqat Chag'oniyon elchisi, balki Xitoy (yoki 7, 8, 9, 10, 11 figuralardagi Sharqiy Turkiston elchiligi), Choch, Koreya kabi davlatlardan kelgan elchilar ham tasvirlangan. Bundan tashqari, g'arbiy devorda yana ikkita elchilik guruhi (21, 22, 23 figuralar) tasvirlangan bo'lib, ularni Varxuman xizmatkorlari va tarjimonlar kutib olish bilan band. Ammo suratlar to'liq saqlanib qolmaganligi bois, ularning qaysi davlat vakili ekanligini aniqlab bo'lmaydi⁴. Ammo shu narsa ayonki, g'arbiy devorda aks ettirilgan lavhada Varxumanning tashqi munosabatlardagi o'ziga xos diplomatiyasi va shimoliy devorda ittifoqchilik munosabatlari yaqqol ko'rinadi.

Endi markaziy elchilik lavhalariga to'xtalsak. Oq ot mingan shoh tantanali yurish marosimining markazida turibdi, oldinda, fil ustida esa malika o'tiribdi. Saroy a'yonlari orasida rassomlar, kotiblar (ularning kamariga ichida qalamdoni bo'lgan g'iloflar osig'liq turibdi), olimlar, yozuvchilar bor. Ular gilam ustida o'tirib, qizg'in suhbatlashmoqdalar, o'tirganlardan birining qo'lida kitob⁵. Suratdagi elchini kutib olish jarayonida ko'zga tashlanadigan muhim lavhalardan biri gilamlar va ularning atrofiga to'shalgan ko'rpachalar bo'lib, ularni sharqona mehmondorchilik an'analari noyob ko'rinishi deb baholash mumkin.

Devoriy suratlardagi turkiy yuz tuzilishdagi harbiy chokarlar Turk xoqonligining Sug'ddagi nazoratchilari sifatida elchilik munosabatlari jarayoni xavfsizligiga javobgar bo'lishgan⁶. Ular Varxuman saroyining

¹ История ат-Табари / Перевод с арабского В. Белыева. – Ташкент: Фан, 1987. С. 124, 400.

² Gibb H. A. Orta Asya'da Arap Fūthuhati. Çev. M. Hakki. – İstanbul: 1930. S. 10.

³ Лившиц В.А. Современная эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб., 2008. С. 312.

⁴ Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 73.

⁵ Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 19.

⁶ Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. ... С. 30.

mulozimlari bo'lib, elchilarni qabul qilish marosimining egalari sifatida tasvirlangan¹.

Devoriy suratlarda e'tiborga molik jihatlardan yana biri, bu elchilarning soch turmaklari bo'lib, ularning soch turmaklariga qarab qaysi etnos yoki qaysi mamlakat vakili ekanliklarini bilish mumkin.

Bu holat yozma manbalarda ham qisman o'z aksini topgan. VI asr oxirida turklar Turfonni egallaganlaridan so'ng, mahalliy xalq turkiy urf-odatlarini qabul qilgan. 612-yilga kelib Turfon hukmdori turklarning odatlarini o'zgartirish to'g'risida farmon beradi (aftidan, mazkur holat xoqonlik ta'sirining pasayganidan bo'lsa kerak). Hukmdorning bu boradagi farmonida quyidagilar keltiriladi: «...Ilgari biz sochlarimizni yoyib yurar edik. ... Endi mening fuqarolarim avvalgi kabi kokillarni yoyib yurishlari lozim»². Devoriy suratlarda ham xitoylik elchilarning sochlarida buni kuzatish mumkin.

Afrosiyob devoriy suratlaridagi soch turmaklari xususida arxeologik materiallar va epigrafik manbalarda ma'lumotlar mavjud. Soch o'rish yoki yelkagacha soch qo'yish qadimgi turkiy etnos vakillariga xos odat bo'lib, bu Markaziy Osiyoning turli hududlaridan topilgan islomdan oldingi tosh haykal (balbal)lar hamda Sug'd, Choch va Farg'ona hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalarda, Panjikent, Tavkaqal'a (Surxondaryo) saroy devoriy suratlarida, Shimoli-sharqiy Xitoydan topilgan xoqonlik amaldorlariga oid qabrtosh (bo'rtma tasvir)larda o'z ifodasini topgan. Turk xoqonlari o'ziga bo'ysunuvchi vassal hukmdorlaridan ham ushbu odatga amal qilishlarini talab qilishgan. Bu ularning xoqonlikka tobeligining bir ifodasi bo'lishi mumkin. Yilnomalarda Samarqand hukmdorining sochini o'rishi, oddiy xalqning esa sochlarini qirtishlab oldirib yurishlari ta'kidlanishi bu fikrga asos beradi³. Mazkur holat Afrosiyob devoriy suratlarida keltirilgan Samarqand hukmdori va boshqa mulozimlar tasviriy lavhalarida o'z aksini topganligi orqali yanada oydinlashadi.

Har bir elchining mezbon hukmdorga sovg'alar olib kelishi elchilik munosabatlaridagi muhim an'analardan sanalib, Afrosiyob devoriy suratlarida ham mazkur holatni kuzatish mumkin. Devoriy suratlarda tasvirlangan elchilar Samarqand shohiga sovg'alar, jumladan, chiroyli

¹ *Арханцева И.А. Новые хозяева Азии // Материалы международной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения С.П.Толстова. – Нукус, 2007. С. 64; Vaissière de la É. Samarqande et Samarra. Elites d'Asie centrale dans l'empire Abbaside. – Paris: 2007. P. 104-105.*

² *Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1950. Том II. С. 254.*

³ *O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2014. 30-b.*

qushlar, qimmatbaho buyumlar olib bormoqda. G'arbiy devorning bir qismida Samarqand shohi yoki Sug'dning asosiy xudosiqa sovg'alar topshirish lavhasi tasvirlangan. Saroyga kelgan Chag'oniyon elchilari sovg'alarni taqdim etib, «ishonch yorlig'i»ni topshiryapti. Samarqand shohining a'yonlari elchixonaga a'zolariga hamroh bo'lmoqda¹. Ta'kidlash lozimki, mazkur tasviriy lavhalar devorning pastki qismiga chizilgan bo'lib, devorning tepa qismidagi lavhalar saqlanib qolmagan. Devorning tepa qismida rassom Samarqand hukmdorlari sig'ingan ilohlarni tasvirlagan bo'lishi mumkin. Rassomning mazkur lavhalarni devorning bir qismiga tasvirlashi elchilarning Samarqand ilohlariga sovg'alar olib kelganliklari to'g'risidagi taxminni ilgari surishga imkon beradi.

Ta'kidlash lozimki, rassom Chag'oniyon elchiligini boshqa elchilik missiyalariga nisbatan alohida e'tibor bergan holda tasvirlagan hamda ularning barcha xususiyatlarini aks ettirishga harakat qilgan.

Devoriy suratlarda oyoqlari tuyaqushniki kabi uzun g'ozlarning tasvirini ko'rish mumkin. 2-g'oz tasvirida «Unash urug'idan hukmdor Varxumanga to'rtta g'oz» ma'nosidagi jumla joy olgan². Ya'ni Chag'oniyon hukmdori Sug'd ixshididan Varxumanga atab *tulpor, g'ozlar sovg'a* qilgan. Elchilik munosabatlaridan ma'lumki, sovg'alar ro'yxati, hukmdor nomiga jo'natilgan xat bilan birga jo'natilgan. Afrosiyob devoriy suratlari ham mazkur sovg'alar ro'yxati devorga chizilgan holda ko'rsatilgan. Sug'dshunos V.A. Livshis ularni *sych – g'oz, nākrte – kumush, myh – qush* deb talqin etadi³.

Sovg'a sifatida nafaqat hayvon yoki buyumlar jo'natilgan, balki odamlar ham tortiq etilgan. Masalan, Chag'oniyondan yuborilgan sovg'alardan biri hukmdorning qizi bo'lganligi va uning Varxumanga qalliq sifatida jo'natilganligi taxmin qilinadi⁴. Gap shundaki, Afrosiyob devoriy suratlarining ilk tadqiqotchisi V.A. Shishkin mazkur lavhani to'y marosimi va hukmdorga sovg'a qilinayotgan qizni kelin deb, g'ozlarni oqqush deb talqin etishga harakat qilgan⁵.

Elchilarning qimmatbaho sovg'a-salomlar eltishlari o'sha davr uchun xos bo'lgan an'ana hisoblangan. O'z navbatida, Sug'd hukmdorlari ham elchi jo'natganlarida qimmatbaho sovg'alar tortiq qilishgan. Masalan, 719-yilda Xitoyga elchi jo'natgan G'urakning turli xil sovg'alar

¹ Альбаум А.И. Живопись Афраснаба. ... С. 73.

² Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. ... С. 323.

³ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. ... С. 323.

⁴ Альбаум А.И. Живопись Афраснаба. ... С. 55.

⁵ Шихкин В.А. Афраснаб – сокровищница древней культуры. – Ташкент, 1966. С. 16, 18.

qatorida *indigo* deb nomlangan bo'yoqni jo'natganligi alohida qayd etiladi¹. Mazkur elchilik maktubida ham sovg'alarga alohida urg'u berilgan. Manbada bu haqda quyidagicha keltiriladi: «...Hozir sizga sovg'a sifatida mukammal bir ot, bitta Eron tuyasi va ikkita xachirni yubormoqdaman. Agar zoti oliylari meni hadyalarga musharraf qilishni istasalar, ularni menga keltirib beradigan elchimga bersinlar. [Yo'lda] talon-toroj qilinmasligini umid qilaman»². Sovg'alar masalasi ayni shu yili Buxoro hukmdorining Xitoy imperatoriga yuborgan maktubida ham alohida eslatiladi. Manbadagi jumla quyidagicha: «...Imperatorlikning iltimosiga mos bir himmat ko'rsatishlarini talab qilaman. Hozir sovg'a sifatida ikkita Eron xachiri, bitta jilvakor *Fulin* (Vizantiya) gilami, o'n besh kilo *Yu-kin* mushki va yuz *kin* (60 kg) tabiiy sha'mni yubormoqdaman. Ushbu hadyalarning izidan zoti oliylaridan mening shaxsimga uchinchi darajadan bir unvon bag'ishlashingizni iltimos qilaman. Shuningdek, rafiqam qirolicha xonimga ikkita *chobi* (?) gilami bilan birga bir dona bezakdor gilam yubormoqda...»³.

Sug'ddagi tasviriy san'atning qay darajada rivoj topganligini Panjikent devoriy suratlari orqali ham aniqlash mumkin. Panjikent devoriy suratlarida rassomlar diniy va afsonaviy lavhalar bilan bir qatorda kundalik maishiy hayotga oid lavhalarni aks ettirishgan. Sug'dda sport o'yinlari va musobaqalarining bo'lganligi to'g'risida ham Panjikent devoriy suratlarida ma'lumot keltiriladi. 1964-yildagi tadqiqotlar natijasida topilgan devoriy suratda qulay fursat poylab, bir-birining belidan ushlab yiqitmoqchi bo'lgan ikkita kurashchining kurash tushayotgan holati aks ettirilgan⁴.

Mug' tog'i tadqiqotlari davomida bir necha marotaba to'biq suyaklari topilgan. Bu esa hozirda ham xalq orasida oshiq o'yini deb nom olgan o'yinning qadimgi davrga borib taqalishidan dalolat beradi. Suyak bilan turli o'yinlarning o'ynalganligi to'g'risidagi ma'lumotni Panjikent devoriy suratlarida quyidagi manzara orqali bilishimiz mumkin. Devoriy suratda bir to'da odamlar aks ettirilgan bo'lib, ulardan ikkitasi o'yin bilan mashg'ul. Ular orasida ikki tomoni ikki xil bo'yalgan o'yin taxtasi. Taxtaning ikki qismi ham besh gorizontal qismga bo'lingan. Hamma o'yin toshlari bir xil ko'k rangga bo'yalgan. O'yin boshlanmaganligini o'yinchilarning biri

¹ Шеффер Э.Х. Золотые персики Самарканда. – М.: Наука, 1981. С. 280.

² O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. ... 47-b.

³ O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. ... 48-b.

⁴ Беленицкий А.М., Бенетович И.Б., Билинаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. С. 130-131.

suyakni endi tashlashga chog'langanligidan bilsa bo'ladi¹. Bu o'yin narda o'yini ekanligiga shak-shubha qoldirmaydi.

Panjikent devoriy suratlari va haykaltaroshligi nafaqat bezak yoki rassomlarning san'at asarlarini, balki xonadon sohibining dunyoqarashi va bu olamda o'zligini namoyon etish ham bo'lgan. Har qanday uyga kirgan kishi uy sohibining qaysi ma'budaga sig'inishini anglagan. Turar joy binolariga kiraverishdagi devoriy suratlar bundan dalolat beradi. Mehmon kiraverishda nafaqat uy sohibining topinuvchi ma'budini, balki uning o'zini ham ko'rish mumkin bo'lgan. O'rta tabaqa vakillari kichikroq, zodagonlar esa yirikroq ko'rinishda chizilgan. Afsuski, sug'dliklar nazdidagi dunyoqarashni ko'rsatib beruvchi tasviriy san'at asarlari bizning kunlarga qadar to'liq yetib kelmagan.

Yozuv. Sug'diy yozuvning vujudga kelish davriga e'tibor berilsa, bu quyidagi tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, mil. av. I mingyillikning o'rtalarida Sug'd mamlakati Eron axomaniylar saltanati tarkibiga qo'shib olingan. Axomaniylar saltanatida davlat boshqaruv ishlari oromiy yozuvda olib borilgan. Axomaniylar saltanati tarkibida bo'lgan satrapliklarda ham o'z yozuvlarini vujudga keltirish bilan bog'liq ehtiyoj oromiy yozuv asosida qondirilgan. Natijada mil. av. IV–III asrlarda oromiy yozuv asosida sug'diy yozuv shakllangan².

Sug'diy yozuv orqali turli davrlarga oid (milodiy I – VIII asrning ikkinchi yarmi oralig'i) ma'lumotlar asosan tanga sirtiga, sopol parchalariga, daraxt po'stlog'iga, teriga, qog'oz kabi materiallarga bitilgan ma'lumotlar, asosan, maktublar, astronomiya, axloqiy-falsafiy, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlardan iborat³.

Sug'dning o'zida uch xil yozuv amal qilgan. Ulardan birinchisi Samarqandda va Sug'dning markaziy hududlarida shakllangani uchun «Samarqand sug'diy yozuvi» yoki «milliy sug'diy yozuv» nomi bilan yuritilgan. Ikkinchisi, asosan xristian diniy jamoalarida qo'llanilgan va oromiy alifbo asosida paydo bo'lgan suryoniy yozuv bo'lgan⁴.

¹ Белецкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. ... С. 129.

² Авишиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык. ... С. 347–541.

³ Авишиц В.А. Согдийские документы из замка Чильхужра. ... С. 77–89; Лурье П.Б. Согдийские документы из раскопок раннесредневекового Мартшката // Индоевропейское языкознание и классическая филология – XVI. Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. Г. Санкт-Петербург, 18–20 июня 2012 г. – СПб.: Наука, 2012. С. 433–461.

⁴ Sug'diy yozuvning suryoniy turi ilk o'rta asrlarda Sug'dda va Sharqiy Turkistonda nasroniy xristian jamoalari orasida keng tarqalgan. Milodiy 431-yilda Konstantinopol patriarxi Nestorning faoliyati xristian cherkovi tomonidan qoralangach, Nestor tarafdorlari

Uchinchi yozuv milodning III asrida yashagan Moniy tomonidan joriy etilib, uning nomi bilan «Moniy yozuvi» deb yuritilgan. Shunga ko'ra, sug'diy tildagi manbalar uch xil yozuv orqali bizgacha yetib kelgan¹. Sug'diy yozuv suryoniy yozuvga yaqin holatda o'ngdan chapga qarab yoziladi. Ularning o'xshashligi ikkala yozuv ham oromiy yozuv asosida shakllanganligidadir.

Tarixda birinchi marotaba sug'diy alifbo 1965-yilda Panjikent arkida arxeolog A.Isoqov tomonidan topilgan. Ko'za sirtiga o'yib yozilgan alifboda jami 23 ta harf bo'lib, sug'diy yozuvda mavjud bo'lgan harflarning hammasi ular orasidan joy olgan². O'rganuvchi mashq qilayotib bu alifboni yozganligi ko'rinib turibdi. Bu esa VIII asrda Sug'dda *dabiriston* – eron xattotlar maktabining davomi sifatidagi xattotlik maktabining mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Sug'dda ushbu an'ana davom etib, xattotlik san'atiga bu yerda jiddiy e'tibor berilgan.

Mug' tog'i hujjatlarida bu xattotlardan ba'zilarining ismlari keltiriladi. V-4 raqamli hujjatdagi xattot Vanenok, tegirmon ijarasi haqidagi hujjat matnida keltirilgan xattot Siyamich Tishich o'g'li, Nov.3 raqamli nikoh guvohnomasida nomi tilga olingan husnixat egasi xattot Romtish Vgashfarn o'g'li, A-9 hujjatidagi xattot Aspanak Dev'gun kabi xattotlarning nomlari bizgacha yetib kelgan³. Agar e'tibor berib qaralsa, hujjatlarning quyi qismida xattotning nomi keltirilganligini va uning hukmdor saroyi qoshidagi mahkamada yozilganligini ko'rish mumkin.

Mug' tog'i arxivini mazmuni va amalda tatbiq etish sohalari bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin: huquqiy hujjatlar, farmoyishlar, moliyaviy hisobotlar, vasiqalar (tilxatlar), maktublar, diplomatik hujjatlar, xabarnomalar, xo'jalik kirim-chiqim qaydlari⁴.

Sug'diy axomaniylar sulolasi hukmronligi davrida va ushbu mamlakatda sug'diy yozuvning ajdodi bo'lmish oromiy yozuv keng tarqalgan davrlardan buyon yozishni bilganlar. Shu sababli ham ular Sug'd ustidan

o'zlarining yangi oqimlari nestorianga asos solganlar. Ular quvg'inga uchragach, o'zlarining ta'limotlarini sharqiy hududlarga yoyishga harakat qilganlar. Natijada, hozirgi O'zbekiston hududida xristianlikning nestorian mazhabi vujudga keldi va ular o'zlarining suryoniy xristian yozuvlariga asos solganlar.

¹ Isoqov M. Uch alfavitli yozuv // Fan va turmush. – Toshkent, 1983. – №3. 18–19-betlar.

² Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе: Ирфон, 1989. С. 355.

³ Isoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. ... 57-b.

⁴ «O'zbekiston tarixi» xrestomatiyasining 2-jild, 1-qismidagi (– Toshkent: Fan, 2014. 57–59-betlar) sug'diy manbalar tasnifini tuzishda bizning mazkur tadqiqotdan foydalanilgan (Qarang: G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasida Panchning o'rni (Ikk o'rtta asrlar). – Toshkent: Navro'z, 2012. 3–4, 15, 35-betlar).

hukmronlik qilgan boshqa xalqlarga katta madaniy ta'sir o'tkazdilar. Xususan, Turk xoqonligi Sug'd ustidan o'z nazoratini o'tkazgan dastlabki davrlarda sug'diy yozuvdan davlat ishlarida keng foydalanilgan¹. Arablar bosqinidan keyin bu til va yozuv unutila boshlangan. Islom davri tarixchisi Muqaddasiy eramizning X asrida Samarqand va Buxoro aholisi so'zlashgan tilni forsiy tili lahjalaridan biri sifatida eslatadi. Shunga ko'ra bu davrda sug'diy til iste'moldan chiqqan ko'rinadi. Ammo Muqaddasiy sug'diy til borasida quyidagi ma'lumotni qoldirgan: «Sug'dda (Zarafshon vohasi) o'ziga xos bir til mavjud bo'lib, u Buxoro shahri aholisining tiliga o'xshab ketadi». Bu esa shundan dalolat beradiki, o'sha davrda fors tili faqatgina shaharlarda ishlatilgan. Hatto eramizning o'ninchi asriga qadar ham Buxoro shahri atrofidagi qishloqlar aholisining sug'diy tilda so'zlashganligi ehtimoldan xoli emas².

Hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan sug'diy yozma yodgorliklar ularda yoritilgan mavzu jihatidan diniy va diniy bo'lmagan manbalarga bo'linadi. Sug'diy qo'lyozmalarining ko'pchiligi Buyuk ipak yo'li o'tgan joylardan, xususan, hozirgi Xitoy hududidagi Turfon vohasi va Dunxuan mintaqasidagi «Ming budda» g'orlaridan topilgan. Ushbu yozma yodgorliklarning deyarli barchasi diniy mazmunda bo'lib, ular orasidagi buddaviylikka oid matnlar xitoy tilidan, moniylikka oid matnlar o'рта davr forsiy tili hamda Eronda Ashkoniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi pahlaviy tilidan, xristianlikka oid matnlar esa suryoniy tilidan sug'd tiliga tarjima qilingan.

Bundan tashqari, 1932-yilda Mug' tog'i sug'diy arxivi deb yuritiluvchi majmua VII asr oxiri – VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o'z ichiga oladi. Ular Sug'd konfederatsiyasiga tobe Panch hukmdorligi (Panjikent) saroyi hamda turli mulk hokimlari va amaldor a'yonlarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Mazkur hujjatlar ham Samarqand va uning mulklari tarixiga daxldor noyob manbalar hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sug'diy yozma yodgorliklar Sug'dning bir qator joylaridan topilgan. Jumladan, 1965-yilda Afrosiyobdagi Uman saroyida ochilgan devor suratlariga ishlangan rasmlardagi yozuvlar topilgan³. Ushbu 16 satrdan iborat sug'diy yozuv namunasi

¹ Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Современный надписи из Бугута // СИБ. – М.: Наука, 1971. – Вып. X. С. 69–102.

² *Zuhra Zarshinos*. Sug'd tiliga umumiy bir nioh / SINO ilmiy-adabiy, falsafiy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2010. 37-38-39-40-sonlari. 7-b.

³ Лившиц В.А. Надписи на фресках из Афрасиаба / Тезисы докладов сессии, посвященной истории живописи стран Азии. – Л., 1965.

diqqatga sazovor bo'lib, unda Sug'dda 656–660-yillarda hukmronlik qilgan podsho Varxuman huzuriga kelgan elchilar to'g'risida gap boradi. Keyingi davrlarda Samarqand, Buxoro, Qarshi (Yerqo'rg'on) shaharlari atrofida topilgan sopol parchalari, tangalar va boshqa epigrafik manbalarda sug'diy yozma yodgorliklar aniqlangan.

1979-yilda Ahmad Hasan Doniy va Karl Yetmar boshchiligidagi Germaniya – Pokiston ekspeditsiyasi tomonidan bu yerda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'n minglab qoyatosh suratlar hamda bir yarim mingdan ortiq 17 tildagi yozma ashyolar topilgan bo'lib, bu yozuv namunalari 250 tasi sug'diy yozma ashyolarga tegishliligi aniqlangan. Ushbu sug'diy yozuv namunalari X.Xumbax tomonidan o'rganilgan. K.Yetmarning fikrlariga ko'ra, ushbu yozuvlar Hindiston va Sug'd o'rtasidagi savdo munosabatlarini himoya qilgan *xioniylar* davrida vujudga kelgan¹. Sug'diy jumalardan biri samarqandlik savdogar Nanay-Vandak tomonidan yozilgan bo'lib, u o'zidan keyingi savdogarlarga shu joyda xabar qoldirish mazmunida xat bitgan. Nanay-Vandak sug'diy savdogarlar boshlig'i sifatida ularning faoliyatini nazorat qilib turgan.

Shatial ko'prigi ro'parasidagi qoyada Afrosiyob va Panjikent devoriy suratlarida aks ettirilgan kiyimdagi sug'diy savdogarlar tasviri toshga o'yilgan holda tasvirlangan.

Shunisi diqqatga sazovorki, yaqin yillarda Sug'd konfederatsiyasining qadim davrlarini yoritishda birlamchi manba vazifasini bajaruvchi sug'diy tilli bitiklar XXI asrning dastlabki yillarida arxeolog olimlar tomonidan Kultoba (Aris daryosi / Janubiy Qozog'iston) shahar xarobasidan 6 dona sopol lavhada sug'diy jumalalar o'rin olgani aniqlanib, 2005-yilda ingliz eronshunosi N.Sims-Villyams tomonidan mazkur bitiklarning o'qib chiqilishi natijasida² Sug'd konfederatsiyasining qadim davrlari haqida muayyan tarixiy tasavvurlarga ega bo'lish imkoniyati tug'ildi. Jumladan, bitiklarda «Choch lashkarboshisi» bilan hamkorlikda «Samarqand hukmdori» (*symrntč MR'Y*), «Kesh hukmdori» (*kšynk MR'Y*), «Naxshab hukmdori» (*nxšpyk MR'Y*), «Buxoro hukmdori» (*nw(k!)mytnk MR'Y*)ning dashtlik ko'chmanchilarga qarshi kurashganliklari haqida gap boradi³. Sug'dshunos tadqiqotchilar – N.Sims-Villyams va F.Grenelarning fikricha,

¹ *Йетмар К. Чилас / перевод с англ.: Ж.Войников (Коранг: www.iranicaonline.org)*

² *Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe // Shygyz, 2006. – №1. P. 95-107.*

³ *Байтаков К. Города округа Кенджид-Кендже / Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. Материалы Международной конференции. Самарканд 7-8 сентября 2009 г. – Самарканд-Ташкент: 2010. С. 5-15.*

milodiy II–III asrlarga oid ushbu bitiklar shimoldan bo'ladigan ko'chmanchi qabilalar hujumiga qarshi o'tkazilgan harbiy harakatlarda ushbu 4 nafar Sug'd konfederatsiyasi a'zosi bo'lmish ittifoqchi hukmdorliklar qatnashgan¹.

Xulosa. Sug'd konfederatsiyasi miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya podsholari davrida mustaqillikka erishish uchun harakat boshlab, milodning I asrlaridan mustaqil tanga zarb qilishga erishgan bir necha kichik hukmdorliklardan iborat Sug'd nomi ostida Samarqand atrofida muayyan bir siyosiy uyushma shaklidagi tuzilma ko'rinishiga kela boshlagan. Mazkur ittifoqning bosh maqsadi qarindoshlik munosabatlari asosida mintaqadagi siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash bo'lganligi uning keyingi faoliyati davomida yanada oydinlashadi. Ayni mana shu tinchlikning saqlanishi mintaqada shaharsozlik, san'at va madaniyatning Samarqand hukmdorlari rahnamoligida rivoj topishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Samarqand Sug'd konfederatsiyasining boshqaruv markazi bo'lib, ixshidlar bu yerdan barcha hududlar ustidan nazorat qilganlar. Konfederatsiya a'zolari bo'lgan hukmdorliklar Samarqandga kelib diniy amallarni birga bajarish orqali konfederatsiyaga birlashish shartini ado etishgan. Bu yerdagi ibodatxonada «Xu nizomi» saqlanib, ana shu nizom asosida davlat ishlari yuritilgan. Bir so'z bilan aytganda, Samarqand Sug'd markazi sifatida voha hayotida yetakchi o'ringa ega bo'lgan.

¹ Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe... P. 95–107.

IV bob.

IX – XIV ASRNING BIRINCHI YARMIDA SAMARQAND

1-§. IX – XIV asrning birinchi yarmidagi siyosiy jarayonlar

VII–VIII asrlarda shakllangan arab xalifaligi yirik davlat bo'lib, Pireneydan Hind daryosigacha cho'zilgan edi. U o'z tarkibiga turli xil madaniyatlarga ega bo'lgan ko'plab xalqlarni birlashtirgan. Yagona davlat, yagona din, arab tilining muloqot tili sifatida joriy qilinishi va yoyilishi, xalifalikning turli hududlari orasidagi iqtisodiy aloqalarning o'sishi Bag'doddan Farg'onagacha bo'lgan madaniyatlarning unifikatsiyasini tezlashtirdi¹. Xalifalikda yangi markazlashgan siyosiy tizim ishlab chiqilgan edi. Bu tizim O'rta Osiyoning ikki daryo oralig'idagi vohalarga ham tarqalib, hududning keyingi siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatdi.

Ilk Islom davrida Samarqand xalifalik shaharlaridan biri bo'lib, musulmon dunyosida qog'oz ishlab chiqarish markazi, Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) amakivachchasi Qusam ibn Abbos dafn etilgan joy sifatida tanilgan edi.

Arab xalifaligi bosqini va sug'diylarning ko'pmartali qo'zg'olonlaridan so'ng shahardagi nisbiy tinchlik va normal hayot sharoitlarini tiklash imkoni kelib chiqishi jihatidan mahalliy bo'lgan somoniylar sulolasi davrida ro'y berdi. Ular o'z boshqaruviga O'rta Osiyo, Shimoliy va Sharqiy Eron, Shimoliy Afg'onistonni birlashtirgan edi. Somoniylar bu hududlarga abbosiy xalifalar taqdim etgan «amir» unvonini saqlab qoldi.

819–820-yillarda mahalliy zodagonlar vakili Somonning nabiralari (Asadning o'g'illari) xalifa Ma'mun (813–833) oldidagi xizmatlari uchun qator O'rta Osiyo viloyatlari boshqaruvini qo'lga kiritdi. Katta nabira – Nuh ibn Asad (vafoti 841/842) Samarqand viloyatini oldi. U 820–821-yillardan Samarqandda mis tangalar chiqargan². U somoniylarning yuksalishi uchun ko'p ishlar qilgan. Uning vafotidan so'ng Samarqandni

¹ Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1973. С. 133.

² Антоходжаев А.Х. К ранней истории Саманидского монетного чекана Шаша // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Материалы международной научной конференции, посвященной 2200-летию юбилею города Ташкента. – Ташкент: Фан, 2009. С.152.

Xuroson noibi toxiriy Abdulloh ko'rsatmasiga ko'ra uning ukalari Ahmad va Yahyo ibn Asadlar birgalikda boshqargan. Keyin esa boshqaruv Ahmadning o'g'li Nasrning qo'liga o'tdi. U 875-yilda oila boshlig'i sifatida xalifa Mutamididan (870–892) butun Movarounnahr boshqaruvi haqida yorliq oldi¹.

Nasr ibn Ahmad (865–892) davrida somoniylarning poytaxti Samarqand edi. Lekin 892-yildan Ismoil Somoniy (892–907) davrida poytaxt Buxoroga ko'chirilgan. Biroq Samarqand poytaxt shahar maqomini yo'qotsa ham, Movarounnahrning yirik iqtisodiy va madaniy markazi bo'lib qolaverdi. Ismoil Somoniy mis tangalari – fulslarni Buxoroda emas, Samarqandda chiqargan². Nasr II ibn Ahmad (914–943) boshqaruvining boshida, 914-yilda uning Samarqanddagi vakili, amakisi Is'hoq ibn Ahmad ibn Asad qo'zg'olon ko'targan. Hatto o'z nomidan mis tangalar ham chiqargan³, lekin mag'lubiyatga uchragan⁴.

Ayrim somoniy amirlar, masalan, «Somoniyalar sulolasi shodasidagi marjon» deya ta'riflangan Nasr II ibn Ahmad yozni Samarqandda o'tkazgan⁵.

Somoniyalar davlatida markazlashgan boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Uni davlat rahbari – «amir» boshqargan. Markaziy davlat hokimiyati ikkiga bo'lingan: *dargoh* (haram) va 10 *devon*. Vazir o'rinbosarlari – vazirlar navbati bilan uchta mashhur oiladan (Jayhoniylar, Bal'amiylar va Utbiylar) tayinlangan. Mamlakat *viloyatlarga* bo'lingan bo'lib, ularni *hokimlar* boshqargan. Somoniylar davrida shahar hokimi *rais* deb yuritilgan. Uni hokim mahalliy shahar zodagonlari, ko'pincha musulmon ruhoniylari vakillari orasidan tayinlagan⁶. Manbalar somoniylarga xizmat qilgan ko'pchilik amaldorlarning turkiy kelib chiqishi haqida guvohlik beradi⁷.

¹ Негматов Н.Н. Государство Саманидов. – Душанбе: Дониш, 1977. С. 23-24

² Атаходжьев А.Х. Центральноазиатские медные монеты VIII–X вв. как исторический источник. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1998. С. 16

³ Атаходжьев А.Х. Центральноазиатские медные монеты VIII–X вв. как исторический источник. ... С. 16

⁴ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории / Перевод с арабского П.Г.Булгакова и Ш.С. Камолитдинова. – Ташкент: Узбекистан, 2006. С. 91–92

⁵ Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы. Перевод с персидского С.И. Баевского и З.Н. Ворожейкиной. – Москва: Восточная литература, 1963. С. 61.

⁶ Негматов Н.Н. Государство Саманидов. – Душанбе: Дониш, 1977. С. 29

⁷ Абу Саид Гардизи. «Зайн ал-ахбар» (Украшение известий). Раздел об истории Хорасана. Перевод с персидского А. Арендса. Введение, комментарии и указатели Л. Епифановой. – Ташкент: Фан, 1991. С. 76–81.

X asrda yirik somoniy amaldorlar – viloyat hokimlari orasida asosan kelib chiqishi turkiy bo'lgan kishilar ko'rsatilgan¹.

Samarqandning arab xalifaligi va somoniylar tarkibiga kirishi din, qonunchilik va davlat tizimining o'zgarishiga olib keldi. Bu davrda Sug'dning alohida ajralib turadigan shahar-davlatlari yirik viloyatlarning markaziga aylandi².

Bu davrda Samarqand atrofida tumanlar bo'lib, ular *rustoqlar* deb nomlangan. Samarqanddan janubda 7 rustoq joylashgan: Panjikent, Varaqsar, Maymurg', Sanjarfag'n, Darg'om, Abgor, Shovdor. Shimolda esa 6 ta: Yorkat, Burnamad, Buzmajon, Kabudanjakent, Vador, Marzbon ibn Turkesh³.

Belgilangan shahar qoidalari mavjud bo'lgan, jumladan, sanitariyaga oid qoidalarning bajarilishini maxsus amaldor – *muxtasib* nazorat qilgan⁴. Shuningdek, shaharning suv ta'minotini boshqaruvchi amaldor ham bo'lgan⁵.

999-yilda Samarqand turkiy qabilalar – *chigil*, *yag'mo*, *qorluqlar* asos solgan Qoraxoniylar xoqonligi (840–1209) tarkibiga kirdi. Tadqiqotchilarning fikricha, Qoraxoniylar xoqonligida qadimgi turkiy davlatchilikning rivojlanishiga tabiiy sabab asos bo'ldi⁶. Biroq u islomga e'tiqod qiluvchi turkiy sulola tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylarning asoschisi qorluqlarning oldingi yabg'usi Bilga Kul Qodir-xoqon edi⁷. Qoraxoniylar eng rivojlangan vaqtda o'z hokimiyatini Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Toshkent vohasi, Farg'ona va Zarafshon vodiylari, Qashqadaryo va Surxondaryoda yoygan. Qoraxoniylar o'zlarini Turonning afsonaviy podshosi – Afrosiyob avlodlariga mansub deb hisoblagan. O'z sulolasini

¹ *Атаходжаев А.Х. Центральноазиатские медные монеты VIII–X вв. как исторический источник. ... С. 18.*

² *Распопова В.И. Жилище Пенджикента (опыт историко-социальной интерпретации). – Ленинград: Наука, 1990. С. 198.*

³ *Бартольд В.В. Работы по исторической географии. – Москва: Восточная литература, 2002. С. 187–188, 192.*

⁴ *Большаков О.Г. Город в конце VIII – начале XIII в. // Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973. С. 303.*

⁵ *Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. – Труды Среднеазиатского государственного университета им. В. И. Ленина. Ташкент, 1957, вып. IV. Пер. Е.К.Бетгера, комментарии Д.Ю.Арапова. Материалы по истории СССР. Выпуск 1. – М., 1985. С. 140.*

⁶ *Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – Санкт-Петербург: Наука, 2006. С. 491.*

⁷ *Кляшторный С.Г., Саитов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – Санкт-Петербург: филологический факультет СПбГУ, 2005. С. 123.*

«Al-Afrosiyob» – Afrosiyob urugʻi deb nomlagan. Qoʻlyozma manbalarda esa ular xoniylar yoki xoqoniylar deb nomlangan¹. Afrosiyobning oʻzi oʻrta asrlar manbalarida turkiy sifatida talqin qilingan². Qoraxoniylar boshqa turkiy sulolalarga nisbatan oʻz tangalaridagi yozuvlarni turkiy unvonlar bilan boyitganligi diqqatga sazovor³. Bu ularning turkiy aholiga sodiqligidan guvohlik beradi. X asr oʻrtalarida qoraxoniylar islom dinini davlat dini deb eʼlon qildilar. Somoniylardan farqli oʻlaroq qoraxoniylar davrida davlatni boshqarishda ulus tizimi amal qilgan.

Hojib Begtuzun kabi ayrim somoniy amaldorlar Qoraxoniylar xizmatiga oʻtdi. Unga 1016-yilda Samarqandni boshqarish taqdim qilingan⁴. XI asr oʻrtalaridan Samarqand gʻarbiy qoraxoniylarning poytaxti edi. Gʻarbiy qoraxoniylar davlatining asoschisi Ibrohim Tamgʻachxon (1040–1068) boʻlib, uning qarorgohi Samarqandda joylashgan. U markazlashtirish siyosatini olib borgan va mintaqada madaniyat rivojlanishini qoʻllab-quvvatlagan. Avfiyning yozishicha, «uning davrida ulugʻ tinchlik hukm surgan, fuqarolari tinch-totuv yashagan»⁵. Ibrohim Tamgʻachxon mamlakatda jinoyatchilikka qarshi keskin kurash olib borgan va goʻsht narxini tartibga solishni joriy qilgan⁶. Ibrohim Tamgʻachxon davrida uluslar soni kamaygan. Uning yaqin vorislari davrida uluslarda tanga zarbi boʻlgani maʼlum emas⁷. Koʻp yillar davomida mamlakatdagi tinch, barqaror vaziyat uning farovonligini oshirdi va aholining keng qatlamlari ahvolini yaxshiladi. Avfiy Ibrohim Tamgʻachxonni adolatli podshoh deb hisoblagan. V.V. Bartold uni «misli koʻrilmagan hukmdor» deb atagan⁸.

Gʻarbiy qoraxoniylar xoqonligining keyingi markazlashuvi Ibrohim Tamgʻachxonning oʻgʻli – Shams ul-mulk (1068–1080) davrida sodir boʻldi.

¹ Кочнев Б.Д. Караханидский каганат // Очерки по истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Шарк, 2001. С. 65–66.

² Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 242.

³ Кочнев Б.Д. Караханидские монеты: источниковедческое и историческое исследование. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Москва, 1993. С. 11.

⁴ Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209). Часть I. Источниковедческое исследование. – М.: София, 2006. С. 259.

⁵ Саид ад-дин Мухаммад ал-Ауфи. Джамии ал-хикайят ва лаваами ар-ривайят (Собрание рассказов и блестящие истории). Подготовка издания, предисловие, перевод с персидского, комментарий, приложения и указатель Т.К.Бейсембиева. – Алма-ата, 2005. С. 83.

⁶ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том I. – Москва: Наука, 1963. С. 373.

⁷ Кочнев Б.Д. Караханидские монеты. ... С. 35.

⁸ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том I. – Москва: Наука, 1963. С. 374.

Undan so'ng Xizr (1080–1087), so'ng esa Xizrning o'g'li – Ahmad (1087–1089, 1092–1095) hukmronlik qilgan¹.

1089-yillarda Samarqand saljuqiy Malikshoh tomonidan bosib olinadi. Shundan so'ng qoraxoniylar saljuqiylarga qaram bo'lib qoladi². Ahmadxon Isfaxonga jo'natiladi. Keyinroq u Samarqandga qaytarilgan, lekin 1095-yilda uni dahriylikda va zindiklar guruhiga a'zolikda ayblanib, o'ldirilgan³.

1102-yilda saljuqiy sulton Sanjar Samarqandga qoraxoniy Muhammad Arslonxon ibn Sulaymonni hokim qilib tayinlagan⁴. 1130-yilda Sulton Sanjar shaharni bosib olgan va hokim etib Muhammad Arslonxonning o'g'li Mahmudxonni tayinlagan⁵. Saljuqiylar davrida rais sulton hokimiyatining shahardagi vakili edi. U o'zining kanselariya (devonxona)siga ega bo'lib, o'zining vazifalarini shaharning boshqa mansabdor shaxslari (muxtasib, shixna, qozi va boshqalar) faoliyati bilan muvofiqlashtirgan⁶.

1141-yilda saljuqiylar va qoraxoniylarning birlashgan qo'shini Qatvon dashtida (Bulung'ur yaqinida) qoraxitoylarning hukmdori Elyu Dashi (1087–1143) qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng Samarqand voqealari qoraxitoylarga bog'liq bo'lgan. Qoraxitoylar davlati g'arbda Amudaryodan shimolda Oltoygacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Elyu Dashi Samarqandda 90 kunni o'tkazadi va shahar hokimi etib qoraxoniy Ibrohim ibn Muhammadni tayinlaydi. Bu davrda qoraxitoylar davlatining markazi Bolasog'un bo'lib, ayrim manbalarda Samarqand uning g'arbiy poytaxti bo'lgan deya keltiriladi⁷.

Somoniylar davrida barcha tayinlovlar davlat nomidan somoniy amirlar orqali chiqqan. Qoraxoniylar davrida viloyatlarni odatda qilgan xizmatlari uchun emas, hukmron urug'ga mansubligi uchun boshqargan. Shahar boshlig'idan keyingi boshqaruvdagi ikkinchi shaxs sudya-qozi yoki qozi bo'lgan. Uning mansabi nasldan naslga o'tgan⁸. Shahar boshqaruvidagi

¹ Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209). Часть I. Источниковедческое исследование. – М.: София, 2006. С. 211–212, 215.

² Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата. ... С. 213.

³ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 222, 227.

⁴ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 236.

⁵ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 239–240.

⁶ Курталидис Г.М. Институт городских рансов при Сельджукидах (по «Атабат ал-катаба») // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – Москва: Наука, 1979. С. 155, 157.

⁷ Biran Michal. The empire of the Qara Khitay in Eurasian history. Between China and the Islamic world. Cambridge university press, 2005. P. 44, 107.

⁸ Додхудоева Л.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. – Душанбе: Дониш, 1992. С. 93.

boshqa mansablarga *amir, sadr, mustavfiy* – moliya mahkamasi amaldori kirgan¹. Boshqa taxminga ko'ra *amir-sipohsolor* shahar boshlig'i hisoblangan.

1040-yilda tashkil etilgan, markazlashgan G'arbiy xoqonlikda mulklar 1072-yilgacha saqlangan, keyin yo'qolgan. Mamlakatda har doim markaziy hokimiyatga intiluvchi va undan qochuvchi kuchlar o'rtasida kurash borgan. XII asr o'rtalariga kelib alohida xonliklar paydo bo'ldi, XIII asr boshida esa G'arbiy xoqonlik 11 ta mustaqil xonlikka bo'linib ketgan².

Ma'lum bir davrlarda o'zini o'zi boshqarish tizimiga ega bo'lgan shaharlar (Poykend, Iskiykat, Buxoro) qatorida Samarqand tilga olinmagan³.

1178-yilda Samarqandda qoraxoniylar Ibrohim ibn Husayn mustahkamlab oldi. Bungacha u O'zgand hokimi edi. Keyinroq u o'z ta'sirini Buxoroga ham yoydi⁴. 1207-yilda uning o'g'li Samarqand hokimi – qoraxoniylar Usmon xorazmshoh Alouddin Muhammaddan qoraxitoylarga qarshi yordam so'ragan. 1209-yilda u xorazmshohning vassali bo'lgan va uning nomidan tangalar chiqargan. 1210-yilda xorazmshoh Muhammad qoraxitoylarni yakson qilib, Samarqandni uzil-kesil qo'lga kiritdi⁵. Shaharni boshqarish tizimi qanchalik o'zgarganini aytish qiyin. Balki eski tizim saqlangan, lekin shaharda xorazmshohning harbiy elitasi hokimiyatining kuchayganini payqash mumkin. Bu keyinchalik Samarqandda harbiylarning o'zboshimchaligi va aholining noroziligiga olib keldi. Natijada 1212-yilda shaharda oxirgi qoraxoniylar Nusratiddin Usmon ibn Ibrohim ibn Husayn boshchiligida xorazmshoh Muhammad hukumatiga qarshi qo'zg'olon sodir bo'ldi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Usmon esa xorazmshohning kuyovi bo'lishiga qaramasdan jazolangan. Buning natijasida shaharni ikki asrdan ziyod boshqarib kelayotgan qoraxoniylar hokimiyati yo'q qilindi. Qoraxoniylar sulolasining ko'plab vakillari jazolangan⁶. 1213-yildan

¹ Додхудоева Л.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI-XIV вв. Т.1. ... С. 93.

² Додхудоева Л.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI-XIV вв. Т.1. ... С. 95.

³ Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209). ... С. 269–270.

⁴ Чехович О.Д. Городское самоуправление в Средней Азии феодального периода // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – М., 1979. С. 230–232.

⁵ Миссон М.Е. Фрагменты надписи Караханидского мавзолея с городища Афрасиаб // Эпиграфика Востока. Выпуск XX. – Ленинград: издательство АН СССР, 1971. С. 82–83.

⁶ Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. – Москва: Наука, 1986. С. 72, 77, 109.

⁷ Ибн ал-Асир. Ал-камиль фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 335.

Samarqandda Muhammad ibn Takash nomi bilan mis, kumush, dirhamlar, oltin dinorlar chiqarilgan¹.

Samarqandning madaniy, iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyatini hisobga olib, 1217-yildan xorazmshoh Muhammad o'z qarorgohini Samarqandga ko'chirgani ehtimoldan xoli emas².

Shaharning gullab-yashnashiga, O'rta Osiyoning ko'plab shaharlariga fojiali ta'sir ko'rsatgan Chingizxon yurishlari katta zarar yetkazdi. 1220-yil 17-mart kuni Samarqand Chingizxon mo'g'ullari tomonidan bosib olingan va xonavayron qilingan. Xitoylik elchilar Chan Chun va Elyu Chu Sza ma'lumotlariga ko'ra, 1221–1222-yillarda Samarqandning 400 minglik aholisidan mo'g'ullar bosqinidan so'ng faqat 50 ming kishi tirik qolgan³.

Movarounnahr va Samarqand uchun mo'g'ul bosqini oqibatlarini quyidagilarda aks etgan: aholining keskin kamayishi, yirik iqtisodiy inqiroz, quldorlik tartibining tiklanishi (hunarmandlarning qulga aylantirilishi), iqtisodiyotni tiklashga to'sqinlik qiluvchi xonavayron qiladigan soliq siyosati, davlatda va qonunchilikda kuchli hokimiyatning yo'qligi, O'rta Osiyoga juda ko'plab ko'chmanchilarning kirib kelishi, mahalliy aholiga singib ketishi, dehqonchilik maydonlarining qisqarishi va boshqalar⁴.

Mo'g'ullar yangi soliqlarni joriy qildi: *tang'a* (hunarmandchilik va savdo-sotiqdan olingan), *qopchur* (jon boshidan olinadigan soliq, uning miqdori amaldorlarning o'zboshimchaligi bilan belgilangan) va boshqalar⁵.

1224-yilda Chingizxon o'z davlati yerlarini to'rt o'g'liga bo'lib berdi. Movarounnahr tarkibidagi Samarqand ikkinchi o'g'li Chig'atoy ulusi

¹ Бунятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. ... С. 115-116.

² Шихаб ад-дин ан-Насави. Сират ас-султан Джалаля ад-Дин Манкбурны / Перевод З. М. Бунятова. – М.: Восточная литература, 1996. С. 81–82.

³ Сю ю цзи или описание путешествия на Запад. Перевед с китайского, с примечаниями архимандрит Палладий // Труды членов Российской духовной миссии в Пекине. Т.4. – СПб., 1866. С. 310–326.

⁴ Петрушевский И.П. Поход монгольских войск в Среднюю Азию в 1219–1224 гг. и его последствия // Татаро-монголы в Азии и Европе. Издание 2-е переработанное и дополненное. – Москва: Наука, 1977. С. 131–132.

⁵ Петрушевский И.П. Иран и Азербайджан под властью Хулагуидов (1256–1353) // Татаро-монголы в Азии и Европе. Издание 2-е переработанное и дополненное. – Москва: Наука, 1977. С. 243–245.

tarkibiga kirdi. Chig'atoyning avlodlari Movarounnahrni o'z noiblari – xorazmlik Mahmud Yalavoch (1224–1238) va uning o'g'li Mas'udbek (1238–1289) orqali boshqargan. Mas'udbekning 1217-yilda boshlangan pul islohoti pul munosabatlarining nisbatan yaxshilanishiga xizmat qildi¹.

XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusida o'zaro ichki nizolar keskinlashdi, ko'plab ko'chmanchi qabilalar islom dinini qabul qiladi va o'troq hayotga o'tadi. Kebekxon (1307–1309; 1318–1326) hukmronligi davrida Chig'atoy ulusining vaqtinchalik kuchayishi sodir bo'ldi. Pul va ma'muriy islohotlar o'tkazilgan², biroq keyinchalik u o'ldirilgan va mamlakatni yana ichki nizolar qamrab olgan.

1340-yillarda Chig'atoy ulusi ikki qismga – Movarounnahr va Mo'g'ulistonga ajralib ketdi.

1330-yillarda Xurosonda sarbadorlar harakati vujudga keladi. Ular 1337-yilda markazi Sabzavorda bo'lgan davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan. Sarbadorlar harakatida shaharliklar, hunarmandlar, dehqonlar ishtirok etgan. 1360-yillarning boshida sarbadorlarning g'oyalari Movarounnahrda kirib keladi. Ular Buxoro va Samarqandda o'z tarafdorlarini topadi. Aholining ommaviy qirg'ini va mo'g'ullarning og'ir zulmiga qaramasdan samarqandliklar Mavlonzoda, Abu Bakr Kalaviy, Mirzo Xurdak Buxoriy kabi sarbadorlar boshchiligida 1365-yilda mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga o'zlarida kuch topdi. Va mo'g'ul hukmdori Ilyosxo'janing qo'shiniga shaharni bosib olish va vayron qilishga yo'l qo'ymadi. Sarbadorlarning rahbarlaridan ikki nafari mahalliy ma'rifatparvarlar vakillaridan bo'lgani diqqatga sazovor³. Sarbadorlarning rahbarlaridan biri jome masjidiga yig'ilgan xalqni mo'g'ullarga qarshi kurashga chorladi⁴. Biroq sarbadorlarning dasturi keng edi. Ular uzoq vazifalarni ko'zlagan edi. Mudofaa devorlarining yo'qligiga qaramasdan, ajoyib tashkil etilgan shahar mudofaasi mo'g'ullarga Samarqandni egallash va xonavayron qilishga imkon bermadi. 1365-yildan 1366-yil bahorigacha Samarqand aholisi o'zini

¹ Давидович Е.А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Мас'уд-бека (XIII в.). – Москва: Наука, 1972. С. 125.

² Султанов Т.И. Чингизхан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва: АСТ, 2006. С. 156–158.

³ Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том. II. Часть 2. – Москва: Наука, 1964. С. 371.

⁴ Muiniddin Natanzī. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy (Muiniy tarixlari tanlamasi). Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi G'ulom Karimiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. 69-b.

o'zi boshqarish tizimiga ega bo'lgan¹. Samarqand misolida tadqiqotchilar hatto «Sarbadorlar respublikasi» iborasini taklif qilishdi².

Ular ko'chmanchi mo'g'ullarni yo'q qilish va mamlakatni ularning yangi hujumlaridan himoya qilishni to'liq bajara olmadilar. Bu missiya harbiy sarkarda Amir Temur tomonidan bajarildi.

2-§. Iqtisodiy hayot va ijtimoiy tuzum

Samarqandning arab xalifaligi tarkibida bo'lishi, boshqa viloyatlar bilan iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, musulmon dunyosining katta qismida savdo qilish imkoniyati iqtisodiy rivojlanishga xizmat qildi³. Somoniylar davrida mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi sodir bo'ldi.

Somoniylar davrida Movarounnahrda tovar-pul munosabatlari qizg'in rivojlanadi. Somoniylar mis, kumush va tilla tangalar chiqargan. Samarqand tanga zarb qilish markazlaridan biri edi. IX–X asrlarda «adli» deb atalgan asosiy nominaldagi va kichikroq turdagi «pashiz» mis chaqalari (fuls) chiqarilgan⁴.

Mo'g'ullar bosqinidan oldin O'rta Osiyo hududida asosiy muomalada mis dirhamlar bo'lib, ularni o'nlab zarbxonalar chiqargan va mintaqaning barcha viloyatlari tangalar bilan ta'minlangan edi. Mo'g'ullar bosqinidan keyin faqat ikkita shaharda – Buxoro va Samarqandda muntazam tanga zarb qilingan. Ko'p viloyatlar tushkunlikka yuz tutdi. Ko'p o'tmay Samarqand ham ma'lum muddatga pulsiz xo'jalik davriga o'tdi⁵.

IX–XI asrlardagi sopol idishlarda Samarqand aholisining diniy madaniyatini namoyish etuvchi qiziq yozuvlarni ko'rish mumkin: ochko'zlik – kambag'allik oqibati; so'zlardagi o'ylanganlik to'g'ri; ko'p gapirgan ko'p xato qiladi; sabr – baxt va quvonch kaliti; baxt – buyuk do'st emasmi; orzu – dadillik va saxiylikning quli; yumshoqlikning avvali achchiq, oxiri

¹ Челович О.Д. Городское управление и самоуправление в средневековой Средней Азии // Бартольдские чтения. 1976. Год третий. Тезисы докладов и сообщений. – М., 1976. С. 88.

² Челович О.Д. Городское самоуправление в Средней Азии феодального периода. ... С. 233–234.

³ Беленицкий А.М., Бенитович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. ... С. 133.

⁴ Кочнев Б.Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 16. – Ташкент, 1981. С. 77.

⁵ Давидович Е.А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Ма'суд-бека (XIII в.). – Москва: Наука, 1972. С. 129–130.

esa asaldan ham shirin; saxiylik – taqvodorlarning xususiyati¹. Ko'pchilik hollarda sirlangan sopolga «baraka» so'zi bitilgan².

Kulolchilikning taraqqiyoti ishlab chiqarish hajmining nisbatan ko'payishida aks etgan. Bu ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar va vositalarning takomillashishiga olib kelgan. IX asr o'rtalarida o'zgarishlar cho'qqisiga to'g'ri keladi. Murakkab shakllar va ornamentli kompozitsiyalar idishning barcha qismlarini ko'proq pardozi berish bilan ornamentsiz aniq proporsiyasiga almashdi.

Shu bilan bir vaqtda, kulrang gilli sopollarning nodir ashyo sifatida O'rta va Yaqin Sharqning ulkan hududida paydo bo'lishi diqqatga sazovor. IX–X asrlarda ustalar migratsiyasi kuchayganligi ehtimoli bor. XII–XIII asr boshlarida bu so'zsiz sodir bo'lgan. Kulollar ustaxonalarining shahar ichiga ko'chirilishi turli tarixiy davrlarda birinchi navbatda iqtisodiy sabablar bilan bog'liq. Ulardan biri Samarqandda shahar darvozalari oldidagi bozorlar edi. Ikkinchi sababi daryoga, magistral kanallarga va suv havzalariga yaqinligi edi. Chunki bu omillar ularning ishlab chiqarish ehtiyojini qondirgan.

Samarqandda kulollarning ixtisoslashgan mahallalari somoniylar davrida, IX asrda paydo bo'lgan va shahar hayotining oxirigacha Afrosiyobda mavjud bo'lgan.

X asrda Samarqand matolari Sharqda tanilgan edi³. Shahar atrofidagi Vador qishlog'i o'z matolari bilan mashhur edi. Ayrim tadqiqotchilar uni hozirgi Chelak tumanida bo'lgan deyishadi⁴.

XI–XII asrlarga oid kulollar ustaxonalari arxeologlar tomonidan shahristonning janubiy qismida o'rganilgan. Shahristonning markaziy qismida XI asrga oid kulollarning yirik ko'p xo'jalikli mahallasi joylashgan. Jome masjid yaqinida metallurglarning ustaxonalari ham bo'lgan. Hunarmandchilik ustaxonalarining asosiy qismi shahar atrofida – *rabod*larda joylashgan.

¹ Соколовская Л.Ф. Новые данные о керамической мастерской квартала керамистов X – XI вв. на городище Афрасиаб // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 24. – Ташкент, 1990. С. 193.

² Шишкина Г.В. К топографии западной окраины средневекового Самарканда // К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981. С. 126.

³ Ibn al-Faqih al-Hamadani. Abrege du livre des pays traduit de l'arabe par Henri Masse. Damass, 1973. P. 253, 303, 308.

⁴ Raimqulov A.A., Aslanov A.P. Samarqand vohasining o'rta asr rustoqlari va ularning lokalizatsiyasi masalalari xususida // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 37. – Самарканд, 2012. С. 153.

Samarqand noni *Usta Osiyodagi eng shirin non* hisoblangan. Mashhur Samarqand noni haqida hikoya ma'lum. Aytadilarki: «Bir safar Samarqand noni ustasini boshqa shaharga taklif qildilar. Usta ishlaydi, nonlar shirin, lekin ularga nimadir yetishmaydi, asl Samarqand nonining nimasidir yetishmaydi. Gap nimada? Usta menga Samarqand unini keltiring deydi. Un keltirishadi – baribir chiqmaydi. Shunda usta Samarqand suvini ham keltiring deydi. Suv keltirishadi – yana o'xshamaydi. Shunda usta aytadi: menga Samarqand havosi kerak»¹.

Afrosiyob shahri o'rnidagi qazishmalarda ko'ptarmoqli hunarmandchilik ishlab chiqarish izlari topilgan. VIII asrdan bu yerda shishasozlik rivojlangani qayd etilgan. Ehtimol, shaharda bir emas, bir necha shishasozlik markazlari bo'lgan. Mahalliy shishasoz ustalar boshqa mintaqalarning shishasozlik an'analari bilan tanish bo'lgan².

Samarqand qog'oz mintaqadagi eng yaxshi qog'ozlardan biri edi. Bu vaqtda Samarqand qog'oz Misr papirusi kabi dunyoga mashhur edi³. IX asrdayoq Samarqandda qog'oz rastasi (bozori) bo'lgan⁴.

Manbalarda Samarqand butun dunyo savdogarlarining boshpanasi bo'lgani qayd etilgan⁵. Shahar bozorlari turli tilli va rang-barang omma bilan gavjum bo'lgan. Samarqand Sharq bilan G'arbni bog'lovchi mashhur Buyuk ipak yo'lidagi eng asosiy nuqta bo'lgan. Bu yerda Xitoy ipagi va chinnisini ham, Vizantiya va Misr mahsulotlarini ham topish mumkin edi. Lekin Samarqand faqat boshqa mamlakatlardan keltirilgan buyumlar bilan mashhur emas edi. Bu yerda ko'plab nozik va noyob buyumlar yasovchi haqiqiy ustalar va hunarmandlar yashagan⁶. X asr geografi Maqdisiy Samarqanddan chiqarilgan turli xil ipak va matolar (*mumarjal, sinizi*), kumush kimxob, mis qozonlar, nafis qadahlar,

¹ Петров Ю.М. Самарканд. Климат и погода. – Л., 1982. С. 12.

² Абдуризаков А.А. Сравнительное изучение химических составов средневековых стекол из разных частей Афрасиаба // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 23. – Ташкент, 1990. С. 182-183.

³ *Ibn al-Faqih al-Hamalani*. Abrege du livre des pays traduit de l'arabe par Henri Masse. Damas, 1973. P. 253, 303, 308.

⁴ *Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafi*. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand (Samarqand ulamolari xotirasiga doir qand (dek shirin kiteb)) / Arabchadan Usmonxon Temurxon o'g'li va Baxtiyor Nabixon o'g'li tarjimai. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. 14-b.

⁵ *Hudud al-'Alam*. "The regions of the world" A persian geography 372 A.H. – 982 A.D. Translated and explained by V.Minorsky. Second edition. With the preface V.V.Barthold. Edited by C.E.Bosworth. London: Messrs Luzac & Company. Ltd. 1970. P. 112.

⁶ Ширакин В.А. Афрасиаб – сокровищница древней культуры. – Ташкент, 1966. С. 29.

chodirlar, ikki tomonga ochiladigan narvonlar va *suvluk*¹ haqida yozib qoldirgan².

Mahalliy iqtisodni jonlantirish maqsadida 1321-yili Chig'atoy ulusi hukmdori Kebek mamlakatda xon nomidan chiqarilgan kumush tangalar tizimiga asoslangan pul islohoti o'tkazadi. Bu jarayonga faqat ikkita Buxoro va Samarqand zarbxonalari jalb qilingan.

Ijtimoiy tuzum. Tadqiqotchilarning fikricha, musulmon olamining Nildan Yaksartgacha bo'lgan asosiy qismidagi o'rta asr shaharlari ijtimoiy tuzilishning umumiy belgilariga ega bo'lgan³. Jamiyatning asosiy birliklari oilalar, mahallalar va birodarliklar bo'lgan.

Arab xalifaligi bosqinchiligi O'rta Osiyodagi, ayniqsa, Sug'd va Xorazmdagi eski diniy ulamolar vakillarining ko'pchiligi yo'q qilinishiga olib keldi. Abu Rayhon Beruniy yozganidek: «Xorazmliklarning yozuvini, ularning rivoyatlarini, shular orasida nima borligini kim bilsa, barcha olimlarini Qutayba barcha usullar bilan tarqatib va yo'q qilib yubordi. Ular tarixida islom kelgan vaqtda nima borligi haqida haqiqiy aniq bilimlar, ma'lumotlar yo'q»⁴. Ammo alohida namoyandalar, gohida zardushtiylar kohinlarining guruhlari tirik qola oldi. Misol uchun, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) zardushtiylar diniy rahnamolari vakillaridan birining avlodi edi. Hatto X asr manbalarida Samarqandda afsungar-kohinlar bo'lganligi eslatib o'tilgan⁵.

Ummaning musulmon jamoasi ekanligi haqidagi nazariy tasavvurlarga qaramasdan tezda *sunniylar* va *shialarga* bo'linish sodir bo'ldi. Ularning har ikkalasining vakillari o'z diniy ta'limoti, huquqi, ilohiyoti maktablarini rivojlantirishdi. IX asr boshlarida Abu Hanifa, Maliki ash-Shofe'iy kabi nazariyotchilar paydo bo'ldi. Ular o'z ta'limotini rivojlantirdi⁶. Manbalarga tayanib aytish mumkinki, IX–X asrlarda Samarqandda Abu Hanifa izdoshlari ustunlik qilgan.

¹ Yuganning ot og'zidagi temir qismi.

² Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. ... С. 295.

³ Lapidus Ira M. The evolution of Muslim Urban society in Comparative Studies in Society and History, volume 15, no 1. (January 1973). P. 21.

⁴ *Абу Райхан Бируни*. Памятники минувших поколений. Избранные произведения. Том I. – Ташкент, 1957. С. 48.

⁵ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. – Труды Среднеазиатского государственного университета им. В.И.Ленина. – Ташкент, 1957. вып. IV. / Пер. Е.К.Бетгера, комментарии Д.Ю.Арапова. Материалы по истории СССР. Выпуск 1. – М., 1985. С. 136.

⁶ Lapidus Ira M. The evolution of Muslim Urban society in Comparative Studies in Society and History. ... P. 31-32.

XI asr o'rtalariga kelib ilmiy diniy rahnamolar – *ulamolar*, butun musulmon olamida shaharlarning ijtimoiy, siyosiy elitasiga aylandi. Bunga turkiy imperiyalarning tashkil topishi va elitaning o'zgarishi sabab bo'lgan, deb taxmin qilishadi. Barcha elitlardan faqat *ulamolar* yashab qoldi. Ular o'zlariga eski ma'muriy va dehqonchilik elitalarining ayrim vazifalarini oldilar. *Ulamolar*ning asosiy oilalari dehqonlarning, amaldorlarning va savdogarlarning oilalari bilan qo'shilib ketdi. Bunday oilalar shahardagi yetakchilarga aylandi¹.

Ko'rilayotgan davrda *shayxlar* boshchilik qilgan tasavvuf tariqatlari paydo bo'ldi. Asta-sekin bu tariqatlar O'rta Osiyo va musulmon dunyosining turli chekkalaridagi odamlar guruhini birlashtirdi. Odamlar u yoki bu so'fiy shayxlar ta'limotiga bo'lgan hurmati tufayli ularning atrofida birlashgan. XII – XIII asr boshlarida samarqandlik Rukniddin Abu Hamid Muhammad ibn al-Amid al-Hanafiy as-Samarqandiy *al-amidiya* so'fiylik tariqatining asoschisi bo'lgan².

Samarqandga musulmon olamining g'arbiy viloyatlaridan Muhammad payg'ambar (s.a.v.) avlodlari vakillari ko'chib o'tadilar. Qo'lyozmalarda va Samarqand qabrtoshlarida Al-Hasaniy, Al-Husayniy nisbali sayyidlarning ismlari XI asrdan qayd qilingan. Ularning ayrimlari asli Iroq, Bag'doddan bo'lgan³. Manbalarda Samarqandda ko'proq Husayn ibn Alining avlodlari eslatilgan⁴.

Endilikda somoniylar davrining hashamatli imoratlari yo'qola borgan. Badavlat shaharliklar egallagan yerlarga hunarmandlar ko'chib borib obod qila boshlaganlar. Shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining markaziga aylangan, kundan kunga shaharliklarning ijtimoiy tizimi o'z-gara borgan⁵.

Shahar aholisining etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, forsiyzabonlar bilan birga shahar aholisining bir qismini turkiyzabon aholi tashkil etgan. Turkiylarga hukmron qoraxoniylar, xorazmshohlar sulolasi mansub bo'lib, ular asosan turk harbiy elitasiga tayangan. Aholining alohida toifasini somoniylar gvardiyasida xizmat qilgan harbiy qatlam – turklar tashkil etgan. Ilk islom davrida

¹ *Lapidus Ira M.* Muslim cities and Islamic societies in Middle Eastern cities. Edited by Ira M. Lapidus. University of California press. Berkeley and Los-Angeles, 1969. P. 52–53.

² Бунятос З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. ... С. 125.

³ Додхудоева А.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 83.

⁴ *Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy.* Al-kand fiy zikri ulamoi Samarkand. ... 168–169-betlar.

⁵ Ташходжаев Ш.С. Самаркандский жилой дом IX–X вв. // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 13. – Ташкент, 1977. С. 106.

shaharlar aholisi sonining o'sishi kuzatiladi. Shubhasiz, bunday demografik o'sish Samarqandda ham kechgan. Arxeologik materiallarga ko'ra, bu jarayon kengayib yirik hududni qamrab olgan. Savdo-sotiqning o'sishi shahar iqtisodiyotining o'sishiga olib keldi va migrantlarni o'ziga jalb qildi. Ko'pchilik hollarda arablar shaharlarni to'liq egallab olmagan. Ular masalan, Buxoro, Marv, Nishopur kabi shaharlar atrofidagi qishloqlarni afzal ko'rgan¹. «Sug'diy», «sug'diyar», «Samarqand Sug'di» atamaları O'rta Zarafshon va mintaqa aholisining ayrim vakillariga nisbatan qo'llanilishi XII asr manbalarida ishlatilishda davom etgan².

XI–XII asrlarda shahar aholisining shakllanishiga musulmon olami-ning boshqa viloyatlari, shaharlaridan ko'chib o'tuvchilar ham ancha katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bularga Bag'dod, Nishopur, Marv, Nasaf, Balx, Xo'jand, Kesh, Qo'qon, Xorazm, Choch, Zomin, Koson, Farob kabi aholi maskanlarini kiritish mumkin³. Shuningdek, shaharda Buxoro, Termiz, Taroz, Saraxs, Kushoniya, Vobkent, Ishtixon, Hamadon, Basra, Ustrushona, Isfaxondan kelgan olimlar bo'lgan, yashagan, mudarrislik qilgan⁴. Samarqand hokimi Abulhasan Foiq ibn Abdulla al-Xossa al-Andalusiy nisbasiga ko'ra Ispaniyaning musulmon qismidan bo'lgan. Samarqandliklarning o'zi ham islom olami-ning turli qismlarida Eron, Kufa, Makka va boshqa shaharlarida yashash imkoniyatiga ega bo'lgan⁵.

1264–1265-yillarda Samarqandda Chig'atoy xoni Algu (1260–1266)ning turkiy yozuvli tangalari chiqarilgan. Bu tangalar V.V. Bartold va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan⁶.

Samarqandliklarning tasavvurlari, ularning ma'naviy hayoti haqidagi qiziq ma'lumotlar qabrtosh bitiklarida ham saqlanib qolgan. Bizgacha yetib kelgan Samarqanddagi ilk qabrtosh XI asr oxiriga tegishli. Samarqanddan topilgan qabr ustiga qo'yilgan g'ishtdagi ilk kufiy yozuv ham XI asrga oid⁷.

¹ *Lapidus Ira M.* The evolution of Muslim Urban society in Comparative Studies in Society and History. ... P. 26.

² *Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy.* Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 198, 242-betlar.

³ *Додхудоева Л.Н.* Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 75, 102, 114, 128, 131, 145, 151.

⁴ *Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy.* Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 105, 109, 129, 142, 154, 156, 157, 164, 173, 193, 239-betlar.

⁵ *Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy.* Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 208–209-betlar.

⁶ *Умаров Э.А.* Еще раз о надписи на самаркандском дирхеме чекана 663 г.х. // Общественные науки в Узбекистане. 1999, №3–4. С. 60–61.

⁷ *Додхудоева Л.Н.* Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 39.

Qayroqtoshlarning soni XII asrda ko'payadi, mo'g'ullarning kelishi bilan esa ularning soni qisqaradi. O'rta Osiyoning boshqa hududlaridagi qayroqtoshlardan Samarqand qayroqlari nafis bezaklari bilan ajralib turgan¹. Samarqandning musulmon qabrtoshlari so'nggi o'rta asrlarda «qayroq» nomini oldi. Qayroqlarning ko'pchilik qismi erkaklarga bag'ishlangan. Mutlaq ko'pchiligi ruhoniylarga, kamroq qismi harbiylar va savdo-hunarmandlar qatlamiga tegishli bo'lgan².

Ko'pincha epitafiyalarda go'r «qabr» so'zi bilan berilgan. XII asrning ikkinchi yarmidan yozuvlarda Qur'on kalimalari tarqala boshladi. Eng ommaviy kalima 29-suraning oyati: «Inson qalbi doimo o'limga tayyor» edi³.

Samarqanddan topilgan birinchi qabrtosh 844–845-yillarga oid⁴. Yozuvlarning arab tilidagi matni «kufiy» yoki «nas'h» xatida, fors tilidagilari esa sodda tez yozuvda yozilgan. XII asrdan fors tilidagi epigrafik yozuvlar paydo bo'lgan. Ularda ruboiylar ham joylashtirilgan⁵.

3-§. Shahar tuzilmasi

Qal'a (ark). IX asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi yarmida Movarounnahr, jumladan, Samarqand aholisi iqtisodiy va madaniy yuksalishni boshdan kechiradi.

Bu davrda Samarqandda qurilish gullab-yashnaydi. Ko'chalar kengaytiriladi va qayta quriladi, shahar mahallalarga bo'linadi. Mahallalarda hovuzlar, masjidlar, hammomlar qurilgan⁶.

Samarqandning tarixiy shakllangan qiyofasi Zarafshon vodiysining yer tuzilishi va iqlimi ta'sirida vujudga kelgan. Shahar ko'chalari ko'pchilik holatda sharqdan g'arbga, janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab, quyosh yo'nalishiga moslangan. Bu bir vaqtning o'zida shamol yo'nalishiga ham mos bo'lgan. Natijada, yilning xohlagan vaqtida shahar havosining yangilanishi ta'minlangan. Jamoat binolari va odamlar turar joylarining eshik va derazalari rangli oynalar bilan bezatilgan⁷.

X asrda shaharda bo'lgan Ibn Havqal quyidagilarni yozgan: «Unda qal'a (ark), shahriston va rabod bor. Qal'a (Ark)da bizning zamonda qamoqxona qurilib bo'lgan va hukmdor saroyi joylashgan, ammo u xarob holda.

¹ Додхудоев А.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 11.

² Додхудоев А.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 33.

³ Додхудоев А.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 36.

⁴ Эпиграфика Востока. вып. XI. Москва, 1956. С. 12.

⁵ Додхудоев А.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 57–60.

⁶ Бурякова Э.Ю. Раскопки бань на территории средневекового Самарканда // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 20. – Ташкент, 1986. С. 166.

⁷ Петров Ю.М. Самарканд. Климат и погода. – Л., 1982. С. 35.

Men qal'a (ark)ga ko'tarilganman va ajoyib manzarani ko'rganman. U manzarani, ya'ni yam-yashil daraxtlar, ajoyib qasrlar, oqib turgan kanallar va tunganmas madaniyatni qachonlardir odam nigohi ko'rib zavqlangan. Bu yerda turib, biror-bir yoqimsiz joyni, kishini shod qilmaydigan yo'lni ko'rish mumkin emas. Maydonlar ajralib turadi, shaharni bezovchi binolar qad ko'tarib turadi. Unda suvalgan sarv daraxtidan yasalgan ot, buqa, tuya, antilopa kabi hayvonlarning g'alati rasmlarini ko'rish mumkin. Ular shunday qo'yilganki, go'yo bir-biriga mo'ralab turgandek, jangga yoki musobaqaga kirishayotgandek ko'rinadi»¹.

Samarqand qal'a (ark), shahriston (madina) va raboddan iborat bo'lgan. X asrda shahar qal'asi (arki) yog'och, paxsa bilan mustahkamlangan edi. Devorning sirti yaxshilab shuvalgan². Shahar qal'asini belgilash uchun manbalarda *ark*, *qal'a*, *ko'handiz*, *diz* kabi iboralar ishlatilgan³.

XI asrda shahar topografiyasida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Afro-siyob shahrining g'arbida yirik mahallalar ko'zga tashlanadi. X asrda paydo bo'lgan va qadrlangan mozar kattalashib, qabristonga aylangan. Kesh darvozasining janubi-g'arbidagi hududda sinchli binolar qurilib, obodonlashtirilgan⁴.

Darvozalar va mudofaa devorlari. Shahar shahristoni baquvvat devorlar va 4 darvoza bilan o'ralgan edi. Ibn al-Faqih bo'yicha: Kesh, Xitoy, Ustrushona va Temir darvoza. Jayhoniyy va Al-Muqaddasiy bo'yicha: sharqiy – Xitoy, g'arbiy – Navbahor, shimoliy – Buxoro va janubiy – Kesh⁵. Ularning ko'pchiligining o'rnini arxeologlar tomonidan aniqlangan. «Navbahor» nomli darvoza Balxda ham bo'lgan⁶.

Nadjmiddin Umar an-Nasafiyning yozishicha, Abu Muslim (Abdurahmon ibn Muslim ibn Shanfayrruz al-Marvaziy al-Xurosoniy) 750-yilda

¹ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. С. 135–136.

² Иневаткина О.Н. Цитадель Афрасиаба (работы 1977–1979 гг.) // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 18. – Ташкент, 1983. С. 90.

³ Бартольд В.В. Работы по исторической географии и истории Ирана // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том VII. – Москва: Наука, 1971. С. 413.

⁴ Шинкина Г.В. К топографии западной окраины средневекового Самарканда // К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981 С. 130.

⁵ Мухтаров А. Джейхани о городах Мавераннахра // Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент, 1990. С. 16, 20; *Al-Muqaddasi. The best divisions for knowledge of the regions. A translation of Ahsan al-Ta'asim fi Ma'rifat al-Aqalim. Translated by Basil Anthony Collins, Muhammad Hamid al-Tai. Reading: Centre for muslim contribution to civilization and Garnet publishing limited, 1994. P. 248, 240.*

⁶ *Al-Muqaddasi. The best divisions for knowledge of the regions. ... P. 266.*

Samarqandga kelgan va 751-yilda shahar atrofida mudofaa devorini qurgan. Biroq ayrim tarixchilar bu devorni u 752-yilda qurgan deya keltirishadi. Devorni tashqi tomondan 450 ta qal'a himoya qilgan. Uning balandligi 15 ziro (11,25 m.), eni 7 ziro (4,55 m.) va uzunligi – 6 km. 750 metrni tashkil etgan. Devorda 360 ta minora bo'lgan¹.

Samarqand tashqi devorining aylanasi taxminan 60 km bo'lib, ke-yinchalik *Devori Qiyomat*, *Kampir devor*, *Devori Ko'ndalang* nomlari bilan atalgan. Uning 8 darvozasi bo'lib, ular somoniylar hukumati tomonidan aholining isyonkor kayfiyati tufayli vayron qilingan².

Ibn al-Faqihning yozishicha, butun shahar maydoni devor bilan o'ralgan bo'lib, 12 darvozasi bo'lgan. Ibn Havqal 4 darvozaning nomlarini keltiradi: Xitoy (sharqiy), Navbahor (g'arbiy), Buxoro (shimoliy), Katta (janubiy). Shuningdek, u shaharning tashqi darvozalarini yoki rabodning darvozalarini ham aytib o'tgan: Gadavad, Isbask, Suxashin, Varsanin, Fenek, Ko'hak, Rivdod, Farruxshid va Afshin³. Bulardan ikkitasining o'rni arxeologlar tomonidan aniqlangan: Farruxshid (Darvozaxona) Samarqandning janubi-g'arbida, hozirgi Sartepa massivi hududida va Isbisk (Childuxtaron) Devori Qiyomat chegarasida joylashgan. Ko'hak darvozasi taxminan Cho'ponotaning janubi-sharqiy etagidagi Nog'oratepa yaqinida bo'lgan. Afshin darvozasi Cho'ponotaning g'arbiy etagida bo'lgan⁴. Shahar darvozalari paxsa va xom g'ishtdan qurilgan⁵.

Samarqand 4 qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Paxsa va xom g'ishtdan yasalgan 1,5 km atrofidagi birinchi devor o'rta asrlardagi Samarqand shahrining nisbatan oldingi shimoliy qismini chegaralagan. Shuningdek, 5 km atrofidagi to'rtinchi mudofaa devori ham bo'lib, u butun Afrosiyob shahri hududini o'z ichiga olgan⁶.

Samarqand shahrining ayrim darvozalari shaharlar nomi bilan atalgan (Buxoro, Kesh). Chunki ular shu shaharlarga eltuvchi yo'lda joylashgan. Bu

¹ Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 87-b.

² Бартольд В.В. Работы по исторической географии. ... С. 189.

³ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. ... С. 136-137.

⁴ Лебедев Т.И. Сельская округа и её роль в формировании раннесредневекового Самарканда (по материалам сельской округи Самарканда). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1994. С. 9, 14, 18.

⁵ Бурякова Э.Ю. Археологические раскопки и наблюдения в рабаде Самарканда IX-X вв. // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 13. – Ташкент: Фан, 1977. С. 121, 124.

⁶ Шишкин В.А. Кала и Афрасиаб // Афрасиаб. Выпуск 1. – Ташкент, 1969. С. 139-140.

jihati boshqa musulmon shaharlariga ham xos bo'lgan. Masalan, Sabzavor¹, Bag'dod va boshqalar.

Jayhoniy Samarqandning tarkibiy qismlarini shunday ko'rsatgan: ark – ko'handiz qal'asi bilan, bir-biridan uzoq bo'lmagan masofada joylashgan jome masjid va bozor².

Rabodlar. Samarqand rabodlari yirik hududlarni egallagan. Avval ular shahar devori tashqarisidagi shaharcha bo'lgan. Keyinchalik mahsulot ishlab chiqarish va savdo markazlariga aylangan. Bu yerda hunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari joylashgan. Shahristondan sharqda, Cho'ponota tog'lari etagida joylashgan raboddagi arxeologik qazishmalar misolida tadqiqotchilar rabod VIII–IX asrlarda shakllana boshlagan deb faraz qiladilar. Jumladan, bu yerda kulolchilik ustaxonasi joylashgan. Aftidan, asosan janubiy va g'arbiy hududlar o'zlashtirilgan. Shimoliy hududlar sust o'zlashtirilgan. VIII asrdan Registon hududi o'zlashtirilgan. IX–XI asrlarda bu yerda kulolchilik, zargarlik ustaxonalari joylashgan³. Tadqiqotchilar shaharning asosiy savdo-iqtisodiy markazi Kesh darvozasidan janubda bo'lgan, deb hisoblaydilar⁴. Bu yerda joylashgan rasta Samarqand Sug'dining bozori deb atalgan. Uning markazida chorsu – gumbazli savdo inshooti bo'lgan. Bozorning ikkita rastasi jome masjidining shimoli va janubida joylashgan edi⁵.

Shaharning suv ta'minoti. IX–XIII asrlarda Samarqandda shahar irrigatsiya tizimi tuzilishini takomillashtirish ishlari olib borildi. Kanallar o'zanini to'sish – to'g'onlar qurish, sohillarda himoya devorlarini barpo qilish ishlari bajarildi. Tadqiqotchilar asta-sekin qadimgi chuqur bo'lmagan keng kanallardan o'rta asrlarning ancha tor, lekin chuqur kanallariga o'tish jarayoni bo'lganini qayd etishadi⁶. Shahar ichidan Chokardiza, Mazdahin, Iskandarg'om, Asangin va Sangrason nomli magistral kanallar o'tgan⁷.

¹ *Kheirabadi Masoud*. Iranian cities. Formation and development. Syracuse university press, 2000. P. 53.

² *Мухтаров А.* Джейхани о городах Мавераннахра. ... С. 16, 20.

³ *Бурякова Э.Ю.* Археологические раскопки и наблюдения в рабде Самарканде IX – X вв. ... С. 119, 127.

⁴ *Анарбаев А.* Благоустройство средневекового города Средней Азии (V – начало XIII в.). – Ташкент: Фан, 1981. С. 69.

⁵ *Анарбаев А.* Благоустройство средневекового города Средней Азии. ... С. 72.

⁶ *Иванюцкий И.Д., Илеваткина О.Н.* Периодизация и этапы развития водоснабжения Афраснаба (по материалам раскопок магистрального канала в 1996–1997 гг.) // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 30. / Под редакцией Т.Ш.Ширнинова. – Самарканд, 1999. С. 100, 103.

⁷ *Бартольд В.В.* Работы по исторической географии. ... С. 189.

Shahar ichidan o'tuvchi kanallardan kichik tarqaluvchi tarmoqlar chiqarilgan. Bunda ko'pincha suv ochiq bo'lmagan ariqlardan o'tkazilgan. Buning uchun a'lo darajada yasalgan sopol quvurlardan foydalanilgan. Hazrati Xizr masjidining oldida joylashgan suv taqsimlash tizimiga suv janubdan keltirilgan. Aftidan bu suv Chokardiza mahallasidan oqib o'tuvchi kanal orqali keltirilgan. Kanalning o'zi qo'rg'oshin bilan qoplangan bo'lganligi sabab u «Jo'yi-arziz» («Qo'rg'oshinli kanal») deb nomlangan. Bu qadimgi gidrotexnik inshoot qachon qurilgani aniq ma'lum emas. Ehtimol u arab bosqinidan ancha oldin qurilgan¹.

«Jo'yi-arziz» kanalining tozaligi va butunligini samarqandlik zardushtiylar nazorat qilgan. Ma'lumki, zardushtiylarda gigiyena va sanitariya yuqori darajada rivojlangan bo'lgan. As-Samoniylar Samarqandda olovga sig'inuvchilarning ko'chasi (*sikkat*) *al-Majusi*ni tilga olgan². Aytish mumkinki, bu davrda Samarqandda zardushtiylar mahallasi ham bo'lgan. Suv o'rta asrlarda Samarqandning deyarli barcha xonadon va hunarmandchilik ustaxonalariga kirib borgan edi. Afrosiyobning ancha tepalikdagi joylariga suv *chig'ir* (suvni yuqoriga ko'tarib beruvchi uskuna)lar yordamida yetkazilgan. Oqar suvdan tashqari aholi *quduqlar* suvidan ham foydalangan³.

Bu davrda Samarqandda hammomlar, karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan. XII asrning ikkinchi yarmida qoraxoniylar sulolasining vakillari o'zlarining saroylarini arkning pastki qismida qurishgan. Mo'g'ullar bosqini oldidan qoraxoniylar saroyi ark xavfsizligini ta'minlash maqsadida buzilgan⁴.

Afrosiyob shahrining janubida, Hazrati Xizr masjididan uncha uzoq bo'lmagan Kesh darvozasining ortida savdo manzilgohi (*rabod*) vujudga kelgan. Unda hunarmandchilik ustaxonalari va bozor bo'lgan. X asrda *rabod*ning Registonni ham o'z ichiga olgan janubiy hududida aholi ancha zich joylashgan edi. *Rabod*ning magistral ko'chalari *darb* deb atalgan. Bu atama darvozalarni ifodalashda ham ishlatilgan⁵.

Afrosiyobdagi arxeologik tadqiqotlar natijasida somoniylar davriga oid hashamatli binolarning qoldiqlari aniqlangan. Masalan, X asrning ikkinchi yarmiga oid somoniylar saroyining vayronalari qazib o'rganilgan. Bu davr-

¹ Шишкин В.А. Афрасиаб – сокровищница древней культуры. ... С. 28.

² Камалиддин Ш.С. «Китаб ал-ансаб» Абу Саъда Абдалкарима. ... С. 77-94.

³ История Самарканда. Том I. ... С. 124.

⁴ Карев Ю.В. Нижняя площадка цитадели Афрасиаба в домонгольский период – исследования Узбекско-французской экспедиции 1991–2007 гг. // Древние цивилизации на Среднем Востоке. Археология, история, культура (Материалы международной научной конференции, посвященной 80-летию Г.В. Шишкиной. Под редакцией С.Б.Болелова). – Москва, 2010. С. 59–60.

⁵ Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. ... С. 67–68.

da Movarounnahrning hukmdori – xalifalarning rasmiy noibi somoniy Nasr ibn Ahmad (875–892) bo'lgan. Shahristonning g'arbiy qismida, Ashizor deb ataladigan joyda somoniylar tomonidan qurilgan saroy binolari joylashgan bo'lib, saroy ganch kesmalaridan tayyorlangan panellar va devoriy suratlar bilan bezatilgan¹.

Shaharning diniy-ma'rifiy markazlari. Islom dinida ibodat uyi masjid hisoblangan. VIII asr oxiriga kelib masjidlarning o'ziga xos qiyofalari qaror topa boshladi va bu vaqtga kelib minoralar va mehroblar paydo bo'ldi. Keyinchalik esa imom uchun minbar va uning yonida taxtasupa vujudga keldi. Juma, jome masjidlari bilan bir qatorda mahalla, saroylar va boy xonadonlardagi uy masjidlari, karvonsaroylardagi, keyinroq esa madrasa masjidlari qurila boshlangan. Masjid musulmon jamiyati hayotida alohida o'rin egallagan, u nafaqat ibodat uyi, balki turli vazifalarni bajargan jamoat binosi ham hisoblangan².

X asr boshlarida jome yoki juma masjidlari (yoki masjid al-jome') vujudga kela boshladi. Ularda juma namozlari bilan birga shahar va uning atrofidagi barcha musulmonlar to'planadigan xutba namozlari ham o'qilgan³.

Islom dastlab har qanday buyumlarga topinishni (Makkadagi «qora tosh» bundan mustasno), majusiylikning asosiy belgilaridan biri sifatida rad etgan. Biroq IX asr oxiridan boshlab as'hoblar va e'tiborli musulmon allomalarining qabri ustida maqbaralar va masjidlar qurilishi qayd etila boshlandi. Shuningdek, ziyorat obyekti bo'lgan mozorlar paydo bo'la boshladi. Bular odatda musulmon avliyosining qabri atrofida paydo bo'lgan mozorlar hisoblangan. Avliyolarning qabriga sajda qilish X asr oxiridan keng yoyila boshlanadi va bunda so'fiylik va uning katta hurmatga ega bo'lgan shayx-piri katta rol o'ynagan⁴.

E'tiborli jihati shundaki, XI–XII asrlarda Samarqandda kamida uchta diniy-ma'rifiy markazlar shakllangan edi. Bulardan birinchisi, shaharning shimoliy qismida, uning markazida katta jome masjidi bo'lgan. Masjidning yonida esa qoraxoniylar sulolasi vakillari dafn etilgan maqbara joylashgan. Ikkinchisi, shaharning janubiy qismida payg'ambarimizning amakilari Qusam ibn Abbosning maqbarasi bo'lib, XI asrdan boshlab uning atrofiga shaharning dunyoviy va diniy elitasi vakillari dafn

¹ Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. Выпуск 1. – Ташкент, 1969. С. 60.

² Большаков О.Г. Масджид // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. С. 160.

³ Большаков О.Г. Манара // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. С. 157.

⁴ Большаков О.Г. Мазар // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. С. 151.

etila boshlangan¹. Uchinchi markaz esa Qusam ibn Abbos maqbarasidan janubda joylashgan Chokardiza qabristoni bo'lib, bu yerga ham mashhur islom dini vakillari dafn etilgan.

Umuman olganda, IX-XIII asrlarda shaharning asosiy diniy markazi Afrosiyobning shimolida, shahar istehkomining g'arbida joylashgan jome masjid hisoblangan. Bu masjid VIII asr o'rtalarida qurilgan va kvadrat shaklga ega bo'lgan². Uning tarkibida to'g'ri burchakli katta hovli va hovlining g'arbiy qismida masjidning asosiy binosi joylashgan. Masjid paxsa, ba'zi joylari xom g'ishtdan terilgan devor bilan o'ralgan³. Al-Muqaddasiy Al-Jayhoniyning ma'lumotlariga asosanib, Sug'ddagi eng ajoyib masjid Samarqandda, keyin Keshda, keyin Nasafda, keyin esa Kushoniyada joylashgan edi, deb ma'lumot beradi⁴. Xususan, Samarqanddagi jome masjidi Qur'on o'qilgan va hadislar bo'yicha munozaralar tashkil etilgan⁵.

Qoraxoniylardan Ibrohim Tamg'achxon (1040–1068-yy.) davrida mazkur masjidda ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan va uning maydoni bir yarim marta kattalashtirilgan. Ilgari masjidning janubiy tomonidan mavjud bo'lgan bitta kirish eshigi o'rniga uchta, shimoliy tomonidan ikkita kirish eshiklari qurdirilgan. Masjidning sharqiy tomonidagi kirish eshigi esa avvalgi holicha qoldirilgan. Keyinchalik jome masjidi qoraxoniylardan Arslonxon (1102–1130), Qilich Tamg'achxon Ma'sud (1160–1178) va Ibrohim ibn Husayn (1178–1202) davrida bir necha marta ta'mirdan chiqarilgan. Shuningdek, mazkur jome masjidi yonida Ibrohim ibn Husayn yoki yirik amirlardan birining qabri joylashganligi ham ehtimoldan xoli emas⁶.

Jome masjidi 1212-yilda Usmonning Xorazmshoh Muhammadga (1200–1220) qarshi isyoni vaqtida jiddiy zarar ko'radi. Shuning uchun Xorazmshoh Muhammad 1212–1214-yillarda bu yerda ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan va hatto masjid maydonini 137 metrga kengaytirgan edi⁷.

¹ XVI asrdan boshlab ushbu muqaddas qadamjo Shohizinda nomini oldi.

² Иваницкий И.Д. К истории сложения соборной мечети на Афрасиабе. // Культура древнего и средневекового Самарканда и исторические связи Согда. Тезисы докладов советско-французского коллоквиума. – Ташкент, 1990. С. 41–42.

³ Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей. ... С. 28.

⁴ Al-Muqaddasi. The best divisions for knowledge of the regions. ... P. 248, 240.

⁵ Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 88-b.

⁶ Кочнев Б.Д. О так называемом мавзолее караханида Ибрахима б. Хусайна // Культура древнего и средневекового Самарканда и исторические связи Согда. – Ташкент, 1990. С. 38.

⁷ Буряков Ю.Ф., Садиев М., Федоров М.Н. Соборная мечеть Самарканда в XI – начале XIII вв. // Афрасиаб. Выпуск IV. – Ташкент, 1975. С. 96–99.

Chingizxonning Movarounnahrğa yurishlari boshlangan vaqtga kelib Samarqand jome masjidining kattaligi shimoldan janubga 89 metr, sharqdan g'arbga 140 metrni tashkil etgan. Shimoldan janubga tomon masjid to'g'ri burchakli va kvadrat ustunlarga tayangan yopiq galereyalı bo'lgan. Shuningdek, uning tarkibida yozgi, qishki va yordamchi binolar ham bo'lgan. Masjidning jami kirish eshiklari yettita bo'lib, namozxonlar shimol va janub tomondan uchta, sharq tomondan esa bitta eshikdan kirishgan. Masjidning g'arbiy qismida mehrob bo'lganligi sababli kirish eshigi bo'lmagan. Xorazmshohlar davrida masjid yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan bo'lib, ustunlari yog'ochdan ishlangan edi. Masjidning ayvoni g'arbdan sharqqa cho'zilgan bo'lib, ayvonning ostki qismiga pishgan g'isht terilgan¹.

Jome masjidining g'arb tomonida 7×7 m o'lchamdagi kvadrat shakldagi bino bo'lib, u sirli koshinlar bilan bezatilgan. Binoga shimol va janub tomondan kirish eshiklari o'rnatilgan va uning pishgan g'isht terilgan polidan uchta sag'ana (qabr) topilgan. Katta ehtimol bilan bu qoraxoniylar sulolasining vakili Ibrohim ibn Husaynning (1180–1198) maqbarasi bo'lib, unga katta musulmon qabristoni tutashib ketgan. Bu yerda yana bir nechta binolarning qoldiqlari topilgan va katta ehtimol bilan ular ham maqbaralar bo'lishi mumkin².

Ishonch bilan aytish mumkinki, XIII asr boshlariga kelib Samarqandning shimoliy qismida jome masjidi, maqbaralar, mozor, bozor maydoni va hunarmandlarning do'konlaridan iborat diniy-ma'rifiy va savdo-iqtisodiy markaz mavjud bo'lgan³.

Boshqa musulmon shaharlari bilan Samarqandni solishtiradigan bo'lsak, jome masjidi atrofida hammomlar, madrasalar va maqbaralardan iborat majmua mavjud bo'lgan, deb hisoblash mumkin. Bunday qurilishlar tarxini, masalan, Damashqdagi keyingi qurilishlar davrida kuzatishimiz mumkin⁴. 1220-yil martida Chingizxon qo'shinlari Samarqandga hujum qilgan vaqtda shahar himoyachilari jome masjidi va istehkomga yashirinishgan va qahramonlarcha halok bo'lgan. Bu voqeadan so'ng Samarqand jome masjidi butun Afrosiyob shaharchasi kabi o'z mavjudligini yo'qotgan edi.

¹ Садиев М. Новые данные о соборной мечети Афрасиаба // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 14. – Ташкент, 1978. С. 98, 100, 101.

² Садиев М. Новые данные о соборной мечети Афрасиаба. ... С. 92–94.

³ Таиходжаев Ш.С. Археологические исследования древнего Самарканда в 1973 году // Афрасиаб. Выпуск 3. – Ташкент, 1974. С. 17.

⁴ Richard van Leeuwen. Waqfs and urban structures. The case of Ottoman Damascus. Brill. Leyden. Boston. Köln, 1999. P. 209.

Maqbaralar va muqaddas joylar. X asrda butun musulmon dunyosida masjidlar sonining ko'payishi jarayoni boshlangan. Bu davrda, masalan, Samarqandda islom targ'ibotchisi, payg'ambarimizning amakilari Qusam ibn Abbasning qabri yaqiniga katta masjid barpo etilgan. Uning poydevori 2004-yilda amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan. Samarqand shahrida yana bir yodgorlik majmuasining paydo bo'lishi ham Qusam ibn Abbasning nomi bilan bog'liq. Manbalarning guvohlik berishicha, Qusam ibn Abbas tashqi jihatdan payg'ambarimizga o'xshash bo'lgan. Xalifa Ali davrida (656–661) Qusam ibn Abbas dastlab Madina hokimi sifatida faoliyat yuritgan, keyinroq u Makka noibi sifatida musulmonlarning Haj ziyoratlarini amalga oshirishlariga mas'ul bo'lgan. 676-yilda Qusam ibn Abbas arablarning old qo'shinlari bilan Samarqandga (boshqa ma'lumotlarga ko'ra Marvga) yetib kelgan va shu yerda halok bo'lgan. Keyinchalik u to'g'risida xalq orasida turli afsonalar paydo bo'lgan.

Afsonalarga ko'ra, Qusam ibn Abbasning qo'shinlari namoz vaqtida kofirlar tomonidan qilichdan o'tkazilgan. Lekin Qusam ibn Abbas mo'jiza tufayli omon qoladi, ya'ni uning qarshisida turgan mehrob ochilib, u yashirinishga muvaffaq bo'lgan. Yodgorlikning nomi – «Shohizinda» – «tirik shoh» nomining kelib chiqishi ham mana shu afsona bilan bog'liq. XII asrga oid «Qandiy»dagi ma'lumotlar va Ibn Battuta (XIV asr)ning qaydlariga e'tibor beradigan bo'lsak, o'sha vaqtlarda Shohizinda nomi umuman mavjud bo'lmagan. XV asr oxirlarida bu yodgorlik majmuasiga nisbatan Mozor Shoh (shohning mozori) nomi qo'llanilgani qayd etilgan, xolos. Shohizinda nomi faqat XV asrga kelib paydo bo'lgan va taxminan shu davrda bu nom Hirot shahridagi muqaddas joylardan birini nomlash uchun qo'llanilgan edi¹.

Bu birinchi navbatda XI–XII asrlarda islom dinida yangi tasavvuf oqimlarining paydo bo'lishi, so'fiylik va u bilan bog'liq holda «avliyo»lar dafn etilgan joylarni ziyorat qilish an'alarining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Shu davrdan boshlab g'oziyalar – «haq din uchun kurashchilar», ilohiyotchilar, allomalar va dunyoviy hukmdorlarning mavjud yoki mavjud bo'lmagan qabrlari ustida katta sondagi maqbaralar va xilxonalar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, Kobulda, O'ratepa va boshqa joylarda xalq ommasi Qusam ibn Abbas yoki uning qarindoshlari, izdoshlari nomi bilan bog'laydigan ko'plab ziyorat joylari mavjud.

O'rta asrlarda «kimki Samarqandda vafot etsa, yettinchi falakda vafot etgan hisoblanadi, qiyomat kuni malaklar bilan birga jannatga kiradi», deb

¹ A chronicle of the early Safawis being the Ahsanut – tawarikh of Hasan-i-Rumlu. Volume II. Translated by C.N.Seddon. Calcutta: Orientalinstitute Baroda, 1934. P. 156.

hisoblangan¹. X asrda Samarqandning Chokardiza («jangchilar istehkomi» degan ma'noni bildiradi) degan joyida yetakchi ilohiyotchilardan biri Abu Mansur al-Moturidiy (870–944-yy.) dafn etilgan yangi mozor vujudga kelgan. Keyinchalik bu yerga Markaziy Osiyoning turli hududlaridan: Nasaf, O'zgan, Shosh, Isfijob va boshqalardan yetishib chiqqan yuzlab buyuk olimlar, sayidlar (payg'ambarimizning avlodlari), shayxlar, imomlar va g'oziyalar dafn etilgan². Bu yerda katta masjid va boshqa me'moriy obidalar qad rostlaydi. Chokardiza qabristoniga, shuningdek, yirik islomshunos olim, fiqh ilmining sultoni Burhoniddin al-Marg'inoniy ham dafn etilgan. Bu yerga, shuningdek, 1141-yil 9-sentabrda qoraxoniylar va saljuqiylarning sulton Sanjar boshchiligida birlashgan qo'shini va Movarounnahrda bostirib kirgan qoraxitoylar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan minglab musulmon jangchilari ham dafn etilgan. Keyingi rivoyatlarga ko'ra, Chokardiza mozoridagi masjid va Abu Mansur al-Moturidiy qabri qoshida qilingan ibodatlar ko'plab kasalliklar va dushmanlarning hujumlarini qaytarishga yordam berar ekan³.

Sovetlar hukmronligi yillarida Chokardiza mozori buzib tashlangan, mashhur kishilarning maqbaralari tashlandiq ahvolga kelib qolgan, qabristonning katta qismi esa aholiga yer uchastkasi sifatida taqsimlab berilgan edi. Faqat O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi va birinchi Prezident I.A. Karimovning tashabbusi bilan tarixiy adolat qayta tiklandi. 2000-yilda Chokardiza qabristonida, Abu Mansur al-Moturidiy va Burhoniddin al-Marg'inoniy dafn etilgan yerlarda ulkan yodgorlik majmualari qad rostladi.

IX–X asrlar chegarasida Xuroson va Movarounnahrda xonaqohlar (fors. xonqoh) – so'fiylarning birgalikda yashash va ibodatlarini bajarish joylari paydo bo'la boshladi⁴. Samarqanddagi dastlabki xonaqohlar XI asrga oid bo'lib, qayd etilishicha, ularning ayrimlari masjidlarning qarshisida barpo etilgan⁵.

¹ Додхудоєва Л.Н. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Т.1. ... С. 75.

² Бердимуродов А.Э., Лебедева Т.И. Исследования 2000 года на мазаре Чакардиза в г. Самарканде // Археология, нумизматика и эпиграфика средневековой Средней Азии. Материалы научной конференции, посвященной 60-летию со дня рождения Б.Д.Кочнева. – Самарканд, 2000. С. 47–52.

³ Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда Абу Тахир ходжи / Перевод В.Л.Вяткина // Справочная книжка Самаркандской области. 1898. Выпуск VI. – Самарканд, 1899. С. 168.

⁴ Акимчулкин О.Ф. Ханаках // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. С. 272.

⁵ Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 167-b.

X–XI asrlar chegarasida Afrosiyobning janubiy qismida joylashgan Qusam ibn Abbos majmuasi hududida jome masjidi qurilgan bo'lib, bu zamonaviy majmua hududidagi dastlabki diniy yodgorlik qurilishi hisoblanadi. Bu yerda ilk musulmon qabristoni hisoblangan Banu Naxiyya joylashgan edi. Bu mozorda bir qancha ilohiyotchilar, hadisshunoslar, masalan, Abu Tavba Sayyid ibn Hoshim ibn Hamza al-Atkiy al-Kogaziy as-Samarqandiy (874-yilda vafot etgan) dafn etilgan bo'lib, uning janozasini, ma'lumotlarga ko'ra, shaxsan Ismoil ibn Ahmad Somoniyning o'zi o'qigan ekan¹.

XI–XII asrlarda, qoraxoniylar sulolasi davrida Samarqandda ko'plab maqbaralar qurilgan. 1066-yilda qoraxoniylar sulolasining vakili Ibrohim Bo'ritegin (Ibrohim Tamg'achxon)ning farmoni bilan Qusam ibn Abbos maqbarasi yaqinida madrasa qurdirilgan bo'lib, uning qoldiqlari majmua hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida topilgan edi. Bu muqaddas makonning ahamiyatini shu jihat ham belgilaydiki, mo'g'ullar bosqini vaqtida ham majmuadagi binolarga jiddiy zarar yetkazilmagan edi. Aksincha, shahar (Afrosiyob)dagi deyarli barcha qurilishlar yer bilan yakson etilgan edi.

Qusam ibn Abbos majmuasining yonida qoraxoniy Ibrohim Tamg'achxonning madrasasi joylashgan. Madrasaning yonida Tarxonbekning qizi Xotun-malik maydoni va o'quvchilar vaqfi hisoblangan uy, uning yoni Ahmad al-Muqassaning uy-joyi, uning yonida Abul Qosim al-Otaning uy-joyi, uning yoni Lochinbek mozori, Havli al-Hayltosh uy-joyi, amir Nizom ad-Dovul xonaqohi va Xotun-malik Turkon-xotun uy-joylari joylashgan². Turkon-xotun Ibrohim Tamg'achxonning qizi bo'lib, saljuqiy Malikshohga turmushga berilgan edi³.

1066-yil iyun oyining o'rtalariga oid bo'lgan vaqf hujjatining guvohlik berishicha, Ibrohim Tamg'achxon tomonidan Samarqandda maxsus kasalxona (gospital) ta'sis etilgan. Bu kasalxonada nafaqat bemorlar, balki kambag'al qashshoq kishilar ham joylashishlari mumkin bo'lgan.

Manbalarning guvohlik berishicha, Samarqanddagi jome masjidning yonida boshqa musulmon davlatlarida bo'lgani kabi katta shahar bozori va bozor maydoni joylashgan. Ma'lumki, Eron shaharlarida, bozor va jome masjidning yaqinida jamoat maydoni bo'lib, bu yerda turli siyosiy, diniy va ijtimoiy-madaniy voqealar sodir bo'lgan. Masalan, Navro'z va boshqa

¹ Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 26-b.

² Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгач-хана в Самарканде // Страны и народы Востока. Выпуск X. – М., 1971. С. 171-173.

³ Bosworth C.E. The medieval history of Iran, Afghanistan and Central Asia. London: Variorum reprints, 1977. P. 453.

diniy bayramlar nishonlangan¹. Afrosiyob shaharchasidagi istehkomdan janub tomonda katta tekis maydonning o'rnini topilgan bo'lib, katta ehtimol bilan bu joy shahar «maydoni» bo'lgan bo'lsa kerak.

VIII asr ikkinchi yarmidan XII asrga qadar Samarqand shahrining janubiy chekkasida aholining faol o'rnashuvi jarayoni kuzatiladi².

Mavzelar va ko'chalar. Shaharning «mahalla» deb nomlanuvchi mavzelariga bo'linishi musulmon shaharlari uchun xarakterli jihatlardan biridir³. «Mahalla» so'zi «joy» degan ma'noni bildiradi⁴. X–XV asrlarda Samarqandda mavzelarini nomlash uchun ikkita atama: «mahalla» va «ko'» iboralari qo'llanilgan⁵. Damashqda mahalla boshlig'i bo'lgan shayx shahar hokimi tomonidan tayinlangan⁶. Biroq Samarqandda IX–X asrlarda mavzelar qanday boshqarilganligi manbalarda deyarli yoritilmagan. Ayrim musulmon shaharlarida alohida mavzelar devor bilan o'ralib, darvozalariga ham ega bo'lgan⁷. Bunday mavzelar Samarqandda bo'lganligi to'g'risida esa aniq fikr bildirish qiyin.

Mahallalar unda yashovchilarning asosiy mashg'uloti nomi, mahallada yashayotganlar mansub bo'lgan shahar yoki qishloqning nomi bilan ham nomlangan. Masalan, IX–X asrlarda Bag'dodda har bir etnik va diniy guruh o'ziga tegishli bo'lgan mavzelerde istiqomat qilgan⁸. Samarqand shahridagi mavzelarining nomiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular polietnik bo'lgan deb aytish mumkin. Faqat ma'lum kasb-korga ega bo'lgan hunarmandlar o'zlarining alohida mavzelariga ega bo'lishgan. Manbalarda XI asrda Samarqandda yashagan etnik guruhlardan jikillar tilga olinadi⁹. Samarqand viloyati va shaharda o'z yer uchastkalariga ega bo'lgan arab qabilalaridan Bakr ibn Vaillar ham yashashgan¹⁰.

¹ *Kheirbadi Masoud*. Iranian cities. Formation and development. Syracuse university press, 2000. P. 77.

² Научный архив Института археологии имени Я.Гулямова АН РУз, фонд № 4, опись 1, дело 168, л. 6.

³ *Lapidus Ira M.* Muslim cities and Islamic societies in Middle Eastern cities. Edited by Ira M. Lapidus. University of California press. Berkeley and Los-Angeles, 1969. R. 49.

⁴ *Besim Selim Hakim*. Arabic-Islamic cities. Building and planning principles. Kegan Paul international. London and NewYork, 1968. P. 63.

⁵ *Сухарева О.А.* О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (ку, махалла, гузар) // Народы Азии и Африки. 1965, №6. С. 101–104.

⁶ *Lapidus Ira M.* Muslim cities and Islamic societies in Middle Eastern cities. ... P. 49.

⁷ *Бартольд В.В.* Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 200.

⁸ Там же. P. 51.

⁹ *Ибн ал-Асир*. Ал-каmil фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 224.

¹⁰ *Бетгер Е.К.* Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. ... С. 142.

Tadqiqotchilarning fikricha, shahar mavzelarining asosini V–VIII asrlarda qaror topgan shaharsozlik tarxi tashkil etgan.

Afrosiyob shaharchasining shimoli-g'arbida VIII–IX asrlarga oid tarhi bo'yicha to'g'ri burchakli va 5600 kvadrat metrni tashkil etuvchi mavzening o'rni qazib ochildi. U ikkita ko'chaning o'rtasida joylashgan bo'lib, ulardan biri mavzening sharq tomonidan o'tgan, kengligi 4 metr bo'lgan shaharning asosiy ko'chasi, ikkinchisi g'arb tomondan o'tgan, kengligi 2 metr bo'lgan, mazkur mavzeni boshqa mavze bilan ajratib turuvchi ko'cha. Mavzening janub tomonidan VIII asr o'rtalarida metallga ishlov beruvchi va shisha ishlab chiqaruvchi ustaxonalar bo'lgan. Mavzeda IX asrga oid jamoat hammomi ishlab turgan¹. Mahallada aholining almashuvi har 30–40 yil oralig'ida sodir bo'lgan. Afrosiyobning shimoli-g'arbida joylashgan bu mahallada keyingi ikki yarim asr davomida (VIII asr o'rtalaridan XI asr boshlarigacha) aholi tarkibi kamida yetti marta almashgan. Kerramiylarning katta mahallalari esa aholi almashuvidan kamroq zarar ko'rgan. Bu yerda (Afrosiyobning markazida joylashgan mavze) aholi 100–150 yil davomida muqim yashagan².

Manbalarda X–XII asrlarda Samarqandda mavjud bo'lgan quyidagi mahallalarning nomlari keltirilgan: Bob Doston, Bob Kiss, Bob Naund, Banjxin, Varsanan, Guzavaz, Chokardiza, Zagrimal, Kibob, Kanvan, Sikka al-Labbadin (Kui Namozgaron), Moturid, Nahr al-Kassarin, Ras al-Kantara G'otfar, Sankadiza, Ushtabdiza, Fagidaz, Farzamisani³. Avfiyda Gurjmin yoki Kurjumin mahallasining nomi qayd etilgan⁴. Najmiddin Nasafiy Samarqand shahridagi quyidagi mavzelarining nomlarini tilga olgan: Ajlan, Bayan, G'otfar, Darvozacha, Maydon, Muj, Mug'vdiyza, Muhammad ibn Hamza, Taxunat al-muftiy (muftiy tegirmoni), Farahi amiri Naund, Xaitu Kusakan⁵.

Shahar rabodlari ham o'z nomlariga ega bo'lgan: Rabodi Navkaymin, Rabod ul-Murabba, Nasr ibn Jobir rabodi va boshqalar⁶.

¹ Шишкина Г.В. Городской квартал VIII–XI вв. на северо-западе Афрасиаба // Афрасиаб. Выпуск 2. – Ташкент, 1973. С. 118, 125, 130.

² Шишкина Г.В. Городской квартал VIII–XI вв. на северо-западе Афрасиаба. ... С. 156.

³ Камалиддинов Ш.С. «Китаб ал-ансаб» Абу Саъда Абдалкарима. ... С. 77–94.

⁴ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. ... С. 378.

⁵ Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 35, 13, 51, 133, 195, 147, 158, 165, 166, 168, 174, 184-betlar.

⁶ Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 17, 16, 21, 33, 50, 201-betlar.

X–XII asrlardan beri o'z nomini saqlab qolgan Samarqand shahri mavzalaridan Chokardiza, G'otfar va Moturidni sanab o'tish mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir mavze o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, G'otfar mavzeyi o'zining kiparis (sarv)lari bilan shuhrat qozongan edi¹.

Afrosiyob shaharchasida IX–X asrlarga ichki va tashqi hovliga ega bo'lgan uylarning qoldiqlari qazib o'rganilgandan ma'lum bo'ladiki, keyingi davrlarda uylar uchun an'anaviy bo'lgan tuzilishlar qaror topgan².

IX–XIII asr boshlaridagi ko'chalar tuzilishini ularning VII–VIII asrlardagi holati bilan solishtirgan tadqiqotchilar, nisbatan murakkab va texnik mukammallikni qayd etgan bo'lsalar-da, IX–X asrlar va XI–XIII asr boshlari Samarqand ko'chalari tarmog'ida katta farqni ko'rmaganlar³. Bu yerdagi asosiy ko'chalar avvalgi asrlardagidek yirik ariqlar bo'ylab o'tgan.

Hammomlar. IX asrdan boshlab Samarqandda jamoat hammomlari faoliyat ko'rsata boshlagan. Ma'lumki, X–XI asrlardayoq Samarqandda erkaklar va ayollar uchun alohida-alohida hammomlar faoliyat ko'rsatgan⁴. Arxeologik materiallarga ko'ra, X asrda Samarqandda qurilgan hammomlar o'z tipi bo'yicha IX asrda qurilgan hammomlardan farq qilgan⁵. Arxeologlar tomonidan Afrosiyobning g'arbiy qismidan yechinish, yuvinish va dam olish xonalariga ega bo'lgan katta hammomning qoldiqlari qazib ochilgan. Bundan tashqari, bu yerda IX–X asrlarga oid pishiq g'ishtdan qurilgan kichikroq hammomning qoldiqlari ham topilgan bo'lib, uning devorlari moviy, qizil va sariq ranglar bilan bo'yalgan. Qazishmalar davomida qo'lga kiritilgan topilmalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hammomlarda kosmetik (zeb berish) xonalari ham bo'lgan⁶. Umuman olganda, Afrosiyob shaharchasining shimol tomonida istehkom yaqinida, shimoli-g'arbda, g'arbda, sharqda va shaharcha markazida jami beshta hammomning qoldiqlari qazib ochilgan⁷.

¹ Петров Ю.М. Самарканд. Климат и погода. – Л., 1982. С. 8.

² Ташходжаев Ш.С. Археологические исследования древнего Самарканда в 1973 году // Афрасиаб. Выпуск 3. – Ташкент, 1974. С. 3-4.

³ Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. ... С. 71–72.

⁴ Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгач-хана в Самарканде. ... С. 171–173.

⁵ Шишкина Г.В. Городской квартал VIII–XI вв. на северо-западе Афрасиаба. ... С. 140–142.

⁶ Гулямов Я.Г., Буряков Ю.Ф. Об археологических исследованиях на городище Афрасиаб в 1967–1968 гг. // Афрасиаб. Выпуск 1. – Ташкент, 1969. С. 274–276.

⁷ Шишкина Г.В. Городской квартал VIII–XI вв. на северо-западе Афрасиаба. ... С. 143.

4-§. Ta'lim, ilm-fan, adabiyot va diniy vaziyat

X–XI asrlarda musulmon mamlakatlarida dastlabki oliy o'quv muassasalari – madrasalar (dars o'tiladigan joy) paydo bo'la boshladi. Ayrim tadqiqotchilar madrasalarning paydo bo'lish nuqtasini budda ibodatxonalaridan qidirishni taklif etishgan¹. Islom dini keng yoyilgan mamlakatlardagi madrasalar to'g'risidagi ilk xabarlar X asrga oid bo'lib, hududiy jihatdan Xuroson va Movarounnahrda to'g'ri keladi. XI asrdan boshlab madrasa o'quv muassasalarining yetakchi tipiga aylandi. Bu davrga qadar o'quv ishlari yaxshi tashkil etilmagan, darslar asosan masjidlar qoshida, xususiy uylarda olib borilgan. Madrasalar vaqf – xususiy shaxslar yoki davlat tomonidan xayriya qilingan mulklar hisobidan ta'xis etilgan va faoliyat yuritgan. Madrasada dars beruvchi o'qituvchilar va boshqa xizmatchilarga oylik maosh tayinlangan, talabalarga nafaqa to'langan, shuningdek, ular o'quv anjomlari va yotoq joy bilan ta'minlanganlar. Dastlab shofe'iylik mazhabiga mansub bo'lgan, keyinroq hanafiylik va boshqa mazhablarga mansub madrasalar tashkil etila boshlangan. Madrasa o'qituvchisi mudarris deb nomlangan. Madrasada o'qitish ma'ruza, alohida kitoblar ustida ishlash va munozaralar shaklida olib borilgan. Madrasa qoshida kutubxonalar tashkil etilgan².

X asrda Samarqandda turli tariqatlar – mutaziliylar, kerramiylar va boshqa tariqatlarga mansub bo'lgan 17 madrasa faoliyat ko'rsatgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, musulmon dunyosida madrasalar dastlab hukumat tomonidan emas, balki muxolifatchi unsurlarga ega bo'lgan tariqatlar tomonidan tashkil etilgan³.

Samarqand shahridagi ilk madrasa 1066-yilda qoraxoniylar sulolasi-ning vakili Ibrohim Tamg'ach Bug'roxon tomonidan barpo ettirilgan edi. U qator binolardan: masjid, darsxona, Qur'on o'rgatiladigan bino (maktab), odob o'rgatiladigan bino (majlis), Qur'on o'qiladigan yirik bino (majlisi mukra), hujralar, hovli va bog'dan iborat bo'lgan. Darsxona madrasaning burchagidagi gumbazli binoda joylashgan. Madrasaning sharq, ehtimol, janub tomondan kirish eshiklari bo'lgan. Mazkur madrasaning konstruksiyasi Movarounnahr va Eronda XV–XVII asrlarda ham rivojlanib bordi⁴.

¹ Литвинский Б.А. Домусульманские истоки среднеазнатской цивилизации X–XI вв. // Абу Али ибн Сино и его эпоха. – Душанбе, 1980. С. 26–27.

² Халидов А.Б. Мадраса // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991. С. 150.

³ Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 225.

⁴ Немцева Н.Б. Медресе Тамгач Богра-хана в Самарканде (из археологических работ в ансамбле Шахи-Зида) // Афраснаб. Выпуск 3. – Т., 1974. С. 134, 138, 142.

Madrasaning vaqf hujjatida unda faoliyat olib boradigan o'qituvchilar va xizmatchilar to'g'risida, yillik va oylik maoshlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Oylik maoshlardan eng yirigi – 300 dirham Abu Hanifa mazhabiga mansub faqih – qonunshunosga to'langan. Shuningdek, madrasa talabalariga oylik stipendiyalar uchun ham pul ajratilgan. Stipendiyalar miqdori talabalarning darslarga qatnashishi va fanlarni o'zlashtirishiga qarab belgilangan. Madrasada o'qiydiganlarning umumiy soni 60–70 kishini tashkil etgan. Shunisi e'tiborliki, vaqf hujjatida «agar qachondir madrasa yaroqsiz holga kelib qolsa va uni qayta tiklash imkoniyati bo'lmasa, mazkur vaqflar kambag'al musulmonlarga bir umrga taqdim etiladi», deb ta'kidlangan¹.

Bu davrda Samarqand shahridagi eng mashhur madrasalar – Qusamiya (Qusam ibn Abbos majmuasida) va Ibrohim Tamg'achxon madrasalari edi. O'z davrining yirik allomalari – Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Lays Samarqandiy kabi olimlar va shoirlar Samarqand madrasalarining bitiruvchilari edilar. Bu yerda ilohiyotchilar sulolasi paydo bo'ladi. Masalan, Abu Mansur al-Moturidiy, uning o'g'li va nabirasi Samarqandning mashhur qozilari va imomlari bo'lishgan².

XII–XIII asrlarda xorazmshohlar davlatida madrasalarning mudarris-lari va imomlar sulton va uning noiblarining maxsus farmoyishi bilan tayinlangan. Yangi madrasalarning qurilishi esa ko'zga ko'ringan diniy arboblarga topshirilgan³.

1066-yilda Ibrohim Tamg'achxon tomonidan Samarqandda bepul xizmat ko'rsatadigan kasalxona (g'aribxonona) ochilgan. Mazkur muassasa «do'stga va yordamga ega bo'lmagan, qashshoqlik va ruhiy azoblardan tushkunlikka tushgan, darbadar qashshoqlar va baxtsizlar» uchun mo'ljallangan edi. Shu tariqa mazkur g'aribxonada mahalliy aholi qatori turli joylardan kelib qolgan musofirlar ham davolanishlari mumkin bo'lgan⁴.

Yevropa Uyg'onish davri bilan solishtirgan tadqiqotchilar «musulmon Renessansi»⁵ yoki Uyg'onishi konsepsiyasini ilgari surganlar. Bu atama orqali quyidagi aniq omillar bayon qilingan: aniq fanlarga bo'lgan intilish,

¹ Буниятов Д.З., Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. // Восточное историческое источниковедение и вспомогательные исторические дисциплины. Вып. 2. – Москва: Наука, 1994. С. 50–51, 59–60.

² Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy. Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand. ... 166–167-betlar.

³ Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. ... С. 126–127.

⁴ Буниятов Д.З. Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. ... С. 50–53.

⁵ Мец Адил. Мусульманский ренессанс. ... С. 9–14.

o'tmish davrlar va xalqlardan qolgan diniy-madaniy merosdan foydalanish, tabiiy fanlarning rivojlanishi, insonparvarlik g'oyalarining yoyilishi, dunyoni ilmiy anglash rolining o'sishi, shahar madaniyatining o'sishi¹. Ayrim tadqiqotchilar Markaziy Osiyo Uyg'onish davrini X–XII va XIV–XV asrlarga bo'lishni taklif qilishgan².

IX–X asrlar Samarqand tarixi butun O'rta Osiyo tarixi kabi adabiyot fan va san'atning yuqori darajada taraqqiy etganligi bilan ahamiyatlidir. Arablar bosqini natijasida sug'diy tili fors tili tomonidan siqib chiqarildi va bu til somoniylar davrida hukmron tilga aylandi. Shunga qaramasdan, mintaqaning turkiy aholisi o'z tilini saqlab qoldi. Bu asrlarda Movarounnahr aholisi dunyoga yirik shoirlar va olimlarni berdi va ulardan ko'pchiligining nomi bevosita Samarqand bilan bog'liq. X asrda yashagan mualliflardan biri «Samarqand Movarounnahrda eng nozikta'b kishilar markazlashgan joy va ularning eng yaxshilari Samarqandda tarbiya topishgan» deb yozgan edi³.

Bu davrda keyingi davrlarda ham bo'lgani kabi fandagi yutuqlar diniy qarashlar bilan mustahkamlanib borgan: «Agar inson vafot etadigan bo'lsa, uning ishlari to'xtab qoladi. Faqat quyidagi uchta holat bundan mustasno: solih farzand otasi vafotidan keyin uni duo qilib turadi; xudoga xush keluvchi ishlar davom etadi; va fanning yutuqlaridan insonlar foydalanishda davom etadilar»⁴.

Ta'kidlash lozimki, ilk o'rta asrlar Sug'd adabiyotida keng tarqalgan adabiy syujetlar islom davrida ham saqlanib qoldi. Buning yorqin namunasi sifatida Rustamning qahramonliklari haqidagi afsonalarni ko'rsatish mumkin. Bu afsonaga bag'ishlangan lavhalar ilk o'rta asrlarda Panjikentdan topilgan va keyinchalik Firdavsiy (934/935–1020–1030-yy.) tomonidan «Shohnoma»ga kiritilgan⁵.

IX asrda yashagan Abu Hafs Sug'diy samarqandlik mashhur shoir va musiqachi edi. U tomonidan *shaxrud* deb nomlangan musiqa asbobi kashf etilgan⁶.

Bu davr Movarounnahr madaniy hayotida boshqa olimlar va shoirlar qatorida taniqli fors-tojik shoiri Abu Abdulloh Jafar ibn Muhammad

¹ Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda IX–XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uyg'onish davri madaniyati). – Toshkent: Fan, 1994. 9, 71–74-betlar.

² Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda IX–XII asrlarda madaniy taraqqiyot. ... 74-b.

³ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукая. ... С. 135–142.

⁴ Буниятов Д.З., Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. ... С. 56–57.

⁵ Абдуллаев Д. О культурном наследии Согда в мусульманской Средней Азии // Раннесредневековая культура Средней Азии и Казахстана. Тезисы Всесоюзной научной конференции. – Душанбе: Донши, 1977. С. 176–177.

⁶ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. – Toshkent, 1969. 12–13-betlar.

Rudakiy (860–941-yy.) alohida rol o'ynagan. U Samarqanddan uzoq bo'lmagan Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Keyinroq u Samarqandda yashagan va o'qigan, Buxoroda, Nasr ibn Ahmad (914–943-yy.) homiyli-gida esa «shoirilar sultoni» sifatida nom qozongan edi¹. 2009-yilda Sa-marqand shahrining markaziy maydonlaridan biriga Rudakiy haykali o'rnatildi. Somoniy amirlardan ayrimlari, masalan, Nasr ibn Ahmad ham she'rlar yozib turgan².

«Shoirilar shahzodasi» sifatida nom qozongan Shahobiddin Amak Bu-xoriy (1048/1049–1147–1149-yy.) ham Samarqandda yashagan. U tomoni-dan «Yusuf va Zulayho» dostoni yozilgan edi³. XII asrda Samarqandda bir qancha shoirlar yashagan, masalan, saljuqiy Sulton Sanjar (1118–1157-yy.) saroyida xizmat qilgan shoira Mohesta nomi ma'lum⁴.

Abbosiyalar xalifaligi davrida davlatda tabiiy fanlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshirildi. Bu davrda Bag'dod musulmon dunyosining yirik ilmiy va madaniy markaziga aylandi. Fan Movarounnahr-da ham taraqqiy etgan. Ayniqsa, bu davrda astronomiya yuqori darajada rivojlandi. Ma'lumki, 865–866-yillarda astronom olim Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf as-Samarqandiy Samarqandda astronomik kuzatishlarni olib borgan⁵. 871-yildan Sulaymon ibn Ismat as-Samarqandiy to'rt metrlik kvadrant yordamida Balxda quyoshni kuzatish ishlarini olib borgan edi⁶. 984–985-yillarda o'rta osiyolik olim Hamid ibn al-Xizr al-Xo'jandiy tomo-nidan yasalgan astrolabiya hozirgi kunda Doha (Qatar)dagi Islom san'ati muzeyida saqlanmoqda⁷. Manbalarda samarqandlik boshqa astronom Abul Fath Said ibn Hafif Samarqandiy (912–1000-yy.) ham tilga olinadi⁸. Samarqandlik olimlar hadisshunoslik ilmining rivojiga ham o'z hissalarini

¹ Ворожейкина З.Н. Описание персидских и таджикских рукописей Института Востоковедения. Выпуск 7. – Москва: Наука, 1980. С. 16.

² Ибн ал-Асир. Ал-камила фи-т-тарих. Полный свод истории. ... С. 76.

³ Там же. С. 559.

⁴ Szuppe Maria. The female intellectual milieu in Timurid and post-Timurid Herat: Faxri Heravi's biography of poetesses, «Javaher al-Ajayeb» in Oriente Moderno, Nuova serie, Anno 15 (76) Nr. 2, La civiltà Tumuride come fenomeno internazionale. Volume I (Storia – I Timuridi e l. Occidente) (1996). P. 122.

⁵ Вороновский А.Г. Астрономы Средней Азии от Мухаммеда ал-Хаваразми до Улугбека // Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. С. 106.

⁶ Kennedy E.S. The exact sciences in The Cambridge history of Iran. Volume 4. Edited by R.N Frye. Cambridge university press, 1975. P. 390.

⁷ Al-Khemir Sabiha. De Cordoue a Samarcande. Masterpieces from the museum of Islamic art in Doha. Paris: Musee du Louvre editions, Doha: Museum of Islamic art, Milan: 5 continent editions, 2006. P. 158.

⁸ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 16-b.

qo'shganlar. Masalan, Abu Muhammad Samarqandiy Doranij (797/798–868/869-yy.) nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Muhammad ibn Abdulla ibn Abdurahmon ibn Fazl ibn Bahrom Muhammad ibn al-Buxoriy musulmon dunyosida eng yaxshi o'ntalikka kirgan. U o'z hadislar to'plamini tuzgan edi¹. XI asrda yashagan Abul Hasan Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ibn al-Hasan al-Astrobodiy ham yirik hadisshunoslardan biri bo'lgan².

Musulmon dunyosining eng yetakchi ilohiyotchilaridan biri Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870-yy.) Buxoroda tug'ilgan. Kuchli iqtidorga va xotiraga ega bo'lgan alloma 16 yoshida akasi va onasi bilan Haj safariga boradi va keyingi 40 yil davomida Makka, Madina va boshqa shaharlarda yashab hadislarini to'plash bilan shug'ullanadi. Buyuk xizmatlari uchun unga imom al-muhaddisiyn (hadisshunoslik imomi) nomini berishgan³. U tomonidan tuzilgan hadislar to'plami musulmon dunyosidagi eng yaxshi o'ntalikning birinchisi deb tan olingan. Yirik hadisshunos sifatida nom qozongan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Buxoroga qaytgan vaqtda 6 km uzunlikda qator tortgan buxoroliklar uning ustiga dinorlar va dirhamlar sochishgan edi. Biroq ayrim kishilarning fitnasi tufayli u mahalliy noibning buyrug'i bilan Buxorodan chiqarib yuboriladi⁴. 870-yil atrofida u ona shahri Buxoroni tark etib, Samarqandga yo'l olishga majbur bo'ladi. Tez orada Imom Buxoriy Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga yetib keladi va shu yerda vafot etadi.

IX–X asrlarda yirik musulmon shaharlarida huquqshunoslar maktabi shakllanadi. Bu davrda Samarqandda shakllangan huquqshunoslar maktabi islom dunyosidagi eng mashhurlaridan biri edi. Unda samarqandlik yetakchi huquqshunoslar faoliyat olib borishgan. Ularning orasidan Abul Muhammad Mahmud ibn Ahmad al-Faraj as-Samarqandiy (823/824–684/865-yy.)⁵, Abu Bakr Muhammad ibn al-Yaman as-Samarqandiy (881-yilda vafot etgan)⁶, Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy (945-yilda vafot etgan), Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rustug'foniy (X asr), Abul Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad Ibrohim as-Samarqandiy (983/984-yy.)ning nomlarini sanab o'tish

¹ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 10-b.

² Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy, Al-qand fiy zikri ulamo Samarqand. ... 160-b.

³ Uvatov U. Imom al-Buxoriy // O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob. – Toshkent, 2010. 6-b.

⁴ Kattayev K. Samarqandning buyuk allomalari. – Samarqand: Zarafshon, 2000. 26–27-betlar.

⁵ Nasr S.H., Mutahhari M. The religious sciences in The Cambridge history of Iran. Volume 4. Edited by R.N Frye. Cambridge university press, 1975. P. 469.

⁶ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 11-b.

mumkin. Al-Moturidiy zamondoshlari tomonidan «imom al-xudo» deb ham nomlangan¹. U Samarqandda shayx ul-islom lavozimini egallagan². Keyingi davrlarda uning asarlari Indoneziyadan Marokashgacha bo'lgan hududda katta shuhrat qozongan³. Ular hatto Misrdagi turkiy tilning qipchoq shevasiga va usmonli-turk tillariga tarjima qilingan⁴. Uning eng mashhur asari musulmon axloq qoidalari va didaktika masalalariga bag'ishlangan «Bo'ston al-orifin» («Donishmandlar bog'i») hisoblanadi. Balxlik mashhur ilohiyotchi Muhammad ibn Fazl (931-yilda vafot etgan) Samarqandda faoliyat olib borgan. U Abu Mansur al-Moturidiy va Abul Qosim Is'hoq ibn Muhammad Samarqandiyning ustozlari hisoblangan⁵.

XII asrda yashab ijod qilgan mashhur huquqshunoslar sifatida Bahouddin Samarqandiy (1140-yilda vafot etgan) va Nosiriddin Abul Qosim Muhammad ibn Yusuf as-Samarqandiy (1161-yilda vafot etgan)ni ko'rsatish mumkin. Nosiriddin as-Samarqandiy qalamiga mansub «Multaqati Nosiriy» asari XIII asr boshlarida ham Samarqand madrasalaridagi asosiy o'quv qo'llanmalaridan biri bo'lgan⁶. Samarqandliklar orasida balxlik huquqshunos Abu Bakr Varraq (903-yilda vafot etgan) ham shuhrat qozongan edi. U Abul Qosim Is'hoq ibn Ismoil al-Hakim Samarqandiy (953-yilda vafot etgan)ning yaqin do'sti bo'lgan⁷. Abul Qosim as-Samarqandiy huquqshunos va ilohiyotchi sifatida mashhur bo'lgan. U Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan⁸. U hanafiylik yo'nalishidagi mashhur huquqshunos va ma'lum vaqt Samarqandda yashab, ta'lim olgan Abu Bakr Kalabadiy Buxoriyning (X asr) ustozlari bo'lgan. Hadis ilmi bo'yicha unga Abul Nasr Rashodiy (950–951-yilda vafot etgan) ustozlik qilgan edi⁹. Xanafiylik yo'nalishidagi yirik huquqshunos,

¹ Qoriyev O. Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. 18-b.

² Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandi. Tanbehul-g'ofiliyn (G'aflatdan uyg'otish). Birinchi kitob. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri / Arab tilidan Dilmurod Qo'shoqov tarjimai. – Toshkent: Movarounnahr, 2003. 48-b.

³ Schacht J. Abu'l-Layth al-Samarqandi in The Encyclopedia of Islam. New edition. Edited by an editorial committee consisting of H.A.R.Gibb, J.H.Kramers, E.Levi-Provencal, J.Schacht. Volume 1. Leiden: E.J.Brill, 1986. P. 137.

⁴ Juan Ess. Abu'l-Lays Nasr B. Mohammad B. Ahmad Samarqandi in Encyclopedia Iranica, volume I, edited by Ehsan Yarshater, 1985. P. 7.

⁵ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 12-b.

⁶ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 20, 28–29-betlar.

⁷ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 14-b.

⁸ Madelung W. Abu'l-Qasem Eshaq B. Mohammad B. Esmail B. Ebrahim B. Zayd Samarqandi, Encyclopedia Iranica, volume I, edited by Ehsan Yarshater. 1985. P. 3.

⁹ Madelung W. Abu Bakr Kalabadi, Encyclopedia Iranica, volume I, edited by Ehsan Yarshater, 1985. P. 5.

Qur'oni karimga bag'ishlangan 110 jildlik sharhlarning muallifi Abdul Karim ibn Muso al-Bazdaviy (1010–1090-yy.) ham Samarqandda yashab ijod qilgan edi¹.

Mashhur huquqshunos Alouddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiy (1144/1145-yilda vafot etgan) Samarqandda tug'ilgan edi. Uning fiqh (musulmon huquqi) bo'yicha yozilgan asarlarining katta qismi saqlanib qolgan va hozirgi kunda ham ko'plab musulmon davlatlaridagi oliy o'quv yurtlarida o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilmoqda. Uning shogirdi va qizi Fotima Movarounnahr tarixidagi birinchi ayol-huquqshunos hisoblanadi².

Butun musulmon dunyosida mashhur bo'lgan olim-ilohiyotchi, buyuk fiqhshunos, ko'proq Burhoniddin al-Marg'inoniy (1123–1197-yy.) nomi bilan ma'lum bo'lgan Ali ibn Abu Bakr ibn Abu Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy ham Samarqandda yashab ijod qilgan edi. 1178-yilda u Samarqandda o'zining mashhur «Hidoya» asarini yozib tugatadi. Bu asar keyingi asrlarda musulmon huquqiy ta'limining konstitutsiyaviy negiziga aylandi³. Burhoniddin al-Marg'inoniyning avlodlari keyingi bir necha asrlar davomida Samarqandda yashadi, islom tafakkurining rivojiga katta hissa qo'shdi va muhim lavozimlarni egalladi. Ulardan biri Abulfath Zayniddin Abdurahim ibn Imomiddin al-Farg'oniy 1253-yilda Samarqandda sud tizimi bo'yicha asar yozgan edi⁴.

XII asrning yetakchi shifokorlaridan Badriddin Muhammad Samarqandiy «Kitob al-akrabazin»ning muallifi hisoblanadi⁵. Manbalarda qayd etilishicha, samarqandlik ko'z shifokori Zayn Qahhol Chingizxonni oftalmiyadan davolagan ekan⁶.

Islom davrida Samarqandga Yaman podshosi Shamir tomonidan asos solinishi yoki vayron qilinishi to'g'risidagi afsonalar keng tarqalgan edi. Abu Jafar Tabariy (839–923-yy.) musulmon tarixchilari orasida birinchi bo'lib Samarqandga Yaman podshosi Tubining o'g'li Shamirning yurishi to'g'risidagi afsonaviy hikoyani keltirgan edi. Shaharning nomlanishini uni

¹ Qoriyev O. Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos. ... 19-b.

² Камиллов М. Ас-Самарканди // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Выпуск 3. – Москва, 2001. С. 87.

³ Саидов А. Важнейший памятник шариа́та мусульманского мира // Хидоя. Комментарий мусульманского права. Т.1. – Ташкент, 1994. С. 42.

⁴ Abdullhakim Shar'iy Juzjoniy. Burhoniddin Marg'inoniy // O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob. – Toshkent, 2010. 210-211-betlar.

⁵ Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. С. 99.

⁶ Shixab ad-din an-Nasavi. Sirat as-sultan Djalal ad-din Mankburny. ... S. 81–82.

Shamir tomonidan vayron etilishi bilan bog'laydilar. Tabariy esa boshqa joyda shaharga Shamir tomonidan asos solinganligini yozadi¹. Manbalarda qayd etilishicha, Yaman podshosi Shamir eramizning III asrida yashagan², Samarqand nomi esa tarixchilar tomonidan ancha ilgari tilga olingan. Shuning uchun bu afsonaning paydo bo'lishi arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari davriga borib taqalishi mumkin. Arab qo'shinlari safida bo'lgan yamaniylar qabilasi vakillari Shamir to'g'risidagi afsonani uzoq Arabistondan bu yergacha olib kelgan bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Keyinroq bu afsona islom davri tarixshunosligida katta mashhurlikka erishgan.

Samarqandning fan va madaniyatning yirik markazlaridan biri sifatidagi shuhrati musulmon dunyosining turli mamlakatlaridan yetakchi olimlar, shoirlar va ziyolilarni jalb etgan.

Samarqand tarixi sahifalarida buyuk shoir va olim Umar Xayyomning (1048–1131-yy.) nomi ham saqlanib qolgan. XI asrning 70-yillarida Umar Xayyom shaharning bosh qozisi Abu Tohir Abdul Rahmonning taklifi bilan Samarqandga keladi va qoraxoniylar sulolasining vakili Shams ul-Mulkka tanishtirilgan edi. Umar Xayyom aynan Samarqandda o'zining algebra bo'yicha eng ahamiyatli asarlaridan birini yaratgan³.

Taxminlarga ko'ra, Umar Xayyom Samarqandning hozirga qadar mavjud bo'lgan G'otfar mavzeyida istiqomat qilgan.

XII asr boshlarida Samarqandda zamondoshlari tomonidan Nizomiy Aruziy (Aruzshunos) deb atalgan Ahmad ibn Umar ibn Ali tug'ilgan⁴. U tomonidan «Nodirlar to'plami yoki to'rt suhbat» nomli asar yaratilgan edi. Nizomiy Aruziy Umar Xayyomning zamondoshi va suhbatdoshi bo'lgan va uni o'zining ustozlari deb hisoblagan.

Tadqiqotchilarning hisoblashicha, Nishopur to'g'risidagi o'rta asr nomalaridan keyin Xuroson va Movarounnahr shaharlari tarixi bo'yicha nisbatan muhim va yagona manba Samarqand tarixi bo'yicha manbalardir⁵. Samarqandning ilk tarixi Samarqandda yashagan va 1015-yilda shu yerda

¹ The history of al-Tabari. (Tarikhal-rusul wa'l-muluk). Volume V. The Sasanids, the Byzantines, the Lakhmids, and Yemen. Translated and annotated by C.E.Bosworth. State university of New York press, 1999. P. 143, 144, 177.

² Там же. P. 176–177.

³ Elwell-Sutton L.P. Introduction in Ali Dashti, In search of Omar Khayam Translated from the Persian by L.P. Elwell-Sutton London. GeorgeAllen & UnwinLtd, 1971. P. 12.

⁴ Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы / Перевод с персидского С.И. Баевского, Э.Н. Ворожейкиной. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. С. 3.

⁵ Paul Jurgen. The histories of Samarqand // Studia Iranica, 22, 1993. P. 70.

vafot etgan Abu Sa'd Abdul Rahmon ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Idrisiy al-Astrobodiy tomonidan yozilgan edi. Afsuski, uning asari bizgacha yetib kelmagan. Uning asosida mashhur olim Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (1068/1070-1142-yy.)ning kitobi yozilgan bo'lib, bu asar qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. An-Nasafiy Nasafda tug'ilgan bo'lsa-da, umrining ko'p qismini Samarqandda o'tkazgan va vafot etgach, Chokardiza qabristoriga dafn etilgan¹. Olim o'zining «Al-qand fiy zikri ulamoyi Samarqand» asarida mazkur shaharda tug'ilgan, yashagan yoki qaysidir jihatdan hayoti shu Samarqand bilan bog'liq bo'lgan 1010 nafar olimning tarjimai holini keltirib o'tgan edi. Shuningdek, asarda Samarqanddagi ko'plab mavzalar, ko'chalar, maydonlar va mozorlarning nomlari sanab o'tilgan.

Qoraxoniylar sulolasining vakili Ibrohim ibn Husayn (1178-1202-yy.)ning saroyida Movarounnahrning ilmiy va adabiy markazlaridan biri shakllangan edi. Masalan, bu davr ilmiy elitasining vakili – tarixchi Majididdin Muhammad ibn Adnan as-Surxakatiy tomonidan Samarqandda qoraxoniylar sulolasining tarixi bayon etilgan «Turkiston tarixi» asari yozilgan. Mazkur asar Samarqand hukmdori Qilich Tamg'achxon Ibrohim ibn Husaynga bag'ishlangan². Afsuski, mazkur asarning qo'lyozmasi bugungi kunga qadar saqlanmagan. Mashhur tarixchi, shoir va yozuvchi Muhammad Avfiy (1172/1177-1233-yy.) ham ma'lum vaqt Samarqandda istiqomat qilgan edi.

XIII asr boshlarida samarqandlik mashhur ilohiyotchi va fiqhshunos, «Al-Irshod» va «An-Nafais» asarlarining muallifi Rukniddin al-Amidiy (1218-yilda vafot etgan) nomi Ibn Xallikonning to'rt jildlik biografik lug'atida tilga olingan³.

XIII asrning yirik matematigi Shamsiddin (1291-yilda vafot etgan) geometriya va falsafa bo'yicha asarlar yozgan. Uning mantiq bo'yicha asari «Risola fi odob al-bahs» boshqa musulmon mamlakatlari, masalan, Eron, usmoniylar davlatida mashhur bo'lgan. Keyinroq, mashhur astronom Qozizoda Rumiy uning geometriya bo'yicha asariga sharhlar yozgan edi⁴.

XIII asrning mashhur shifokori Najibiddin Samarqandiy (1222-yilda Hirotda halok bo'lgan) asari hisoblanmish «Al-asbob va al-alomat»

¹ *Rahimjonov D. Abu Hafs Umar an-Nasafiy // O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob. - Toshkent, 2010. 253-268-betlar.*

² *Introduction to The Jawami u'l-hikayat wal awami'ur-riwayat of Sadidu'u-din Muhammadal-Awfi by Muhammad Nizamu'd-din. London: Luzac & Co, 1929. P. 44.*

³ *Ibn Khallikan's biographical dictionary. Translated from the Arabic by Mac Guckin de Slane. Volume II. Paris, 1843. P. 660-661.*

⁴ *Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 39-40-betlar.*

musulmon Sharqida katta shuhrat qozongan edi. 1424-yilda Mirzo Ulug'bekning topshirig'i bilan bu asarga sharh yozilgan¹.

Mo'g'ullar bosqini ko'plab olimlar va shoirlarning halok bo'lishiga, Samarqand kutubxonalarining yakson etilishiga olib keldi. Olim va ulamolarning ko'pchiligi o'z jonlarini saqlash uchun vatanini tark etishga majbur bo'lishgan. Ularning orasida Muhammad Avfiy va ehtimol, Mosulda tug'ilgan mashhur matematik, faylasuf va astronom Abxariy Samarqandiyning ota-onalari ham bo'lgan.

XII asrdan she'riyatning ayrim yo'nalishlari rivojiga tasavvuf tariqatlari g'oyaviy jihatdan katta ta'sir ko'rsatgan². Bu davrda Samarqandda fors-tojik she'riyati keng taraqqiy etgan. Samarqandda qoraxoniylar Tamg'ach Ma'sud uchun 1160-yilda Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hasan Zohiriy Samarqandiy tomonidan fors-tojik badiiy prozasining yodgorligi hisoblangan «Sindbadnoma»ning yangi nashri tayyorlangan edi³.

Qoraxoniylar davrida turkiy adabiyot muvaffaqiyatli rivojlanib, uning namunalari sifatida «Qutadg'u bilig», «Hibbat ul-haqoyiq», «Devonu lug'otit turk» va boshqa adabiy yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, «Qutadg'u bilig» asarida qadimgi turkiy, fors va tasavvuf adabiyoti an'analari bir-biriga qorishib ketgan⁴. Bu davrda shaharlarni turkiycha nomlash keng qo'llanila boshlangan. Masalan, XI asrda yashagan Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, «Samarqand o'zining kattaligi bois Semizkand – semiz shahar» deb ham nomlangan⁵.

Tadqiqotchilar tomonidan islom davri O'rta Osiyo san'atida islomgacha bo'lgan ayrim an'analarning saqlanib qolganligi qayd etilgan. Masalan, somoniylar davri me'morchiligida sug'diycha namunalarni takrorlagan ustunlar shakli keng yozilgan. Shuningdek, sug'diycha bezaklar somoniylar davri kulolchiligi va to'qimachiligi bezaklariga katta ta'sir ko'rsatgan edi. IX–X asrlar amaliy san'atida ham sug'diycha an'alar saqlanib qolgan⁶.

¹ Abdullayev I., Hikmatullayev X. Samarqandlik olimlar. ... 40–41-betlar.

² Полякова Е.А., Рахимова З.И. Миниатюра и литература Востока. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987. С. 29.

³ Энциклопедия персидско-таджикской прозы. – Душанбе: Главная научная редакция таджикской советской энциклопедии, 1986. С. 5.

⁴ Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – Санкт-Петербург: Наука, 2006. С. 497.

⁵ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Tom 1. / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. – Toshkent, 1960. 330-b.

⁶ Абдуллаев Д. О культурном наследии Согда в мусульманской Средней Азии. ... С. 176–177.

XI asrda Samarqandda, shahar istehkomining quyi qismida qoraxoniylar Ibrohim ibn Husayn (1178–1202-yy.) tomonidan saroy qurdirilgan edi. Saroy to'rt tomoni ayvonli, markaziy qismi esa ochiq hovlidan iborat bo'lgan. Qazishmalar vaqtida bu yerda monumental rangtasvir lavhalar topilgan. Xususan, saroyning sharqiy devorida sariq kaftan kiygan va qo'lida kamon tutgan turk jangchisining surati chizilgan. Bu yerda, shuningdek, otlar, inson yuzi, sariq va qizil ranglardagi ikki ovchi it va bir-biri bilan urushayotgan ikki qushning tavsirlari ham topilgan. Ehtimol, qoraxoniylar saroyining devorida qandaydir saroy marosimi tasvirlangan bo'lsa kerak¹.

Samarqandning nomi Xitoy sayyohlari tomonidan *Semisigan* shaklida keltirilgan². Aftidan, bu turkiycha *Semizkand* nomining xitoycha talqin qilinishidan kelib chiqqan.

Mo'g'ullar tomonidan ulkan imperiyaga asos solinishi turli mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishiga omil bo'lgan bo'lsa-da, Samarqand uchun mo'g'ullar bosqini salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Shaharning vayron etilishi, uning sug'orish tizimining yo'q qilinishidan tashqari, mintaqadagi siyosiy beqarorlik va o'zaro urushlar shaharning keyingi taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazdi. Buyuk ipak yo'lining Samarqand orqali o'tgan asosiy tarmog'i XIII asr o'rtalaridan boshlab shimolga ko'chdi va buning natijasida shahar asosiy daromad manbayidan mahrum bo'ldi.

Samarqandning qadimiy sug'orish tizimi mo'g'ullar tomonidan buzib tashlanishi natijasida Afrosiyob hududidagi shahar qayta tiklanmagan. Natijada Samarqandning markazi janubga siljiy boshladi.

Hozirgi Registon majmuasidan janub tomonda yangi jome masjidi barpo etilgan. Uning yonida jamoat maydoni tashkil etilib, keyinroq Registon nomini oldi. Samarqandning katta bozori ham shu yaqin atrofda bo'lgan. Biroq eski istehkom mo'g'ullar tomonidan buzib tashlanganligi sababli shahar istehkomsiz qolgan edi.

Ulkan qurbonlar va yo'qotishlarga qaramasdan, samarqandliklar o'zlarining eng yaxshi fazilatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar. XIV asr birinchi yarmi muallifi Ibn Battuta Samarqand va samarqandliklar to'g'risi-

¹ Karev Yury. Qarakhanid wall paintings in the citadel of Samarqand: first report and preliminary observations in Muqarnas. Annual on the visual culture of the Islamic world. Editor Gufu Necipoglu. Volume 22. Leiden-Brill, 2005. P. 46–83.

² Си Ю Цзи или описание путешествия на Запад. Перевел с китайского, с примечаниями архимандрит Палладий // Труды членов Российской духовной миссии в Пекине. Т.4. – СПб., 1866. С. 310.

da quyidagilarni yozib qoldirgan edi: «Daryo bo'ylab Samarqand aholisi-ning yuksak ustakorligini namoyish etuvchi hashamatli saroylar va binolar qad rostlagan. Biroq bu binolar va shaharning katta qismi xarobaga aylanib qolgan. Bu yerda devorlar ham, darvozalar ham yo'q. Shaharning ichida faqat bog'lar saqlanib qolgan. Samarqand aholisi bag'rikeng va kelgindilarga nisbatan do'stona munosabatda»¹.

Diniy vaziyat. IX–XIII asrlarda Samarqandda turli e'tiqod vakillari: musulmonlar, xristianlar, moniylar, yahudiylar va boshqalar tinch-totuv yashab kelishgan. Somoniylar sulolasi vakillari rasman hanafiya mazhabida bo'lsalar-da, shofe'iylik mazhabi vakillarini siquvga olmaganlar².

X–XI asrlarda Samarqandda zardushtiylar jamoasi ham saqlanib qolgan bo'lib, arab manbalarida ular majusiylar, fors manbalarida mug'lar deb nomlangan³. Shunisi e'tiborliki, islomda va zardushtiylikda poklanish amallari deyarli bir-biriga mos keladi⁴.

VIII–IX asrlarda abbosiylar xalifaligida moniychilarga qarshi shafqatsiz qatag'onlar amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da, An-Nadimning ma'lumotlariga ko'ra, X asrda Samarqandda Moniyning izdoshlari istiqomat qilgan va ular moniy yozuvidan foydalanishgan⁵. Xalifa Muqtadir davrida 500 nafar moniy shaharga ko'chib joylashgan⁶. X asr oxirida Samarqandda moniylar ibodatxonasi faoliyat ko'rsatgan⁷. Tadqiqotchilar Isbiskat qishlog'i (taxminan Pastdarg'om tumani joylashgan) va darvozasi, Samarqandning Isbask mavzeyi nomlarini, moniylar o'z yepiskoplarini «espasag» deb nomlashganidan kelib chiqib, moniylik bilan bog'lashadi⁸. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, «islom mamlakatlarning birontasida

¹ Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – Москва, 1988. С. 92–94.

² Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 233.

³ Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 211.

⁴ Крюкова В. Смерть и похоронный обряд в зороастризме // Хисматуллин А.А., Крюкова В.Ю. Смерть и похоронный обряд в исламе и зороастризме. – Санкт-Петербург: Центр «Петербургское востоковедение», 1997. С. 170.

⁵ The Fihrist of al-Nadim. A tenth-century survey of muslim culture. Bayard Dodge editor and translator. Volume 1. New York & London. Columbia university press, 1970. P. 32.

⁶ The Fihrist of al-Nadim. A tenth-century survey of muslim culture. ... P. 802–803.

⁷ Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. – Москва, 1992. С. 525.

⁸ Лурье П.Б. О следах манихейства в Средней Азии // Согдийцы, их предшественники, современники и наследники: на основе материалов конференции «Согдийцы дома и на чужбине», посвященной памяти Б.И.Маршака. – Санкт-Петербург: Издательство Государственного Эрмитажа, 2013. С. 229–230.

ular (moniyalar) markazlashgan joyning o'zi yo'q; ularning jamoasi faqat Samarqandda mavjud va (a'zolari) sabiyalar deb nomlanadi»¹.

X asrda Samarqand viloyatining Urgut tumanida Vazkard nomli xristian manzili bo'lgan² va bu yerda xristian cherkovi ishlab turgan³. Bu yerda Ibn Havqal kelib chiqishi iroqlik bo'lgan xristianlarni uchratgan edi⁴. 1046-yilda Samarqandda nestorian mitropoliyasi o'z mavjudligini davom ettirgan⁵. 1248-yilda Samarqandda bo'lgan arman podshosi Gaytonning ukasi Sembatning yozishicha, shaharda xristian cherkovi va Iso hamda uch avliyoning rasmi tushirilgan surat bo'lgan⁶.

XII asrda Samarqandda bo'lgan sayyoh Benyamin Tudelskiy orasida olimlar va boy kishilar ko'p bo'lgan yahudiylar jamoasini tilga olgan edi⁷.

Samarqanddagi Navbahor darvozasining nomi qachonlardir bu hududda buddaviylik monastiri bo'lganligidan darak beradi⁸. Bunday nomdagi darvoza Buxoroda ham bo'lgan. Balxda esa VIII asr boshlarida tilga olingan⁹ butparastlarning binosi Navbahor deb nomlangan¹⁰.

Xulosa. Shunday qilib Samarqand shahri asos solingan vaqtdan boshlab Amir Temur davriga qadar o'z tarixida murakkab va qarama-qarshi jarayonlarni boshdan kechirgan.

Sug'ddagi urbanizatsion jarayonlarning tamallari ilk temir davriga borib taqaladi. Bu yerda shahar madaniyatining taraqqiyoti mahalliy an'analar, shuningdek, Baqtriya madaniyatining ta'sirida ro'y bergan. Shahar savdo

¹ *Абу Рейхан Бируни. Памятники минувших поколений / Перевод и примечания М.А. Салье. Избранные произведения. Т.1. – Ташкент, 1957. С. 213.*

² Vazkard taxminan Samarqand viloyati Urgut tumani Sufyon qishlog'idagi xristian cherkovi o'rnida bo'lgan (Qarang: *Раимкулов А.А. Из истории древних религий Самарканда (христианство) // Роль Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент-Самарканд: Фан, 2007. С. 83).*

³ *Буряков Ю.Ф. Христианство на Великом шелковом пути // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994. С. 24.*

⁴ *Бенгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн-Хаукаля. ... С. 141.*

⁵ *Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. ... С. 290.*

⁶ *Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. ... С. 570.*

⁷ *Три еврейских путешественника. – Москва: Мосты культуры, 2004. С. 160–161*

⁸ *Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 214.*

⁹ *Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. ... С. 214.*

¹⁰ *«История» ат-Табари. Избранные отрывки / Перевод В.И. Беляева. Дополнения О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. С. 123, 421.*

yo'llarining chorrahasida vujudga keldi va metallurgiya bazasi va yetarli darajadagi suv manbalariga ega bo'lganligi sababli izchil rivojlanib bordi. Bunda shahar aholisining dasht dunyosi bilan o'zaro munosabatlari ham rol o'ynagan. Samarqand shahrining ahamiyatli o'lchamlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bu yerda bunday katta qurilishlarni amalga oshirishga imkon yaratgan ilk davlatchilik belgilari ham bo'lgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, arablar bosqini Sug'ddagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatmagan. Ko'proq o'zgarishlar siyosiy sohada, jamiyatning alohida guruhlari ijtimoiy-huquqiy holatida sodir bo'lgan. Biroq bu vaziyat arablar bosqinining dastlabki o'n yilliklari uchun xususiyatli bo'lib, keyinroq Sug'd xalifalikning keng ko'lamli iqtisodiy aloqalari jarayoniga tortilgan edi.

Mintaqaga islomning kirib kelishi mahalliy aholining madaniyati va san'atida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Sug'd madaniyatining markazi – Samarqand islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylandi va yetakchi rollardan biriga ega bo'ldi.

XI–XII asrlarda Samarqandda kamida uchta diniy-ma'rifiy markazlar shakllangan edi. Bulardan birinchisi, shaharning shimoliy qismida, uning markazida katta jome masjidi bo'lgan. Masjidning yonida esa qoraxoniylar sulolasi vakillari dafn etilgan maqbara joylashgan. Ikkinchisi, shaharning janubiy qismida payg'ambarimizning amakilari Qusam ibn Abbosning maqbarasi bo'lib, XI asrdan boshlab uning atrofida shaharning dunyoviy va diniy elitasi vakillari dafn etila boshlangan. Uchinchi markaz esa, Qusam ibn Abbos maqbarasidan janubda joylashgan Chokardiza qabristoni bo'lib, bu yerga ham mashhur islom ilohiyotchilari dafn etilgan. IX–XIII asrlarda shaharlarning asosiy markazi jome masjidi hisoblangan.

Mo'g'ullar bosqini madaniy rivojlanishga ulkan zarba berdi, Samarqandning iqtisodiy asoslarini qo'porib tashladi. Demografik yo'qotishlar ham o'nglab bo'lmas darajada edi. Faqat Amir Temurning sa'y-harakatlari bilan shahar nafaqat qayta tiklandi, balki qaytadan musulmon dunyosidagi ahamiyatli markazlardan biriga aylandi.

V bob.
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA
SAMARQAND

1-§. Samarqand Amir Temur va Temuriylar davlati poytaxti

Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336–1405) asos solgan davlat dastlab Movarounnahr va Xorazmda vujudga kelgan bo'lib, 1380–1402-yillarda Temur tomonidan olib borilgan urushlar natijasida kengayib, Eron, Iroq, Ozarbayjon va Hindistonning shimoliy qismigacha yoyildi.

Amir Temur davrida kuchli markazlashgan davlat uning vafotidan so'ng mayda uluslarga bo'lingan holda boshqarilgan. Amir Temur hukmronlik qilgan yillari uning davlatiga qarashli o'lkalar to'rt qismga bo'lingan: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) – Shohruxga; G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) – Mironshohga; Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) – Umarshayxga; Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan¹.

1370-yil hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur ko'p o'tmay Samarqandni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Temuriylar davrida ham to poytaxt shayboniylar tomonidan Buxoroga ko'chirilgunga qadar Samarqand poytaxt bo'lgan. Samarqand shahri Turon davlatining poytaxti sifatida XIV–XV asrlar o'z taraqqiyotining gullagan davrini boshdan kechirdi. Bu haqda o'sha davrda yozilgan tarixiy manbalarda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu davrda shahar qiyofasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot misli ko'rilmagan darajada yuksaldi².

¹ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. 137–140-betlar.

² Bu haqda qarang: *Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan Y.Hakimjonov tarjimai.* – Toshkent: O'zbekiston, 1996; *Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari: A.Ahmedov, H.Bobobekov.* – Toshkent: Sharq, 1997; *Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn. II jild, birinchi qism. 1405–1429-yillar voqealari / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi A. O'rinboyev.* – Toshkent: O'zbekiston, 2008; *Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn. II jild, ikkinchi va uchinchi qismlar. 1405–1429-yillar voqealari / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi A. O'rinboyev.* – Toshkent: O'zbekiston, 2008; *Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi G'ulom Karimiy.* – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

Qulay geografik mintaqada joylashgan Samarqand qit'alararo o'tadigan Buyuk ipak yo'lining tarixiy chorrahasi edi. Bundan tashqari, Samarqandning mo'tadil havosi, zilol suvlari, unumdor tuprog'i, betakror tabiati, mard va shijoatli xalqi ham Amir Temurning diqqatini o'ziga tortgan.

Amir Temur Samarqandga kelganida, bu yerda mo'g'ullar istilosidan na mudofaa devorlari va na biror-bir hashamatli bino saqlanib qolgan edi. Chingizxon boshchiligidagi bosqinchilar Samarqandning qadimgi o'rni – Afrosiyobni shu darajada vayron qilgan ediki, u yerda hayot kechirishning imkoni yo'q edi. Bu bosqindan omon qolgan aholi shaharning janubidagi rabodda istiqomat qilardi. Amir Temur Chingizxon buzgan Afrosiyobni qayta tiklashdan ko'ra yangi shahar bunyod qilishni ma'qul ko'radi¹.

1370-yilning kuzida Amir Temur Samarqandda katta qurultoy chaqiradi va unga barcha amirlar, beklar, lashkarboshilar, olim-u ulamolar, shariat peshvolarini chorlaydi. Qurultoyda milliy davlatchilikni qayta tiklash va rivojlantirish bilan bog'liq muhim masalalar muhokama qilinadi. Qurultoyda poytaxt Samarqandda amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarga ham alohida e'tibor beriladi. Shu bois amir Dovud devondagi mansabiga qo'shimcha ravishda Samarqand dorug'asi etib tayinlanadi. Amir Oqbug'o Samarqanddagi qurilishlarga ketadigan xarajatlar bo'yicha mutasaddi etib tayinlanadi. Amir Temur bunyod qilinadigan shahar atrofini baland va mustahkam mudofaa devori bilan o'rash haqida farmon chiqargan. 1370-yilning o'zidayoq shahar devori va davlat qarorgohi – Ark va qal'a qayta tiklandi, saroy va qasrlar bino qilindi².

Amir Temur Samarqandni qayta qurishda, shahar istehkomlari, uning obodonchiligi, farovonligi va xushmanzaraliligiga alohida e'tibor bergan. Davlatni boshqarish uchun devonxona – Arki a'lo zarurligini yaxshi bilgan buyuk zot uni shaharning g'arbiy tomonidagi tepalik ustida barpo qilishga kirishadi. O'ttiz to'rt gektar maydonni egallagan ark ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Mudofaa devorining tashqi tomonidan chuqur va keng xandaq qazilib, u Novadon arig'ining suvi bilan to'ldirilgan. Arkning ichki hududi ikki qismga ajratilgan bo'lib, uning shimoliy tomonida ma'muriy binolar hamda harbiy maqsadda foydalaniladigan inshootlar joylashtirilgan. Janubiy qismida esa zodagonlarning turar joylari qad rostlab turgan. Bu haqda Ibn Arabshohda ham ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Amir Temurning ushbu shaharni bejiz o'z davlatining

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. Kitob-albom / Mas'ul muharrirlar: T. Shirinov, Sh. Pidayev, M. Qarshiboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. 272-b.

² Berdimurodov A., Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo'li (qit'alar va asrlar osha). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 61–62-betlar.

poytaxti sifatida tanlamaganligi qayd etiladi. Shaharning muhim savdo markazida joylashganligi va mo'tabar joylardan ekanligi alohida qayd etiladi. Shuningdek, Amir Temur har safar harbiy yurishlardan qaytgandan so'ng shaharda noibni o'zgartirib, tartib-intizomni yanada qattiq nazoratga olib, poytaxtni qayta qo'lga kiritganday shahar boshqaruvda islohotlar o'tkazar edi¹.

Amir Temurning bunyodkorlik ishlari xususida manbalarda ham ma'lumotlar keltirilgan. Arkning ichida Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy nomli ikki ajoyib, hashamatli qasr ko'kka bo'y cho'zgan. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, uning moviy gumbazi uzoq-uzoqlardan ko'rinib turgan. Ko'ksaroy haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida bunday yozadi: «Temurbek solg'on oliy imoratlardan biri Ko'ksaroydurkim, Samarqandning Arkida voqe' bo'lubtur. Ajab xosiyatliq imorattur. Temurbek avlodidin har kim bosh ko'tarib taxtqa o'ltursa ham munda o'lturur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yar, hattokim, kinoyati bo'lub erdikim, falon podshohzodani Ko'ksaroyg'a chiqardilar, ya'ni o'lturdilar»².

Ko'ksaroyda Amir Temurning taxti, xazinasini va boy kutubxonasi joylashgan. Bu yerda Sohibqiron xorijdan kelgan elchilarni hamda saroy a'yonlarini qabul qilgan. Amir Temurdan keyin ham Ko'ksaroy temuriy hukmdorlar uchun rasmiy saroy vazifasini o'tagan.

Samarqand shahri bosh reja asosida qurilgani bois Bo'stonsaroy, Ko'ksaroy, Qutbi Chahordahum, Ruhobod va Amir Temur maqbarasi, Muhammad Sulton madrasasi va xonaqohlari bir qatorda joylashgan. Bu binolarning yuksak va mahobatli ko'rinishi Samarqandga alohida ko'rk-utarovat, ulug'vorlik bag'ishlagan. Tarixiy manbalarda shaharda maydonlar, hovuzlar, favvoralar, ko'chalar, masjid va madrasalar barpo qilingani haqida ma'lumot beriladi. Samarqand shahristoni ham mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shaharga oltita darvoza orqali kirilgan. Mudofaa devorlarining shimoliy qismida Shayxzoda va Temir darvoza – «Ohanin» bo'lgan. Sharqiy tomonda esa Feruza darvozasi qurilgan³.

Amir Temurning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan Samarqandda 20 dan ziyod mahobatli me'morlik inshooti barpo qilingan. Bu inshoot-

¹ *Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Temur tarixida taqdir ajoyibotlar). 1-kitob / So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan. – Toshkent: Mehnat, 1992. 84–86-betlar.*

² *Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev va Eyji Mano nashrlari asosida qayta nashrga tayyorlovchi: Saidbek Hasanov. – Toshkent: Sharq, 2002. 54-b.*

³ *Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. Kitob-albom. Mas'ul muharrirlar: T.Shirinov, Sh.Pidayev, M.Qarshiboyev. – Toshkent: «O'zbekiston», 2007. 104-b.*

larning loyihasini shaxsan Amir Temurning o'zi ko'rib chiqib, zarur o'zgartirishlar kiritgani, loyihalar mukammal holatga keltirilganidan so'ngina tasdiqlangani to'g'risida Sharafiddin Yazdiy va Nizomiddin Shomiy kabi tarixchilar qayd etganlar. Amir Temur tomonidan 1403-yilda bunyod etilgan Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir), 1399–1404-yillarda Amir Temur buyrug'i asosida qurilgan Bibixonim jome masjidi va maqbarasi, asosan 1375–1435-yillarda qayta bunyod etilgan Shohizinda maqbaralar majmuyi, temuriy Abu Said (1451–1469) va Sulton Ahmad Mirzo (1469–1494) davrida qurilgan Oqsaroy, temuriylar davriga oid Xo'ja Abdi Berun yodgorligi, Ishratxona, Ruhobod, 1424–1428-yillarda qurilgan «Ulug'bek rasadxonasi»¹, Qutbi Chahordahum kabi maqbara majmualari, saroy va Bo'stonsaroy singari qasrlar shaharga salobat bag'ishlagan.

Amir Temurning sharq shaharsozligiga kiritgan yana bir katta yangiligi Samarqandning ichkari va tashqarisida bir-biridan go'zal bahavo 12 ta bog'-saroy barpo qilinganida yaqqol ko'rinadi. Bu bog'larning markazida hashamatli ko'shklar ham barpo qilingani uchun ular bog'-saroylar, deb atalgan. Bog'-saroylarning nomlari, joylashgan o'rni va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar, asosan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va ispan elchisi Klavixo asarlarida qayd etilgan.

Sohibqiron Samarqand atrofida ko'pgina go'zal bog'lar bunyod ettirdi. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan barpo etilgan Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Bihisht, Bog'i Baland, Davlatobod, Bog'i Nav, Bog'i Shamol, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Maydon kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining namunalaridandir. Tuzilishiga ko'ra bog'lar ikki turda bo'lgan. Birinchi turdagi bog'lar har tomoni taxminan bir km masofaga cho'zilgan to'rtburchak shakldagi chorbog'lar bo'lib, ikkinchi turdagilari esa tabiiy daraxtzor, butazor va o'tloq maysazorlarda barpo etilgan qo'riqxonalaridir. Bunday qo'riqxonalar hukmdorlarning ov (shikor) qilishi uchun mo'ljallangan. Qo'riqxonaning o'simlik va hayvonot dunyosi, shubhasiz, nihoyatda boy bo'lgan.

Amir Temur Samarqandning shimolidagi Cho'ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan bog' Bog'i Baland deb nomlanadi. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog'dorchilik san'ati ustalari hamda me'morlari qatnashgan². Bog' o'rtasida

¹ Yunusov M., Saidov M. O'zbekiston me'moriy yodgorliklari. – Toshkent: Navro'z, 2018. 33–87-betlar.

² Нелцева Н.Б. Стратиграфия южной окраины Афрасиаба. Афрасиаб. Вып. I. – Ташкент, 1969. С. 153–205.

Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo'lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar boqqa go'zal bir tarovat baxsh etib turgan.

Amir Temur Samarqandning g'arbida suyuqli xotini Tuman bog'a (Xayrunniso)ga atab qurdirgan (1378) bog' Bog'i Behisht deb atalgan. Yozma manbalarda bog' «Bog'i Jannat» nomi bilan ham mashhur. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog' o'rtasidagi atrofi handaq bilan muhofaza etilgan sun'iy tepalik ustida oq marmardan qurilgan hashamatli saroy bo'lgan. Saroyga bir necha ko'tarma ko'priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog'chasi ham bo'lgan.

Bog'i Davlatobod esa Amir Temurga u Hindiston yurishidan qaytgan kuni - 1399-yil 22-aprelda hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlar (I.A. Suxarev, 1936 va O'.Alimov, 1967)ga ko'ra, u Samarqanddan 13 km. janubda, Katta O'zbekiston traktining chap tomonida joylashgan. Amir Temur bu bog'da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o'tkazgan, elchilarni qabul qilgan².

Amir Temur xotinlaridan biri - To'qalxonim sharafiga 1397-yilda barpo etilgan bog' Bog'i Dilkusho (Ko'ngil ochuvchi bog') deb atalgan. U Samarqanddan 5 km. sharqda, Panjakent yo'lining o'ng tomonida (qadimgi Hinduvon qishlog'i o'rnida) joylashgan. Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o'ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo'lgan. Saroy uch qavatli bo'lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo'yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoni ana shu bog'da qabul qilgan³.

Shuningdek, 1397-yilda Amir Temur tomonidan nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab bunyod etilgan Bog'i Shamol, 1398-yilda barpo etilgan Bog'i Jahonnamo (Jahon ko'zgusi), Bog'i Maydon⁴, 1404-yilda qurilgan Bog'i Nav (Yangi bog') va Bog'i Chinor⁵ kabi bog'lar Samarqand shahrining ko'rkiga ko'rk bag'ishlagan.

¹ Пачос М.К. К изучению стен городища Афрасиаб / СА. 1967, №1. С. 60-73.

² Сухарев И.А. Дворец сада Тимура Давлат-абад // Труды УзГУ. Новая серия, №14. История, вып. 2. 1940. С. 16; Массон М.Е. Местонахождении сада Тимура Давлатабад / Отдельный оттиск известия Средазкомстариса, вып. 3. - Ташкент, 1928. С. 44.

³ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). ... 179-190-betlar.

⁴ Сухарева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (ку, махалла, гузар) // Народы Азии и Африки. 1965, №6, С. 101-104.

⁵ Toshpulatov Y., Jo'raqulov Q., Tursunova I. Shaharlar iqlimini mo'tadillashtirishda manzarali daraxtlarning ahamiyati // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil. № 1. 34-b.

Amir Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Movarounnahr, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat beradi. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Shu maqsadda hindistonlik yuzlarcha mohir g'isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari qatorida shu yerlik ustalar mamlakatda ulug'vor serhasham imorat-u inshootlar bino qiladilar. Sohibqiron Tabrizda Jome masjidi, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qildirdi. U o'zining saxovati va himmatini, xususan, Shahrisabz va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda ko'rsatdi. Shahrisabzda otasi va o'g'li Jahongirning qabrlari ustiga maqbara barpo etib, jome masjidi qurdirdi. Shahrisabzda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Bu muhtasham oliy imorat peshtoqi, toq-u ravoqlari, gumbaz-u devorlari zangori va oltin rangdagi naqshli koshinlar, guldor o'ymakor parchinlar esa oyat-u turli mazmundagi bitiklar bilan ziynatlandi. Qurilishi 1380-yillarda boshlangan Sohibqironning Shahrisabzdagi qarorgohi – Oqsaroyning koshinkor va parchinkor peshtoqi guldor naqshlari orasiga «Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, qurgan imoratlarimizga boq» degan xitobnoma bitilgan¹. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Bu ko'hna dunyo tarixida qator jahongirlar hukmronlik qilib o'tgan. Ularning aksariyati o'zidan faqat kultepaga aylangan vayronalarnigina qoldirgan. Ulardan farqli o'laroq, Amir Temur umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning «Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim», degan so'zlari buning yorqin isbotidir².

Chingizxon bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri Sohibqiron davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda boshdan oyoq yangidan qayta qurildi. Shahar tevaragi Ohanin, Chorsu, Shayxzoda, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devori bilan o'rab chiqildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi – Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bino qilindi. Arkda Ko'ktosh deb yuritilgan taxt kursi o'rnatilgan ulkan miyonsaroy (zal)dan tashqari, davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi. Samarqandda masjid, madrasa va maqbaralar bilan bir

¹ Berdimurodov A., Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo'li (qit'alar va asrlar osha). ... 140-b.

² Muhammadjonov A., Rajabov Q. Amir Temur. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. 83–85-betlar.

qatorda ko'prik va hammomlar qurilgan, shahar tashqarisida esa qo'riqxonalar va bog'-rog'lar barpo etilgan. 1403–1404-yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsoles de Klavixo Amir Temur farmoni bilan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini kuzatib hayratda qolgan edi¹. Hozirda Bibixonim nomi bilan mashhur Jome masjidi va boshqa ko'pgina binolar aynan o'sha davrda qad ko'targan².

Klavixo o'z asarining «Samarqandning boyligi» qismida shunday yozadi: «Bu yurt don-dun, meva-cheva, parranda go'shti, boshqa har xil go'sht, qo'yingki hamma narsaga boy mamlakatdir. Qo'ylari katta, serdumba, juda yirik bo'ladi. Dumbasi odam qo'lida zo'rg'a ko'taradigan darajada og'ir – yarim pud, ya'ni dumbasi 8–10 kilo keladigan qo'ylar bor. Serdumbali qo'ylar shu qadar ko'p va arzon ediki, podshoh lashkari Samarqandga yig'ilib kelgan kezlarda bunday qo'ylardan bir juftining narxi 1 dukat turardi. Boshqa mollar ham shu qadar arzon, bir yarim fanega arpaning bahosi chamasi yarim real edi. Nonni suvtekin desa bo'ladi, guruch esa hammayoqni bosib ketgan edi. ... Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratomuz darajada mo'l-ko'l va boy edi. Mana shunday boyligi tufayli shahar Samarqand deb ataladi. Uning haqiqiy nomi Semizkent, ya'ni boy qishloq, demakdir. Samarqand ana shu nomdan kelib chiqqan»³.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda ko'rkam va muhtasham imoratlardan tashqari turli kasbdagi hunarmandchilik mahallalari barpo etilib, hunarmandchilik ustaxonalarining omilkor egalari uchun shart-sharoitlar yaratib berilgan edi. Bog'-saroylarni bezashda o'sha zamonning mohir va qo'li gul ustalari, naqqosh, duradgor va hunarmandlari, musavvir-larning xizmatlari katta bo'lgan. Bog'-saroylarning devorlariga Eron, Dashti Qipchoq va Hindistondagi jang lavhalari, Amir Temurga elchilar tomonidan sovg'a keltirish marosimlari, ov manzaralari va sayillar, bazm sahnalari chizilgan.

Amir Temur mamlakatni boshqargan davrda Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida qator sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi-yangi qishloqlar barpo etildi. Sohibqiron davlat poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari

¹ *Rui Gonsoles de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406-yillar). Rus tilidan Ochil Tog'ayev tarjimai. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. 193–194-betlar.*

² *Yunusov M., Saidov M. O'zbekiston me'moriy yodgorliklari. ... 33–40-betlar.*

³ *Rui Gonsoles de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. ... 199-b.*

bilan atadi. Zero, Samarqand o'zining katta va yangi shahar ekanligi, beqiyos go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan jahondagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Bu davrda poytaxt Samarqandda savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo etiladi. Shahar bilan dehqonchilik vohalari, chorvador ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi o'rtasida ayirboshlash, savdo aloqalari kengayadi. O'zaro savdoni kengaytirishda shahar aholisi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning ichki va tashqi savdosi kengayib, taraqqiy etishida Samarqand katta o'rin tutardi. Klavixoning ta'riflashicha¹, Samarqand bozorida bug'doy va guruch mo'l va arzon bo'lgan. Unda hunarmandchilik mahsulotlari: atlas kimxob, ip va jun to'qima mollari, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mahsulotlari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar shuningdek, o'zga mollar sotilgan. Poytaxtga chet el mamlakatlaridan, xususan, Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut va olmos, Xitoydan atlas, yashim (yashma) toshi, mushk va boshqa mollar, o'zga yerlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixo Xitoy poytaxti Xonbaliq (Pekin)dan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini o'z kundaligida qayd etgan.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand, alohida maqomiga ko'ra, davlat ichidagi davlatga o'xshar edi. Alohida muhtasiblar bozorlardagi tartib-qoidani, tozalikni, tarozi toshlarining to'g'riligini, narx-navoni nazorat qilib borgan. Yana bir guruh muhtasiblar esa shariat qonunlari bajarilishini va vaqf ishlarini kuzatib borgan. Shu bois ispan elchisi Klavixo quyidagilarni yozgan: «Samarqandda qonunga qattiq rioya qilinadi, janob (Amir Temur)ning ruxsatisiz bir kishi ikkinchi kishini xafa etishi yoki birovga nisbatan zo'ravonlik qilishi mumkin emas». Shuningdek, davlat rahbarining ruxsatisiz bozorda narx-navoni ko'targan savdogarlar ham jazolangan. Klavixo xotiralarida shunday keltiriladi: «...Bundan tashqari, o'zi yo'qligida go'shtning narxini oshirib sotgan bir qancha qassoblarni ham jazolashni buyurdi. Shuningdek, mollarga ortiqcha narx qo'yib sotishda ayblangan kafshdo'z, etikdo'z va boshqa bir qancha hunarmandlarning mablag'larining bir qismini musodara qilishni buyurdi»².

Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga tomon yo'nalgan xalqaro karvon yo'li – Buyuk ipak yo'li va uning tarmoqlarini

¹ Rui Consales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. ... 199–200-betlar.

² Rui Consales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. ... 174–175-betlar.

qat'iy nazorat ostiga oladi. Savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta'minlash va ularga qulayliklar yaratib berish maqsadida jiddiy choratadbirlar ko'riladi. Shaharlarda karvonsaroy, ipak yo'li bo'ylab rabodlar, qal'alar va ko'priklar quriladi. Natijada, Sharq bilan G'arb mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengayadi. Bular esa, shubhasiz, Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan edi.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqandda kumush va bronzadan «miriy», «tanga», shuningdek, «nimtanga» va «tangacha» zarb qilingan. Amir Temur tomonidan oltin tangalar faqat Xorazmda zarb etilgan. Samarqand va boshqa zarbxonalarda «fulus» yoki «fulus tanga» deb nomlangan mis tangalar zarb qilingan. Temur davlatida mavjud 40 dan ortiq zarbxonalarda zarb qilingan tangalar o'zining turli xususiyatlari bilan farqlangan. Tangalarning yuz qismida asosan Amir Temur davridagi rasmiy xonlar Suyurg'atmish va Mahmud Sultonning ismlari bitilgan. Tanganing orqa tomonidan davlat muhri tushirilgan. Ushbu tanga zarbi an'anasi Amir Temurning o'g'li Shohrux va Mirzo Ulug'bek tomonidan davom ettirildi. Masalan, Mirzo Ulug'bek 1449-yilda Samarqandda Amir Temur tangalariga o'xshash tangalar zarb qildirgan. Ulug'bek tangalarida ham bobosi va otasi davri tangalaridagi kabi tamg'a tushirilgan. Temuriylar davri tangalari o'zining qadri va sifati bilan anchayin baland bo'lib, bu iqtisodiyotni barqarorlashda muhim omil bo'ldi. Shuni hisobga olgan Shayboniylar ham o'z hukmronliklarining dastlabki davrida Shohrux tangalaridan ichki bozorda keng foydalanishgan¹.

Amir Temur hukmronligi davri (1370–1405) va temuriyzodalar Shohrux ibn Temur (1409–1447), Ulug'bek ibn Shohrux (1447–1449), Abu Said ibn Sulton Muhammad (1457–1469) davrida iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishga, poytaxtda farovonlikni ta'minlashga kuchli e'tibor berildi².

Amir Temur Xitoy ustiga harbiy yurish paytida 1405-yil 18-fevral kuni O'tror shahrida vafot etdi. Uning vafotidan keyin vorislar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar boshlandi. 1405–1408-yillarda Balx, Xuroson, Seyiston, Kermon va Ozarbayjonda temuriy shahzoda va amirlarning bir qator isyonlari ro'y berdi. 1407-yil 22-fevralda Amir Temur tomonidan

¹ *Коблева О.П., Тухтабегов К.* Очерки по истории торговли и предпринимательства в Узбекистане. – Ташкент, 2014. С. 14–16.

² *Rajabov Q., Qandov B.* Jahon tarixidagi sulola va davlatlar: qisqacha siyosiy tarixi va muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Uchta kitob. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. 1-kitob (Eng qadimgi davrlardan 1795-yilgacha). – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 201–202-betlar.

tayinlangan valiahd Pirmuhammad ana shunday g'alayonlardan birining qurboni bo'ldi. 1408-yil 22-aprel kuni qoraqayunli turkmanlar yetakchisi Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ldi. Natijada Ozarbayjon va Iroq hududi temuriylar qo'lidan ketdi. XV asrning 20-yillarida bu ulkan mamlakat 2 davlatga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan bo'lib, uni Shohrux boshqargan (markazi Hirot). Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda – Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelib (poytaxti Samarqand), uni Ulug'bek idora etgan.

Ulug'bek otasi Shohruxning ko'magi bilan avval (1413) Xorazmni, so'ng- ra (1415) Farg'ona va Qashg'arni o'z tasarrufiga olib, davlatining g'arbiy va sharqiy chegaralari xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa-da, ammo uning shimoli va shimoli-sharqiy tomonlari xavotirli edi. Shu boisdan XV asrning 30-40- yillari u otasi Shohrux bilan birga Dashti Qipchoqda Abulxayrxonga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ladi. Chunki ko'chmanchi chorvadorlar Movarounnahr viloyatlariga muttasil bostirib kirar va o'troq aholini g'orat qilar edi. Ulug'bek Movarounnahrni idora etish, tashqi va ichki siyosatga aloqador har qanday masalani hal etishda otasi bilan maslahatlashib va kelishib, uning rozi-rizoligi bilan hal etardi¹.

Shohrux 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohrux vafotidan so'ng Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasidagi nizolar yana avj oladi. Bu kurash oqibatida zamonasining mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug'bek 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali tarzda halok bo'ladi. Ulug'bek Movarounnahrni 40 yil (1409–1449) idora etgan edi. Ulug'bek fojiasidan so'ng taxtga chiqqan Abdullatif o'ldirilgach, Samarqandda Ulug'bekning kuyovi Abdulloh Mirzo, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Said podshoh qilib ko'tariladi². Abdulloh Mirzo mamlakat barqarorligini tiklash uchun barcha choralarni ko'radi, ammo temuriylar taxtida uzoq vaqt o'tira olmaydi. Avval u amakivachchasi Abu Said bilan kurashadi. O'zaro janglarning birida Abdulloh Mirzo halok bo'ladi. Abu Said Abulxayron yordamida Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib qoladi.

Xullas, Amir Temur tomonidan barpo etilgan saltanat uning nevaralari Xalil Sulton (1405–1409); Ulug'bek (1409–1449); Abdullatif (1449–1450);

¹ Fayziyev X. Shohrux Mirzoning temuriylar davlatida tutgan o'rni: tarix fanlari nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012. 12–13-betlar.

² История Самарканда. В двух томах. Том 1. / отв. ред. И.Муминов. – Ташкент: Фан, 1969. С. 230.

Abdullo Mirzo (1450–1451); Abu Said ibn Sulton Muhammad (1451–1469); Sulton Ahmad Mirzo ibn Abu Said (1494–1495); Boysung'ur Mirzo (1495–1497); Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Mahmud (1498–1500) davrida o'z davlatlarining poytaxtini Samarqandda qoldirishgan¹ va shaharning obodligi hamda farovonligiga e'tibor qaratishgan.

2-§. Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda ilm-fan va madaniyat

Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk saltanatni (bu davlat tarixiy manbalarda Turon davlati deb atalgan) Sohibqiron vafotidan so'ng uning vorislari bo'lgan *temuriylar sulolasi vakillari* boshqardi. Temuriylar davrida ularning davlati hududi shimolda Ili daryosi va Xorazm (Orol) dengizidan janubda Fors qo'ltig'iga qadar, sharqda Xitoy va Hindistondan g'arbda Trabzun (Qora dengiz)ga qadar ulkan maydonni qamragan. Davlat tuzilishi, qonun va qoidalari jihatidan ular musulmon Sharqida o'rta asrlarda hukm surgan davlatlardan katta farq qilmasa-da, ammo uning boshqaruv tizimi mintaqa davlatchiligining asriy an'analari, saltanatga kirgan mamlakatlar bilan madaniy aloqalar asosida yangi tartib va qoidalar bilan takomillashtirilgan².

Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqa olimlar ham shuni qayd etishadi. Misr, Shom, Rum, Ozarbayjon, Eron, Xorazm, Hindiston va ko'plab boshqa yurtlardan minglab hunarmandlar ko'chirib keltirilgan va hammasi ish bilan ta'minlangan. «Shoh, – deb yozadi Klavixo, – turli tomondan Samarqandga keltirilgan har xil toifa-dagi erkak va ayollarning hammasi, aytishlaricha, bir yuz ellik mingdan oshiq bo'lgan. Bular orasida turk, arab va boshqa elatlar, arman xristianlari, yunon katoliklari, nasroniylar, yakobitlar va yuzi bilan o'tga topinuvchi o'ziga xos mazhabga ega bo'lgan kishilar ham bor edi. Olib kelingan xaloyiq hayratlanarli darajada ko'p ediki, shaharga, ko'cha va maydonlarga, qishloqlarga, hatto shahar tashqarisidagi daraxtlar ostiga, g'orlarga ham odam sig'may ketgan edi. Amir Temur ularni bir-biridan ajratmasdan, qavmi va oilasi bilan birga jamoa-jamoa qilib joylashtirgan, zarur shart-sharoit yaratib bergan, chunki yangi joyda o'z hunarlarini

¹ Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). To'ldirilgan va qayta ishlangan oltinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 91–92-betlar.

² Muhammadjonov A., Rajabov Q. Amir Temur. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. 96–98-betlar.

yo'lga qo'yishlari, mahorat va bilimlarini namoyon qilishlari uchun ular yotsiramaligi, mahkam o'rtnashib olishlari kerak edi¹. Samarqand atrofida Damashq, Misr, Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlarning paydo bo'lishini shu bilan izohlash mumkin. Bunday qishloqlar Shahrisabz, Qarshi, Buxoro atroflarida ham yuzaga kelgan. XIV asr oxirlaridayoq qurilishda birga ishlagan mahalliy va kelgindi me'morlar, ustalar o'rtasida o'zaro ta'sir va o'ziga xos ijodiy amaliy birdamlik yuzaga kelgan. Musiqa, raqs, tomosha san'atlarida bunday birdamlik va uyg'unlik bir-muncha kechroq paydo bo'lgan. XV asr boshlaridayoq umumiy badiiy maktablar shakllangan. Natijada, nainki me'morchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik va boshqa qator hunarlarda, balki musavvirchilik, musiqa, raqs, tomosha san'atlarida ham keskin yuksalishlar yuz berdi. Buni aksariyat olimlar «Uyg'onish davri», «Temuriylar Renessansi» deb ataydilar.

Amir Temur va temuriylar davridagi Samarqandni ilm-fan, san'at va madaniyat, ma'naviyat rivojisiz tasavvur qilish qiyin. Amir Temur yuksak madaniyat va ma'naviyat homiysi bo'lgani uchun bepoyon davlati hududlaridan olimlar, shoirlar, musavvirar, musiqachilar, me'morlar, iqtidorli usta, hunarmandlarni Samarqandga chorlaydi. Ularga g'amxo'rlik qiladi. Amir Temurning o'zi, xotinlari, o'g'il va nabiralari Samarqandda muhtasham madrasalar, xonaqohlar, bog'lar bunyod qiladi. Ana shunday qulay sharoit tufayli Samarqand XIV–XV asrlarda Sharqning ulkan ilm-madaniyat markaziga aylanadi.

Amir Temur va temuriylarning turli tadbirlari olim-u fuzalolar, din peshvolari davrasida o'tgan. Masalan, shaxsan Amir Temur oldida katta obro'ga ega mantiq, kalom, hadis ilmining donishmandi Mas'ud ibn Umar Taftazoniy (1322–1390) Sohibqiron safarlarida doimo hamrohlik qilgan².

Amir Temur davrida Samarqandda Abdujabbor Xorazmiy, Shamsiddin Munshiy, Nu'moniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Alouddin Koshiy, Jalol Hiriy, Xo'ja Muhammad Zohid kabi mashhur olimlar yashab ijod qilgan. Bu davrda Samarqand Abdumalik Samarqandiy, Ismat Buxoriy, Bisotiy, Lutfullo Nishopuriy singari shoirlari bilan she'riyat olamida dong taratgan. Agarda Amir Temur davrigacha Samarqandda fors tili nazm rivojlangan bo'lsa, Sohibqiron va uning vorislari davriga kelib turkiy tildagi she'riyat ham yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Chunonchi, To'g'li Xo'ja, Lutfiy,

¹ Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. ... 175–200-betlar.

² Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati / mas'ul muharrir Ne'matilla Ibrohimov. – Toshkent: Sharq, 2005. 87-b.

Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy kabi shoirlar turkiy she'riyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Shuningdek, temuriylar davrida Samarqanddagi ilm-u fan rivojiga o'zbek adabiyoti va she'riyati asoschisi Alisher Navoiy (1466–1468-yillarda Samarqandda yashagan), Qozizoda Rumiyning shogirdi Abdurahmon Jomiy, tilshunos olim, «Risola fi-l-istiora» asarining muallifi Abulqosim ibn Abu Bakr Laysiy Samarqandiy (XV asr) ham munosib hissa qo'shishgan. «Shayboniynoma» asarining muallifi Muhammad Solih (1455–1535) temuriylar davrida (1490-yillar) Samarqandda yashagan³.

Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning bu borada benazir o'rni bor. Abdurahmon Jomiy ko'p marta Samarqandda bo'lgan. Ulug'bek madrasasida tahsil ko'rgan, Xoja Ahror Vali kabi ulug'lar bilan hamsuhbat bo'lgan. Uning Samarqanddagi hayoti haqida «Mirzo Hamdam» dostoni yaratilgan⁴. 1465–1469-yillar orasida Samarqandda bo'lgan Alisher Navoiy mashhur faqih Fazlulloh Abu Laysiy madrasasida o'qigan, uni o'ziga ustoz deb bilgan. Alisher Navoiy Samarqandda Ahmad Hojibek Vafoiy, Mirzobek Samarqandiy, A'loiy Shoshiy, Yusuf Andijoniy, Riyoziy Samarqandiy bilan ijodiy aloqada bo'lib asarlar yaratgan.

Temuriylar davrida miniatura san'ati ham tez rivojlandi. Bu san'at turi qo'lyozmalarni badiiy bezash ishlari bilan uyg'un holda kamol topib borgan. Samarqand milliy miniatura san'ati rivojida musavvir Abdulhayning xizmatlari katta bo'lgan. Abdulhay 1396-yildan boshlab Samarqandda yashagan va ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Uning shogirdlaridan Pir Ahmad Bog'ishamoliyning nomi bizga yaxshi ma'lum. U Amir Temur barpo ettirgan Bog'ishamol bog'idagi ko'shkn bezashda ishtirok etgan va bog'ning nomini o'ziga taxallus qilib olgan⁵. Amir Temur davrida yaratilgan noyob miniaturlar bugun Istanbul, Parij, London, Vashington, Sankt-Peterburg kabi shaharlarning muzey hamda kutubxonalarida saqlanmoqda.

Amir Temur va temuriylar davrida turli diniy va dunyoviy ilmlar bilan birgalikda xattotlik san'ati ham o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda Muhammad ibn Husayn Miraqiy Samarqandiy (1404-yilda vafot etgan) «Ixtiyoroti badiiy» asarini shayboniy Abdulatifga bag'ishlagan,

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. Kitob-albom / Mas'ul muharrirlar: T. Shirinov, Sh. Pidayev, M. Qarshiboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. 108-b.

² Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. ... 186-b.

³ Бертельс Е.Э. Навои и Джамии. – Москва, 1965. С. 7.

⁴ Ostonova G.R. Temuriylar davri miniatura san'ati / Міжнародний науковий журнал. 2016. №6. С. 34–35.

Azizulloh Samarqandiy (XV asr) Mirzo Ulug'bekning «Ziji Ko'ragoniy» kitobini jadvallari bilan birga nas'h xatida ko'chirgan¹.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand kulolchiligida badiiy sopolchilik alohida ajralib turgan. Rang-barang bezaklar, bo'yoqlar bilan bezatilgan idish-tovoqlar kundalik ro'zg'or idishlaridan ko'ra ko'proq san'at namunalari yaqin turgan.

Metallga badiiy ishlov berish san'ati Amir Temur davlatida, ayniqsa, poytaxt Samarqandda juda rivojlangani tarixiy manbalarda va keyingi davrlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qayd qilingan. Mohir ustalar oltin, kumush, mis va bronzadan har xil idish-tovoqlar, shamdonlar, qurol-yarog'lar yasagan. Qimmatbaho metallardan ishlangan idish-tovoqlar, qadah, ko'za va oftobalar Amir Temur uyushtirgan sayil, bazm, to'ylarda hamda elchilarni qabul qilish marosimlarida ishlatilgan. O'sha davrda yasalgan qandillar juda hashamatli, qimmatbaho bo'lganini tarixchi Ibn Arabshoh yozib qoldirgan².

Registon maydonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar payti topilgan 60 dan ziyod metall buyum XIV–XV asrlardagi Samarqand chilangarlik maktabi yuksak cho'qqilarga ko'tarilganini yaqqol isbotlaydi. Bu yerda topilgan bronza va misdan yasalgan ko'zalar, oftobalar, laganlar, kosalar, shamdonlar, eshik dastalarning sirtiga nozik kumush iplardan ajoyib naqshlar solinganki, ular jilosi bilan kishini hayratga soladi.

Amir Temur davrida Samarqandda zargarlik, shishasozlik, sangtaroshlik, temirchilik ham yaxshi rivoj topgan. Ularning ayrim namunalari dunyoning turli muzeylarida saqlanmoqda.

Samarqandda yog'och o'ymakorligi ham taraqqiy qilgan. Yong'oq va tut kabi pishiq yog'ochlardan yasalgan eshiklarning sirtiga geometrik va o'simliksimon naqsh solingan. Husnixat bilan ishlangan yozuvlardan esa qo'shimcha bezak sifatida foydalanilgan. Samarqanddagi Shohizinda va Amir Temur maqbaralariga o'rnatilgan yog'och eshiklar yuksak darajadagi san'at asarlari sifatida qadrlanadi. Ularning ayrim namunalari bugungi kunda Angliyada, Nyu-Yorkdagi Metropoliten, Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeylarida saqlanadi.

Sohibqiron Amir Temurdan so'ng bobosining bunyodkorlik, homiylik ishlarini davom ettirib, Samarqandning, umuman, temuriylar davlatining shon-shuhratini yuksak cho'qqilarga ko'targan shaxs Mirzo Ulug'bekdir. Sohibqironning nabirasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394–1449) jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan siymolardan biri. Uning hukmronligi

¹ Muradov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971. 96–98-betlar.

² Qarang: Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi / So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U. Uvatov tayyorlagan. I va II kitoblar. – Toshkent: Mehnat, 1992.

davrida Samarqandda 2 ta ko'rkam madrasa qurildi. Ularda diniy ilmlar qatori dunyoviy fanlardan ham saboq berilgan. Boshqa mashhur olimlar bilan birga uning o'zi ham haftada bir marotaba bu madrasalarda yoshlarga dars berar edi. Keyinchalik Buxoro va G'ijduvonda ham madrasalar qurildi, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishi poyoniga yetkazildi. Boshqa shaharlarda ham karvonsaroylar, tim, chorsu, hammom va boshqa inshootlar barpo etildi.

Ulug'bek ko'p qirrali iste'dod sohibi edi. U, ayniqsa, adabiyot, tarix, matematika, astronomiya sohalariga qiziqqan. Uning eng buyuk ishlaridan biri – Samarqand shahrida Akademiya tashkil etganidir. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olim Ulug'bek rahbarligida fanning turli sohaları bo'yicha izlanishlar olib borgan. Qozizoda Rumiyy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi (Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Samarqandiy), Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiy, Mavlono Havofiy kabi olimlarning aniq fanlar sohasidagi tadqiqotlari va ilmiy xulosalari salmoqli bo'lgan¹. Ular Xorazm Ma'mun akademiyasi an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirganlar.

Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasiga Movarounnahr hukmdori Ulug'bek Muhammad Tarag'ay tomonidan 1420-yilda asos solinganligi ma'lum². Mirzo Ulug'bek madrasasi Movarounnahr va Xurosondagi eng yirik madrasalardan biri bo'lib, u ikki qavatli, 48 hujradan iborat edi. Har bir hujra 2–4 talaba uchun mo'ljallangan bo'lib, ular uch qismdan: yotoqxona, darsxona, oziq-ovqat mahsulotlari xonasidan iborat bo'lgan. Madrasada yuzdan oshiq talabaga o'z zamonasining ulug' olimlari Qozizoda Rumiyy, Mirzo Ulug'bek, Shamsiddin Muhammad Havofiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Alovuddin Ali Qushchi kabi yetuk allomalar aniq fanlar (*ilmi aqliya*)dan dars berishgan va madrasa qoshidagi rasadxonada ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Mirzo Ulug'bek madrasasi bilan rasadxona faoliyati o'rtasida uzviy aloqalar yo'lga qo'yilgan edi. Madrasada mantiq, fiqh, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tafsir, hadis ilmlaridan o'z davrining yirik olimlari Fazlulloh Abulaysiy, Abulqosim Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy dars berganlar. Madrasada murakkab o'quv jarayoni yo'lga qo'yilgan bo'lib, aniq fanlarni o'qitishga kuchli e'tibor berilgan. Ayniqsa, Mahmud

¹ Кары-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улугбека. – Москва-Ленинград: Изд. АН СССР, 1950. С. 12.

² Кары-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улугбека. ... С. 35–50.

Zamaxshariyning «Al-Kashshof» asarini o'zlashtirishga bir necha yil vaqt sarflangani ta'lim muassasasida arab tili grammatikasini o'qitishga kuchli e'tibor berilganligidan darakdir. Mirzo Ulug'bek madrasasi iqtisodiy taraqqiyot, hunarmandchilik va savdo rivoji, madaniy yuksalish, ilm-fan ravnaqining natijasi hisoblanadi.

Mirzo Ulug'bek madrasasining ilk davrida dunyoviy fanlarni o'qitishga keng e'tibor berilib, madrasa ta'limini o'tab, maxsus imtihonlar topshirilgach, bitiruvchiga guvohnoma (diplom) – *sanod* berilgan. Ulug'bek yaratgan ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Mirzo Ulug'bek madrasasining birinchi mudarrisi o'z davrining yirik donishmandi Mavlono Muhammad Havofiy edi. Madrasada bir qator o'z davrining yirik olimlari talabalarga saboq berishgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiyy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ayniqsa, Qozizoda Rumiyyning madrasadagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Alloma tomonidan astronomiya, matematika, geometriya fanlariga bag'ishlangan bir qator qo'llanmalar yaratilib, uning ishlari shogirdlari Ali Qushchi, Fathulloh Shirvoniy tomonidan davom ettirilgan¹. Mirzo Ulug'bek madrasasidagi ilm-fan o'rta osiyolik mashhur olimlar, dunyo ilm-fani rivojiga ta'sir ko'rsatgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abul Abbas al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Holid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslanar edi².

Mirzo Ulug'bek madrasasi nafaqat madrasayi oliya sifatida ta'lim maskani, balki ilmiy tadqiqotlar, xususan, hay'at, Yer kurrasi, sayyoralar va yulduzlar holatini kuzatishga bag'ishlangan ishlarni tashkil etish markazi va ularning natijasini ta'lim jarayoniga tatbiq etishni nazarda tutuvchi ilmiy markaz – rasadxonaga ham ega bo'lganligi ma'lum³. Mirzo Ulug'bek madrasasi qoshidagi astronomiya ilmiy markazi ushbu fan rivojiga ulkan hissa qo'shib, u keyingi o'rta asrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Bu maktab ta'sirida Sharq mamlakatlari, xususan, Hindistonda rasadxonalar bino qilinib, astronomik kuzatishlar natijasida ilmiy asarlar yaratildi. XVII va XVIII asrlarda yaratilgan Shahobuddinining «Ziji Shohijahoniy»

¹ *Xayrettin Ivgin*. Ulug'bek madrasasining mudarrisi bursalik Qozizoda Rumiyyning aniq fanlarni rivojlantirishdagi xizmatlari. ... 47-b.

² *Irisov A., Nosirov A., Nizomitdinov I.* O'rta osiyolik qirq olim. – Toshkent: O'zFA, 1961. 77–84-betlar.

³ *Valixojayev B.* Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 73-b.

va Savoy Joy-Singhning «Ziji Muhammad shohiy» asarlari o'z tuzilishi (konstruksiyasi), oldiga qo'ygan maqsadi va masalalarni hal qilishi nuqtayi nazaridan Mirzo Ulug'bekning «Ziji Ko'ragoniy» asari ta'sirida yozilgan¹. Bundan tashqari, Ulug'bekning samoviy jismlar vaziyatini yuqori aniqlik bilan o'lchash maqsadida qurdirgan astronomik asbob ham ayni shu ilmiy maktabning mahsuli bo'lib, uning qoldiqlari V.L. Vyatkin tomonidan 1908-yilda ko'hna Afrosiyob yaqinida topilgan.

Mirzo Ulug'bek madrasasi qoshidagi ilmiy tadqiqot markazi – «Astronomiya maktabi»da yaratilgan o'quv qo'llanmalardan XX asr boshlarida ham foydalanilgan. Masalan, Mirzo Ulug'bek madrasasi talabalari XX asr boshlarida ham astronomiyani Mirzo Ulug'bek tomonidan 1437-yilda tuzilgan yulduzlar jadvaliga asosan o'rganishgan².

Mirzo Ulug'bek islom dini va ilm-fan taraqqiyot yo'lida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Uning shaxsiy tashabbusi bilan hozirgi Registon maydonida hashamatli madrasa, Muqatta masjidi va xonaqoh barpo qilingan, shu hudud atrofida karvonsaroy va hammom qurilgan. Bundan tashqari, Ulug'bek Sohibqiron bobosiga taqlid qilib, Cho'ponota tepaligining g'arbiy etagida Bog'imaydon va Chinnixona nomli ikkita bog'saroy bunyod qildirgan.

1417–1420-yillarda qurib bitkazilgan Ulug'bek madrasasining birinchi mudarrisi Mavlono Havofiy bo'lgan. Keyin bu madrasaga uzoq vaqt mobaynida mashhur alloma Qozizoda Rumiylar mudarrislik qilgan. Tarixiy manbalarda Qozizoda Rumiylarning ma'ruzasini eshitish uchun Abdurahmon Jomiy Hirotdan Samarqandga maxsus kelgani aytilgan³.

1420-yilda Obi Rahmat arig'ining yoqasida rasadxona qurilishi boshlanadi. Silindr shaklli, uch qavatli bu inshoot 9 yil mobaynida qurilgan. Qurilish tugashi bilanoq binoda ilmiy ishlar boshlanadi. Bu yerda Mirzo Ulug'bek boshchiligida Qozizoda Rumiylar, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid Koshiylar kabi mashhur olimlar kecha-yu kunduz yulduzlar ilmi bilan shug'ullanadi. Rasadxonada olib borilgan uzoq va mashaqqatli ilmiy kuzatishlar natijasida «Ziji jadidi Ko'ragoniy», ya'ni «Ko'ragoniyning yangi jadvali» nomli fundamental asar yozib tugallandi. Mirzo Ulug'bek

¹ *Irisov A., Nosirov A., Nizomitdinov I.* O'rta osiyolik qirq olim. ... 80–81-betlar.

² *Милихов А.* Преподаватели медресе Самарканда в начале XX века: дискуссия о реформах // O'rta asrlardagi Samarqand madrasayi oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta'lim tizimining taraqqiyotidagi roli. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand shahri, 2017 yil 13–14-oktabr. – Samarqand: TIKA, 2017. 39-b.

³ *Кенджаев Ш.Ю.* Государственно-правовые взгляды Джамии: автореферат дисс. на соис. кан. юридических наук. – Худжанд, 2003. С. 12.

yaratgan bu ilmiy maktab fan tarixiga «Dor ul-hikma» («Donishmandlar uyi») nomi bilan kirgan¹.

Xullas, Amir Temur va Temuriylar davlati Samarqand tarixi va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan. Bu davrda Samarqandda ichki va tashqi savdo, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar keng yo'lga qo'yilgan. Ko'plab masjid, madrasa va maqbaralar bunyod etilgan, kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik rivoj topgan. Sohibqiron Amir Temurning avlodlari bir necha yuz yil davomida Samarqandda sarkarda, davlat va jamoat arbobi, shoir va olim sifatida mamlakat ravnaqiga ulkan hissa qo'shishgan.

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand - 2750. Kitob-albom. Mas'ul muharrirlar: T.Shirinov, Sh.Pidayev, M.Qarshiboyev. - Toshkent: O'zbekiston, 2007. 116-b.

VI bob.
O'RTA OSIYO XONLIKLARI DAVRIDA
SAMARQAND

1-§. Samarqand shayboniylar hukmronligi davrida

Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan Samarqand qadimiy Sharq ilm-fan va madaniyatining tan olingan markazi edi. Aynan shu shahardan Amir Temur o'z imperiyasini boshqargan. Koinot yulduzlarini Mirzo Ulug'bek Samarqand rasadxonasidan turib kuzatgan. Va aynan shu shaharda Yalangto'sh Bahodirning sarkardalik va bunyodkorlik mahorati shakllangan edi. Shuningdek, Samarqand shayboniylar, ashtarxoniylar va mang'itlar davlatida kechgan siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynagan.

Shayboniylar sulolasi vakillari avvaliga Samarqandni o'zlariga poytaxt etadi, so'ngra poytaxtni Buxoroga ko'chiradilar. Shayboniylar sulolasi 1500–1601-yillarda hukmronlik qilishgan. Samarqand ushbu sulola vakillari tomonidan 1501–1533; 1540–1556-yillarda poytaxtga aylantirilgan.

Shayboniylar sulolasi avval Samarqandda, so'ng Buxoroda, keyin ikki poytaxt alohida holda, oxirida esa yana Buxoroni poytaxt etib hukm surishgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoq hukmdorlari va oliy hokimiyat da'vogarlari – temuriyzodalar orasida shiddatli kurash boshlandi. Shayboniylar davlatining asoschisi Abulxayrxon (1428–1468)ning o'limi tufayli boshlangan taxt talashishlar oqibatida to'qnashuvlar vujudga kelib, bu davlatni parokanda qila boshladi¹.

Abulxayrxonning to'ng'ich nabirasi (Shohbekxon) Shayboniyxon (1501–1510) hokimiyatga kelib, bu urushlarga barham beradi². Keyinchalik, temuriylar orasidagi nizolardan foydalangan Shayboniyxon Movarounnahrni qo'lga kiritish uchun harakat boshlaydi. U qudratli qo'shin to'plab, Movarounnahr viloyatlarini bosib ola boshlaydi. 1499-yilda temuriy Sulton Ali bilan bo'lgan jangda g'olib chiqib, Samarqandni egallaydi va bu shaharni o'z davlati poytaxti deb e'lon qiladi³. XVI asr boshlarida Movarounnahr va

¹ Azamat Ziya. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. 235-b.

² Saqdullayev A., Aminov B., Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – Toshkent: Akademiya, 2000. 146-b.

³ Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. – Toshkent: Adolat, 2007. 35-b.

unga tutash bo'lgan katta hududlarni qo'lga kiritish uchun temuriy zoda Zahiriddin Muhammad Bobur ham harakat qilganligi ma'lum. 1500-yilning kuzida Shayboniyxon harbiy safardaligida Bobur Mirzo Samarqandni egallaydi¹.

1501-yilning bahorida Shayboniyxon bilan Bobur o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi va Bobur mag'lubiyatga uchraydi². Natijada, Samarqandni jangsiz topshirish sharti bilan Bobur Mirzo va askarlarini shahardan tinch chiqib ketishga kelishishadi. Muhammad Shayboniyxon Samarqandga kirgach, shaharni rasman o'zining poytaxti deb e'lon qilgan. Keyinchalik shaharni tashlab chiqib ketgan Bobur Afg'onistonga, so'ngra Hindistonga borib, u yerda boburiylar saltanatiga asos solgan.

Muhammad Shayboniyxonning hukmronligi davrida shaharda ayrim sohalarda jonlanish sodir bo'ldi. Oliy hukmdor Samarqanddagi qurilishlarga alohida e'tibor bergan. Shayboniyxonning poytaxtda madrasa qurdirganligi haqida unga zamondosh tarixchi «shaxsan o'zi qurdirgan Madrasayi Oliyaga» borganini yozib qoldirgan³.

Shayboniyxon davlat boshqaruvida diniy qadriyatlarga ko'proq e'tibor bergan. Biroq davlat ishlarida xatoliklarga yo'l qo'ya boshlagan. Masalan, u Yassaviya tariqati murshidi Shayx Jamoliddinning muxlislaridan biri bo'lishiga qaramay, Samarqand-u Buxoroni egallagach, arzimagan ish uchun murshidining o'g'lini qiynoqqa soladi va Shayxning o'zini Movarounnahrardan Hirotga badarg'a qilgan. Bu davrning mashhur fiqhshunosi shayxulislom Abulmakorim as-Samarqandiy bo'lib, ushbu zot 1501-yilda Shayboniyxon tomonidan qatl etilgan. Qabri Tillakori masjidi g'arb tarafidagi tor ko'chadagi hovlida joylashgan⁴. So'ngra yanada dahshatliroq jinoyat sodir etadi: buyuk murshid Xoja Ahror Valining kenja o'g'li Xoja Yahyoning boyliklarini tortib olish uchun avvaliga ularni aldab haj qilib kelishga yuboradi, so'ngra ketidan gumashtasini yuborib, xoja Yahyoni va uning ikki o'g'lini qatl ettiradi. Bu ishi oqibatida shaharliklar hamda ahli tasavvuf arboblari nazaridan qoladi. Mazkur

¹ Atadjanov Sh., Ilhomov Z., Ishqovlatov V., Allayeva N. O'zbek xonliklari tarixshunosligi. – Toshkent, 2011. 6-b.

² Samarqand tarixi. II tomlik. I tom. ... 250-b.

³ Agzamova G.A. XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rni // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. 362-b.

⁴ Shayxulislom Abulmakorim o'z qo'li bilan 907/1501-yilda yozgan «Sharhi muxtasar ul-viqoya» asarining qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Asar Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2184-raqam ostida saqlanmoqda.

holatlar hukmdorlar va diniy ulamolar o'rtasidagi munosabatlarning keskin buzilishiga sabab bo'lgan edi. Oqibat, o'zi ham xuddi shu zayida aldanib, 1510-yil dekabrda Eron shohi Ismoil bilan bo'lgan jangda Marvda vafot etgan¹. U halok bo'lgach, qizilboshlilar tomonidan boshi tanasidan judo etilib, tanasi Samarqandga yuboriladi va o'zining Qo'sh madrasasi safida dafn etiladi². XX asrning 60-yillarida Samarqanddagi Toshkent ko'chasini kengaytirish arafasida ushbu madrasa vayron etilgan. Shayboniyxon va shayboniy sultonlar ko'milgan dahma esa Sherdor va Tillakori madrasalari yonboshiga ko'chirilgan.

Shayboniyxonning 1510-yildagi fojiali o'limidan keyin, shayboniy-lar orasidagi sarosimalikdan foydalangan Zahiriddin Muhammad Bobur Eron shohi Ismoil Safaviyning yordamida Movarounnahrni qo'lga kiritadi. Ammo shahar ahlining noroziligi tufayli Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ladi³.

Natijada, taxt uchun kurashlar avj olib, bu kurashlarda faollik ko'rsatgan Shayboniyxonning jiyani Ubaydulla Sultonning siyosiy mavqeyi kuchayadi. Ubaydulla Sulton Buxoro viloyatining hukmdori Mahmud Sultonning o'g'li bo'lib, 1512-yil Ubaydulla va Mirzo Bobur o'rtasida Buxoro yaqinida jang bo'lib o'tadi. Jangda Ubaydullaxonning qo'li baland kelgan. Bu haqda Muhammad Yusuf Munshiy shunday yozadi: «Bobur qochdi va butun Movarounnahr shayboniy sultonlar hukmronligiga o'tdi. Ular uning hamma viloyatlarini o'zaro taqsimlab oldilar, (buning natijasida) Ubaydullaxonga hukmronlik uchun Buxoro, Karmana va Miyonqol tegdi»⁴.

Dastlab, xonlik va Samarqand taxti sulolaning yoshi ulug'i Ko'chkunchixon ibn Abulxayrxon qo'liga o'tadi. Shayboniy-lar sulolasining qolgan sultonlariga martabasiga qarab boshqa viloyatlar bo'lib berilgan.

Eronlik qizilboshlar va temuriy Bobur Mirzoning tahdidlari barta-raf etilgach, Ko'chkunchixon 18 yil davomida Samarqandni boshqargan⁵. 1530-yilda Ko'chkunchixon vafot etgach, Samarqand taxtiga uning o'g'li Abu Saidxon ibn Ko'chkunchixon (Ubaydulloxonning xohishiga ko'ra)

¹ *Olim Shayx*. Lamahot. Shayboniy-lar qismi. (tarj., tadqiqot va izohlar muall. K.Kattayev). – Samarqand, 2007. 12-b.

² O'zbekiston hukmdorlari / Tuzuvchi mualliflar: Farhod Sulonov, Farruh Bozorboev. – Toshkent, 2007. 38-b.

³ *Muqimov Z.* Shayboniy-lar davlati va huquqi. – Toshkent: Adolat, 2007. 37-b.

⁴ *Agzamova G.A.* XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rnini. ... 363-b.

⁵ *Vosifiy Zayniddin.* Badoe' ul-vaqoe' (Nodir voqealar) / Fors tilidan Naim Norqulov tarjimai. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. 21–25-betlar.

o'tirdi. U davlatni 1533-yilgacha boshqargan. Ko'chkunchixon va Abu Saidxon ibn Ko'chkunchixon Registon maydoni qarshisida o'zlarini bunyod etgan «Ko'chkunchixon madrasasi»da dafn etilgan¹.

Ubaydulla Sulton 1533-yilda oliy hukmdorlik unvonini oladi va 1540-yilgacha rasman poytaxt Samarqand bo'lsa-da, davlatni Buxorodan turib boshqaradi². Shunga qaramay, Samarqand davlat poytaxti va hukmron sulolaning eng katta vakili – xon qarorgohi sifatidagi mavqeyini saqlab qoldi.

Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) temuriy hukmdorlarni mintaqadan uzoqlashtirgunga qadar kechgan 10 yillik davrda bir asrdan ortiq vaqt mobaynida temuriylarning bosh markazi sifatida bo'lib kelgan Samarqand yana bir necha o'n yilgacha o'z mavqeyini yo'qotmaydi. Xususan, Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonni valiahd deb e'lon qilib, unga Samarqand boshqaruvini berganligi³ ham ushbu shaharning yangi sulola nazdida qanchalik ahamiyatga ega bo'lganidan darak beradi. Shu tariqa, dastlabki paytlarda Samarqandni markaz qilgan holda, Xuroson va Badaxshonga yurishlar uyushtira boshlagan shayboniylar, keyinchalik poytaxt sifatida Buxoroni tanlagan bo'lib, aynan qanday omillar bunga sabab bo'lganligi masalasida tadqiqotchilar orasida yakdillik yo'q. Shuningdek, geografik jihatdan qulay, mo'tadil iqlimli, qadimdan mashhur sulolalarning poytaxti bo'lib kelgan Samarqanddek bir joy turib, Shayboniy hukmdorlarning poytaxtni boshqa bir shaharga ko'chirish taraddudiga tushishlariga aynan qanday omillar sabab bo'lganligi masalasi ham haligacha bahsli mavzu bo'lib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra shayboniylarning o'z poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirishlarining zamirida quyidagi omillar yotganligini ilgari surish mumkin:

Birinchidan, poytaxtning ko'chirilishi shayboniylar sulolasida qadimgi odatga ko'ra, hokimiyat boshqaruvchi xonadon sulola a'zolarining mushtarak mulki hisoblanib, davlat boshqaruvida boshboshdoqliklar kuchaygan paytda xonadon vakillarining har qaysisi o'ziga tegishli ulus (o'lka, viloyat) markazini poytaxtga aylantirishga harakat qilish odati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, 1539-yilda Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligi mayda qismlarga bo'linib ketadi va mamlakatda qo'shhokimiyatchilik yuzaga keladi. Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540–1550) hukmronligi poytaxt Buxoroda davom etadi, Samarqandda esa oliy hukmdor sifatida Ko'chkunchixonning o'g'illari – Abdullaxon I (1541–

¹ Kattayev K. Samarqand madrasalari, ilm-fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003. 33-b.

² O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: Sharq, 2001. 219-b.

³ Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. – Toshkent, 1999. 57-b.

1541), so'ngra Abdullatifxon (1541–1551) mustaqillik e'lon qilishadi¹ va ular Samarqandda turib davlat ishlarini boshqaradilar, Balx va Badaxshonda shayboniylardan Pirmuhammad va boshqalar amalda mustaqil hukmronlik qila boshlaydilar². 1551–1556-yillari Movarounnahr uchun shayboniylar o'rtasidagi kurashda Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxon II g'olib chiqib, u Buxoro xonligida o'z hokimiyatini o'rnatadi. 1557-yildan boshlab Buxoro uzil-kesil xonlik poytaxtiga aylanadi³;

Ikkinchidan, islom dinining ilk yoyilish davridan boshlab diniy bilimlarning o'chog'i sifatida qaralib kelgan Buxoro shahri bu davrda ham nafaqat Movarounnahrda, balki Dashti Qipchoq va atrof hududlarda o'z dovrug'iga ega edi. Temuriylarni mintaqadan quvib chiqarishda bo'lgani kabi, safaviylar himoyatida tobora kuchaya boshlagan shia mazhabidan sunniylikni muhofaza qilish g'oyasini bayroq qilib olgan shayboniylarning sunniylar orasida yanada ko'proq e'tibor qozonishga intilishlari Buxoro shahrining poytaxt sifatida tanlanishga olib kelgan. Ya'ni ular mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali o'z davlatini yanada mustahkamlashni nazarda tutishgan;

Uchinchidan, ehtimol safaviylarni o'zlariga bosh raqib sifatida ko'rgan shayboniylar strategik ehtiyojlardan kelib chiqib, Buxoroni markaz sifatida tanlashgan. Chunki o'zining geografik joylashuviga ko'ra, bu yer safaviylar hududi – Xurosonga nisbatan yaqin hududda joylashgan edi. O'sha davr an'anasi bo'yicha mamlakat tayanchi bo'lmish qo'shin poytaxt va uning atroflarida joy olar, bu esa tashqi xavfning oldini olishni ta'minlar edi;

To'rtinchidan, 1512-yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydulla Sulton 1533-yilda shayboniylar davlatining oliy hukmdori sifatida taxtga o'tirgan edi. Ubaydulla Sulton Samarqanddagi Ko'chkunchixon avlodlarining qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqara boshlaydi. Buning sabablaridan biri Ubaydullaxonning o'z merosiy yerlarini saqlab qolishga intilishi bilan izohlanadiki, uning bu xatti-harakati (ya'ni poytaxtni ko'chirish taraddudi) keyinchalik Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilishiga turtki bo'lgan;

Beshinchidan, poytaxtning Buxoroga ko'chirilishi jo'yboriy shayxlarning ta'siri ostida amalga oshgan bo'lishi mumkin. Chunki shayboniylarning

¹ *Мухоминова Р.Г. Народы Узбекистана в XVI – первой половине XVIII в. Государство Шайбанидов и Джанидов (Аштарханидов) // История Узбекистана Т. III. – Ташкент, 1993. С. 50.*

² *Агзамова С. О'рта Osiyo xonliklari: poytaxt shaharlar tarixiga oid ayrim ma'lumotlar // O'zbekiston o'rta asrlarda: tarix va madaniyat. – Toshkent, 2003. 78-b.*

³ *Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. ... 406-b.*

mafkuraviy rahnamolari bo'lmish mazkur shayxlar toifasi yashaydigan mavze Buxoroga yaqin joylashgan edi¹. Ma'lumki, Abdullaxon II davrida shayboniylar poytaxti Samarqanddan Buxoroga butunlay ko'chirib o'tilgan bo'lib, ayni shu paytlarda shayboniy hukmdorlarga jo'yboniy shayxlarning ta'siri kuchaygan, Abdullaxon va uning otasi Iskandar Sulton jo'yboriylardan Xoja Islomga murid tushgan edi².

1540-yilda Ubaydullaxon vafot etgach, Movarounnahrda ikki xonlik vujudga keladi. Movarounnahrda hukm surgan siyosiy parokandalik mamlakatda ikki hokimiyatchilikning vujudga kelishiga olib keldi. Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1541–1550) Buxoro taxtida, Samarqandda Ko'chkunchixonning o'g'illari – avval Abdullaxon I (1541-yil mart – 1541-yil sentabr), so'ngra Abdullatifxon (1541–1551-yy.) hukmronlik qildilar. Natijada, ham Samarqand, ham Buxoro poytaxt shahar vazifasini bajardi. Abdullatifxonning o'limidan so'ng Samarqand taxtiga Baroqxon nom bilan Navro'z Ahmadxon (1551–1556-yy.), Buxoroda Ubaydullaxonning nabirasi Burhon Sulton taxtga o'tirgan³. 1556-yilda Baroqxon Zarafshon daryosining Darg'om kanaliga olinish joyida Ravotxo'ja to'g'onini tuzatish uchun kelganda vafot etadi.

Davlat boshqaruvidagi bu vaziyat haqida turk admirali Seydi Ali Raisning quyidagi ma'lumotlari saqlanib qolgan: «...Samarqand podshohi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga o'tirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa Sayid Burhonxon o'z nomlariga xutba o'qitganlar, davlatni qo'riqlash, hamma qo'shin va aholining ahvoli haqida qayg'urmaganlar»⁴.

Burhon Sulton 1557-yilda yaqin amirlaridan birining fitnasi oqibatida o'ldiriladi. Shu davrdan boshlab, Abdulla Sultonning Movarounnahr siyosiy hayotidagi roli oshib boradi. Uning otasi shayboniylardan Jonibek Sultonning o'g'li Iskandarxon edi. Movarounnahrda markazlashgan hokimiyatni tiklash Abdulla Sultonning bosh maqsadi edi. U 1557-yilda Buxoroni egallaydi, an'anaga ko'ra Jonibek Sulton avlodidagi eng keksa vakil – Pirmuhammadxonni oliy hukmdor etib tayinlaydi (1557–1560)⁵.

¹ Вяткин В.Л. Шейхы Джуйбары // В.В.Бартольд. Сборник статей. – Ташкент, 1927. С. 4.

² Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. ... 29, 36-betlar.

³ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. ... 245-b.

⁴ Agzamova G.A. XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rni. ... 364-b.

⁵ История Самарканда. В двух томах / Отв. редактор И.Муминов. – Ташкент: Фан, 1969. Том: 1. С. 165.

Bu davrda Samarqandda avval Muhammad Ibrohim Sulton ibn Abdullatifxon (1556-y.) oz muddat, so'ngra Boboxon ibn Navro'z Ahmadxon (1556–1557), Gadoyxon (1557) va Javonmard Alixon (1557) hukmronlik qilishgan.

Balxda yashab kelgan Pirmuhammad rasman hukmdor bo'lsa-da, haqiqiy hokimiyat Abdullaxon qo'lida edi. 1560-yilda Abdullaxon Buxoro taxtiga otasi Iskandarxonni (1560–1583) o'tqazadi va rasmiy hokimiyatni o'z qo'lida saqlab qoladi. Xojamqulibek Balxiy bu voqeani shunday tasvirlagan: «Jonibek Sultonning o'g'li Iskandarxon o'z o'g'lining harakatlari natijasida shavkatli shaharda taxtga o'tirdi. Xutba va tangalar uning nomi bilan bezandi»¹.

Iskandarxon g'ayratli, taqvodor inson bo'lib, tariqat ishlariga berilgan edi. U ham otasi Jonibek Sulton kabi Naqshbandiya tariqatining mashhur murshidi Mahdumi A'zam Dahbediyga murid tushgan edi². Iskandarxon siyosiy ishlarga uncha aralashmay, hamma ishni o'g'li Abdullaxon bajarar edi. Iskandarxon 1583-yilda vafot etgan. Iskandarxonning o'limidan so'ng Abdullaxon Buxoro taxtiga yagona voris sifatida o'tiradi. Shayboniylarning eng mashhuri, Amir Temurdan so'ng «Sohibqironi soniy» sharaflil nomga sazovor bo'lgan. U davlatni parokandalik va siyosiy inqirozdan olib chiqishga harakat qiladi. Abdullaxon katta hududlarni o'z ichiga olgan markazlashgan davlat tuzishga erishgan.

Shayboniylar davrida Samarqandni quyidagi hukmdorlar boshqargan: Muhammad Shayboniyxon ibn Shohbudoq Sulton ibn Abulxayrxon (1501–1510), Ko'chkunchixon ibn Abulxayrxon (1512–1530), Abu Sa'idxon ibn Ko'chkunchixon (1530–1533). Buxoro va Samarqand alohida ikki xonlik poytaxti davrida Samarqandda Abdullatif ibn Ko'chkunchixon (1540–1552) alohida xonlik tuzib hukm surgan. Samarqandning shayboniy xonlari va sultonlari: Ahmad Sulton ibn Ubaydullo Sulton (1501–1506), Muhammad Temur Sulton ibn Muhammad Sulton (1506–1511), Abdullatifxon ibn Kuchkunchixon, (1540–1552), Sulton Sa'id ibn Abu Sa'idxon (1552–1555), Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxo'ja (1555–1556); Muhammad Ibrohim Sulton ibn Abdullatifxon (1556); Boboxon ibn Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) (1556–1557), Javonmard Ali Sulton ibn Abu Sa'idxon (1557)³.

¹ *Agzamota G.A.* XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rnini. ... 363-b.

² *Hofiz Tanish Buxoriy.* Abdullanoma. 1-kitob. ... 8-b.

³ O'zbekiston hukmdorlari. Tuzuvchi-mualliflar: Farhod Sultonov, Farruh Bozorboev. – Toshkent, 2007. 38-b.

Shayboniyilar hukmronligi davrida mamlakatda yer-suv sohasida bir qancha islohotlar o'tkazilgan. O'z hukmronligining dastlabki 10 yilida Shayboniyxon tomonidan soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqilgan. Shayboniyxon 1507-yilda pul islohotini o'tkazdi. Bunga ko'ra mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa-pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan¹.

Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazildi. Islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini kuchaytirishga, mahalliy hokimlar mavqeyini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va aholi mulkini ko'paytirishga imkon berardi.

XVI asrning birinchi o'n yilligida Shayboniyxon davrida soliq daromadlari qisqarib ketganligi sabab qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun bir qancha choralar ko'rildi. Yerni tashlab ketgan dehqonlar qaytarildi va ulardan olinadigan soliqlar yengillashtirildi. 1503-yilda Samarqand yaqinidagi Zarafshon daryosida suv ayirg'ich qurildi va daryo ikkiga – Oqdaryo hamda Qoradaryoga bo'lindi².

Shayboniyxon davrida Zarafshon daryosidagi suv miqdorini oshirish uchun ko'priq qurildi. Sun'iy sug'orish ishlariga Abdullaxon II davrida katta e'tibor berilib, katta ishlar amalga oshirilgan. Abdullaxon buyrug'i bilan Zarafshon daryosiga «Abdullaxon bandi» nomli to'g'on qurildi. Bu esa Nurotaning sharqiy hududlariga suv chiqarish imkonini berdi. Bu davrda hukmronlik qilgan xonlarning sug'orish tizimidagi olib borgan siyosati natijasida sug'oriladigan yerlar miqdori oshdi. Suvni teng taqsimlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 1583-yilda Nurota tog'larining shimoliy tomonlaridagi Oqchobsoyda katta sug'orish inshooti qurilishi natijasida ko'p yerlar suv bilan ta'minlandi. Shuningdek, Zarafshon daryosida Puli Karmana, Puli Mehtar Qosim va Puli Choharminor hamda boshqa suv taqsimlovchi inshootlarning qurilishi katta ahamiyat kasb etdi. Bu vaqtda Zarafshondan Jizzax vodiysiga Tuyatortar kanali qazildi³.

Samarqand va uning atroflarida uzumning seroblighi may va sharob tayyorlashning rivojlanishiga olib kelgan. Manbalarda aytilishicha, Samar-

¹ Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – Toshkent: Akademiya, 2000. 148-b.

² Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha). – Toshkent: Fan, 1972. 118-b.

³ Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. ... 119–120-betlar.

qand bog' va uzumzorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular ayrim joylarda bir necha chaqirimga borardi. Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asarida samarqandlik yirik zamindor Xoja Abdulmatkarim xo'jaligi tasvirlanadi. Uning shahar atrofidagi bog'laridan olinadigan hosilning yarmidan ko'pi musallas qilingan, qolganidan uzum shinnisi tayyorlangan. Shaharda uzum saqlanadigan maxsus binolar bo'lgan.

Samarqandda hunarmandchilikning o'nlab turlari: to'qimachilik, bo'yoqchilik, tikuvchilik, miskarlik, zargarlik, ko'nchilik, etikdo'zlik, maxsido'zlik, kashtachilik, duradgorlik, beshikchilik, sandiqchilik, temirchilik, taqachilik va boshqa turlari keng tarqalgan edi. Shahar aholisining anchagina qismini hunarmandlar tashkil etib, ular iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Dehqonchilik bilan hunarmandchilik bir-birlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy hayotda asosiy omillar hisoblangan. Bu ikkita yo'nalish ichki va tashqi savdoning borishini belgilab berardi. Hunarmandlar dehqonchilik xomashyosi asosida turli mahsulotlar ishlab chiqarib, ichki va tashqi bozorning talablarini qondirib kelgan. Hujjatlarda Samarqandda cho'yan quyuvchi ustaxonalar mavjudligi haqida so'z boradi. Bu O'rta Osiyo uchun yangi soha bo'lib, rudani qayta ishlashning temir, po'lat, cho'yandan tashqari metallozlikda bronza va misdan ham keng qo'llanilgan. Bronza va misdan chiroyli ishlangan va badiiy jihatdan katta qiymatga ega bo'lgan ko'za, kosa, tovoq kabi mahsulotlar tayyorlangan hamda bu mahsulotlarga chet ellarda ham talab katta bo'lgan¹.

To'quvchilik bilan shug'ullangan ustalar ishlanadigan gazmol turiga qarab baxmalbofon, kimxobgaron, futabofon, chahorgulbofon kabi kasblarga bo'lingan. Kiyim-bosh va uning bo'laklarini tayyorlovchi mutaxassislar ham turlicha edi. Masalan, chopon tikuvchilar – jomado'zon, bichiqchilar – darziyon, telpakchilar – taqiyado'zon, po'stin to'quvchilar – po'stindo'zon. XVI asr tarixchisi Fazlulloh ibn Ro'zbehxon qunduz, olmaxon va boshqa xil po'stinlar, shuningdek, ko'pdan ko'p bezaklar solingan shoyi kiyimlarni sanab o'tgan. «Shayboniynoma»da Muhammad Solih oq suvsar va olmaxon mo'ynasidan tikilgan po'stin kiygan amaldorlarni tasvirlagan.

Bu davrda samarqandlik ustalar tomonidan siyoh yoyilib ketmaydigan, silliq, pishiq qog'oz tayyorlangan. Samarqand qog'oziga yozilgan juda ko'p qo'lyozma asarlar bizgacha yetib kelgan. Ular orasida Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma», Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning «Mehmonnomayi Buxoro» asarlari Mehr Sultonxonimning hadya yorlig'i va

¹ Мухминава Р.Г. Народы Узбекистана в XVI – первой половине XVIII в. Государство Шайбанидов и Джанидов (Аштарханидов) //История Узбекистана Т. III. – Ташкент, 1993. С. 50.

boshqa qo'lyozma nusxalar bor. Qog'oz tayyorlash ustaxonalarini ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur «Dunyoda eng yaxshi qog'oz Samarqandda tayyorlanadi», deb yozgan edi.

Mashhur xattot Sultonali Mashhadiy (1432–1520) xattotlikka oid maxsus risolasida Samarqand qog'ozida yozishni maslahat beradi. XVI asrda Samarqandda qog'ozning ko'pgina turlari, jumladan, «Sultoni» deb atalgan turini tayyorlaganlar. Bu yupqa, yumshoq va silliq bo'lganligi uchun «Shoyi qog'oz» ham deb atalgan¹.

Qog'oz tayyorlovchi usta Mir Ibrohimning faoliyati XVI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi, u oq chambar ko'rinishidagi suv qog'ozdagi belgisi bor alohida qog'oz turini tayyorlagan. «Miri Ibrohimiy» deb atalgan bu qog'oz keyingi asrlarda ham mashhur bo'lgan va Samarqanddan boshqa mamlakatlarga olib ketilgan².

Samarqand bu davrda bo'yoq ishlab chiqarishi bilan ham shuhrat qozongan. Bo'yoqchilik ustaxonalari asosan bozorlar va do'konlar yaqinida joylashgan. Manbalarda Amirzoda Muhammad Qosim bozorida uchta, Xojo Muhammad Chop va Dar mahkamayi ko'hna bozorlarida ikkitadan bo'yoq ustaxonalari bo'lganligi eslatiladi. Abdullaxonning elchilari Moskvaga 40 pud bo'yoq olib borganligi manbalarda qayd qilingan³. Bu ma'lumotlar XVI asrda Samarqandda bo'yoqchilik qay darajada taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Samarqandliklar mohir savdogarlar sifatida dong taratib, Eron, Afg'oniston, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Arabiston, Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq olib borishgan. Samarqand shahri Markaziy Osiyoning eng yirik savdo markazi sifatida shuhrat qozonib, ko'plab karvonsaroylar va savdo rastalariga ega edi.

Samarqanddagi bozorlarning joylashishi asosan XV asrda qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan. Bu davrda Samarqand shahrida o'ndan ortiq katta va kichik bozorlar bo'lgan. To'quvchilar, temirchilar, arqon sotuvchilar, savat to'quvchilar va boshqa rastalar joylashgan attorlar bozorlari alohida bo'lgan. Ayrim bozorlar dahalar, masjidlar, shahzoda va aslzodalar nomlari bilan atalgan. Masalan, Puli safid, Amirzoda Muhammad Sulton bozori, namatchilar machiti bozori, Amirzoda Muhammad Qosim, Xoja Muhammad Chop bozori va boshqalar.

¹ Yoqubov Z. Samarqand qog'ozining siri // Jamiyat. 2011. 14-yanvar. №2 (223); Qilichev R. Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar... // Quyi Zarafshon vohasi: ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayoti tarixi (ikkinchi kitob). – Toshkent: Fan, 2007. 93–97-betlar.

² Qilichev R. Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar. ... 94–95-b.

³ Муқминова Р.Г. Народы Узбекистана в XVI – первой половине XVIII в. ... С. 45–55.

Samarqand shayboniylar davrida ham o'zining noni bilan mashhur bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, XVI asr boshlarida Samarqandda yaxshi novvoyxona va oshxonalar bo'lgan. Bozorlar yonida karvonsaroylar, sarta-roshxona va hammomlar joylashgan.

Shayboniylar davrida ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazilgan. Masalan, Muhammad Shayboniyxonning o'zi bu borada islohotlar o'tkazgan. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmiy, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etilgan bo'lib, ta'limning quyi bosqichi maktab hisoblangan va bolaga 6 yoshidan ta'lim berilgan. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy etilgan bo'lib, har bir bosqichida 8 yildan tahsil olingan. Shunday qilib, o'qish 26 yil davom etgan. Shayboniylar davrida dunyoviy ilmlarga e'tibor biroz susaygan ko'rinsa-da, ammo madrasalar qurilishining davom etishi bu sohada hali ham ishlar davom ettirilayotganligidan darak berar edi. Bu davrning mashhur fiqhshunosi shayxulislom Abulmakorim as-Samarqandiy yozgan «Sharhi muxtasar ul-viqo'ya» asari madrasalarda o'qitilgan¹.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu kabi va boshqa tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, shayboniy xonlari va beklari hukmronligi kuchayishiga xizmat qilishi zarur edi².

Shayboniylar davlatining ma'lum muddat poytaxti bo'lgan Samarqandda ushbu sulola hukmronligi davrida madaniy hayot ham anchayin rivojlangan. Shayboniylar me'morchilik ishlariga ham ahamiyat berib, bu davrda bir qator yodgorliklar bunyod etilgan. Sulola vakillari maqsadga mo'ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirganlar. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan katta moddiy imkoniyatga ega kishilari ham chetda qolmaganlar. Chunonchi, Samarqanddagi Muhammad Shayboniy qurdirgan Xoniya, Abu Said Kalbobo, Ko'kaldosh, Mehr Sultonxonim nomi bilan bog'liq madrasalar shular jumlasidandir. Bu davrda Samarqandda Alayka Ko'kaldoshning Juma masjidida marmar minbar (1528-y.), Juvonmard Alixon tomonidan hammom (1574-y.), Qozi Soqiy madrasalari qurilgan³. Ko'chkunchixon

¹ Valixojayev B. Samarqandda oliy ta'lim - madrasayi oliya - universitet tarixidan lavhalar. ... 70-b.

² История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). – Ташкент: Фан, 2012. С. 45.

³ История Самарканда. В двух томах. Том 1. ... С. 168.

hukmronligi davrida Registon maydonining janubiy tomonida shayboniylar uchun maqbara qurdirgan. Childuxtaron deb nomlangan bu maqbara XX asrning 50-yillarida buzib tashlangan.

Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarining tutgan o'rni katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari o'qimishli shaxslar bo'lishgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'rlar bitishgan. Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan. XVI asr tarixini yoritib beruvchi «Tavorixi guzidayi nusratnoma», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Abdulloh Nasrullohning «Zubdat al-asror», Fazlulloh Ro'zbehxonning «Mehmonnomayi Buxoro», Zayniddin Vosifiyning «Badoi ul-vaqoe», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» kabi tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari, Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning «Ajoyib ul-maxluqot» geografik asarini ham aytishimiz mumkin¹.

Bu davrda Samarqand fani va madaniyati rivojlanishiga olim va musiqachi Amir Ali Akbar Samarqandiy, Bog'i Jarroh Samarqandiy, miniaturachi rassom Muhammad Darvesh Samarqandiy va Sirojiddin Muhammad Samarqandiy muhim hissa qo'shganlar. Muhammad Darvesh Samarqandiy «Dar bayoni chahor daryo» va «Ganjut Tolibin» kitoblarini yozgan².

Shayboniylar davrida Samarqandda boy kutubxona ham bunyod qilingan bo'lib, bu yerda noyob kitoblar saqlanishi bilan birga kitoblarni tarjima qilish, qayta ko'chirish, qo'lyozmalarga nafis miniaturalar chizish, muqovalash ishlari ham amalga oshirilgan. Ko'chkunchixonning tashabbusi bilan fors tilida yozilgan ikki noyob asar, Rashiddinning «Jome' ut-tavorix» va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari o'zbek tiliga o'girilgan. Bu ikki asar o'z davrining mashhur miniaturachi rassomi Muhammad Murod Samarqandiyning suratlari bilan bezatilgan. Bu davrning mashhur musavvirlari Jaloliddin Yusuf va Muhammad Chehra Jomiy, Navoiy, Vosifiy, Binoiy, Firdavsiy kabi shoirlarning asarlariga miniaturalar ishlaganlar.

Shayboniylar davrida Samarqandda ko'plab shoirlar – Zayniddin Vosifiy, Kamoliddin Binoiy, Abdurahmon Mushfiqiy va boshqalar ijod qilishgan. Hirotida tug'ilgan shoir Binoiy Samarqandga kelib Shayboniyxon saroyida

¹ Mirqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. ... 41-b.

² История Самарканда. В двух томах. Том 1. ... С. 165-169.

ijod qilgan. Uning «Shayboniynoma» va «Fujuhati xoniy» kabi asarlari bevosita Shayboniyxonning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Shayboniy-lar hukmronligi davrida Samarqand adabiy muhitida yuqorida nomlari keltirilgan shoirlardan tashqari Boqiy Kaffosh Samarqandiy, Choshniy Samarqandiy, Darvesh Samarqandiy, Havoiy Samarqandiy, Ashrafiy, Yumliy Miyonqoliy, Moiliy Samarqandiy, Haziniy Samarqandiy, Mutribiy Samarqandiy, Mavlono Yusuf Qarobog'iy, Mirakiy Samarqandiy-lar ijod qilishgan. Samarqand adabiy muhiti XVI asr o'rtalari va ikkinchi yarmi-da Samarqand hokimi Sulton Saidxon davrida shakllandi va rivojlandi. Bu shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlar Mutribiyning tazkiralari-da keltiriladi¹.

Bu davrda tibbiyot sohasida qilingan ishlar ham muhimdir. 1541-yilda Muhammad Husayn Ibn al-Me'roki as-Samarqandiy tibbiy va farmakologiya ro'yxatiga oid ilmiy asar yozib, unga o'ta dorivor o'simliklardan dori tayyorlash va saqlash uchun ishlatiladigan idishlarning rangdor nafis siyratlarini ilova qilgan. XVI asrga oid qozixona hujjatlaridan Samarqandda tabiblar ko'z kasalliklarini davolash ishlari bilan shug'ullanganliklarini bilish mumkin. Ko'z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon shayboniy Navro'z Ahmadxon huzurida ishlagan. Samarqandda Ko'chkunchixon zamonida hirotlik tabib Sulton Ali ishlagan. U kasalliklar va terapiya haqida umumiy ma'lumot beradigan «Tabiblik dasturilamali»ni yozgan. 1526-yilda «Dasturil al-iloj» asari yaratilgan. Bu davrda matematik va astronom Muhammad ibn Izzudin Shayx Husayn Abdusamat Samarqandda yashagan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda Samarqandda hunarmandchilikning 61 turi mavjud bo'lgan².

XV–XVI asrlarda Yevropada boshlangan Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida quruqlik savdo yo'llarining ahamiyati pasayib, suv savdo yo'llari ahamiyati oshdi. Mazkur holat Buyuk ipak yo'li ahamiyatining pasayishiga sabab bo'ldi. Natijada savdo-diplomatik aloqalar sustlashib, o'zaro ichki ziddiyatlar va talonchiliklar kuchaygan. Bu esa mamlakat ichida parokandalikni kuchaytirgan. Diniy va dunyoviy hokimiyat vakillari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etgan. Ana shunday sharoitda Samarqand taxti tepasiga kelgan shayboniy-lar temuriylardan meros hokimiyatni saqlab qolish va rivojlantirishga harakat qilishgan. Shayboniy-lar temuriylar singari o'qimishli madrasa ta'limini

¹ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 290–300-betlar.

² Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – Москва: Искусство, 1965. С. 350–351.

olgan, dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan, harbiy san'atda ham, she'riy san'atda ham iste'dodli, ziyoli davlat arboblari bo'lishgan. Shayboniylar davrida adabiyot va san'at, me'morchilikning ravnaq topishida sulola vakillarining ibratli shaxsiy ta'sirlari ham sezilarlidir.

2-§. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand

Shayboniy Pirmuhammadxon o'limidan so'ng taxtga chiqadigan birorta shayboniyzoda qolmaydi. Negaki, da'vogarlarning deyarli barchasi Abdullaxon II va merosxo'r o'g'li Abdulmo'minxon tomonidan qirib tashlangan edi. Saroy a'yonlari kimni xon sifatida ko'tarishni maslahat etishadi va Astraxandan Buxoroga kelib qolgan Jonibek Muhammad ibn Yormuhammadni taxtga chiqarmoqchi bo'lishgan. Ruslar 1554-yilda Astraxan (Ashtarxon)ni egallab olishgani uchun Buxoroga qochib kelgan shahzoda Jonibek Muhammadni xon etib tayinlashgan. Bu ishda Jonibekning Abdullaxon II ning singlisiga uylangani ham katta rol o'ynagan¹.

Jonibekxonning to'rt farzandi: Din Muhammadxon, Boqi Muhammadxon, Vali Muhammadxon va qizi Poyanda Sulton bo'lgan. O'g'illarining barchasi Buxoro davlati tarixida muhim iz qoldirgan bo'lib, ikki nafari oldinma-кетин Movarounnahr hukmdori bo'lgan².

Din Muhammadxon Abdullaxon II davrida sadoqatli xizmati uchun Nishopur viloyati hokimi etib tayinlangan edi. Xonlikka bir ovozdan tayinlangan Jonibek Muhammad esa taxtni qabul qilmaydi va to'ng'ich o'g'li Din Muhammadxonning nomzodini o'z o'rniga bosh xonlikka ilgari suradi. U shayboniy Abdullaxon II singlisining o'g'li, ya'ni jiyani bo'lgan. Ikkinchidan, bu vaqtda Din Muhammadxon Nishopur viloyati hokimi ham edi va xonlikka undan munosibroq nomzod bo'lmagan³.

1598-yilda Din Muhammadxon Eron hukmdori Shoh Abbos Safaviy bilan bo'lgan jangda shahid bo'ladi. Saroy ahli uning ukasi Boqi Muhammadxonni xon etib saylashadi va ukasi Vali Muhammadxon esa Balx viloyati hokimi etib tayinlanadi (Balxga faqat oliy xonlikka voris shahzodalargina hokim bo'lishgan)⁴.

Shunday qilib, 1598-yildan boshlab yangi sulola – ashtarxoniylar (ba'zan Joniylar sulolasi deb ham ataladi) davri boshlanib, 150 yildan

¹ Muhammad Salimbek. Kashkuli Salimiy. Ashtarxoniylar qismi (muallifning shaxsiy kutubxonasidan).

² Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. ... 245-b.

³ История Самарканда. В двух томах. Том I. ... С. 171.

⁴ Sagdullayev A., Aminov B., Matlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism. – Toshkent: Akademiya, 2000. 152-b.

ziyod vaqt davomida bu sulola vakillari Movarounnahrni boshqarishgan¹.

Aksariyat tarixchilar Boqi Muhammadxonni ashtarxoniyar sulolasining ilk xoni, deb e'tirof etishadi². Boqi Muhammadxon yetti yil hukmronlik qilib, 54 yoshida vafot etgan. Akasi Boqi Muhammadxon vafot etgach, Vali Muhammadxon xonlik taxtiga o'tiradi. Jiyani Imomqulixon ibn Din Muhammadxonni Balx viloyati hokimligiga tayinlaydi³.

Vali Muhammadxondan keyin taxtga jiyani Imomqulixon (1611–1642) ko'tariladi. Uning davrida dahbediy pirlardan bo'lgan Xoja Hoshimning xohish-irodasi bilan Samarqand taxtiga Yalangto'sh Bahodirning hokim qilib ko'tarilishi, Samarqand obodonchiligi va binokorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1615-yilda Samarqand hokimi Ibn Hojibiyga (1615) xizmat qilganini Mavloni Mutribiy o'zining «Tazkirat ush-shuaro» asarida qayd etgan. Ibn Hojibiy 1615-yilda vafot etgan va Dahbeddagi Maxdumi A'zam xonaqohida dafn etilgan⁴.

Ashtarxoniyar davrida mustaqil siyosat olib borgan Yalangto'shbiy Bahodir Boyhoji o'g'li (1578–1656) davrida Samarqand anchayin taraqqiy etgan. U «Olchin» urug'ining peshvolaridan biri bo'lgan Boyhojibiyning o'g'li bo'lgan. O'sha davrlarda otasi bilan kelib, Xoja Hoshimiy Dahbediyga (Maxdumi A'zamning nabiraloriga) murid tushgan. Keyinchalik Naqshbandiya tariqatining o'z zamonasidagi rahbari bo'lgan Xoja Hoshim yordamida Samarqand hokimi bo'ladi.

Serg'ayrat sarkarda Yalangto'sh Bahodir uch nafar ashtarxoniy hukmdorlar: Imomqulixon, Nodir Muhammadxon va Abdulazizxon davrlarida Samarqandni boshqargan. Uning so'zi ashtarxoniy hukmdorlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, u bir necha marotaba mustaqil ravishda xorijiy davlatlarga, jumladan, Eronning Xuroson viloyatiga, Afg'onistonga yurishlar uyushtirgan. Bundan tashqari, Toshkent va Turkiston yerlariga ham safar qilib, u yerdagi mahalliy nizolarni tinchitgan. Umuman olganda, Buxoro davlati lashkarboshisi lavozimida Yalangto'sh Bahodir turgan. Shu tufayli ko'pgina qo'shni podshohliklar Yalangto'shga sovg'a-salom yuborib turishgan. Xorijdagi yurishlardan u ko'pgina asir va xazinalar bilan qaytar edi⁵.

¹ Atadjanov Sh., Ilhomov Z., Ishqurvatov V., Allayeva N. O'zbek xonliklari tarixshunosligi. – Toshkent, 2011. 32-b.

² Mirzo Shams Buxoriy. Ta'rixi Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar (muallifning shaxsiy kutubxonasidan).

³ Tursunboyeva N. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2014. 95-b.

⁴ Samarqand tarixi. II tomlik. I tom. ... 279-b.

⁵ تاريخ مقبضاتى - محمد يوسف منشى - تاريخ مقبضاتى. Mang'itlar tarixiga bag'ishlangan bob. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan.

O'sha davrlarda yurtimizga kelgan rus elchisi Anisim Griboy (1641) ham Yalangto'shbekka tegishli iqto' hududlarini yuqoridagidek tartibda bayon qilgan edi. Uning axborotida shuni o'qish mumkin: «Balxdan soliq yig'ish uchun Hindiston davlati sarhadlarida joylashgan Hindukush qishloqlarigacha boriladi. Balxdan to Hindukush bag'ridagi hind qishloqlariga olib boruvchi yo'l otliq uchun 7 kun, tuyada esa 14 kunlik yo'ldir. Balx va Hind sarhadlari oralig'idagi qishloqlar, shaharlar Buxoro va Balx xonlarining yaqin kishilaridan bo'lmish Amir Yalangto'shning mulki hisoblanadi». «Bahr ul-asror» muallifi Yalangto'shni xondan keyin ikkinchi eng badavlat shaxs deb ta'riflaydi, uning mol-mulki miqdorini esa davlat xazinasi bilan qiyoslaydi¹.

Ammo Imomqulixon davrida (1611–1642) Amir Yalangto'sh boyliklarini madrasa-yu masjidlar qurishga sarfladi². Binokorlik ishlarini esa o'zining piri Xoja Hoshimiy Dahbediyning bobosi Maxdumi A'zam sharafiga Dahbedda dahmali xonaqoh, ikki masjid va 40 dan ziyod hujrasi bo'lgan madrasa qurishdan boshlaydi (madrasa hozirgi «Oybarchin» univermagi o'rnida qurilgan edi). Ayni vaqtda u Samarqandda Sherdor madrasasi qurilishini ham boshlab yuboradi. Dahbeddagi xonaqohning peshtoqiga yozilgan qit'a-qasida va Samarqanddagi Sherdor madrasasining bosh ravog'idagi yozuv bu qurilishlar oldinma-ketin, bir yilda boshlanganini anglatadi³. Manbada faqatgina «joyi huzur» so'zi xonaqoh qurilishi sanasining abjad (1618) hisobidagi vaqtga to'g'ri kelishini anglatadi.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladi, Dahbeddagi xonaqoh va madrasa 1618-yilda qurilgan ekan. Yalangto'sh Bahodir Samarqandda o'sha yil 48 hujrali (ikki darsxonali) Sherdor madrasasi qurilishini ham boshlagan. Bu haqda 1925-yilda Sadridin Ayniy o'zining «Namunai adabiyoti tojik» tazkirasida ilk bor keltirgan⁴.

O'z davrida, Yalangto'sh Bahodir ham Ulug'bek qurdirgan bu binokorlik majmuasi tuzilishini buzmaganda holda, vayronaga aylangan xonaqoh va karvonsaroy o'rnida Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdiradi. Aytish joizkim, Tillakori madrasasining masjidi ichkarisida sarflangan oltinning o'ziga bir katta obida qurish mumkin bo'lgan (shuning uchun ham madrasa Tillakori (tillodan ishlov berilgan) deb nomlanadi.

Sherdor bilan Tillakori madrasalari Samarqand shahriga zeb berib turgan eng ko'rkam obidalardandir. Yalangto'sh Bahodir kamtarlik qilib

¹ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. ... 58-b.

² Nabiyev F. 1612 – 1642-yillarda Samarqand shahri boshqaruvi / Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2018. №3 (81). 61-b.

³ www.meros.uz/post/samarqand-registon-memoriy-majmuasi.

⁴ نمونه ادبیات تاجیک - صحرایی. litog. (muallifning shaxsiy kutubxonasidan)

temuriylarga hurmat yuzasidan, o'zining obidalariga Ulug'bek madrasasi-ning tuzilishini nusxa qilib oladi. Boshqacha qilib aytganda, u Registon maydonida turli xil obidalar qurib aralashtirib yubormay, arxitekturani uyg'unlashtirib, faqatgina bir xil obidalar guldastasini barpo etishni xohlagan edi.

Shuni ham aytish joizki, «Sherdor» – «Sher aksi bor» degan ma'noda bo'lib, undagi quyosh, sher va kiyik (ohu) 12 burjlik hijriy yil hisobiga shama qilinayotir; ya'ni quyosh – hijriy shamsiy (quyosh yili); sher (Asad) yilning beshinchi oyi; kiyik (jaddiy) esa o'ninchi oydir; madrasa qurilishining boshlanishi va tugallanishi ham, ehtimol, shu oylarda yuz bergan. Bundan tashqari, musulmon astronomiyasida quyoshning Asad burjida bo'lishi, «Sa'di zamon», ya'ni baxtli zamonga ishoradir. Bu tasvirlar saljuqiylar, elhoniylar sulolalari hukmdorlari davrida hamda XVI–XVII asrlarda Eronda ham keng qo'llanilgan bo'lib, tangalarda zarb etilgan va bayroqlarda aks ettirilgan. Hatto, Amir Temur ham Shahrisabzdagi (Keshdagi) Oqsaroy peshtoqida sher bilan quyoshni aks ettirishni buyurgan. Sherdor madrasasi muhandisi usta Abdujabbor va naqshinkor tasvirlar musavviri Muhammad Avazning nomlari madrasaga kiraverishdagi marmar panjarali derazaning peshtoqiga yozib qo'yilgan¹. Madrasa devorlari va gumbazlarida Qur'oni karimning yettidan bir qismi hisobidagi oyatlar va hadisi sharifdan ham kalimalar keltirilgan.

Yalangto'sh Bahodir davrida madaniy hayot rivojlanib, o'nlab obidalar qurildi. Yalangto'shdan o'rnak olgan saroy ayonlari, olim-u ulamolar va tavongirlar madrasa, masjid, hammom, ko'prik, quduq kabi xalq ehtiyoji uchun zarur inshootlarni xayr sifatida qurishadi².

Amir Yalangto'sh Bahodir tirik paytida hokimlikdan voz kechadi. Hukmdorlikdan ko'ra, binokorlik ishlarini afzal ko'rgan Yalangto'sh Bahodir 1656-yilda vafot etadi. O'z vasiyatiga ko'ra Dahbeddagi Maxdumi A'zam xonaqohiga, piri Xoja Hoshimiy Dahbediy (Maxdumi A'zamning nevaralari) qabrining oyoq tomoniga dafn etiladi. Amir Yalangto'sh shunday vasiyat qilgan ekan: «Meni pirlarimning oyoq tomonlariga ko'mingiz; pirimni ziyoratlariga keluvchilar mening qabrimni bosib o'tishsinkim, men pirimga yarashgulik xizmat qila olmadim!»³

Manbalarda ushbu davr voqealari bilan bog'liq turli xil ma'lumotlarda chalkashliklar mavjud. XVII asrning ikkinchi yarmida Samarqand taxtiga chiqqan hokimlardan biri Xo'jaqulibiy O'tarchi bo'lgan. O'tarchining ismi

¹ www.samarkand.uz/about_region/shrines/sherdor-madrasasi-1619-1636.

² Kallayev K. Samarqand madrasalari, ilm-fan rivoji / Zarafshon. 2003. 1-son.

³ Суханварони сайқали руи замин. – Душанбе: Ирфон, 1973. С. 15.

ko'proq bu davrda Samarqandga yurish qilgan Xiva xoni Anushaxon (1664–1687)ga sotilgan shaxs sifatida tilga olingan. Bu davrda Samarqandda Xiva xoni Anushaxon nomi bilan tilla tanga zarb etilgan. Xiva va Buxoro o'rtasidagi urushlar uzoqqa cho'zilmagan va ko'p o'tmay, yana shaharda ashtarxoniy Subxonqulixon (1681–1702) hokimiyati o'rnatilib, 1689-yilda shaharga kenagas urug'idan bo'lgan Ibrohimbek hokim etib tayinlangan¹.

Ibrohimbek 1700-yillarning boshlarida Samarqand hokimligini ashtarxoniyning nufuzli amaldorlaridan bo'lgan Farhodbek otaliqqa topshirib, o'zi Shahrisabzga hokim bo'lgan. Farhodbek otaliq Samarqand taxtiga chiqqach, mustaqil siyosat yuritishga harakat qilgan. Shu munosabat bilan Farhodbek otaliq Samarqandda mustaqil xonlik tuzishni ilgari surgan edi. Lekin bundan xabar topgan ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon (1711–1747) Farhodbek otaliqni qatl ettirgan.

Farhodbek otaliqdan so'ng Samarqand taxtiga Rajab Sulton (1717–1731) tayinlanadi. Rajab Sulton Ibrohimbek kenagasning kuyovi bo'lib, u 1722-yilda Shahrisabz, Miyonqol va Urgut hokimlariga suyangan holda mustaqil Samarqand xonligiga (1722–1731) asos soladi. Ibrohimbek Shahrisabzda hokim bo'lishiga qaramay, Samarqanddagi siyosiy jarayonlarga aralashgan va Rajab Sultonni qo'llab-quvvatlagan.

Abulfayzxon davridagi inqirozni, shuningdek, o'sha davrda Buxoroda bo'lgan rus elchisi F.Beneveni ham o'z asarlarida yozib, Toshkent, Xo'jand, Balx, Badaxshon, Hisor va boshqa viloyatlar poytaxtlari bilan deyarli mustaqil mulklarga aylanganini ko'rsatib o'tgan edi².

Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi chuqur inqiroz Buxoro xonligida Abulfayzxonning obro'sini tushirib yuboradi va natijada hokimiyat mang'it urug'i vakillari qo'lga o'tadi.

Bu davr Markaziy Osiyo tarixida siyosiy jihatdan parokandalik davri bo'lib, bundan foydalangan jung'orlar (oyrotlar) 1723-yil Samarqandni zabt etdilar. Ibrohimbek jung'orlardan foydalanib, Buxoro amirligi taxtini egallashga harakat qilgan. Ayni davr shahar hayotida inqirozli bo'lib, Samarqand qarovsiz qolgan va bir muddat, taxminan 7 yilcha aholi yashamagan. Buxoro amiri Doniyolbek davrida (1758–1785) uning o'g'li Shohmurod Samarqandga hokim (1780–1785) etib tayinlangach, shaharga Samarqandga yondosh turli mintaqalardan vakillar keltirib, 24 ta mahalla barpo etgan. Shohmurod tashabbusi bilan islohotlar o'tkazilib³, Samar-

¹ Bahodirov I. Said Bahodirxon va Safoxo'ja. – Toshkent, 2018. 188-b.

² Agzamova G.A. XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rni. ... 363-b.

³ История Самарканда. В двух томах. Том I. ... С. 265.

qandda madrasalar faoliyati yana yo'lga qo'yildi, ilm-fan va madaniyat taraqqiy eta boshladi.

Ilm-fan sohasida siljishlar bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida Samarqandda Olim Shayx Azizon (1564–1632) ilmiy-tasavvufiy faoliyatlar olib borgan bo'lib, uning «Lamahot min nafaqat ul-quds» asari nafaqat tasavvuf va hadisshunoslikda, balki tarixshunoslikda ham katta ilmiy ahamiyat kasb etgan va madrasalarda o'qitilgan. Ashtarxoniy hukmdor Nodir Muhammadxonning (1642–1645) taklifi bilan Xurosonning Mashhadi muqaddas shahridan Samarqandga ko'chib kelgan tog'asi Mir Abu Tohirxojayi Sadri Mashhadiy («Samariya»ning muallifi Abu Tohirxojayi muftiy bilan adashtirilmasin) va uning avlodlari XX asr boshlariga qadar Sherdor va Tillakori madrasalariga mudarrislik qilishgan.

XVII asrning 40-yillaridan boshlab adabiyot ham rivojlana boshladi. Atoqli shoir Maliho Muhammad Bade ibe Muhammad Samarqandiy o'zining «Muzakkir al-Azhob» (1692-y.) asarida bu davrda ijod qilgan 200 dan ortiq shoirning nomini sanab o'tgan. Ularning aksariyati samarqandlik bo'lgani alohida e'tirofga loyiq. Bu davrda ijod qilgan ko'plab shoirlar hunarmand va savdogarlar oilasidan yetishib chiqqan. Husnixat ustasi Muhammad Obid ibn Muhammad Zohid Samarqandiy, do'kondor Mu'in Buxoriy, atoqli shoir, «G'olib va Matlub» dostonining muallifi, zar-do'z Fitrag'i Zardo'ziy Samarqandiy, savdogar Musiho Samarqandiy, pardozchi usta Mulhamiy Samarqandiy, bo'yoqchilar – Zabehoyi Yahudiy Samarqandiy, Rahmini Yahudiy Samarqandiy, muqovachi xattotlar – Abdullo Samarqandiy, Do'stmuhammad Sadri Samarqandiy, Mullo Muhammad Shayx G'arib Samarqandiy, Shayx Valad Samarqandiy, Xo'ja Ali ibn Miroqayn Samarqandiy, Xoja Mirshoh Samarqandiy¹ shular jumlasidandir.

Bu davrdagi ilg'or madaniyat arboblardan Sayido Nasafiy (1637–1730) va Turdi Farog'iyning nomlarini alohida qayd etish lozim. Ular o'z she'rlarida mehnatkash xalq hayotini ko'rsatishga harakat qilishgan².

Ashtarxoniylar davrida me'morchilik anchayin rivojlangan. Bu davrga oid yodgorliklardan biri Nodir Devonbegi madrasasi bo'lib, u Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi tomonidan 1630–1631-yillarda Xoja Ahror xonaqohi yonida me'mor Do'stmuhammad rahbarligida qurilgan³. Madrasa bir qavatli qilib qurilgan bo'lib, hovlisining ikki tomonida ayvon, hujralar, masjid va darsxona joylashgan. Bosh tarzidagi

¹ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 293–294-betlar.

² Samarqand tarixi. Tom 1. ... 294-b.

³ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 300-b.

peshtoq ayvon bezaklariga o'zaro uyg'unlashtirib feruza, yashil va sariq ranglarda mayda va jimjimador naqshlar bilan nafis bezatilgan.

Ashtarxoniyalar davrida Samarqandda miniatura va rassomchilik ham birmuncha oldinga siljigan. Bu davrda Muhammad Sharif Samarqandiy 1616-yilda Sa'diyning «Bo'ston» dostoniga ishlangan to'rtta miniaturationdan bittasini chizgan. Muhammad Darvesh Samarqandiy 1618-yili o'zining «Doston Zebo-Zevar» asarida to'rtta miniatura ishlagan. Sharofiddin Ali Yazdiyning 1628-yili Samarqandda tarjima qilingan «Zafarnoma» asarida yettita miniatura chizilganligi ma'lum¹.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, qo'g'irchoq teatrlari keng rivojlangan. Ushbu teatrlar ikki xil: qo'l qo'g'irchoq'i va chodirxayol bo'lgan. Qo'g'irchoq teatrlarining chiqishlarida ruhoniylar, qozilar va ma'muriyatning kirdikorlari tanqid qilingan. Qo'g'irchoq teatrlari bilan birga musiqa san'ati ham rivoj topgan. O'nlab musiqa ijrochilari va bilimdonlarining ismlari ma'lum. Musiqa bilan nafaqat soha mutaxassisleri, balki rassomlar, shoirlar va olimlar ham shug'ullanishgan. Masalan², Binoiy, Hofiz Tanish, Hasan Ansoriy, xattot Mahmud Is'hoq, tabib Mavlono Samarqandiy.

3-§. Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand³

Birinchi mang'it hukmdori Muhammad Rahimbiy mamlakatda avj olgan siyosiy parokandalikka qarshi kurashadi. Davlatdagi iqtisodiy hayotni tartibga solishga harakat qiladi. Markaziy hokimiyatga Nurota, Kobadiyon, Boysun, Huzor, Panjikent, Urgut, Jizzax, Zomin va Shahrisabz kabilarni bo'ysundiradi. Muhammad Rahimbek Samarqandga kelganida shahar bo'shab qolganining guvohi bo'ldi. Aynan bu davrga kelib Samarqandning ahvoli ko'plab tarixchilar asarlarida xolisona yoritilgan.

Manbalarda XVIII asr o'rtalarida Samarqand haqida shunday ma'lumotlar keltiriladi: «O'rta Osiyoning bir vaqtlar ko'pchilik musulmon Osiyosining madaniyat va siyosat markazi bo'lub o'tgan va chindan «Samarqand firdavsmonand» sifatiga arziydigan bir yo'sunda bezangan Samarqand keyingi zamonlarda buzilub quruq bir cho'lga aylangan edi. Mang'it amirlarining

¹ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 297-b.

² Samarqand tarixi. Tom 1. ... 297-b.

³ Mazkur mavzuni yozishda Qahramon Rajabovning «Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand» (Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni / Samarqand shahrining 2750 yilligi yubileyiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. 365-368-betlar) maqolasidan keng foydalanildi.

birinchisi bo'lg'on Rahimxon Samarqand muzofotini qo'lga kirguzamen deb kelganda (h. 1166 (1752)-yil boshlarida) Samarqand shahrida jon egasi yo'q edi, hatto Rabodi Xojabandiy to'g'oni buzulg'on va Samarqand suvdan mahrum qolg'on edi. Rahimxon ushbu safarida (h. 1166-y. jumod assoniy oyida) Rabodi Xoja Bandiyni tuzatib, Samarqandg'a suv oqizg'on bo'lsa ham odam yo'qlig'idan obod bo'lmadi¹.

Rossiyalik Ivan Kirillov 1734-yilda Samarqand haqida «Samarqand avvalda shuhratli va kuchli davlat bo'lgan. Hozirda esa madrasa va ko'plab arabcha va boshqa tildagi kitoblardan tashqari unda hech narsa qolmagandir» degan. 1790-yilda O'rta Osiyoda bo'lgan Novopatraszk mitropoliti Xrisanf ham shahardagi bu holatni tasdiqlab, «Samarqand hozirda bo'm-bo'shdir, uni zabt etgan takabbur Buxoro noibi qanchalik harakat qilmasin, uni oldindagidek aholi bilan to'ldirish borasidagi uning mehnati bekordir»², – deb qayd etadi.

Mang'itlar sulolasi davrida Samarqand shahri aholisi asta-sekinlik bilan to'ldirib borilgan. XIX asrning 40-yillarida shaharda taxminan 25–30 ming kishi istiqomat qilgan³. Ammo Samarqand poytaxt bo'lmasa-da, oliy hukmdorlar shaharda joylashgan Ko'k toshga o'tirish rasmiy marosimi o'tkaziladigan markaz sifatida ahamiyatini saqlab qoldi.

Mang'itlar sulolasining asoschisi va birinchi hukmdori Muhammad Rahimxon 1756-yil 12-dekabrda Buxoro xonligi taxtiga rasmiy ravishda xon bo'lib o'tirgach, o'z hokimiyatiga siyosiy tus berish maqsadida Samarqandga yo'l oladi. Bu davr manbalarida shahar «Dor us-saltanat Samarqand» deb tilga olinadi. Urgutlik so'fiy va tarixchi Humuliyning «Tarixi Humuliy» asarida keltirilishicha, Muhammad Rahimxon Samarqandga maxsus kelib, mashhur Ko'k tosh taxtiga ham o'tirgan. Humuliyning yozishicha, Muhammad Rahimxon hali otaliq mansabida ishlagan paytidayoq Ko'k tosh taxtiga o'tirish marosimini o'tkazgan edi⁴.

¹ *Agzamova G.A.* XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rnini. ... 364-b.

² *Соколов Ю.А.* Бухара, Самарканд, Келиф в 1813 г. Публикация отрывка из «Путешествия мир-Иззатуллы в Среднюю Азию 1812-1813 гг.» / Труды ТашГУ. Новая серия. Вып. X. Исторические науки. Кн. 14. – Ташкент, 1957. С. 196; *Agzamova G.A.* XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rnini. ... 363-b.

³ *Саидкулов Т.С.* Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины. – Самарканд, 1970. С. 9.

⁴ *Анке Фан Кюхельген.* Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алматы: Даик-пресс, 2004. С. 268–269.

Xullas, Muhammad Rahimxon Buxoro xoni bo'lgach, mamlakatda poytaxtdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi Samarqand shahriga alohida e'tibor bilan qaragan. Ma'lumki, Samarqand shahri XVIII asr 20-yillarida toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarda (soxta xon Rajab Sulton – Rajabxonning xatti-harakatlari) va ko'chmanchi qozoqlarning shaharga bostirib kelishi natijasida butunlay vayron bo'lgan va xarobaga aylangan edi. Bu fojialar shu qadar dahshatli bo'lganki, odamlar 1730-yildan boshlabgina Samarqand qal'asiga qaytib kelishgan va o'zlariga uy-joy qura boshlaganlar. Biroq Eron shohi Nodirshohning 1740-yildagi bosqinchilik yurishi natijasida Samarqand yana dushman qo'liga o'tadi va vayronaga aylanadi. Muhammad Rahimxon urushlar tufayli vayron bo'lgan Samarqanddagi Darg'om kanalini qayta tiklagan, shahar devorlarini ta'mirlashga buyruq bergan. Muhammad Rahimxon Hisorni egallagach, bu yerdan Samarqandga bir necha ming oilani ko'chirgan edi.

Amir Muhammad Doniyolbekning 12 barkamol o'g'li bo'lib, ular o'rtasida katta o'g'li va vorisi Shohmurod (1741–1800) alohida ajralib turgan. Shohmurod 1780-yildan Samarqand hokimi bo'lgan. Shohmurod Samarqand shahrini tiklash va obod qilishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Xususan, u otasi vafot etgach, 1785-yil 9-iyunda Buxoro amiri bo'lganidan so'ng Samarqandni obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor bilan yondashadi.

Samarqandda Ko'k toshga o'tirish an'anasi XIX asrning birinchi yarmida ham davom etdi. Shohmurodning o'g'li, ashtarxoniy Abulfayzxonning qizi tomonidan nabirasi Amir Haydar (1800–1826)ni oq kigizda oliy hukmdor etib ko'targanlar va Samarqandda Ko'k toshga o'tqazib, uni rasman hukmdor etib tan olganlar. Bu voqeani XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo'lgan E.K. Meyendorf o'z ma'lumotlarida keltirib o'tadi. Uning qayd etishicha, oliy hukmdor taxtga o'tirish marosimini o'tkazish uchun Samarqandga borishi va Mirzo Ulug'bek madrasasida turgan Ko'k toshga o'tirishi lozim edi. «U (ko'k tosh) to'rtburchak shaklida bo'lib, har tomonining uzunligi bir yarim sarjin, qalinligi bir arshindir. Bu toshni oq kigiz yopib turadi. Xon o'tirgach uchlarini ulamolar, fuqarolar, fozillar va sayidlar ushlagan bu kigizni uch marta ko'taradilar»¹.

Amir Shohmurod hukmronlik qilgan davr (1785–1800) – atigi 15 yil ichida Samarqandda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va turli binolar qurilgan. Samarqand va Buxorodagi bo'shab qolgan madrasalar bu davrda yana ilmi toliblar bilan gavjum bo'lgan. Shuningdek, Amir

¹ Agzamova G.A. XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rni. ... 363-b.

Shohmurod Samarqand madrasalarini tiklashda faol qatnashgan. Jumladan, 1455-yilda qurilib, «Madrasayi safed» («Oq madrasa») nomini olgan ikki qavatli Xoja Ahror madrasasini Shohmurod qayta qurgan. Bu madrasa Samarqandning janubiy qismida, shaharning Soʻzangaron dahasiga olib boradigan katta koʻchaning gʻarbiy qismida joylashgan edi. Bu bino Koʻkaldosh madrasasining qurilish materiallari hisobiga qayta taʼmirlangan. Amir Shohmurodning farmoni bilan Samarqanddagi Shayboniyxon va Ulugʻbek madrasalari qayta tiklanib, taʼmirlandi va shuningdek, qalʼa va shahar devorlarining buzilgan qismlari ham qayta qurildi. Ana shu davrda Shohizinda maqbarasi zinapoyasining tepa qismidagi oʻziga xos ark-gumbaz tarmogʻi – Chortoq binosi qurildi. Shohmurodning oʻzi qayta qurilajak shahar tarhini chizgan. Shahardagi ariqlar va tomorqalar tozalangan¹.

Samarqand madrasalarida tahsil olgan Humuliyning yozishicha, Amir Shohmurod shaharda 24 ta yangi mavze qurdirib, mamlakatning sharqiy viloyatlaridan bu yerga aholini koʻchirib keltirgan. Samarqand shahridagi har bir madrasa va masjidga mudarris, muazzin va imomni Amir Shohmurodning shaxsan oʻzi tayinlagan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu – «Toqi musaddas» qurdiradi. Chorsu baland burchakli bino boʻlib, uning markazida baland gumbaz va undan ajraladigan olti yoʻlak boʻlgan. Bu yoʻlaklar shahar darvozalari – Buxoro, Korizgoh, Soʻzangaron, Feruza, Ohanin va Haydarobodga qarab ketgan. Samarqandning oltita asosiy darvozasi Amir Temur davrida ana shunday nomlangan. U Samarqand yaqinidagi Dahbed mavzesida joylashgan Maxdumi Aʼzam ziyoratgohini ham qayta barpo qildirgan².

1800–1826-yillarda Buxoro amiri boʻlgan Amir Haydar (1778–1826) otasi Amir Shohmurodning siyosatini davom ettirdi. Amir Haydardan boshlab Buxoro hukmdorlari oʻzlariga «sayyid» («said») unvonini ham qoʻshib olishgan. XIX asr boshlarida Amir Haydar Buxoro amirligidagi markaziy hokimiyatga boʻysunishdan bosh tortib, ayirmachilik (separatistik) kayfiyatlarni namoyon qilayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut beklilari, Miyonqol va Samarqand hokimlariga qarshi janglar olib borishga majbur boʻlgan. Bu paytda dushmanlar qutqusi bilan Amir Haydarga qarshi chiqqan amakilari Umarbiy va Fozilbek Nasaf (Qarshi)ni egallashgan, Samarqandda ham isyon koʻtarilgan.

¹ Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud «Amiri maʼsum» // Buxoro mavjlari. 2006. 1-son. 36–38-betlar.

² Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов. ... С. 268–269.

Tarixchi Mirzo Salimbekning yozishicha, Amir Haydar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun Samarqandga hokim etib Davlatbek (devonbegi) qushbegini (ukasi Muhammad Husaynbek o'rniga) tayinlagan. Davlatbek qushbegi 1814-yilgacha Samarqandni boshqargan. Davlatbek qushbegi 1812-yillarda Shohizinda majmuasi tarkibida kichik madrasa qurdirgan¹. Undan keyin Samarqand viloyatiga Amir Haydar safdoshlaridan 4 kishi: Ayozbek, Muhammadbek, Muhammad Safarbek, Ibrohim Dodxoh kabi beklar hokim qilib tayinlandi. Mang'itlar sulolasining yettinchi hukmdori bo'lgan Amir Nasrulloh Bahodurxon (1806–1860) davrida ham Samarqand strategik jihatdan amirlikdagi muhim shaharlardan biri hisoblangan.

Mang'itlar sulolasi davrida Samarqandda iqtisodiy o'sish ko'zga tashlanadi. Xususan, Amir Shohmurod hukmronligi yillaridan boshlab shahardagi iqtisodiy hayot sezilarli darajada jonlangan. XVIII asr o'rtalaridan to XIX asrning so'nggi choragigacha Samarqand mintaqada hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdoning yirik markazi bo'lib qoldi.

Bu davrda Samarqandda gul solingan turli rangdagi shoyi va atlas gazlamalar, abr, ip va shoyi olacha, zandaniycha, bo'z va guldor gazlamalar, shoyi ro'mollar ishlab chiqarilgan. Bu davrda fo'ta to'qish ham keng tarqalgan edi. Masalan, XIX asrning 70-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, birgina Samarqandda fo'ta to'qiydigan korxonalar soni 40 ta bo'lgan².

Samarqand o'zining zargarlari bilan ham shuhrat qozongan edi. Ular kumush va misdan, ba'zan oltindan ham ayollar uchun bezaklar, taqinchoqlar tayyorlashar, ularni qimmatbaho toshlar bilan qoplashardi. Zargarlar uzangilarni, shu jumladan, egar-jabduqlarni ham kumush bilan bezatishardi. Bir xil mahsulot tayyorlaydigan hunarmandlar o'ziga xos uyushmalarga birlashgan. Bitta uyushma a'zolari bo'lgan ustalar, odatda shaharning bir mahallasida yashagan. Samarqandda Zargaron (zargarlik bilan shug'ullanuvchi ustalar), So'zangaron (igna tayyorlovchi ustalar), Charmgaron (ko'ncilar), Xarroton (yog'och yo'nuvchi ustalar, duradgorlar), Kulolon (kulollar), Sharbatdaron (sharbat tayyorlovchilar) va boshqa shu kabi mahallalar bo'lgan. Amirlik poytaxti hisoblangan Buxoroda ham ana shunday ustalar mahallalari azaldan mavjud bo'lib, ular hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Temuriylar davrida bo'lgani sin-

¹ Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. – Buxoro, 2003. 14-b.

² A'zamova G.A. So'nggi o'рта asrlar O'рта Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. ... 21-b.

gari mang'itlar sulolasi davrida ham Samarqandda a'lo navli sifatli qog'oz ishlab chiqarilgan. 1863-yilda Buxoro va Samarqandda «turk hojisi» qiyofasida bo'lgan vengriyalik taniqli sharqshunos va sayyoh, ayni paytda Buyuk Britaniya imperiyasining xufiyasi German Vamberi (1832–1913) o'zining asarlarida Samarqand va Buxoroda o'sha paytlarda ishlab chiqarilayotgan qog'ozga juda yuqori baho beradi¹.

Vamberi o'z asarlarida Samarqanddagi hunarmandlar faoliyatiga juda yuqori baho bergan. U Samarqanddagi jabduq yasovchi ustalar haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: «Samarqand bozorlarida sotish uchun mashhur charm mahsulotlar, did bilan ishlangan egarlar qo'yilgan, ularning bezagi hatto yevropalik ustaga ham shuhrat keltirishi mumkin»².

Bu davrda Buxoro xonligining savdo-sotiq aloqalari rivojlangan. Chunonchi, Samarqand va Buxorodan Rossiya va Hindistonga, boshqa mamlakatlarga shoyi va ip gazmollar olib borilgan. XVIII asrning oxirida Samarqand bozorlariga Rossiya, Xitoy, Hindistondan turli buyumlar keltirilgan. O'z navbatida, Samarqand shahri va uning atroflarida yetishtirilgan qog'oz, olacha choponlar, sopol buyumlar, quruq meva, qorako'l teri, ot-ulovlar bu mamlakatlarga olib borilgan.

XIX asrning birinchi yarmida ichki va tashqi savdoning yanada o'sganligi ko'zga tashlanadi. Shaharda karvonsaroylar va do'konlarning ko'payganligi ana shundan dalolat beradi. Bu paytda Samarqandda mavjud bo'lgan ayrim bozorlar boshqa shaharlarda uchramasligi mumkin edi. Masalan, ayrim manbalarda shaharda «bozori bargi tut» nomi bilan mashhur bozorlari bo'lganligi tilga olinadi. Jumladan, XIX asrda Samarqandda bunday bozor mavjud bo'lib, ipak qurti boquvchilar barg tanqisligi sezilganda uni shu yerdan sotib olganlar. Shahardagi Sherdor madrasasi yonidagi ko'chat bozorida esa «boshqa daraxtlar bilan bir qatorda tut daraxtining «balxiy» va «xorazmiy» navlari katta miqdorda sotilgan»³.

Xullas, Samarqand shahri XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligining ikkinchi eng muhim savdo va hunarmandchilik markazi hisoblanardi. 1820-yil A.F. Negri missiyasi tarkibida Buxoroda bo'lgan E.K. Meyendorfning yozishicha, bu paytda Samarqandda 50 000 kishi yashagan⁴. Qiyoslash

¹ *Герман Вамбери. История Бухары или Трансоксании. Съ древнейшихъ время до настоящаго / Перевод А.И.Павловскаго. Т. I, II. СПб., 1873. С. 369; 1874. С. 383; 1873. С. 226.*

² *Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва, 1865. С. 80.*

³ *А'затола Г.А. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. ... 42-b.*

⁴ *Мейендорф Б.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. С. 80.*

uchun shuni ta'kidlash lozimki, XIX asr boshlarida Buxoro amirligida taxminan 2 mln. kishi, poytaxt Buxoroda esa 60 000 kishi yashagan. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlar va bekliklarga ajratilgan. Amirlikdagi eng yirik Buxoro va Samarqand viloyatlari esa tumanlar va boshqa kichik ma'muriy birliklarga bo'lib idora qilingan.

Samarqand viloyati va shahrini amir tomonidan tayinlangan hokim boshqargan. XIX asr 50-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi Turkiston mintaqasiga bosqinchilik yurishlarini boshladi. Bu paytda Buxoro amiri Nasrullohxonning o'g'li Muzaffarxon (1819–1885) bo'lgan. Amir Muzaffar qo'shini bilan general Romanovski boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan O'ratepa o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un)da 1866-yil 8-mayda bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan¹.

1868-yil 1-mayda Samarqand yaqinidagi Cho'ponota tepaligida rus podshosi qo'shinlari bilan samarqandliklar o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Nihoyat, chor Rossiyasi armiyasi katta talafot berib, shaharni egalladilar. Turkiston o'lkasi general-gubernatori general K.P. Kaufman shahar va uning atrofida joylashgan viloyatlardagi mahalliy amaldorlar o'z o'rinlarida qoldirilganini, xalq bungacha mavjud bo'lgan soliqlarni podsho Rossiyasi xazinasiga topshirmog'i lozim ekanligini e'lon qilgan. Samarqand viloyatida general N.N. Golovachyov boshliq harbiy-byurokratik hokimiyat tashkil qilinib, mehnatkash aholining mahalliy amaldorlar va podsho ma'muriyati tomonidan ezilishi Samarqand qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olon 1868-yil 1–8-iyunda Samarqandda ko'tarilgan. 1-iyun kuni amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li va valiahd Abdulmalik To'ra (1848–1909) boshchiligidagi qo'shinlar Shahrisabzdan Samarqandga yo'l olishgan. Qo'zg'olonga dastlab Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek (1840–1906) va Bobobek (1833–1898), keyinchalik Abdulmalik To'ra (Katta To'ra) rahbarlik qilgan². Bu orada Zirabuloq jan-gida amir qo'shinlari ruslardan mag'lubiyatga uchragan (1868-yil 2–3-iyun). Sadriddin Ayniy (1878–1954)ning fikricha, Abdumalik To'raning harakati va qo'zg'olonchilarning jasorati tufayli Kaufman Buxoroga hujum qilishdan voz kechishga va sulh tuzishga majbur bo'lgan³.

¹ Rajabov Q. Muzaffar // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T. 6. – Toshkent: O'ME, 2003. 112–113-b.

² Мирза Абдалмалым Сами. История мангытских государей. – Москва, 1962. С. 51–53.

³ Malikov A. Samarqand qo'zg'oloni // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T. 7. – Toshkent: O'ME, 2004. 477-b.

Xullas, 1868-yil 23-iyunda Samarqandda Rossiya-Buxoro sulh shartnomasi imzolangan. Bu sulhga ko'ra Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tgan. Shunday qilib, Samarqand shahri 1756–1868-yillar oralig'ida Buxoro amirligi tarkibidagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etgan. Mang'itlar sulolasi vakillari va shahar hokimlari Samarqandni rivojlantirish va obodonlashtirish ishlariga baholi qudrat o'z hissalarini qo'shishgan. Yuz yildan ortiq bo'lgan ushbu davrda, xususan, Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi yillarida shahar qiyofasi tubdan o'zgargan, Eski shaharning hozirgi ko'rinishiga aynan o'sha paytda asos solingan.

Mang'itlar davrida podshoh, olim va mudarris bo'lgan Amir Haydar boshqalarga katta ibrat ko'rsatib, eski madrasalarni ta'mirlash va yangilarini qurish bilangina qanoatlanmay, boz ustiga, o'z bilimni tolibi ilmlardan ayamagan. Bu davrda mashhur olimlar sulolasi hisoblangan mufassir olim qozi ul-quzzot Abdulhayxoja, uning o'g'li qozi ul-quzzot Mir Abu Sa'idxoja va nabirasi, «Samariya» asarining muallifi muftiy Mir Abu Tohirxoja Sherdor madrasasida shariat, tarix, adabiyot sohalarida ijod etishib, ta'lim berishgan. Qo'qon xonligini zabt etgan Amir Nasrulloh mashhur alloma Olim Muhammad Samarqandiyini shaxsan o'zi bilan Samarqandga keltirib, Tillakori madrasasiga mudarris va qozi ul-quzzot etib tayinlagan. Shuningdek, turli davrlarda Ulug'bek madrasasida Mavlono Qozi Sodiqi Halvoiy va Mavlono Darvesh Muhammad Oxund Turkistoniy, Shayboniyxon madrasasida Amir Ibrohim, Nodir Devonbegi madrasasida Muhammad Sharif muftiy kabi mudarris olimlar faoliyat ko'rsatgani manbalardan ma'lum. Shuningdek, Qozi Isoxonxoja as-Samarqandiyini (yuqoridagi Mir Tohiri sadr Mashhadiyning avlodidan bo'lgan bu zot 1932-yilda vafot etgan) keltirish joizkim, uning nomi XIX asrda arab-u ajam olimlari orasida mashhur bo'lgan. U Sherdor madrasasining bosh mudarrisi bo'lish bilan birgalikda viloyatning Qozi kaloni ham edi va shuning uchun ham «Qozi mudarris» nomini olgan. (Turkiston) o'lka boshlig'i Duxovskiy Samarqandga kelib Sherdor madrasasiga tashrif buyurganida, madrasa bosh mudarrisi Isoxonxojani faxriy zarchopon bilan mukofotladi. O'lka boshlig'i tomonidan musulmon oliy maktabining taniqli o'qituvchilaridan biriga bo'lgan bu e'tibori barcha mahalliy aholiga katta ta'sir ko'rsatdi¹.

XIX asr birinchi yarmida Samarqandda ilm-fan rivojlanishdan to'xtamadi, shahar amirlikning yirik madaniy markazi sifatida mavqeyini saqlab qoldi. Bu davrda Samarqand shahri aholisining qarashlari, madaniy

¹ Справочная книжка по Самаркандской области. 1898. Выпуск VI. С. 294.

hamda ijtimoiy hayotiga muhim ta'sir o'tkaza olgan ilm va fan vakillari, ziyolilar qatlami an'anaviy ta'lim maskanlari hisoblangan maktab va madrasalarda tarbiyalangan.

Bu davrdagi ma'naviy jarayonlar tahlilini amalga oshirar ekan, sovet davri mualliflari din peshvolari xalqni hukmron tabaqa manfaatlariga bo'ysundirishga intilishlari orqali zulmkor boshqaruv tizimini mustahkamligini ta'minlash bilan birga taraqqiyotga to'sqinlik qilib kelayotganligi haqida fikr yuritishadi. O'z o'rnida hukmron tabaqa esa aholi orasida tashviqotlarni olib borishlari uchun ularning tayanch muassasalari bo'lgan masjid va madrasalarni moliyalashtirib borishgan¹, degan xulosalarni beradilar.

XIX asr o'rtalarida Samarqand va uning atrofidagi hududlarda 155 ta masjid va 22 ta madrasa faoliyat olib borgan². Mazkur muassasalar xalqni islom aqidalari va tushunchalari hamda hukmron tabaqa manfaatlariga mos g'oyalar asosida tarbiyalovchi maskanlar edi. Ya'ni bir so'z bilan aytganda, mazkur diniy va maorif maskanlari jamiyatda islom ahkomlari va din vakillari orqali hukmron doiralarning o'z hukmlarini aholi orasida mustahkamlash quroli sifatida faoliyat yuritib borar edilar.

Samarqand viloyati va shahar hududida an'anaviy madrasa, qorixona, xonaqo va daloyilxonalar kabi ta'lim maskanlari bo'lib, ular yoshlar va katta avlod vakillari ma'naviyati va axloqiy tarbiyasini oshiruvchi maskanlar vazifasini bajargan.

Madrasalarda dunyoviy ilmlardan ko'ra diniy ilmlarga, xususan, shariat aqidalariga keng o'rin berila bordi. Islom asoslarini, shariatni, fiqhni bilishning o'zi yetarli, degan cheklangan qarash madrasalarda ham o'rin ola boshlaydi. Sxolastika, kitobiylik, mutaassiblik kuchayadi, ta'lim tizimida turg'unlik, aytish mumkinki, sukutlik (regress) tamoyili yetakchilik qiladi³. Samarqand madrasalari faoliyatida ham yuqorida keltirilgan vaziyat hukm surgan.

Samarqandda XIX asrda faoliyat yuritgan madrasalar binolarining aksariyati XV–XVIII asrlarda bunyod etilgan. Madrasalar ta'minoti yirik vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilgan. Masalan, Samarqanddagi Sherdor va Tillakori madrasalari vaqflardan yiliga 7600 rubl daromad olgan⁴.

¹ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. ... С. 34.

² O'zMA. F. 5. Ro'yhat-1. Ish-12. 125-vaqar.

³ O'zbek pedagogikasi antologiyasi (II jild). – Toshkent: O'qituvchi, 1999. 9-b.

⁴ Исмаилова Д.А. Роль и место ислама в общественно-политической жизни народов Туркестана (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2006. С. 14.

Samarqand madrasalari davlat hisobidan tashkil etilgan bo'lmada, ularning faoliyatini nazorat qilish, boshqarish va ta'minlashning mustahkam mexanizmi mavjud bo'lgan. Bu tizim asrlar davomida takomillashib borgan. Biroq XIX asr sharoitida ta'lim maskanlari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha shakllangan mexanizm jamiyat va davr talabiga javob bermay qolgan edi.

Madrasa boshlig'i sifatida barcha fanlar o'qitilishini nazorat qiluvchi mudarris tayinlangan. Mudarris yuqori bosqich talabalariga va uning boshchiligida yordamchi – muharrirlar quyi bosqich talabalariga dars berganlar. Mudarris faqat madrasadagi o'quv jarayoniga mas'ul bo'lib, vaqf mulklarining boshqaruviga aralashish vakolatiga ega bo'lmay, faqat madrasa ehtiyojlari haqida mutavalliyga axborot berishi mumkin edi¹.

O'quv dasturlar asosini islom huquqshunosligi, arab tili grammatikasi tashkil qilgan. Fanlarning ko'p qismi diniy bilimlardan iborat bo'lib, falsafa, geometriya, matematika, geografiya, tibbiyot, kimyo kabi fanlar ham o'qitilgan². Y.N. Pavlovskiy ma'lumotiga ko'ra, madrasalarda tarix, fizika, tabiat fanlaridan qisqa va umumiy ma'lumotlar ham berilgan³.

Keng aholi dunyoqarashi va madaniy tushunchalari, albatta, ta'lim orqali shakllanadi. Shu sababli, Samarqand aholisining, binobarin, butun amirlik aholisining dunyoqarashi ta'lim maskanlarida berilgan ilm asosida shakllangan. Manbalar tahlili asosida ta'lim dasturlarining asosiy qismini islom dini bilan bog'liq ilmlar tashkil etishini aniqlash bilan birgalikda ta'kidlash mumkinki, aholi dunyoqarashining asosini islom doirasidagi tushuncha va ilmlar tashkil etgan. Albatta, ba'zi hollarda chet ta'lim muassasalarida yoki o'z intilishlari natijasida dunyoviy bilimlarni egallagan shaxslar mavjud edi. Lekin bu ayrim holatlar bo'lib, umumiy xulosalar qilish imkonini bermaydi.

Lekin shunga qaramasdan, Abdurahmon Jomiy, Xoja Xofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mirza Bedil kabi allomalar asarlariga iqtidorli talabalarda qiziqish katta bo'lgan. O'z davrida bu kabi talabalar qatorida Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Mujrim Obid, mulla Qurbonjon Xiromiy, Muztari Miriy va boshqalar bo'lishgan. Ular o'zlarining ijodlarida buyuk

¹ Керетский Ф.М. Медресе Туркестанского края // Туркестанский сборник. Том 418. – Ташкент, 1907. С. 6.

² Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalari tarixi. – Andijon: Meros, 1994. 60-b.; Исмаилов Ш.Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. С. 15.

³ Павловский Е.Н. Очерки Самаркандской области. (С рисунками в тексте) // Туркестанский сборник. Т. 554. – Ташкент, 1915. С. 53.

allomalar asarlaridagi fikrlarni aks ettirishga harakat qilishgan. XIX asr birinchi yarmida Samarqandda Abdurahmon ibn Muhammad Latif Mustajir Samarqandiy kabi tarixchi olimlar ham yashab ijod qilgan. Abdurahmon Samarqandiy rus sharqshunosi A.Kun boshchiligida tashkil etilgan ekspeditsiyada ishtirok etib, uning kundaliklarini to'ldirib borgan. «Ro'znomayi vistavka Maskav», «Ro'znomayi safari Iskandarko'l» asarlari uning qalamiga mansub. Shu davrda mashhur «Tarixi kasira» nomli tarixiy asar muallifi Sayid Sharif Raqamiy Samarqandiy ham shaharda yashab ijod qilgan. Bundan tashqari, yana bir tarixchi olim Sulaymonxo'ja Samarqandiy «Tavsil va bayoniyi davlati mang'it va zamoni Rahimxon» nomli tarixiy asarini yaratgan. XIX asr samarqandlik tarixchi olimlar asarlari orasidan Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning «Samaruya» asarini alohida eslab o'tish o'rinlidir. Bu asarda shahar topografiyasi, shahar tarixi bo'yicha boy faktik ma'lumotlar keltirilgan¹.

Ta'kidlash joizki, XIX asrda Samarqand Alisher Navoiy asarlari targ'ibotida muhim rol o'ynagan. Misol uchun, 1824–1825-yillarda xattot Mir Abdulxay ulug' shoirning «Xazinayi ul-maoniy» asarini sharqona uslubda qayta ko'chirgan. Yana bir xattot mulla Muqimxon 1849–1850-yillarda Alisher Navoiyning «Xamsa»sini qayta ko'chirgan².

Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Chahor devon» kabi dunyoga mashhur, o'zbek adabiyotining durdona asarlari ham XIX asr birinchi yarmida qayta ko'chirilib, keng o'quvchilar orasida tarqatilgan edi. Shuningdek, Mashrab, Huvaydo, Sayqaliy, Shavqiy, Amiri G'oibiy kabi mashhur adabiyot namoyandalarning asarlari qayta ko'chirilgan va o'quvchilar orasida tarqalganligi haqida ma'lumotlarni ham uchratish mumkin³.

XIX asr birinchi yarmida nodir qo'lyozmalarni to'plash va qayta ko'chirish ishlari ham keng rivojlangan. Xattot Abdujabbor Nayman Samarqandiy Abu Hanifaning «Al-fiqh al-akbar» (Katta huquqshunoslik) asarini, mulla Abulfayz Samarqandiy Mirza Qurbon Xiromiyning «Chor darvesh» dostonini qayta ko'chirdilar. Ilg'or fikrlovchi xattotlardan mulla Mirza Muhammad Oxun ibn Odin Muhammad Samarqandiy, mulla Sayid Abdulvahob Samarqandiy, Muhammad Nuriddin ibn Muhammad, Olim Samarqandiy, Muhammad Rofe' ibn Shayx Muhammad Solih Samar-

¹ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века ... С. 39.

² Абдуллаев В. Навоиские чтения и последователи Навои в Бухаре в XIX веке. // Общественные науки в Узбекистане, 1962. №4.

³ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. ... С. 36.

qandiy, Muhammad Yusuf Samarqandiy, Muhammad Yoqub Samarqandiy nomlarini keltirish mumkin¹.

Albatta, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mang'itlar hukmronligi davrida Samarqandda ilm-fan sohasida qilinayotgan katta ishlardan darak beradi. Lekin XIX asr o'rtalarida Samarqand shahrida mavjud ta'lim maskanlari va ularda ta'lim olayotgan yoshlar soniga nisbatan mazkur ishlar hajman kichik edi. Ya'ni, aytish mumkinki, madrasalarda ta'lim oluvchilar uchun zamonaviy bilimlar majmuyini, o'tmish ajdodlar ilmiy merosini o'zida aks ettiruvchi adabiyotlar yetishmasligi muammosi mavjud edi. Kitob nashri ishining rivojlanmaganligi, mavjud adabiyotlar orasida yangi bilimlar aks etganligining yetarli darajada emasligi ilmiy sohadagi rivojlanishga to'siq sifatida ta'sir o'tkazar edi.

Xullas, Samarqand XVI–XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda muhim o'rin tutgan. Bu shahardan dastlab shayboniylar davlat siyosatini yuritishgan. Ashtarxoniyalar va mang'itlar sulolasi vakillari ham Samarqandga katta e'tibor qaratishgan. Mamlakatda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning barcha qarama-qarshiliklarini boshidan kechirgan bo'lsa-da, Samarqand o'zining jahondagi tarixiy ahamiyati va qiyofasini saqlab qola olgan.

¹ Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века. ... С. 40.

VII bob.

SAMARQAND ROSSIYA IMPERIYASI
MUSTAMLAKASI DAVRIDA

1-§. Rossiya imperiyasi istilosi arafasida Samarqand
shahrining ijtimoiy-siyosiy ahvoli

O'zbekistonning markaziy qismida, Zarafshon vohasida joylashgan Samarqand shahri Buxoro amirligining asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu shahar o'zining ajoyib tabiati, hosildor yerlari va go'zal bog'lari bilan ham amirlikning boshqa shaharlariga nisbatan alohida ajralib turgan. Samarqandning o'ziga xos siyosiy mavqeyi, boy iqtisodiy salohiyati doimo e'tiborda bo'lib, turli davrlarda taxt tepasiga kelgan sulola vakillarining nazaridan chetda qolmagan. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yana yirik shaharga aylangan. 1812-yilda amirlikka kelgan ingliz ayg'oqchisi Mir Izzatullaning guvohlik berishicha, bu davrda Samarqand kundan kun rivojlanib borgan edi¹. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida uning qulay geografik joylashuvining ahamiyati katta bo'lgan.

XIX asrning 60-yillari oxirlarigacha Samarqand shahri hududi kengayib borib, N.V. Xanikovning ma'lumot berishicha, «shahar aylanasi 13 verstga, uning kvadrat yuzasi 2280000 sajenga yoki 2533,31 tanobga teng bo'lib, Buxoro shahri hududidan 500 tanobga katta»² bo'lgan. Bu davrda shahar kengayishi va urbanizatsiya jarayoni jadallashgani haqida fikrimizni N.V. Xanikovning ushbu ma'lumotlari ham tasdiqlaydi.

XIX asrda shahar aholisining soni, uning o'sish dinamikasi haqida ma'lumotlar manbalarda turlicha keltiriladi. Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, 1820-yilda Samarqandda 50 ming aholi istiqomat qilgan bo'lsa³, N.Xanikov 1841-yilda 25 ming, 1863-yilda A.Vamberi 20 minggacha, 1868-yilda V.V. Radlov shahar aholisining sonini 10 mingdan oshiq kishi deb keltiradi⁴. P.P. Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida esa 30

¹ Соколов Ю.А. Бухара, Самарканд, Келиф в 1813 г. Публикация отрывка из «Путешествия мир-Иззатуллы в Среднюю Азию 1812–1813 гг.» Труды ТашГУ. Новая серия. Вып. X. Исторические науки. Кн. 14. – Ташкент, 1957. С. 196; Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. – Oxford University Press. 2008. P. 92.

² Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. С. 100.

³ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. С. 90.

⁴ Сидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков.... 1970. С. 9.

mingga yaqin kishi istiqomat qilgan deb keltirilsa¹, xorijiy mualliflar asarlarida XIX asrning 70-yillarida Samarqandda 6000 xonadon bo'lib, unda 30 ming aholi yashaganligi qayd etiladi. 1889-yilda Samarqand shahri aholisining soni 40 ming atrofida bo'lib, shulardan 6 mingtasi Yevropadan ko'chib kelganlar va 1500 kishi esa yahudiy millatiga mansub bo'lgan. 1839-yilda Buxoro yahudiylarining bir guruhi Samarqandga Mashhaddan ko'chirib keltirilgan, qolgan guruhi esa 1859-yilda Qobuldan ko'chirilgan². Boshqa manbalarda Samarqand atroflarida 80 000 o'zbek oilalari istiqomat qilgan deb ko'rsatiladi³. Shahar aholisi soni haqida yagona fikrning mavjud emasligi, aholining milliy va etnik tarkibi, ijtimoiy guruhlar va umuman, xalq turmushining ko'pgina sohalari bo'yicha xulosalar chiqarish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Biroq ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, Samarqand shahri va uning atroflari vohadagi aholi eng zich istiqomat qilgan hudud bo'lgan.

Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori K.P. Kaufman ham o'zining hisobotlarida Zarafshon daryosi havzasida aholi zichligi to'g'risida ma'lumot berib, bu hududlar aholisi zichligini Italiyadagi Lombardiya bilan taqqoslaydi⁴.

General fon Kaufman bir necha bor turli bahonalar bilan Buxoro amirligi va rus hukumati o'rtasida tinchlik kelishuvini imzolashni kechiktirib, harbiy to'qnashuvga olib boradigan yo'lni tanlagan. U Buxoro amirligidan haqoratomez, amirlikning sha'nini yerga uradigan shartlarni bajarishni talab etgan. Shunday talablardan biri Amir Said Muzaffarga 1867-yil oxirida yuborilgan bo'lib, unda Buxoro amirligining Qo'qon xonligi singari «oq podsho» hukmronligini tan olib, unga vassal bo'lishi taklif qilingan edi⁵. «Tinchlik shartnomasi»ga shu tariqa tayyorgarlik ko'rish ikki o'rtada harbiy to'qnashuvni muqarrar qilib qo'ydi. 1868-yil aprel oyiga qadar ikki o'rtadagi muzokaralar shartnomaga olib kelmadi, ikkala tomon ham urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1868-yilda Yerjar va Jizzax olingandan so'ng ruslar Samarqand ostonasiga yetib keldilar, bosqinchilar Buxoro amirligining «ikkinchi poytaxti»⁶ bo'lgan Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berishgan.

¹ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – Москва, 1958. С. 120.

² Syron Georg N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. Frank Cass&CoLTD, 1967, P. 230.

³ Хорьмичин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб, 1876. С. 506.

⁴ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX века.... С. 9.

⁵ Семёнов А.В. Завоевание Самарканда царизмом... С. 2.

⁶ Русская мысль кн. VII.1890. С. 185.

Ruslar tomonidan Samarqand shahrini zabt etish 1868-yil 1-may kuni Cho'ponota tepaligida boshlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, shaxsan general fon Kaufman qo'mondonligidagi ruslar armiyasining soni 13500 kishidan iborat bo'lib, amir sarbozlarining soni ulardan qariyb 5 baravar ko'p edi¹. Jang vaqtidagi Kaufmanning eng yaqin yordamchilari keyinchalik Turkiston siyosiy tarixida muhim rol o'ynagan Abramov va Golovachyov bo'lgan². Amir sarbozlari va rus qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang bo'lib o'tadi. Bu jangda ruslarning g'alabasini ta'minlagan asosiy kuch, ularning harbiy texnikasining, ayniqsa, artilleriyasining ustunligida edi, deb qayd qilish mumkin. 1868-yilning 2-may kuni Samarqand shahri ruslar qo'liga o'tdi.

1868-yil may oyining oxiriga qadar, uning atrofidagi barcha tuman markazlari bosib olindi. Ruslar Urgut va Chelakdan tashqari biror joyda jiddiy qarshilikka duch kelmadilar³. Bu ruslarda aholining rus fuqaroligiga ixtiyoriy o'tish ilinji bor degan tasavvurni tug'dirdi. Ammo tez orada ular yerli xalq to'g'risida sarob tasavvurga ega ekanliklarini angladilar. 1868-yilning o'zidayoq, ruslar Samarqandni qayta bosib olishga majbur bo'ldi.

Rus qo'mondonligi Samarqanddagi harbiy qo'rg'onda 658 kishini qoldirib, Buxoro tomon hujumni davom ettirdi. Kattaqo'rg'on va ayniqsa, Zirabuloqda qattiq to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. Afsuski, ichki ziddiyatlar tufayli amirlikning butun harbiy qudratini bosqinchilarga qarshi birlashtira olmagan Amir Muzaffar qo'shinlari katta talafot ko'rib mag'lubiyatga uchraydi. 1868-yil 2-iyunda Zirabuloq tepaligida bo'lgan jangda ruslar tomonidan misli ko'rilmagan vahshiylik amalga oshirilgan. Xuddi shu vaqtda, Samarqanddagi voqealarning rivojlanishi ruslarning Zirabuloqda g'alabani tantana bilan nishonlashiga imkon bermadi. Samarqandning olinishi bilan, Buxoro amirligi harbiy qudratiga shubha tug'ildi. Samarqandni ozod etish uchun Shahrisabzdan Jo'rabek va Kitobdan Bobobek boshchiligida katta harbiy kuch yo'lga chiqdi. Ular Qarshi bekligi tomonidan quvvatlandi. Qo'zg'olonchilarni shahar aholisi va uning atrofidagi joylardagi xalq quvvatladi. Natijada, 20-25 ming qo'zg'olonchilar soni tez orada 50 mingga yetdi va 1868-yil 2-iyunda ular shaharga hujum boshladi. Yetti kun davomida shiddatli janglar bo'ldi, janglar davomida ruslar talafoti 240 kishi bo'lib, ulardan 70 kishi o'lgan⁴.

¹ Мисльский В.И. Россия. Полное географическое описание. Туркестанский край. ... С. 389.

² Путеводитель по Туркестану и Средне-Азиатской железной дороги. – Санкт-Петербург, 1903. С. 26.

³ Труды УзГУ. Новая серия. №10. История. Самарканд, 1940. С. 11.

⁴ Туркестанский сборник. 1868. Т.7. С.Петербург. 1869. С. 9, 181, 218-219.

Kaufmannning buyrug'i bilan shaharning obod, tarixiy Sityob bozori butkul yondirildi¹. «Samarqand qo'zg'oloni» davomida va undan keyin minglab bolalar, ayollar va keksalar yovuzlarcha o'ldirildi. Samarqand va uning atrofida ruslarning «tinchlantirish» tadbiri natijasida xalq juda ko'p yatanparvar farzandlaridan judo bo'ldi.

Samarqand qayta bosib olingandan so'ng 1868-yilning 28-iyunida Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida shartnoma imzolandi va unga ko'ra, Buxoro Rossiyaga nisbatan o'zining vassal ekanligini tan oldi. Shartnomaga muvofiq, amir Samarqand va Kattaqo'rg'onni Rossiyaga berishga majbur bo'ldi va katta miqdorda kontributsiya (tovon) to'lash majburiyatini ham oldi. Bosib olingan yerlardan 1868-yilda Zarafshon okrugi tashkil etilib, unga boshqaruvchi qilib general A.K. Abramov tayinlandi.²

Bosqinchilar tomonidan tarixiy yodgorliklar – Buxoro amirining Samarqanddagi saroyi, masjidlar, aholiga tegishli bo'lgan chiroyli imoratlarga ham katta shikast yetkazildi: shahar harbiy qo'rg'oni ichida joylashgan amirning arki harbiy gospitalga aylantirildi, sobiq Samarqand hokimi binosi Zarafshon okrugi boshqaruvchisi general-mayor A.K. Abramovga bo'shatib berildi.

2-§. Samarqand shahrining boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar

Zarafshon okrugi markazi sifatida Samarqand shahri belgilandi va okrug boshlig'i etib 1868-yilda A.K. Abramov (1868–1877) tayinlangan. Imperiya harbiy harakatlari davomida tarixiy yodgorliklar Buxoro amirining Samarqanddagi saroyi, masjidlar, aholiga tegishli imoratlarga ham katta shikast yetkazildi. Boshqaruvning yangicha tartib-nizomi 1868-yil 29-iyunda tasdiqlangan Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari asosida tuzildi³.

Samarqand shahri bosib olingan dastlabki kunlardan va keyinchalik ham an'anaviy boshqaruv tartibi va qonunchilik tizimi saqlanib qolinishi rasmiy hujjatlarda ham bir necha bor ta'kidlangan⁴. Jumladan, 1868-yil 4-mayda K.P. Kaufmannning Samarqand shahri aholisiga e'lon qilgan murojaatnomasida boshqaruv va qonunchilikda an'anaviy tartib hamda shariat ahkomlari

¹ Туркестанский сборник ... Т.67. С. 56.

² Масальский В.В. Россия. Полное географическое описание. Туркестанский край ... С. 309.

³ Normurodova G.B. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi 56-b.

⁴ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-1, Ish-213, 9-varaq.

saqlanib qolinishi aytib o'tilgan edi¹. Keyinchalik general-gubernator fon Kaufmanning «Zarafshon okrugini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat nizomi»da ham o'lkada imperiya hukumati muassasalarini tuzish bilan birga oqsoqol va aminlar boshqaruvi qisman saqlab qolinishi ko'rsatib o'tilgan. Lekin amalda barcha mahalliy boshqaruv muassasalari tartibi quyi pog'ona bo'g'ini sifatida belgilanishi va imperiya mahkamalariga bo'ysundirilishi bilan ular faoliyati va vakolat doirasi cheklangan hamda ularning vazifalari mohiyati o'zgartirilgan.

Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqandda shahar boshqaruvi quyidagi tarkibdan iborat bo'lgan: okrugda umumxalq ishlari bo'yicha mudir va shahar me'mori; okrugda sug'orish ishlari bo'yicha mudir; okrugda aksiz soliqlari bo'yicha mudir; shahar hokimi².

Boshqaruvni takomillashtirish maqsadida 1871-yilda shaharning «yangi» qismi uchun okrug harbiy gubernatori nazorati ostidagi harbiylar va savdo xodimlari vakillaridan iborat maxsus shahar qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, qo'mita doimiy besh a'zodan iborat bo'lgan. Unga dastlab podpolkovnik D.A. Norbut, keyinchalik shtabs-rotmistr A.N. Chernevskiy raislik qilgan. Maxsus qo'mita zimmasiga mahalliy aholidan shahar maydoni uchun zarur bo'lgan xususiy yer mulklarini sotib olish, shahar maydonini tasdiqlangan reja asosida qismlarga ajratish va yangi shahar qismini barpo etish yuklatilgan edi.

Shahar boshqarmasi raisi lavozimiga dastlab podpolkovnik D.A. Norbut va shahar hokimi lavozimiga poruchik M.Y. Iskokov (1874–1892-yillarda shahar hokimi) nomzodlari ko'rsatilgan³.

1874-yilga kelib Turkiston general-gubernatori ruxsati bilan «yangi shahar» uchun Zarafshon okrugi harbiy xalq boshqaruvida turli lavozimlardagi amaldorlardan maxsus shtat asosida doimiy shahar boshqarmasi tashkil etildi⁴.

1876-yilda K.P. Kaufman farmoyishi bilan shahar xo'jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo'jaligi uyezd ma'muriyati nazoratiga olindi⁵.

1886-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ning qabul qilinishi munosabati bilan Zarafshon okrugi tugatilib, Samarqand viloyatiga aylantirilgan. Natijada 1887-yil Samarqand shahar xo'jalik boshqarmasi

¹ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-16, Ish-747, 9-varaq.

² Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India. ... P. 93.

³ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-1, Ish-213, 8-9-varaq.

⁴ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-16, Ish-747, 1-3 varaq.

⁵ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-16, Ish-747, 4-varaq.

⁶ O'zMA. I 17 Fond, Ro'yxat-16, Ish-55, 101-varaq.

butunlay tugatilib, shahar boshqaruvi bo'yicha barcha vakolat va majburiyatlar Samarqand uyezdi boshlig'ining zimmasiga yuklatilgan¹. Shu munosabat bilan shaharning yangi qismini boshqaruv va obodonlashtirish ishlari ham uyezd boshqarmasi qoshida tashkil etilgan shahar ishlari bo'yicha joriy qilingan kotiblik lavozimiga berildi.

Samarqand viloyat harbiy gubernatorini harbiy vazir emas, imperatorning o'zi tayinlaydigan bo'ldi. Uning qo'lida ikki: fuqaroviy va harbiy hokimiyat to'plangan edi. Samarqand viloyati harbiy gubernatori o'rni kelganda Turkiston general-gubernatori vazifasini bajargan. Masalan, 1896-yilda Samarqand viloyat harbiy gubernatori general-leytenant, graf N.Y. Rostovsev (1891-1897) general-gubernator vazifasini vaqtincha bajargan².

Samarqand viloyatini 1886-1917-yillar oralig'ida sakkizta (A.M. Yafimovich (1887-1891), N.Y. Rostovsev (1891-1897), Y.D. Fyodorov (1897-1899), V.Y. Medinskiy (1899-1905), S.D. Gesket (1905-1908), A.S. Galkin (1908-1911), I.Z. Odisheladze (1911-1914), N.S. Likoshin (1914-1917)) gubernator boshqargan³. O'rta hisobda ularning har biri 3-4-yildan viloyatni boshqargan.

Shaharning boshqaruvi viloyat boshqarmasi qo'lida bo'lib, jamoat va xo'jalik ishlari aholi tomonidan saylangan mahalliy ma'muriyat tomonidan amalga oshirilgan. Shahar qismlarga bo'lingan bo'lib, uni boshqargan oqsoqollarning asosiy vazifasi soliq yig'ish va majburiyatlarni taqsimlash bo'lgan⁴. Mahalliy ma'muriyat, ya'ni oqsoqol va ellikboshilar 3 yil muddatga saylangan. Ular harbiy gubernatorga bo'ysunuvchi va shahardagi politsiya xizmatini boshqaruvchi katta oqsoqolga bo'ysunishgan. Katta oqsoqolga barcha quyi politsiya amaldorlari - mirshablar, qozilar bo'y-sundirilgan. Ularning barchasiga shahar aholisidan yig'iluvchi mablag' hisobidan maosh to'langan⁵.

1898-yilda amalga oshirilgan islohotlarga muvofiq «Sud nizomlarini Turkiston o'lkasi viloyatlarida joriy qilish qoidalari»da tugatilgan viloyat sudlari o'rniga okrug sudlari beshta viloyatda tashkil qilindi⁶.

¹ O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-16, Ish-1989, 17-18-variantlar.

² O'zMA. I 1 Fond, Ro'yxat-25, Ish-89, 161-variant.

³ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India. ... P. 296.

⁴ Tillaboyev S. XIX asri oxiri - XX asr boshlarida Samarqand shahri. Samarqand shahri-ning 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari ... 380-b.

⁵ O'zMA. I 17 Fond, Ro'yxat-1, Ish-20308, 5-variant.

⁶ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India. ... P. 296.

Samarqand shahrining politsiya boshqaruvi quyidagi tartibda shakllantirilgan: shaharning «yangi» va mahalliy qismiga tayinlangan politsmeyster, uning kotibi, devonxona xizmatchisi, ikkita yollanma kotibi va bitta mahalliy aholidan tarjimoni bo'lgan. Shahar ikki mahalliy politsiya boshqarmasiga ajratilgan va har biriga bittadan boshliq tayinlangan. Shahar beshta politsiya nozirlari tomonidan hududlar kesimida nazorat qilingan. Shaharning tub aholisi istiqomat qiluvchi qismida politsiya boshqarmasiga yordam beruvchi oqsoqollar tayinlangan. Samarqand shahri dahalarida to'rtta tub aholi va bitta yahudiylar mahallasi oqsoqoli bo'lgan. Politsiya boshqarmasining yana bir tarkibiy qismi qamoqxona bo'lib, u shahar bo'yicha bitta bo'lgan¹. Politsiya tarkibini yollanma ko'ngillilardan shakllantirish imkoni yo'qligi tufayli, avvalgidek Samarqand garnizonining kichik unvondagi harbiylaridan tashkil etilgan².

Shahar boshqaruvida yuqoridagilar qatorida alohida lavozimlar ham joriy etilgan: shahar arxitektori, yo'l ustasi, shahar shifokori, shahar doyasi, shahar feldsheri, veterinariya feldsheri, shahar bog'boni, shahar savdo nazoratchisi, shahar ariq-oqsoqoli³ va miroblar bo'lgan. Mansabdorlardan tashqari, Samarqand shahar shifoxonasi, shahar shifoxonasi huzuridagi xo'jalik qo'mitasi, mahalliy ayollar va bolalar uchun Samarqand ambulatoriya shifoxonasi, shahar dorixonasi, Samarqand ipak qurti tayyorlash punkti, Samarqand paxta hakamligi qo'mitasi kabi turli tashkilot va muassasalar bo'lgan⁴.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasi bo'yicha moliyaviy tushumlarini yig'ish uchun o'lka viloyatlari qismlarga taqsimlangan. Shunda Samarqand viloyati beshta o'lpon yig'iluvchi hududlarga ajratilgan. Samarqand uyezdining «yangi shahar» qismi, Samarqand shahrining mahalliy aholi istiqomat qiluvchi qismi va uyezdning boshqa volostlari, Kattaqo'rg'on uyezdi; Xo'jand uyezdi; Jizzax uyezdi kirgan.

Samarqand shahrini boshqarish borasida imperiya hukumati ko'proq Toshkent hududlarida amaliyotdan o'tgan tajribaga tayangan. Samarqand shahri boshqaruv tartibida ham, umumiy Turkiston o'lkasiga nisbatan qo'llanilgan va imperiyaning O'rta Osiyoni bosib olishni maqsad qilgan

¹ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3539, 7-8-variantlar.

² Адрес-календарь лиц, состоящих на государственной и общественной службе в Самаркандской области, Чаржуй и Керки, и торгово-промышленных заведений в Самаркандском уезде. Отдел I. – Самарканд, 1895. С. 3.

³ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3539, 1-1 orqa varag'i.

⁴ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 230.

⁵ Адрес-календарь лиц, состоящих на государственной и общественной службе. ... С. 4.

dastlabki yillardagi siyosiy mohiyati mavjud bo'lgan. Bu jihat harbiy boshqaruv tartibini saqlab qolishda va boshqaruvdagi barcha holatlarni imperiya ma'muriyatiga bo'ysundirishda namoyon bo'ldi.

3-§. Samarqand shahri «yangi qismi»ning shakllanishi va shaharsozligi

Samarqand shahri azal-azaldan o'zining go'zal tabiati, bog'-rog'larining ko'pligi va fayzi bilan ajralib turgan. XIX asr ikkinchi yarmiga oid shahar tarixiga doir barcha manbalarda shaharning go'yoki ulkan bir bog'dan iborat ekanligi alohida ta'kidlanadi¹.

Samarqandning «eski shahar» qismidagi hayot ma'muriy jihatdan katta o'zgarishlarga duch kelgan emas. Avvalgidek shahar mahallalarga bo'lingan va mahallalar guzarlarga bo'lingan holda an'anaviy idora etish usuli bilan boshqarib kelinar edi. Ixtiyorimizdagi ma'lumotlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand shahrining 4 ta yirik mahallaga (qismga) bo'linganligini ko'rsatadi. Bu mahallalar quyidagilar edi: Poyqoboq; Qalandarxona; Xo'ja Ahror; So'zangaron. O'z navbatida, Poyqoboq 22 ta, Qalandarxona 20 ta, Xo'ja Ahror 22 ta, So'zangaron 27 ta guzardan (kvartal) iborat bo'lgan².

Imperiya boshqaruvi o'rnatilgach, Samarqandga Yevropa shaharsozligining kirib kelishi va shaharning yangicha qiyofasi mahalliy va rus me'morchiligining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muhandislik qurilishi yechimlari asosida taraqqiy etdi.

Bunda asosan Yevropa shaharsozligida ikki xil uslub keng qo'llanilgan. Birinchisi, bu Hindiston va Xitoyda ma'lum bo'lgan hamda Yevropa shaharsozligida Milet shahrining qurilish loyihasini tuzgan arxitektor Gippodam nomi bilan bog'liq «Gippodam rejasi» deb ataladigan muttasil katakli loyiha tuzish va shu asosda shahar bunyod etish hisoblangan. Turkistonda muttasil katakli shahar rejasi asosida Bishkek, Olma-ota kabi shaharlar qurilgan. Yevropa shaharsozligining ikkinchi ko'rinishi – bu uch nurli kompozitsiyadir.

Toshkent, Samarqand, Andijon kabi shaharlarning «yangi qism»lari shu usulda kengaytirilgan. Bunday holat ko'pincha o'rta asrlarda bunyod etilgan ark, o'rda yoki qal'a o'rnida o'sha shaharlarda harbiy gubernator qarorgohi qurilib, undan kengayib boruvchi ko'chalar bunyod etilgan. Hatto shunday holatlarda ham yangi ma'muriyat binosi oldida keng xiyo-bon tarzidagi maydon tashkil qilinganini ko'rish mumkin³.

¹ Туркестанский сборник... Т. 67. С. 54–57.

² O'z MDA. F. 1-18. Op.1. D. 11560. Il. 3–4.

³ Ahmedov M.K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – T., 1995. 132-b.

Samarqand shahrining yangi qismi shahar madrasalaridan olingan vaqf mulki daromadlari va imperiya ma'muriyati tomonidan ajratilgan mablag' evaziga bunyod etilgan¹.

Shaharning «yangi qismi»ni bunyod etishda eski tarixiy va me'moriy obidalar buzilib yo'q qilindi. Masalan, 1868-yilda hozirgi Afrosiyob mehmonxonasi o'rnida bo'lgan Qutbuchahorduhum (Shayx Nuriddin Basirga tegishli) maqbarasi 10 ming pud portlatuvchi modda bilan yo'q qilingan².

1871 yil shaharning janubiy-g'arbiy Buxoro darvozasi tomonda Kattaqo'rg'on yo'lidagi uchastkalar ajratib olingan. Shu yerning o'zida harbiy qal'a bunyod etilgan. 1872-yilda topograf Sexonovich bo'lajak shahar ko'chalarini tasvirga tushirib, «yangi shahar» qurilishini tezlashtirishga harakat qildi. 1875-yilga kelib loyiha asosidagi binolar qurilishi tugallandi, lekin qo'rg'onning ichki qurilishi nihoyasiga yetmadi³.

Yangi Samarqand shahrining xarakterli kompozitsiyasi ishlab chiqilib, 1875-yil 1-yanvarda shaharning bosh rejasi tasdiqlandi. Unga ko'ra, Samarqand shahri ham O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi ikki qismdan: eski va yangi shahardan iborat bo'lgan. Shahar asosiy kompozitsiyasi bo'lgan qo'rg'on atrofi 31,2 gektar edi⁴. Shaharning keng atrofini o'rab turgan o'rta asrlarga oid mudofaa devorlarining g'arb tomonidagi qismi tugatildi. Shimol, sharq va janub tomondagi qismlari saqlandi. Yangi shahar qo'rg'on devorining janubiy-g'arbida joylashgan bo'lib, uning maydoni 121 gektarga teng bo'lgan⁵. «Yangi» shahar ko'rinishi aylana – yoy shakliga o'xshagan.

Shahar rejasi yuqorida aytganimizdek, nurli halqa tarzida qurilgan. Bu davrda Zarafshon okrugi gubernatori qarorgohi hozirgi shahar hokimiyati binosi o'rnida joylashgan edi⁶. Uch nurli kompozitsiyada shahar qurilishi uchun bu bino oldida keng xiyobon shaklidagi maydon, ya'ni bulvar hamda ushbu bino tomon to'g'ri tutashtirilgan uchta katta ko'cha shakllantirilgan. Bu ko'chalar Kaufman (hozirgi Alisher Navoiy),

¹ O'zMA. I-5. Fond, Ro'yxat-1, 3921a-Ish, 20-22-varaqlar.

² Abu Xafs Najmiddin Umar an-Nasafiy as-Samarqandiy. Qandiya (Samarqandning olim va avliyolari tarixi) / Nashrga tayyorlovchi: K.Kattayev. – Samarqand: So'g'diyona, 2016. 69-b.

³ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 26.

⁴ Хитусен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана С. 97.

⁵ Samarqand viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda SVDA). 1837-Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 72-varaq.

⁶ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 26.

Aleksandrovskaya (hozirgi Shohrux Mirzo) va Nikolayevskaya¹ (hozirgi Abdurahmon Jomiy) ko'chalari edi. Qolgan uchta ko'cha Urgut (hozirgi O'zbekiston ko'chasi), Toshkent va Kattaqo'rg'on ko'chalari shahar qurilishining davomi bo'lib, ular ham shahar markaziga qarab yo'naltirilgan. To'rtta asosiy magistral yo'l yoysimon shakldagi ko'chalarni bog'lab turgan. Shaharni g'arbdan Chernyayevskaya (hozirgi Mahmud Koshg'ariy ko'chasi), Sharqdan Aleksandrovskaya ko'chalari chegaralab turgan. Qolgan ikki ko'cha Kaufman va Nikolayevskaya ko'chalari shahar markazidan o'tgan bo'lib, bu ko'chalarda har xil jamoat va savdo binolari qurilishi boshlangan². Boshqa kichik ko'chalar, xususan, Chelekskaya, Djamskaya, Petrovskaya, Pushkinskaya ko'chalari shaharni mayda qismlarga ajratib turgan. Rossiya imperiyasining harbiy bosqinchilik siyosati shahar ko'chalariga nom berilishida ham o'z aksini topgan. Asosan, ko'chalar bosqinchilik vaqtida o'zini ko'rsatgan general va ofitserlar, shuningdek, o'lkada bosqinchilik siyosatlari olib borilgan shaharlar va jang maydonlari nomi bilan atalgan³.

Toshkentning yangi qismi bilan solishtirsak, u yerda ham shahar qurilishi radiusli halqa – nur halqa sxemasida tuzilganligiga guvoh bo'lamiz. Samarqand shahrining qurilishidagi o'ziga xos jihati Turkistonning boshqa shaharlarida uchramaydigan xiyobon shaklidagi bulvar maydonining qurilganligidir.

Zarafshon harbiy okrugi markazida rejali ravishda harbiy va ma'muriy markaz binolari majmuasi shakllangan. Shaharda davlat binolari, kazarmalar, harbiy omborlar, harbiy va fuqaro binolari, kasalxonalar, o'quv yurtlari va madaniy-ma'rifiy inshootlar (kutubxona va teatrlar) qurilgan. Bu «yangi shahar» binolari asosan harbiylar va amaldorlarga xizmat qilgan.

Harbiy qurilishlarning asosiy qismi qal'a atrofida joylashgan. Keyinchalik shahar kengayishi natijasida ulardan ba'zilar boshqa joylarga ko'chirildi. Asosiy harbiy qal'a Abramov bulvari va Nikolayevskaya ko'chalari kesishgan joyda edi. Qurilishlarning davomi sifatida Urgut (hozirgi O'zbekiston) ko'chasida ham harbiy qal'a va harbiy gospital vujudga keldi. Shundan so'ng yangi shahar maydoni 270,5 gektarni tashkil qildi. Qurilishlar natijasida yangi shahar me'moriy qiyofasi o'zgardi. To'g'ridan to'g'ri keng ko'chalar bunyod etildi, yo'ldan alohida yo'laklar ajratildi, ko'chalarda ekilgan daraxtlarni sug'orish uchun ariqlar o'tkazildi⁴.

¹ SVDA. 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 72-varaq.

² SVDA. 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 73-varaq.

³ O'zMA.15 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1242, 1-2-varaqlar.

⁴ Ниязсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана.... С. 100.

Yangi shaharda jami 25 ta ko'cha mavjud bo'lib, umumiy uzunligi 17 verst (18,2 km) 156 sajenni (332,28 m) tashkil etgan¹. Shundan 14 verst (14,84 km) 236 sajenni (502,68 m) tekislanib tosh yotqizilgan. Ko'chalarning har ikki tomoniga ikki qator qilib terak, ayrim joylarda qayrag'och, akatsiya va zarang daraxtlari ekilgan. Shahar ko'chalarida ko'chani bir tomondan boshqa tomoniga suv o'tkazish uchun 52 ta g'ishtdan terilgan quvurlar yotqizilgan. Ko'chalarni 350 ta kerosin lampalar² yoritgan. Kerosin va boshqa neft mahsulotlari temiryo'l ishga tushirilgandan so'ng Boku shahridan keltirilgan. Shahar ko'chalaridan tashqari amaldorlar ham o'z uylarini yoritishda kerosinli lampalardan foydalanishgan.

Yangi shaharda keng maydon hisoblangan Abramov bulvari, ikkita park, markaziy park (hozirgi shahar parki) va Ivanovskaya parki (park ozero) bunyod etilgan³.

Abramov bulvari eski shaharning janubi-g'arbidan yangi shaharni ajratib turadigan aylana yo'l va Samarqandning ikki qismini bog'lab turuvchi magistral yo'l vazifasini bajargan⁴. Asosiy markaz bo'lgan Abramov bulvarining kengligi 128 metr (60 sajenni), uzunligi 1044 metr (490 sajenni) bo'lgan⁵.

Shahar boshqaruvi ma'muriyati asosan bulvar atrofida joylashganligi xiyobonga alohida e'tibor qaratilishiga sabab bo'ldi. Natijada XIX asr oxirida Samarqandda ushbu tizim elementlarini o'zida mujassamlashtirgan 6,5 gektardan iborat yam-yashil bog'⁶ shakllandi.

«Yangi shahar»da qurilgan, hozirda o'zining ko'rinishini yo'qotmagan inshootlardan biri rus-xitoy bankidir. Rus-xitoy banki 1896-yilda Abramov bulvarida qurilgan (hozir bu binoda SamDU rektorati joylashgan).⁷

O'sha davrda Abramov bulvarida madaniy va jamoatchilik inshootlari ham qurila boshlangan. Shunday inshootlardan biri 1902–1904-yillarda G.M. Svarichevskiy⁸ loyihasi asosida qurilgan ayollar gimnaziyasidir (hozir bu yerda SamDUning biologiya fakulteti joylashgan).⁹

¹ Справочная книжка Самаркандской области на 1893 год. Изд. Сам-го областного Стат. Комитета Вып I Сост. и.д. секретаря статистического Комитета Вирский. – Самарканд, 1893. С. 2.

² O'sha joyda. С. 2.

³ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 356-b.

⁴ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 26.

⁵ Рубцов А.И. Проектирование садов и парков. – Москва, 1979. С. 141.

⁶ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1242, 4–5-variantlar.

⁷ Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. ... С. 102.

⁸ CVDA 1837 Fond, Ro'yxat-1 Ish-124, 75-variant.

⁹ Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. ... С. 101.

Alekseyev cherkovi 1912-yilda harbiy shaharcha uchun Rostovsev¹ (hozirgi Bobur Mirzo ko'chasi) va Nikolayevskaya (hozirgi Abdurahmon Jomiy) ko'chalarinig kesishgan joyida harbiy muhandis F.Smirnov loyihasi asosida zal tipida qurilgan.

Abramov bulvarida hozirgi SamDUning tarix fakulteti binosi o'rnida 1875-yildayoq shahar qo'riqxonasi asos solingan². Bulvarda ekilgan daraxt turlari ham qo'riqxonada mavjud bo'lgan. Bulvarda «gullar maydonchasi» deb nomlanuvchi maydoncha bo'lgan. Bu maydoncha hozirgi Hamid Olimjon nomidagi teatr oldida joylashgan edi.

Okrug gubernatori qarorgohidagi hovuzlar Nikolayevskaya va Kaufman ko'chalari o'rtasida joylashgan. Abramov bulvaridan Urgut (hozirgi O'zbekiston) ko'chasigacha hovuzlar qurilishi shaharga ko'rk berib turibdi. Harbiy gubernator qarorgohining orqa tomonida Toshkent ko'chasigacha bo'lgan joyda markaziy xiyobon joylashgan bo'lib, XIX asr oxirida markaziy xiyobon bilan gubernator qarorgohi o'rtasida shaharning bosh maydoni, namoyishlar, bayramlar o'tkazuvchi maydon shakllandi. Bu maydonda Georgiy cherkovi, ofitserlar uyi, xalq yig'ini o'tkaziladigan binolar bunyod etilgan³.

Chernyayevskaya ko'chasining orqa tomonida jarlik bo'ylab Ivanov xiyoboni shakllandi (hozirgi Afrosiyob suzish suv havzasi). Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Samarqand shahrida kanalizatsiya tizimi mavjud bo'lmagan. Suv mahalliy aholining eshaklari bilan bochka va ko'zalarda Filatov bulog'idan olib kelingan⁴. 6–8 kishi uchun bir kunlik suv yetkazish ishi oyiga 1 rubl yoki 1 rubl 20 kopeyka (tiyin) bo'lgan.

Mahalliy aholi esa ehtiyoj uchun, xo'jalik va bog'larni sug'orish uchun Siyob, Siyobcha kanallaridan, Obimashhad, Abdidarun, Ko'nchilik kabi chashma buloqlar suvidan foydalangan.

Shahar o'zgarishi tezlik bilan amalga oshirilib, yangi dahalar, harbiy korpuslar, yangi massivlar qurilgan. Shaharning g'arbiy qismida esa, Kataqo'rg'on yo'lida podsho ma'muriyatining qamoqxonasi⁵ qurildi (hozirgi viloyat shifoxonasi binosining o'rnida edi). Natijada sanoatning keng quloch yoyilishi bu yerga temiryo'l olib kelinishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. 1888-yilda Samarqandda temiryo'l qurilish ishlari jadallashdi hamda Samarqandni Kaspiyorti viloyati bilan bog'lovchi temiryo'l qurilishi

¹ Shahar ko'chalarining nomlari o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun asl holda keltirildi.

² Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 25.

³ Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. ... С. 103.

⁴ CVDA 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 79-varaq.

⁵ CVDA 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 75-varaq.

boshlandi. Bu davrda vokzal, temiryo'l ustaxonalari, paravozlar to'xtash joyi, omborxonalar, vokzal atrofidagi temiryo'lchilar shaharchasi bunyod etilgan. XIX asrning 90-yillari oxirlariga kelib shahar ichida ham temiryo'l qurilishi boshlandi. Qisqa vaqt mobaynida shaharda sezilarli darajada yirik o'zgarishlar yuz berdi. 1880-yilda shahar ichida yangi qal'a bunyod etildi. Uning maydoni 8 gektar bo'lib, devorlari beshqirrali juda mustahkam harbiy mudofaa devori bilan o'rab olingan¹. Qal'a devorlari shimol va janubi-sharqdan mudofaa maqsadida qurilgan bo'lib, qal'a ichida «yangi» qal'a qurilgan.

1883-yilda Qutbu-Chahorduhum maqbarasi buzilishi natijasida, ba'zi harbiy qal'alar shaharga ko'chirildi. Harbiy qal'alarning ko'chirilishi natijasida shahar qal'a tomonga qarab kengaytirilib, yangi Eksplanadnaya (hozirgi Bo'stonsaroy) ko'chasi qad rostladi². 1903-yilda yangi shahardan shimolga qarab kichik hududiy chegara ajratildi. Petrovskaya, Nikolayevskaya, Kaufman ko'chalari shimol tomon, ya'ni Kladbishinskaya ko'chasi hisobiga kengaytirildi. 1906-yilga kelib 1883-yilda tuzilgan shahar rejasini bajarishga kirishildi. Topograf Nillening loyihasiga³ binoan harbiy kasalxona Chernyayevskaya xiyobonidan Urgut ko'chasiga ko'chirildi. Xuddi shu yerning o'zida Rostovsev (hozirgi Bobur Mirzo), Karshinskaya (hozirgi Firdavsiy), Vereshchaginskaya (hozirgi Amir Temur) ko'chalari davom ettirilib, Bazarnaya, Nekrasova Novogospitalnaya ko'chalari maydonini egalladi. Shaharning bu qismidagi qurilishlar 1916-yilgacha davom etgan⁴.

XX asr boshlarida ruslar yashaydigan maydon 4629 desyatini (1.09 gektar) tashkil etgan.

Samarqandda Ofitserlar uyi 1882-yilda qurilgan (hozirgi viloyat savdo-sanoat palatasi binosi). Bu bino klassitsizm uslubiga xos bo'lgan ko'rinishda qurilgan.

«Xalq yig'ini» binosi (hozirgi Yoshlar markazi binosi o'rnida bo'lgan) Kaufman va Urgut ko'chalarining kesishgan qismida joylashgan bo'lib, o'zining texnik va badiiy go'zalligi jihatidan boshqa binolardan farq qilmaydi. Binoning tomosha zali Svarichevskiy loyihasi bo'yicha kengaytirilgan. 1880-yilning boshlariga kelib Nikolayevskaya va Urgut ko'chalarining kesishgan joyida birinchi yozgi teatr binosi qurilishi boshlangan.

¹ CVDA 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 76-varaq.

² Чабров Г. Страницы истории Самарканда (1808–1916). – Ташкент, 1962. С. 98

³ Александр Галак. Первые строители и архитекторы европейской части Самарканда. // Самаркандский вестник. 17 ноября 2018 г. – № 90, № 91.

⁴ CVDA 1837 Fond, Ro'yxat-1, Ish-124, 76-varaq.

Geyselman loyihasi asosida 1911-yilda xalq kutubxonasi qurilgan¹. Bu kutubxona Chernyayevskaya va Vereshchagin ko'chalarining kesishgan joyida joylashgan.

Samarqandda 1908-yilda muhandis Kastalskiy loyihasi asosida Chernyayevskaya va Qarshi ko'chalarining kesishgan joyida davlat banki qurilgan².

Savdogar A.Kalontarovning uyi (hozir bu bino o'rnida viloyat O'lka-shunoslik muzeyi joylashgan) an'anaviy va yevropacha uslubda 1911–1916-yillarda muhandis G.O. Nille loyihasi asosida qurilgan.

1892-yil noyabrda ma'lumotlarga ko'ra, «yangi» shaharda 829 ta turar joy va 986 ta noturar joy binolari mavjud bo'lgan. «Yangi shahar»da 442 ta xonadon bo'lib, har bir uyga 1,8 turar joy, 2,2 noturar joy binosi to'g'ri kelgan. Har bir turar joy va noturar joy binosiga to'g'ri keladigan maydonning o'rtacha o'lchami hovli va ko'chani hisobga olganda 303 sajenni (645,39 m) tashkil etgan. Har bir pishgan g'ishtdan qurilgan turar joy va noturar joy binolari 1792 ta, toshdan qurilganlari 12 ta (shundan 8 ta uy va 4 ta hammom), aralash qurilganlari 7 tani tashkil qiladi. 829 ta turar joy binolarining tom qismi mavjud bo'lib, 175 tasi strapilali, 654 tasi tekis holatda, 49 tasi tunuka bilan, 126 tasi karton, 654 tasi loy va qamish bilan yopilgan. Turar joy binolarining deraza peshtoqlari ham mavjud bo'lib, ularning 246 tasi toshdan, 583 tasi pishgan g'ishtdan qurilgan³.

Eski shaharning hududi esa 364 desyatina (396,76 gektar), 2100 kv sajenni (4473 kv.m) tashkil qilib, past-balandliklardan iborat. Eski shaharda ko'chalar va tor ko'chalar soni 166 ta bo'lib, ulardan 11 tasi qayroqtosh bilan qoplangan hamda ularning uzunligi 15,5 verstni tashkil etgan. Ushbu 11 ta ko'chadan tashqari, 12-ko'chaga toshli quvur va ko'prik qurilgan⁴. Mazkur ko'priklar rus hukumati tomonidan to'g'ri shaklda atrofiga daraxtlar ekilib, aholi yurishi uchun qulay etib qurilgan. Boshqa barcha ko'chalar: tor, egri-bugri eski uslubda, chang-to'zonli, suv yurishi uchun ariqlarga ega bo'lmagan, ularning eng muhimlari 55 ta kerosin fonar yordamida yoritilgan.

Eski shaharda 4 ta yirik markaziy maydon bo'lib, bular: 1. Registon maydoni, unda toshlar yotqizilgan hamda bu bozor hayotining markazi vazifasini o'tagan; 2. Bibixonim maydonida tosh yotqizilmagan, bozor va 3 ta non rastalariga ega bo'lgan⁵; 3. Bibixonim maydoni qarshisida mol bozori

¹ O'zMA. I 114 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 7-varaq.

² O'zMA. I 114 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 5-varaq.

³ Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. – Самарканд, 1894. С. 15.

⁴ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-551, 7-varaq.

⁵ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-551, 9-varaq.

maydoni bo'lib, unga ham tosh yotqizilmagan. Unda yirik shoxli hayvonlar, tuyalar va qo'ylar sotilgan; 4. Shuningdek, shaharda somon bozor maydoni ham mavjud bo'lib, u mustamlaka ma'muriyati qurdirgan qal'aning janubiy qismida joylashgan.

Eski shaharda, Go'ri Amir maqbarasi yonida xiyobon mavjud bo'lib, unga turli xil daraxtlar ekilgan. Shohizinda masjidining ro'parasida ham rus hukumati tomonidan xiyobon tashkil qilingan. Ikkita xiyobon ham chiroyli manzarasi bilan ajralib turgan, ko'chalarida tosh yotqizilgan va yaxshi holatda saqlangan. Bu xiyobonlar mahalliy aholi sayr qilishi uchun eng qulay joy bo'lgan.

Mazkur ma'lumotlarni keltirish asnosida shuni qayd etish kerakki, Samarqandning «yangi shahar» qismi shimol tomonidan Barbat (hozirgi Rudakiy) ko'chasi, sharqdan Eksplanadnaya (hozirgi Bo'stonsaroy) ko'chasi, janubiy-sharqiy tomondan Abramov bulvari va janubiy-g'arbida Chernyayev (hozirgi Mahmud Koshg'ariy) ko'chalari bilan chegaralangan.

4-§. Shahar aholisining ijtimoiy hayoti va xizmat ko'rsatish sohalari

Samarqand azaldan ko'p millatli shahar hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar kishilar ma'lum millatga mansubligi bilan emas, balki diniy e'tiqodiga qarab ajratilganligi va ularning qo'lida qaysi millatga mansubligi to'g'risida hujjatning bo'lmaganligi sababli shahar aholisining milliy tarkibi to'g'risida bizdagi ma'lumotlar ham turlicha. Imperiya ma'murlari tomonidan o'tkazilgan ilk aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari ham bu masalani to'liq oydinlashtirmaydi. Sababi ular millatlarni aniqlashning asosiy o'lchov belgisi sifatida qabilaviy, kasbiy mansublik hamda tilini e'tiborga oladilar. Samarqand shahrida asosan o'zbeklar, tojiklar, eroniylar, yahudiylar va boshqa kam sonli millat vakillari yashagan. XIX asrning 70-yillarida Samarqand shahrida 2000 ga yaqin eroniylar yashagan bo'lsa,¹ 1897-yil o'tkazilgan aholi ro'yxatida ularning soni 1723 nafar ekanligi qayd qilingan². XIX asrning 70-yillarida Samarqand shahrida jami 100 tacha hind istiqomat qilgan³.

XIX asrning oxiridan boshlab shaharning milliy tarkibi yevropaliklar hisobiga kengaygan. Bu jarayon, birinchi navbatda, rus harbiylari va rus armiyasi tarkibidagi boshqa Yevropa xalqlari hisobiga to'g'ri keladi. Asosiy qismini o'zbeklar, tojiklar va eroniylar tashkil qilgan «eski sha-

¹ Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб, 1882. С. 396.

² Первая всеобщая перепись населения Российской империи. Т. 83. Самаркандская область, 1905. С. 50.

³ Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. – Самарканд, 1894. С. 7.

har» aholisining umumiy soni 25113 kishidan iborat bo'lib, ulardan 13755 kishi erkaklar, 11358 kishi ayollar hisoblangan¹.

1893-yilga kelib, shaharda 5298 ta xonadonda 26490 kishi yashaganligi qayd etiladi. Samarqand shahrida aholining soni temiryo'llar qurilgach, nihoyatda ortdi. 1897-yilda 8337 ta xonadonda 54900 kishi yashaganligi qayd etilgan. Bu davr oralig'ida ruslarning shaharga ko'plab ko'chirishi aholi sonidagi keskin tafovutda ko'zga tashlanadi. 1906-yilda 11066 ta xonadonda 66666 kishi yashaganligi aniqlangan, shundan 50692 kishi «eski shahar»da yashagan. 1910-yilga kelib Samarqand shahri aholisi 85228 kishiga yetgan². Shundan «yangi shahar»da 15974 kishi yashagan. Bu esa shahar aholisining 23% ni tashkil etar edi. Imperiya istilosidan keyin shahar aholisi deyarli uch baravar oshganligini yuqoridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Diniy e'tiqodi bo'yicha aholining asosiy qismi musulmon hisoblangan. O'zbeklar va tojiklar sunniy, eroniylar esa shia mazhabiga e'tiqod qilishgan. Mahalliy yahudiylar 1345 kishi bo'lib, 823 tasi erkak va 522 tasi ayol bo'lgan. Ular yahudiylik diniga e'tiqod qilishgan va yahudiylar mahallasida (Guzari Jugutonda) yashagan. Eski shaharda yahudiylar mahallasida bitta sinagoga mavjud bo'lgan³. Eski shaharda esa 86 ta masjid bo'lgan.

«Yangi shahar»da 13 ta quduq va 205 ta hovuz shaharni suv bilan ta'minlagan. Shahardagi xonadonlarning 70 foizi gigiyena talablariga javob bera olmagan. Shu bilan birgalikda, mavjud 813 ta xonadondan 654 tasi (yoki 70 foizi)ning tom qismi loy suvoqdan iborat bo'lganligini ham inobatga olish kerak. Samarqand dov-daraxtlar ko'pligidan qalin o'rmonga o'xshagan, shaharda balandligi 15–20 arshin (10,65–14,2 m) bo'lgan teraklar, qayrag'ochlar va boshqa daraxtlar shahar ko'chalari bo'ylab ikki qator qilib ekilgan. Aynan shu sababli va binolardagi deraza romlarining juda kichikligi ularning yorug'lik bilan yetarli darajada ta'minlanmasligiga sabab bo'lgan.

Shaharning ruslar yashaydigan qismida taksi (ot-aravali yo'lovchi tashish) xizmati ham yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, shaharda yuk tashish xizmati – izvoshlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

«Yangi shahar»da ikkita – «Shimol» va «Parij» nomli yirik mehmonxonona va beshta kichik nomerli mehmonxonalar bo'lgan⁴. «Shimol»

¹ Справочная книжка Самаркандской области на 1894 год. – Самарканд, 1894 С. 9.

² Ziyayeva D. O'zbekiston shaharlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida). – Toshkent, 2013. 111-b.

³ Справочная книжка Самаркандской области на 1891 год. Самарканд, 1891. С. 3.

⁴ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 28.

mehmonxonasi Kattaqo'rg'on (hozirgi Mirzo Ulug'bek) ko'chasida joylashgan bo'lib, narxi 50 kopeykadan 2 rublgacha, «Parij» mehmonxonasi Chelak va Kattaqo'rg'on ko'chalari burchagida joylashgan edi. «Varshava» mehmonxonasi Konstantin ko'chasida, «Fransuz» mehmonxonasi Aleksandrovskaya (hozirgi Shohrux Mirzo) ko'chasida, «Sankt-Peterburg» mehmonxonasi Kaufman (hozirgi Alisher Navoiy) prospektida, «Yevropa» mehmonxonasi Aleksandrovskaya (hozirgi Shohrux Mirzo) va Kattaqo'rg'on (hozirgi Mirzo Ulug'bek) ko'chalari kesishmasida, «Moskva» mehmonxonasi Kattaqo'rg'on (hozirgi Mirzo Ulug'bek) ko'chasida joylashgan¹.

«Yangi shahar»da 12 ta kutubxona mavjud bo'lib, ular asosan harbiylar, jamoat kengashi, statistik qo'mita kutubxonalaridan iborat bo'lgan. Ushbu kutubxonalarda 10 ming nomdagi kitoblar mavjud bo'lgan va ular jamoa a'zolari va vaqtinchalik a'zolar uchun bepul berilgan. Shunday kutubxonalardan biri Chernyayev ko'chasida joylashgan bo'lib, hozir bu binoda Beruniy nomidagi bolalar kutubxonasi joylashgan.

Shahar ijtimoiy hayotida xizmat ko'rsatish sohasiga to'langan oylik maoshlar turlicha bo'lgan. Masalan, ovqat tayyorlashni biladigan oshpaz oyiga 8–10 rubl, unga xizmat qiluvchi yordamchi oshxona ishchilari 5–7 rubl maosh olishgan. XX asr boshlarida Samarqandda ovqat pishirish uchun mo'ljallangan kerosinli mashinalar paydo bo'ldi. Bunday mashinalar yevropacha tirikchilikka moslashganlar uchun qulay sanalgan. Rus enagasi oyiga 5–10 rubl, mahalliy xizmatkorlar esa oyiga 6–10 rubl, mahalliy aravakash ham 6–10 rubl ish haqi olgan. Xizmatchilar soni juda ham cheklangan bo'lib, ayol xizmatchilarning ko'pchiligi askarlarning xotinlari bo'lgan².

Shahar ijtimoiy hayotida hammomlar ham muhim o'rin egallagan. «Eski shahar»da hammomlarning umumiy soni 7 tani, yangi shaharda esa 4 tani tashkil qilgan. «Eski shahar»ning Buxoro darvozasi yaqinida, Qo'shhovuz dahasida, Tamaki bozori yonida, Eshik bozorda, Payqoboq, Pilisafed va yahudiylar mahallasida hammomlar bo'lgan³. Hammomlarning alohida ayollar va erkaklar uchun ajratilmaganligi sababli unga aholi turli vaqtlarda kelgan. Masalan, ayollar shanba kuni, qolgan kunlari erkaklar kelgan. Hammom keluvchilar uchun tayyor bo'lgach, bu haqda shahar aholisiga hushtak chalib ma'lum qilingan. «Yangi shahar»ning Chernyayev prospek-

¹ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 28.

² Справочная книжка Самаркандской области на 1891 год. – Самарканд, 1891. С. 15.

³ Шарипов С.И. Из истории общественных бань в Самарканде в XVI – первой половине XIX вв. //Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari... 256-b.

tida «Pogatyuka», Aleksandr prospektida «Saxarova», Tyurem ko'chasida «Batenov», Chernyayev prospektida «Kirilenko» nomli hamnomlar bo'lgan¹.

Shaharda kir yuvish bilan shug'ullanuvchi ayollar ham bo'lgan. 1892-yilda kiyimlarni yuvish uchun Barbat (hozirgi Rudakiy) ko'chasida va Kaufman prospektining oxirida shahar umumiy kir yuvish xonalari qurilgan.

Mustamlaka davrida Samarqand shahrida rus aholisi uchun barcha sohalar singari tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi yaratildi. Samarqandda ilk shahar kasalxonasi 1872-yilda tashkil qilingan bo'lib, dastlab 20 ta o'ringa mo'ljallangan. Keyinchalik kasalxona 50 ta o'ringa kengaytirilgan². Shahar ijtimoiy turmushida aholiga va ayniqsa, ayollarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifat jihatidan yuqori bo'lmagan. Dastlab, 1885-yilning avgustida Samarqand shahrida mahalliy aholi uchun ayollar va bolalar ambulatoriyasi tashkil etilgan³.

XX asr boshlarida Samarqandda turli mutaxassislar, ayniqsa, stomatologlarning xususiy faoliyati keng yo'lga qo'yilgan. Bir qancha stomatologlar tishni davolash va olish, oltin va farfordan (chinni mahsulot) tish qo'yish ishlarini amalga oshirganlar⁴.

Samarqandda ishlagan rus shifokorlari orasida S.B. Grachyov-Gomovskaya (1886–1893), L. Simonova-Xoxryakova (XIX asrning 90-yillari), shuningdek, xususiy davolovchi shifokorlar A.V. Yakovleva-Poslavskaya (1895–1905), E.M. Solnishkina (1914–1916) faoliyati muhimdir. M. Gersenshteyn, I. Kopitovskiy, V. Dobrovolskiy, A. Zubov va N. Sapojnikov harbiy shifokor sifatida ishlaganlar⁵.

XX asr boshlarida turli yuqumli kasalliklar tarqalishi tufayli Bilfeld rahbarligida 1913-yilda «Shifokorlar jamiyati»⁶ tashkil etildi.

Shu bilan birga, shahar aholisining salomatligi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan bir qator jamiyatlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Imperiya hukumati

¹Справочная книжка Самаркандской области на 1891 год. – Самарканд, 1891. С. 18.

²Очерки становления и развития экстренной медицинской помощи в Самарканде / Под ред. д.м.н. Садикова Р.А. – Ташкент: Издательство медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино, 2004. С. 19.

³CVDA. Fond-837. Ro'yxat-1 Ish-124. 101-variant.

⁴К вопросу об усилении врачебной помощи в крае. Туркестанские ведомости. 1914, № 100.

⁵Рисовые поля и лихорадки // Справочная книжка Самаркандской области на 1902 год. Вып. VII. – Самарканд, 1902. С. 163.

⁶Княжинский Б.П. Очерки по истории медико-санитарного дела в Самарканде и Самаркандской области. – Самарканд, 1944. С. 37.

jismoniy tarbiya masalasiga ham o'z manfaatini yuzasidan munosabat bildirgan. Bu jarayon Ichki ishlar vazirligining «Umumiy ishlar departamenti» tomonidan 1913-yil 3-sentabrda viloyat harbiy gubernatorlariga murojaatnomasida, umumrossiya hududidagi o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish to'g'risida qabul qilgan qarorlarida o'z aksini topgan. Jismoniy tarbiya sohasidagi ishlar Imperator otliq qo'shinlari hamda saroy ofitserlari shtabi kapitani, general-mayor Voyeykovga yuklatilgan¹.

Samarqand shahrida 1911-yildan «Lochin» sport jamiyati o'z faoliyatini boshladi. Jamiyat Nizomi Samarqand viloyati boshqarmasining jamiyatlar bilan ishlash bo'limi tomonidan 1911-yil 30-sentabrda tasdiqlangan bo'lib, 6 bo'lim, 29 bandedan iborat bo'lgan². Jamiyat maqsadi o'z a'zolarini jismoniy mashqlar orqali rivojlantirish va ular orasida «sport ustalari»ni yetishtirib chiqarish bo'lgan. Lochin jamiyatida turli sport o'yinlari qatorida fransuz kurashi, otida yurish va velosiped poygalari uyushtirilgan. Jamiyat mablag'lari miqdori jamiyat yig'ilishi tomonidan belgilanadigan a'zolik badali, tashkilot va xususiy korxonalar xayr-ehsonlari, kapitallardan foiz tushumlari, ma'ruza, spektakl, konsert hamda jamoat kechalarini tashkil etishdan tushgan mablag'lar hisobidan tashkil etilgan. Jamiyat tarkibida imperiya fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxslar (1 nafar nemis va 1 nafar xitoy) bor edi.

Romanovlar sulolasi hukmronligining 300 yilligi munosabati bilan Samarqandda yetimlarni homiylikka oluvchi Imperator qo'l ostidagi maxsus Romanovlar qo'mitasi tashkil etilgan. Qo'mitaning maqsadi yetimlarning ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi, sulolasi va diniy mansubligidan qat'i nazar ularga homiylik qilish va shu maqsad yo'lidagi hukumat, jamoat va xususiy faoliyatlarni birlashtirish bo'lgan³.

Mariya Aleksandrovna vasiylikdagi Turkiston o'lkasi viloyatlari va Buxoro amirligida ko'zi ojizlar jamiyati tuzilgan⁴.

Sport va salomatlik jamiyatlari bilan bir qatorda, 1912-yil 3-oktabrda Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi jamiyati tashkil etildi. 23-oktabrda viloyat harbiy gubernatori tomonidan jamiyat faoliyati rasman tasdiqlandi. Jamiyat boshqaruv kengashi faxriy rais, rais, rais yordamchisi, g'aznachi va kotibdan iborat bo'lib, faxriy rais vazifasini shaxsan viloyat harbiy gu-

¹ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3522, 1-varaq.

² O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3522, 1-varaq.

³ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3697, 1-1-orqa varaq, 2-varaq.

⁴ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3834, 29-varaq.

bernatori general-mayor I.Z. Odishelidze bajargan. Savdo maslahat byurosi Rossiya qishloq xo'jaligi jamiyatlari, kredit, bank masalalari, savdo firmalari bilan aloqaga kirishdi. Qishloq xo'jaligining turli sohalariga oid 113 tomdan iborat kitoblar sotildi. 1915-yil 1-yanvariga kelib jamiyat a'zolarining soni 55 nafarga yetdi, a'zolarining 8 nafari mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lgan¹.

Xullas, Samarqandda ijtimoiy hayot va xizmat ko'rsatish sohaları Turkistonning boshqa shaharlariga (Toshkentdan tashqari) nisbatan yuqori bo'lib, bu tibbiy xizmat, mehmonxona ishi, shaharsozlik, diniy vaziyatning barqarorligi misolida o'z tasdig'iga ega.

Tahlillarning ko'rsatishicha, «eski shahar» hayotidagi yangiliklar asosan markaziy, ya'ni bozor ko'chalarida kerosinli yoritqichlar, mahalliy aholining o'ziga to'q boy va nufuzli qatlamlari turmushida juda cheklangan doirada bo'lsa-da, maishiy texnika aloqa vositalarining paydo bo'lishi, mahalliy tadbirkorlarning ishlab chiqarish texnikalarini o'rnatishi kabi holatlarda namoyon bo'ldi.

Maishiy turmushda tikuv mashinalari, mahalliy boylar uyida qandillar, oynali javonlar, kamin, kerosin lampalar, o'tda qizdiriladigan dazmolalar paydo bo'ldi. Ro'zg'orda ilgari sopol, mis idishlardangina foydalanган mahalliy aholi turmushiga chinni idishlar, boy xonadonlarda qoshiq singari buyumlar kirib keldi.

Shaharning «yangi qismi»da qurilgan madaniy-ma'rifiy maskanlar, xususan, teatr, muzey, kutubxonalar, sayilgoh va xiyobonlardan rus ma'murlari, harbiylar, ziyolilar, chetdan kelgan yevropaliklar bahramand bo'ldilar. Eng yaxshi imkoniyatlar amaldorlar, harbiylar, yevropalik aholining nufuzli qatlamlari uchun yaratilgan edi. Spirtli ichimliklar tayyorlovchi korxonalar, do'konlar, qahvaxona, bufetlarning ko'payishi bilan shaharda mahalliy mentalitetga yot bo'lgan salbiy holatlar – ichkilikbozlik, qimorbozlik kabi illatlar ham paydo bo'ldi.

Shahar budjetining adolatsiz taqsimoti, eski shaharga nisbatan qoldiq tamoyilining qo'llanilishi shahar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shahardagi ijtimoiy va jamoat markazlari, bozorlar, madrasalar, masjidlar va karvonsaroylar asosan mahalliy sarmoyadorlar homiyligi, ya'ni ularning shaxsiy mablag'i va vaqf mulklari hisobidan saqlab turildi. An'anaviy infratuzilma, kommunal xizmatlar, suv tizimi, guzarlardagi jamoa kuchi bilan hashar va xayriya harakatlari juda ko'p muammolarni hal etishga yordam berdi. Shaharning zamonaviy infratuzilmasi vujudga kelgan yangi qismida rus aholisi madaniy hordiq chiqarganda mahalliy aholi yozning jazirama issig'ida

¹ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3834, 15-varaq.

va sovuq qishda an'anaviy tomoshalarni bozor maydonida tik turib kuzatgan. Rus aholisi tosh yotqizilgan ko'chalarda kezib yurganda, mahalliy aholi yozda chang, qishda loy ko'chalardan yurgan. Bu jarayonlar mustamlaka sharoitidagi Samarqand shahri madaniyatida ziddiyatli holatlar edi.

5-§. Hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlari

Samarqand shahar aholisining ijtimoiy turmushi bilan birga iqtisodiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, hunarmandchilik sohasi raqobatbardoshligini yo'qotdi. Mustamlakachilik davrida shahar hunarmandchiligi va hunarmandlar ahvoli keskin pasaydi. Bunga asosiy sabab Samarqand viloyati va shahridagi iqtisodiy siyosat (ekspansiya), soliqlarning kuchaytirib yuborilganligi edi¹.

1883-yilda Samarqand shahrida 38 ta duradgorlik, 22 ta miskarlik, 38 ta bo'yoqchilik, 170 ta etikdo'zlik, 68 ta temirchilik, 49 chilangarlik, 18 ta zargarlik, 5 ta soatsozlik, 30 ta sartaroshlik, 8 ta tamakichilik, 1200 ta gilam to'qish ustaxonalari mavjud bo'lgan. Ushbu korxonalarda 3000 ga yaqin ishchi mehnat qilgan bo'lib, yillik ishlab chiqarish hajmi 103907 rublni tashkil etgan². Aynan shu yilda Samarqand shahrida 5 ta araq korxonasi, 2 ta vino, 2 ta pivo, 15 ta teri oshlash, 18 ta cho'yan, 30 ta sopol idishlar ishlab chiqaruvchi, 14 ta sham ishlab chiqaruvchi, 8 ta g'isht va 145 ta yog' korxonalari faoliyat yuritgan. Bu kasanachilik korxonalarida 677 kishi mehnat qilib, yillik ishlab chiqarish hajmi 239987 rubldan iborat bo'lgan³.

1883-yili 1916 ta⁴ hunarmandchilik korxonasi va ustaxonalarida 159143 rubl, 1892-yilda 10587 ta korxonasi va ustaxonalarda 3145620 rubl, 1905-yilda 7046 ta korxonasi va ustaxonalarda 1837072 rubl, 1910-yilda esa 7788 korxonasi va ustaxonalarda 2087924 rubl miqdorida xalq ehtiyoji uchun hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan⁵. Demak, hunarmandchilik korxonasi va ustaxonalarining soni kamayishi kuzatilsa-da, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi oshib borgan. Hunarmandchilik ko'rsatkichlari sanoat mahsulotlarining hajmiga nisbatan sekin o'sgan. Sanoat rivojida ko'rsatkichlar buning teskarisi edi. Temiryo'l tarmog'ining Samarqand orqali o'tishi natijasida shahar iqtisodiyoti rivojlandi, sanoatning va tadbirkorlikning

¹ Случный И.М. Хлопководство в Туркестане // «Туркестанское сельское хозяйство». – Ташкент, 1911, №4. С. 352.

² O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1333, 2-2-orqa varaqlar.

³ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1333, 4-4-orqa varaqlar.

⁴ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, 1333-ish, 2-varaqlar.

⁵ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-2, 5652-ish, 2-varaqlar.

yangi yo'nalishlari shakllana borgan. 1888-yilda Samarqand viloyati fabrika va zavodlari ishlab chiqargan mahsulotlarning miqdori 1033573 rublni tashkil etgan bo'lsa, 1905-yilda bu ko'rsatkich 11469580 rublga, 1908-yilda esa 14843287 rublga yetgan¹.

1882-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand uyezdi va shahrida 33 ta² hunarmandchilik turlari bo'yicha mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ularni xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Qazilma mahsulotlarga ishlov berish; kulolchilik, g'isht pishirish, cho'yan eritish, temirchilik, chilangarlik, miskarlik³;

Jonivorlar mahsulotlariga ishlov berish; terichilik, sovun tayyorlash, sham ishlab chiqarish, ipakchilik, sarrojlik va egarchilik, etikdo'zlik, yashil sag'riyon tayyorlash, kolbasa tayyorlovchilar;

O'simlik mahsulotlariga ishlov berish; vinochilik, mineral suvlar tayyorlash, suv tegirmonlari, juvozlar, novvoychilik va qandolatchilik, to'quvchilik, tamakichilik (hidlanuvchi tamaki)⁴;

Aralash ishlab chiqarish; mahalliy qandolatchilik, bo'yoqchilik, zargarlik, soatsozlik, sartaroshlik, nashr ishi (tipo-litografiyalar), suratchilik (fotografiyalar), rus kiyim tikuvchilari, bosh kiyim tayyorlovchilar, malyarlik-sirchilik⁵.

Keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qator hunar sohalari: fotografiya, tipo-litografiyalar, rus qandolatchiligi, rus kiyim tikuvchiligi kabilar yangi sohalar hisoblangan.

Samarqandda boshqa hunarlar qatorida qog'oz ishlab chiqarish ham rivojlangan. 1869-yilda Samarqandda qog'oz ishlab chiqaruvchi ustaxonalar soni 16 ta bo'lgan⁶. Arminiy Vamberining fikricha, Samarqand qog'ozi «yangi ipakdan tayyorlangan...»⁷, O'rta Osiyo bo'ylab 1866-yilda sayohat qilgan P.I. Pashino fikricha esa qog'oz paxtadan tayyorlangan⁸, A.Semyonov qog'oz tayyorlashda eski latta va paxta tolalari, ipak va kanop chiqitlari ham qo'llanilgan degan fikrni ilgari suradi⁹. Ta'kidlash joizki, har qanday mahsulot tayyorlanganda atrof-muhitda mavjud bo'lgan xomashyodan keng foydalanilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, qog'oz tay-

¹ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-2, 5652-ish, 3-varaq.

² O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3504a, 5-6-7-varaqlar.

³ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3504a, 7-varaq.

⁴ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-3504a, 9-varaq.

⁵ Оѳзор Самаркандской области за 1893 год. – Самарканд, 1894. С. 108.

⁶ O'zMA. I 5, Ro'yxat-1, Ish-12. 124-varaq.

⁷ Вальберг А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1855. С. 211.

⁸ Пашинъ П.И. Туркестанский край. 1866 г. – СПб., 1868. С. 140.

⁹ Irisqulov O.J. XIX asrda Samarqandda qog'oz hunarmandchiligi // «O'zbekiston davlatchiligi tarixi masalalari». Ilmiy to'plam. – Samarqand: SamDU, 2015. 19–25-betlar.

yorlashda samarqandlik hunarmandlar asosan kanop, qamish, paxta, zig'ir tolasi va ipakdan keng foydalanishgan¹, degan fikr o'rinlidir.

Samarqand qog'ozi o'zining maxsus suvsimon belgisiga ega bo'lgan. Mazkur belgi XVI asrda usta Mir Ibrohimning o'ziga xos muhri hisoblangan. Bu belgi so'nggi paytlargacha ham Samarqand qog'ozining belgisi sifatida saqlanib qolgan va «Mir-Ibrohim» deb atalgan².

Samarqand qog'ozi tayyorlangan xomashyosiga ko'ra, asosan uch turga ajratilgan. Ulardan biri ipak chiqitlari, tarandilaridan tayyorlangan va unga hech qanday paxta tolasi qo'shilmagan. Bu qog'oz nihoyatda puxta, go'zal, mayin va juda silliq bo'lib, sariq tusda tovlanib turgan. Bu qog'oz «qog'ozi abrishumiy», ya'ni «qog'ozi ipak» deb yuritilgan. Samarqand qog'ozining ikkinchi xili – yarim shoyi qog'oz bo'lib, u ipak xomashyosidan tayyorlangan. «Nimkatoniy» deb atalgan bu qog'oz qalin, puxta va yaxshi ohorlangan bo'lib, bunday qog'ozdan qilingan kitobni varaqlash qulay bo'lgan. Uchinchi xil qog'oz deyarli sof paxtadan tayyorlangan va u sifati hamda tayyorlash usuliga ko'ra yuqorida aytib o'tilgan qog'ozlardan birmuncha pastroq bo'lgan³.

1869-yilda Samarqand shahrida turli mahsulot va tovarlarni sotishga mo'ljallangan 2414 do'kon⁴ bo'lganki, bu so'zsiz shaharning yirik savdo markazi bo'lganligidan guvohlik beradi. Samarqand savdosining yana bir xususiyati – savdo faqat bozorlarda, do'konlarda emas, balki rastalarda ham olib borilgan. Rastalar ko'proq ixtisoslashgan bo'lib, har bir rastada alohida mahsulot turi sotilgan.

Bozorlar shaharning 1/3 qism maydonini egallagan. U bir tomondan shahar harbiy qo'rg'onidan to Shohizinda mavzeyigacha, ya'ni Toshkent darvozasigacha, ikkinchi tomondan shahar o'rtasidan Qalandarxona va So'zangaron darvozalarigacha cho'zilgan⁵. Bozorlar savdo faoliyatiga qarab ikkiga: kundalik va katta bozorlarga bo'lingan.

1868-yil ma'lumotiga ko'ra, Samarqanddagi 35 ta karvonsaroylardan faqatgina bittasida tozalanmagan jun sotilgan. U markaziy bozorning ichida joylashgan bo'lib, «Jun-saroy» deb atalgan. Bu karvonsaroy Mulla Orifboyning xususiy mulki bo'lib, 15 ta do'kondan iborat edi. Maz-

¹ Qilichev R. Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar... // Quyi Zarafshon vohasi: ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayoti tarixi (ikkinchi kitob). – Toshkent: Fan, 2007. 93–97-betlar.

² Абрамюс М.М. Из истории производства самаркандской бумаги // Общественные науки в Узбекистане, 1968, №12. С. 31.

³ Habibullayev N. O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish. – Toshkent: Fan, 1992. 46–47-betlar.

⁴ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-12, 124-varaқ.

⁵ Kurahmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. – Toshkent: Fan, 2009. 26-b.

kur do'konlarning har biriga 8 botmondan jun joylashtirilgan¹. Undan tashqari, «Go'ri Amir masjidiga tegishli vaqf yer hududida joylashgan yana 50 tacha do'kon» junli buyumlar, palas va gilamlar bilan savdo qilgan².

XIX asrning oxirida Samarqand shahridagi karvonsaroylar soni 58 ta bo'lib, ular turli mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo majmualaridan iborat bo'lgan. Mazkur karvonsaroylar savdo buyumi yoki uning asoschisi nomi bilan atalgan. Masalan, saroyi mayiz, saroyi ord, saroyi birinji mayda, saroyi tamoku furushi, saroyi rangubor furushi, saroyi shinni, saroyi Orifjonboy, saroyi Maxsum, saroyi Muhammad, saroyi Karimboy, saroyi Podshohi, Jun saroy³. Arxiv hujjatlari ma'lumotlari asosida ularning kattaligi, xizmat turlari haqida ma'lumotlarni ham bilib olishimiz mumkin. Masalan, Davlat qushbegi saroyi birinchi qavatda 30 hujra, yerto'lada uchta xona va omborxonaga ega bo'lgan. Ikkinchi qavatida ham 30 ta xona mavjud bo'lgan. Qo'shohovuz guzaridagi Orifjonboy saroyida 45 ta xona bo'lgan. Maxsum saroyida 14 ta xona va 7 ta do'kon, Muhammad Karimboy saroyida 26 ta xona, Miskar saroyida 15 ta savdo xonalari bo'lgan⁴.

Karvonsaroylar sonining ko'pligi, ularning hajmi kattaligi shaharda savdo-sotiq ishlarining jadal borishi va tovar ayirboshlash miqdorining ham kattaligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, shaharda Rossiyadan keltirilgan turli mahsulotlar bilan savdo qiluvchi 50 ta, shu bilan birga, 394 ta mavsumiy mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'konlar ham bo'lgan⁵. XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda 3105 ta rasta mavjud bo'lib⁶, savdo faqatgina do'konlarda emas, balki rastalarda ham qizg'in amalga oshirilgan.

Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari Hindiston, Xitoy, Eron⁷, Afg'oniston xalqlari bilan qizg'in savdo munosabatlarini olib borganlar. Samarqand va Balx shaharlari o'rtasida qizg'in savdo munosabatlari o'rnatilganligini Balxdan 10 km janubda «Samarqandiyon qishlog'i» bo'lganligidan ham bilsa bo'ladi⁸.

¹ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-12, 107-varaq.

² O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-12, 114-varaq.

³ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-72, 14-17-varaqlar.

⁴ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-72, 14-17-varaqlar.

⁵ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-12, 124-varaq.

*Файлюев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). - Самарканд, 1992. С. 35.

⁷ Расулхода П.Н. Из истории среднеазиатско-индийских связей второй половины XIX - начала XX вв. - Ташкент: Фан, 1968. С. 11-13.

⁸ Мухтаров А.М. Позднесредневековый Балх: Материалы к исторической топографии города XVI - половине XVIII вв. - Душанбе: Дониш, 1980. С. 90.

Hindistondan choy, marvarid, qimmatbaho toshlar, bo'yoq (indigo), do'ivor o'simliklar, ipak mahsulotlar, Kashmirdan chiroyli gul bosilgan nimcha va shoyi ro'mollar, Afg'onistondan gulli ipak matolar, oq harir matolar, salla, shakar, murch, bodom, ro'yon (bo'yoq olinuvchi o'simlik) urug'i, gilamlar, xalatlar, qoplar, namat, qorako'l olib kelingan. Afg'onistondan yirik chorva podalari sotish uchun olib o'tilgan¹.

Ichki va tashqi savdoning rivojlanib borishi o'z o'rnida mahsulot yetishtirib beruvchi ishlab chiqarish xo'jaliklarining rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Jumladan, 1888-yili Samarqand uyezdida 4206 ta (viloyatning 47,2 % savdo hujjatlari) turli savdo hujjatlari taqdim etilgan bo'lsa, oradan 10 yil o'tib, 1898-yili ularning soni 6918 taga ko'payib, viloyatda mazkur turdagi umumiy hujjatlarning 51,8% ni tashkil etgan².

Samarqand uyezdida savdo turlari va savdosining rivojlanishini xususiyatlariga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

«Yangi shahar»da savdo muassasalarining soni ancha kam bo'lib, 233 ta savdo va sanoat tashkilotlari mavjud edi. 1897-yil holatiga ko'ra, ularning savdo aylanmasi 2238400 rublni tashkil etgan³.

Savdoning asosiy qismi «eski shahar»da amalga oshirilib, u yerda manufaktura mahsulotlari, choy, mahalliy xomashyo, turli mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari, ijara, hammomlar, sartaroshxonalar, pul almashtirish shoxobchalari bo'lgan. «Eski shahar»dagi umumiy savdo aylanmasi 134613350 rublni tashkil etgan⁴.

Uyezd savdosining uchinchi yo'nalishini qishloq bozorlari savdosi tashkil etgan. Ushbu bozorlarda aksariyat savdo obyektini qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil etib, u yerdan Rossiyaning Yevropa qismiga ko'plab quritilgan mevalar olib ketilgan⁵.

Samarqandda savdoning o'sib borishi natijasida savdogarlarning ahvoli ijobiy tomonga o'zgarib borgan. O'z qo'lida ulgurji savdoni to'plab, asosan foizlar hisobiga kun kechirayotgan bir guruh savdogarlar imperiya qonunlari tomonidan sarmoyachilar sifatida muhofaza qilingan. Bu imperiya rahbariyatining mulkdorlar sinfi manfaatlarining himoyasiga befarq bo'lmaganligini ko'rsatadi⁶.

¹ Шамансурова А.Ш. К вопросу среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. В кн.: Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII – начале XIX вв. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1963. С. 54.

² Шамансурова А.Ш. К вопросу среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. ... С. 54.

³ Обзор Самаркандской области за 1897 год. – Самарканд, 1898. С. 28.

⁴ Обзор Самаркандской области за 1897 год. – Самарканд, 1898. С. 30.

⁵ Брженецкий Г.А. Самаркандский уезд. Статистический обзор. – 1909. С. 138.

⁶ Арандаренко Г.А. Досути в Туркестане, 1872–1874. – СПб., 1889. С. 66–67.

1906-yilga kelganda Samarqandda choy bilan ulgurji savdo qiladigan 13 ta firma, Otto Vogau, aka-uka Popovlar, Bauer, Ganshin, Proxorov, Gusev, Danilov, Sharovskiy, «Sindel i K», «A. Kuznetsov i K» firmalari, Filatov va aka-uka Kamenskiylar kabi rus va Pinxasev, Mullaqandov, Qalantarov kabi mahalliy yahudiy va Rizayev kabi eroniy savdogarlar qo'lida bo'lgan Samarqandda choy savdosi bilan ikki peshavorlik (Hindiston) savdo firmasi shug'ullanganligi haqida ham ma'lumotlar bor². Mahalliy savdogarlar asosan choy va Rossiyadan keltirilgan mahsulotlarning chakana savdosi bilan shug'ullangan bo'lsa, ushbu mahsulotlarning ulgurji savdosi bilan rus va yahudiy savdogarlar shug'ullangan.

Samarqand o'zining qulay geografik joylashuvi va ma'muriy jihatdan chegaralarga yaqinligi tufayli choy savdosida o'lkada eng yirik markazga aylangan. Masalan, 1899-yili Rossiya imperiyasining Osiyo qismida jami 7816119 funt choy qadoqlangan bo'lsa, shundan 35,4 foizi Samarqand hissasiga to'g'ri kelgan. Tyumendan keyin Samarqand ulgurji choy savdosida Rossiya imperiyasi bo'yicha ikkinchi, Turkiston o'lkasida birinchi o'rinda turgan³.

1894-yili Buxoro amirligining Rossiya imperiyasining bojxona tizimiga kiritilishi va Kaspiy dengizi orqali choy savdosini amalga oshirilishiga ruxsat berilishi hamda 1868-yildagi chetdan keltirilgan choy mahsulotlariga bojxona to'lovlarining oshirilishi⁴ to'g'risidagi ko'rsatmaning amirlik hududida ham amal qila boshlashi choy savdosida ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochib berdi. 1902-yili Samarqand ichki bojxonasining tashkil etilishi bilan bu yanada mustahkamlandi.

Xullas, mazkur davrda sanoatlashuv natijasida ishlab chiqarishning ikki yo'nalishi vujudga kelgan: birinchisi an'anaviy shakldagi hunarmandchilik ishlab chiqarishi bo'lsa, ikkinchisi yangi sanoat tarmoqlari edi.

6-§. Yangi iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi: sanoat korxonalari, transport va kommunikatsiya masalalari

Samarqandda XIX asrning 60–70-yillarida dastlab alkogol mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoati shakllangan. Samarqandda yetishtiriladigan oliy navli uzumlarning ko'pligi, serhosilligi, mazaliligi 1869-yildan

¹ Справочник Самаркандской области на 1901 г. вып. III. – Самарканд, 1901. С. 54.

² Алёмов А. Развитие торговли в Туркестане конца XIX века // Общественные науки в Узбекистане. 1969. – №6. С. 44.

³ Справочник Самаркандской области на 1901 г. Вып. III. – Самарканд, 1901. С. 54.

⁴ Сандқулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. ... С. 159.

boshlab bu yerda musallas, vino ichimliklarini ishlab chiqarishning rivojlanishiga sabab bo'lgan¹. Samarqand yerlarining topografik, geografik, irrigatsion va iqlim xususiyatlarining qulayligi sanoatning bu turdagi rivojlanishiga sharoit yaratgan. Hattoki, Samarqand harbiy gubernatori N.Y. Rostovsev 1895-yili vino ishlab chiqarish va ularni Rossiyaga yetkazib berish bilan shaxsan o'zi shug'ullangan². Ushbu sanoat turining rivojlanishi natijasida XX asrning boshlariga kelib, Turkiston o'lkasi bozorlarida Rossiyadan keltirilib sotiladigan spirtli mahsulotlar raqobatdan siqib chiqarilgan. 1868-yilda savdogar D.Filatov tomonidan Samarqandda birinchi vino va pivo tayyorlovchi zavod ishga tushirilgan³. Uning vino zavodi 1881-yilda 1200, 1890-yilda 16000 va 1900-yilda 20000 ming chelak vino ishlab chiqargan⁴. 1900-yilga kelib sanoatchi Filatovga Samarqand viloyatidagi 2 ta vino, 1 ta konyak-vino va 1 ta spirt ishlab chiqaruvchi zavod tegishli edi. Mazkur korxonalar soni muttasil o'sib borgan⁵. 1918-yilda D.Filatov oilasi bilan Fransiyaga ko'chib ketgach, vino zavodining qoplamalar bilan yopilgan yerto'lasida 1967-yilgacha ochilmagan. Eski shaharning Qalandarxona dahasida Yefim Abramovning (Rossiya fuqarosi, millati yahudiy) araq ishlab chiqarish zavodi, Bistrov merosxo'rlari nomida K.D. Ivanov ijaraga olgan araq zavodlari (eski shaharda) bo'lgan⁶. Vino zavodlari Samarqand shahrining Lagershoh ko'chasida 1888-yilda N.I. Ivanov tomonidan, eski shaharda esa Ilyasov merosxo'rlari qo'l ostida yahudiy millatiga mansub M.Leviyev tomonidan 1883-yilda tashkil etildi⁷.

XIX asrning 70-yillarida zavod-fabrikalarni yoqilg'i-energiya bilan ta'minlashda toshko'mirdan foydalanilishi ko'mir qazib olish sohasining ham rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ko'mir qazib olishda Vrublev, Barsevskiy, Ivanov va Petrov kabi sanoatchilar yetakchilik qilishgan. Mahalliy aholi toshko'mirdan deyarli foydalanmagan. Lekin rus aholisi uylarida toshko'mir ishlatilgan. Ko'mir sanoatining rivoji zavod va fabrikalarda

¹ Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. ... 26-b.

² Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Т. 527. – Ташкент, 1909. С. 46–47.

³ Normirodova G.B. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi. ... 96-b.

⁴ Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti... 26-b.

⁵ O'sha asar. 31-b.

⁶ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-5652; 5–6-variantlar.

⁷ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-5652; 10–11-variantlar.

yoqilg'i va energiya muammosi hal etilishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki sanoat korxonalari asosan rossiyalik tadbirkorlar mulki bo'lib¹, ular mahalliy aholi ishchi kuchining arzonligi hamda dehqonlardan arzon narxda sotib olinadigan qishloq xo'jalik xomashyosi hisobiga boyib borgan. XIX asrning 80-yillaridan boshlab mahalliy mulkdorlar tomonidan zavod va fabrikalar ochila boshlangan.

Texnik ishlab chiqarish sohasida ham bir qator yangiliklar, rivojlantirish va yuksalish kuzatilgan. Amaliyotchi-texnik Lyamin 1879-yili Samarqand shahrida Siyobsoy daryosi irmoqlarining birida Samarqand-Toshkent yo'lida suv tegirmonini qurib², 1880-yildan boshlab yuqori sifatli un ishlab chiqara boshlagan. Bu zavod atrofdagi oltita savdo do'konlariga kuniga 1000 puddan un yetkazib bera olgan³.

Temiryo'l qurilishi bilan imperiya tomonidan Turkiston o'lkasi, shu jumladan, Samarqand viloyatining rus korxonalari tomonidan iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilishi kuchaygan. Temiryo'lning ishga tushishi natijasida Turkiston o'lkasining barcha hududlarida sanoat ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqaruvchilar faoliyatining umumlashuvi va tizimlashuvi sodir bo'lgan. Asta-sekinlik bilan sanoatchilar bitta yoki bir nechta emas, balki ko'plab zavod va fabrikalar ochishga harakat qilishgan. Shahar sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ishchilarning soni yil sayin oshib borgan. 1893-yilda viloyatda 51 ta sanoat korxonasida 805 ta ishchi faoliyat yuritib, bu korxonalarda 3054697 rubl hajmdagi mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa⁴, 1893-yilgi imperiyaning mahalliy hukumati rasmiy ma'lumotida viloyatda sanoat korxonalarini soni 1892-yildagiga nisbatan ko'paygan.

Paxta bilan bog'liq sanoat korxonalarini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi ekanligi, keyingi o'rinda vino ishlab chiqaruvchi korxonalar, keyingi navbatda oziq-ovqat sanoati (un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi) korxonalarini turganligi, teriga ishlov berish, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi zavod va fabrikalarning mahsulot hajmi qisqarganligi, shu bilan birgalikda Germaniya sanoatida talab oshishi natijasida ichakka ishlov beruvchi korxonalar mahsuldorligi oshganligi qayd etilgan⁵.

Samarqanddagi sanoat korxonalarining soni keyingi yillarda ham oshib borgan. 1900-yilga kelib birgina Samarqand uyezdida sanoat korxo-

¹ O'zMA. I 18 Fond, Ro'yxat-1, Ish-5652; 13-14-varaqlar.

² O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1333, 6-varaq.

³ O'zMA. I 5 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1333, 6-varaq.

⁴ Обзор Самаркандской области за 1893 год. – Самарканд, 1894. С. 108–111.

⁵ Обзор Самаркандской области за 1893 год. – Самарканд, 1894. С. 30–32.

nalarining soni 65 ta bo'lib, ular: 1 ta g'isht zavodi, 9 ta teridan va 3 ta ichakdan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, 4 ta araq-spirt ishlab chiqaruvchi, 22 ta vino tayyorlovchi, 1 ta pivo tayyorlovchi, 11 ta paxta tozalovchi, 5 ta un ishlab chiqaruvchi, 1 ta makaron ishlab chiqaruvchi, 3 ta meva va sabzavotlardan ichimliklar tayyorlovchi, 1 ta spirt tozalovchi, 1 ta paxta tayyorlovchi, 3 ta xromo-tipo-litografiya (nashriyat) korxonalar bo'lgan. Mazkur zavod va fabrikalarda jami 3741523 rubl mahsulot ishlab chiqarilgan va ularda 933 nafar ishchi ish bilan band bo'lgan. Bu davrda viloyat bo'yicha jami 87 ta sanoat korxonasida 1372 nafar ishchi mehnat qilgan va 6090506 rubl hajmdagi mahsulot ishlab chiqarilgan¹.

1905-yilga kelib uyezddagi jami sanoat korxonalarining soni 77 taga kamaygan. Ular 2 ta g'isht zavodi, 1 ta qo'rg'oshin buyumlar yasovchi zavod, 11 ta teridan mahsulot tayyorlovchi va 2 ta ichakka ishlov beruvchi, 2 ta konyak tayyorlovchi, 3 ta araq-spirt ishlab chiqaruvchi, 1 ta spirt tozalovchi, 22 ta vino ishlab chiqaruvchi, 1 ta pivo tayyorlovchi, 8 ta paxta tozalovchi, 4 ta tegirmon, 1 ta makaron ishlab chiqaruvchi, 4 ta meva va sabzavotlardan ichimliklar tayyorlovchi, 13 ta choy qadoqlovchi, 2 ta xromo-tipo-litografiya (nashriyat) ishlab chiqaruvchi va mahsulotlar tayyorlovchi zavod va fabrikalar mavjud bo'lgan. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmi 9596770 rubl qiymatiga teng edi². 1913-yilga kelib korxonalar 117 taga, ishchilar soni 2814 taga yetgan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi esa 10129773 rublga teng bo'lgan³.

Butun Turkistonda bo'lgani kabi Samarqandda ham fabrika-zavod sanoatining rivojlanishi agrar xomashyo yo'lidan olib borilgan. 1880-yildan 1892-yilgacha paxta tozalash zavodlari soni 16 taga yetdi. Bu davrda Turkiston Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. Keyingi yillarda ham Samarqand viloyatida paxta tozalash zavodlari soni yanada ko'payib, 1898-yili 22 ta, 1908-yili 35 ta, 1913-yili 31 tani tashkil qilgan. Mazkur sanoat korxonalarining aksariyati Samarqand shahrida joylashgan bo'lib, ular faoliyatining tobora jadallashuvi natijasida shahar bozorlarida xomashyo savdosi tobora keng tus ola boshlagan.

1888-yil viloyatdagi 14 zavod-korxonalaridan 5 tasi mahalliy mulkdorlarga tegishli bo'lsa, 1896-yilga kelib 20 ta zavoddan 11 tasi ularga tegishli bo'lgan.

¹ Обзор Самаркандской области за 1900 год. – Самарканд: Типография «Товарищества», 1894. – Приложение №5.

² Обзор Самаркандской области за 1905 год. – Ташкент: Среднеазиатская жизнь, 1906. – Приложение №7.

³ Обзор Самаркандской области за 1913 год. – Самарканд, 1914. С. 127.

Imperiya rahbariyati mustamlaka o'lkada sanoatning barcha sohalari rivojlanib borishidan manfaatdor bo'lmagan. Xususan, XIX asrning 80-yillarida katta Yaroslavl manufakturasiga egalari Samarqandda paxtadan to'quvchilik fabrikasini qurish uchun yer sotib olishgan. Biroq imperiya ma'muriyati tez orada turli bahonalar bilan mazkur fabrika qurilishini to'xtatib qo'yganliklari bunga misol bo'lishi mumkin¹.

1913-yili Samarqand aksionerlar jamiyati tikuvchilik fabrikasini qurishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Samarqand viloyati gubernatoriga murojaat qilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand shahriga xorijiy tadbirkorlar oqimining kelishi kuchaydi. 1893-yilda Turkiston general-gubernatorining ruxsati bilan Samarqandga italyanlar, yunonlar va nemislar kelgan. Italyanlar toshtaroshlik ishlari bilan shug'ullanib, Nikola Kardini va Jovani De Toni o'zlarining toshtaroshlik sexini tashkil qilgan. Yunon mutaxassislaridan Grigori Kapo makaron ishlab chiqarish sexini, nemislardan Minder va Yugovich paxta tozalash zavodini qurishgan. XIX asr oxirida bir guruh avstriyalik va saksoniyalik nemislar, jumladan, Otto Vogua pivo zavodiga mutaxassis sifatida taklif qilingan. Shuningdek, Samarqand shahrida Avstriya fuqarosi Dulo va polshalik Levinskiy o'zlarining galantereya va kiyim-kechak do'konlariga ega bo'lgan².

XIX asr oxirida rivojlanayotgan savdo va moliyaviy munosabatlar Samarqandda bank va tijorat firmalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Samarqand shahrida XX asr boshlarida bir nechta banklar mavjud bo'lgan: Davlat bankining Samarqand bo'limi (1890–1918-yillar)³, Moskva savdo bankining Samarqand bo'limi (1901–1917-yillar)⁴, Rus-Osiyo bankining Samarqand bo'limi (1912–1916-yillar)⁵, Sibir savdo bankining Samarqand bo'limi (1908–1917-yillar)⁶ faoliyat ko'rsatgan. Bular qatori Rus-Xitoy banki ham 1902–1916-yillarda shaharda o'z faoliyatini samarali olib borgan. 1906-yil 27-mayda Samarqandda Rus-Xitoy banki boshqaruvi aksionerlarining umumiy yig'ilishi bo'lib, hisobotlarda 1905-yildan boshlab bank ishi-

¹ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. ... С. 140.

² Pirinqulov Sh. XIX asri oxiri – XX asr boshlarida Samarqanddagi xorijiy tadbirkorlar faoliyati tarixidan / Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'imi. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari... 383-b.

³ O'zMA. I 114 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 5-varaq.

⁴ O'zMA. I 115 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 8-varaq.

⁵ O'zMA. I 293 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 9-varaq.

⁶ O'zMA. I 290 Fond, Ro'yxat-1, Ish-1, 14-varaq.

ning rivojlanganligi ko'rsatiladi. Samarqanddagi yig'ilishda bu bo'limlarning faoliyati muvaffaqiyatli ekanligi ta'kidlangan. 1906-yilgi hisobotlarda Rus-Xitoy banki o'z aksiyalarini Parij birjasiga rasman kiritish borasida muzokaralar olib borgan¹. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, bu davrdagi iqtisodiy munosabatlar imperiya ehtiyojlariga xizmat qilgan.

Bu davrda shaharning boshqa hududlar bilan aloqa o'rnatishi uchun uzunligi 737 chaqirim (km) bo'lgan Qobulsoy – Verniy pochta yo'li qurildi. Bu yo'l Toshkent – Samarqand yo'liga tutashgan edi. Samarqand viloyati hududida Bogren, Omonqo'ton, Taxtaqoracha kabi pochta stansiyalari joylashgan. Bundan tashqari, Samarqanddan g'arbda Kattaqo'rg'onga, shimoli-sharqda Jomboy, Oqtepa va Toshko'prik orqali Toshkentga yo'l o'tkazilgan. Jomboy va Oqtepa stansiyalari 1870-yilda tashkil etilgan. Samarqanddan uyezd markazlariga, Panjikentga, Urgutga, Dahbetga, Chelakka va Loyishga boruvchi pochta yo'llari tashkil etilgan. 1875-yilda Samarqand shahrida pochta xizmatida 6 kishi faoliyat ko'rsatgan. 1875-yil Toshkent, Samarqand va Buxoro o'rtasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun telegraf liniyasi qurilishi boshlangan². Lekin sohada xizmat ko'rsatuvchi kadrlar juda kam bo'lgan.

Imperiya hukumati o'lkadagi, shu jumladan, Samarqanddagi iqtisodiy jarayonlar rivoji imperiyaning manfaatlari doirasida rivojlanishini qat'iy nazorat qilib borgan. Ayrim rus sanoatchilarining tayyor mahsulot yetishtirish bo'yicha takliflari hududiy va o'lka ma'muriyati tomonidan rad etilishi buning isboti bo'ldi. Turkiston o'lkasi, shu jumladan, Samarqandda yetishtirilayotgan xomashyo, ishlab chiqarilgan mahsulotlar rus savdogarlarining vositachiligida Yevropa va boshqa jahon bozorlarida ham o'z xaridorlariga ega bo'lgan.

7-§. Samarqand shahrida ta'lim va uning xususiyatlari

O'rta Osiyo davlatlarining Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi natijasida ta'lim sohasida ham turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so'ng mustamlaka hukumati mahalliy xalqning ta'lim tizimini to'liq nazoratga oldi. Rossiya imperiyasining mustamlaka ma'muriyati Turkistonda mavjud an'anaviy ta'lim tizimi va bu sohaga kirib kelgan zamonaviylikni o'z manfaatlariga bo'ysundirishni, Yevropa ta'limini rus va rus-tuzem maktablari orqali targ'ib etishni maqsad qilgan edi. Bir davrning o'zida xilma-xil ta'lim muassasalarining

¹ O'zMA. I 292 Fond, Ro'yhat-1, Ish-1, 3-varaq.

² Спидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков С. 130.

mavjudligi, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy hayotiga turlicha ta'sir etdi. Aytish joiz, Rossiya imperiyasida XIX asr o'rtalaridan boshlab ta'lim tizimida bir necha islohotlar o'tkazilgan. Bundan maqsad imperiya hududida tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish, boshqaruvni qulaylashtirish, hukmron doira manfaatlariga xizmat qildirishga qaratilgan edi.

Turkiston o'lkasidagi maorif sohasidagi siyosat general-gubernatorlar buyruqlari asosida olib borilgan. Ta'lim siyosatida belgilangan maqsadlar yerli xalqlarning e'tiqodiga qat'iy aralashmaslik tamoyiliga amal qilingan. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. Kaufman faoliyati davomida maorif sohasi bilan shaxsan o'zi shug'ullangan¹.

Rossiya imperiyasining mustamlaka hukumati dastlab Turkistonda ta'lim muassasalari faoliyatiga ortiqcha aralashmaslik siyosatini olib bordi. Ta'lim dargohlarida ularning faoliyatini rivojlantirish va davr talablariga moslashtirish yo'lida hech qanday amaliy harakatlar qilinmagan. Turkistondagi rus va rus-tuzem maktablari faoliyatida ham ko'plab kamchiliklar bo'lib, ular ham to'liq zamon talabi darajasiga javob bermagan. Imperiya ma'murlari o'lkadagi ta'lim taraqqiyotidan manfaatdor bo'lmaganliklari bois jadid maktablari faoliyatiga ham to'sqinlik qilishgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqandda ko'p sonli madrasalar, boshlang'ich maktablar, daloilxonalar (kattalar maktabi), qorixonalar, yahudiy maktablari, arman maktabi va qizlar maktablari faoliyat ko'rsatgan².

Qorixonalar hamda daloilxonalar³ butkul diniy muassasa bo'lgan va ular keng tarqalmagan. Ular dinni targ'ib qiluvchi joy hisoblanib, ularda o'qish ixtiyoriy, istakka qarab bo'lgan.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Samarqand shahrida ta'lim tizimida ko'p sonli boshlang'ich maktablar xalq savodini chiqarishda asosiy rol o'ynagan. O'lkada ta'lim tizimini nazorat qilish inspektor va uyezd boshliqlari tomonidan amalga oshirilgan⁴.

¹ *Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае / К.П.фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. 1899. С. 56.*

² *Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. 114–115-betlar.*

³ Daloilxonaga savodi chiqqan bolalar yoki madrasada ta'lim olgan yoki ta'lim olayotgan talabalar mashhur din peshvolarining tavsiyasi bilan qabul qilingan. (Qarang: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2002. 183-b.)

⁴ O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar I. / Mas'ul muharrir D.Alimova. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. 94-b.

Maktab yoki maktabxona kichik savod chiqarish uchun musulmon bolalari boradigan o'quv muassasasi hisoblangan. Turkiston general-gubernatori 1895-yildan boshlab, mahalliy maktablarning faqat ma'muriyat ruxsati bilan ochilishini belgilab qo'yadi.

Imperiya ma'murlari musulmon maktablari xonalarida Rossiya imperatori suratini osib qo'yishni joriy etganlar. Bu orqali o'lka mahalliy yoshlari ongiga imperiya ta'sir kuchini singdirish maqsad qilingan.

Maktabdagi o'quvchilar soni hududlarga qarab, o'rtacha 10–20 nafar, ba'zida 50–60 nafargachani tashkil qilgan. Maktabdorning bilimi va saviyasi ham o'quvchilar sonini belgilab beruvchi mezon bo'lgan. Maktablardagi o'qish jarayoni sust nazorat qilingan va Rossiya bosqinidan keyin deyarli nazoratdan umuman chetda qolgan.

Xonliklar davrida maktablar umumta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'rtacha 6–8 yoshga to'lgan barcha o'g'il bolalarning maktabga borishi majburiy bo'lgan. Xon tomonidan maxsus tayinlangan «raislar» bu ishlarni nazorat qilib borgan. Farzandini belgilangan yoshda maktabga yubormagan ota-onalar moddiy jarimalar bilan jazolangan¹. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida esa bunday moddiy jarimalar bekor qilingan, maktabga borish ixtiyoriy bo'lgan, lekin shunga qaramay ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim olishiga mas'uliyat bilan yondashib, imkon qadar maktabga o'z vaqtida yuborishgan. Aynan maktablarni nazorat qiluvchi «rais» lavozimining fon Kaufman tomonidan bekor qilinishi, ularning nazoratsiz qolishiga, ta'lim sifatining pasayishiga olib kelgan.

Samarqanddagi maktablar odamlarning uylarida, hujralarda va masjidlar qoshida faoliyat ko'rsatib, alohida binolarga ega maktablar juda kam bo'lgan. Ular asosan mahalla guzarlaridagi oqsoqollar, davlatmand kishilar, eshonlar va ruhoniylar tashabbusi bilan tashkil etilgan². Shuningdek, xususiy maktablar ham bo'lib, ularni maktab egasi odatda o'z uyida ochgan. Bu maktablarda maktabdorning farzandlari va yaqinlari o'qishgan. Bunday maktablar ommaviy bo'lmay, moliyaviy ta'minlangan tabaqa vakillariga xos bo'lib, ularning alohida binosi va xonalari ham bo'lgan.

Barcha mahallalarda, hatto kichik qishloqlarda ham o'z masjidi bo'lgan va ular qoshida, albatta, maktab faoliyat yuritgan³.

¹ O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar I. ... 153-b.

² *Намиекин В.П.* Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. С. 39–40.

³ O'zR MDA I-1, R-1, Ish-1243, 26-varaq.

K.P. fon Kaufman islom bilan bog'liq an'anaviy muassasalarga nisbatan umrining oxirigacha o'zining «aralashmaslik» yoki «e'tiborsizlik» siyosatini qo'llab kelgan¹.

Boshlang'ich maktablarda hunar yoki biror soha o'rgatilmagan. Mahalliy xalq orasida farzandga hunar o'rgatish maxsus yo'nalishdagi ustoz-shogird an'anasiga asoslangan. Maktablarda asosan diniy ilmlar va savod chiqarishga e'tibor berilgan. Maktabni bitirganlarga biror rasmiy hujjat berilmagan. Maktablar ta'limning yuqori bosqichiga tayyorlov vazifasini o'tagan. Biroq maktabni tugatganlarning kam qismigina ta'limni madrasada davom ettira olgan.

Bu davr ta'limida turkiy va forsiy tillarga moslashtirilgan arab yozuvi qo'llanilgan. Ta'lim jarayoni arab tilida o'qish va yodlash orqali olib borilgan. Boshlang'ich maktablarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha aniq dastur, uslubiy ko'rsatma, yo'riqnomalar bo'lmagan. Domla yoki o'qituvchi o'zining bilimi darajasida va asriy an'analarga tayanib ta'lim bergan². Bu davrga kelib butun Turkistonda maktablarni isloh qilish zaruratga aylangan bo'lsa-da, lekin Rossiya mustamlaka hukumati o'quv jarayonlarini takomillashtirishga doir hech qanday amaliy ishlar qilmadi. Chunki mahalliy maktablarning inqirozi hukumatning mustamlakachilik va ruslashtirish siyosatining tezroq tatbiq etilishiga olib kelar edi.

Musulmon maktablarida o'quvchilar uchun o'qitishning «usuli tahajji», «usuli hijo» usullaridan foydalanilgan. Bu ta'limning juda qadimgi va qiyin usuli bo'lib, Yevropa mamlakatlarida u XVIII asrning oxirigacha qo'llanilgan. Bu usulning eng katta kamchiligi, uning juda murakkabligida bo'lib, o'quvchilar ko'pincha tovush orqali yoki harflarni tushunmay ko'r-ko'rona domla ortidan takrorlaganlar. Bu juda ko'p vaqt va mehnat talab qilgan. Darslar sikl tarzida o'tkazilgan. Qur'on va musulmon asoslarini o'zlashtirgan o'quvchi birinchi bosqichni tugatgan hisoblangan. Keyingi bosqichda o'quvchining iste'dodiga qarab alohida darsliklardan saboq berilgan³. So'nggi bosqichda So'fi Olloyor, Bedil, Fuzuliy kabi shoir va mutasavvurlarning she'riy to'plamlari o'qitilgan, bu jarayonlar yodaki usulda amalga oshirilgan⁴. Ba'zi maktabdorlar qobiliyatli o'quvchilariga «Ilmi hisob»ni va arab grammatikasini o'rgatishgan. Bu o'quvchilarga madrasaga kirish uchun yordam bergan.

¹ O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar I. ... 157-b.

² Остроумов Н.П. Народное образование. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. Т. 418. – Ташкент, 1889. С. 53.

³ O'zbek pedagogikasi antologiyasi. (II jild). – Toshkent: O'qituvchi, 1999. 6-b.

⁴ O'zR MDA F. I-47, R-1. Ish-333. 41-varaq.

Kitob va darsliklar o'zlashtirilgach, eng oxirida maktablarda yozuvga o'rgatilgan. Darslarning individual tarzda olib borilganligi ijobiy holat edi¹.

Maktab kursini tugatgach, o'quvchilar harflarni yozish yoki ko'chirishni o'rganganlar. Shu o'rinda K.E. Bendrikov «ommaviy bo'lgan maktablar yozishni o'rgatmagan»², deb xato fikr bildirganligini ta'kidlash lozim. Bu maktablar o'z tarixiy davri uchun muhim hisoblangan. Ushbu boshlang'ich ta'lim dargohlari aholi orasida savodsizlik muammosini bartaraf etgan. Maktabda ta'lim kamida 5 yil, ba'zida 8 yilgacha cho'zilgan. Bu bolaning iqtidoriga bog'liq bo'lgan. Maktabga bolalar 6–8 yoshdan borishsa, o'quvchi taxminan 13–16 yoshida maktabni bitirgan³.

Sohani idora etishda Rossiya mustamlaka ma'muriyati tomonidan maxsus inspektor lavozimi joriy qilingan. Ammo maktablardagi fan dasturlari va imtihon jarayonlarining inspektor tomonidan nazorat qilinganligi ma'lum emas. Faqatgina maktablar faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar va umumiy xulosalar to'plangan.

Imperiya ma'murlari maktablar faoliyatini davlat budjeti mablag'laridan moliyalashtirmaganliklari sohani rivojlantirishdan manfaatdor bo'lmaganliklarini ko'rsatadi. Maktablarning moliyaviy ta'minoti xalq, jamoatchilik, qisman vaqf mulklari, xayr-ehsonlar hisobiga bo'lgan. Maktab binolarining saqlanishi va qurilishi, o'qituvchilarning maoshi asosan o'quvchilarning ota-onalari hisobidan qoplangan. Maosh hajmi ham o'zaro kelishilgan holda belgilangan. To'lovlar pul va qishloq joylarida ko'pincha natura (har hafta: un, guruch, go'sht, non berilgan) shaklida amalga oshirilgan. Shuningdek, o'quvchi ma'lum kitobni tugatgach, xohishiga ko'ra ota-onalar tomonidan o'qituvchiga sovg'a-salomlar, tuhfa berilgan. Bu kabi rag'bat turlari ota-onalarning moliyaviy holatiga qarab berilgan va an'anaga aylangan edi⁴.

Rossiya mustamlaka hukumati o'rnatilganda ham ta'minot sohasi da o'zgarishlar uchramaydi. Shu bois ham maktablarda asosan masjid imomlari yoki muazzinlar o'qituvchilik qilishgan. Musulmon maktablaridagi bir yillik ta'lim uchun sarflanadigan mablag'ni rus maktablarining xarajatlari bilan solishtirganda juda ham katta tafovutni ko'rish mum-

¹ O'zbek pedagogikasi antologiyasi (II jild). ... 6-b.

² Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. ... С. 40.

³ O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar I. ... 153-b.

⁴ Гейер И. Туркестан. С дополнительной статьей «Семнреченская область», сост. А.Л.Кирснером. 2-е, изд. испр. и доп. автор. – Ташкент: Типография Туркестанского печатного Дела, 1909. С. 27.

kin. Ushbu holat mahalliy maktablardagi ta'limning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan¹.

Maktab jihozlari uchun ham ota-onalardan pul olingan. Masalan, «bo'yra puli» va «ko'mir puli» kabi moddiy to'lovlar ham to'langan². Umuman olganda, barcha maktablar xususiy bo'lib, faqatgina qorixonalar va madrasalar qoshidagi maktablarning ruxsatnomasi ba'zida kam miqdorda vaqf mulklari bo'lgan. Maktablarda o'ziga xos ijobiy tomonlar bo'lishiga qaramay, ularning moddiy ta'minoti mutlaqo talabga javob bermagan. Ba'zi maktablarning do'kon, yer, hammomlardan iborat vaqf mulklari ham bo'lgan.

Samarqand shahrida «qizlar maktabi» ham faoliyat yuritgan. Ushbu maktab mahalliy aholining qiz bola farzandlariga diniy va dunyoviy ilmlarni bergan. Shariat nuqtayi nazaridan nafaqat Samarqand, balki butun o'lkada o'g'il va qiz bolalar alohida o'qitilgan. Rossiya mustamlaka hukumati ham mahalliy aholining qiz farzandlari ta'limi uchun alohida boshlang'ich maktablar joriy qilmagan. Shu bois, kam sonli musulmon qizlar maktabi xotin-qizlarning savodini chiqaruvchi asosiy ta'lim dargohi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Qiz bolalar asosan o'qimishli, ziyoli ayollar yoki maktabdorning xotini tomonidan uyda ochilgan maktablarda tahsil olishgan. Ayol o'qituvchiga nisbatan «otinoyi», «otinbibi», «bibiotin», «bibixalifa» deb murojaat qilingan. Ammo «qizlar maktablari» soni o'g'il bolalarga nisbatan bir necha barobar kam bo'lgan.

Ayol o'qituvchilar o'g'il bolalar maktabidan ko'proq haq olganlar³. Ta'limda asosan turmushda zarur bilim va ko'nikmalar berilgan.

Otinbibilar qo'lida tarbiyalangan qizlar oilaviy hayotga mukammal tayyorlangan va o'qish chuqurroq o'rgatilgan. Ba'zi hollarda «qizlar maktablari» ta'lim sohasining jonkuyarlari bo'lgan shaxslar tomonidan mablag' bilan ta'minlangan.

Qizlar o'qish uchun maktabga 5–6, ba'zan esa 6–8 yoshdan berilgan hamda o'quv kursi 5–8 yil davom etgan. «Qizlar maktablari»da o'quvchilar soni o'g'il bolalar maktablariga nisbatan kamroq bo'lgan⁴.

Ta'lim jarayonida quyidagi fanlar o'qitilar edi: *alifbe*, *haftiyak* (2–3 yil o'qitilar edi), *chor kitob*, *So'fi Olloyor* hamda *Qur'oni karim*. Bundan tashqari

¹ *Наливкин В.П.* Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. С. 41.

² *Исмаилов Ш.* Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX в. Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. С. 32.

³ *Наливкин В.П., Наливкина М.* Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганской области. – Казань, 1886. С. 57.

⁴ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. 5-jild. 410–411-betlar.

ri hayot saboqlari va tarbiya borasida ham ta'lim berilgan. «Qizlar maktablari»dagi mashg'ulotlarda asosan fors-tojik va turkiy tildagi asarlar o'rgatilgan¹. Ushbu ta'lim muassasalarida *Ta'limi banot*, *Muosharat odobi*, *Tarbiyali xotun* kabi sharq axloqiy madaniyatini o'z ichiga oluvchi fanlar ham o'qitilgan². A.P. Xoroshxinning 1876-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, qizlar 7–11 yoshdan o'qitilgan, 11–15 yoshdan esa tikuvchilikka o'rgatilgan. «Qizlar maktablari»dagi ta'lim dasturlari nisbatan kam qamrovli va asosan turmushda eng zarur bo'lgan bilimlarni berishga ixtisoslashgan³. «Qizlar maktablari»da asosan ruhoniy va savdogarlarning farzandlari tahsil olishgan⁴.

O'lkada Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgach, «Qizlar maktabi» faoliyati vaqf mulklarini cheklash hisobiga yanada kamaygan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqandda yahudiy diasporasiga mansub aholi ham yashab, ular o'z ta'lim tizimiga va maktablariga ega bo'lishgan. Tarixdan ma'lumki, yahudiylarning aksariyati qaysi mamlakatda yashasa, o'sha mamlakat tilida so'zlashadi⁵. 1916-yilga kelib Samarqandda yahudiylar mahallasida 12 ta guzar mavjud edi⁶.

Samarqandda yahudiylar madaniy markazi va boshlang'ich maktabi ivrit tilida tashkil etilgan⁷. Samarqanddagi yahudiylar maktablari mohiyatan diniy ta'lim muassasasi bo'lib, boshlang'ich maktab «xeder» deb nomlanib, unda 5–6 yoshdagi o'g'il bolalar 4 yil davomida tahsil olgan. Maktabning ikkinchi bosqichi *iyeshiva* (yoki *xomloi xoxom*) deb atalib, 10–11 yoshdagi o'quvchilar tahsil olishgan. Bu bosqichda ivrit tili, ivrit tilidan yahudiy tojik tiliga tarjima qilish va matematika fanlari o'qitilgan. Ularga yahudiy dini bilimdonlari ta'lim berishgan. Maktabni tugatgach, o'quvchilar sinagogalarda «shoxet» (diniy marosim uchun qurbonlikka keltirilgan muqaddas jonliqni so'yish huquqiga ega shaxs) lavozimida ishlash uchun *rishut* – ruxsatnoma olishgan⁸.

¹ Исмаилова Д.А. Роль и место ислама в общественно-политической жизни народов. ... С. 14.

² Nazimov A. Qizlar tarbiyasi. – Toshkent: Kamalak, 1994. 64-b.; Olimatul-banot. Muosharat odobi. – Toshkent: Mehnat, 1997. 32-b.

³ Хорoshхин А.П. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – СПб., 1876. С. 95–96.

⁴ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. ... С. 47.

⁵ Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002. С. 91.

⁶ Абрамов М. Бухарские евреи в Самарканде (1843–1917 гг.). – Самарканд, 1993. С. 8, 28.

⁷ Альмеев Р. Исследования и материалы по истории и этнографии бухарских евреев. – Бухара, 1998. С. 89.

⁸ Ежевика – еврейская академическая вики-энциклопедия (каранг: www.ejwiki.org).

Samarqand viloyati bo'yicha 1911-yil yanvar oyidagi ma'lumotga ko'ra, Samarqand shahrida 8 ta¹ yahudiy maktabi bo'lgan. 1916-yilga kelib Samarqand shahrining uch qismida joylashgan xederlarning soni 20 taga yetgan². Yahudiy maktablari ham musulmon maktablari kabi o'qituvchilarning va boy, obro'li yahudiylarning uylarida tashkil etilgan³.

Yahudiylar maktabida har kuni 4 soat dars o'tilgan. Jami hafta davomida 24 soat o'tilgan darsning 9 tasi rus tili fani, 6 tasi arifmetika, 3 tasi dinshunoslik, 2 tasi husnixat, 2 tasi musiqa va 2 tasi mehnat ta'limiga bag'ishlangan. Yahudiy maktablarida rus tilini o'rgatishga ko'proq e'tibor berilgan. Bundan asosiy maqsad hukumatga yaqinlashish bo'lgan.

Samarqanddagi yahudiy bolalar o'qiydigan⁴ xederlar ham musulmon maktablari o'quv binolari kabi talabga javob bermagan.

Moddiy imkoniyati cheklangan oila farzandlari uchun maxsus maktablar – «talmud tora»lar tashkil etilgan. Qizlar esa «xonaki» usulda, ya'ni uy sharoitida ta'lim olishgan. Shuningdek, o'qish muddati 3 yil bo'lgan yahudiy rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsatib, unda ruscha o'qish va yozish, matematika, geografiya, tarix o'qitilgan.

Umuman olganda, Samarqanddagi yahudiylar ta'limga va madaniy hayotni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan. Bu ishlar homiylik va xayr-ehsonlar hisobidan amalga oshirilgan. Yahudiylar ta'limotiga ko'ra, ular o'z daromadlarining 10 dan bir qismini (daxyak) kambag'allarga, sinagogalar ehtiyojiga, qabristonlarga va bolalarning ta'lim olishi uchun ajratishgan.

Ushbu maktablarda hayot uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan birga ona tili va yahudiy dini tarixining o'qitilishi millatning o'z asriy milliy xususiyatlarini saqlab qolishga qilgan harakatlaridan dalolat beradi. Bir so'z bilan aytganda, yahudiy maktablari ham diniy va ham dunyoviy ta'lim maskani sifatida mintaqadagi ta'lim tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan.

Kaspiyorti temiryo'li ishga tushgach, Samarqand viloyatiga arman millatiga mansub aholi ham ko'chib keladi. 1893-yilda viloyat bo'yicha 103 nafar arman yashagan bo'lsa, 1910-yilga kelib, ularning soni 1266 nafarga yetadi. Bu millat vakillari 1898-yil 31-oktabrda Samarqand shahrida o'z ibodat uylarini va uning qoshida milliy maktablarini tashkil qilishgan⁵. Maktab asosan diniy ruhda bo'lib, ruhoniylar o'qituvchilik qilgan.

¹ O'zR MDA F. I-18, R-1. Ish-7347. Varaq-53.

² O'zR MDA F. I-181, R-1. Ish-177. Varaq-40.

³ O'zR MDA F. I-181, R-89. Ish-105. Varaq-58.

⁴ O'zR MDA F. I-181, R-1. Ish-177. Varaq-41.

⁵ Рубен Назарьян. Армяне Самарканда. – Москва, 2007. С. 179.

Samarqand madrasalari. Turkistondagi madrasalar faoliyatini nazorat qilish maqsadida Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilindi¹. Bundan tashqari, milliy ta'limning yuqori bosqichida asrlar davomida qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy boshqaruv asoslari ham saqlanib qolindi.

Madrasalarning an'anaviy ichki boshqaruvi va faoliyati islom ahkamlari asosida nazorat qilingan. Madrasalar din peshvolari tomonidan idora qilingan. Boshqaruv tepasida mamlakat hukmdori turgan. Nazoratning keyingi darajasi «qozi» nazorati bo'lgan. K.E. Bendrikov mazkur davrda madrasalar qozilar, shayx ul-islom, a'lamlar (o'quv jarayoni), mutavvaliboshilar (xo'jalik ishlari) tomonidan nazorat qilinganligini va xazinadan maosh olganligini ko'rsatadi². «A'lamiyon» hukumat tomonidan tayinlanib, poytaxt va viloyatlarda joylashgan madrasalarni nazorat qilgan. «Mutavalliboshi» tumanlardagi mutavalliyalar faoliyatini nazorat qilgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan bunyod etilishi qat'iy belgilangan. Madrasalarni davlat tashkil qilmasa-da, faoliyatini nazorat qilgan va boshqargan. Turkistonda imperiya bosqinigacha shu tartibda madrasalar nazorat qilingan.

Madrasalar oliy o'quv yurti hisoblanib, o'z zamonasining ziyolilarini yetishtirib berganligi sababli ham, general-gubernator Kaufman milliy maktablardan ham ko'ra ko'proq madrasalar xavfli ekanligini qayd etgan. P.K. Kaufmanning buyrug'i bilan «a'lam» va «mutavvaliboshi» lavozimi bekor qilinadi. Madrasani tugatgan talabalar yuqori lavozimlarga ishga qabul qilinmaydi. Bu, o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining yuqori bosqichini obro'sizlantirish edi.

Madrasalar ochish uchun ruxsat berishda, eng avvalo, ularda rus tili sinflarining bo'lishi belgilandi³. Imperiya ma'murlari vaqf mulklari ustidan to'liq nazorat o'rnatdi. Bu esa madrasalarni boshqarishni yengillash-tirgan va ularning faoliyatini kuchsizlantirgan.

1890-yilda mahalliy ta'lim dargohlarini boshqarish va nazorat qiluvchi inspektor lavozimi ta'sis etiladi⁴. Imperiya hukumati madrasalar hayotiga

¹ Xalq o'quv yurtlari 3-inspektori uchun o'lka musulmon maktablarini boshqarishga doir 38 banddan iborat «Yo'riqnoma», «Turkiston viloyatidagi sartiya madrasalarida katta mudarrisilarga berilgan dasturilamal» nizom. 1894-yil 14-mart. Turkiston o'lkasi general-gubernatori general-leytenant baron Vrevskiy imzosi bilan. (Qarang: O'zR MDA I-47, R-1, 396-ish. 1-2-varaq)

² Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924). ... С. 52.

³ O'zR MDA F. I-47. R-1 Ish-717. 2-varaq.

⁴ O'zR MDA F. I-47. R-1 Ish-328. 95-varaq.

yangilik kiritmaslikka, keng dunyoqarashli, bilimli, ziyolilar tabaqasining yetishib chiqishiga qarshi harakat qiladilar. Turkiston o'lkasidagi so'nggi general-gubernator davrigacha siyosat shu tarzda davom etdi. Musulmon madrasalarida faqat ma'muriy nazorat o'rnatildi, urf-odat, an'analar o'zgartirilmadi.

Madrasalarning ichki boshqaruvi ikki bo'limdan: o'quv jarayoni va maishiy xizmat bo'limlaridan iborat bo'lgan. Madrasalar vaqf hujjati nizomida o'quv dargohining faoliyati aniq belgilab berilgan. Madrasalar boshqaruvida *mutavalli* muhim o'rin egallab, ular o'quv jarayonini va vaqf mulklarini boshqargan. Barcha madrasalarda mutavalli lavozimi bo'lgan. U vaqf mulklarini ijaraga berish va xo'jalik ishlarini yuritishni bajargan¹.

Madrasalardagi keyingi muhim lavozim – mudarrislar asosan dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanib, ular saylov asosida tanlab olingan. 1894-yilda qabul qilingan «Turkiston viloyati madrasalaridagi katta mudarrislariga berilgan dasturulamal» nizomi qabul qilingach, madrasa mudarrisleri mavqeyi ko'tarilib, muassasa faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ularning saylanish va tasdiqlanish tartibi aniq belgilangan. Mudarrislikka nomzodlar qat'iy tekshirilib, birinchi navbatda ularning hukumatga xayrixohligi inobatga olinib, lavozimga tasdiqlangan.

Madrasalarga rus tilidan dars beruvchi muallimlar ham jalb etilgan. Rus tili o'qituvchilari, o'z navbatida, mudarrislikka asosiy nomzod bo'lgan. Asta-sekinlik bilan rus maktablarida ishlagan, hukumatga xayrixoh va sodiq kishilar madrasa mudarrisleri etib tayinlangan. Bu esa, o'z navbatida, madrasalarning ruslashishiga va hukumatga yaqinlashuviga olib kelgan. Hukumat shu yo'l bilan madrasalarni to'liq nazorat qilgan. Samarqand madrasalari mudarrisleri Buxoro va Samarqanddagi yirik madrasalarda tahsil olishgan.

Madrasalardagi ilm oluvchilar talaba yoki mulla deb atalgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1892–1893-yillarda Samarqand shahrida 1006 nafar talaba o'qigan. Madrasalarga nisbatan talabalar soni taqsimoti nomutanosib bo'lgan². Madrasalarning nufuzi va o'qitish sifati ham ulardagi talabalar sonini belgilab bergan.

Ayrim talabalar madrasalarda 35 yoki 40 yoshgacha tahsil olganlar. Bunday talabalar shu yerning o'zida, keyinchalik ma'lum vazifalarga olingan, mudarrislariga o'rinbosar tayyorlangan, ularga ko'mak beruvchi muqarrirlar vazifasini o'tashgan.

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2003. Tom 6. 162-b.

² История Самарканда. Первый том / Отв. редактор И.М. Муминов. – Ташкент: Фан, 1969. С. 311.

Madrasa masjidi imomi o'quv dargohidagi ibodat marosimlariga mas'ul hisoblangan. Sartaroshlar odatda belgilangan haftaning ma'lum kunida kelib o'z vazifasini bajargan. Farroshlar madrasa tozaligi uchun mas'ul bo'lib, tahoratxonadagi xizmatlarni ham bajarganlar.

Madrasalar faoliyatidagi yana bir muhim xizmatchilar – vaqf mulki ijarachilari bo'lib, ularning mehnati madrasa daromadini belgilagan. Ijarchi daromadiga yoki hosiliga qarab madrasaga mablag' bergan.

Vaqf mulkidan kelgan daromadning katta qismi madrasa binosini qoniqarli holatda saqlash uchun sarflangan. Madrasalarning faoliyati vaqf, turli arznomalar, mutavallilarning hisob-kitob daftarlari, shikoyatlar, tibbiy tekshiruv daftarlari, yorliqlar, talabalar ro'yxati daftarlari va boshqa hujjatlar asosida amalga oshirilgan.

Mudarrislar faoliyatiga doir nizam qabul qilingach, har bir bosqichda o'qish muddati aniq qilib – 7 yil, o'quv muddati 1-oktabrdan 1-mayga qadar deb aniq belgilangan¹.

Madrasalarda diniy va dunyoviy fanlar birgalikda o'qitilgan. Dastlab o'qitish jarayoni «imlo» usulida olib borilgan bo'lsa, X asrdan boshlab madrasalarda «tadris» (sharh, izoh, tafsir) usulidan foydalanilgan.

Madrasa mudarrisleri ham, talabalar ham asosan o'qishdan tashqari kun kechirish uchun kasb-kor bilan shug'ullanishgan. Samarqand madrasalarida haftaning to'rt kunida – shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari dars mashg'ulotlari o'tkazilgan. Haftaning qolgan kunlari mustaqil ta'lim kunlari uchun ajratilgan bo'lib, berilgan topshiriqlar bajarilgan va takrorlanilgan. Juma kuni musulmonlar uchun odatiy dam olish kuni bo'lganligi uchun madrasalarda dars bo'lmagan. To'rt kun bevosita ta'lim mudarrislardan olingan, ikki kunda mustaqil ravishda shug'ullanishgan. Dars ramazon oyida, hayit kunlarida va ta'til davomida o'tilmagan².

Talabalar ham doimiy nazoratda bo'lib, shariatga xilof ishlar qilsa, axloqsizlik qilsa yoki sababsiz 70 kun dars qoldirsa madrasadan chetlashtirilgan. Madrasalarda ta'lim uch bosqichda, ya'ni *adno* (quyi), *avsat* (o'rta) va *a'lo* (yoki oliy) tartibda olib borilgan. Talabalar bo'limlarda belgilangan kitoblarni o'qib, mudarrisga imtihon topshirgach, keyingi bosqichga o'tganlar. O'quv bosqichlarini tugatganligi sinovi maxsus imtihon komissiyasi (amirlik davridagi udumga ko'ra komissiya tarkibiga mudarris va mutavallidan tashqari, a'lamlar, qozikalon, madrasa joylashgan hudud beklari ham ishtirok etishgan) tomonidan o'tkazilgan.

¹ O'zR MDA F. I-47, R-1. Ish-328. Varaq-79–80.

² O'zR MDA F. I-47, R-1. Ish-328. Varaq-82.

Madrasalarga maktabni bitirgan yoki biror ustoz qo'liga ta'lim olgan o'quvchilar qabul qilingan. Ushbu dargohlarda o'ziga xos bo'lgan madrasa ichki qoidalari asosidagi qabul imtihonlari ham bo'lgan.

O'rganilayotgan davrda Samarqand madrasalaridagi o'quv fanlarini o'qitish o'rta asrlarning rivojlangan davridan deyarli farq qilmagan. Har bir bo'limda (*adno, avsat, a'lo*) fanlarni o'qitish soddadan murakkabga qarab borgan. Dastlab talabalar arab tilini o'rganishgan. Birinchi bo'limda talaba fors va arab tillarida qisqacha islom qonunlari, arab grammatikasini o'zlashtirgan. Madrasalarda ta'lim jarayoni asosan uch yo'nalishda (blokda) olib borilgan: shariat, arab tili filologiyasi, hikmat.

Madrasalardagi fanlardan biri matematika bo'lgan. Lekin matematika to'liq o'zlashtirilmagan, faqatgina meros huquqiga oid matematik bilim bilan kifoyalanilgan¹. Qiziquvchi talabalar tarixiy, geografik va ilohiy hikoyalar to'plamini ham o'qiganlar. Ba'zi mullalar arab, fors-tojik va turkiy shoirlar kitoblarini ham o'qiganlar. Aruz vaznini o'rganishgan. Ba'zi talabalar o'rta asrlardagi tibbiyotga oid kitoblarni ham o'qishgan. Fizika, kimyo va biologiyaga oid ilmlar madrasada kam o'rganilgan.

Madrasalardagi o'quv jarayonini samarqandlik mudarrislar ham o'z chiqishlarida tanqid qilishgan. Madrasa darslarini tamomlagan talabalarga Qur'on tafsiri, payg'ambar hadislari, *fihi islomiydan* dars berishga ijozat etilgan va maxsus guvohnomalar berilgan². Ushbu guvohnomalar madrasalarning nufuzi va obro'siga qarab qadrlangan va keyinchalik talabalarining ishga joylashuvida ham hisobga olingan. Bu davrda Samarqand madrasalari asosan ikki guruhga – markaziy shaharlardagi davlat amaldorlari, mudarrislar tayyorlaydigan va maktab o'qituvchilari, masjid imomlari tayyorlaydigan madrasalarga ajratilgan.

Shuningdek, uzoq yillar davomida, ayniqsa, xonliklar davridagi notinch va turg'un hayot hamda Sharq mamlakatlari bilan aloqaning cheklanishi natijasida madrasa o'quv dasturlari isloh qilinmagan. Bu davrda madrasalarni islohot qilish zaruratini ma'rifatparvarlar ham ilgari surishgan. Madrasalardagi ta'lim-tarbiya masalalari islohotiga bag'ishlangan katta munozaralar 1915-yili «Al-isloh» jurnalida bo'lib o'tadi. Bunda Saidahmad Vasliy Turkiston madrasalariga bag'ishlangan maqolasida madrasalardagi ahvol masalasida 10 ta savol bilan o'lka mudarrislariga murojaat qilgan. Samarqandlik mashhur mudarris fikrlari asosida, bu davrda madrasalardagi o'quv jarayoni zamon talablariga javob bermaganligini ko'rishimiz mumkin³.

¹ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. ... С. 54-55.

² Бобоjoyнова Ф. Бухоро amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). ... 58-b.

³ «Al-isloh» gazetasi. 1915. – № 34.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand madrasalari asosiy ilm dargohi vazifasini o'tab, ta'lim maxsus ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlashga qaratilmagan, jamiyatda aniq fanlarga nisbatan ehtiyoj juda ham past bo'lgan edi.

Samarqand madrasalarida asosan vaqf mulklari sohaning bosh moliyaviy manbasi bo'lgan. Vaqfnoma madrasalarning iqtisodiy, ma'naviy darajasini belgilovchi hujjat hisoblangan. Hujjatda mudarrislar, talabalarning soni, ularning maoshi, ichki tartib-intizomi, madrasa ta'miri va kutubxonasidagi kitoblar haqida ma'lumot keltirilgan.

Rossiya imperiyasi hukumati o'lka bo'ylab ulkan daromad manbai bo'lgan bu mulklarni doimiy nazoratda ushlashga harakat qilgan. Samarqand shahridagi madrasalarning vaqf mulklaridan oladigan umumiy daromadi 18372 rubl bo'lgan¹. Turkiston o'lkasida imperiyaning vaqf mulklariga nisbatan mustamlakachilik siyosati Samarqanddan boshlangan. Zarafshon okrugi boshlig'i general-mayor A.K. Abramov vaqf mulklarini to'liq nazoratga oladi. Zarafshon okrugi devonxonasi hujjatlariga ko'ra A.K. Abramov 1874-yil 17-iyunda №2820 buyrug'i bilan vaqf yerlarini ijaraga berish huquqini mutavallilardan olib, uyezd boshliqlariga beradi. Madrasalar daromadining ortgan qismi shahar g'aznasi hisobiga, keyinchalik o'sha madrasalar ta'minoti uchun depozitga qo'yilishi haqida ko'rsatma beradi². Lekin depozitga qo'yilgan mablag'lar o'z vaqtida qaytarib berilmagan, turli bahonalar bilan pul berish kechiktirilgan va bir necha yillar davomida ham qaytarilmagan.

1878-yildan boshlab rasman Zarafshon okrugidagi barcha vaqf yerlari imperiya ma'murlari boshqaruvi o'tadi. Vaqf yerlari daromadlaridan 100 rubldan kam daromad oladiganlardan 8%, 100 dan 500 rublgacha daromad oladiganlardan 10%, 500 rubldan ko'p daromad oladiganlardan 15 % miqdordagi mablag'lar Rossiya imperiyasi g'aznasiga depozit sifatida o'tkazilgan³. Bu vaqflardan olingan soliqlar Samarqand shahrining yangi qismini qurish uchun sarflangan⁴.

Bunday holatdagi madrasalar daromadlarining davlat tomonidan no'rin sarflanishi Samarqand viloyati harbiy gubernatori general-leytenant, graf N.Y. Rostovsev (1891–1897) tomonidan tartibga solingan⁵.

¹ O'zR MDA F. 1-455, R-1. Ish-1. Varraq-9.

² O'zR MDA F. 1-455, R-1. Ish-1. Varraq-10.

³ O'zR MDA F. 1-455, R-1. Ish-1. Varraq-12.

⁴ Мухамедов Ш.Б. Историко-источниковедческий анализ государственного регулирования ислама Российской империей в Туркестане (1864–1917). – Ташкент: BAKTRIA PRESS, 2013. С. 160.

⁵ O'zR MDA F. 1-455, R-1. Ish-1. Varraq-8.

1878–1884-yillar oralig'ida madrasa daromadlari asosan Samarqandning yangi shahar qismini bunyod etish uchun sarflangan. Bundan Samarqandning yangi shahar qismi Rossiya imperiyasi mablag'lari hisobidan emas, vaqf daromadlari hisobidan barpo etilganligi oydinlashadi. Turkistondagi madrasalar orasida Samarqand madrasalari mustamlakachilik talon-torajidan eng ko'p va tez aziyat chekkan.

Madrasada faoliyat ko'rsatgan mudarris, mutavalli va talabalar ma'lum miqdorda maosh olgan¹. Talabalarning ta'lim olishi va yashashi uchun joy, mablag' va turli rag'batlar tashkil etilgan. Ushbu nafaqa me'yorlari ham madrasa vaqf daromadlari bilan bog'liq bo'lgan.

Samarqand madrasalari talabalari quyidagi yashash manbalariga ega bo'lgan: 1) vaqf daromadi; 2) o'zining o'qituvchilik va xattotlik faoliyati; 3) ota-onasining mol-mulki; 4) homiylik hisobidan² kun kechirishgan.

Maktablardan farqli ravishda barcha madrasalarning o'z o'quv binosi bo'lgan. Samarqanddagi yirik madrasalar ko'plab hujralar, toqli-ravoqli, ichki-tashqi sahnli, masjid, darsxona, tahoratxona, kutubxona, darvoza va hovuzlariga ham ega bo'lgan. Kichikroq madrasalar asosan hujralardan iborat bo'lgan. Har bir hujra 2–4 talaba yashashi uchun mo'ljallangan. Hujralar uch qismdan: yotoqxona, darsxona, qaznoq (oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar uchun joy)dan iborat bo'lgan. Madrasalarning aksariyati pishiq va xom g'ishtdan bunyod etilgan. Madrasalar o'zining mahobatli ko'rinishi va xususiyatlari bilan ajralib turgan va tarixiy boylik sifatida ham e'zozlangan.

1892–1893-yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand shahrida 25 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan³. Samarqanddagi madrasalarning binosi talabga javob bermagan va ta'lim olish uchun noqulay bo'lgan. Ularning barchasi ta'mirtalab bo'lib, aksariyati falokatli darajaga kelib qolgan edi. Bu omil ham ta'lim sifatiga ta'sir qilganligi shubhasizdir.

Rus ta'lim muassasalari. Rossiya imperiyasi amaldorlari mustamlakachilik va ruslashtirish siyosatini maorif sohasi bilan olib borish eng to'g'ri yo'l ekanligini yaxshi bilishgan⁴. Samarqandda rus va rus-tuzem maktablarining faoliyati Turkiston o'lkasidagidek olib borilgan.

Diniy maktablar faoliyati 1828-yilgi Xalq ta'limi muassasalari nizomi asosida boshqarilgan. 1909-yilda Samarqandda bu nizom asosida ish

¹ O'zR MDA F. I-455, R-1. Ish-1. Varaq-17–27.

² *Bobojonova F.* Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). ... 47-b.

³ O'zR MDA F. I-455 R-1 Ish-1. Varaq-18.

⁴ *Туркестанский литературный сборник в пользу прокаженных. Н.П. Остроумов.* Рассказ о покойном Н.К. фон Кауфмане, 1900. С. 17.

yuritgan bir sinfli shahar bilim yurtlari 11 ta, bir sinfli qishloq bilim yurtlari 1 ta bo'lgan¹. Rus-tuzem va xususiy maktablar vazirlikning 1875-yillardagi nizomlari asosida boshqarilgan.

Turkiston o'lkasida dastlabki rus maktablari o'lkaga ko'chib kelgan rus aholisi farzandlari uchun tashkil etilgan. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz faoliyat yuritgan. Bu maktablar dinga yo'naltirilgan bo'lib, mahalliy xalq orasida pravoslav dini va rus ta'limini yoyish uchun rejalashtirilgan.

Samarqandda dastlabki rus maktabi 1870-yil 14-yanvarda ochildi. Maktab tashkil etish uchun 900 rubl ajratilgan. Zarafshon okrugi boshlig'i general K.Abramovning buyrug'iga asosan, mahalliy til va yozuvni yaxshi bilgan kapitan Greben 1870-yil 24-martda rus ma'muriyatining ana shu o'quv yurtidagi alohida vakili etib tayinlandi. Maktabning o'quv jara-yonida rus tilini o'rganishdan tashqari bolalarga hunar va qishloq xo'jalik ishlarini o'rgatish ham ko'zda tutilgan edi. Buning uchun kichkina xo'jalik fermasi tashkil qilindi va yer uchastkasi ajratib berildi. 1876-yili bu maktabda 111 ta o'quvchi bo'lib, ular orasida turli millat vakillari, jumladan, o'zbeklar, tojiklar, yahudiylar va hindlar bo'lgan. Maktabda musulmon qonunshunosligi o'qitiladigan alohida sinf mavjud bo'lgan. Samarqand maktabida rus va mahalliy maktab xususiyatlari mujassamlashgan edi. Lekin bilim yurtining umumiy ahvoli va o'qitish sharoitlari yomon bo'lgan². 1882–1883-o'quv yilida bu maktablar uch sinfli o'g'il bolalar va qizlar bilim yurtiga aylantiriladi³.

Samarqandda 1872-yilda 4-razryadlik bilim yurti ochiladi va bu o'quv yurtida 1886-yilga kelib 1 nafar erkak va 1 nafar ayol o'qituvchi 10 nafar o'g'il bola va 7 nafar qiz bolaga dars berishgan⁴. 1878-yil aprelda Samarqand shahrida Pyotr Aleksandrov nomli bir sinfli bilim yurti ochilgan. Unga Aleksandr Kudyafastov rahbar etib tayinlangan, diniy ta'lim bo'yicha ruhoniy Andrey Nelenskiy dars bergan⁵. Bu maktab-internat shaklidagi o'quv yurti bo'lib, musulmon aholisi vakillari ta'lim olishmagan.

1878-yil 5-iyuldagi o'lka o'quv ishlari inspektorining hisobotida Samarqanddagi rus o'quv yurtlari holati xalq ta'limi boshqarmasi talablariga

¹ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). – Ташкент, 1966. С. 46.

² Туркестанские ведомости, 1884, – № 36.

³ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). ... С. 25.

⁴ O'zR MDA F. 1-22 R-1 Ish-418. Varraq-23.

⁵ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-1. Varraq-4.

javob bermasligi ta'kidlanadi¹. Arxiv hujjatlariga ko'ra, Samarqand shahridagi bilim yurtlarida asosan diniy ta'lim ustun bo'lib, rus aholisi farzandlari o'qishgan².

1899-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyati bo'yicha Marian xotin-qizlar bilim yurti, 3 sinfli shahar bilim yurti, xotin-qizlar prixod bilim yurti, shaharlarda 3 ta o'g'il va qizlar prixod bilim yurtlari va 6 ta rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsatgan.

1899-yil 1-iyuldan boshlab Samarqanddagi Marian xotin-qizlar bilim yurti gimnaziyaga aylantiriladi. Gimnaziyalarda o'qish pullik bo'lib, bir yilda o'quvchilardan 40–60 rublgacha olingan³. 1905-yili Samarqand qizlar gimnaziyasi Abramov bulvarida qad ko'targan yangi binoga ko'chirilgan⁴. 1899-yilda Samarqandda A.S. Pushkin nomli shahar diniy bilim yurti (72 o'quvchisi bor edi) ochiladi. Samarqandda erkaklar gimnaziyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Gimnaziyalar qoshida o'quvchilarni jazolash uchun maxsus karserlar bo'lgan. Gimnaziyalar faoliyati davomida o'quvchilarning bir necha marotaba o'z joniga qasd qilish holatlari uchragan⁵. Rus ta'lim tizimidagi jazo turlari mahalliy maktablardagidan bir necha barobar qattiq bo'lgan.

Samarqandda xususiy rus ta'lim dargohlari ham faoliyat ko'rsatib, ularda rus bilim yurtini imtihon topshirib bitirganlargagina dars o'tishga ruxsat berilgan⁶. Arxiv hujjatlariga ko'ra, «uy o'qituvchisi» guvohnomasini olganlar Samarqandda bir qancha xususiy maktablar ochishgan. Xususiy rus maktablar ko'pincha harbiylarning, mahalliy ma'muriyatda mas'ul lavozimlarda ishlagan mashhur shaxslarning turmush o'rtog'i, qizi va boshqa yaqinlari tomonidan ochilgan. Bu maktablar muntazam va uzoq faoliyat ko'rsata olmagan. Harbiylar va mas'ul shaxslarning tez-tez boshqa joyga jo'natilib turilishi ayrim hududlardagi maktablar faoliyatining to'xtab qolishiga yoki tugatilishiga olib kelgan.

1906-yilga kelib, Samarqandda aralash sinfli maktablar (o'g'il va qiz bolalarni bir sinfda o'qitish) faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu rus maktablari uchun xos bo'lgan. Bu davrda yetuk bilimli, sanoat, temiryo'l ishlarini biluvchi ishchilarga talab ortadi. Natijada hunar ta'limiga ham e'tibor be-

¹ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-2. Varaq-67.

² O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-2. Varaq-129.

³ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). ... С. 63.

⁴ O'zR MDA. F. I-181 R-1 Ish-5. Varaq-23.

⁵ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). ... С. 60.

⁶ O'zR MDA. F. I-181 R-1 Ish-103. Varaq-14.

riladi. 1898-yilda Samarqandda 2 yillik erkaklar (68 ta o'quvchi) va qizlar (49 ta tinglovchi) temiryo'l o'quv yurti ochiladi. Ruscha muomala qilishni o'rganib olgan talabalar rus tilida ariza, telegramma va boshqa xatlarni pul evaziga yozib berganlar. Maktabni bitirganlar ma'muriy idoralarda, banklarda, politsiya mahkamalarida ishlashgan, rus savdogarlari bilan yaqin aloqa o'rnatishgan.

Rus-tuzem maktablari. Turkiston general-gubernatori N.O. Rozenbax (1836–1901) mahalliy xalq farzandlari uchun ruscha boshlang'ich maktablar faoliyatini tashkil qilgan. Bundan ko'zlagan asosiy maqsad, mahalliy xalq orasidan hukumat uchun tarjimon va mutaxassislarni tayyorlashdan iborat bo'lgan¹. Bu maktablarda rus tilini o'qitish uslubi 1884–1897-yillarda tarjima usulida va 1897–1917-yillar davomida ko'rsatmali uslubda olib borilgan.

1884–1897-yillarda ushbu maktablarga mahalliy aholining qiziqishlari past bo'lib, o'quvchilar soni kam bo'lgan². Dastlabki vaqtlarda rus tilini bor-yo'g'i 2 soat, unda ham tarjima usulida o'rganishga qaratilgan. Mahalliy aholiga moslashtirilgan darsliklar kam bo'lgan va arifmetikani o'rgatish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan (mahalliy aholi dastlab asosan matematikani o'rganish uchun rus-tuzem maktablariga borgan). Mahalliy xalq o'z farzandlarini tarjimon sifatida ishlashlariga ham qarshi bo'lishgan. Ular bu kasbga past nazar bilan qarashgan.

Rus-tuzem maktablarini ochish va maktabdagi ehtiyojlarni qoplash maqsadida mahalliy aholidan pul (shkola puli) yig'ilgan. Maktab ochiladigan hudud boshliqlari shu yerdagi badavlat kishilardan maktab uchun mablag' yig'ib berishni talab qilganlar. Ba'zida har bir xonadondan maktab puli solig'i ham olingan. Imperiya amaldorlari ta'lim tizimini o'ziga xos daromad manbayiga aylantirganlar³. Rus-tuzem maktablarida maktab joylashgan hududdagi obro'li, badavlat kishilardan faxriy vasiy yoki homiy tayinlangan⁴.

1887-yilda Samarqand rus-tuzem maktabi huzurida kechki kurslar ochiladi. Bu kurslarga asosan til bilishi zaruratga aylangan savdogarlar qatnashgan. Rus tilini o'rgatish bo'yicha kechki kurslar asta-sekin barcha rus-tuzem maktablarida tashkil etildi⁵.

¹ Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). ... С. 7.

² O'sha asar. С. 91–95.

³ Наливкин В.П. Туземцы, раньше и теперь. – Ташкент, 1913. С. 21.

⁴ O'zR MDA F. I-134 R-1 Ish-68. Varaq-24.

⁵ История Самарканда. Том I. ... С. 391.

1895-yilda barcha rus-tuzem maktablari uchun yagona dars jadvali tuziladi. Unga ko'ra kuniga to'rt soatdan dars o'tilgan, mashg'ulotlar soat 9 dan boshlanib, 13:30 da tugagan¹. Rus-tuzem maktablarida o'qish kuni ikkiga bo'lingan, birinchi 2 soatda rus tili, grammatikasi, o'qish va arifmetikadan rus o'qituvchisi darslarni o'tgan. Keyingi 2 soatda esa arab grammatikasi, islom asoslari bo'yicha musulmon o'qituvchi saboq bergan. Ta'lim muddati 1-sentabrdan boshlanib, 20-mayga qadar davom etgan. 1898-yildan boshlab Kerenskiy topshirig'iga binoan S.Gramenitskiy ushbu maktablar uchun maxsus birinchi «Первая книга для чтения», «Вторая книга для чтения», «Третья книга для чтения» darsliklarini nashr qiladi. Bu darsliklar asosida rus-tuzem maktablarida dastur joriy qilinadi². To'rt yillik ta'lim tugagach, maktabni bitiruv imtihoni ham o'tkazilgan³. Rus-tuzem maktablarining mahalliy guruhlari uchun faqatgina 1902-yilga kelib Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» alifbo darsligi nashr ettirilgan.

Rus-tuzem maktablari mustamlaka mohiyatini ko'zlab shakllantirilganligini rus ma'murlari ham tan olishgan. 1908-yilda Rossiya davlat Dumasida deputat G.Sh. Yenikeyev Ilminskiy g'oyalari negizida tashkil-lashtirilgan rus-tuzem maktablarini tanqid qiladi. Rus-tuzem maktablarida ma'lum darajada ilg'or va zamon talabidagi fanlar ham o'rgatilgan. Bunday maktab bitiruvchilari hukumat idoralarida ishlagan va rus savdogarlari bilan bimalol muloqot qila olgan. Natijada rus-tuzem maktablari obro'si sekin-asta oshib borgan.

1895-yildan boshlab ba'zi rus-tuzem maktablari qoshida internatlar tashkil etiladi. Bu mahalliy xalqni jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan. Internatlar faoliyati natijasida mahalliy o'quvchilar ko'proq vaqt mobaynida rus o'qituvchilari qaramog'ida bo'lgan. Maktablarda mehnat darslarida hunar o'rgatilganligi va tabaqalanishning bo'lmaganligi ularni mahalliy xalq bilan yaqinlashtirgan.

Islohotlar natijasida Samarqandda ham rus-tuzem maktablari soni ortgan. Masalan, 1896-yili Samarqand shahrida 4 ta rus-tuzem maktabi faoliyat olib borgan⁴. Samarqanddagi rus ta'lim muassasalarining 1911-yildagi⁵, 1914-yildagi⁶, 1915-yildagi⁷ va 1916-yildagi⁸ holatini solishtirganda bu

¹ Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov J. Pedagogika tarixi. – Toshkent, 2004. 162-b.

² Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). ... С. 91–92.

³ O'sha asarda. С. 93.

⁴ O'zR MDA F1-181 R-1 Ish-24. Varraq-31.

⁵ O'zR MDA F. 1-47 R-1 Ish-1119. Varraq-28.

⁶ O'zR MDA F. 1-18 R-1 Ish-7347. Varraq-31.

⁷ O'zR MDA. F. 1-47 R-1 Ish-1458. Varraq-63.

⁸ O'zR MDA F. 1-47 R-1 Ish-1550. Varraq-95.

ta'lim dargohlardagi o'quvchilar soni ba'zida kamayganini, ba'zida ortib borganini ko'rish mumkin. Bu maktablarda musulmon aholisi vakillari ko'p bo'lmagan.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi hukumati har qancha harakat qilmasin, Samarqanddagi rus-tuzem maktablari mahalliy xalq hayotiga singib ketmadi. Keyinchalik yangi usul maktablari faoliyati bilan unga bo'lgan ehtiyoj ham tugadi. Buning asosiy sababi bu maktablarning mahalliy aholi tili, dini, boy madaniyati va tarixini yo'qotishga qaratilganligida edi. Bu maktablarda zamonaviy fanlar o'qitilishini tan olgan holda, ularning eng katta kamchiligi mustamlaka ruhida bo'lganligini aytish mumkin.

Yangi usul maktablari. XIX asr oxiriga kelib Rossiya imperiyasining turkiy xalqlari musulmon maktablarida islohotlarni jadallashtirdilar. Turkistondan tashqarida musulmon davlatlarida ta'limda kechayotgan islohotlar mintaqa hayoti va maktablari faoliyatiga ta'sir etmay qolmadi. Jadidlar Rossiya va Yevropa xalqlarining harbiy va sanoat sohasidagi yutuqlari va madaniy taraqqiyoti sabablari ta'limni rivojlantirishda ekanligini angladilar. Shu sababli an'anaviy ta'lim sohasini isloh qilish jadidchilik harakatining bosh maqsadi bo'lgan.

Graf Palen reviziyasi jarayonida Samarqandda 4 ta yangi usul maktabini tekshiradi. Bu yangi maktablarda 200 dan ortiq bola o'qigan¹.

Yangi usul maktabida xat-savod bolalarning ona tilida tovush usuli – *usuli savtiyaga* o'rgatilgan. Bu ta'lim muassasalari asosan 1–4-sinfdan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913–1914-o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi *tahziriy* (boshlang'ich) sinflar, 2-bosqichi *rushdiy* (yuqori) sinflar deyilgan².

Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo'lib, ko'p hollarda maktab uchun muallimning o'z uyidan yoki biron bo'sh turar joy binolaridan hamda ba'zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Imperiya hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho'chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisoblashgan. Shuning uchun ularning faoliyatini to'xtatishga qaratilgan turli tadbirlar ishlab chiqildi. Yangi usul maktablari-ning rasmiy tasdiqlangan yagona o'quv rejasi, dasturi bo'lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o'quv rejasi

¹ Пален К.К. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по величайшему повелению сенатором графмейстром графом К.К. Паленом. 1910. С. 134–135.

² Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hanidov H. Pedagogika tarixi. ... 129–133-betlar.

va darsliklar asosida olib borilgan¹. Bu rejalar Ismoil Gaspirinskiy dasturi asosida bo'lsa-da, barcha jadid maktablari bu rejalariga tayanmagan. Bu jadid maktablaridagi eng katta muammolardan biri edi.

Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy fanlar ham o'qitilgan. Alifbe kitobi bilan «Alifboyi Qur'oniy» ham o'rgatilgan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geometriya, arifmetika, geografiya ayrim maktablarda 4-sinfdan rus tili ham o'qitilgan. Jadid maktablarida yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o'quv fanlaridan ona tilida darslik, o'quv qo'llanmalar bo'lmagan. Muallimlar bu fanlar bo'yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo'llanmalardan foydalanishga majbur bo'lganlar. Ayrim muallimlar o'zlari darsliklar yozib, shu asosda ta'lim berganlar.

Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag' hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to'langan. Shuningdek, maktabdorlar fidoyiligi va ko'plab jadidlar shaxsiy mablag'lari hisobidan maktab ishlari ta'minlangan. Yangi usul maktablari zamonaviy milliy maktablarning ilk bosqichi bo'lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o'qish kitoblarigina emas, ona tilining qonun-qoidalari yoritilgan «Turkiy qoida» va «Imlo» kabi dastlabki o'quv qo'llanmalari yaratilgan.

Maktablardagi ayrim darsliklarda rus-tuzem maktablarining rus tili, arifmetikaga oid ma'lumotlaridan ham ijodiy foydalanildi.

Samarqandda Kaftarxona mahallasida muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy 1905-yilda yangi jadid maktabini ochadi va unda bolalarni bepul o'qita boshlaydi. Maktabda 40 ga yaqin o'quvchi ta'lim olgan. U shunday yozadi: «Boshqa millatning yosh bolalari maktabda ekan, bizniki hammolikda va gadoylikda boshqa millat ulamosig'a tobe' ekan, bizning ulamo bil'aks avomg'a tobedur. Muning oxiri xarobdur. Bu mas'uliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy va dunyoviy ilm va fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerak». Ma'rifatparvar alloma xalqni savodli qilish uchun jadid maktablarini, ma'rifatni targ'ib qilish uchun esa matbuotni asos deb bilgan. Behbudiyning xalq ma'rifati yo'lidagi yana bir ulkan xizmati u tomonidan birinchi bo'lib Samarqandda musulmon kutubxonasining tashkil etilishidir. Kutubxona ertalab 9 dan kech soat 5 gacha, ikkinchi smenada esa 6 dan kech 12 gacha faoliyat ko'rsatib, 60 dan 110 nafargacha o'quvchi kirgan. Kitob fondi ham boyib boradi – boy va savdogarlar bu joyga Qur'oni karim va boshqa diniy kitoblardan sovg'a qilganlar. Keyinchalik,

¹ Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. ... 132-b.

bu kutubxona *Behbudiya* nomi bilan atalgan. Sababi, kutubxonaning barcha moddiy xarajatlari asosan Behbudiy zimmasida bo'lgan.

Samarqanddagi ana shunday ma'rifatparvarlardan yana biri Abdugodir Shakuriy bo'lib, u o'z mablag'i evaziga yangi usul maktabi faoliyatini yo'lga qo'ygan. Xususan, Samarqandning Rajabamin qishlog'ida 1901-yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktab o'z faoliyatini boshlaydi. Shakuriyning maktabi tezda mashhur bo'ladi. Arxiv hujjatlarida uning maktabi va o'quvchilar soni haqida doimiy ma'lumotlar keltirilgan. Maktabda kechki kurslar ham faoliyat ko'rsatgan¹. Shakuriy o'z maktabi uchun darsliklar yozadi va shaxsiy mablag'i hisobiga nashr qildiradi. Masalan, u «Rahnamoyi savod» («Savod chiqarish qo'llanmasi»), «Jomi' ul-hikoyat» (1907), «Zubdat ul-ash'or» (1907) kabi o'quv qo'llanmalarini yaratgan. Behbudiy bilan birgalikda maktablar uchun dastur tuzgan. Shakuriy nafaqat Samarqandda, balki Turkistonda birinchilardan bo'lib qizlar uchun yangi usuldagi maktabni tashkil qilgan va maktabda uning turmush o'rtog'i o'qituvchilik qilgan. Keyinchalik o'g'il va qizlar guruhini birlashtirib o'qita boshlagan.

1915-yil 9- va 11-mayda Shakuriy maktabida imtihon bo'lgan va xalq bilim yurti inspektori ushbu imtihonga qatnashgan². Behbudiy maktab faoliyatini ko'rsatish uchun hukumat tomonidan Likoshin bilan Vyatkin, shaharning orbo'li ulamolari, savdogarlarini, boylar va do'kondorlarni taklif qiladi. Ikki kun ertalab 10 dan kech soat 6 gacha o'quvchilar imtihon qilinadi. Natijada, imtihonda qatnashganlarning ko'pchiligi bolalarning bilimidan hayratga tushadilar, bizning farzandlarimiz ham ilm yo'llarini shunchalik tez egallar ekan-ku, deb yig'lab ham yuboradilar.

Samarqandlik yana bir jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Hoji Muin eski maktabda savod chiqargach, ma'rifatparvar mudarris Saidahmad Vasliydan madrasada ta'lim olgan. 1901-yildan boshlab o'qituvchilik qilgan. 1903-yili Ruhobod mahallasida «usuli jadid» maktabini ochib, 1908-yili «Rahnomayi savod» nomli alifbo nashr ettirgan. 1914-yili o'z uyida «Tarbiyat» nomli xususiy «usuli jadid» maktabini ochgan³. 1915-yili Hoji Muin boshlang'ich maktablarning 3-sinfi uchun «Yangi adabiyot» majmuasini yaratadi. Unda zamondosh Turkiston shoirlarining she'rlari jamlanadi.

Bu davrda Samarqanddagi jadid maktablari faoliyatida Saidrizo Alizoda ham alohida mavqega ega edi. Saidrizo Alizoda Samarqandda mad-

¹ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varaq-30.

² O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varaq-181.

³ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varaq-100.

rasada 6 yil ta'lim olgan. Samarqandda kambag'al oila farzandlari uchun maktab ochib, o'qituvchilik qilgan. Maktablar uchun «Sarfī arab», «Turkiy alifbo», «Tarix», «Jug'rofiya», «Riyoziyot», «Handasa», «Tabiat», «Din vojiblari», «Nizomnoma», «Badan tarbiyasi», «Ilmi fazo» kabi 11 ta darslik yozgan. O'zbek maktablari uchun «Birinci yil» nomli alifbo yozadi va uni bepul tarqatadi. Hatto Samarqandda yashaydigan rus millati vakillari mahalliy tillarni o'rganishi uchun kechki kurslar tashkil qilgan.

Yangi usul maktablari shahar aholisining barcha millatlari orasida ochilgan. Masalan, 1908-yil 22-avgustda X.A. Jafarov, X.A. Hasanov, Mirzo Ibrohim Bagirovich, Mirzo Xusen Ibrohimov Samarqand shahrining eski qismida kambag'al, o'qishga imkoniyati yo'q bolalar uchun yangi usul maktabini ochganlar¹. 1909-yil noyabr oyida mahalliy o'qituvchi Muhammad Bodiy Sharofiddinov Ruhobod mahallasida «Ruhobod» nomli yangi usul musulmon maktabini,² 1911-yil 9-yanvar kuni Hoji Mirzo Bahrom Mirzo Murodovlar³, 1914-yil 1-aprelda Shokir Shirinov va Mustafo Ganishev Samarqand shahrida o'g'il va qiz bolalar uchun tatar va rus grammatikasini o'rgatuvchi Toshkentdagi tatar maktabi andozasidagi yangi usul maktabi faoliyatini Tatar jamiyati mablag'lari hisobidan yo'lga qo'ygan⁴.

Samarqand shahrining Suzangaron qismida Yomiy mahallasida Mirzo Abdullo Xoji Abduvohid Xo'jayev⁵, 1914-yil 12-aprelda Samarqand shahri Yomiy mahallasida yashovchi Said Ahmad Xoja tomonidan⁶, 1914-yil 7-noyabrda Samarqand shahri Bog'ishamol qismi Yo'ng'ichqa ariq qishlog'ida yashovchi Halim Karimov o'z uyida «Hayob» nomli⁷, 1914-yil 1-dekabrda Samarqand shahri Sharif Xoja mahallasida yashovchi boy savdogar Mulla Sharif Said Kamolov «Maktabi maorif» nomli, 1915-yil Siyob volosti Pulimug'ob qishlog'ida yashovchi mulla Abdulrashid Abduljabborov Bog'imaydon mahallasida Xoja Yoqubjon Fozilbekov xonadonida Abdushukurov maktabi andozasida⁸, 1915-yil 18-martda Samarqand shahri Qoraboy Oqsoqol mahallasida yashovchi savdogar Muhammadqul O'rinboyev o'z uyida Shakuriy maktabi asosida⁹ yangi usul maktabini ochishgan.

¹ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-16.

² O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-17.

³ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-21.

⁴ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-39.

⁵ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-80.

⁶ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-88.

⁷ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-103.

⁸ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varaq-155.

⁹ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-175. Varaq-15.

Shuningdek, Qo'shhovuz mahallasida yashovchi Mirzo Sharifboy Mirzohamidov 1913-yil 4-iyul kuni o'z uyida «Islah» nomli yangi usul maktabini ochgan. Islah maktabi ham tezda ommalashadi. 1914-yil 22-noyabrda Mirzo Sharifboy «Alafiy» mahallasidagi ukasi Mirzo Hamdam Mirzohamidov xonadonida dars jarayonlarini davom ettirishga ruxsat so'ragan. O'quvchilar soni qisqa vaqt ichida 100 dan oshganligi aytilgan. Har ikkala maktab faoliyatiga rus hukumatining doimiy nazorati ostida bo'lish sharti bilan ruxsat berilgan¹. Hozirgacha ilmiy adabiyotlarda nomi mashhur bo'lmagan yana bir ma'rifatparvar, jadid maktabdorlaridan Mirza Sharifboy qadim maktabni isloh qilgan zamon talabiga mos keluvchi islohotlar o'tkazgan ziyoli bo'lgan.

Bu davrga kelib eski maktabdorlar ham asta-sekinlik bilan maktablarini isloh qilishga kirishishadi. Maktab ochish jarayoni qattiq nazorat qilinishi bois juda qiyin kechgan. Shuningdek, maktablar faqat xalq tomonidan, shaxsiy mablag' hisobidan moliyalashtirilgan. Umuman olganda, Samarqandda shuhrat qozongan yangi usul maktablari ko'p bo'lgan. Yangi usul maktabdorlari o'z maktablariga nom berishgan. Bu ham o'sha davr uchun yangilik edi. Samarqanddagi bu maktablar obro'li, davlatmand kishilar tomonidan ochilgan.

Yangi usul maktablarida hunar o'rgatish ham yo'lga qo'yilganligi diqqatga sazovordir. 1915-yil 13-sentabrda Samarqand shahrining Qalandarxona qismida yashovchi Musobek Mirzo Fozilov o'z uyida yangi usul Bog'dorchilik mahalliy maktabini ochadi².

1915-yil 15-fevralda Ufa guberniyasidan bo'lgan tatar millatiga mansub Ahmad Zarif Muhammad Galiyev va uning xotini Komilla Muhammad Galiyeva Samarqand shahrida Petrovskiy va Pushkinskiy ko'chalari burchagidagi chorrahada Dovud Shamsiddinov xonadonida 20 kishilik ikki xonali qiz va o'g'il bolalar uchun yangi usul maktabini tashkil qilgan³. Bu maktab Samarqand shahrining yangi shahar qismida joylashgan edi.

Umuman, nazoratchi organlar yangi usul maktablari va o'quvchilar soni, maktablarning yangi usulligi nimadaligi, qaysi kitoblar asosida dars o'tilishi, maktablarda hukumatga qarshi maqola va kitoblar o'qitiladimi, o'qituvchilar tarkibi, ulardagi ta'lim jarayoniga qiziqishgan⁴. Maktablarni

¹ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varraq-101.

² O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varraq-169.

³ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varraq-163.

⁴ O'zR MDA F. I-181 R-1 Ish-89. Varraq-39.

mahalliy ma'muriyatdan borib shaxsan ko'rishni talab qilishgan. Ma'lumotlarda maktabning asosiy vazifasi boshlang'ich ta'limni osonlashtirilgan holda berish ekanligi aytilgan¹.

Hatto mahalliy rus amaldorlari ham o'z hisobotlarida Abdusshukurov va Jo'raboyev maktabiga imtihon olish paytida viloyat harbiy gubernatori va viloyat o'quv ishlari inspektori bir necha marta borganligini, bu maktablarda mahalliy maktablar va hatto rus-tuzem maktablariga nisbatan ham o'quvchilarning bilim olishi va tarbiyasi yaxshiligini ta'kidlashgan².

Mana shu hol yangi usul maktabdollarining jamoatchilik o'rtasida obro'sini oshirgan. Albatta, hukumat jadid maktablari faoliyatini cheklashni istasa-da, buni amalga oshira olmagan.

Yangi usul maktablari zamon talabi asosida vujudga keldi. Rasman maktab faoliyatiga ruxsat olish qiyinligi bois, ruxsatsiz faoliyat ko'rsatgan maktablar ham ko'p bo'lgan. Bu maktablar davr ehtiyoji va qadim maktablarning islohoti hosilasi sifatida vujudga keldi. Ushbu maktablarda asosan o'qitish usuli va zamonaviy dunyoviy fanlarga e'tibor berildi. Bu maktablar milliy va zamonaviy Yevropa ta'limining uyg'unlashgan hosilasi edi. U mavjud rus ta'lim dargohlaridan farqli ravishda milliy tarix va o'zlikni asrashni shakllantirishga xizmat qilgan.

Xullas, XX asr boshlariga kelib, madrasalar soni maktabning keyingi oliy ta'lim maskani sifatida aholi soni nisbatiga muvofiq oshib borsa-da, maktablarning va ulardagi o'quvchilarning soni kamayib borgan. Bunga, bir tomondan, imperiyaning o'lkadagi hukumati tomonidan an'anaviy ta'limning moliyaviy negizi bo'lgan vaqflarning qisqartirilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'lka xalqlari orasida milliy uyg'onish va tiklanish harakati bo'lgan jadidchilik harakatining keng tus olishi va o'lka bo'ylab, shu jumladan, Samarqand shahri va unga yaqin bo'lgan yerlarda ko'plab jadid maktablari ochilishi hamda mazkur maktablarga mahalliy bolalarning ko'pchiligi jalb etilganligi bilan izohlanadi.

8-§. Ilm-fan va madaniyat

Samarqand va uning qadimiy shahar xarobalari o'tmishiga qiziqish XIX asrning 70-yillaridan boshlandi. O'sha yillarda Afrosiyobda mayor Barzenkov va V.Krestovskiy arxeologik qazishma ishlarini olib borishgan.

XIX asrning 80-yillarida Ulug'bek observatoriyasini topish maqsadida N.I. Veselovskiy Samarqandda qazish ishlarini olib borgan. Shunday hara-

¹ O'zR MDA F. 1-181 R-1 Ish-89. Varraq-45.

² O'zR MDA F. 1-47 R-1 Ish-1148. Varraq-137.

kat bu yerda qadimiy buyumlar to'plovchisi sifatida ma'lum bo'lgan podpolkovnik L.S. Borshchevskiy tomonidan ham amalga oshirilgan. Ta'kidlash joiz, Samarqand shahridagi ko'pgina madaniy yodgorliklarni ilmiy asosda o'rganishda rus olimlarining ham xizmati katta bo'ldi. Masalan, Samarqand viloyati boshqarmasi xodimi V.L. Vyatkin shaharda² havaskor o'lkashunos sifatida 1908–1909-yillarda Obirahmat arig'i yaqinidagi Poyirasad tepaligida qazish ishlarini amalga oshirdi va Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini topib o'rgandi. Bu ishda unga Shayboniyxon madrasasining mudarrisi Abu Sayid maxsum yaqindan yordamlashgan. Bu o'zbek olimi, N.I. Veselovskiy ta'biri bilan aytganda, «musulmon adabiyotining zo'r bilimdoni» edi. U arxiv hujjatlarini o'rganish davomida ma'lumotlarni aniqlagan. Ma'lumotlar V.L. Vyatkin tomonidan qazish ishlarini amalga oshirishga va Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini topishida muhim omil bo'lgan. Abusaid maxsumning bu kashfiyoti rus olimlarining ilmiy kashfiyoti sifatida e'tirof etilgan edi³.

Samarqandning qadimiy tarixini o'rganishda havaskor fotograf G.Pankratyev va mahalliy o'lkashunos Mirzo Abdusaid maxsumning xizmati alohida tahsinga sazovor. Ular Samarqand shahridagi tarixiy yodgorliklardagi yozuvlarni fotosuratga olganlar⁴. Keyinchalik Pankratyev «Samarqand shahridagi tarixiy yodgorliklar albomi»ni yaratgan.

Mirzo Abdusaid maxsum esa o'zi va boshqalar tushirgan fotosuratlardagi yozuvlarni saralash va tarjima qilishda rus olimi S.A. Lapinga yordam bergan⁵. S.A. Lapin Samarqanddagi deyarli barcha tarixiy yodgorliklardagi qabr toshlari yozuvlarini rus tiliga tarjima qilgan dastlabki rus olimlaridan edi.

Mazkur davrda tarix, madaniyat va fan rivojiga hissa qo'shgan ko'plab samarqandlik ziyolilarni keltirish mumkin. Ular Markaziy Osiyo tarixi, ilm-fani, madaniyati va betakror obidalarini keng jamoatchilikka tanitishda va ularni kelgusi avlodlarga yetkazishda hamda saqlab qolishda katta xizmat qilishgan. Samarqandlik Mirza Abdulla Buxoriy (1893-yil vafot etgan) – ikkinchi toifali savdogar va mahalliy ipak jun hamda ip-gazlama fabrikasining xo'jayini. Mirza Abdulla Afrosiyobda ilk tadqiqotlarni olib borgan N.I. Veselovskiy bilan yaqin aloqada bo'lgan. N.I. Veselovskiy

¹ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. – P. 18.

² Туркестанский сборник. Том 520. С. 161.

³ Murodova Sh. XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Samarqand viloyati misolida). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 1999. 105-b.

⁴ Туркестанский сборник. Том 532. С. 32–33.

⁵ Туркестанский сборник. Том 532. С. 52.

Mirza Abdullaning kolleksiyalarini ko'rib chiqib, undan 1202 buyum, shu jumladan, 11 ta tilla va 77 ta kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 ta muhr, odamlar, hayvonlar tasviri tushirilgan 6 ta tosh sotib olgan¹.

Dastlab, kolleksioner sifatida faoliyat olib borgan Mirza Abdulla Moskva va Sankt-Peterburgda bo'lib, Kremlda Tretyakov galereyasi bilan tanishgan. Mirza Abdulla to'plagan madaniy yodgorliklar kolleksiyasini Sankt-Peterburgdagi Ermitaj va arxeologiya komissiyasiga yuborishga qaror qiladi. Undan keyin Mirza Abdulla o'zi tomonidan to'plangan va 6 ta maxsus qutiga joylashtirilgan 6300 qadimiy osori atiqalarni Rossiya foydasiga tekinga sovg'a qilgan². Natijada, bugungi kunga kelib, yurtimiz tarixiga daxldor ko'plab osori atiqalar xorij davlatlari muzeylarida turibdi.

Samarqandda 1896-yil 21-iyulda shahar muzeyi ochilgan. Dastlab muzey Georgiy cherkovi qoshidagi xonalardan birida joylashgan bo'lib³, «Samarqand statistika qo'mita muzeyi» deb nomlangan. Oradan o'n yil o'tgach (1896-yil), muzey va shahar ommaviy kutubxonasi uchun maxsus bino qurilgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, XIX asrning oxiridayoq Samarqand viloyati statistika qo'mita a'zolari va xodimlari I.T. Pslavskiy, B.N. Kastalskiy, L.V. Barshchevskiy, P.Reyxel va V.L. Vyatkin tomonidan «qo'mita tarix bo'limining Samarqand shahri va uning yaqin atrofidagi yodgorliklarini tasvirlashga oid ishlari dasturining loyihasi» tuzildi va 1896-yil 27-yanvarda unga izoh yozildi⁴. Unda Samarqand tarixiga oid barcha ma'lumotlarni to'plash, «mavjud obidalar va tarixiy joylarning batafsil ro'yxati»ni tuzish, ana shu yodgorliklarni kiritgan holda Samarqandning bosh rejasini tuzib chiqish, ilgari tuzilgan barcha rejalarni yig'ish, o'tmish yodgorliklari to'g'risida keksa kishilardan surishtirib bilish ko'zda tutilgan edi. Dastur loyihasi 1896-yil 18-aprelda qo'mitaning umumiy yig'ilishida muhokama qilindi va ma'qullandi⁵. Biroq o'sha davrda dasturni to'la hajmda amalga bajarish muammo edi. Shunga qaramay, loyiha belgilangan yo'nalishda ba'zi bir ishlar amalga oshirilgan⁶.

Turkiston o'lkasi yodgorliklari bilan tanishgan Shvetsiya me'mori Martin Rossiya imperiyasi hukumatining moliya vaziri S.Y. Vittega maxsus

¹ Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasini. – Toshkent, 1981. 51-b.

² O'sha asar. 54-b.

³ Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. ... С. 96.

⁴ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P. 19.

⁵ Вирский М. Справочная книжка Самаркандской области. 1896 г. Выпуск IV. – Самарканд, 1896. С. 29.

⁶ Sodiqova N. Madaniy yodgorlik xazinasini. – Toshkent, 1981. 32-b.

maktub yo'llaydi. Bu maktubda shved me'mori Turkiston obidalarining umumbashariy madaniyat tarixidagi beqiyos o'rniga to'xtalib, «ilmi yo'li» da Samarqanddagi obidalarni ro'yxatga olib, ilmiy izohlash hamda ularni o'z holicha saqlab qolish uchun tegishli chora-tadbirlarni ko'rishni iltimos qilgan¹. Ushbu maktubga javoban graf S.Y. Vitte Turkiston general-gubernatori A.V. Vrevskiyga (1889–1898) tegishli ko'rsatmalar berib, xazinadan muammoni yechishga doir ma'lum miqdorda mablag' ajratgan².

Tadbirlar rejasi imperatorning arxeologiya komissiyasida muhokama qilingan. Muhokamada mashhur sharqshunoslardan V.N. Vasilyev, V.A. Jukovskiy, K.G. Zaleman, V.R. Rozen ishtirok etganligi ma'lum. Komissiya Samarqandga ekspeditsiya yuborishga qaror qilgan. Bunda asosiy e'tibor yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklashga emas, balki ularni ilmiy jihatdan tasvirlashga qaratilganligi muhim edi.

N.I. Veselovskiy³ boshchiligidagi ekspeditsiya tarkibiga me'mor, akademik P.P. Pokrishkin, rassom S.M. Dudin kabi soha mutaxassislari ham kirgan edi. Ekspeditsiya Samarqanddagi Bibixonim masjidi va Go'ri Amir maqbarasiga alohida e'tibor bergan. 1895-yildayoq Samarqand yodgorliklari chizmalari va rasmlari ishlanib, «Go'ri Amir» nomi ostida albom nashr qilingan. Bu albom o'z davri matbaachiligining eng nodir asari va binoning me'moriy qurilishini ilmiy qayd etishning o'z davri uchun eng yaxshi namunasi. N.I. Veselovskiy ekspeditsiyasi qo'lga kiritgan osori atiqalarning eng saralari Ermitajga olib ketildi. Bular Amir Temur maqbarasining nafis bezakli naqshinkor darvozasi, maqbaraning g'arbidagi eshik (hozir bu eshik Londondagi Viktoriya muzeyida saqlanmoqda)⁴. 1903-yil Amir Temur maqbarasidagi oyna qo'porilib imperator Aleksandr II muzeyi uchun Peterburgga jo'natildi. 1905-yili esa shu maqbara peshtoqidagi yozuvli lavha o'g'irlangan. Lavhada «Jahongir Amir Temur Ko'ragonning qabri, Xudo uni rahmat qilsin va joyi abadiy jannatda bo'lsin» degan yozuv bitilgan. Bulardan tashqari, qabrtoshlar ustidan olingan naqshinkor parchinlar, lavhalar, koshinlar, Amir Temur va Ahmad Yassaviy maqbaralari ichidagi tilla, kumush aralashmasidan yasalgan shamdonlar, Amir Temur maqbarasi shiftidagi oltindan yasalgan yulduzsimon shakldagi qandillar, qurol-aslahalar ham olib ketilgan. 1883-yili Ermitajga jo'natilgan

¹ Sodiqova N. Madaniy yodgorlik xazinasi. ... 32-b.

² Вревский М. Справочная книжка Самаркандской области. 1896 г. Выпуск IV. – Самарканд, 1896. С. 30.

³ Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. ... P.19.

⁴ Sodiqova N. Madaniy yodgorlik xazinasi. ... 32-b.

buyumlar orasida 1168 ta qadimiy oltin, kumush tangalar bo'lib, bular O'rta Osiyoning 30 dan ortiq hukmron sulolalariga tegishlidir.

Peterburg Osiyo muzeyining ilmiy xodimi S.M. Dudin bir necha marta Turkistonga kelib me'moriy yodgorliklarni suratga tushirgan va ko'pchinni koshinlarni olib ketgan. S.M. Dudin tomonidan o'rganilgan Samarqandning qadimiy kulolchilik san'atiga oid 3000 dan ortiq yodgorliklar Peterburgda saqlanmoqda².

Tadqiqotlar natijasida shahardagi me'moriy obidalarni qayta restavratsiya qilish kerakligi to'g'risida xulosaga kelingach, 1895-yilda Bibixonim masjidini ta'mirlash ishlari boshlangan³. Masjidning P.P. Pokrishkin tomonidan bajarilgan chizmalari 1900-yildan arxeologiya komissiyasiga yuborilgan. Shohizinda ansamblidagi maqbaralarni tasvirlash ishlari boshlab yuboriladi.

Go'ri Amir maqbarasi va Bibixonim masjidini ta'mirlash ishlari tugagach, tez orada Samarqandda (1897-yilda) kuchli zilzila bo'lgan. Zilzila natijasida Go'ri Amir va boshqa yodgorliklar ancha shikastlangan.

Samarqandda ro'y bergan zilzila munosabati bilan rus ma'muriyati shahardagi yodgorliklarni saqlab qolish choralarini belgilash uchun V.V. Bartold, N.I. Veselovskiy va V.A. Jukovskiydan iborat komissiya tuzdi. Shu masala yuzasidan me'mor K. Kramonova va rassom S.M. Dudin Samarqandga kelgan. 1908-yilda Ruhobod maqbarasi va qisman Ulug'bek madrasasi suratga olindi. Shuningdek, Tillakori, Ulug'bek madrasalarini, Ishratxona, Xo'ja Ahror, Oqsaroy, Ruhobod maqbaralarini, Namozgoh masjidini, Xo'ja Abdu Berun va Xo'ja Abdu Darun, Cho'ponota va boshqa mozorlarni fotosuratga olish ishlari amalga oshirildi. Natijada, Dudin tomonidan jami 556 ta ajoyib negativ tayyorlangan.

XIX asrda Samarqand Alisher Navoiy asarlari targ'ibotida muhim rol o'ynagan. Misol uchun, 1824–1825-yillarda xattot Mir Abdulhay Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» asarini sharqona uslubda qayta ko'chirgan. Yana bir xattot mulla Muqimxon 1849–1850-yillarda uning «Xamsa»sini qayta ko'chirgan. 1904–1910-yillarda Said Abdusalom tomonidan ko'chirilgan Alisher Navoiy asarlari Samarqandda litografik uslubda nashr etilgan⁴.

¹ Sodiqova N. Madaniy yodgorlik hazinasi. ... 33-b.

² Sodiqova N. Madaniy yodgorlik hazinasi. ... 34-b.

³ Справочная книжка Самаркандской области на 1896 год. Изд. Сам-го областного Стат.Комитета Вып IV. Сост. и.д. секретаря статистического Комитета М.Вирский. – Самарканд, 1896. С. 30.

⁴ Абдуллаев В. Навоинские чтения и последователи Навои в Бухаре в XIX веке. // Общественные науки в Узбекистане, 1962. – №4.

Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Chahor devon» kabi dunyoga mashhur, o'zbek adabiyotining durdona asarlari ham XIX asrda qayta ko'chirilib, keng o'quvchilar orasida tarqatilgan edi. Bundan tashqari, Mashrab, Huvaydo, Sayqaliy, Shavqiy, Amiri G'oibiy kabi mashhur adabiyot namoyandalarining asarlari ham qayta ko'chirilgan va o'quvchilar orasida tarqalgan¹.

XIX asrda nodir qo'lyozmalarni to'plash va qayta ko'chirish ishlari ham keng rivojlangan. Xattot Abdujabbor Nayman Samarqandiy Abu Hanifaning «Al fiqh al-akbar» («Katta huquqshunoslik») asarini mulla Abulfayz Samarqandiy Mirza Qurbon Xiromiyning «Chor darvesh» dostonini qayta ko'chirdilar. Samarqandda ijod qilgan xattotlardan mulla Mirza Muhammad Oxun ibn Odin Muhammad Samarqandiy, mulla Sayid Abdulvahob Samarqandiy, Muhammad Nuriddin ibn Muhammad Olim Samarqandiy, Muhammad Rofe' ibn Shayx Muhammad Solih Samarqandiy, Muhammad Yusuf Samarqandiy, Muhammad Yoqub Samarqandiylarning nomini keltirish mumkin².

XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda birinchi marta bosma kitob nashr etila boshlandi. Bu g'oyat muhim tarixiy voqea edi. Samarqandda bosmaxonalarning tashkil etilishini Rossiya imperiyasining o'lkaga ko'rsatgan marhamati sifatida qabul qilish kerak emas³. Shaharda dastlab ish boshlagan bosmaxonalarda, avvalo, dunyoviy ilm-fan: geografiya, tarix, ma'danshunoslik, bog'dorchilik, dehqonchilik, tabobat, aniq fanlarga oid Yevropa mamlakatlari va Rossiya ilmiy hamda ommaviy jamoatchiligiga noma'lum bo'lgan asarlarga katta e'tibor qaratilgan.

XIX asrda yashagan samarqandlik Boboyor Mirzoqulov geometriya darsligini o'zbek tiliga tarjima qilib, matematika haqida tushuncha bergan, raqamlar turkumini 46 ta matematik belgiga ajratgan. Shuningdek, u o'zbek urug'larining 92 nomini birinchi bo'lib hisoblab chiqqan⁴. Samarqandda ilk davrlarda matbaa korxonalari texnik jihatdan takomillashmagan, mahsulot ishlab chiqarish jihatdan qoloq bo'lgan. Shahardagi matbaa sanoati korxonalarida ishlayotgan xodimlarning tarkibi talab darajasida emas edi. Bu korxonalarda mahalliy millat vakillari 72 kishi bo'lib, ulardan 16 tasi malakali xodim edi, xolos. Kitoblarning asosiy qismi litografiya usuli bilan chop etilgan⁵.

¹ *Spidqulov T.C.* Samarqand во второй половине XIX – начале XIX веков. ... С. 36.

² *Файзиев А.Ф.* История Самарканда первой половины XIX века ... С. 40.

³ *Абдуазизова Н.* История национальной журналистики (генезис и эволюция) в 2-х томах. Том 1. – Ташкент: Шарк, 2012. С. 152.

⁴ *Dadaxonov F.* Nodir qo'lyozmalar xazinasi // Jamiyat. 2008-yil 4-yanvar.

⁵ *Murodov A.* O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent, 1972. 15–20-betlar.

XX asr boshlarida shaharda 21 ta bosmaxona, 4 ta litotipografiya va 2 ta litografiya faoliyat ko'rsatgan¹. Bosmaxonalarda asosan rus tilidagi kitoblar chiqarilar va ular badiiy adabiyot, ilmiy tadqiqotlar, ma'lumotnomalar va o'quv qo'llanmalardan iborat bo'lgan. Nashrlarning ko'pchiligi mazmunan imperiya hukumatining mavqeyini yanada mustahkamlash uchun xizmat qilishga qaratilgan edi.

Samarqandda ilm-fan sohasida ham bir qator yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Asli xo'jandlik Hoji Yusuf Mirfayozov (1842–1924) astronomiya, matematika, geografiya, tabobat, tarix bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligida yaratilgan Yer shari globusi XIX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy kashfiyotlardan biri edi. Globusda 1000 dan ortiq geografik nomlar keltirilgan². Turkiston olimlari, Rossiya «Geografiya jamiyati» a'zolari sinovidan o'tgan bu globus Imperator Nikolay II va saroyi a'zolari tomonidan ham yuqori baholanib, Hoji Yusuf Mirfayozov bu ilmiy ishlari uchun taqdirlangan³. Hoji Yusuf Mirfayozov Osiyo va Yevropa mamlakatlarida ta'lim olgan o'z davrining ilg'or kishisi va ma'rifatparvari, butun Turkiston o'lkasi madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan olim sifatida nom qoldirgan⁴.

Mustamlakachi hokimiyat Turkistonda, shu jumladan, Samarqand va uning atroflarida ham rus madaniyatini singdirish uchun turli tadbirlarni amalga oshirgan. Masalan, 1891-yil 4-fevralda Turkiston general-gubernatorligi Samarqand musiqa-drama jamiyatini tuzish haqidagi qarorini imzolagan⁵. Jamiyatni tuzishdan asosiy maqsad bu yerda san'atning 2 janri – rus musiqasi va dramatik asarlarini kengroq yoyish edi. Biroq bu tadbirlardan ko'zlangan maqsadga erisha olmaganlar. Mahalliy aholining madaniyati va turmush tarzi Rossiya xalqlari madaniyati va urf-odatlaridan mutlaq farq qilardi. Bu tadbirlardan ko'zlangan yana bir maqsad o'lkaga ko'chirilgan rus aholisi turmushini o'z an'analari va qoidalariga asoslab qurish bo'lgan. O'lkada xizmat qilayotgan imperiya xizmatchilari hukmron mafkura izmida qolishlari kerak edi. Mazkur jarayonning yana bir muhim jihati rus madaniy markazlari va ta'lim maskanlari tashkil etish edi.

¹ O'zMA I 5-Fond, 1-Ro'yxat, Ish-105, 6-varaq.

² Хасанов Х. Памятники Средней Азиатской картографии // «Известия» Узбекского географического общества. – 1962, №9. С. 39–42.

³ Хасанов Х. Географическое наследие ученых Средней Азии. Автореферат диссертации доктора географических наук. – Ташкент, 1967. С. 37.

⁴ Murodova Sh. XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Samarqand viloyati misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 1999. 106-b.

⁵ O'sha joyda, 108-b.

Samarqand qadimiy yuksak ma'naviy va moddiy madaniy markaz sifatida taniqli bastakorlar, rassomlar va me'morlarni o'ziga jalb etgan. 1864-yilda venger sayyohi A.Vamberi Samarqandga kelgandan so'ng moraviyalik kompozitor Ignat Brill «Samarqand darveshlari» operasini yozdi. U Samarqand to'g'risida G'arbiy Yevropa musiqa ijodida yaratilgan birinchi opera edi. 1910-yil Frans Lonkorey Amir Temur haqidagi «Samarqand hukmdori» operasini yaratdi. Ingliz bastakori Gretil Pantyuk «Samarqand ulug'vorlik kunlarida» xori uchun musiqa bastaladi¹.

XX asrning boshlaridagi murakkab iqtisodiy vaziyatga qaramasdan samarqandlik mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulov Eron, Afg'oniston, Iroq, Hindiston va Gretsiya davlatlarida o'z san'atini namoyish qilgan edi. 1909-yil Riganing «Grammofon» firmasi uning ijrosidagi «Iroq», «Nasrulloi» va «Ushshoq» maqomlarini yozib oldi.

Samarqand xalqi, mustamlakachilik zulmiga qaramasdan butun o'lkadagi kabi ma'naviy madaniyatni, uning urf-odatlaridagi mumtozlikning mohiyatan an'anaviylikka asoslangan san'at turlarining mustahkam ildizi bo'lgan xalq bayramlari hamda uning asosini tashkil etuvchi qo'shiqchilik san'atini saqlab qoldi². Milliy qo'shiqchilik an'analarida nafaqat soz ovozlari, balki xalq ijodi, muayyan g'oyalar va fikrlar o'z aksini topganligi, ular xalq ma'naviy merosining ajralmas qismi ekanligini ta'minlaydi.

Bu davrda milliy adabiyot sohasida ham Samarqand yetakchi o'rinlarda borgan. 1916-yil Toshkentga safar qilgan sharqshunos olim A.N. Samoylovich ungacha nashr etilgan barcha o'zbek dramalari bilan tanishib chiqib, Turkistonda «yangi adabiyot» maydonga kelganligini ta'kidlaydi va «Turkistondagi yangi adabiyotning markazi Samarqand yosh adiblarining bosh ilhomchisi samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy», deb yozgan³.

M.Behbudiy ijtimoiy-siyosiy jihatdan serqirra ijodkor bo'lib, u boshchiligidagi jadidlar 1913–1915-yillarda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnaliga asos solishgan. «Samarqand» gazetasi rus, o'zbek va tojik tillarida nashr qilingan. «Oyna» jurnali esa nafaqat Turkistonda, balki Kavkaz, Volgabo'yi musulmonlari orasida, shuningdek, Turkiya, Afg'oniston, Eron va Hindistonda ham mashhur bo'lgan⁴.

¹ Alimova D.A., Buryakov Y.F., Rahmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Toshkent: Art Flex, 2009. 47-b.

² Hamidov H. O'zbekiston ma'naviy madaniyati tarixi, taraqqiyoti, muammolari. – Toshkent, 1999. 168–170-betlar.

³ Вестник императорского Общества Востоковедения. 1916 год, №5. С. 4.

⁴ Alimova D.A., Buryakov Y.F., Rahmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Toshkent: Art Flex, 2009. 47-b.

1917-yil aprel oyida Samarqandda jadidlarning «Hurriyat» gazetasini nashr yuzini ko'rdi. Gazeta faoliyatida Abdurauf Fitratning o'rnini alohidadir. Uning bevosita ta'siri va ishtirokida shahar hayoti va umuman, Turkistonga doir siyosiy mazmundagi maqolalar ko'plab chop etilgan. Shu jarayonlar bilan bir vaqtda mahalliy xalqlarning madaniy taraqqiyoti yuksala bordi. Milliy san'at sohaslarida imperiya ma'muriyatining mahalliy xalqlar madaniyatini kamsitish va rus madaniyatini singdirish borasidagi tadbirlariga qaramasdan milliy ruhda rivojlanish davom etaverdi. M.Behbudiyning 1913-yilda nashr qilingan «Padarkush» dramasi 1914-yil 15-yanvarda Samarqand havaskorlari tomonidan o'lkada birinchi marta sahnalashtirilgan. So'ngra bu asar Turkistonning boshqa shaharlarida sahnaga qo'yildi¹.

Bu davr Samarqand adabiy muhitining o'ziga xosligi shundaki, ijodkorlar ikki tilda – o'zbek va tojik tillarida ijod qilishgan. Buxoro adabiy muhitida esa fors-tojik adabiyoti ko'proq o'rin egallaydi. Qo'qon adabiy muhitiga e'tibor bersak, o'zbek tilida ko'proq asarlar yaratilgan.

XX asr boshlarida Samarqandda Ubaydullo Subhiy, Yaqubbek Oshiqiy, Sipandiy Samarqandiy, Hodiy Samarqandiy, To'g'raliy Ahroriy, Mirzoakram Fikriy, Muhammad Xatoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Siddiqi Ajziy, Saidahmad Vasliy, Abdujabbor Urgutiy, Ibrohim Saidkamolzodayi Jur'at, Maseho Tamhidiy Samarqandiy, Ahmad Ravnaiy, Orif Gulxaniy, Saidrizo Alizoda, Abdulqayum Qurbiy, G'ulomrizo Kozimzoda, Abdulkarim Odiliy, Mirsarvar Urgutiy, Abdulg'ani Javdot, Abdulqodir Jomiy, Nabiraxo'ja Xil'at, Boqiy Samarqandiy, Faqir Shahrisabziy, Qori Sharofiddin Xubiy Samarqandiylar ijod qilgan².

Samarqand adabiy muhitida muhim rol o'ynagan o'z davrining yirik shoirlaridan biri Xubiy Samarqandiy hisoblanadi. Xubiy Samarqandiy 1921–1924-yillarda Bokuda faoliyat yuritib, 1925-yil Samarqandga qaytgach, Tillakori madrasasida mudarris sifatida ishlagan. Shoirning she'rlari o'z risolasida keltirilgan.

Samarqand adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar ichida Sipandiy Samarqandiy, Xodiy Samarqandiy, Vasliy Samarqandiy, Naqibxon To'g'ral, Jur'at Samarqandiy muhim o'rin tutgan.

Vasliy Samarqandiyning ikkita devoni – «Armug'oni Do'ston» 1909-yilda, «Tufhat ul-ahbob» 1913-yilda nashr qilingan. Sayidahmad Vasliy Samarqandiy (1870–1925) Samarqand shahrining Ko'kmasjid mahallasida

¹ *Абдуазизова Н.* История национальной журналистики (генезис и эволюция) в 2-х томах. Том 1. – Ташкент: Шарк, 2012. С. 152.

² *Xubiy Samarqandiy.* Avroqi nosuxta. – Samarqand: Sug'diyona, 1997. 6-b.

tug'ilgan bo'lib, 1909-yildan boshlab Ulug'bek va Orifjonboy madrasalarida mudarris bo'lib ishlagan¹. To'g'ral devoni esa 4 ming baytdan iborat bo'lib, 1916-yil² Kogon shahri matbaasida toshbosma tarzda chop qilingan. To'g'ral 1914-yilga qadar Tillakori madrasasining hujralaridan birida yashagan. Jur'at Samarqandiy she'rlar to'plami ham 1919-yil nashr qilingan va 550 baytni o'z ichiga oladi³. Ushbu shoirlarning ijodida Turkiston xalqlarining mustamlaka asoratidan qutulish va mustaqillikka erishish to'g'risidagi orzu-istaklari o'z ifodasini topgan.

Shaharning ruslar yashovchi qismi shakllanishi bilan jamoat muassasalari, teatr va musiqa yangicha shaklda aholi turmushida alohida o'rin tuta boshladi. Shahar va uning atrof hududida istiqomat qiluvchi va xizmat qiluvchi rus aholisining hayoti imkon qadar yaxshilashga harakat qilingan.

¹ Muhiddinova B. Saidahmad Vasliy Samarqandiyning madrasalar faoliyati haqidagi mulohazalari // O'rta asrlardagi Samarqand madrasayi oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta'lim tizimining taraqqiyotdagi roli // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2017. 93-b.

² Sa'diyev S. Samarqand adabiy muhiti tarix ko'zgisida. – Toshkent: Fan, 2009. 372–377-betlar.

³ Sa'diyev S. Samarqand adabiy muhiti tarix ko'zgisida. ... 372–377-betlar.

VIII bob.

SAMARQAND 1917–1991-YILLARDA

1-§. Samarqandda milliy-siyosiy tashkilotlar faoliyati hamda sovet hokimiyatining majburan o'rnatilishi

O'zbekistonning qadimiy tarixiy shaharlaridan va yirik madaniy markazlaridan biri hisoblangan Samarqand shahri sovet tuzumi davrida muhim tarixiy voqealarga guvoh bo'lgan. Siyosiy, iqtisodiy va strategik jihatdan O'zbekistonning aynan markazida joylashgan Samarqand bu davrda Toshkent shahridan keyin respublikada o'zining yetakchilik mavqeyini saqlab qola olgan.

Ma'lumki, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Samarqand va uning atroflari Turkiston o'lkasi general-gubernatorligiga qarashli Samarqand oblasti (viloyati)ning Samarqand uyezdi tarkibida bo'lgan. Samarqand viloyat va uyezdning markaziy shahri sifatida ushbu 50 yil davomida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan, azaldan mohir hunarmandlar va savdogarlar maskani bo'lgan bu shaharda mazkur davrda dastlabki sanoat korxonalari vujudga kelgan. Samarqandda bozor munosabatlari rivojlangan.

Rossiya imperiyasining poytaxti bo'lgan Petrograd (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida 1917-yilda amalga oshirilgan Fevral inqilobi va Oktabr to'ntarishi natijasida Turkiston o'lkasida, xususan, Toshkentda yuz bergan voqealar Samarqand shahri tarixiga ham bu davrda muhim voqealarni yozib qo'ygan. 1917-yildan boshlab ko'hna Samarqand shahri tarixining yangi davri boshlandi.

Samarqand aholisi Rossiyada monarxik tuzum qulaganligi haqidagi xabarni zo'r xursandchilik bilan kutib olgan. 1917-yil 5-martda va 10-martda Samarqand shahrining eski va yangi qismlarida bo'lgan namoyishlarda o'n mingdan ortiq kishi qatnashgan.

Samarqandda taraqqiyparvarlar tomonidan nashr etilgan «Hurriyat» gazetasida o'sha kunlari quyidagi fikrlar yozilgan edi: «Nihoyat, Rossiyada biz orzu qilgan va sabrsizlik bilan kutgan inqilob yuz berdi. Eski hukumat ag'darildi. Bizlarga erkinlik berildi, endilikda biz so'z erkinligiga, matbuot erkinligiga egamiz. Endilikda haqiqatni aytgan va yozgan pay-

timizda og'zimizni yopishmaydi. O'z huquqlarimizni talab qilgan paytda bizga quloq solishadi»¹.

1917-yil mart oyidan boshlab Turkiston o'lkasida turli jamiyatlar va uyushmalar tashkil topa boshladi. Bu jamiyatlarning eng mashhuri «Sho'royi Islomiya» (1917-yil 14-martda Toshkentda tuzilgan) tashkiloti bo'lgan.

1917-yil 6–7-martda Samarqand eski shahridagi Qo'shhovuz degan joyda «Klubi islomiya» yoki oddiy xalq tili bilan aytganda «Kambag'allar yig'ilishi» nomli mahalliy mehnatkashlarning dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlaridan biri tashkil etildi. Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli yo'l boshchilari bo'lgan samarqandlik taraqqiyparvarlar Akobir Shomansurzoda (rais), Mahmudxo'ja Behbudiy, Mardonqul Shomuhammadzoda va Abduhalil Hasanjon o'g'li bu tashkilot rahbarlari bo'lishgan². Biroq klub a'zolarining xilma-xilligi va dastlabki kunlarda boshlangan kelishmovchiliklar uning taqdirini tez orada hal qilgan. «Klubi islomiya» tarkibiga yuzdan ziyod kishi kirgan bo'lib, u bir yarim oylik faoliyatdan so'ng 1917-yil 15-aprelda yopilgan.

«Kengash» gazetasida (1917-yil 19-iyul) yozilishicha, Samarqandda «Mirvaj ul-islom» tashkiloti ham faoliyat yuritgan. Kattaqo'rg'onda esa «Ravnaq ul-islom» va Xo'jandda «Muayin at-tolibin» tashkilotlari shu paytda tashkil qilingan. Bundan tashqari, Samarqandda «Ittifoq» va «Mivtah ul-maorif» kabi tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatgan.

1917-yilning bahorida Samarqandda ham «Sho'royi Islomiya» tashkiloti tuziladi. Unga taraqqiyparvarlar va ulamolar, endigina shakllangan milliy burjuaziyaning ko'zga ko'ringan vakillari Isoxon qozi, Eshon Akobirxo'ja, savdogar va katta yer egasi Shamsiboy Maxsum, boylardan Hasan Zubaydullayev, Mamarayimboy, Mamadaminboy, sobiq amaldorlardan Bahridin va Abdig'ulom hamda boshqalar kirishgan. «Sho'royi Islomiya» Samarqand tashkilotining shtabi shaharning So'zangaron qismidagi Hovuzi sang mahallasida joylashgan edi³. Xullas, Samarqanddagi «Sho'royi Islomiya» jamiyatining asosini mulkdorlar va ulamolar tashkil qiladi.

Samarqand shahridagi «Sho'royi Islomiya» tashkilotining kotibi vazifasida faoliyat ko'rsatgan Mirjalil Fayziyevning keyinchalik tergov jarayonida bergan ko'rsatmalarida keltirilishicha, Qozi Isoxon Shirinchojiyev – tashkilotning rahbari va asoschisi sifatida, Domla Salim mudarris – uning

¹ «Hurriyat», 1917-yil 16-aprel; A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 29-b.

² Гулманенко А. Октябрь в старом городе Самарканде. – Тошкент, 1933. С. 8.

³ Samarqand tarixi. Tom 1. ... 369–370-betlar.

o'rinbosari sifatida, Qozi Boboxon Abdullaxo'jayev – shariat qozisi, diniy boshqarmaning boshlig'i sifatida, Qori Nazrulla Fayzullayev esa tashkilotda xazinachi sifatida faoliyat ko'rsatgan. M. Fayziyevning aytishicha, tashkilotga bundan tashqari Mulla Said Ikromov, Mahmudxon Ahmadxonov, Mahmudjon Salimboyev, Abdusalom Fayzullayev, Mulla Amirqulxo'ja Abdunabiyev kabi yirik mulkdorlar a'zo bo'lishgan.

Tashkilot a'zolarining soni 150 kishidan oshgan. «Sho'royi Islomiya» tashkilotining rahbarlari Qozi Isoxon va Qozi Boboxon 1917-yildagi Fevral inqilobidan keyin shahar dumasiga bo'lgan saylovlarda va Ta'sis majlisiga bo'ladigan saylovlarda bolsheviklarga qarshi tashviqot olib borishgan¹. Xullas, ular 1917-yil kuzidan oldin ham bolsheviklarning qanchalik ayyor va makkor bo'lganliklarini tushunib yetishgan.

«Sho'royi Islomiya» yashirin tashkilotining a'zosi bo'lgan Mamatqul Siddiqovning tergov jarayonida (1937-yil 13-sentabrda) guvoh sifatida bergan ma'lumotga qaraganda, 1917–1921-yillar mobaynida Samarqand yaqinidagi Jomboy qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanining markazi Jomboy shahrida – Q.R. izohi) «Sho'royi Islom» deb atalgan yashirin tashkilot faoliyat olib borgan. Bu tashkilotga Qori Komil va Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev rahbarlik qilishgan. Unga quyidagi kishilar a'zo bo'lishgan: 1. Mulla Xidir Ernazarov. 2. Jamol Shodmonov. 3. Bekmirzayev. 4. Ubaydulla O'sarov. 5. Boltaboy Odilov. 6. Saidmurod. 7. Mulla Turdi Usmonov. 8. Haydar Abdurajabov. 9. Kamol Asliyev. 10. Abduhakim Qodirov. 11. Alibek Qodirov. 12. Hosilmurod Karimov. 13. Mirza Ummatyor Karimov. 14. Xudoyberdi Jonuzoqov. 15. Turdiboy Umarov. 16. Nurulla Ulug'bekov. 17. Normuhammad Pardaboyev. 18. G'ofir Jo'raboyev. 19. Orol Cho'liboyev. 20. Normat Nurboyev. Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev tashviqot olib borish uchun kadrlar tayyorlash maqsadida o'z uyida maxsus maktab tashkil qilgan². M. O'rinxo'jayev Samarqand shahri yaqinidagi Jomboy qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, u jadid maktablarida o'qigan.

Bu davrda Samarqandda «Sho'royi Islomiya» tashkiloti bilan bir qatorda «Ittihodi taraqqiyparvaron» (keyinchalik «Ittihodi taraqqiy») yashirin jamiyati ham faoliyat ko'rsatgan. Turkistondagi jadidchilik harakatining mashhur namoyandasi Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878–1931) keyinchalik qamoqxonada yozgan xotiralarida ta'kidlab o'tishicha, bu jamiyatga dastlab 7 kishi asos solgan bo'lib, ular turklar va Toshkentdan (ikki kishidan), Samarqand, turkmanlar va qozoqlardan (bir kishidan)

¹ O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-9645, 18559-ish, 10–11-varaqlar.

² O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 131–134-varaqlar.

iborat bo'lgan. Tashkilotning Samarqand sho'basiga mashhur siymo Mahmudxo'ja Behbudiy boshchilik qilgan¹.

Turkistondagi jididchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Behbudiy Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Behbudiy keyinchalik «muftiy» unvonini olib, umrining oxirigacha Jomboyda muftiylik qilgan. Behbudiyning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi² (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy tomonidan) va Rajabamin³ (Abdulqodir Shakuriy tomonidan) qishloqlarida yangi usul (jadid) maktablari tashkil topadi. Behbudiy ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishgan. Shakuriy maktabini Behbudiy 1908-yilda Samarqand shahridagi o'z hovlisiga ko'chirib olib borgan. Xullas, Behbudiy va uning safdoshlari sharofati bilan Samarqand XX asr boshlarida Turkiston mintaqasidagi jididchilik harakatining markazlaridan biriga aylanadi. Darvoqe, o'zbek dramaturgiyasining to'ng'ich asari – Behbudiyning «Padarkush» dramasi (1911-yilda yozilgan, 1913-yili nashrdan chiqqan) ham dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo'yilgan. Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida jadidlarning «Samarqand» gazetasi (1913-yildan) va «Oyina» jurnali (1913–1915-yillarda) ham nashr etilgan. Behbudiy tomonidan 1913-yilda Samarqandda «Nashriyoti Behbudiy» nomi bilan xususiy nashriyot tashkil qilingan. «Behbudiy kutubxonasi» yo'lga qo'yilgan.

1916-yilda Toshkentga kelib, «Turon» truppasining qator spektakllarini ko'rgan A.N. Samoylovich 1917-yilda shunday yozgan edi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi – Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy»⁴.

¹ Qarang: *Munavvar Qori Abdurashidxonov*. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi S. Xolboyev. – Toshkent: Sharq, 2001. 47-b; *Munavvar Qori Abdurashidxonov*. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi S. Ahmedov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. 211-b.

² Halvoyi qishlog'i hozirgi paytda Jomboy tumani hududida joylashgan.

³ Sovet davrida O'zbekiston SSR Ichki ishlar ministri va boshqa mas'ul lavozimlarda ishlagan Haydar Yahyoyev (u 1927-yili Samarqand shahrining Registon maydoni atrofidagi Shahrisabz mahallasida usta Yahyo oilasida tug'ilgan) keyinchalik yozgan xotiralarida keltirib o'tishicha, Abdulqodir Shakuriy Samarqand shahridan chekkaroqda bo'lgan Kaptarxona qishlog'idagi o'z hovlisida yangi usul (jadid) maktabini ochgan. Shakuriy o'zining mo'jazzgina bog'ida bog'bonlik qilib, bog'dan tushgan daromadni ham maktab xarajatiga sarflagan. Bu haqda qarang: *Yahyoyev H.* Tilsim. Xotira-roman. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2004. 207-b.

⁴ *Qosimov B.* Karvonboshi // Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. 12–13-betlar.

Samarqandda taraqqiyparvarlar tomonidan 1917–1918-yillarda «Hurriyat» gazetasi nashr qilingan. Gazetaga Fitrat (1886–1938), Akobir Shomansurov, Mardonqul Shomuhamedov, Hoji Muin kabi jadidchilik harakatining yirik namoyandalari rahbarlik qilishgan. Samarqand jadidlari tomonidan tashkil qilingan «Zarafshon» shirkati kutubxonasi asosiy sarmoyasi shu gazetaga sarf qilingan. 1917–1918-yillarda Samarqandda yashagan Fitrat «Hurriyat» gazetasiga muharrirlik qilishdan tashqari, Turkiston ozodligi va mustaqilligi mavzuyida oʻtli ruhdagi publitsistik maqolalarni gazetada eʼlon qilgan, nashr atrofiga fidoyi insonlarni toʻplagan. Xullas, «Hurriyat» gazetasi 1917–1918-yillarda Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlardagi siyosiy jarayonlarni yoritishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda «Hurriyat» gazetasi materiallari asosida Samarqanddagi siyosiy jarayonlarni tahlil qilamiz.

1917-yil yozida Turkistonda shahar dumalariga saylovlar boʻlib oʻtgan. Samarqandda shahar dumalariga saylov kuni sifatida 8-sentabr belgilangan. Samarqand shahar dumasidagi saylov roʻyxatiga kiritilgan jamiyatlarning tarkibi «Shoʻroyi Islomiya» jamiyatlari oʻrtasida Toshkent shahrida oʻtkazilgan saylovdan farq qilgan. Toshkentdagi saylovlarda 16 siyosiy tashkilot vakillari qatnashgan boʻlsa, Samarqandda 6 ta jamiyat oʻzaro kurash olib borgan. Bular quyidagi jamiyatlar edi: 1. Mulkdor va ulamolarning «Shoʻroyi Islomiya» jamiyati. 2. Birlashgan musulmonlarning «Zahmatkashlar ittifoqi» jamiyati. 3. Rus inqilobiyun ittifoqi. 4. Rus ishtirokiyun ittifoqi. 5. Rus yahudiylar ittifoqi. 6. Rus radikal firqasi¹.

Fitrat va Hoji Muinning «Hurriyat» gazetasida yozishlaricha, Samarqanddagi shahar dumalari uchun boʻlgan saylovda «Shoʻroyi Islomiya» jamiyati va «Zahmatkashlar ittifoqi»² nomli ikki musulmon jamiyati oʻzaro kelisha olmay, turli ixtiloflarga borishgan. Xullas, saylov natijalari gazetada quyidagi tarzda keltirilgan: «Saylov natijalariga koʻra,

¹ Hoji Muin. Shoʻroyi Islom va saylov // Hurriyat. 1917. 19-sentabr; Mingnorov A. Turkistonda 1917–1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). – Toshkent: Maʼnaviyat, 2002. 37-b.

² «Zahmatkashlar ittifoqi» yoxud «Ittifoq» jamiyati Oktabr toʻntarishidan keyin asta-sekin bolsheviklashib borgan. Holbuki, uning tarkibida jadidlar koʻpchilikni tashkil qilgan. 1918-yil may oyi oxirida «Ittifoq» jamiyati qayta tashkil qilinib, Samarqand uyezdi ishchi va dehqon deputatlarining musulmon Sovetiga (Shoʻroga) aylantirildi. Sovetning boshqaruv organi 24 kishidan iborat boʻlib, unga Xoliq Majidov rais, Qambar Shomansurov bilan Mahmud Niyozov rais oʻrinbosari, A.Bektoshev kotib qilib saylandi. Biroq, oradan koʻp oʻtmay, bolsheviklar tomonidan musulmonlarning koʻpchiligi ushbu Shoʻrodan chiqarib yuborildi. «Ittifoq» jamiyati tomonidan Musulmon maorif shoʻbasida mudir boʻlib ishlagan Behbudiy 1918-yil 9-mayda Shoʻro tomonidan Samarqand viloyati Maorif komissari etib tayinlangan.

yangi Samarqand shahar dumasiga jamiyatlardan quyidagi vakillar o'tdilar. «Sho'royi Islomiya» jamiyatidan 55 nafar vakil, «Zahmatkashlar ittifoqi» – 4 ta vakil, «Rus inqilobiyun firqasi»dan 10 ta vakil, «Rus iqtisodiyun firqasi»dan – 2 ta vakil, «Rus yahudiylari»dan – 4 ta vakil, «Rus radikal jamiyati»dan – 1 vakil ham o'ta olmaydi. Ammo shahar dumasiga saylangan 75 vakildan 41 nafari musulmon, 34 nafarini yevropaliklar tashkil etgan, bu, albatta, Samarqand «Sho'royi Islomiya» jamiyatining tutgan yo'li noto'g'ri ekanligidan dalolat beradi¹.

Demak, Samarqandda shahar dumasiga bo'lgan saylovlarda «Sho'royi Islomiya» tashkiloti a'zolari katta ustunlik bilan g'alaba qozonishgan. Biroq, 1917-yil kech kuziga kelganda Samarqandda kuchlar nisbati bolsheviklar foydasiga o'zgargan. Bolsheviklar Petrograd va Toshkentda bo'lgani singari Samarqandda ham hokimiyatni zo'ravonlik yo'li bilan egallashgan. 1917-yil 1–2-dekabrda Samarqand shahridagi hokimiyat bolsheviklar nazorati ostidagi ishchi va dehqon deputatlari Soveti qo'liga o'tgan. 4-dekabrda bolsheviklar tomonidan soldat, ishchi va musulmon deputatlari Sovetining harbiy inqilobiy komiteti (Revkom) tuzildi va u butun Samarqand shahri va viloyatidagi hokimiyatni o'z qo'liga tortib oldi.

Ma'lumki, Toshkentda bolsheviklar tomonidan hokimiyat bosib olingach, 1917-yil 15-noyabrda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) tuzilgan. Turkistondagi dastlabki sovet hokimiyati bolsheviklar va so'l eserlardan iborat bo'lib, unga F. Kolesov boshchilik qilgan. 1918-yil 20-aprel – 1-mayda Toshkentda bo'lgan Turkiston xalq komissarlari Sovetining V syezdida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzilgan. Samarqand shahri shu nomli oblast (viloyat) va uyezdning markazi sifatida 1918–1924-yillarda Turkiston ASSR tarkibida bo'lgan.

1917-yilning oxiriga kelib, Samarqand Soveti huzurida oziq-ovqat, harbiy, moliya, ma'muriy va shaharni muhofaza qilish, temiryo'l, mehnat hamda xalq maorifi seksiyalari tuzildi. Samarqand viloyati Revkomi tomonidan 1918-yil yanvarda «Sho'royi Islomiya» tashkiloti tarqatib yuborildi. 1917-yil dekabrda rus tilidagi «Свободный Самарканд» va 1918-yil aprelda o'zbek tilidagi «Hurriyat» gazetalari nashr etish taqiqlandi. Bundan tashqari, Samarqand Soveti qaroriga binoan 1918-yil 17-fevralda shahar dumasini va yer mahkamasi bekor qilindi.² «Sho'royi Ulamo» tashkilotining faoliyatiga ham keyinchalik chek qo'yildi.

¹ Hoji Muin. Sho'royi Islom va saylov // Hurriyat. 1917. 19-sentabr.

² Samarqand tarixi. 2 jild. ... 24–25-betlar.

Bolsheviklar Samarqandda hokimiyatni qo'lga olgach, butun e'tiborlarini o'zlari zo'ravonlik yo'li bilan egallagan ushbu hokimiyatni mustahkamlashga qaratishdi. Samarqandda dastlabki qizil gvardiyachilar otryadi 1917-yil noyabrda tashkil topgan. 1918-yil boshlarida Turkiston o'lkasidagi 8000 nafar qizil gvardiyachilardan 1137 kishi Samarqandda joylashtirilgan.

1918-yil bahorida esa Samarqandda dastlabki qizil armiya otryadlari tashkil qilindi. Bu paytda Samarqandda shahar militsiyasi ham qayta tuzilgan. 1918-yil 8-martda shahar Soveti huzurida Revolutsion tribunal (inqilobiy tribunal) tashkil qilinib, bolsheviklar va sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan siyosiy kuchlar, harbiy guruhlar va boshqalar ushbu tribunal hukmi bilan shafqatsiz ravishda jazolangan.

Bolsheviklar iqtisodiyot sohasida ham favqulodda choralarni qo'llab, yirik sarmoyadorlar qo'lidagi zavod va fabrikalarni davlat hisobiga musodara qilishgan¹. Masalan, 1918-yil fevralda Samarqanddagi N. Kugel bosmaxonasi musodara qilinib, bosmaxonaning xo'jayini qamoqqa olingan. 1918-yil 5-martdagi dekretga asosan, Samarqanddagi paxta tozalash, yog' va sovun zavodlarining hammasi sovet davlati mulkiga aylantirilgan. 1918-yilning birinchi yarmida boshqa bosmaxonalar, cho'yan quyish va un zavodlari, shuningdek, banklar va temiryo'l ham musodara qilingan. Sovet hokimiyati bu tadbirlarni davlat va xalq foydasiga «natsionalizatsiya qilish» deb keng jamoatchilik va xalqni munofiqarlarcha aldagan. Bundan tashqari, 1918-yil boshlarida Samarqand Soveti tomonidan xususiy korxonalarining egalariga oltin hisobida 5 mln rubl kontributsiya (soliq) solingan.

Samarqandda sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun 1918-yil may oyida Turkiston ASSR MIKning favqulodda komissiyasi shaharga keldi. Komissiya a'zolarining fikri bilan Samarqand Soveti tarqatib yuborilib, uning yangi tarkibi tasdiqlandi. Samarqand Sovetiga kirgan so'l eserlar va musulmon deputatlarining aksariyati undan chiqarib tashlandi. Bu paytda Samarqand Sovetining raisi bolshevik A.I. Frolov bo'lgan. Oradan ko'p o'tmay u Zakaspiy oblastiga favqulodda komissar qilib jo'natilgach, bolshevik V.D. Figelskiy Samarqand Soveti ijroiya komiteti raisi lavozimiga saylangan.

Samarqand aholisi vakillari mitinglarda yangi o'rnatilgan sovet hokimiyatining mustamlakachilik mohiyatini ochib tashlashgan. Masalan,

¹ O'zbekiston SSR tarixi. To'rt jildli. III jild. / Muharrir I.M. Mo'minov. – Toshkent: Fan, 1971. 129–130-betlar.

1918-yil 28-mayda Kattaqo'rg'on uyezdining Payshanba qishlog'ida bo'lib o'tgan mitingda bolsheviklar va sovet hokimiyatiga qarshi nutqlar so'zlangan. Mitingdan keyin 20 dan ortiq kishi aksilinqilobiy chiqishlar qilganlikda ayblanib, Kattaqo'rg'on inqilobiy tribunali tomonidan jazolan-gan. Ularning har biriga 5000 rubl miqdorida jarima solingan va ushbu mablag'ni to'lay olmaganlar 8 oylik qamoq jazosiga hukm qilingan¹.

1920-yili Samarqand viloyatining ko'pgina joylarida aholi ro'yxatdan o'tkazildi. Chunki 1920-yilda Butunrossiyada aholini ro'yxatdan o'tkazish kampaniyasi amalga oshirilgan edi. Viloyatning Farg'ona va Buxoro bilan chegaradosh hududlarida harbiy harakatlar davom eta-yotganligi uchun bu joylarda yashovchi aholini hisobga olishning iloji bo'lmaydi. Samarqand viloyati bo'yicha aholini ro'yxatga olish jara-yoniga I.I. Budilovich, uyezdlar bo'yicha: V.A. Aleksandrov (Jizzax), N.A. Poluboyarinov (Kattaqo'rg'on), M.I. Sheverdin (Samarqand) bosh-chilik qilishgan.

Bu yillarda ma'muriy jihatdan Samarqand viloyati tarkibida 4 ta uyezd (Xo'jand, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax), 77 ta volost, 352 ta qishloq ja-moasi va 17 ta ko'chmanchilar yashaydigan ovul mavjud bo'lgan. Uyezd-lar, o'z navbatida, 6 ta ko'chmanchi va 71 ta o'troq aholi yashaydigan volostlarga bo'lingan. Ko'chmanchilar yashaydigan volostlar ma'muriy ovullarga, o'troq aholi yashaydigan volostlar esa qishloq jamoalari yoki oqsoqolliklarga ajratilgan. Qishloq jamoalari (oqsoqolliklar) esa, o'z nav-batida, mahalliy aholi yashaydigan qishloqlarga bo'lingan. Ba'zan ayrim yirik qishloqlar o'zlarining mustaqil qishloq jamoalarini tashkil qilgan. Masalan, Samarqand shahri yaqinidagi ikkita yirik qishloq – Urgut va Chelak bir nechta qishloq jamoalariga bo'lingan². Qisqa muddat (2 yil da-vomida) Samarqand viloyati tarkibida O'ratepa uyezdi ham mavjud bo'l-gan. Keyinchalik u Xo'jand uyezdi tarkibiga kiritib yuborilgan.

1920-yildagi Samarqand viloyatining ma'muriy bo'linishiga ko'ra, Sa-marqand uyezdida 26 ta o'troq aholi yashaydigan volost va 137 ta qish-loq jamoasi, Kattaqo'rg'on uyezdida 16 ta volost va 75 ta qishloq jamoasi mavjud bo'lgan.

Samarqand uyezdidagi 26 ta volost quyidagilardan iborat bo'lgan: Ma-halla, Siyob, Jumabozor, Halvoyi, Kabud, Yangi Qozonariq, Qoraqalpoq,

¹ Samarqand VDA (Samarqand viloyati davlat arxivi), 886-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 107-varaq.

² Материалы Всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть 1. Поселенные итоги. Выпуск V-й. Поселенные итоги Самаркандской области. – Ташкент: Издание ЦСУ Туркестанской Республики, 1924. С. 2–4.

Eshimoqsoq, Chelak, Shahob, Angor, Xoja Ahror, Joydivon, Dahbed, Daul, Polvonariq, Urgut, Tuyatortar, Qoratepa, Panjikent, Chashmayi-ob, Kishtut, Magian-Forob, Falgar, Oftobro'yin, Iskandar. Kattaqo'rg'on uyezdidagi 16 ta volost esa quyidagicha bo'lgan: Payshanba, Joyshagir, Sirg'ali, Mingariq, Xo'jaariq, Yangiqo'rg'on, Naukin, Mitan, Kalqo'rg'on, Damariq, To'rtko'l, Yorboshi, Oqtepa, Chimboy, Tusun, Jom'. Bundan tashqari, Samarqand viloyati tarkibiga kirgan Jizzax uyezdida 20 ta volost (6 ta ko'chmanchilar, 14 ta o'troq aholi yashaydigan volostlar) va Xo'jand uyezdida 15 ta volost mavjud bo'lgan. Jizzax uyezdidagi volostlarga quyidagilar kirgan: Otaqo'rg'on, Bog'don, Zomin, Qoratosh, Qizilqum, Ko'ktepa, Qo'rg'ontepa, Nakrut, Rabod, Sangzor, Sauryuk, Sentab, O'zbek, O'smat-Qatortol, Forish, Pistalitosh, Xadicha-Mukur, Chordara, Yom, Yangiqo'rg'on. Xo'jand uyezdida esa quyidagi volostlar mavjud bo'lgan: Ganchi, G'o'lakondozi, Nov (Nau), Savat, O'njin, O'ratepa, Kostako'z, O'rol, Bosmandi, Boqcha-Isfana (Isfara), Dalyan, Shahrison, Chapkuluk, Matcho (Matchi), Boqsa-Sebergan².

1920-yili Samarqand shahrida 82316 kishi (harbiy qism askarlari bu hisobga kirmaydi) yashagan. Samarqandliklarning 67 % (55178 kishi) mahalliy aholidan, qolgan 33 % (27138 kishi) ruslar (yevropaliklar)dan iborat bo'lgan. Bu yillarda Samarqand viloyatida 6 ta shahar bo'lib, uyezd shaharlari hisoblangan Jizzaxda 13933 kishi, Kattaqo'rg'onida 12864 kishi, Xo'jandda 36284 kishi, shuningdek, Samarqand uyezdidagi Panjikentda 3145 kishi, Xo'jand uyezdidagi O'ratepada 18980 kishi yashagan³.

1920-yili Samarqand shahrida 16327 xonadon yashagan bo'lib, ular shaharning Qalandarxona (2048 xonadon), So'zangaron (2720 xonadon), Xayrobod (2575 xonadon), Xoja Ahror (2562 xonadon), Buxoro yahudiy-lari slobodkasi mavzelari (1214 xonadon) va ruslar yashaydigan qismida (5208 xonadon) istiqomat qilishgan. Bu paytda Samarqand viloyati shaharlari bo'yicha hammasi bo'lib 35626 xonadon bor edi. O'sha 1920-yili Samarqand viloyati qishloqlarida hammasi bo'lib 111493 xonadon mavjud bo'lib, ularning yarmidan ortig'i – 55462 xonadon faqat Samarqand uyezdida yashagan.

Xullas, 1920-yildagi Butunrossiya aholi ro'yxatiga binoan Samarqand viloyatida hammasi bo'lib 681864 kishi (ro'yxat o'tkazilmagan volost-

¹ Материалы Всероссийских переписей 1920 года... Выпуск V-й. С. 20.

² Материалы Всероссийских переписей 1920 года... Выпуск V-й. С. 2-17, 74-78; Статистический справочник по Самаркандской области. – Самарканд: Изд. Самаркандского облисполкома, 1924. С. 2-4.

³ Материалы Всероссийских переписей 1920 года... Выпуск V-й. С. 6.

larni ham qo'shganda taqriban 792649 kishi), jumladan, Samarqand uyezdida 338300 kishi (ro'yxat o'tkazilmagan volostlarni ham qo'shganda taqriban 362950 kishi), Kattaqo'rg'on uyezdida 124668 kishi, Jizzax uyezdida 103297 kishi, Xo'jand uyezdida 115599 kishi (ro'yxat o'tkazilmagan volostlarni ham qo'shganda taqriban 201734 kishi) istiqomat qilgan¹.

2-§. Samarqandda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat

1918-yildan boshlab Samarqandda siyosiy va harbiy vaziyat keskinlashdi. Turkiston mintaqasida boshlangan sho'ro hokimiyatiga qarshi qurolli harakat 1918-yil yozidan boshlab Samarqand viloyatida ham keng tarqalgan. Samarqand viloyatidagi qurolli vatanparvarlarga (sovet davrida ular «bosmachilar» deb atalgan) Ochilbek (1883–1923) va Bahrombek (?–1922) kabi qo'rboshilar boshchilik qilganlar. Samarqand uyezdida Qoraqulbek, Hoji Abdulqodir, Mulla Karimjon, Islom; Jizzax uyezdida Niyozbek (Ma'mur Niyozbek), Turobbek, Abdulhamidbek, Mulla Hamroqul; Xo'jand uyezdida Xolbo'tabek, Norqo'zi, Masharif, Turdiboy, Tursunboy, Mulla Javlon, Muhammad Murod kabi qo'rboshilar² bolsheviklar va ularning harbiy kuchlari bo'lgan qizil armiyaga qarshi kurashga rahbarlik qildilar³.

Shu o'rinda Samarqanddagi qurolli harbiy muxolifatga yetakchilik qilgan Ochilbek va Bahrombek kabi qo'rboshilar hayoti va faoliyati xususida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki Samarqand viloyatidagi qo'rboshilar o'rtasida Ochilbek va Bahrombek alohida ajralib turadi.

Ochilbek Jo'raboy o'g'li taxminan 1883-yilda Samarqandning sharq tomonidagi Qo'shtamg'ali qishlog'ida tug'ilgan, o'zbeklarning nayman urug'idan bo'lgan. 1917–1923-yillarda Turkiston mintaqasidagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lgan Ahmad Zakiy Validiy To'g'on (1890–1970)ning keyinchalik guvohlik berishicha, «Ochilbek yirik gavdali, juda mehr-muhabbatli kishi... Nihoyatda jasur, axloq-odobli, mehr-oqibat-

¹ Материалы Всероссийских переписей 1920 года... Выпуск V-й. С. 14–16.

² Farg'ona VDA (Farg'ona viloyati davlat arxivi), 435-fond, 1-ro'yxat, 44-ish, 76-varaq va uning orqasi.

³ Bu haqda qarang: Раджабов К.К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918 – 1924 гг.). Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2005. С. 64; Тожибоев В.М. Самарқанд вилоятida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat (1918–1926-y.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Andijon, 2019. 52-b.

li, avvaldan o'ylab ish yuritadigan, halol bir inson. Rossiya va dunyo siyosati haqida gazetalarni o'qib, fikr qiladi»¹.

Turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchining yozishicha, «Ochilbek Samarqand va uning tevaragida mustahkam hokimlikka erishgan kuchli bir qo'rboshidir. Samarqand – Zarafshon vodiysi hududidagi Matcho tog'lari etaklariga qadar bo'lgan joylarda Ochilbek yagona hokim bo'lgan... Kurash boshlashdan avval uzoq muddat Toshkentda bo'lgan, ruschani o'rgangan, jadid maktablari ta'sirida madaniy saviyasini orttirgan... Ochilbek vataniy axloqqa ega, jasur, vazmin tabiatli shaxsiyat sohibidir. Qo'rboshilikni boshlashdan avval u Buxoro amirining amakisi Said Akram To'raning xizmatida bo'lib, askarlikni o'rgangan»².

1918-yil oxirlaridan boshlab Ochilbek qizil askarlarga qarshi kurashni boshladi. U jasur va mardligi uchun xalq orasida Ochil Dov (Ochil dev) sifatida tanildi. Tez orada u Samarqand viloyatidagi qo'zg'olonchilarning rahbariga aylandi. 1921-yildan boshlab Ochilbek milliy ziyolilar tomonidan tuzilgan «Turkiston Milliy Birligi» (TMB)³ tashkiloti ko'rsatmalari asosida faoliyat ko'rsatib, o'z harakatlarini kuchaytirdi. Bu paytda uning qo'l ostida 4000–5000 yigit bo'lgan. Ochilbek huzurida TMB vakili ziyoli Qori Komil, Chelak ulamolari naslidan Katta Maxdum, Kichik Maxdum, Samarqand viloyati qoraqalpoqlaridan Ochil To'qsabo siyosiy maslahatchilar sifatida ish olib bordilar.⁴ 1920–1923-yillarda Ochilbek qo'rboshining ixtiyorida 5000 yigit bo'lgan. Bektosh Nazrullayev 1921–1923-yillarda Ochilbek qo'rboshining kotibi vazifasini bajargan. «Ittihodi islom» yashirin tashkiloti o'z vakillari orqali Ochilbekni g'oyaviy jihatdan ruhlantirib turgan⁵.

Samarqand yaqinidagi Urgutda Hoji Abdulqodir, Kattaqo'rg'on tevaragida Qoraqulbek (qarluq urug'idan), Jizzax atrofida Niyozbek (Ma'mur

¹ *Zeki Velidi To'g'ma*. Hatiralar. Turkistan ve Dider Musluman Dogu Turklerini Milli Yarlik ve kultur Mucadeleleri. 2-baski. Ankara, 1999. S. 339, 352.

² *Ali Bademci*. 1917–1934. Turkistan Milli Istiklal Hareketi ve Enver Paca. Korbasilar. Istanbul, 1975. 1-cilt. S. 502.

³ «Turkiston Milliy Birligi» – Turkiston taraqqiyparvarlari tashkil qilgan siyosiy tashkilot (1921–1942). U dastlab «O'rta Osiyo milliy musulmon jamiyatlari federatsiyasi» nomi bilan Buxoroda 1921-yil avgustda tuzilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi Turkiston mintaqasining to'liq mustaqilligiga erishib, yaxlit davlat tuzish bo'lgan. Validiy tashkilotning Markaziy Qo'mitasi (MK) raisi etib siylangan. MK tarkibiga Turkistonning nufuzli siyosiy arboblari kirgan, tashkilotning dasturi tasdiqlangan. «Turkiston Milliy Birligi» bilan «Milliy Ittihad» tashkiloti o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan.

⁴ *Раҳжабов К.К.* Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918–1924 гг.). Автореферат дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент, 2005. С. 51.

⁵ O'zbekiston RMXXA, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 171-vaq.

Niyozbek)¹ va Turobbek², Sangzorda Abdulhamidbek, Qo'ytoshda Mulla Hamroqul, Matcho bekligida Asrorxon, Nusratshoh va Hamidbek, O'ratepada Xolbo'tabek kabi qo'rboshilar Ochilbek rahbarligida faoliyat ko'rsatishgan.

Mulla Hamroqulning odamlari Qizilqum orqali Sirdaryo atroflari va Xorazmdagi qo'zg'olonchilar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishgan. Samarqand va Jizzaxdan jo'natilgan maktub o'n kun ichida Xivaga borib kelgan. Bu o'sha davr aloqa vositalari uchun yaxshi ko'rsatkich edi³. Hamroqul qo'rboshi 1927-yilgacha Samarqandda sovet tuzumiga qarshi qurolli kurash olib borib, so'ngra Afg'onistonga chiqib ketgan⁴.

Xullas, Samarqand viloyatida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat Ochilbek, Bahrombek, Hamroqulbek kabi yirik qo'rboshi guruhlari tomonidan tashkil qilingan. Bu fikrni arxiv hujjatlari ham isbotlaydi. Samarqand atroflaridagi qo'rboshilar guruhlari sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishni maqsad qilib qo'ygan «Milliy Ittihad» («Ittihodi taraqqiy»)⁵ va boshqa yashirin milliy tashkilotlar bilan mustahkam aloqa-

¹ Ma'mur Niyozbek Jizzaxning Jom qasabasidan, qirq-sadoq urug'idan edi. 1916-yil qo'zg'olonida qatnashgan. Istiqlolchilik harakati mag'lubiyatga uchrach, u xorijga jo'nab ketdi. Ma'mur Niyozbek keyinchalik Turkiyaga kelib, Usmon Xo'ja va Validiyga «Yangi Turkiston» jurnalini nashr qilishda yordam berdi. Temiryo'l qurilishi idoralarida ishladi. 1929-yili u Tovshonli shahrida vafot etdi.

² Turobbek xorijga jo'nagach, Eronda bolsheviklar qo'liga tushib qoldi. Mashhaddan yashirincha olib chiqilib, uzoq qiynoqlardan keyin u Toshkentda qatl qilindi. Turkistondagi istiqloqchilik harakati tarixi to'g'risida Turobbekning Xurosondan turib Validiyga yozgan xatlarida muhim ma'lumotlar saqlanib qolgan.

³ *Rajabov Q. Ochilbek va Bahrombek qo'rboshilarning Samarqanddagi faoliyati // «O'zbekiston tarixi va arxeologiya fanlarining dolzarb muammolari» Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2003-yil 27–28-noyabr. – Samarqand, 2003. 154–158-betlar.*

⁴ O'zbekiston RMXXA, P-554335, 670-ish, 12-jild, 225-varaq.

⁵ «*Milliy Ittihad*» – Turkiston jadalari tomonidan tashkil etilgan yashirin milliy tashkilot (1919–1925). «Milliy Ittihad» tashkiloti Turkiston taraqqiyparvarlari Munavvar Qori va Sadridinxon Sharifxo'jayev tashabbusi bilan Toshkentda tuzilgan. «Turk Adami Markaziyat (Federalistlar) firqasi» (1917-yil iyul), «Ittihad va taraqqiy» («Ittihodi taraqqiy», 1917–1919-yillar) yashirin tashkilotlari asosida tashkil topgan. «Milliy Ittihad» tashkiloti bolsheviklar rejimiga qarshi kurashda sovet muassasalarida xizmat qilayotgan milliy rahbar xodimlarga tayangan va o'z oldiga Turkistonda milliy mustaqil davlatni barpo etish maqsadini qo'ygan. Tashkilotning o'zagini o'z vatanining mustaqil bo'lishi yo'lida kurashga tayyor bo'lgan taraqqiyparvar ziyolilar tashkil etdilar. Bu taraqqiyparvarlar o'rtasida samarqandlik ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil qilgan. 1920-yildan boshlab tashkilotning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Xorazm sho'balari tashkil qilingan. 1920-yil noyabrda Munavvar Qorining Buxoroga borishi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif nozirligida vaqf bo'limi mudiri vazifasida ishlashi bilan tashkilot markazi Toshkentdan Buxoroga ko'chgan. Ahmad Zakiy Validiyning Buxoroga kelishi va «Turkiston Milliy Birligi» tashkiloti tuzilishi bilan (1921-yil avgust) «Milliy Ittihad» faoliyati yanada kuchaydi. O'zbekiston SSR tashkil

da bo'lib, ularning yo'l-yo'rig'i bilan ish olib borib, ushbu tashkilotlarning moddiy va ma'naviy ko'magi bilan faoliyat yuritgan. Hatto qo'rboshilar va ularning yigitlaridan ko'pchiligi yashirin milliy siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lishgan.

«Milliy Ittihad» tashkilotining Samarqand shahri va Jomboy qishlog'ida sho'balari mavjud bo'lgan. Jomboydagi «Sho'royi Islom» tashkiloti 1921-yilgacha faoliyat ko'rsatib, so'ngra u «Milliy Ittihad» tashkilotining Jomboydagi sho'basiga aylantirilgan edi. Qori Komil va Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev aholini sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borishga chaqirgan. «Milliy Ittihad» tashkilotiga «Sho'royi Islom»dan Mulla Turdi Usmonov, Saidmurod Bekmirzayev, Mirza Karim, Turdiboy Umarov, Nurmuhammad Pardayev, G'ofir Jo'rayev va boshqalar o'tgan. «Milliy Ittihad» tashkilotiga kirmagan ko'pchilik kishilar esa qo'rboshilar guruhlariga borib qo'shilgan. Bu guruhlarining biriga Qori Komil rahbarlik qilgan bo'lib, u qizil askarlarga qarshi 1923-yilda bo'lgan janglarning birida halok bo'ladi¹.

«Milliy Ittihad» tashkilotining Samarqand sho'basiga quyidagi kishilar a'zo bo'lgan: 1. Qozi Haydarbek Abdusaidov, 2. Abduhakim Qurbiy, 3. Abdulqodir Shakuriy, 4. Abduaziz Abdug'afforov, 5. Faxriddin Rojij Nazritdinov, 6. Qori Zokir Hamidboyev, 7. Ismatulla Rahmatullayev, 8. Zayniddin Nazritdinov, 9. Mirzahalil Karimov, 10. To'laboy Jo'rayev, 11. Mulla Sulton Hakimberdiyev, 12. Mirzaquli Nizomiddinov, 13. Mulla Lutfulla Rahmatullayev, 14. Tilov Rahmatullayev, 15. Salohiddin Sulaymonov, 16. Mulla Nazarbek Abdujaborov, 17. Qozi Baqoxon Abdullaxo'jayev, 18. Hoji Muin Shukrullayev va boshqalar. Hujjatlarda keltirilishicha, «Milliy Ittihad» tashkilotining ko'p a'zolari 1920–1923-yillarda Samarqandda hokimiyatning yuqori lavozimlarini egallab, sovet hokimiyatiga qarshi yashirin kurash olib borgan.²

Bu davrga oid arxiv hujjatlarida «Ittihodi islom» nomli yashirin tashkilotning Samarqand sho'basini faoliyati to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud.

topgach, GPU tomonidan har tomonlama siyov ostiga olingan «Milliy Ittihad» tashkiloti 1925-yil boshlarida o'zini tarqatilgan, deb e'lon qiladi va keyinchalik uning asosida «Milliy Istiqlol» tashkiloti tuziladi. Bu yashirin tashkilot 1926–1929-yillarda mavjud bo'lib, uning faoliyatida Salimxon Tillaxonov muhim rol o'ynaydi. Har ikki tashkilot saflarida ko'plab samarqandliklar bo'lishgan. 1929-yil noyabrda Toshkentda Munavvar Qori boshchiligidagi 38 kishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetdi) bu tashkilotning a'zosi sifatida qamoqqa olindi. So'ngra tergov jarayoni Toshkentdan Moskvaga ko'chirildi va ular qatag'on qilindi.

¹ O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 190–192-varaqlar.

² O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 215-varaq.

1923-yilda Akobir Shomansurovning tavsiyasi bilan Narzullabek Rustamov «Ittihodi islom» nomli yashirin tashkilotga a'zo bo'lib kirgan. Tashkilotning Samarqand viloyatidagi sho'basida viloyat qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, uni quyidagi kishilar boshqargan: 1. Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev, 2. Mirjamolov, 3. Bahriddin Sharipov, 4. Murodjon Fayzullin. Tashkilotning Samarqand shahar qo'mitasiga esa quyidagi kishilar a'zo bo'lgan: 1. Qori Zokir Hamidboyev, 2. Abduvahob Ma'rufjonov, 3. Shoqobil Karimov, 4. Abduaziz Abdug'afforov. Tashkilot rahbarlaridan biri Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev bilan Ochilbek qo'rboshi yaqin do'st bo'lishgan. Tashkilotda maorif ishlariga dastlab Akobir Shomansurov, keyin esa Abdumajid Zokiriy, Ma'rufjon Rasuliy va Topiboldi Rahmonberdiyev rahbarlik qilishgan. Yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish bilan M. O'rinxo'jayevning o'zi shug'ullangan. Tashkilotning ichki tashkiliy ishlari bilan Mirzaboyev shug'ullanib, uning qo'lida yashirin tashkilotga tegishli bo'lgan barcha hujjatlar, jumladan, tashkilot ustavi, majlis qaydnomalari, tashkilot xazinasi va a'zolarining ro'yxati saqlangan¹.

Said Murod qo'rboshi, Dodhohbek, Sariqulboy singari qo'rboshilar rahbarligidagi kichik guruhlar esa aksariyat hollarda mustaqil va tarqoq faoliyat yuritishgan bo'lib, lekin ularning ham ba'zan yirik qo'rboshilar qo'l ostida faoliyat ko'rsatganligi va ularning o'zaro aloqada bo'lganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan².

Bahrombek Samarqand yaqinidagi Dehnav qishlog'ida tug'ilgan, turkiy bahrin urug'idan bo'lgan. Ba'zi manbalarda yozilishicha, XX asr boshlarida Bahrombek va uning yaqin do'sti Hamroqulbek Samarqand yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida Abdulqodir Shakuriy (1875–1943) ochgan Samarqanddagi dastlabki jadid maktabida birgalikda tahsil olishgan. Bahrombek jadidchilik g'oyalarining faol tarafdori bo'lib, Turkiston mustaqilligi uchun dadil kurashgan³. Uning qo'l ostida 2000 dan ortiq yigit bo'lib, xususan, u tojiklar o'rtasida katta shuhrat qozongan edi. Umuman, Samarqand qo'rboshilarining aksariyati jadid maktablarining sobiq o'quvchilari bo'lib, ularga Turkiston taraqqiyparvarlarining turkchilik va turonchilik g'oyalari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun TMBning Validiy boshchiligidagi a'zolari Samarqand qo'rboshilari o'rtasida g'oyaviy va tashkiliy ish olib borishda unchalik qiynalishmaydi.

¹ O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 171–173-varaqlar.

² Samarqand VDA (Samarqand viloyati davlat arxivi), 31-fond, 1-ro'yxat, 205-ish, 15–17-varaqlar.

³ O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti arxivi, P-55335, 670-ish, 12-jild, 225-varaq.

Bahrombek ham Ochilbek singari rus tilini puxta bilgan. Bahrombekning yaqin yordamchisi Samarqand atrofidagi Past qishloqdan (Pastdarg'omdan) chiqqan Hamroqulbek edi. Hamroqulbek ham oriyatli, qahramon, o'qimishli shaxs bo'lgan¹.

Samarqand viloyatida olib borilgan istiqloq janglaridan keyin, 1922-yil yozida Bahrombek bilan bolsheviklarning vakillari Nazir To'raqulov va boshqalar o'rtasida o'zaro sulh tuzish uchun muzokaralar bo'lgan. Shakuriy domla unda vositachilik vazifasini o'tadi. Samarqanddagi Registon maydonida, Sherdor madrasasi oldida imzolangan sulh bitimiga binoan Bahrombek o'zining 200 ta eng yaqin safdoshlari bilan muayyan shartlar asosida sovet hokimiyati tomoniga o'tdi. Biroq bolsheviklar va qizil armiya qo'mondonligi Bahrombekni jisman yo'qotish uchungina unga sulh taklif qilgan edi. Sulhdan keyin Bahrombek qamoqqa tashlandi. Bunday subutsizlikni ko'rgan Turkiston ASSRdagi milliy rahbar xodimlar Bahrombekni xavfdan ogohlantirib, tutqunlikdan uni ozod qildilar.

Tarkiston ASSR XKS raisi Q. Otaboyev, Turkiston ASSR MIK raisi A. Rahimboyev, Turkiston Kompartiyasi MK raisi N. To'raqulov, Samarqand viloyatida «bosmachilik»ka qarshi kurash troykasi raisi Serg'oziyev kabi milliy arboblari Bahrombek qo'rboshini ozod qilganliklari uchun 1922-yil sentabrda bu mas'ul lavozimlardan olib tashlandilar². Afsuski, Bahrombek (Abdug'ofurov) va ukasi Shahriyor qo'rboshi oradan ko'p o'tmay chekistlar (Favqulodda komissiya xodimlari) tomonidan qo'lga olindi va Samarqandda otib o'ldirildi. Biroq kommunistik propaganda tomonidan bu jarayon buzib talqin qilindi va Ochilbek qo'rboshi Bahrombekni o'ldirgan, degan yolg'on xabar tarqatildi. Bahrombekning boshqa ukasi Bo'yan ham chekistlar tomonidan avval otib tashlangan edi³. Bundan tashqari, Samarqand viloyatidagi qizil armiya qismlarining rahbarlari Snitko, Volkov, Baranovlarning buyrug'i bilan Bahrombek, Shahriyor, Ochilbek, Hamroqulbek kabi qo'rboshilarning yaqin qarindoshlaridan 5 kishi otib tashlandi⁴.

¹ Validiyning yozishicha, Hamroqulbek keyinchalik Istanbulga kelgan. Uning muhojirlikdagi hayoti asosan Afg'onistonda kechdi.

² Qarang: Mahmudov M. Bahayot siymolar. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. 85-b.

³ O'zbekiston MDA (O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi), 17-fond, 1-ro'yxat, 45-ish, 126-varaq; 3-ro'yxat, 25-maxfiy ish, 90-varaq.

⁴ Rajabov Q.K. Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat (1918–1924-yillar). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2005. 280–281-betlar.

Sovet hokimiyati istiqlolchilarga qarshi kurashda barcha vositalardan shafqatsiz ravishda foydalangan. Xususan, inqilobiy tribunallar tashkil qilinib, ular muxolifat vakillarini ayovsiz jazolashgan.

Tarixdan ma'lumki, 1918-yil 14-sentabrda Turkiston ASSR MIK huzurida Oliy inqilobiy tribunal tashkil topgan. Inqilobiy tribunallar har qanday vaziyatda ham ishni sovet hokimiyati foydasiga hal qilgan. Jazo qo'llashda ham cheklanmagan vakolatlarga ega bo'lgan tribunallar hukmi ustidan hech qanday shikoyat berishning iloji bo'lmagan. Hukm qat'iy hisoblanib, u tezda ijro qilingan. 1919-yil 6-mayda Turkiston ASSR MIK «Turkiston Oliy inqilobiy tribunali to'g'risida» hamda «Viloyatlardagi inqilobiy tribunallar va uning bo'linmalari to'g'risida» deb nomlangan nizomlarni qabul qilgan¹. Ushbu nizomlarga muvofiq, 1919-yili Samarqand viloyati inqilobiy tribunali hamda uyezdlar va shaharlarda uning bo'limlari tashkil etilgan. Inqilobiy tribunal tarkibida rais, kotib, mirzo va 40 ta a'zo faoliyat ko'rsatgan. Tribunalda 6 kishidan iborat maxsus favqulodda komissiya ham ish yuritgan². Tribunal tomonidan «inqilob dushmanlari» tergov va sud qilinmasdan otib tashlangan. Shuningdek, favqulodda «uchlik» guruhlari (troykalar) tashkil qilinib, ularga ham keng vakolatlar berilgan. Samarqand va O'ratepa uyezdlarida ana shunday «uchlik» guruhlari 1921-yilda tashkil qilingan³. Sovet hokimiyatining ushbu jazo organi xalq ommasini qatag'on qilish bilan shug'ullangan.

Sovet hokimiyati tomonidan o'tkazilayotgan qatag'on siyosatiga qaramay, Samarqand viloyatidagi istiqlolchilik harakati 1919-yilning bahoriga kelib, avjiga chiqqan. Viloyatda Ochilbek boshchiligidagi yigitlarning hujumlari natijasida Zarafshon vohasidan boshlab Turkiston va Zarafshon tog' tizmalariga qadar bo'lgan joylarda sovet hokimiyati tugatildi. Buxoro amirligiga qarashli sobiq Matcho bekligi⁴ (markazi – Oburdon qishlog'i) hududi bu paytda Samarqand viloyati tarkibida bo'lib, qizil askarlar bu yerda sovet hokimiyatini o'rnatish uchun tez-tez bosqinlar uyushtirib turar edi. Samarqand istiqlolchilari bilan Matcho begi Ahmadbek (Said Ahmadxo'ja)ning harbiy qismlari birlashib, qizil armiyaning bu bosqinchilik hujumlarini muvaffaqiyatli ravishda qaytarib turgan.

1919-aprelda Matcho qo'rboshilari Asrorxon (Ahmadbekning ukasi), Nusratshoh, Hamidbekning dastalari va Ochilbek boshchiligidagi yigitlar O'ratepani qizil askarlardan ozod qilib, Matcho orqali Farg'ona istiqlol-

¹ O'zbekiston MDA, 17-fond, 1-ro'yxat, 1034-ish, 21-varaq.

² Samarqand VDA, 31-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 2-varaq.

³ «Известия» (Ташкент). 1921, 11 ноября.

⁴ Matcho tumani hozirgi paytda Tojikiston Respublikasi Sug'd viloyati tarkibida.

chilari bilan Buxoro amirligi o'rtasida bevosita harbiy aloqalar o'rnatish uchun yo'l ochishdi. Matchodan Xo'jand, Panjikent va Samarqandga doimiy ravishda hujum qilib turildi¹.

1920–1921-yillarda ham Samarqand va uning atroflarida qizil armiyaga qarshi ozodlik janglari qizib ketdi. O'sha yil bahorida Matchodagi qo'shin boshilar o'z harakatlarini faollashtirdilar. 3000 kishilik qo'shin Zarafshon daryosi vohasidan to uning boshlanish joyi bo'lgan Rarz qishlog'igacha bo'lgan hududni egallashdi. Ular Panjikent orqali Samarqandga harbiy yurish qilishga tayyorgarlik ko'rdilar. 1920-yil 30-martda Turkiston fronti qo'mondoni M.V. Frunze qizil armiya qismlariga ularga qarshi ommaviy ravishda hujumga o'tish uchun buyruq berdi. Bu jangda matcholiklar mag'lubiyatga uchragan bo'lishlariga qaramay, ular beklik hududining asosiy qismini dushman bosqinidan saqlab qola oldilar. Matcho qo'zg'olonchilari yana ko'p yillar davomida bosqinchilarga qarshi fidokorona kurashdilar².

Arxiv hujjatlarida Samarqand viloyatida istiqloqlilik harakati avj olayotganligi, ayniqsa, bu jarayon Samarqand shahri atroflarida, ya'ni Samarqand uyezdida shiddatli tus olayotganligi ta'kidlanadi. Qizil armiya qo'mondonligi va sovet hukumati rahbariyati tomonidan mahalliy ma'muriyatga hududning jug'rofiy joylashuvini, mahalliy urf-odatlarini yaxshi biladigan yerli xalqdan otliq guruhlar tuzib, ularni qo'rboshilar dastalariga qarshi jangga tashlash kerakligi hamda mahalliy aholi o'rtasida bolshevistik tashviqot va targ'ibotni kuchaytirib, ularni «bosmachilar» ga qarshi ommaviy kurashga chorlash zarurligi aytilgan³.

Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasining 1921-yil 15-noyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida «bosmachilik» harakatiga qarshi kurash masalasi maxsus muhokama qilingan. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat viloyatning barcha hududlarida, ayniqsa, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarida keng quloq yoyganligi e'tirof etilgan. Qizil askarlar va militsiya tomonidan ularga qarshi olib borilayotgan janglar natijasiz tugaganligi, buning uchun sovet qo'mondonligi eng keskin choralarni qo'llashi lozimligi, viloyatdagi militsiya tarmoqlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan. Xullas, Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi qoshida favqulodda «uchlik» guruhi tashkil etilib, unga keng vakolatlar berilgan⁴. Bunday gu-

¹ Rajabov Q.K. Ko'rsatilgan dissertatsiya. 128–129-betlar.

² Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я. Раджапова. – Ташкент: Шарк, 2000. С. 242.

³ Samarqand VDA, 31-fond, 1-ro'yaxat, 35-ish, 38-varaq.

⁴ O'zbekiston MDA, 33-fond, 1-ro'yaxat, 435-ish, 14-varaq.

ruhlar faoliyati natijasida faqat Samarqand uyezdida 1921-yil oxirlarida yuzdan ortiq qo'zg'olonchilar qo'lga olinib, otib tashlangan¹.

Shuningdek, O'ratepada qizil askarlarga qarshi kurashayotgan mashhur qo'rboshi Abdul Qodirxon sovet hokimiyati vakillari bilan muzokara olib borib, shartnoma tuzgan. Bu shartnomaga ko'ra, Abdul Qodirxon o'z bayrog'i, tug'i va muhrini sovet hokimiyati vakillariga topshirib, ixtiyoridagi yigitlari bilan qurolli qarshilikni to'xtatgan². Sovet hokimiyati Abdul Qodirxon va uning yigitlarining xavfsizligini ta'minlash va ularning ozod yurishiga kafolat bersa ham, keyinchalik o'z fikridan qaytib, ularni qatag'on qilgan.

1921-yilning boshlariga kelganda, Samarqand viloyatida istiqlochilik harakati avj olib ketgan. Samarqand uyezdi ijroiya qo'mitasining 1922–1923-xo'jalik yilidagi faoliyati yoritilgan hisobotda ko'rsatilishicha, 1921-yilning oxiridan to 1922-yilning o'rtalarigacha Farg'ona vodiysida «boshmachilik» harakatining katta portlashi yuz berdi va harakat Samarqand viloyatiga ham ko'chib o'tib, tez rivojlandi. Hisobotda yana aytilishicha, bu harakat kuchayishining sababi dehqon xo'jaligining vayron bo'lishi va mahalliy xalq turmushini hisobga olmaslik bo'lgan³.

1922-yil may oyining boshlarida qo'zg'olonchilar otryadi Kattaqo'rg'on uyezdining Qirqyigit qishlog'ida sovet muassasalariga hujum qilganlar. Ular qishloq sho'rosi, rayon militsiya idorasini, shuningdek, Mitan volosti ijroqo'mi binosini egallab, bu yerdagi butun qurol-aslahalarni qo'lga kiritishgan.

1922-yil avgust oyining boshlarida Qoraqulbek qo'rboshi boshchiligidagi 35 nafar kishi Kattaqo'rg'on uyezdining Kalqo'rg'on volostidagi Qorako'l qishlog'iga kirishgan va bu yerda sovet hokimiyatini tugatishgan. Samarqand shahridan yetib kelgan katta miqdordagi qizil askarlarning hujumidan so'ng istiqlochilar qishloqdan chekinishga majbur bo'lishgan⁴. Mazkur davrda bunday janglar Samarqand yaqinidagi yirik qishloqlarning har birida bo'lib turgan.

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining 1922-yildagi hisobotida ta'kidlanishicha, bu paytda qurolli harakat vakillari sovet hokimiyatiga qarshi kuchli tashviqot ishlarini olib borishgan. Bu jarayon, ayniqsa, Xo'jand, Samarqand, Jizzax uyezdleri va O'ratepada avj olib, bu hududlardagi qurolli harakat guruhlarining safi tobora kengayib borgan.

¹ Samarqand VDA, 31-fond, 2-ro'yxat, 51-ish, 14-varaq.

² «Известия» (Ташкент). 1921, 15 ноября.

³ Samarqand VDA, 65-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 63-varaq.

⁴ Samarqand VDA, 1656-fond, 1-ro'yxat, 4-ish, 30-varaq.

Istiqlolchilik harakatining ta'siri nafaqat qishloqlarda, balki shahar atrof-lari va Samarqand shahri bo'sag'asida ham kuchli bo'lgan. Sovet hoki-miyati tomonidan yuritilgan adolatsiz siyosat, xalq qo'lidan oziq-ovqat mahsulotlari va g'allaning tortib olinishi, xususiy mulkning bekor qilini-shi va dindorlarga nisbatan tazyiqning ortishi bolsheviklarga nisbatan ja-miyatdagi barcha tabaqalar o'rtasida norozilik va qahr-g'azabni kuchay-tirdi. Ko'plab kishilar qizil armiyaga qarshi kurashayotgan vatanparvarlar safini to'ldirishgan.

Xo'jand uyezdidagi Ganchi volosti bu paytda O'ratepadagi istiqlochi-lik harakatining muhim markazi hisoblangan. Ganchi volostidagi Mujum qishlog'ida yashovchi Xolbo'ta Eshon «Sho'royi Islomiya» tashkilotining a'zosi bo'lib, u 1917-yili shu tashkilot tomonidan shariat qozisi lavozimiga tayinlangan. Oktabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar va sovet hukuma-tining islom diniga qarshi turganligi, xalqning urf-odatlarini va an'analari poymol etilayotganligini ko'rgan Xolbo'ta Eshon sovet hukumati (sho'ro-lar)ga qarshi tashviqotni avj oldirgan. Xolbo'ta Eshonni sovet hokimiyati nohaq ravishda 2 oy davomida qamab qo'ygan. U qamoqdan chiqqach, istiqlochlilar safiga qo'shilib, sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan. Qi-zil askarlarga qarshi olib borilgan murosasiz janglarning birida Xolbo'ta Eshon o'zining 80 ta yigitidan ayrilgan va orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Ammo u keyinchalik yana kuch to'plab, Ganchi volostida paydo bo'lgan hamda bu yerdagi barcha bolsheviklarni va ularning tarafdorla-rini yo'qotgan. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xolbo'ta qo'rboshi O'ratepa-dagi sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning yo'l boshchisiga aylangan va uning qo'l ostida 600 dan ortiq yigit jang qilgan. Xolbo'ta qo'rboshi guruhiga mahalliy aholi doimo katta madad berib turgan. Bolsheviklar to-monidan Matcho bekligi (O'ratepa hududining katta qismida 1917-1923-yillarda Matcho bekligi nomli mustaqil mahalliy hukumat faoliyat ko'r-satgan) tugatilgandan keyin ham Xolbo'ta qo'rboshi qizil armiyaga qarshi o'z faoliyatini davom ettirgan¹. Darvoqe, 1922-yili Xo'jand uyezdida har-biy vaziyat keskinlashgan. Qo'zg'olonchilar tomonidan bu paytda O'ra-tepa shahri uch tomondan o'rab olingan bo'lib, bu yerlarda sovet hoki-miyati asosan tugatilgan.

Samarqand uyezdining ijroiya qo'mitasi raisi Mirusmonov va umu-miy bo'lim boshlig'i Shishkinning Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasiga taqdim etgan bildirishnomasida ko'rsatilishicha, sovet hokimiyatiga qar-shi harakat tobora keng quloch yoyib, u siyosiy tusga ega bo'lib borgan. 1921-yilning oxiri va 1922-yilning o'rtalarida istiqlochlilik harakati Far-

¹ O'zbekiston MA, 343-fond, 1-ro'yaxat, 394-ish, 22-23-varaqlar.

g'ona vodiysida rivojlanishdan tashqari Samarqand viloyatida ham o'ta jiddiy ko'rinish olgan. Bu haqda yuqoridagi hujjatda alohida ravishda ta'kidlab o'tilgan¹.

Bolsheviklarning turli anjumanlari va partiya konferensiyalarida Samarqand viloyatidagi qurolli muxolifat harakatiga qarshi kurash yo'llari belgilab olinib, qo'rboshi guruhlarining kuch-qudrati tobora ortib borayotganligi e'tirof etilgan va tan olingan. Bu konferensiyalarda sovet tuzumiga qarshi harakatni susaytirishdagi asosiy vazifa mehnatkashlar ommasiga bolshevistik g'oyalarni singdirib borish ekanligi ta'kidlangan. Masalan, 1922-yil boshlarida o'tkazilgan Turkiston Kompartiyasi (TKP) Samarqand viloyat-shahar partiya qo'mitasining 7-viloyat konferensiyasi barcha kommunistlar oldiga 1922-yil 1-martdan to 1923-yilning 1-martigacha viloyat hududida «bosmachilik» harakatini tugatish vazifasini qo'ygan².

Konferensiyada Samarqand viloyatida «bosmachilik» harakati juda tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligi, alohida kichik guruhlar birlashib, uyushgan katta guruhlarini tashkil etayotganligi, bu harakatga boshchilik qilayotgan qo'rboshilar soni oshayotganligi ma'lum qilinadi. Shuningdek, partiya, sovet va hukumat arboblari o'ldirish odatiy hodisaga aylanganligi ham aytib o'tiladi. Mazkur konferensiya partiyaning viloyat-shahar qo'mitasi oldiga qurolli harakatni tugatish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rish zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi:

Hamma tashkilot va organlar o'z faoliyatini sovet hokimiyatining dushmanlariga zarba berishga safarbar etsin.

Mahalliy xalqlardan militsiya guruhlarini tashkil etilsin.

Mahalliy xalq orasida aksilinqilobiy kuchlarga qarshi doimiy ravishda tashviqot va targ'ibot ishlari avj oldirilsin.

Har bir uyezdga viloyatning mas'ul xodimi rahbarligida maxsus ekspeditsiya (otryad yoki komissiya) yuborilsin³.

Butun Turkiston mintaqasida bo'lgani singari Samarqand viloyatidagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatni yagona maqsad sari yo'naltirishda taraqqiyparvarlar (jadidlar), milliy ziyolilar va ulamolar katta rol o'ynashdi. Xususan, «Turkiston Milliy Birligi» va «Milliy Ittihad» tashkiloti a'zolari Samarqandda ham sovet tuzumiga qarshi kurashni uyushtirishda jonbozlik ko'rsatishdi.

¹ Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 85-varaq.

² Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917–1924-y.). – Toshkent: Universitet, 2002. 168-b.

³ Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 398-ish, 14-varaq.

«Turkiston Milliy Birligi» tashkilotining 6-kongressi 1921-yil 5-7-sentabrda Samarqandda yarim yashirin holatda o'tkazildi. Samarqanddagi kongressda TMBning 24 banddan iborat Nizomi (Ustavi) va Turkiston Milliy bayrog'i qabul qilindi. Ushbu kongressni tayyorlashda Validiy bilan birgalikda milliy rahbar xodimlardan To'raqul Jonuzoqov (1893-1921) muhim ishlarni bajardi.

Samarqand kongressi Turkiston mintaqasidagi istiqloqlolchilik harakatining g'oyaviy jihatdan jipslashuviga katta xizmat qildi. Validiyning yozishicha, anjumanda butun Turkistondagi qo'rboshilar guruhlarini bilan aloqani mustahkamlash va har bir qo'rboshining huzuriga siyosiy maslahatchilar yuborish to'g'risida qaror qabul qilindi¹.

Kongress tugagach, Samarqand viloyatidagi istiqloqlolchilarning rahbarlaridan biri Ochilbek huzuriga siyosiy maslahatchi va g'oyaviy rahbar sifatida TMB Markaziy Qo'mitasi a'zosi, o'zbek ziyolilaridan Qori Komil yuborildi. Bahrombek yoniga Samarqand ziyolilaridan Qori Muhammad, Abdulhamid va Ozarbayjon Ozodbek jo'natildi. Validiyning shaxsan o'zi Samarqand, Buxoro va Xorazmda harakat qilayotgan bir qator qo'rboshilarning qarorgohida bo'lib, ularni umumiy dushmanga qarshi ayovsiz kurash olib borishga chaqirdi va o'zaro birdamlikka chorladi. 1921-yil noyabr - 1922-yil mart oylarida u Samarqand, Jizzax, Forish, Qo'ytosh, Nurota, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, G'uzor, Kasbi orasida doim ot ustida yurib, tashkiliy ishlar bilan shug'ullandi. Bahrombek (Samarqand), Jabborbek va Doniyolbek (Shahrisabz va G'uzor), Qoraqulbek (Kattaqo'rg'on), Mulla Abdulqahhor va Hamroqul (Nurota) huzurida bo'lib, qo'zg'olonchilar bilan turli kengashlar o'tkazdi. Validiy Samarqand va Jizzax oralig'ida bir necha marta qizil askarlar bilan jangga kirdi, bosqinchilarni o'ldirdi. Darvoqe, Validiyning Zarafshon vodiysida yashirinadigan beshta manzili bo'lgan².

Validiy sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan qo'zg'olonchilar va ularning rahbarlari «elni talovchi, bosqinchi» emasliklarini, balki «o'z vatanga sodiq, fidoyi, dunyo ahvolidan voqif kishilar» ekanliklarini keyinchalik yozgan xotiralarida faqat birgina Samarqand viloyati qo'rboshilari misolida ham yaqqol ko'rsatib bergan edi³.

1922-yilning bahori, xususan, aprel oyida Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan qurolli harakat o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazm respublikalaridan tashqari, Samarqand viloyatida ham bu paytda qurolli harakat kuchayib ketdi.

¹ Zeki Velidi Togan. Hatiralar... 2-baski. S. 326-328.

² Zeki Velidi Togan. Hatiralar... 2-baski. S. 339-354.

³ Zeki Velidi Togan. Hatiralar... 2-baski. S. 354.

Sovet tarixiy adabiyotlarida e'tirof etilishicha, 1922-yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyati hududining ko'pchilik qismi qurolli muxolifat tasarrufiga o'tgan. Ular bu hududlarda o'z boshqaruvlarini o'rnatishgan.

Samarqand uyezdida qo'zg'olonchilarning miqdori 500 kishi bo'lib, ularga Ochilbek qo'rboshi va uning qo'l ostidagi Ziyovuddin, Hamroqul, Mirzo Polvon, Alim cho'loq va boshqalar rahbarlik qilgan. Kattaqo'rg'on uyezdida Qoraqulbek, Ochil, Eshon Isoxo'jayev va boshqa qo'rboshilar harbiy guruhlariga yetakchilik qilgan. Jizzax uyezdida 200 kishi Hamroqul va Ochil qo'rboshilar rahbarligida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu hudud «bosmachilik» harakati eng kuchaygan joylardan biri hisoblangan¹. Xo'jand uyezdida Mulla Abdulahad, Turdiboy, Xolbo'ta Eshboyev va Islomqul Sultonboyev singari qo'rboshilar guruhlari tarkibida 1800 kishi bo'lgan. Matcho qishlog'ida 1400 «bosmachi» bo'lgan. Ularga yirik qo'rboshilar – Ahmadxo'ja, Asror, To'rabekov va boshqalar rahbarlik qilishgan².

Tarixdan ma'lumki, 1922-yil 10–15-aprelda Boysundagi Kofirun qishlog'ida Turkiston qo'rboshilarining siyosiy arbob Anvar Posho (1881–1922) boshchiligida katta qurultoyi o'tkazilgan³. Anjuman kunlarida Anvar Poshoning taklifi bilan bir guruh nufuzli vakillar shu kunlarda Samarqandda bo'lishi kutilayotgan Turkiston musulmonlarining qurultoyiga vakil qilib jo'natildi. Ushbu anjuman o'tayotgan kunlarda Samarqand va uning atroflarida qizil armiyaga qarshi janglar avj olib ketdi.

1923-yil 10-mayda Kitob atrofida qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida Samarqand vatanparvarlarining yetakchisi Ochilbek qo'rboshi mardlarcha halok bo'ldi⁴. Uning o'g'li Davron Ochil (1906-yil tug'ilgan) otasi vafotidan so'ng xorijga chiqib ketgan⁵. Ochilbek qo'rboshining o'limi arxiv hujjatlarida quyidagicha tasvirlanadi: «Qarshi viloyatiga kelib, Kitob shahridan 20 chaqirim sharqdagi Varganza (Vag'anzi) qishlog'ida

¹ Кельдиев Т.Х. Разгром контрреволюции в Ферганской и Самаркандской областях Туркестанской АССР (1918–1923 гг.). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. С. 125–126.

² O'zbekiston RPDA (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining arxivi), 60-fond, 1-ro'yxat, 2011-ish, 80-varaq; 2908-ish, 22-varaq.

³ Qarang: Turkistanli Abdullah Receb Baysun. Turkistan Milli Hareketleri. Istanbul, 1945. S. 90–92.

⁴ O'zbekiston MDA, 48-fond, 1-ro'yxat, 171-ish, 117-varaq; Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 132-b.

⁵ Davron Ochil muhojirlikda ko'p mamlakatlarda yashadi. U o'qimishli va bilimdon yigit bo'lib, Sharq va G'arb ta'limini egallagan edi. Validiyning yordamida u harbiy ofitser bo'lib yetishdi. 1928-yil noyabr oyigacha Turkiyada yashagan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 1928-yil oxirida u Vengriya orqali Polshaga jo'nagan. Bu haqda qarang: Из истории российской эмиграции: письма А.Э. Валидова и М. Чокаева (1924–1932 гг.). – Москва, 1999. С. 31.

o'mashgan Ochilbek guruhi bilan qizil askarlar o'rtasida 1923-yil 9-mayda tengsiz olishuv bo'ldi. 10-maydagi ma'lumotlarga qaraganda Ochilbek dastasi Kitob atrofidagi muvaffaqiyatsiz jangda o'z bayrog'ini yo'qotib va bir necha o'liklarni, shu jumladan, Ochilbekni ham qoldirib, Taxta-Qoracha dovoni orqali Qaynar Buloq yo'lidan Samarqand viloyatiga jonab ketishdi. Ochilbekning o'limidan so'ng 130 yigitdan iborat dastaga Ziyoruddin boshchilik qila boshladi»¹.

Sovet tuzumi davrida Ochilbekning faoliyati buzib talqin qilindi. Hatto Fozil Yo'ldosh o'g'li o'zining «Ochil Dov»² (1941-yil yozib olingan) dostonida zamona zayli bilan uni qaroqchilik va bosqinchilikda ayblaydi. Holbuki, Ochilbek va Bahrombek kabi qo'rboshilar samarqandliklarning qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan, bu kurashda o'z shirin jonlarini qurbon qilgan xalq qahramonlari edi. Shuning uchun ular halok bo'lgan bo'lishsa ham yana ko'p yillar davomida Samarqand viloyatida milliy ozodlik harakati davom etdi.

Masalan, Samarqand viloyatidagi qo'rboshilardan biri Mulla Xoliqul va uning muovini Hoshimxo'ja Muqimjonov, shuningdek, Xo'jamqul O'taboyev 1923-yil oxirlarida Sajin va Chiroqtekin qishloqlaridagi sho'ro idorasi raislari va muovinlari bo'lgan Mulla Suvonqul oqsoqol, Hamroqul, Muhammadxo'ja, Mulla Murodxo'ja va Ismatulla oqsoqollarga maktub bilan murojaat qilib, ular bir hafta muddat ichida mol-mulk va kuch-qudratlarini o'z vatani, dini va milliy g'ururini himoyalashga safarbar qilishlari tavsiya etilgan. Aks holda sovet amaldorlari bo'lgan bu qishloq oqsoqollari jazolanishi va mol-mulki tortib olinishi aytilgan³. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, qishloqlardagi ko'plab oqsoqollar va mahalliy aholi istiqbolchilarga xayrixoh bo'lib, ularni qo'llab-quvvatlab turgan. Xususan, 1923-yil 27-dekabr – 1924-yil 1-yanvar oralig'ida G'allasoy qishlog'iga kirib kelgan Rajab Eshonning 12 nafar qurollangan yigitini Bog'ibaland qishlog'i sho'ro raisi Sirojiddin Nizomiddinov va qishloq oqsoqoli Abdurahad Abdusamadov iliq kutib olishib, qo'zg'olonchilarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashgan⁴.

1924-yil 13-yanvarda bo'lgan Samarqand viloyat ijroiya qo'mitasining yig'ilishida aksilinqilobiy kuchlar bilan kurashish masalasi maxsus muhokama qilinib, unda mahalliy hokimiyat va militsiya otryadlari muxolifat

¹ O'zbekiston MDA, 48-fond, 1-ro'yaxat, 171-ish, 117-varaq.

² Qarang: Ochil Dov. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif. – Toshkent: O'zadabiynashr, 1963.

³ Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yaxat, 397-ish, 473-varaq.

⁴ Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yaxat, 304-ish, 72-varaq.

guruhlariga qarshi kurashda sustkashlik qilayotganligi va mahalliy xalq o'rtasida Samarqand shahri bilan «yaxshi aloqasi» bo'lgan Said Murod qo'rboshining obro'si balandligi e'tirof etiladi. Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi raisi Mirjamolov ham o'z so'zida Samarqand uyezdida sovetlar ga qarshi harakat kuchayib borayotganligi, ularni tugatish uchun qo'shimcha qizil armiya qismlarini jalb etish zarurligini ma'lum qilgan¹.

Samarqand viloyati Davlat siyosiy boshqarmasining axborotiga qaraganda, O'ratepa rayoniga qarashli Shahrison, Dalyan, Bosmandi va Ranjin volostlarida Said Murod qo'rboshining guruhi o'z faoliyatini davom ettirgan. Qizil armiya tomonidan 1923-yil bahorida Matcho bekligida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragandan keyin Said Murod qo'rboshi o'z guruhi bilan tog'larga joylashib olgan. Mahalliy aholi ushbu qo'zg'olonchi guruhlariga har tomonlama madad berib kelgan, ular bunday guruhlar haqida qizil armiya qismlariga har qanday ma'lumot berishdan bosh tortgan. Qo'rboshilar guruhleri mahalliy xalq hisobiga o'z safini doimiy ravishda kengaytirib borgan. Arxiv hujjatlarida bu guruhlarini ulamolar va ziyolilar ham qo'llab-quvvatlab turganligi alohida ta'kidlanadi².

Samarqand viloyatida Dodxohbek qo'rboshi boshchiligidagi qurolli guruh ham faoliyat olib borgan. Shu narsa xarakterli holki, ushbu guruh tarkibida yevropaliklar, jumladan, uch nafar ruslar ham bo'lib, ular tub xalqlar bilan birgalikda sovet hokimiyati va qizil armiyaga qarshi kurashganlar. Bu holat sovet davrida uqtirib kelingan «boshmachilar – ashaddiy millatchilar bo'lib, ular kofirlarga va ruslarga qarshi g'azovot qilganlar», degan fikrlarning asossiz ekanligini yana bir marta isbotlaydi. Dodxohbek qo'rboshi guruhi 200 kishidan iborat bo'lib, ular miltiqlar, revolverlar va yetarli darajada o'q-dori bilan ta'minlangan edi. Dodxohbekning o'zi «mauzer» rusumidagi revolver (to'pponcha) bilan qurollangan bo'lib, guruh yigitlari yetarli darajada otlar bilan ta'minlangan. Guruhning barcha yigitlari bir xilda kiyingan, ya'ni sariq gimnastyorka va yashil rangli kamzulda bo'lishgan. Dodxohbek qo'rboshi guruhidagi yigitlar o'ta ishonchli, jangda jasur va dovyurak bo'lishgan. Guruhdagi mavjud 200 ta yigit 10–50 kishidan iborat turli kichik guruhlariga bo'linib, Samarqand atrofidagi qishloqlarni qizil askarlardan himoya qilishgan³.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida 1924-yilda o'nlab kichik qo'rboshi guruhleri harakat qilgan. Masalan, Zarafshon daryosi atrofidagi Tar-

¹ Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 397-ish, 14-varaq.

² Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 583-ish, 7-varaq.

³ Samarqand VDA, 67-fond, 4-ro'yxat, 2-ish, 22-varaq.

3-§. Samarqand – O‘zbekiston SSR poytaxti (1925–1930-yillar)

1924-yilning oxirida¹ O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida O‘zbekiston SSR tashkil topdi. Tarixdan ma’lumki, 1925-yil 13–17-fevralda Buxoroda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Sovetlarining 1-qurultoyida *O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida deklaratsiya* qabul qilindi. Qurultoyda respublika hokimiyatining oliy organlari rasmiylashtirildi. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi qilib Fayzulla Xo‘jayev, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi raisi qilib Yo‘ldosh Oxunboboyev saylandi.

O‘zbekiston SSRning dastlabki poytaxti Buxoro shahri bo‘lgan. Biroq tez orada poytaxt Samarqand shahriga ko‘chirilgan. 1925–1930-yillarda Samarqand shahri O‘zbekiston SSR poytaxti bo‘lgan. O‘zbekiston poytaxtining Buxorodan Samarqandga ko‘chirilishi munosabati bilan 1925-yil 3-aprelda Registon maydonida o‘tkazilgan mitingda respublika hukumati rahbari Fayzulla Xo‘jayev nutq so‘zlab², bu holatning mohiyatini va asl sabablarini asoslab bergan.

1925-yil 29-yanvarda O‘zbekiston SSRda ma‘muriy bo‘linish joriy qilindi. Samarqand viloyati O‘zSSRda tuzilgan dastlabki 7 ta viloyatning bittasi bo‘lib qoldi. 1926-yil 29-sentabrda ma‘muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirilib, viloyatlar tugatildi. 1927-yil 1-noyabrda ularning o‘rniga 10 ta okrug, jumladan, Samarqand okrugi, bir avtonom respublika (Tojikiston ASSR), 87 tuman va 1746 qishloq sho‘rosi tashkil etildi³. Markazi Samarqand shahri bo‘lgan Samarqand okrugiga 10 ta rayon (tuman) kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilar edi: Miton (tuman markazi – Miton qishlog‘i), Payariq (Chelak), Oqdaryo (Loyish), Pastdarg‘om (Juma stansiyasi), Bulung‘ur (Rostovsevo stansiyasi), Yuqori Darg‘om⁴ (Samarqand shahri), Yangi Qozonariq (Urgut), Jizzax (Jizzax), Yangiqo‘rg‘on (Yangiqo‘rg‘on), Zomin (Zomin)⁵. 1930-yilda Samarqand okrugining hududi 19091 km² bo‘lib, unda 166 ta qishloq sho‘rosi tuzilgan. Okrug hududidagi 1542 ta aholi manzili (qishloq)da 102782 xonadon istiqomat qilgan. 1930-yil yanvarda Samarqand okrugida uchta shahar bo‘lib, Samarqand (aholisi – 119736 kishi), Jizzax (15379 kishi), Urgut (15659 kishi) shaharlarida

¹ Kitobning mazkur fasli A. Bodirov bilan hammualliflikda tayyorlandi – Q. Rajabov izohi.

² Правда Востока. 1925, 3 апреля.

³ Rajabov Q. Ma‘muriy-hududiy bo‘linish // O‘zbekiston Respublikasi. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2006. 591–592-betlar.

⁴ Yuqori Darg‘om tumani hozirgi Samarqand tumani hisoblanadi.

⁵ Правда Востока. 1926, 18 октября, № 240; Районы УзССР в цифрах. – Самарканд, 1930. С. 8, 12–13.

hammasi bo'lib 150774 kishi yashagan. Darvoqe, bu yillarda Samarqand shahri Yuqori Darg'om tumanining ham markazi hisoblangan. 1930-yilda Samarqand okrugida hammasi bo'lib 563900 kishi yashagan bo'lib, ularning 81,4 foizi o'zbeklar bo'lgan¹.

Samarqand shahrining atroflari bu paytda Yuqori Darg'om (hozirgi Samarqand), Pastdarg'om, Yangi Qozonariq (hozirgi Urgut), Payariq va Oqdaryo tumanlarining hududi bilan o'rab olingan edi. 1928-yili Yuqori Darg'om tumanidagi 24 qishloq sho'rosi (Ados, Andijoniy, Baxshitepa, Bog'ibaland, Bog'izog'on, Varsin, Gadoyko'cha, Dashtaki bolo, Jumabozor, Zaagliq, Elpak, Qovchinon, Kulbayi poyon, Qo'shtamg'ali, Moturid, Naukas, Payshamba-Siyob, Sochaki bolo, Sochaki poyon, Toyloqi poyon, O'rtaqishloq, Haymar, Xoja Ahror) tarkibida 126 ta qishloq mavjud bo'lgan². Oqdaryo tumanidagi 14 ta qishloq sho'rosi (Baday, Burgali, Dahbed, Qora tuxum, Qatag'on, Kumushkent, Loyish, Pirimkent, Po'lat darxon, Suganchi, Chovqa, Shayxlar, Yangikent, Yangiqo'rg'on) tarkibida 195 ta qishloq bo'lib³, bu qishloqlarning ko'pchiligi Samarqand atrofida joylashgan hamda ular boy va ko'hna tarixga ega bo'lishgan.

1925–1929-yillarda butun O'zbekistonda bo'lgani singari Samarqand okrugida ham yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Ma'lumki, yer-suv islohotining birinchi bosqichi 1921–1922-yillarda Turkiston ASSRda o'tkazilib, yirik mulkdorlar va boylar qo'lidagi yer tortib olingan edi. O'zbekiston SSR tashkil topgach, «agrар inqilob»ning strategiya va taktikasi O'zbekiston Kompartiyasining 1925-yil noyabr oyida Samarqand shahrida o'tgan 2-syezdidagi tasdiqlandi. Bu jarayon O'zSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining «Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida» va «Yer-suv islohoti to'g'risida» dekretlari (1925-yil 2-dekabr) bilan boshlandi. O'zbekiston SSRdagi yer-suv islohoti joylardagi shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 1925–1929-yillarda uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich 1925–1926-yillarda Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyatlarida bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqichda 1928–1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida islohot amalga oshirildi. Qabul qilingan dekretlar asosida belgilangandan ortiq yerlar, ish hayvonlari va meh-

¹ Районы УзССР в цифрах... С. 8, 36–37; Список населённых мест Узбекской ССР. Выпуск II. Самаркандская область. – Самарканд: Изд. ЦСУ УзССР, 1925. С. 2–4.

² Список населённых пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть IV. Округ Самарканд. – Самарканд: Издание ЦСУ УзССР, 1929. С. 15–17.

³ Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. – Самарканд: Изд. ЦКР Уз, 1926. С. 69–70, 73–74; Список населённых пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть IV. С. 7–10.

nat qurollari tortib olingan. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolalar va boshqa mulkdorlarning yerlari hamda butun mol-mulki musodara qilingan. Xullas, 1925–1926-yillarda Samarqand viloyatida yer-suv islohoti amalga oshirilib, sovet hukumati tomonidan o'ziga to'q dehqonlarni «quloq» sifatida badarg'a qilish uchun zamin tayyorlangan. Sovet hokimiyatining bunday qattol siyosatiga jadid taraqqiyparvarlari, ulamolalar va ziyolilardan tashqari hatto sovet idoralariida mas'ul lavozimlarda ishlayotgan milliy rahbar xodimlar (milliy kommunistlar) ham qarshi chiqishdi¹.

1925–1926-yillarda Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi (oblispolkom) raisi Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev, uning 1-o'rinbosari Abdurayimov, 2-o'rinbosari Nosirboyev bo'lgan. Samarqand eski shahari ijroiya qo'mitasi raisi Rizayev, uning 1-o'rinbosari Quliyev, 2-o'rinbosari Azizov hisoblangan. Bu yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Samarqand viloyati obkomi ijroiya byurosi mas'ul kotibi lavozimida M.Xo'jayev faoliyat ko'rsatgan².

1925-yil noyabrda O'zbekistonda mas'ul lavozimlarda ishlayotgan 18 nafar obro'li rahbar xodim o'z talablari bilan O'zbekiston Kompartiyasi MK plenumi va RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosiga murojaat qilishgan. Ular o'z murojaatlarida respublikada ishlash uchun toqat qilib bo'lmaydigan vaziyat yaratilganligini, amalda butun hokimiyat RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro)ning raisi I.A. Zelenskiy va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti kotiblari V. Ivanov va A.Ikromov qo'lida to'planganligini bayon qilishdi. «O'n sakkizlar guruhi» a'zolari ularning talablari qondirilmasa, o'zlarini O'zbekistondagi vazifalaridan ozod qilib, Moskvaga – RKP(b) MK ixtiyoriga yuborishlarini so'rashgan³. O'n sakkiz nafar milliy rahbar arboblarning bu murojaati 1925-yil 19–22-noyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MK V plenumida keskin tarzda muhokama qilindi.

«O'n sakkizlar guruhi»ga O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari Rahmat Rafiqov, uning o'rinbosari Rahimjon Rahimboboyev, O'zbekiston Yer ishlari bo'yicha xalq komissari Inog'omjon Xidraliyev, Zarafshon viloyati ijroiya qo'mitasi (oblispolkom) raisi Abdurashid Mukamilov, Zarafshon okrugi partiya komiteti mas'ul kotibi Rahmat Muzaffarov, Zarafshon okrugi partiya komiteti kotibi Muxtorjon Saidjonov, Farg'ona okrugi

¹ Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). To'ldirilgan va qayta ishlangan oltinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 188–189-betlar.

² Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хозяйственный год. – Ташкент: Изд. Средне-Азиатского отделения Российско-Восточной торговой палаты, 1926. С. 402–404.

³ O'zRPDA (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining arxivi), 58-fond, 1-ro'yxat, 64-ish, 12-varaq.

partiya komiteti mas'ul kotibi Abdurahim Hojiboyev, Qashqadaryo okrugi partiya komiteti mas'ul kotibi Ismoil Bozorboyev, O'zbekiston SSR MK mas'ul kotibi Nuriddin Qoriyev, Toshkent 1-rayon partiya komiteti mas'ul kotibi Obid Maqsudov, Marg'ilon uyezd partiya komiteti mas'ul kotibi O'rinboy Ashurov, Konibodom rayon partiya komiteti mas'ul kotibi Hayitdin Eshonov, «O'zbekxlopkom» boshqarmasi raisi o'rinbosari Bahodir Maqsudov, Toshkent shahar kasaba uyushmasi raisi Muhammadjon Karimjonov, mas'ul xodim Abdumajid Zokirov kabi siyosat va jamoat arboblari qatorida Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi raisi Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev, Samarqand uyezd partiya komiteti mas'ul kotibi Nasim Shirinov, «Qizil Sharq» tashkilotining Samarqand bo'limi boshlig'i Zokir Hasanov kabi samarqandlik milliy rahbar xodimlar ham bo'lgan¹.

«O'n sakkizlar guruhi» ishtirokchilari O'rta Osiyo byurosining maxsus komissiyasi xulosasi va O'zbekiston Kompartiyasi MK 2-chaqiriq 1-plenumi qaroriga ko'ra, quyidagicha jazolangan: R. Rafiqov, M. Saidjonov, I. Xidraliyev, N. Qoriyev o'z vazifalaridan ozod qilingan; R. Rafiqov va B. Maqsudov partiya a'zolidan chiqarilgan; Z. Hasanov va O. Maqsumovga qat'iy hayfsan berilgan; R. Muzaffarov ishi ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Kontrol komissiyasiga topshirilgan; R. Rahimboboyev va A. Hojiboyevga tanbeh berilgan. Shuningdek, o'z xatolarini tan olganlarning shaxsiy ishiga guruhbozlik kurashida ishtirok etganligi yozib qo'yilgan². Guruh a'zolarining taqdiri keyinchalik fojiali tugagan.

I. Xidraliyev 1929-yil 1-yanvarda Moskvada mehmonxonada shubhali vaziyatda jon taslim qilgan. R. Rafiqov 1930-yili Toshkentda tramvay urib ketishi natijasida halok bo'lgan. Ushbu «baxtsiz yo'l hodisasi» chekistlar tomonidan uyushtirilganligi hech kimga sir bo'lmasa kerak. Qolgan mas'ul xodimlar esa 1930-yilda «Mavlonbekov guruhi»da ishtirok etganlikda jazolanishgan. Ular 1934- va 1937–1938-yillarda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on qurboni bo'lishgan. Samarqandlik Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev 1937-yil 7-sentabrda qamoqqa olinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan³. Keyinchalik M. O'rinxo'jayev qamoqdan qaytib, xotiralar yozish bilan shug'ullangan⁴.

¹ Rajabov B. Ommaviy qatag'on siyosati // «Turkiston». 2001, 24-oktabr.

² O'n sakkizlar guruhi. Дело восемнадцати (Arxiv hujjatlarining izohli to'plami). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari: Q.K. Rajabov, A.J. Yaxshiyev. Izoh va sharhlar muallifi: Q.K. Rajabov. – Toshkent: Akademiya, 2012. 320-b.

³ O'zbekiston RMXXA, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 235–244-va raqarlar.

⁴ O'rinxo'jayev M. Unutilmas kunlar (Memuarlar). – Toshkent: O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1961. 220-b.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazishi natijasida 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR tashkil topdi. Bu paytda Samarqand viloyati tarkibida 4 ta: Jizzax, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Samarqand uyezdlari bo'lgan. Viloyatning maydoni 25 240 murabba¹ chaqirim va aholisi 580 408 kishini tashkil etgan². Samarqand shahri esa 1925-yilning apreli-dan 1930-yilning sentabrigacha O'zbekiston SSRning rasmiy poytaxti vazifasini bajardi. O'sha davrda O'zbekiston siyosiy rahbariyati tomonidan Samarqand shahri bejiz poytaxt qilib tanlanmagan edi.

O'zbekiston SSR barpo etilgan dastlabki davrda respublika markazida joylashgan Samarqand shahri uning poytaxti edi. O'sha yillarda O'zbekistonning hamma qismlarini bir butun qilib birlashtirishda, sovet apparati ishlarini jonlantirishda Samarqandning poytaxt bo'lishi maqsadga muvofiq edi. Sovet mahalliy organlari o'z ishlarini yanada yaxshilagach va ularning markaziy hukumat muassasalari bilan aloqalari mustahkamlagach, 1930-yilda O'zbekiston poytaxti Toshkentga – respublikaning muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga ko'chirildi³.

1925–1930-yillarda Samarqand shahri respublikaning siyosiy va ma'muriy markazi bo'lar ekan, bu yerda markaziy sovet, xo'jalik va boshqa tashkilotlar joylashtirildi. Samarqanddan turib O'zbekiston SSRning siyosiy va ijtimoiy hayoti, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi boshqarildi. Samarqandda bu davrda katta ishlar olib borildi. Shaharda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Kompartiyasining Markaziy Komiteti⁴, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti⁵, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti⁶, respublika xalq komissarliklari va boshqa boshqaruv muassasalari tashkil qilindi⁷.

Samarqandda O'zbekiston SSR Sovetlarining II–V qurultoylari va O'zbekiston Kompartiyasining II–IV syezdlari bo'lib o'tdi. Bu anjumanlarda

¹ Murabba' – arab tilidan olingan bo'lib, to'rt tomon degan ma'noni anglatadi. Ushbu o'rinda metrologik jihatdan kvadrat ma'nosini ifodalaydi.

² O'zbekiston inqilobiy sho'rolar jumhuriyatining qisqa jo'g'rofiyasi // Qizil O'zbekiston. 1924-yil 5-dekabr. 1-son.

³ *Tursunov H.T.* O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barpo etilishi. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1958. 150-b.

⁴ O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining binosi hozirgi Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi joylashgan o'rinda bo'lgan.

⁵ O'zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti idorasi hozirgi Samarqand shahar hokimiyati binosida joylashgan edi.

⁶ O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining idorasi hozirgi Alisher Navoiy nomli ko'chani 58-uyida joylashgan.

⁷ *Bodirov A.* Samarqand viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1925–1941-yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. 12–14-betlar.

O'zbekiston SSR va o'zbek xalqi taqdirida muhim rol o'ynagan qarorlar qabul qilindi. 1925-yil 22-noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasining II syezdida bir qator masalalar ko'rildi. Jumladan, yer-suv islohoti to'g'risida, iqtisodiy hayot va sovet qurilishi haqidagi vazifalar, ta'lim-tarbiya, qizil armiyaning milliy jihatdan shakllantirilishi, kasaba uyushmalari ishlari, komsomol, «Qo'shchi» ittifoqi to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi¹. 1927-yilning 16-noyabrida Samarqandda O'zbekiston Kompartiyasining III syezdi ochiladi. Syezdda 26642 nafar partiya a'zosi va a'zolikka nomzodlar tomonidan saylangan 541 nafar delegat qatnashdi².

Samarqandda O'zbekiston SSR hukumati ish boshlagandan keyin shaharni qayta qurish, asosan, uning eski shahar qismini rekonstruksiya qilish vazifasi muhim masala qilib qo'yiladi. Eski shahar qismidagi ikki tuman hududida ishchilar shaharchasini qurish to'g'risida reja ishlab chiqildi va ikkala tumanning har birida 150 tadan uy qurilishi belgilandi³. 1928-yilda Samarqand shahrida 30 ta hukumat va jamoat binolari qurilib, ularga 1378000 rubl mablag' sarflandi. Kommunal qurilishi bo'yicha 743000 rubllik 41 ta qurilish ishlari olib borildi. Uy-joy qurilishi bo'yicha uy-joy kooperatsiyasi liniyasida 664800 rubllik 64 ta qurilish ishlari olib borildi va 75 % ga bajarildi. Xususiy uy-joy qurilishida 200000 rubllik 42 ta turar joylar qurildi⁴.

Bu davrda shahar aholisi ham o'sib borgan. Bu, asosan, respublika qishloq va ovullaridan ko'chib kelgan aholi va boshqa markaziy tumanlar aholisi hisobidan bo'lgan. O'zbeklar, tojiklar, ruslardan tashqari bu yerda mahalliy Buxoro yahudiylari, armanilar, turkmanlar ham mehnat qilar edi. Ularning jamoalari o'zlarini samarqandliklar deb atashgan. 1926-yilda shahar aholisi 105106 nafar kishini tashkil etgan bo'lsa, 1930-yilga kelib aholi tug'ilishining ko'payishi natijasida va mamlakatning boshqa joylaridan ko'chirib keluvchilar hisobiga 119358 kishiga ko'paydi. Shu o'ringa shahar aholisi har yili 1000 kishi hisobiga o'rtacha 29 kishiga ko'paydi. Aholining ko'payishi esa Samarqandda uy-joy muammosini keltirib chiqardi. Shaharda turar joy maydoni sekinlik bilan o'sib bordi. 1926-yilda 456104 m² foydalaniladigan turar joy maydoni mavjud bo'lgan bo'lsa, 1929-yilda 34 ming m² uy-joy qurilib, jami 490104 m² ga yetdi⁵.

¹ Правда Востока, 14 июня 1925 года.

² Samarqand viloyat davlat arxivi (Samarqand VDA), 63-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 107-varaq.

³ Правда Востока. 12 июня 1925 года.

⁴ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 311-ish, 66-varaq.

⁵ Узбекистанская правда. 10 января 1930 года.

1928-yil 18-fevralga kelib, O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining «Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida» 2420-sonli qo'shma qarori qabul qilindi¹. Bu qaror asosida O'zbekiston SSR hukumati tomonidan tegishli tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirildi. Samarqand viloyatidagi davlat va xo'jalik apparatini o'zbeklashtirish komissiyasining 1928-yil 3-oktabrgacha bo'lgan ma'lumotlariga qaraganda, Samarqand viloyat ijroiya qo'mitasidagi 65 xodimning 20 nafari², viloyat sudidagi 30 xodimdan 8 nafari³, Samarqand shahar sovetidagi 14 xodimning 5 nafari⁴, Samarqand sog'liqni saqlash bo'limidagi 11 xodimdan bir nafari⁵, statistika byurosining 32 xodimidan 4 nafari⁶, mahalliy xo'jalik boshqarmasining statistika, huquq, savdo, uy-joy, obodonlashtirish, kommunal xizmat bo'limlaridagi 23 xodimdan 2 nafari⁷, Samarqanddagi o'lka (respublika) kasalxonasidagi 113 nafar ishchi xodimdan atigi 10 nafari mahalliy millat vakillari bo'lgan⁸.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand shahri O'zbekiston SSRning muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi sifatida XX asr 20-yillaridan boshlab xo'jalik yuritishning sotsialistik uslubi, rejali tizim hamda qattiq markazlashtirilgan xalq xo'jaligi boshqaruvi negizida rivojlandi. Biroq adolat yuzasidan aytganda, aynan sovet hokimiyati yillarida Samarqand respublikaning Toshkentdan keyingi eng yirik sanoat markaziga aylandi.

Samarqand choy qadoqlash fabrikasi O'zbekistondagi eng to'ng'ich va yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lib, u 1923-yilda tashkil topgan. U vaqtda choy qo'lda qadoqlanib, asosan, 200 grammlı choy pachkalari tayyorlangan, yillik ishlab chiqarish hajmi 1000 tonnadan oshmagan. 1938-yilda fabrikaning yangi binosi foydalanishga topshirildi. Fabrika Sovet Ittifoqida ko'k choy qadoqlaydigan yagona fabrika bo'lib, unda tayyorlangan mahsulot butun O'rta Osiyo va boshqa respublikalarning ehtiyojini qondirgan. Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyin fabrika yana ham kengaytirildi. SSSRda qadoqlanadigan barcha choyning 1/5 qismi ushbu fabrika hissasiga to'g'ri kelgan.

¹ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 433-ish, 14-varaq; Правда Востока. 2 марта 1928 г.а.а.

² Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 425-ish, 96-varaq.

³ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 426-ish, 50-varaq.

⁴ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 425-ish, 97-varaq.

⁵ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 426-ish, 82-varaq.

⁶ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 426-ish, 86-varaq.

⁷ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 425-ish, 78-80-varaqlar.

⁸ Samarqand VDA, 256-fond, 1-ro'yxat, 425-ish, 92-varaq.

XX asr 20–30-yillarida Samarqand shahri va okrugi iqtisodiyoti hunarmandchilik sanoatining o'rnini katta bo'lgan. Samarqand okrug va shahar kустar hunarmandchilik uyushmasining faoliyati yakka kosisiblarni kooperativ ishlab chiqarish artellariga jalb qilishga qaratilgan, ayol kosisiblarga siyosiy manfaatlarni ko'zlab alohida e'tibor berilgan. 1928–1929-xo'jalik yilida kустar-hunarmandchilik uyushmasiga qarashli 82 artelning 2582 a'zosi bo'lib, ulardan 182 kishi xotin-qizlar edi. 1928-yilda kустar sanoatining artellarida 26,7 mln rubl, 1929-yil 36 mln rubl mahsulot ishlab chiqarilgan¹.

Xullas, XX asr 20-yillari va 30-yillari boshlaridan boshlab samarqandlik ziyolilar, siyosat va jamoat arboblari, oddiy insonlar sovet hokimiyati tomonidan ommaviy ravishda qatag'on qilina boshlandi.

4-§. XX asrning 30-yillaridagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida Samarqand

Tarixiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, 1929-yil kuzidan SSSRda qishloq xo'jaligini ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan jamoalashtirish (kollektivlashtirish)ga kirishildi. O'sha yili noyabr oyida VKP(b) MK Bosh kotibi I.V. Stalinning «Buyuk burilish yili» maqolasi e'lon qilingach, zo'rlash yo'li bilan yalpi kollektivlashtirish siyosatiga o'tildi. Ixtiyoriylik prinsipi inkor etilib, barcha dehqon xo'jaliklari ommaviy tarzda va qisqa muddatlarda kolxozlar (jamoat xo'jaliklari)ga kirishi belgilandi. Keyinchalik sovхозlar (davlat xo'jaliklari) ham tashkil qilindi. Ayni paytda mahalliy sharoitlar hisobga olinmadi. Bu holat Samarqand okrugida ham yuz bergan.

VKP(b) MK Siyosiy byurosining «Yoppasiga jamoalashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari to'g'risida»gi qarori va VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining «quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida»gi ko'rsatmalari (1930-yil 26-yanvar) asosida O'zbekiston Kompartiyasi MK 1930-yil 17-fevralda «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qilgan. O'zbekiston SSRdagi quloqlashtirish kompaniyasi 1930-yil fevraldan boshlab avj olgan². Xullas, 1929–1933-yillarda mustabid sovet hokimiyatining badavlat va o'rtahol dehqonlarni qishloq burjuaziyasi sifatida tugatish siyosati hisoblangan quloqlashtirish (ruscha кулачество – mushtumzo'rlik) SSSR va O'zbekiston SSRning barcha hududlarida bo'lgani singari Samarqand okrugida ham shafqatsiz ravishda amalga oshirilgan.

¹ Samarqand tarixi. Ikki tomli. 2-jild. ... 119–120-betlar.

² Rajabov Q. O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida (1925–1991-yillar) // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 2006. 172–174-betlar.

Shunday qilib, Sovet Ittifoqining hamma joyida bo'lgani kabi O'zSSRdagi, jumladan, Samarqand okrugidagi jamoalashtirish ham «harbiy kommunizm» yillarida sinovdan o'tgan kompaniyabozlik, «hujum va tazyiq» usullari bilan amalga oshirildi. Dehqonlarni zo'rlik bilan kolxozlarga kirishga majbur etdilar. Qarshilik ko'rsatganlar esa ijtimoiy mavqey va moddiy ahvolidan qat'i nazar «quloq» qilindi. «Quloqlar» sifatida ro'yxatga olingan badavlat xo'jaliklarning mol-mulki to'liq musodara qilinib, ularning oilalari Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq kabi o'zga yurtlarga surgun qilingan. Shuningdek, O'zSSRning o'zida «quloqlar» uchun 17 ta maxsus konsentratsion lagerlar va ko'chirib keltirilganlarning majburiy mehnat posyolkalari tashkil etilgan. Ana shunday quloq posyolkalaridan biri Samarqand shahri yaqinidagi Oqdaryo tumanida bo'lgan. Sovet hokimiyatiga qarshilik ko'rsatgan «quloqlar» esa qamoqqa olingan va otib tashlangan. Quloqlashtirish tadbiri ommaviy qonunsizliklar va zo'ravonlik asosida amalga oshirilgan.

Qattol tuzum siyosatining butun jirkanch tomonlarini ochib beruvchi, arxivlarda hozirgacha «mutlaqo maxfiy» tamg'asi ostida yashirin saqlanayotgan hujjatlardan ayrimlari yaqinda tarixchi olimlar R.Shamsutdinov va B.Rasulov tomonidan rus tilida e'lon qilingan uch jildlik hujjatlar va materiallar to'plamida yorug' dunyo yuzini ko'rdi¹. O'rta Osiyo qishloqlarining dahshatli fojiasi ko'rsatilgan, shu jumladan, XX asrdagi o'zbek qishlog'i fojiasi aks ettirilgan ushbu materiallar orasida Samarqand okrug hududida yuz bergan mudhish voqealar to'g'risidagi hujjatli manbalar ham talaygina bo'lib², ulardan ayrimlarini ushbu o'rinda keltirib o'tmoqchimiz.

Masalan, ushbu kitobning 362-hujjatida³ Buxoro okrugidagi quloq posyolkalari haqida yozilgan. 1930-yil 9-dekabr sanasiga tegishli ushbu hujjatda O'rta Osiyo respublikalari hududida faqat bitta quloq posyolkasi mavjudligi, bu posyolka 1930-yil 15-martda 62 ta quloq xo'jaligi (250 kishi) asosida Buxoro okrugining Shofirkon tumanidagi Jilvon degan joyda tashkil qilinganligi haqida so'z boradi. Bu quloq xo'jaligidagi odamlar Samarqand okrugidagi Ikromov⁴ tumanidan majburiy ravishda ko'chirilgan bo'lib, ular badarg'a qilinganlarning 3-kategoriyasiga mansub bo'lishgan.

¹ Трагедия Среднеазиатского кншлага: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929–1955 гг. Документы и материалы. Том I–III. Составители: Р.Т. Шамсутдинов и Б.М. Расулов / Под редакцией Д.А. Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006.

² Rajabov Q., Rajabov D. Selday kelgan ofat (Davr fojiasi hujjatlar nigohida) // Muhofaza. 2007. № 1. 25-bet.

³ Трагедия Среднеазиатского кншлага: .. Том. II. С. 291–293.

⁴ Pastdarg'om tumani 1929–1938-yillarda Akmal Ikromov tumani deb yuritilgan.

Oradan bir yil o'tgach, O'zbekistonda quloq qilinganlarning 17 ta posyolkasi vujudga kelgan. Kitobning 369-hujjatida keltirilishicha, 1931-yilda Denov va Ikromov tumanlarida uchtadan, Qo'qon, Bauman (hozirgi Shofirkon), Quva tumanlarida ikkitadan, Chust-Pop, Oqdaryo, G'ijduvon, Sariosiyo, Yangiyo'l tumanlarida bittadan ana shunday quloq posyolkalari mavjud bo'lgan¹. Turkmaniston SSRda esa bunday quloq posyolkalari faqat Denov va Marv tumanlarida bo'lgan, xolos. Majburiy badarg'a qilinganlar joylashtirilgan bunday quloq posyolkalarida yashash jahannam azobi bilan teng edi. Masalan, Ikromov tumanidagi uchta quloq posyolkasi Qoradaryo bo'ylarida, Ikromov bilan Oqdaryo tumanlari o'rtasidagi chegarada joylashgan bo'lib, bu quloq posyolkalariga badarg'a qilinganlar qamish chaylalarda yashashgan. Quloqlar o'zlari mansub bo'lgan qishloqlarning aholisi bilan doimiy aloqada bo'lib turishgan, ularning qarindoshlari tez-tez bu yerga kelib turishgan².

Aslini olganda, yuqorida nomlari keltirilgan tumanlarda ko'chirib keltirilganlar uchun maxsus quloq posyolkalarining tuzilishi bejiz bo'lmagan. VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi ijroiya komissiyasi va O'zbekiston Kompartiyasi MK 1930-yili O'zbekiston SSR bo'yicha 18 ta tumanni yoppasiga kollektivlashtirish (jamoalashtirish) o'tkaziladigan tumanlar deb e'lon qilgan edi. Ushbu tumanlar orasida Samarqand shahri atrofidagi Oqdaryo va Pstdarg'om tumanlari ham bo'lgan.

O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi Akmal Ikromov Samarqand okrugi partiya konferensiyasida shunday yo'l-yo'riq bergan edi: «Garchi biz orqada qolgan rayon bo'lsak-da, lekin qishloq xo'jaligini jamoalashtirish sur'atlari bo'yicha orqada qolishni o'ylamaymiz. Bahorgi ekin kampaniyasigachayoq Farg'ona vodiysini jamoalashtirish bo'yicha ishlarni tugallash hamda Andijon va Farg'ona okruglarini yoppasiga jamoalashtirish uchun biz butun Farg'ona vodiysini yoppasiga jamoalashtirishga kirishyapmiz»³.

OGPU (Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi)ning O'rta Osiyodagi favqulodda vakili o'rinbosari V.A. Karutskiy va axborot bo'limi boshlig'i Volinskiyning 1930-yil may oyida tayyorlagan «mutlaqo maxfiy» tamg'ali «Siyosiy huquqdan mahrum qilinganlar tarkibini qayta ko'rib chiqish yuzasidan olib borilgan ishlar haqida»gi 1-son axborotida Samarqand va

¹ Трагедия Среднеазиатского кншлага... Т. II. С. 315.

² Трагедия Среднеазиатского кншлага... Т. II. С. 305; Докладная записка о кулацких посёлках в Средней Азии (по состоянию на 1 июля 1931 г.). // O'zbekiston RPDA, 58-fond, 7-ro'xat, 251-ish, 2–10-vaqlar.

³ Shamsiddinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rta Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003. 59–60-betlar.

Buxoro okruglaridagi holat tavsifi berilgan. Axborotda keltirilishicha, Samarqand okrugida huquqdan mahrum qilinganlarni hisobga olish juda bo'sh yo'lga qo'yilgan. Aksariyat hollarda rayijroqo'mlar (rayispolkomlar) bilan qishloq sho'rolarining ma'lumotlari bir-biridan keskin farq qilgan. Bu masala yuzasidan joylarda tuzilgan turli komissiyalar muammoga sovuqqonlik bilan pala-partish yondashganlar.

Okrugning Payariq tumanidagi komissiyasi favqulodda bo'sh ishlaganini, uning a'zolari ichkilikbozlik qilib, majlislarni barbod qilayotgani qayd etilgan. Miton tumanida esa komissiya ro'yxatlarni rasmangina qarab chiqayotgani (bitta majlisda 290 kishining «ishi» ko'rib chiqilgan) va hech qanday sabablar ko'rsatilmagan holda qarorlar qabul qilgani ta'kidlangan. Ayrim qishloq sho'rolarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, ilgari huquqdan mahrum qilinganlarning taxminan 20–25 foizining huquqi tiklanayotgan ekan.

VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining ko'rsatma va talablari asosida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti respublika prokuraturasi va GPU bilan birgalikda O'zbekiston SSR bo'yicha «quloq» qilish va «quloq» qilinganlarni surgun qilish operatsiyasini o'tkazishga kirishadi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti 1931-yil 1-avgustda quloqqa tortish va surgun qilish bo'yicha 20 kishidan iborat, 6-avgustda esa qo'shimcha 5 kishidan iborat o'z vakillarini tasdiqlab, ularni joylarga xizmat safariga yo'llaydi¹. Toshkentdan yuborilgan Azizov (raykom kotibi) Samarqand tumaniga, Averbux Qoradaryo va Kattaqo'rg'on tumanlariga, Antonov (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Kontrol komissiyasining a'zosi) Narpay tumaniga, Ritman (O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligidan) Payariq tumaniga yuborilgan. Markazning qat'iy partiyaviy ko'rsatmalari bilan qurollangan bu kommunistlar Samarqand atrofidagi qishloqlarda badavlat dehqonlarni «quloq» qilish bahonasida ommaviy qatag'on kompaniyasini o'tkazdilar.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1931-yil avgust oyida Samarqand tezkor sektori bo'yicha 700 xonadon va 3680 kishi «quloqlar» sifatida O'zbekistondan badarg'a qilingan. «Quloq» qilinib, o'z yurtidan surgun qilinganlar Yuqori Darg'om tumanida 250 xonadon va 1152 kishi, Payariq tumanida 50 xonadon va 447 kishi, Kattaqo'rg'on tumanida 75 xonadon va 349 kishi, Qoradaryo tumanida 125 xonadon va 678 kishi, Narpay tumanida 200 xonadon va 1053 kishidan iborat bo'lgan². Xullas, 1931-yil

¹ O'zbekiston RPDA, 58-fond, 8-ro'yxat, 292-ish, 26–27-varaqlar.

² *Shansuldinov R.* Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. ... 213–215-betlar.

avgust oyidagi operativ harakatlar natijasida O'zbekistondan 3795 xonadon va 17839 kishi, O'rta Osiyo respublikalaridan jami 5681 xonadon va 27 745 kishi «quloqlar» va «quloq» xo'jaliklarining a'zolari sifatida O'rta Osiyo hududidan begona yurtlarga surgun qilinganlar.

Rossiyalik tarixchi olim V. Zemskovning yozishicha, 1930–1931-yillarda O'rta Osiyo respublikalaridan 6944 xonadon surgun qilingan, shundan 159 xonadon Qozog'istonga, 2213 xonadon Shimoliy Kavkazga, 3444 xonadon Ukrainaga, 1128 xonadon esa O'rta Osiyoning ichki hududlariga surgun qilingan¹.

«Meros» xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiyasi xayriya jamg'armasi a'zolarining 2002–2003-yillarda Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlariga uyushtirgan ko'plab safarlari natijasida Shimoliy Kavkazga surgun qilingan «quloqlar» va ularning avlodlari to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan va tartibga solingan. Samarqand shahri atrofidagi Samarqand tumanining Talli Barzu qishlog'idan Marhabo Eshonqulova, Og'aliq qishlog'idan Asror Qurbonov, Payariq tumanidagi Choporoshli qishlog'idan Abdurahmon Toshtemirov, Narpay tumanidagi Puskaron qishlog'idan Abdug'affor Yusupov, Abdusattor Yusupov, Salovat Asadova, Kattaqo'rg'on tumanidan Shukrullo Rajabov, Abdulaziz Zubaydullaxo'jayev, Zubayda Xudoyorova, Zaynab Xudoyazarova, Zoir Mo'minov, Abdullajon Rajabov, Buxoro shahridan Isoq Mardonov, Kogon shahridan Hamrobibi Azizova, Vobkent shahridan Shirin Panoyeva (O'rinova) kabi o'sha qatag'onlik davri va badarg'alik yillarining bevosita shohidi bo'lgan kishilarning xotiralarida aytilishicha, Shimoliy Kavkazdagi mehnat posyolkalarida aksariyat Samarqand va Buxoro okruglaridan surgun qilinganlar yashashgan. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1931-yili Samarqand okrugidan 700 xonadon (3680 kishi), Buxoro okrugidan 691 xonadon (3820 kishi), ya'ni har ikki okrugdan 1391 xonadon (7500 kishi) Shimoliy Kavkazga surgun qilingan. Ular 1931-yil 26–27-avgustda temiryo'l stansiyalaridagi yig'uv punktlaridan qizil vagonlarga joylashtirilib, avval Krasnovodskka (hozirgi Turkmanboshi shahri), so'ngra paroxodda Kaspiy dengizi orqali Makhachqal'aga yetib borganlar. Bu joydan yana vagonlarga chiqib, Prikumsk (hozirgi Budyonovsk) stansiyasiga kelganlar². O'zbekistondan «quloq» qilinganlar Orjonikidze (Shimoliy Kavkaz) o'lkasidagi Apanasenkov, Arzigir, Budyonniy kabi rayonlar hududiga joylashtirilgan.

¹ Земсков В.Н. Судьба «кулацкой ссылки» (1930–1954 гг.) // Отечественная история. 1994. № 1. С. 118–120; Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. – Toshkent: Sharq, 2001. 105-b.

² Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. ... 216–217-betlar.

Samarqand shahri va uning atroflarida yashovchi o'rtahol dehqonlar hamda o'ziga to'q xonadonlar vakillari ham «quloq» sifatida badarg'a qilingan. Masalan, Yuqori Darg'om (hozirgi Samarqand) tumanidagi Chaqarchuqur qishloq sho'rosidan 1931-yilda tegirmoni va yog'juvozi borligi uchun Murod Ibrohimov, Ismat Sodiqov, Qora Xo'jayev (jami 13 kishi), savdogarlik qilganligi uchun O'tamurod Elmurodov, Hasan To'sunmurodov, Muslim To'rayev, Mahmud Oltinov, Rajab Muhamedov (jami 13 kishi), un sotish bilan shug'ullanganligi uchun Murodqosim Yangiboyev, nosfurushtlik qilganligi uchun Yoqub Mirzayev, Rajab Mahmudov, chayqovchilik qilganligi uchun Tolib Xudoyberdiyev, Qo'ldom Bobobekov, imom bo'lgani uchun Muhammad Komilov, o'zgalarning ishchi kuchidan foydalanganligi uchun Islom Shodmonov, Abbos Maqsudov, Norpo'lat Temirov (jami 10 kishi), qassobligi uchun Dehqon Xudoyqulov, Qoraboy Nazarov, Bozorboy Qo'chqorov kabi o'rtahol kishilarning mol-mulki musodara qilinib, o'zlari «quloq» qilingan¹.

Sovet tuzumining quloqlashtirish siyosati dehqonlarda sovet hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik va xavotirlikni kuchaytirdi. Ko'plab dehqonlar o'z xo'jaliklari va yashash joylarini tashlab olis tumanlarga qochdilar. Chorva soni ham keskin kamaydi. Respublikadagi siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Dehqonlarning noroziliklari 1930-yil 25-fevralda Farg'ona vodiysida g'alayonga aylandi. Bunday norozilik chiqishlari va sovet hokimiyatiga qarshi g'alayonlar Zarafshon vodiysida ham keng tarqaldi. 1920-yil fevral-mart oylarida Buxoro okrugida 14 ta norozilik chiqishlari bo'lib, unda 2600 kishi, O'rta Zarafshon okrugida (hozirgi Navoiy viloyatida) bo'lgan 2 ta norozilik chiqishida 1000 kishi, Samarqand okrugida bo'lgan 3 ta norozilik chiqishida 120 kishi qatnashgan. Bu davrda O'zSSRda jami 115 ta norozilik chiqishlari bo'lib, unda 47150 kishi qatnashgan².

Sovet hokimiyati tomonidan ushbu norozilik chiqishlarida (miting, namoyish, g'alayon, isyon, qurolli qarshilik ko'rsatish) qatnashgan kishilar qamoqqa olinib, shafqatsiz jazolangan. Samarqand okrugi bo'yicha qamoqqa olingan 127 kishidan 81 kishi boy, 10 kishi mulla, 13 kishi kambag'al, 23 kishi o'rtahol bo'lgan. Kambag'al va o'rtahol dehqonlar ham sovet hokimiyatiga qarshi ommaviy chiqishlarda, xususan, qurolli guruh bo'lib terrorchilik harakatlarini amalga oshirish va jinoiy «bosma-

¹ Samarqand VDA, 1712-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 1-2-varaqlar.

² РГАСПИ (Российский Государственный архив социально-политической истории), ф. 62, оп. 2, л. 2141, л. С. 125-127.

chilik» harakatida faol qatnashganlikda ayblanib, qatag'on (repressiya) qilingan¹.

1935–1939-yillarda butun Ittifoqda bo'lgan ommaviy qatag'on siyosati O'zbekiston SSR tarkibidagi Samarqandni ham chetlab o'tmadi. Sovet tuzumi bu gal siyosat va jamoat arboblari, xo'jalik xodimlari, taniqli ziyolilar bilan bir qatorda oddiy xalq vakillari (dehqonlar, ishchilar, xizmatchilar, dindorlar va h.k.)ni ham ommaviy ravishda qatag'on qildi. Qatag'on qilingan o'zbek xalqi vakillari orasida samarqandliklar ham ko'p bo'lgan.

«Milliy Ittihad» tashkilotining Samarqand sho'basini faollaridan bo'lgan Qozi Haydarbek Abdusaidov va Kamoliddin Husainov 1937-yil 21-noyabrda favqulodda «uchlik» qarori bilan otishga hukm qilingan. Shuningdek, tashkilot faollaridan hisoblangan Abduaziz Abdug'afurov va Abubakr Abdulxayirov 1937-yil 20-avgustda hibsga olinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan edi. Taniqli jamoat arbobi Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev esa 1937-yil 7-sentabrda hibsga olinib, u ham 10 yil muddatga qamalgan. Shuningdek, To'laboy Jo'raboyev, Zayniddin Nasritdinov, Abdulqodir Shakuriy, Rojij Nasritdinov 1937-yil 12-sentabrda hibsga olinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan². Jadid ziyolilaridan Hoji Muin 1938-yil 24-yanvarda qamoqqa olinib, NKVD huzuridagi «uchlik» hukmi bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi.

Samarqand shahar partiya qo'mitasining 1-kotibi Nosir Hojimetov (1901-yilda Chimkent shahrida tug'ilgan) O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi (UzSSR NKVD) tomonidan 1937-yil 8-oktabrda hibsga olingan va 1938-yil 13-oktabrda o'lim jazosiga hukm qilingan³.

Samarqand atrofidagi Oqdaryo va boshqa tumanlarda sovetlarga qarshi faoliyat ko'rsatgan yashirin milliy tashkilot a'zolaridan bir guruhi mudhish 1937-yilda qamoqqa olingan. Sovet tuzumining qatag'on organi hisoblangan «uchlik» guruhining 1937-yil 20-avgustdagi qarori bilan tashkilot faollaridan Nazarali Eshmuhamedov, Ahmad Maxsum Nabiyev, Toshtemir Mavlonov, Xudoyberdi Aminov, Xo'jamqul Boboxo'jayev, Berdiyof Safarov, Zubaydulla Abdug'aniyev otishga hukm qilingan. Tashkilot a'zolaridan bo'lgan Bobonazar Berdiyev, Eshquvvat Rahimqulov, Toshpo'lat Irisqulov 10 yil muddatga, Pirimqul Nurmatov 8 yil mud-

¹ Советская деревня глазами ВЧК – ОГПУ – НКВД (1918–1939). Документы и материалы. Том. 3. Книга 1. – Москва: РОССПЭН, 2003. С. 253.

² O'zbekiston FA Tarix instituti arxivi, P-13856, 1281-ish, 1-jild, 235–244-variantlar.

³ O'zbekiston FA Tarix instituti arxivi, P-19070, 11263-ish, 1-jild, 178-variant.

datga ozodlikdan mahrum qilingan¹. Xullas, sovet tuzumi samarqandlik ziyolilar va rahbar xodimlarni shafqatsiz ravishda qatag'on qilib turgan.

Sovet tuzumi tomonidan o'tkazilgan ommaviy qatag'on va terror davrida ham shaharda hayot to'xtab qolmadi. Oddiy samarqandliklar fojiali 1936–1938-yillarda ham o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan shahar qiyofasini o'zgartirishga intildilar, milliy o'zliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Sovet hokimiyatining siyosiy qatag'onlari o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan bir paytda – 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida keyinchalik katta davlat arbobi bo'lib yetishgan Islom Abdug'aniyevich Karimovning tug'ilganligi, buning ustiga unga ism sifatida muqaddas musulmon dinimizning nomi – Islom oti berilganligi zamirida ham o'ziga xos hikmat mavjud.

Ma'lumki, O'zbekiston SSRda 1930-yili okruglarga bo'linish bekor qilingan edi. 1938-yil 15-yanvarda O'zSSR tarkibida tuzilgan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm kabi 5 ta oblast (viloyat)lar qatorida Samarqand viloyati ham tashkil qilindi. Samarqand shahri odatdagidek Samarqand viloyati va Samarqand tumanining ma'muriy markazi bo'lib qolaverdi.

1934-yil 1-noyabrda Samarqanddagi barcha kustar hunarmandchilik artellari birlashtirilib, Samarqand shoyi to'qish fabrikasiga asos solindi. Dastlab yog'ochdan ishlangan, qo'lda to'qiydigan dastgohda shoyiga o'xshash milliy gazlama ishlab chiqarilgan. 1935-yili fabrikada 242 ishchi ishlagan va uch xil turdagi 54800 metr gazlama to'qilgan. Ikkinchi jahon urushi yillaridan so'ng fabrika uch marta rekonstruksiya qilinib, yangi bino va sexlar qurilgan, yangi dastgoh va mashinalar keltirilgan.

Samarqanddagi eng yirik va eski korxonalaridan biri Samarqand vino zavodi (keyinroq Samarqand sharob kombinati) hisoblanadi. Korxonada tarixi 1868-yilda iste'fodagi rus ofitseri D.L. Filatov tomonidan kichik vino zavodi qurilib, mahalliy uzum navlaridan vino mahsulotlari ishlab chiqarilgan davrdan boshlanadi. 1919-yilda Turkiston ASSRdagi barcha vino zavodlari, shu jumladan, Filatovning vino zavodi ham davlat hisobiga musodara qilingan. 1922-yildan 1-sonli vino zavodi sifatida «Turkvino» (1926-yildan «O'zbekvino») davlat tresti tarkibiga kirgan. O'sha davrda zavodning ishlab chiqarish quvvati 60 000 dekalitrga yetgan. 1940-yilda zavodga professor M.A. Xarvenko nomi berilgan. (1981-yilda vino zavodi vino kombinatiga aylantirildi. Zavodning Samarqand viloyati tumanlarida

¹ O'zbekiston FA Tarix instituti arxivi, P-36171, 1186-ish, 2-jild, 141–142-varaqlar.

vino tayyorlash punktlari mavjud bo'lgan. Samarqand sharob kombinati 1994-yildan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan.)

Sovet hokimiyati yillarida Samarqand shahrida 70 dan ortiq qirik fabrika va zavodlar qurilgan. Samarqand respublikada tayyorlanadigan uy konditsioneri, kinoapparat, lift, choy va tamakining hammasini, ipak gazlama, uzum vinosi va mineral o'g'itning 14 foizini, konserving 22 foizini, paxta tolasining 3,2 foizini bergan. Bu davrda chinni idish, paxta tozalash zavodlariga jihozlar, traktor va avtomobillarga zaxira qismlar, televizorlar, radio detallari, sovutgich, mineral o'g'itlar (ammofos) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi Samarqand superfosfat zavodi (hozirgi Samarqand kimyo zavodi), Samarqand liftsozlik zavodi, Samarqand chinni buyumlari zavodi (keyinroq Samarqand «Nafis» aksiyadorlik jamiyati), Samarqand sovitkich zavodi (keyinchalik Samarqand «Sino» aksiyadorlik jamiyati), Samarqand vino zavodi (keyinchalik Samarqand sharob kombinati), Samarqand choy qadoqlash fabrikasi, 26 Boku komissarlari nomidagi Samarqand shoyi to'qish fabrikasi, «Hujum» ipak fabrikasi, shuningdek, «Xlopkomash», «Krasniy dvigatel», «Kinap», radiodetal, konditsioner zavodlari, paxta tozalash va teri zavodlari, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal, mebel fabrikalari, «Serp i molot» nomli konserva zavodi, spirt-araq, pivo, makaron, un tortish zavodlari, «O'rtoq» tamaki-fermentatsiya fabrikasi va qandolatchilik fabrikasi, go'sht, sut va uysozlik kombinatlari mavjud edi. Samarqanddagi zavod va fabrikalarda tayyorlangan sanoat mahsulotlari hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari dunyoning turli mamlakatlariga yuborilgan¹. Biroq sovet tuzumi davrida qishloq xo'jalik xomashyosini ishlab beruvchi sanoat korxonalarining hissasi Samarqandda tayyorlangan barcha sanoat mahsulotlarining 4/5 qismini tashkil etgan. Bu davrda Samarqand viloyati respublikada ishlab chiqariladigan yalpi sanoat mahsulotining 13 foizini bergan. Respublika oziq-ovqat sanoati mahsulotining 53 foizi, to'qimachilik sanoatining 31,7 foizi, metallsozlikning 5,9 foizi Samarqand viloyatida tayyorlangan.

Mazkur davrda Samarqand viloyati qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan paxtachilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya qurilishi sohasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. Sovet hokimiyati yillarida Zarafshon daryosida 1-May to'g'oni, Narpay, Yangi Anhor va Eski Anhor, Miyonqol-Xatirchi, Darg'om, o'ng sohil Zarafshon kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori qurildi. Samarqandda energetika bazasi yuzaga keltirildi. Vi-

¹Samarqand // O'zbek sovet ensiklopediyasi. Tom 9. – Toshkent: O'zSE Bosh redaksiyasi, 1977. 467–469-betlar

loyat hududida 198 ta elektr stansiyalari, shu jumladan, 68 ta gidroelektr stansiyalari qurildi. Ular orasida Samarqand SES va Kattaqo'rg'on TES, Darg'om kanalidagi Xishrav GES va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Xullas, bu davrdagi Samarqand shahri tarixiga oid fikrlarni sarhisob qilar ekanmiz, sovet hokimiyatining dastlabki chorak asr davridagi siyosiy o'zgarishlar shahar hayotiga jiddiy ta'sir o'tkazganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Samarqand shahrida yashovchi shaharliklarning bu yillardagi hayoti hamda turmushi oddiy va oson kechmadi. Samarqand shahri bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan undan keskin farq qiluvchi ikkinchi bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga o'tar ekan, shaharda yuz yillar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarzi va sharqona hayot tarixan qisqa muddat – atigi 25 yil ichida zo'rlik yo'li bilan butunlay sindirib tashlandi va mustabid sovet jamiyati asoslarining poydevori qurildi. Kommunistik mafkuraga asoslangan sovet jamiyati XX asrning 20–30-yillarida butun mamlakatda bo'lgani singari Samarqandda ham o'zining xalqqa qarshi qatag'on siyosatini yuritdi. Siyosat, madaniyat va jamoat arboblari bilan birgalikda minglab oddiy samarqandliklar bu davrda qatag'on qurboni bo'lishdi. Sovet tuzumining bunday qattol siyosati shahar hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu yillarda shahar hayotida yuz bergan ayrim ijobiy o'zgarishlar esa ushbu yo'qotishlar va talafotlarning sohasida qolib ketdi.

5-§. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida¹

Ikkinchi jahon urushi yillarida samarqandliklar fashizmga qarshi olib borilgan janglarda mardlik va shijoat namunalari ko'rsatdilar. Samarqandda ham milliy qo'shin birlashmalari tashkil qilinib, frontga jo'natildi. 1941-yil noyabrda alohida milliy o'qchi brigada va 1943-yil iyulda 17-alohida Samarqand batalyoni tuzildi. A.Matrosov shijoatini takrorlab, mardlarcha halok bo'lgan samarqandlik Sovet Ittifoqi Qahramoni Qudrat Suyunovning, Brest qal'asi himoyachilaridan M.Hamroyev, K.Mixaylov va boshqalarning jasorati tillarda doston bo'ldi².

Samarqand mehnatkashlari bu davrda o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan jonajon shahar tarixiga shonli sahifalarni yozishdi. Samarqand korxonalarida urush yillarida 150 dan ortiq yangi sex bunyod qilindi, 200 xildan ko'proq yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi,

¹ Kitobning nazkur fasli A. Bodirov bilan hamkorlikda yozildi – Q. Rajabov izohi.

² Qarang: Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана на победу над фашизмом. Часть I–II. – Самарканд: Изд. СамГУ, 2006. С. 170.

ishlab chiqarishning umumiy darajasi ikki baravar oshirildi. Front uchun oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari ko'p miqdorda harbiy qurol-yarog' va o'q-dori yetkazib berildi¹.

Urushning birinchi kunlaridanoq samarqandliklar ham darhol frontga jo'natishlarini so'rab harbiy komissarliklarga ariza berdilar. Samarqand aholisi shahar va viloyat harbiy komissarliklariga darhol frontga jo'natishlarini so'rab 1316 ta ariza topshirdi. 1941-yilning 4-avgustiga kelib bunday arizalar soni 2988 taga yetdi. Shu arizalardan 613 tasi xotin-qizlardan edi².

Urush yillarida Samarqanddagi korxonalarining hammasi o'z ishlari ni urush davri talabiga muvofiq qayta ko'rib chiqdi. Zavod va fabrikalarda zarbdorchasiga mehnat qilish, gvardiyachi brigada nomini olish harakati avj oldi. Bu vatanparvarlik tashabbusi qatnashchilari bir smenada ikki-uch normani bajardilar. Samarqanddagi fabrika, zavodlarga ayollar ham kelib ishlay boshladi. 1941-yilning oxiriga kelib ikki yarim mingdan ortiq ayol zavod va fabrikalarda ishladi. Ular eng murakkab jarayonlarni o'zlashtirib oldilar va erkaklarning o'rinlarini bildirmay mehnat qildilar.

Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqining insoniylik, olijanoblik, bolajonlik fazilatlarini urush ketayotgan hududlardan va frontga yaqin joylardan ko'chirib keltirilgan aholiga, bolalarga ko'rsatgan ochiqko'ngilliligi, hamdardligi va g'amxo'rligida o'z ifodasini topdi.

Qisqa vaqt davomida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalaridan ko'chirib keltirilgan bir milliondan ko'proq kishilar va 200 mingdan ziyod yetim bolalarni O'zbekiston xalqi o'z bag'riga olar ekan, shundan 165 ming kishi Samarqand viloyatiga joylashtirildi.

Samarqandlik Niyoz Fuzaylov frontdan og'ir yarador bo'lib qaytgandan keyin turmush o'rtog'i bilan birga o'qituvchilik qilib, farzandlari qatori yetti nafar yetim bolani ham tarbiyaladi. Viloyatning Kattaqo'rg'on shahridan bo'lgan urush nogironi Abduhamid Samadovning insonparvarligi va baynalmilliligi butun dunyoga ovoza bo'ldi. U urushdan nogiron bo'lib qaytgach, urushning oxirlari va urush tamom bo'lgandan keyingi yillarda o'zi hali bo'ydoq bo'lishiga qaramay, bolalarning kimligi – tili, irqi va millatidan qat'i nazar, 16 bolani olib tarbiyalaydi³.

¹ Bodirov A. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida. – Samarqand: Zarafshon, 2015. – 124-b.

² Samarqand tarixi. 2-jild. ... 194-b.

³ Turdiyev S. Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlarining ko'chirib keltirilgan bolalarga g'amxo'rligi. – Toshkent: Fan, 1987. 27-b.

Ko'chirib keltirilgan, ota-onasidan ajrab qolgan bolalarni joylashtirish uchun viloyat ijroiya qo'mitasi va partiya komiteti qaroriga ko'ra, Samarqandning qishloq tumanlari – Jomboy, Bulung'ur, Forish, Narpay, Pastdarg'om va viloyatning boshqa tumanlarida 8 ta bolalar uyi tashkil etilib, ular 4270 bolani tarbiyalashni o'z zimmlariga oladilar. Samarqand shahridagi 11 ta bolalar uyiga qo'shimcha ravishda 660 bola joylashtiriladi¹.

1942-yilning boshlariga kelib Samarqand shahridagi mavjud 10 ta bolalar uyida 1512 bola tarbiyalanadi, ulardan 590 nafari front yoqasidan ko'chirib keltirilgan bolalar edi. Bolalar uyida tarbiyalanuvchilar oy sayin ko'payib, 1943-yil yoz oylarida 1810 kishiga yetdi. Bundan tashqari, Samarqand shahrida polyak bolalari uchun bolalar uylari ochildi. Moskvadan ko'chirib keltirilgan 120 ispan yoshlari uchun internat ishga tushirildi².

Samarqand viloyati mehnatkashlarining insoniylik fazilatlaridan biri shu bo'ldiki, frontga yaqin hududlardan ko'chirib keltirilgan 165 ming kishini joylashtirdilar va ularga mehribonliklar ko'rsatdilar. Faqat 1942-yilning 20-fevraliga qadar ko'chirib keltirilganlardan 8 ming kishi Bog'ishamol tumaniga joylashtirildi. Temiryo'l tumaniga nemislar bosib olgan hududlardan 1663 oila ko'chirtirib kelindi. Samarqandliklar ota-onasiz qolgan 20 mingdan ziyod bolani o'z bag'riga oldilar³.

Urush yillarida Samarqand viloyatiga frontga yaqin hududlar va urush ketayotgan joylarga emas, balki urushga tortilgan, fashistlar Germaniyasi tomonidan bosib olingan davlatlardan ham bolalar va aholi ko'chirib kelindi. Ularga xalqimiz mehr va insoniy yordamini ko'rsatdi. Ko'chirib keltirilganlarga o'z uylaridan joy berdi, maxsus bolalar uylari tashkil qilindi va internatlarga joylashtirdi.

Samarqand viloyatida tashkil etilgan bolalar uyiga polyak bolalari joylashtirildi. Keyinchalik viloyatning Narpay tumanida polyak bolalari uchun yana uchta bolalar uyi tashkil etiladi. Bolalar uyini zarur narsalar bilan ta'minlash maqsadida maxsus fond tashkil etildi. Bundan tashqari, bolalar uylariga otaliqdagi xo'jalik yoki tashkilotlarning yordami kuchaytirildi.

Samarqand viloyat xalq deputatlari ijroiya qo'mitasining 1942-yil 12-maydagi qarori bilan Narpay tumanidagi polyak bolalar uyining yor-

¹ Samarqand tarixi. 2-jild. ... 238-b.

² Turdiyev S. Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlarining ko'chirib keltirilgan bolalarga g'amxo'rligi. ... 33-b.

³ Aminov H., Ibrohimov N. Samarqand – frontga. – Samarqand: So'g'diyona, 1994. 34-b.

damchi xo'jaligi uchun 500 kg va Samarqand shahridagi polyak bolalar uyining yordamchi xo'jaligi uchun 500 kg kartoshka urug'i ajratiladi¹.

Urushning dahshatli kunlarida Mudofaa fondi tuzish, tanklar va samolyotlar qurishga, qurol-yarog' va harbiy anjomlar sotib olishga pul va qimmatbaho buyumlar to'plash, armiyaga issiq kiyim va sovg'alar to'plash harakatini Samarqand viloyati aholisi keng avj oldirib yubordilar. Urushning birinchi oylaridayoq viloyat mehnatkashlari, asosan, yoshlar «O'zbekiston komsomoli» nomli tanklar kolonnasi qurish uchun 1 million rublga yaqin pul to'plashadi.

O'zbekiston xalqi tank va samolyotlar qurish uchun Mudofaa fondiga 1943-yilning 1-aprelegacha 368935000 rubl pul to'plab, Davlat bankiga topshiradi. Shu jumladan, Samarqand viloyati mehnatkashlari 51815000 rubl pul to'plab, topshiradi².

Frontdagi jangchilar uchun issiq kiyim yig'ish viloyat kolxozlarida muvaffaqiyatli o'tdi. Samarqandliklar 1942-yilning ikkinchi yarmida harakatdagi armiyaga 3 ming dona kalta po'stin, 8 mingta piyama, 7 ming telpak, 9 ming juft qo'lqop, 5 mingta paxtali shim, 17 ming juft paypoq va boshqa shunga o'xshash zarur narsalarni jo'natishdi³.

Urush yillari viloyat mehnatkashlari jangchilarning oilalariga doimiy g'amxo'rlik qilib turdilar. Mahalliy davlat organlari ularni hisobga olish va yordam ko'rsatish ishlarini nazorat ostiga oldilar. Korxonalar, muassasa hamda sanoat artellarida frontchilarning oilalariga ko'maklashish yuzasidan kundalik ish olib borildi. Jangchilarning ota-onalari, xotinlari va bolalari ko'p miqdorda kiyim-kechak, poyabzal va ro'zg'or anjomlari hamda boshqa moddiy yordamlarni oldi.

1943-yilda Samarqand viloyatida 35512 harbiy xizmatchining oilasi nafoqa, 2042 xizmatchining oilasi pensiya bilan ta'minlandi, shulardan 10511 kishini keksayib qolgan ota-onalar, 15227 ko'p bolali oilalar tashkil qilar-di. Harbiy xizmatchilarning oila a'zolaridan 3117 kishi ishga joylashtirilib qo'yildi, 984 kishi o'qishga yuborildi, 763 o'g'il-qiz bolalar muassasalariga, 7650 kishi bolalar maydonchalariga joylashtirildi.

Respublika mehnatkashlarining tashabbusi bilan ozod etilgan tumanlarga qardoshlik yordami fondi tuzildi. Bu fondga yuz minglab rubl mablag' va oziq-ovqat tushdi. 1943-yilning boshlarida Samarqand viloyatida

¹ Samarqand viloyati davlat arxivi (Samarqand VDA), 74-fond, I-ro'yxat, 4407-ish, 330-varaq.

² O'zbekiston mehnatkashlari tank va aeroplanlar qurishga 368935000 so'm topshirdilar// «Lenin yo'li». 1943-yil 10-aprel. № 78 (3406).

³ «Ленинский путь». Июль-декабрь, 1942 г.

ham nemis-fashistlardan zarar ko'rgan aholiga yordam berish fondi tashkil etildi.

Samarqand viloyati mehnatkashlari ozod qilingan hududlarining qishloq xo'jaligini qayta tiklash ishiga ham yaqindan yordam berdi. 1943-yil fevral oyining o'rtalarida Samarqand temiryo'l stansiyasidan Stavropol o'lkasiga traktor va qishloq xo'jalik mashinalari ortilgan 2 eshelon jo'natildi. Viloyatning mashina, traktor stansiyalari 180 ta g'ildirakli traktor va 40 ta o'rmalovchi traktor, 165 ta seyalka, 66 ta traktor plugi bergan va yana Ukrainaga 95 ta traktor va 95 ta plug, Krasnodar o'lkasining tumanlariga 60 ta avtomashina jo'natadi¹.

1943-yilning oxirida Samarqand viloyati ozod qilingan tumanlarga 13500 bosh qoraqo'l qo'y, 11600 bosh dumbali va boshqa zotdagi qo'y, 2 ming boshdan ortiq echki va qo'zi, 1200 bosh yilqi, 800 bosh ho'kiz, ko'pgina sigir va boshqa chorva mollari yubordi².

O'zbekistonning boshqa viloyatlari aholisi kabi Samarqand viloyati va-killari ham Ikkinchi jahon urushi frontlarida kechgan ayovsiz janglarda, kuchli va makkor dushmanga qarshi qonli urushda o'zbek xalqiga xos bo'lgan qahramonlik va mardlik ko'rsatib, qo'lida qurol bilan muqaddas zaminimizni himoya qildi.

Ikkinchi jahon urushida O'zbekistondan 1433230 kishi qatnashgan bo'lsa,³ Samarqand viloyati bo'yicha 152 mingdan ziyodroq kishi dushmanga qarshi kurash olib bordi⁴.

Qo'lga qurol olib bosqinchilarga qarshi kurashganlar safida yuz minglab samarqandliklar ham bor edi. Samarqandning jasur va mard o'g'lonlari Moskva ostonalaridagi hayot-mamot janglarida, Stalingrad uchun bo'lgan dahshatli to'qnashuvlarda, Neva bo'ylari va Kiyev yaqinida, Xarkov uchun bo'lgan janglarda, Brest qal'asi va Odessa portlarida, Leningrad janglarida, Yevropa xalqlarini ozod etishda faol qatnashdilar.

Bu davrda Samarqand viloyatining minglab farzandlari fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda mardlik va jasoratlik namunalarini ko'rsatdi. Viloyatdan 152 mingdan ziyod kishi SSSR hududi va Yevropaning ko'plab mamlakatlarida kechgan janglarda qatnashdi. Afsuski, samarqandlik o'g'lonlardan 73 ming nafariga ona yurtiga qaytib kelish nasib etmadi. Nemis-fashist bosqinchilari bilan olib borilgan janglarda mardlik va shijo-

¹ Samarqand tarixi. 2-jild. ... 247-b.

² Samarqand tarixi. 2-jild. ... 249-b.

³ O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 463-b.

⁴ Aninov, X., Ibrohimov N. Samarqand – frontga. – Samarqand: Sug'diyona, 1994. 12-b.

at ko'rsatgan samarqandliklardan 49573 kishi orden va medallar bilan mukofotlandi, ulardan 52 kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvon berildi, 8 kishi «Shuhrat» ordenining uchala darajasiga ham mu-sharraf bo'ldi.

6-§. O'zbekistonning muhim iqtisodiy markazi (1945–1991-yillar)

Urushdan keyingi yillarda va tinch qurilish davrida Samarqand shah-ri hayotida muayyan o'zgarishlar amalga oshirildi. Kommunistik mafku-raning tazyiqiga qaramay bu yillarda samarqandliklar o'zlarining jonajon shaharlari qiyofasini o'zgartirish va yaxshilash uchun intildilar. Biroq o'sha yillarda Samarqandning kommunal xo'jaligi eng qoloq uchastkalar-dan biri bo'lib, shahar aholisining uy-joy bilan ta'minlanishi past darajada bo'lgan. Eski mahallalar va yangi qurilgan uylarda ichimlik suvi muam-mosi borligi, shahar infratuzilmasining deyarli mavjud emasligi bu soha-dagi muammolarni yanada keskinlashtirar va chuqurlashtirardi.

Mamlakatimiz xalqlari uchun og'ir kulfatlar keltirgan va to'rt yil da-vom etgan mashaqqatli urushning g'alaba bilan tugashi odamlarda kela-jakka katta umid uyg'otdi, butun kuch, g'ayratini faqat tinch hayot maro-mini tiklashga, sanoatni hayot uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish hamda xalqimiz moddiy farovonligi va madaniy saviyasini oshirish, urush oqibatlarini barham toptirish imkonini berdi. Bu davrda O'zbekiston aholisi, jumladan, samarqandliklar oldida nihoyatda murak-kab vazifalar to'planib qoldi. Chunki bu vaqtda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda hal etilishi muhim bo'lgan vazifalar turardi. Respublika tinch hayotda ishlashga moslashayotgan sanoat, aholini oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash uchun yoqilg'iga, elektr quvvatiga, xo-mashyoga katta ehtiyoj sezardi, shuningdek, malakali ishchilar va muhan-dis-texnik kadrlar yetishmasdi.

O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari Sa-marqand mehnatkashlari oldiga ham muhim vazifalarni qo'ydi. Chunon-chi, 1945-yilda 2300 ta traktor ehtiyot qismlari yo'qligi sababli ishlama-ganligini nazarda tutib, Samarqanddagi «Krasniy dvigatel», motoremont va avtoremont zavodlari traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga kerakli ehtiyot qismlarni birinchi navbatda ko'plab ishlab chiqarishi lozim bo'lib qoldi¹.

1946-yilda Samarqandda ittifoq qaramog'ida turgan 7 ta, respubli-ka qaramog'ida 31 ta korxonalar, sanoat kooperatsiyasining 27 ta arteli va

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 251-b.

mahalliy sanoatning 3 ta korxonasi mavjud bo'lib, bu korxonalarda 20,7 ming ishchi va xizmatchi ishladi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoatini, shu jumladan, Samarqand sanoatini tinch qurilish uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keldi. «Krasniy dvigatel», «Kinap», motoremont va boshqa zavodlarda sexlarni qayta uskunalash, texnika hujjatlarini tayyorlash, ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yo'lga qo'yish lozim bo'lib qoldi. Shahardagi sanoat korxonalarining ishchi kuchi bilan yetarli ta'minlanmaganligi, shuningdek, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va keng iste'mol buyumlari bilan ta'minlash normallashtirib qo'yilmaganligi xalq xo'jaligini qayta tiklash davrida uchragan jiddiy kamchiliklardan biri bo'ldi.

«Krasniy dvigatel», «Kinap», konserva zavodlarini qayta uskunalashni tugallash, g'isht zavodlarida ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va ularni yil bo'yi ishlaydigan qilish, cherepitsa ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish, ichi g'ovak bo'lgan va pardoz uchun ishlatiladigan g'isht, keramika bloklarini ko'plab ishlab chiqarishni tashkil qilish rejalashtirildi.

Samarqand paxta tozalash zavodini rekonstruksiya qilib kengaytirish, 5 ming urchuqli yigiruv fabrikasini qurib, ishga tushirish (sanoat kooperatsiyasi sistemasida), poyabzal fabrikasining quvvatini oshirish, shoyi to'qish fabrikasida 145 ta yangi to'quv stanoklarini o'rnatish hisobiga oshirish kerak edi.

1950-yilga kelib, Samarqand sanoati va transportining ishchi va muhandis-texnik xodimlari «SXTZ-NATI», «Universal» traktorlariga, «GAZ-AA» va «ZIS-5» avtomashinalariga kerakli ehtiyot qismlari, kinoteatrlarga kerakli apparatlar va boshqa shu kabilar ishlab chiqarishni o'zlashtirishdi. Dizel, perforator, avtomashinalarning oldingi o'qini kapital ta'mirlash ham yaxshi yo'lga qo'yildi¹.

«Krasniy dvigatel», «Kinap», motoremont zavodi, avtoremont ustaxonalari singari korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning shuhrati O'zbekiston doirasidan ham chetga yoyildi. «Krasniy dvigatel» zavodi tomonidan traktor, kombayn va avtomobillar uchun ishlab chiqarilayotgan ehtiyot qismlar, «Kinap» zavodi ishlab chiqarayotgan kinoapparaturalar ittifoqning hamma respublikalariga, shuningdek, Sharqiy Yevropa davlatlariga ham yuborilib turildi. 1946–1950-yillarda Samarqand sanoat korxonalarida ittifoq respublikalari va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xalq

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 262-b.

xo'jaligi uchun 300 xilga yaqin mahsulot turlari o'zlashtirildi va ishlab chiqarildi¹.

Bu yillarda 3000 kilovatt quvvatli Tolligulon gidroelektrostansiyasi va sanoat korxonalaridagi boshqa elektrostansiyalarning ishga tushganligi tufayli fabrika va zavodlarni, shahar aholisini elektr energiya bilan ta'minlash birmuncha yaxshilandi. Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, 1946–1950-yillarda shahar xo'jaligiga sarf qilinayotgan elektr energiyasining miqdori garchi 6,3 ming kilovattga yetgan bo'lsa ham, ammo bu elektr quvvati korxonalarining o'sib borayotgan ehtiyojini to'la qondira olmadi, natijada, ayrim vaqtlarda ishlarning to'xtab qolish hollari ro'y berdi.

Xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarini, madaniyatini yanada rivojlantirish va aholining maishiy ehtiyojlarini qondirish birinchi galda shu ehtiyojlarning elektr energiya bilan ta'minlanishiga bog'liq edi. Shu sababli bu yillarda Darg'om kanalida qurilayotgan 15 ming kilovatt quvvatli Xishrav gidroelektrostansiyasini va shaharning sanoat korxonalaridagi bir qancha dizel stansiyalarini ishga tushirish ko'zda tutildi. Bu stansiyalarning ishga tushirilishi natijasida 1955-yilda Samarqandning elektr balansi qariyb uch baravar ko'paydi va shu tariqa shahar xo'jaligining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji ta'min qilindi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo industriyasi ustuvor o'rinlardan birini egalladi. 1955-yilda rejada har yili 200 ming tonna o'g'it ishlab chiqaradigan Samarqand superfosfat zavodi ishga tushirildi.

1950-yilda Samarqandda 38 ta yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan, shulardan 8 tasi ittifoq va 30 tasi respublika qaramog'idagi korxonalar bo'lib, yiliga 1 milliard rubldan ko'proq mahsulot ishlab chiqardi. Bundan tashqari, 4 ta mahalliy sanoat korxonalari va 20 ta hunarmandchilik-kooperativ artellari 61,4 million rublik iste'mol mollarni ishlab chiqardi. Shunday qilib, 1950-yilda Samarqandning davlat sanoati va mahalliy sanoati yangi mahsulot ishlab chiqarishni 1945-yildagiga nisbatan ikki baravar ko'paytirdi².

XX asrning o'rtalariga kelib, Samarqand shahar tarmoq strukturasi oziq-ovqat sanoati birinchi, mashinasozlik ikkinchi, to'qimachilik sanoati uchinchi o'rinni egalladi. 1955-yilga kelib, viloyatdagi sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan yangi mahsulotning hajmi 59,7 foizni tashkil etdi. Samarqanddagi mahalliy va kooperativ sanoat mahsulotlari (jumladan, to'qimachilik mollari) faqat O'zbekistondagina emas, balki respublikamiz

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 264-b.

² Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 264-b.

doirasidan tashqarida ham (Moskva, Orenburg, Chelyabinsk, Sverdlovsk, Oryol, Pskov, Murmansk va boshqa joylarda ham) shuhrat qozondi.

Samarqand sanoati kinoapparaturalar assortimentini, traktor va qishloq xo'jalik mashinalariga kerakli ehtiyot qismlarni, mineral o'g'it, shoyi gazlama, poyabzal, trikotaj va tayyor kiyimlar, choy, konserva, vino ishlab chiqarishni ko'paytirdi. 1958-yilda shahar sanoati 233,3 ming tonna mineral o'g'it, 370 ming metr gazlama, 510 ming juft charm poyabzal, 5285 tonna makaron, 35,8 million banka konserva, 9,8 ming tonna choy va shu kabilarni ishlab chiqardi. Sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha har bir ishchiga hisoblaganda mehnat unumdorligining o'sish sur'ati 1958-yilda 1940-yildagiga nisbatan 147 foiz ko'paydi¹.

Mashinasozlik, kimyo sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, energetika va ipakni qayta ishlash sanoati ancha o'sdi. Bu sanoat korxonalarining ishlab chiqargan mahsuloti respublika doirasidan tashqarida ham mashhurdir. 1958-yilga kelib shaharda birinchi darajali mexanika bilan ta'minlangan 50 ta yirik zavod va fabrika faoliyat ko'rsatdi.

1968-yilda esa Samarqandda 57 ta yirik sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatib, turli xil mahsulotlar ishlab chiqardi. Shahar korxonalarida 30 ming kishi ishladi. Shahardagi kinoapparaturalar ishlab chiqaradigan «Kinap» zavodining mahsulotlari nafaqat O'zbekistonda, balki sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari va dunyoning 14 mamlakatiga, jumladan, Vengriya, GDR, Polsha, Chexoslovakiya, Kuba, Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga ham o'z mahsulotlarini yetkazib berdi².

Samarqanddagi shoyi to'qish fabrikasi yengil sanoat korxonalarining eng yirigi hisoblanib, bu fabrikada 3 mingga yaqin ishchi, xizmatchi, muhandis-texnik xodim ishlaydi. 1969-yilda bu fabrikada salkam 11,2 million metr shoyi to'qib chiqarildi. «Hujum» ipak fabrikasi esa respublikadagi ipak sanoati korxonalarining eng yirigi bo'lib, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan hamma xom ipakning salkam 15 foizi shu fabrikada ishlandi. Teri zavodi ittifoq ahamiyatiga ega bo'lib, yiliga 180 mln kvadrat detsimetr xrom teri mahsulotlari ishlab chiqargan.

Samarqanddagi choy qadoqlash fabrikasi O'rta Osiyoda yagona va ittifoqdagi eng katta fabrika bo'lib, SSSRda qadoqlab ishlab chiqaradigan jami choyning taxminan to'rttdan bir qismi shu fabrika hissasiga to'g'ri keladi. Shahardagi «O'roq va bolg'a» («Серп и Молот») zavodi yiliga salkam 65 million banka sabzavot konservalari, meva va uzum sharbatlari ishlab chiqargan.

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 284-b.

² Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 420-b.

Urushdan keyingi yillarda Samarqand viloyat qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu davrda Samarqand asosan sanoati rivojlangan qishloq xo'jalik viloyati edi. Viloyat qishloq xo'jaligining asosini sug'oriladigan yerlarda paxtachilik, lalmikor yerlarda g'allachilik va yaylovlarda chorvachilik tashkil etadi. Viloyat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishning bu uch asosiy yo'nalishi bir xil tumanlarda ozmi-ko'pmi aniq belgilangan va ayrimlarida turli xildagi birga olib borishlarda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, Samarqand viloyati qadimiy pillachilik hududi hamdir. U qadim zamonlardan beri o'zining bog'-rog'lari, uzumzorlari va ayniqsa, yetishtirilgan mayiz (kishmish)lari bilan shuhrat qozonib kelgan. Viloyatda qo'ychilikdan tashqari chorvachilikning boshqa sohalari ham rivoj topgan.

Bu davrda viloyatning ko'p sohali qishloq xo'jaligi 132 kolxoz (jamoat xo'jaligi) va 48 sovxoz (davlat qaramog'idagi xo'jalik)larda to'plangan. Kolxoz va sovxozlarda, shuningdek, boshqa davlat xo'jaliklarida yaroqli 2371 ming gektar yer bo'lib, undan 250 ming gektari sug'oriladigan, 441 ming gektari lalmikor yerlar, 14 ming gektar bog'-rog'lar, 18 ming gektar uzumzorlar va 7,6 ming gektar tut plantatsiyalari mavjud edi. Viloyat traktor xo'jalik parkida 13,6 ming traktor, 1,9 ming kombayn, 3 mingga yaqin paxta terish mashinalari va boshqa texnikalar bo'lgan¹.

Samarqand viloyati qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada sovet davrida quyidagi o'rinlarni egallagan: don ekinlari, uzum, tamaki, go'sht, tuxum, mayiz yetishtirish bo'yicha birinchi; kartoshka, sabzavot, sut, qorako'l terisi va jun bo'yicha uchinchi; paxta, yetishtirish bo'yicha to'rtinchi o'rinda turgan.

Viloyat qishloq xo'jaligini, asosan, paxtachilik tashkil qilib, 1968-yili paxta maydoni 162,6 ming gektarni tashkil etgan, undan 371,7 ming tonna «oq oltin» hosili olindi. O'rtacha hosildorlik 22,8 foizni tashkil etdi. Paxta yakkahokimligi natijasida 1913-yilga nisbatan paxta maydoni besh marta, hosildorlik uch martadan ziyodroq, paxta yetishtirish 16 martadan ko'proq oshdi. Bu yillarda viloyatning 95 kolxozi va 7 ta sovxozida paxta yetishtirildi. Viloyatning lalmikor yerlarida 1968-yilga kelib, 405 ming gektar yerga don ekinlari ekilgan, 327 ming tonna, ya'ni har bir gektar yerdan 8,1 sentnerdan hosil olindi.

Samarqand atrofidagi qishloq tumanlarining xo'jaliklarida asosan sabzavot, kartoshka, uzum va turli xil mevalar yetishtirilgan. Bulung'ur va Urgut tumanlari xo'jaliklari ham shunday mahsulotlar yetishtirishga

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 441-b.

moslashgan. Xususan, Urgut tumanidagi 14 xo'jalikning hammasi tamakichilikka ixtisoslashgan bo'lib, har yili ular tomonidan 13–14 ming tonna tamaki bargi yetishtirgan. Viloyatda 13 ta ixtisoslashgan bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari bo'lib, bu xo'jaliklar yiliga 8 ming tonna mayiz yoki sobiq Ittifoq miqyosida yetishtirilgan uzumning 75 foizini bergan.

Viloyatning dasht, tog'oldi va tog'li tumanlarida qorako'lchilik rivojlangan. Chorvachilikning bu sohasi bilan ixtisoslashgan 15 sovxoz va bir kolxoz shug'ullanadi. Viloyatdagi qorako'l qo'ylarining soni 900 ming boshdan oshgan. Bundan tashqari, 4 ta yirik go'sht-sut sovxozi, 2 ta molni boqib semirtiradigan, 3 ta cho'chqachilik sovxozi hamda 2 ta parrandachilik fabrikasi ham chorvachilik bilan shug'ullangan.

1968-yili viloyatning kolxoz va sovxozlari 25 tonna go'sht, 50,5 ming tonna sut, 2,9 ming tonna jun, 13,6 million dona tuxum, shuningdek, 2 ming tonnadan ziyod pilla yetishtirdilar².

Zarafshon daryosining suvi faqat Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlashi natijasida 1970–1975-yillarda 50 ming gektarga yaqin yangi yerlar o'zlashtirildi. Darg'om kanalining bir bo'lagi hisoblangan Eski Angor kanalining qayta rekonstruksiya qilinishi natijasida bu hududda «Samarqand» va «Guliston» xo'jaliklari tashkil etildi.

XX asrning 70–80-yillarida Samarqand shahrida yangi xiyobonlar, bog'lar va istirohat bog'lari vujudga keltirildi. Bu davrda shaharda o'ndan ortiq xiyobon mavjud bo'lib, xususan, Samarqand davlat universiteti joylashgan shahar markazidagi Abramov bulvari nafaqat shaharliklar, balki butun o'zbekistonliklar o'rtasida juda mashhur bo'lgan. Samarqandliklar ko'ngilli hordiq chiqaradigan M.Gorkiy nomli madaniyat va istirohat bog'i tobora obod bo'lib, kengayib borgan.

Samarqand shahri unda yashaydigan aholi soni bo'yicha sovet davrida O'zbekistonda Toshkentdan keyingi ikkinchi o'rinda turgan. Aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda 1865-yili 26 ming, 1897-yil 55 ming, 1920-yili 82316, 1930-yili 119736, 1939-yili 138 ming, 1959-yili 196 ming, 1970-yili 267 ming, 1975-yili 299 ming, 1979-yili 477 ming, 1990-yili 462 ming, 2000-yili 361 ming, 2005-yili 361200 kishi yashagan³. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, XX asrning 70-yillarida Samarqand shahri aholisi 10 yil muddat ichida 178 ming kishiga ko'paygan. Biroq XX asrning 90-yillarida shaharda aholi tezlik bilan kamaya boshlagan. O'n yil mud-

¹ Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... 442-b.

² Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-jild. ... B. 442.

³ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 2006. 55. 647–655-betlar.

dat (1990–2000) ichida Samarqand shahrining aholisi roppa-rosa 100 ming kishiga kamaygan. 2000–2005-yillarda esa aholining miqdorida barqaror holat koʻzga tashlanib, u atigi 200 kishiga koʻpaygan. XX asr oxirlarida Samarqandda aholining keskin kamayishi, yevropaliklarning shahardan koʻchib ketishi, soʻngra mahalliy aholi hisoblangan oʻzbeklar va tojiklarning ommaviy ravishda qoʻshni davlatlar (Rossiya, Qozogʻiston va b.)ga ishlash uchun joʻnab ketishi hamda kishilarning oʻrtacha umr kechirish darajasining pastligi bilan bogʻliqdir.

XX asr 80-yillarida Samarqand viloyati tarkibida 14 tuman, 6 shahar, 11 shahar posyolkasi boʻlgan. Bu paytda Samarqand shahri Bogʻishamol, Temiryoʻl va Siyob tumanlariga boʻlingan. Shuningdek, Samarqand shahar kengashiga qarashli boʻlgan Kimyogarlar, Xishrav (ikkalasi ham 1952-yilda tashkil topgan), Farhod (1981-yil tuzilgan) shaharchalari ham mavjud boʻlgan¹.

Biroq sovet hokimiyati yillarida shaharning yevropaliklar yashaydigan hududi obod qilindi, shahar aholisi ham asosan Rossiya markazidan koʻchib keluvchilar hisobiga ortib bordi. Jahonga mashhur meʼmoriy yodgorliklar saqlanib qolgan eski Samarqand oʻz holiga tashlab qoʻyildi, xususan, XX asrning 30–50-yillarida shahardagi meʼmoriy yodgorliklar qarovsiz qolib, xaroba holga keltirildi. Afsuski, bu jarayon XX asrning 90-yillarigacha Oʻzbekistonning boshqa tarixiy shaharlari (Buxoro, Shahrisabz va b.)da Samarqandga nisbatan yanada ayanchli davom etdi.

7-§. Samarqand muhim madaniyat markazi va shahardagi madaniy jarayonlar

Samarqand Oʻzbekistonning muhim madaniyat markazi hisoblanadi. Xususan, Samarqand shahri Oʻzbekiston SSRga poytaxt boʻlib turgan 1925–1930-yillarda hamda XX asr ikkinchi yarmidan keyin uning hayotida jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. Xullas, Samarqand shahri XX asrda Sharqning eng yirik sanoat, ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.

Samarqand shahri Osiyo va Afrika mamlakatlari vakillarining uchra-shuv va simpoziumlari muntazam ravishda oʻtkaziladigan yirik markazlardan biri hisoblanadi. YUNESKO tashabbusi bilan 1969-yil sentabrda Samarqandda Oʻrta Osiyo xalqlarining temuriylar davri sanʼatiga bagʻishlangan xalqaro simpoziumi boʻlib oʻtdi. 1970-yilning oktabrida Samarqand shahrining 2500 yilligi dunyo miqyosida tantana qilindi. Shuningdek, Samarqandda 1978, 1983 va 1987-yillarda Oʻrta va Yaqin Sharq anʼanaviy

¹ Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi. — Toshkent: Oʻzbekiston, 1996. 76–77-betlar.

musiqasiga bag'ishlangan xalqaro musiqa anjumanlari o'tkazildi. (1997-yildan boshlab Samarqandda har ikki yilda bir marta muntazam ravishda «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tmoqda.)

Samarqand qadimiy tarixi va me'moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan haqiqiy muzey shaharga aylandi. Shu bois respublika hukumati qarori bilan 1982-yilda Samarqandning Afrosiyob shahristonini, o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar va XIX asrning so'nggi choragi va XX asrda qurilgan yangi shahardagi tarixiy binolar, O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi va uning bo'limlari, shuningdek, tarix va o'lkashunoslik muzeylari asosida Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi tuzildi¹.

Samarqand musiqa madaniyati azaldan turkiy va forsiy xalqlarning an'analari o'zaro qo'shilib ketganligi bilan ajralib turgan. Musiqa bilan sozanda, xonanda va bastakorlar qatori Samarqandda shoir va olimlar ham shug'ullangan. Bu holat XX asrda ham davom etgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1852–1936) maqom yo'llari, o'zbek va tojik xalq ashulalarining mohir ijrochisi, sozanda va bastakor sifatida tanilgan. Hoji Abdulaziz tanbur ijrochiligi va Shashmaqomning cholg'u yo'llarini Hoji Rahimberdidan, hofizlik san'ati sirlari va nasr sho'balarini samarqandlik Borux hofiz, keyinchalik Ota Jalol Nosirovdan o'rgangan. U bilan birga Levicha hofiz, Qori Yoqub, Kamol hofiz, Ma'rifatxon, Maqsadcha va boshqa xonandalar, askiyachi va raqqos Hoji Qurbon (Hoji Tam-tam) faoliyat ko'rsatgan.

Shuningdek, Samarqandda 1928-yildan O'zbek musiqa va xoreografiya instituti (hozirgi O'zbekiston Badiiy akademiyasining san'atshunoslik instituti) faoliyat ko'rsatgan. Bu yerda keyinchalik o'zbek musiqashunosligining darg'alari bo'lib yetishgan mashhur M. Ashrafiy, M. Burxonov, T. Sodiqov, Sh. Ramazonov va boshqa kompozitorlar ta'lim olgan². Samarqandda aka-uka maqomchi xonanda va sozandalar Mixail Aronovich Mullaqandov (1896–1956) va Gabriyel Aronovich Mullaqandov (1900–1971) yashagan va ijod qilishgan. Etnik jihatdan Buxoro yahudiylariga mansub bo'lgan aka-uka Mullaqandovlar 1936-yilda O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lishdi.

XX asr raqs san'atiga ulkan hissa qo'shgan san'atkorlar oilasi hisoblangan Oqilovlar xonadoni vakillari ham Samarqandda tug'ilib o'sishgan. Sulola boshlig'i o'zbek sahna raqsi asoschilaridan biri, raqqos va baletmeys-

¹ Asqarov A., Jumaboyev T., Rahmatullayev O. Samarqand // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 2004. 457–462-betlar.

² Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750 (o'zbek, rus, ingliz t.). Kitob-albom. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. 148–156-betlar.

ter, O'zbekiston xalq artisti (1964) Isohor Oqilov (1914–1988) Samarqand va Buxorodagi tojik va yahudiylar musiqali teatrida, 1932–1936-yillarda esa Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasida ishlagan. Buxoro mumtoz raqsi an'analari, professional o'zbek raqslarining rivojlanishida katta xizmat ko'rsatgan. U 1977-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Isohor Oqilovning rafiqasi, O'zbekiston xalq artisti Margarita Oqilova (1920-yilda Samarqandda tug'ilgan) Samarqanddagi tojik va yahudiylar musiqali teatrida 1935–1936-yillarda ishlagan. Isohor Oqilov va Margarita Oqilovning qizlari hisoblangan O'zbekiston xalq artisti Viloyat Oqilova (1937–2022), Zulayho Oqilova (1945–2000), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Oqilova (1957-yilda tug'ilgan) keyinchalik mashhur raqqosa va baletmeyster bo'lishgan.

Keyingi davrda Samarqandda iste'dodli xonandalar O'zbekiston xalq artistlari Nasiba Abdullayeva (1961-yilda tug'ilgan), Mardon Mavlonov (1963-yilda tug'ilgan), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sofiya Siftarova, bastakor Rustam Hamroqulov va boshqalar yetishib chiqishgan¹.

XX asrning 80-yillarida Samarqand shahrida quyidagi 4 ta teatr: Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o'zbek davlat musiqali drama teatri (1911-yilda asos solingan), A.P. Chexov nomidagi Samarqand rus drama teatri (1918-yilda tuzilgan), Samarqand opera va balet teatri (1964-yil tashkil topgan) va Asror Jo'rayev nomidagi Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatri (1978-yilda tuzilgan) faoliyat olib borgan.

XX asr boshlarida Samarqandda adabiy hayot o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu, avvalo, Turkiston mintaqasida keng tarqalgan jadidchilik harakatining gurkirab rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy (1870–1925) kabi taraqqiyparvarlar Samarqandda yozgan she'riy va nasriy asarlarida ma'rifatparvarlik va milliy istiqlol uchun kurash g'oyalari ifodalashgan. Xususan, buxorolik mashhur adib va olimlar Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy hayotining muayyan qismini Samarqandda o'tkazib, ular o'zlarining o'zbek va tojik tillarida yaratgan nodir durdonalari bilan har ikki qardosh xalqning adabiyot va madaniyati tarixiga katta hissa qo'shishgan. Samarqand O'zSSRning poytaxtiga va madaniy markaziga aylangan yillarda bu yerda adabiy hayot jonlandi, ijodiy tashkilotlar yuzaga keldi, shoirlar, yozuvchilar va adabiyotshunos olimlar bu yerda to'planishadi. XX asrning 20–30-yillarida Fitrat, Ayniy, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Uyg'un,

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. ... 154-b.

Oydin Sobirova, Ra'no Uzoqova, Botu, Amin Umariy, Said Nazar, Shokir Sulaymon, Otajon Hoshim, Hasan Po'lat, Abdulhamid Majidiy kabi shoir va yozuvchilar Samarqandda yashab, ijod qilishgan.

XX asrning birinchi yarmida Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937), Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955), Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953), Po'ltan shoir (1874-1941) kabi samarqandlik xalq shoirlari va baxshilar ning ijodiy faoliyati butun O'zbekiston adabiyotining ko'rkiga aylandi.¹ XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmi Samarqand adabiy hayotining ko'tarilish va yangi ijodkorlar bilan boyish davri bo'ldi. Mashhur davlat arbobi, atoqli yozuvchi va shoir Sharof Rashidov (1917-1983) o'zining ilk ijodini Samarqandda boshladi. O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Dushan Fayziy (1927-yilda hozirgi Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tug'ilgan) «Samarqandnoma» (1973), «Urgut qasidasi» (1994) va boshqa she'riy asarlarida Samarqand jamolini jo'shib kuyladi. Jamoat va siyosat arbobi Haydar Yahyoyev (1927-2013) ayni paytda dilbar g'azallar yozgan. O'zbekiston xalq shoiri Barot Boyqobilov (1937-2006) «Samarqand satrlari» (1962), «Samarqand ushshog'i» (1969), «Afrosiyob» (1970) va boshqa she'riy to'plamlarida Samarqand shahrining ko'hna tarixi va bugungi kunini tasvirladi. U Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga (1994) sazovor bo'lgan.

O'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotida samarqandlik ikki taniqli ijodkor: O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron (1952-yili tug'ilgan) hamda yozuvchi va jamoat arbobi Murod Muhammad Do'st (1949-yilda tug'ilgan)ning alohida o'rni bor. Shuningdek, samarqandlik shoirlar va yozuvchilar Mamarasul Boboyev (1911-1969), Azim Suyun (1948-2020), Bibisora Turobova, Xosiyat Bobomurodova, Mardonqul Muhammadqulov, Raim Farhodiy, Nusrat Rahmatov, Bobomurod Daminov va boshqalar bu davrda samarali ijod qilishdi.

Samarqand shahri XX asrda O'zbekistonning yirik fan va ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Samarqandda mahalliy millat vakillaridan ilmiy kadrlar tayyorlashda O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi va uning asosida tashkil topgan Samarqand davlat universiteti katta rol o'ynadi. Bu oliy o'quv yurti dastlab 1927-yilning 22-yanvarida Samarqandda oliy pedagogika instituti sifatida tashkil etilgan. 1930-yil 22-yanvarda oliy pedagogika instituti maxsus qaror bilan O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi (Pedakademiya)ga aylantirildi. 1931-yili Pedakademiya aspirantura ochildi. Akademiya mahalliy millat vakillaridan yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan yirik o'quv-pedagogika markaziga aylan-

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand - 2750. ... 154-b.

di. O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi O'zSSR XKS va MIKning 1933-yil 20-yanvardagi qaroriga muvofiq O'zbekiston davlat universiteti (O'zDU)ga aylantirildi¹. Universitetni mustahkamlashda uning birinchi rektori Karim Abdullayevning xizmati katta. 1941-yilda universitetga Alisher Navoiy nomi berildi. O'zbekiston davlat Universiteti 1960-yildan Samarqand davlat universiteti (SamDU) deb atala boshladi². SamDU O'zbekistondagi eng yirik va keksa oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib, uni Sharof Rashidov, Muso Mo'minov, Ibrohim Mo'minov, Yahyo G'ulomov, Vafo Mo'minov, Hamid Olimjon, Uyg'un, Amin Umariy, Hasan Po'lat, Oydin, Usmon Nosir, Mirtemir, Asqad Muxtor, Tolib Mo'minov, Botir Valixo'jayev, Ubay Orifov, Mavlon Vahobov, Hamid Inoyatov, Abdurahmon Hamroyev, Farhod Qosimov kabi mashhur insonlar tugatgan³.

XX asr o'rtalarida Samarqand davlat universiteti O'zbekistonda falsafa fanining yirik markaziga aylandi. Bu holat bejiz emas edi. Mashhur faylasuf olim, akademik Ibrohim Mo'minov (1908–1974)ning ilmiy faoliyati aynan SamDUda boshlandi va bu yerda u yirik mutaxassis olim sifatida shakllandi. I. Mo'minov o'z tadqiqotlarida Sharq mutafakkirlari (Mirzo Bedil, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va b.)ning falsafiy qarashlarini kommunistik mafkura tazyiqlariga qaramasdan chuqur o'rgandi, ularning merosini sovet davrida targ'ib va tashviq qila oldi. Xususan, I. Mo'minovning buyuk davlat arbobi va harbiy sarkarda Amir Temur haqidagi risolasining o'zbek va rus tillarida e'lon qilinishi O'zbekiston madaniy hayotida juda katta voqea bo'ldi. Ibrohim Mo'minov keyinchalik faylasuf shogirdlari bilan respublika poytaxti Toshkentga keldi va 1958-yili O'zbekiston SSR FA tarkibidagi falsafa va huquq institutiga asos soldi. Mashhur alloma 1956–1974-yillarda O'zbekiston FA vitse-prezidenti lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

Samarqandda atigi 10 yil muddat (1929–1939-yillar) ichida yuqoridagi oliy o'quv yurtlaridan tashqari yana quyidagi 4 ta institut tashkil qilindi: 1. Samarqand qishloq xo'jaligi instituti (1929-yili O'zbekiston davlat paxtachilik instituti va O'zbekiston zooveterinariya instituti negizida tashkil etilgan). 2. Samarqand meditsina instituti (1930-yilda tashkil etilgan). 3. Samarqand kooperativ instituti (2004-yil 26-martda uning bazasida Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tashkil qilindi). 4. Samarqand

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. ... 155-b.

² O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari. Ma'lumotnoma. 2-nashri. Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2003. 112–118-betlar.

³ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. ... 154-b.

pedagogika instituti (1939-yili Samarqand davlat pedagogika va o'qituvchilar instituti nomi bilan) tashkil qilindi. 1992-yili bu institut SamDUga qo'shib yuborildi. Keyinchalik Samarqandda oltinchi oliy o'quv yurti – Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand me'morchilik va qurilish instituti (1966)ga asos solindi. Bundan tashqari, 1969-yil 20-noyabrda Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar oliy harbiy bilim yurti tashkil topdi. Shuningdek, Samarqandda 17 ta texnikum va 27 ta professional-texnika bilim yurti mavjud bo'lgan (1976).

Samarqandda, bundan tashqari, bu davrda ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston hududidagi moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganish uchun O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti negizida 1970-yili Samarqandda O'zbekiston FA Arxeologiya instituti tashkil qilindi¹. Institutni tashkil qilishda akademik Yahyo G'ulomovning xizmati katta bo'ldi. Olimning vafotidan so'ng Arxeologiya instituti uning nomi bilan atalmoqda. Arxeologiya instituti O'zbekistonda olib boriladigan arxeologik tadqiqotlarga ilmiy-metodik rahbarlik qiluvchi markaz bo'lib, respublika hududidagi barcha moddiy madaniyat yodgorliklarida qazish ishlari olib borish uchun ruxsatnoma beradi. Samarqandlik olimlar – akademiklar Vohid Abdullayev (1912–1985), Botir Valixo'jayev (1932–2005), Ibrohim Mo'minov (1908–1974), Toshpo'lat Shirinqulov, Tolib Mo'minov, professorlar Muso Mo'minov (1903–1969), Akrom Mo'minov (1937–2001), Ahtam Mo'minov, Muxtor Mo'minov, Kamol Nabiyev, Nuriddin Shukurov (1930–1995), Saydulla Mirzayev, Isroil Mirzayev, Ibodulla Mirzayev va boshqalar sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqlariga qaramay, barakali ijod qilishdi.

Samarqand shahrining XX asrdagi tarixi haqida fikr-mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, shaharning Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davridan hozirgacha bosib o'tgan yo'li oddiy va oson bo'lmaganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Samarqand shahri hayotida 75 yillik sovet hokimiyati davrida muayyan ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda katta yo'qotishlar ham bo'ldi. Biroq kommunistik mafkuraning tazyiqlariga qaramasdan oddiy samarqandliklar bu yillarda o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan jonajon shaharlarini Sharqning eng zamonaviy sanoat, madaniyat va ilmiy markazlaridan biriga aylantira oldilar.

¹ Samarqand. Самарқанд. Samarkand – 2750. ... 156-b.

IX bob.

**1991–2021-YILLARDA SAMARQANDDA
IJTIMOIY-IQTISODIY, MADANIY HAYOT**

1-§. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Samarqand shahri nafaqat O'zbekistonning tarixiy shaharlari tizimida, balki iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy shahar sifatida respublika iqtisodiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. 1991-yil O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, respublika shaharlarida iqtisodiy infrastrukturani rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilib, islohotlar jaryonida xususiy sektor, sanoat ishlab chiqarishi, savdo, tashqi aloqalar, investitsiya faoliyatini rivojlantirish borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar davrida korxonalar bozor munosabatlarining muhim subyekti hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, bozor munosabatlariga o'tishda ikkinchi bosqichning eng muhim ustuvor vazifasi «... ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ham korxonalar, tarmoqlarning, ham umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishishdan iborat¹» deb belgilangan edi. Pirovard natijada, sanoat korxonalarida eskirgan uskuna va texnologiyalarni yangilab, zamon talablariga javob bera oladigan yangicha shakldagi jihozlar o'rnatish, shu bilan birgalikda yangi turdagi bozor (zamon) talabiga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Masalan, 2001–2003-yillarda Samarqand shahridagi trikotaj va chinni buyumlar ishlab chiqarishda foydalanilayotgan uskunalarining 68 %, mebel ishlab chiqarishda 85 %, tikuvchilik, trikotaj va attorlik buyumlari ishlab chiqarish dastgohlarining 90 % yangilandi.

Shaharda respublikada birinchilardan bo'lib yuk tashish avtomashinalari va avtobus kabi transport vositalari, shuningdek, tamaki mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlari, shisha idishlari, uy-ro'zg'or elektr moslamalari, elektron soat, kalsit, atir sovuni, yangi turdagi gilam va paloslar, zamonaviy mebellar kabi maishiy xo'jalik mollari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va zamo-

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. 175-b.

naviy texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish maqsadida hukumat tomonidan turli rag'batlantirish omillari joriy etildi. Xususan, chet eldan keltirilgan ishlab chiqarish dastgohlari xarid qilmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bojxona to'lovlaridan ozod qilindi. Yangi va katta texnologiyalar ishlab chiqarishga jalb qilinganda ularga soliq imtiyozlari berildi. Uzoq muddatli, imtiyozli bank kreditlari berish yo'lga qo'yildi.

Mahalliy lashtirish dasturi asosida shaharda sovitkich, muzlatkich va konditsionerlar, o'quv-laboratoriya jihozlari, uch g'ildirakli mototsikl, bolalar plastmassa o'yinchoqlari, ikki konforkali gaz plitalar, meva-sabzavotlarni quritish shkaflari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mahalliy lashtirish mahsulotlari ishlab chiqarish mustaqillikning dastlabki yillarida deyarli bo'lmagan bo'lsa, uning hajmi 2005-yilda 27 759,04 mln so'mga yetdi, 2013-yilda esa 344 925,2 mln so'mni tashkil etdi¹.

Samarqand shahrida mahalliy lashtirishning dastlabki besh yilida jami 78 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 425 968,11 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi². Natijada shahar iqtisodiyotida yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotda xorijiy valutaga bo'lgan talabning qisqarishiga va tashqi savdoda ijobiy qoldiqqa ega bo'lishga erishildi.

Ayniqsa, 2001-yil sentabr oyida Samarqand viloyatiga oldin Jizzax viloyatini boshqargan Sh.Mirziyoyevning hokim bo'lib kelishi shahar taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Samarqand qadimiy tarix va madaniyatga, yurtimiz iqtisodiyoti, madaniy-ma'rifiy hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan. Sh.Mirziyoyev o'ziga berilgan ishonchni qisqa vaqt ichida mehnati, xalqqa mehr-muhabbati, odamlar qalbiga yo'l topib, ularni o'z ortidan ergashtira olgani bilan oqlay oldi.

Samarqandga hokim bo'lgach, Sh.Mirziyoyev navbati bilan har bir tuman, shaharga borib, u yerdagi shart-sharoitni o'rgandi. Rahbarlarning hisobotlarini eshitish bilan kifoyalanmay, oddiy odamlar orasiga kirishga, ularning dard-u tashvishlarini eshitishga harakat qilgan. Viloyat hokimi qaysi tumanga borsa, avvalo, qishloqlarni, olis hududlarni aylanib, aholi turmush tarzi bilan tanishardi, maktab va tibbiyot muassasasini borib ko'rardi. Hokim bu joylarga borishi avvaldan rejalashtirilmas, mahalliy rahbarlar ogohlantirilmasdi. Qayerga, qachon borishni Sh.Mirziyoyevning o'zlari tanlardi. Tabiiyki, rahbar kelishiga hech qanday tayyorgarlik ko'ril-magan joylarda mavjud holat ro'yirost namoyon bo'lardi.

¹ O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Самарканд, 1991–2014 г.

² O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Самарканд, 1991–2014 г.

Bunga bir misol. Samarqand shahrining Kimyogarlar ko'rg'onida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalarga mo'ljallangan 61-maxsus maktab-internatga moddiy yordam ko'rsatilishi, issiqlik tarmog'ining ta'mirlab berilganligi¹ yoki «Obod mahalla» yili munosabati bilan xayriya tariqasida shahardagi «Ma'rifat», «Xo'ja Yusuf» mahallalariga bayram dasturxonini yozilib, mahallaning qayta ta'mirlanishi shaxsan viloyat hokimi tashabbusi bilan amalga oshirilgan edi². Bunday misollar ko'p.

Sh.Mirziyoyev viloyat hokimi sifatida hech bir joyga shunchaki borib kelmagan. Biror-bir hududga borgani, odamlar bilan uchrashganidan so'ng, albatta, aholi hayotida nimadir o'zgarish bo'lar, yo'lmi, ko'priki, maktab yoki sport inshooti qurilishi boshlanganligini alohida e'tirof etish lozim. Shuningdek, 2002-yil Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati rahbari sifatida faoliyat olib borgan davrda shaharda jinoyatchilikka qarshi jiddiy kurash olib borilgan. Jumladan, xizmat tezkorligini oshirish, jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatni o'z vaqtida ochish maqsadida ichki ishlar xodimlarini zamonaviy texnika vositalari, avtotransport, kriminalistik va maxsus aloqa vositalari bilan ta'minlashga ahamiyat berildi. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi xizmatlari 34 ta avtomashina, 370 ta radiostansiya kabi texnik vositalar bilan ta'minlandi. Shuningdek, 319 ta militsiya tayanch punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida militsiya tayanch punktlari atrofida sport-sog'lomlashtirish majmualari, turli to'garaklar va kichik biznes korxonalarini tashkil etildi³.

Sh. Mirziyoyev Samarqand viloyatining birinchi rahbarligi davrida shaharda sanoatning turli sohalari rivojlanayotgan ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi. Xususan, shahardagi yengil sanoat korxonalarini – pillakashlik, shoyi to'qish, to'qimachilik, tikuvchilik, mebel, poyabzal, chinni ishlab chiqarish korxonalarini, oziq-ovqat sanoatiga qarashli un-tegirmon, makaron, choy qadoqlash, sut-moy, meva-konserva, vino, pivo, spirtli va alkogolsiz ichimliklar, qandolat shirinliklari ishlab chiqariladigan korxonalarda zamonaviy texnologiyalar o'rnatilib, ishlab chiqarish jarayoni kuchaytirildi.

2001–2003-yillarda Samarqand viloyatida Sh.Mirziyoyev hokimligi davrida barcha sohalarda rivojlanish kuzatiladi. Masalan, 2003-yil dekabr-

¹ Xalq so'zi, 2002. 23-aprel.

² Xalilov R. Mustaqillik yillarida Samarqand shahar aholisini ijtimoiy himoyalash jarayonlari/ Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rnini Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. 404-b.

³ Zarafshon. 2002-yil 28-noyabr.

dan boshlab Toshkent-Samarqand yo'nalishida yo'lovchilar tashuvchi elektr poyezdining ishga tushirilishi bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Sanoat sohasida ham bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish kengaydi. Masalan, viloyatda 2002-yilda 2,1 mln m shoyi gazlama, 113 ming metr ip-gazlama, 14-15 ming litr o'simlik yog'i, 72 ming tonna paxta tolasi, 12-13 ming tonna tamaki mahsulotlari ishlab chiqarildi. Asosiy sanoat korxonalari Samarqand shahrida joylashgan. Bunga og'ir sanoat korxonalaridan: traktorlar uchun gilza-porshenlar ishlab chiqaradigan «Alpomish» mashinasozlik zavodi, «Samarqand tajriba-mexanika» zavodi (burg'ilash mashinalari), «Kinap» zavodi (kinoapparat, avtomobillar uchun elektr asbob-uskunalar), liftsozlik, uy-ro'zg'or sovitkichlari, marmar, g'isht, asfalt-beton zavodlari kiradi. Samarqandning Kimyogarlar shaharchasidagi superfosfat zavodida fosfat va ammos o'g'itlar hamda sulfat kislotasi ishlab chiqarilgan. Samarqanddagi yengil sanoat korxonalaridan: pillachilik, shoyi to'qish, trikotaj, tikuvchilik, mebel, poyabzal fabrikalari va chinni zavodi mavjud; oziq-ovqat sanoati korxonalaridan: un-tegirmon, aralash-yem, makaron, choy qadoqlash, sut-moy, konserva, vino, konyak, spirt-araq va alkogolsiz ichimliklar hamda qandolatchilik korxonalari faoliyat ko'rsatgan. Shu bilan birga Kattaqo'rg'on shahrida ham paxtachilik mashinasozligi (paxta tozalash korxonalari uchun asbob-uskunalar ishlab chiqariladi) zavodlari, Jomboy shahrida viloyatdagi eng yirik don mahsulotlari kombinati, «Samjinteks» ip-gazlama qo'shma korxonasi, Bulung'urda vino va g'isht zavodlari ishlab turibdi. 2003-yilga kelib viloyatda jahon andazasi darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi 135 qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatar edi. Bu korxonalarda 7,8 mingdan ortiq ishchi va xizmatchi ishlagan. Birgina 2003-yilda 19 ta qo'shma korxonaning ishga tushirilishi iqtisodiyotdagi rivojlanishning holatini ko'rsatar edi. Shuningdek, 2003-yilga kelib, iqtisodiyotning o'sishida kichik korxonalarining ham anchagina ulushi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Bu davrda Samarqand viloyatida 2822 ta kichik korxonalar faoliyat ko'rsatgan (2003)¹.

Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi qatorida qishloq xo'jaligiga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi. Viloyat g'alla, paxta, meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtirishda respublikada peshqadam bo'lgan. Viloyat qishloq xo'jaligida 200 shirkat, 8,6 ming fermer xo'jaligi, 10 aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatgan (2003)².

Bu davrda Samarqand sanoat korxonalarining salohiyatini ko'tarishga ham jiddiy e'tibor berilgan. Masalan, 2002-yilda birgina Samarqand «Na-

¹ Zarafshon, 2003-yil 12-mart.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. Tom-7. 468-b.

fis» AJ tomonidan «Uzum», «Oq oltin», «Tovus», «Navro'z» nomli sharq buyumlari to'plami, «Sabrina», «Semurg'» ko'zalarini sotishdan 2 milliard so'mdan ko'proq foyda olindi. Ayni shu yil choy qadoqlash fabrikasida 2238 tonna choy qadoqlangan, Samarqand vino zavodida 302 ming dal uzum vinosi, 49 ming dal konyak, 5 ming dal liker-araq mahsulotlari, 17 ming dal rektifikatsiyalangan spirt mahsulotlari ishlab chiqarilgan va 553 ming dal vino-konyak mahsulotlari eksport qilingan¹.

Bugungi kunda Samarqand shahri, viloyatning shahar va qishloqlarida Sh.Mirziyoyevning bevosita rahnamoligida qurilgan bino va inshootlar ko'p. Sh.Mirziyoyev ayniqsa yoshlarga alohida e'tibor qaratgan. Yoshlarning o'z vaqtlarini mazmunli o'tkazishi maqsadida 2001–2003-yillarda Samarqand shahrida Yoshlar markazi, Amfiteatr qurilishi, Olimpiya zaxiralari kompleksi ichidagi stadionning barpo etilishi, Alisher Navoiy nomidagi shahar markaziy xiyobonining qayta rekonstruksiya qilinishi, Sug'diyona massividagi xiyobon va boshqa bir qancha bunyodkorlik ishlarini misol qilish mumkin.

2014-yilga kelib Samarqand viloyat sanoat korxonalarining umumiy soni 980 ta bo'lib, shundan 169 tasi qurilish materiallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, 143 tasi yengil sanoat, 26 tasi sut mahsulotlarini, 9 tasi go'sht mahsulotlarini, 11 tasi boshqa turdagi mahsulotlarni qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan sanoat korxonalari hisoblanadi. Ularning 622 tasi sanoatning boshqa tarmoqlariga tegishlidir².

Mustaqillik yillarida shaharda sanoat ishlab chiqarishi tobora o'sib bordi. Chunonchi, 1994-yilda Samarqand shahridagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi 1 341,7 million so'mni³ tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda 2 254,5 mlrd so'mni va 2016-yilda 3 111,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'ati 14,5–16,0% ga oshganini ko'rsatadi. Samarqand shahrida korxonalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi yildan yilga o'sib borishi, o'z navbatida, viloyatdagi ulushning o'sishiga olib keldi va bu ko'rsatkich 2015-yilda 48,2 % ni tashkil etdi⁴. Bu bilan shahar aholisining yangi ish o'rinlariga bo'lgan talabi qondirilib, aholining daromadi va turmush farovonligining oshirishiga erishildi.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan asrning 90-yillarida aholining oziq-ovqat tovarlari, avvalo, g'alla, kartoshka, go'sht, sut hamda qandolat mahsulotlari-

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. Tom-7. 472–476-b.

² Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi, Samarqand viloyati pasporti. Samarqand, 2015. 10-b.

³ O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Самарканд, 1991–2004 гг.

⁴ www.samshahar.uz

ga bo'lgan ehtiyojlarining katta qismi import hisobidan qoplangan bo'lsa, 2017-yilga kelib, ularning 96% respublikaning o'zida yetishtirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, oziq-ovqat sanoatining o'sishiga olib keladigan omillardan hisoblanadi.

Vaholanki, mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat korxonalarining faoliyatida ta'minotdagi muammolar sababli ishlab chiqarish pasayib ketgan edi.

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuq va natijalar iqtisodiyotdagi izchil islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, shuningdek, yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish natijasida qo'lga kiritildi. 2010–2015-yillar davomida sanoatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ya'ni korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik yangilash, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,5 martaga oshdi.

2015-yil holatiga ko'ra, Samarqand shahrida jami yuridik shaxslar soni 6219 ta bo'lib, shulardan sanoat korxonalarini soni 1218 ta, qurilish korxonalarini soni 555 ta, qishloq va o'rmon xo'jaliklari soni 89 ta, transport va aloqa korxonalarini soni 197 ta, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari soni 610 tani tashkil etgan. Shahar sanoatida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilganligi natijasida, tarmoqlar o'rtasidagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham o'zgardi: keyingi besh yilga nisbatan kimyo sanoati 5 martaga, o'rmonchilik va yog'ochni qayta ishlash 1,6 martaga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash 3,7 martaga, yengil sanoat 2,8 martaga, oziq-ovqat sanoati sohasi 1,8 martaga, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati sohasi 3,2 martaga o'sishiga erishildi¹.

Bugungi kunda shahar iqtisodiyotida yirik sanoat korxonalarini alohida o'rin tutmoqda. Xususan, Samarqand viloyatidagi mulkchilikning barcha turiga oid mavjud 135 dan ortiq yirik sanoat korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida joylashgan. Jumladan, «Sherdor plus poligraf», «Samarqand hududiy elektr tarmoqlari», «8-mart», «Best farfor», «Samarkand keramik», «Xovrenko» nomidagi Samarqand vino kombinati, «Karpetservis», «Samarqand kimyo», «Kinap» va boshqalar shular jumlasidandir.

Bunday yirik sanoat korxonalarini tomonidan avtomobillar uchun elektrotexnika asbob-uskunalari, uy-ro'zg'or sovitkichlari, superfosfat, ammo fos o'g'itlari, trikotaj, vino, marmar taxtalar, g'isht, asfalt-beton, chinni va shu kabi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

¹ Samarqand shahar hokimligining iqtisod bo'limi materiallari. Samarqand shahrining 2009–2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari haqida ma'lumot. 2016-yil.

2015-yilda viloyat bo'yicha jami 27 ta yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularning 14 tasi Samarqand shahrida joylashgan. Shaharda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi 62,3 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi esa 37,7 % ni tashkil etdi. Bu ko'payish asosan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish va mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish hisobidan amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlashga katta ahamiyat berildi. Jumladan, «Kinap», «Sino» zavodlarida yangi zamonaviy mahsulot turlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Shaharda gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan 34 ta gilam mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan o'tgan yil yakuni bilan viloyatda jami 29,2 mln kv metr gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning hajmi 2016-yilda 2010-yilga nisbatan 2,3 martaga oshdi¹.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayoni Samarqand viloyatida ilk bor qo'shma korxonalar ochilishiga asos bo'ldi. Ularning katta qismi viloyat markazida joylashgan bo'lib, O'zbekiston-Yaponiya «Samavto», O'zbekiston-Amerika-Angliya «UZVAT», O'zbekiston-Chexiya «PRAGA» (mineral suv qadoqlash), O'zbekiston-Latviya «Bravosub» qo'shma korxonalarini shular jumlasidandir². Samarqand shahrida bunday qo'shma korxonalarining soni ko'payib bordi. Jumladan, «Daka Tex» O'zbekiston – Rossiya qo'shma korxonasi, «Pulsar group brewery» O'zbekiston – Chexiya qo'shma korxonasi, «Samarqand avtomobil zavodi» kabi qo'shma korxonalar o'z faoliyatini boshladi.

Samarqand shahrida qo'shma korxonalar soni yildan yilga ortib bordi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2012-yilda 523,9 mlrd so'mni, 2014-yilda 922,7 mlrd so'mni, shu jumladan chet el investitsiyalari 2012-yilda 43,5 ming AQSH dollarini va 2014-yilda 49 ming AQSH dollarini tashkil qildi. To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari esa 2014-yilda 14,6 ming AQSH dollariga yetdi³. Natijada jahon bozorida o'zining raqobatbardosh mahsulot turlarini taqdim etadigan korxonalar safi kengayib bordi.

2014-yilda Samarqand shahrida ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi mavjud 117 ta, 2015-yilda 125 ta (8 ta qo'shildi)⁴ korxonalar tomoni-

¹ Samarqand shahar hokimligi iqtisod bo'limi materiallari. Samarqand shahrining 2009–2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari materiallari. Samarqand. 2016-y.

² O'zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Tom 7. Toshkent: O'ME, 2004. 460-b.

³ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2015. 4-b.

⁴ www.samshahar.uz

dan o'zlashtirilib, amalga oshirilgan eksport hajmi 18 952,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. 2010–2015-yillar mobaynida eksportyor korxonalar tomonidan 524,3 mln dollarlik mahsulotlar va xizmatlar eksporti amalga oshirilgan hamda shu davrda hududiy eksport hajmi 4,2 barobarga o'sdi. Jumladan, 2010-yilda 76 ta korxonada tovar va xizmatlar eksporti amalga oshirilgan bo'lsa, 2017-yilga kelib ularning soni 151 taga yetkazildi.

Sanoat sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar faoliyatini rivojlantirish tufayli, avvalo, ichki bozor aholi ehtiyoji uchun zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlanib, o'z mahsulotlari bilan jahon bozoriga ham chiqishga erishildi. Shaharda kalava ip ishlab chiqaradigan 2 ta korxonalar, shundan 1 tasi xorijiy, gilam va paloslar ishlab chiqaradigan 10 ta qo'shma korxonalar va boshqa 75 tadan ortiq yirik qo'shma korxonalar bunyod etildi.

2015-yilda bu korxonalarda yiliga 1 350 mlrd so'mdan ko'proq mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu jami shahar sanoati mahsulotining 42,1% ni tashkil etmoqda. Bu, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining shahar iqtisodiyotida qo'shimcha ish o'rni, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, qo'shimcha mahsulot turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda xorijiy valutaga bo'lgan talabni qondirishga xizmat qiladi.

Qo'shma korxonalarda ishlayotgan aholi soni, 2014-yilgi ko'rsatkichlarga ko'ra, 8 920 kishini tashkil etdi¹. 2016-yilda Samarqand viloyatida ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 255 tani, ulardan hozirgi kunda faoliyat ko'rsatib kelayotgan korxonalar 240 tani tashkil etadi². Shundan, Samarqand shahrida 2010-yilda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 89 ta bo'lgan bo'lsa, 2016-yilda ularning soni 139 tani tashkil etdi³. Samarqand shahri iqtisodiyotida mahsulotlar eksporti geografiyasi 2010-yil Rossiya, Qozog'iston va yaqin MDH mamlakatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016-yilda Buyuk Britaniya, Germaniya, Latviya, Avstriya, Xitoy, BAA, Eron, Turkiya, Afg'oniston kabi 10 dan ortiq mamlakatlar hisobiga kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotni isloh qilish sohasida «Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash»⁴ strategik maqsad sifatida belgilangan edi.

¹ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2015. 15-b.

² Samarqand shahar hokimligi iqtisodiyot bo'limi materiallari. Samarqand, 2015.

³ Samarqand viloyati pasport ma'lumotlari. Samarqand, 2017. 5-b.

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. 18-b.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish orqali iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish evaziga mazkur strategik maqsad o'zini oqladi¹.

Viloyatda 2015-yilda 27 ta yirik sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi 42,7 % ni, kichik biznes subyektlari ulushi esa 57,3 % ni tashkil etdi. Bu ko'payish asosan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish hisobidan amalga oshirildi.

Samarqand shahrida kichik biznesning sanoatdagi ulushi 2014-yilda 33,4% ni, chakana savdoda 54,7 % ni, aholining pullik xizmatida 47 % ni tashkil qildi². Shaharda 2015-yilda 671 ta kichik biznes subyektlari tashkil etilib, ularning jami soni 4 953 taga yetdi va 2010-yilga nisbatan 102,8 % ga ortdi³. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida Samarqand shahrida «Yagona darcha» tamoyilining amalda tatbiq etilishini kuzatish mumkin. Kichik biznes subyektlarining statistika va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmini soddalashtirish, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ancha kengaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2014-yil davomida kichik biznesni rivojlantirish uchun Samarqand shahri bo'yicha jami 392 798 mln so'm kredit ajratildi. 2015-yilda Samarqand shahrida xususiy tadbirkorlarga ajratilgan kredit mablag'lari esa 530,0 mlrd so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 12 barobarga oshdi⁴. 2015-yilda 1 784 ta (165,2 ming kv km) faoliyat ko'rsatmayotgan, bo'sh turgan maydonlar kichik biznes subyektlariga ijaraga berildi. Bu esa ular tomonidan yangi faoliyat turlarini tashkil etishda, zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda va pirovard natijada aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

¹ Kuraxmedov A., Sidikov M. Mustaqillik yillarida Samarqand shahri: bunyodkorlik va taraqqiyot. Samarqand, 2016. 42-b.

² O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. 1991–2014-yillar.

³ Samarqand shahar hokimligi iqtisod bo'limi materiallari. Samarqand shahrining 2009–2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish materiallari. 2016-y.

⁴ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2015. 16-b.

Kichik biznesning iqtisodiyotda bandlikdagi o'rnini mustaqillikning dastlabki yillarida juda kam salmoqni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilga kelib 70% ni tashkil etgan.

Samarqand shahrida chet el investitsiyalari bilan muomaladagi kichik korxonalar ham mavjud. 2005-yilda ularning soni 28 ta bo'lib, 2013-yilga kelib 30 taga ko'paygan. Kichik biznes korxonalarining xizmati va mahsulotlarining eksport hajmi 2005-yilda 3 851 ming dollar miqdorida bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda 4 2691,6 ming dollarga yetdi¹. Ushbu davrda kichik biznes subyektlarining mahsulot eksportidagi ulushi 11 martaga oshdi.

2015-yil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 974,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2014-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116 % ga yetdi. Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 1639,4 mlrd so'm bo'lib, 2014-yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni, nodavlat sektorning sanoat mahsulotidagi ulushi 96,5 % ni, qurilish-pudrat ishlari 461,0 mlrd so'm bo'lib, o'sish sur'ati 111,2 % ni, savdo aylanmasi 1 316,7 mlrd so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 114,1 % ni, pullik xizmat ko'rsatish hajmi 2 944,7 mlrd so'm yoki 2014-yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami 922,7 mlrd so'm yoki 2014-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil qildi, ular orasida chet el investitsiyalari 49,0 ming AQSH dollaridan iborat bo'ldi².

Samarqand shahrining 2005-yildagi eksport hajmi 14 932,1 ming AQSH dollari bo'lgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, 74 658,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu davrda shaharning eksport salohiyati 5 martaga oshdi. Shahar iqtisodiyotida import hajmi 2005-yilda 58283,3 ming AQSH dollarini, 2013-yilda kelib 322602,2 ming AQSH dollarini tashkil etgan yoki 5,5 martaga o'sgan³.

Samarqand shahri iqtisodiyotida ushbu davr tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportdan ko'ra import darajasining o'sishi sanoatda mahalliydasturlash jarayoni rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Bu, o'z navbatida, shaharning keyingi yillardagi eksport salohiyatini oshirishga, import tovarlarga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keldi.

Bundan tashqari, shaharda xizmatlar sohasini yanada jadal rivojlantirish, shuningdek, bozor konyunkturasida import tovarlar o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiy salohiyatni ko'tarish imkoniyatlari kengdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. 1991–2014-yillar.

² www.samshahar.uz

³ O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. 1991–2014-yillar.

Zamonaviy Samarqand shahri iqtisodiy infrastrukturasi rivojlani-shida bozorlar va savdo markazlari ham alohida o'ringa ega. Shaharda faoliyat yuritayotgan ko'plab chakana savdo shoxobchalari, savdo do'kon-lari, ulgurji savdo korxonalari mavjud edi.

2014-yilda Samarqand shahrida nooziq-ovqat do'konlari 1 870 ta, su-permarketlar 6 ta, aralash mahsulotlar do'koni 310 ta, faoliyat yuritayot-gan ulgurji savdo korxonalari soni 206 tani tashkil qildi¹. Bu, o'z navba-tida, Samarqand shahrida savdo va xizmat ko'rsatish sohasining jadal sur'atlarda rivojlanayotganligidan hamda iqtisodiyotning ushbu tarmog'i viloyat yalpi hududiy mahsulotini shakllantirishda yetakchi rol o'ynayot-ganligidan dalolat beradi.

2015-yilda Samarqand shahrida 17 dan ortiq yirik dehqon bozorlari va savdo majmualari mavjud edi. Jumladan, «Siyob dehqon bozori» MCHJ, «Shodiyona» MCHJ, «Ipak yo'li buyum bozori» MCHJ, «Temiryo'l dehqon bozori» MCHJ, «Samarqand Siyob savdo» UK, «Erkin savdo» majmualari va boshqalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish, barcha soha-larni isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tubdan yangicha qiyofa kasb etmoqda. Bunda, ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashab-busi bilan ishlab chiqilgan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanti-rish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonning qabul qili-nishi davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga, inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng miqyosli o'zgartirishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi².

«Harakatlar strategiyasi»da keltirilgan vazifalarni bajarish yuzasi-dan butun respublikada bo'lgani kabi Samarqand shahar boshqaruvida ham liberallashtirish jarayonlari keng yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Xalq qabulxonalari, viloyat, shahar va tuman hokimlarining sayyor qabullari, xizmat ko'rsatish sohasidagi yagona xizmat ko'rsatish markazlari shahar aholisini qiynayotgan muammolarni hal etishda ijobiy samara berayotgan-liigi islohotlar samarasi hisoblanadi.

2019-yilning 2-choragida Samarqand viloyatidagi Xalq qabulxonalariga jismoniy va yuridik shaxslardan 11000 ta (2018-yil 2-choragida 13444 ta), viloyat Xalq qabulxonasiga 2446 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, Samarqand shahridagi Xalq qabulxonasiga 921 ta, Kattaqo'rg'on tumani-dagi Xalq qabulxonasiga 802 ta, Oqdaryo tumanidagi Xalq qabulxonasiga 774 ta, Narpay tumanidagi xalq qabulxonasiga 593 ta, Kattaqo'rg'on shah-

¹ Samarqand: kecha va bugun. Samarqand viloyat hokimligi. Samarqand, 2015. 24-b.

² Новейшая история Узбекистана. Учебник. / Под ред. М.Рахимова. – Ташкент: Adabiyot uchqunlari, 2018. С. 138.

ridagi xalq qabulxonasiga 572 ta, Ishtixon tumanidagi Xalq qabulxonasi-ga 570 ta, Samarqand tumanidagi Xalq qabulxonasiga 557 ta, Qo'shrabod tumanidagi Xalq qabulxonasiga 550 ta, Pastdarg'om tumanidagi Xalq qabulxonasiga esa 549 ta murojaat bo'lgan.

Murojaatlarning (jami 11000 ta) 5179 tasi (47,5 %) qanoatlantirilgan, 4822 tasi (39 %) bo'yicha tushuntirish berilgan, 119 tasi rad etilgan va 849 ta murojaatlar tegishli tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

2019-yilning 2-choragida viloyatdagi Xalq qabulxonalari tomonidan murojaatlar bilan ishlash jarayonida yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlari yuzasidan chiqarilgan takliflar natijasida 33 nafar rahbar va mas'ul xodimlar intizomiy jazoga, 8 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan hamda 2 nafarining mehnat shartnomalari bekor qilingan.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 2-apreldagi «Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ijrosi yuzasidan «mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla» tizimining joriy qilinishi muhim samara bermoqda. Jumladan, Farmonga muvofiq 2019-yil 1-iyundan boshlab fuqarolar yig'inlari xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tuman (shahar) kengashlari raislarining birinchi o'rinbosarlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Farmondagi eng muhim yangiliklardan biri, bu fuqarolar yig'inlari raislari va mas'ul kotiblari oylik ish haqi fondining joriy yilda 1,5 baravarga oshirilishi bo'ldi¹.

«Harakatlar strategiyasi»ning «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish» yo'nalishi asosida Samarqandda yangi iqtisodiy infratuzilmalarning shakllanishi va shahar iqtisodini yanada rivojlantirishga, viloyatning iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan tumanlariga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, 2017-yilda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan Kattaqo'rg'on va Qo'shrabod tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish rejalashtirildi².

Samarqandda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasi o'laroq 2017-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi yo'nalishida 2007,6 milliard so'm bo'lgan 2298 ta loyiha amalga oshirildi va 22498 ta ish o'rni yaratildi. Jumladan, sanoat yo'nalishida 873,8 milliard so'mlik 311 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 6906 kishi ish bilan ta'minlandi. Bulung'ur tumanidagi «Samarkand Garden Plast» MCHJga 10 mln dollarlik investitsiya jalb etildi. Natijada yiliga 10 tonna meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash

¹ <http://www.samshahar.uz/en/node/966>

² <http://zamnews.uz/post>

va shok usulida muzlatish loyihasi yo'lga qo'yildi. Samarqand shahridagi «Sifat Azizbek baraka» MCHJ tomonidan 350 mln so'mlik investitsiya evaziga yiliga 200 tonna kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Kattaqo'rg'on shahridagi «Kattaqo'rg'onsutagro» firmasi oilaviy korxonasida 400 mln so'm mablag' evaziga 1000 tonna sutni qayta ishlovchi korxonaga ishga tushdi. Shuningdek, Kattaqo'rg'on shahridagi «Metall solution technologies» korxonasida turli o'lchamdagi sharikli vintellar, latun va fittinglar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi va 250 kishi yangi ish o'rniga ega bo'ldi. Oqdaryo tumanidagi «Mushtariy Oqdaryo» MCHJ yiliga 5 mln dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqara boshladi. Jomboy tumanidagi «Gala Osiyo non» MCHJ tomonidan bir yilda 10 mln dona jinsi mahsulotlari va 4500 ming tonna trikotaj matolari ishlab chiqarildi va 800 kishi uchun yangi ish o'rnini yaratildi. Samarqand shahridagi «Samarkand-England eco-medical» MCHJda yiliga 8 mln dona dori-darmon vositalari ishlab chiqarildi. Samarqand shahridagi «Praym keramika» korxonasi yiliga 12 mln metr kvadrat keramik plitkalar ishlab chiqara boshladi¹.

Viloyat Statistika boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand shahrida 2018-yilning yanvar-iyun oylarida 724 ta yangi korxonaga tashkil etilgan. Ularning aksariyati sanoat, savdo, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadi. Shuningdek, ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, sog'liqni saqlash, axborot va aloqa sohalarida ham yangi korxonalar yaratish ko'zda tutilgan².

2018-yil yanvar-noyabr oylarida 31 ta qo'shma va xorijiy korxonalar tomonidan 24 mln 191 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etildi. 2018–2019-yillarda Samarqand shahrida umumiy qiymati 96,1 mln dollarlik 20 ta loyihani ishga tushirish hisobidan 1317 kishini doimiy ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan edi. O'tgan davr mobaynida shaharda 21,6 mln dollar investitsiya o'zlashtirildi. Uning 19,5 mln dollari xorijiy hamkorlar sarmoyasi bilan tashkil qilindi. Hozirgacha 9 ta loyiha ijrosi ta'minlanib, 252 ta yangi ish o'rnini yaratildi³.

Samarqand shahrida 2019-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni 8443 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich viloyatdagi tadbirkorlik subyektlarining 32,7 % ini tashkil qiladi. Buni 2018-yil ma'lumotlari bilan solishtiradigan bo'lsak, shaharda 2019-yilda tadbirkorlik subyektlarining soni 2,1 martaba ko'paygan⁴. Xususan, 2020-yilda pandemiya sharoiti bo'lishiga qaramasdan Samarqand-

¹ «Samarqand» gazetasi. 2017-yil 21-dekabr.

² «Samarqand» gazetasi. 2018-yil 19-iyun.

³ «Samarqand» gazetasi. 2019-yil 14-yanvar.

⁴ «Samarqand» gazetasi. 2019-yil 3-sentabr.

da yetishtirilgan mahsulotlarni 2017-yilgi natijalar bilan solishtirilsa, 74,9 ming tonna meva (43,8 %), 140,9 ming tonna sabzavot (18,1 %), 13,6 ming tonna kartoshka (21 %), 8,4 ming tonna go'sht (7,5 %), 75,6 ming tonna sut (12,1 %), 2,3 ming tonna baliq (19,8 %), 186,4 million dona tuxum (15 %)ga ko'p mahsulot yetishtirilganligi ma'lum bo'ldi. Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun viloyatda o'tgan 4 yilda oziq-ovqat yo'nalishida 455 ta yangi loyiha ishga tushirildi, ularni amalga oshirish uchun 16,4 trillion so'm kredit mablag'i ajratildi. Natijada 5 703 ta yangi ish o'rni yaratildi. Jumladan, 2017–2021-yillarda viloyat bo'yicha 8366 gektar maydonda intensiv texnologiyalar asosida mevali bog', 10882 gektar maydonda yangi tokzorlar barpo etildi¹.

Chorvachilik yo'nalishida chet davlatlardan 1 561 bosh naslli qoramollar keltirildi. Baliqchilik yo'nalishida 88 ta, asalarichilikda 35 ta, parrandachilikda 235 ta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash (muzlatkich) yo'nalishida 288 ta yangi loyiha amalga oshirildi².

Muhimi, o'tgan 4 yilda umumiy quvvati 65,5 ming tonnalik, qiymati 231 milliard so'mlik bo'lgan 5 ta yangi agrologistika markazi faoliyat boshladi.

So'nggi yillarda viloyatda amalga oshirilgan ishlar natijasida bir qator yo'nalishlarda o'sishga erishildi. Birgina 2016–2021-yillarda viloyatda yalpi hududiy mahsulotlar 2, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,4, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 2,2 barobarga ko'paydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 1,9, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 3,7, qurilish ishlari 2,5, chakana savdo aylanmasi 2,1, xizmatlar hajmi 2, tashqi savdo aylanmasi 2, eksport 2 barobarga oshdi³.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan viloyatning o'sish nuqtalari, ya'ni drayverlari aniqlanib, faol investitsiya siyosatini yuritish maqsadida 2021-yil uchun ham aniq maqsadga qaratilgan rejalar belgilab olingan.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 15–16-aprel kunlari Samarqandga tashrifi davomida viloyatning sanoat salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida berilgan topshiriqlariga asosan «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi hududi kengaytirilmoqda. Har bir tumanda erkin iqtisodiy zonaning filiallari tashkil etilmoqda. Bugungi kunda «Urgut» erkin iqtisodiy zonasida umumiy qiymati 431,4 million dollarlik 94 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan bo'lsa, kelajakda yangi loyihalarni amalga oshirish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish salmog'ini bir necha barobar oshirish rejalashtirilgan.

¹ www.samarkand.uz

² www.zarnews.uz

³ www.samstat.uz

Shuningdek, kichik sanoat zonalarini hududini kengaytirish, yoshlarning o'z biznesiga ega bo'lishi, «start up» loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida shahar va tumanlardagi 43,1 gektar yer maydonida «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini»ni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 2021-yil 1-avgustgacha 4 ta (Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy va Urgut tumanlaridagi) hududda hamda 2021-yilning 1-sentabriga qadar qolgan hududlarda «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini»ni ishga tushirish rejalashtirilgan¹.

Ko'pgina sohalar kabi viloyatning investitsion salohiyatini oshirish uchun investitsiya loyihalarini amalga oshirish va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasida qator ishlar amalga oshirildi. 2020-yilda viloyat bo'yicha to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda davlat kafolati ostida bo'lmagan xorijiy kredit mablag'lari hisobiga 225,8 million AQSH dollarilik investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lsa, 2021-yilning yanvar-may oylarida 46,6 million dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, hududiy dasturlar doirasida 2020-yilda 5,5 trillion so'mlik 1252 ta loyiha ishga tushirilgan bo'lsa, 2021-yilning o'tgan davrida 2,5 trillion so'mlik 580 ta loyiha amalga oshirildi.

Viloyatda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmi 2020-yil yakuni bo'yicha 335,3 million dollar bo'lgan bo'lsa, joriy yil boshidan buyon 165,7 million dollarlik mahsulot eksport qilindi².

2017–2021-yillarda amalga oshirilgan islohotlar asosida aholining turmushini yaxshilashga asosiy e'tibor qaratildi. Bu yo'lda Samarqand viloyatida «Obod qishloq», «Obod mahalla» dasturi amalga oshirilib, bir qancha aholi maskanlari qayta ta'mirlandi. Bunga misol sifatida Samarqand shahridagi mahallalar, 2018-yilda Jom qishlog'i, 2019-yilda Jo'sh qishloqlari «Obod qishloq» dasturi asosida ta'mirlandi va yangi qiyofa kasb etdi. 2021-yilda Samarqand viloyatining 717 ta qishloq va 198 ta mahallasining me'moriy qiyofasini yangilash va hududlarni obodonlashtirishga 1805 mlrd so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Jumladan, «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida 28 ta qishloq va to'rtta mahallaning me'moriy qiyofasi yangilandi va hududlari obodonlashtirildi³.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil noyabrda BMT bilan hamkorlikda Samarqandda «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusi-da xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so'zladi. Prezidentning nutqidan ke-

¹ www.samarkand.uz

² www.zarnews.uz

³ www.samarkand.uz

lib chiqqan holda, bugungi kunda O'zbekistonning mintaqada tinchlikni saqlashga doir yuritayotgan siyosati BMT tomonidan alohida e'tibor etildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan oqilona siyosat, o'z vaqtida qabul qilingan farmon va qarorlar hamda bu borada belgilangan chora-tadbirlar natijasida barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, fuqarolarning hayot darajasi, siyosiy-ijtimoiy faolligi oshib bormoqda. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2-§. Xizmat ko'rsatish, shahar budjeti va aholi bandligi masalalari

Respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi katta rol o'ynaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda inson va uning manfaatlari birinchi o'ringa qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, barcha xizmat ko'rsatish sohalari faoliyati fuqarolarga munosib hayot tarzini yaratib berishga qaratilgan. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi shahar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi.

Aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning 2014-yilgi ko'rsatkichiga ko'ra, Samarqand shahrida pullik xizmatlar hajmi 809 339,2 mln so'mni tashkil etgan. Bu esa, sohada 2012–2013-yillarga nisbatan o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil etganligidan dalolat beradi. Aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar aholi jon boshiga 2014-yilda 1 583,2 ming so'mni tashkil qildi¹. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha 2016-yilda amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilinganda, 2010–2015-yillarda jami qiymati 56,1 mlrd so'mlik mablag'lar (16,9 mlrd so'm miqdorida tijorat banklari kreditlari) o'zlashtirilishi evaziga 1 556 ta loyiha amalga oshirilib, ular negizida 15 041 nafar yangi ish o'rinlari yaratilganligi aniqlandi.

Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar, xususan, aloqa va axborotlashtirish, kompyuterlarni dasturlashtirish xizmatlari, moliya, transport xizmati, qurilish, turizm, savdo va umumiy ovqatlanish, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, texnika va uskunalarni ta'mirlash, maishiy xizmat ko'rsatish keng rivojlandi.

Ushbu iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami xizmatlarning 2014-yildagi ko'rsatkichi 2 944 779,8 mln so'mni tashkil etib, 2013-yilga nisbatan o'sish sur'ati 123 % ni tashkil qildi². Shuningdek, 2014-yilda xizmat ko'rsa-

¹ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. 2015-y. 14-b.

² Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. 2015-y. 13-b.

tish va servis sohasida 95 ta loyiha to'liq ishga tushirildi, 12,8 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirildi va 441 ta yangi ish o'rinlari yaratildi¹.

So'nggi yillarda Samarqand shahri miqyosida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari soni tobora ko'payib bormoqda. 2015-yilga tegishli ma'lumotlarga ko'ra, shaharda jami 4 712 ta maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari bor edi. Shundan, yakka tartibda poyabzal tikish – 85 ta, tikuv, mo'yna, trikotaj va teri buyumlarini, bosh kiyimlar va to'qimachilik, attorlik buyumlarini yakka tartibda tikish – 114 ta, uy-ro'zg'or mashinalari va asboblari ta'mirlash, metall buyumlarni tayyorlash va ta'mirlash – 33 ta, transport vositalari va texnik xizmat ko'rsatish – 74 ta, mebel ta'mirlash va tayyorlash – 40 ta, kalit tayyorlash – 2 ta, kimyoviy tozalash – 11 ta, kir yuvish xonalari xizmati – 1 ta, turar joylarni ta'mirlash – 5 ta, fotografiya va fotokinolaboratoriyalar xizmati – 42 ta, hammom va yuvinish xizmatlari – 7 ta, sartaroshxona xizmati – 238 ta, ijaraga berish shoxobchalari xizmati – 22 ta, transport xizmatlari – 433 ta, maishiy xizmatlarning boshqa turlari 3 645 tani tashkil qiladi².

Maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari mustaqillikning dastlabki yillarida asosan davlat hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2015-yilga kelib to'liqligicha xususiy sektor subyektlari hisobiga to'g'ri keldi.

Aholiga ko'rsatiladigan transport xizmati sifatini yaxshilash va qulayliklar yaratish maqsadida 2010–2015-yillar mobaynida Samarqand shahrida 57 ta yo'lovchi transport (avtobus) yo'nalishlari tashkil etildi. Ushbu yo'nalishlarda «Samavto» korxonasi ishlab chiqarilgan «ISUZU» rusumidagi 601 dona yangi avtobuslar aholiga xizmat ko'rsata boshladi.

2005-yildan boshlab «Registon» va 2014-yildan «Afrosiyob» deb nomlangan Toshkent-Samarqand tezyurar poyezdlarining yo'lga qo'yilishi Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri, Toshkent viloyati aholisining Samarqandga 1 kunlik sayohatga kelishlariga imkoniyat yaratdi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasida turizm xizmatlari hajmi 2015-yilda 44,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2010-yilga nisbatan 2,6 barobarga oshdi. 2010–2015-yillarda mazkur soha xizmatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida 50 ga yaqin maxsus zamonaviy sayyohlik avtobuslari xarid qilindi va xizmati yo'lga qo'yildi³.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab shahar aholisining yashash tarzi va ularga yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar kundan kunga

¹ www.samshahar.uz

² Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2015. 14-b.

³ Samarqand shahar hokimligi iqtisodiyot bo'limi materiallari. Samarqand, 2016-y.

yaxshilanib bordi. 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, aholining maishiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasi 92,5 % ga, kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi 71,5 % ga yetdi.

Umuman olganda, olib borilgan ishlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 2010-yilga nisbatan 4,1 barobarga oshib 6912,6 ming so'mni tashkil qildi¹. Bu esa, o'z navbatida, so'nggi yillarda shahar aholisi turmush darajasining o'sib, rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

2018-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, Samarqand viloyati aholisi 3777,8 ming kishini tashkil etadi. Aholi soni yil boshidan 57811 nafarga yoki 1,6 % ga o'sdi. Jumladan, shaharlar aholisi soni 1407,7 ming, qishloq aholisi esa 2370,1 ming nafarni tashkil etadi².

Shahar iqtisodining jadal rivojlanishi uning budjet daromadlari va xarajatlarida ham o'z natijalarini berdi. Samarqand shahar budjetining daromadi 2007-yilda 29 383,1 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda 72 724,9 mln so'mni tashkil etdi. Viloyat budjeti daromad qismida Samarqand shahar budjetining daromad qismi 2007-yilda 8,8 % ni, 2013-yilda esa 9,6 % ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan budjetning daromad qismi 2007-yilda 74,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda 143,6 ming so'mga yetdi. Shahar budjetining sarf-xarajati 2007-yilda 24 874 mln so'mdan, 2013-yilda 141728,9 mln so'mdan iborat bo'ldi³. Mahalliy budjetning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad qismi 2013-yilga kelib 1,9 martaga oshdi.

2016-yil shahar mahalliy budjeti jami xarajatlari 213 138,1 mln so'm bo'lib, shundan ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish uchun 184 275,1 mln so'm yoki umumiy xarajatlarning 86,4 % miqdorida mablag' rejalashtirildi⁴. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shahar budjetida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajalar budjet xarajatining asosiy qismini tashkil etadi. Xususan, 2015-yilda shahar mahalliy budjetining daromad qismi 193,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish 159,9 mlrd so'mni yoki umumiy xarajatlarning 82,7 % ini tashkil etdi.

2018-yilning birinchi yarim yilligi davomida shahar mahalliy budjetining sifatli va yuqori samarali ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar olib borildi. Natijada shahar budjetining daromadlar qismi 112,6 % ga

¹ Samarqand shahar hokimligi iqtisodiyot bo'limi materiallari, Samarqand shahrining 2009–2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari materiallari. 2016-y.

² Abdiyev Sh. Viloyat aholisi soni oshdi / Zarafshon gazetasi. 2018-yil, oktabr.

³ O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi. Samarqand shahar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. 1991–2014-yillar.

⁴ Samarqand shahar hokimligi moliya bo'limi materiallari. Samarqand, 2016-yil.

bajarilib, rejadagi 33 837,4 mln soʻm oʻrniga, haqiqatda 38 110,4 mln daromad tushirilib, 4273,0 mln soʻm qoʻshimcha daromad olishga erishildi. Bu esa, oʻz navbatida, shahar mahalliy budjetining daromadlar qismi rejasi-ning bajarilishni taʼminladi¹.

Ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi taʼlim tizimi muassasalarini saqlash va rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, bu 53,4 mlrd soʻmni yoki ijtimoiy soha xarajatlarining 33,3% ini tashkil etdi. Bularning bari shahar iqtisodi va unga muvofiq ravishda budjetining oʻsib borishi ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilayotganligini namoyon etadi.

Samarqand viloyati boʻyicha iqtisodiy faol aholi soni 1997-yilda 892 900 ming kishidan iborat boʻlib, shundan iqtisodiyotda band boʻlganlar 888 ming kishini, yaʼni umumiy iqtisodiy faol aholiga nisbatan 99,5 % ni tashkil etar edi. Samarqand shahrida esa iqtisodiyotda band boʻlganlar soni 157 200 kishini tashkil qilgan. Shaharda rasmiy ishsizlik maqomini olgan ishsizlar soni umumiy iqtisodiy faol aholiga nisbatan 0,5 % ni tashkil etgan.

2006-yilga kelib, viloyat boʻyicha iqtisodiy faol aholi soni 1 085 ming kishini tashkil etdi. Shundan iqtisodiyotda band boʻlganlar soni 1 083,2 ming kishi boʻlib, umumiy iqtisodiy faol aholiga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi. Ishsizlar soni esa 1 800 ta boʻlib, bu koʻrsatkich umumiy iqtisodiy faol aholiga nisbatan 0,2 % ni tashkil qilgan. Iqtisodiyotda band boʻlgan 1 083,2 ming kishidan 90 300 kishi Samarqand shahriga toʻgʻri kelgan². 2014-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining yillik oʻrtacha soni 364,6 ming kishini tashkil etgani holda, iqtisodiy faol aholi soni 298,7 ming kishiga, ish bilan band aholi soni oʻrtacha 278,6 ming kishiga yetdi. Ularning soha boʻyicha taqsimoti qishloq xoʻjaligida – 13,9 ming, sanoatda – 41,8 ming, qurilishda – 30,6 ming, transportda – 19,5 ming, aloqa sohasida – 8,4 ming kishini tashkil etgan.

Respublika hukumati, viloyat, tuman hamda shahar hokimiyatlari faoliyatida ishsizlik muammosini bartaraf etish uchun yangi ish oʻrinlarini muttasil va muntazam koʻpaytirib borish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada maxsus dasturlar asosida har yili yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha aniq rejalar ishlab chiqiladi. Xususan, 2013-yilda Samarqand shahrida xizmat koʻrsatish va servis sohasida 5 801 ta ish oʻrinlarini ajratish rejalashtirilgan, ammo amalda 6 674 ta ish oʻrni yaratilib, belgilangan reja 115 % ga bajarilgan³.

¹ «Samarqand» gazetasi / 2018-yil iyul.

² Statistik toʻplam. 1997–2006. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. – Samarqand, 2007. 46–49-betlar.

³ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand viloyat pasporti. Samarqand, 2015. 19-b.

Yangi ish joylarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturining bajarilishiga ko'ra, 2014-yil Samarqand shahrida barcha yo'nalishlarda yaratilgan yangi ish o'rinlari 16 230 ta bo'lib, dasturni amalga oshirish hisobiga 16 463 ta (shundan, sanoatda – 1 200 ta, xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanishda – 4 398 ta, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirishda – 1 670 ta, faoliyatsiz korxonalar faoliyatini tiklash hisobiga – 816 ta, uy mehnatini tashkil etish, shu jumladan, kasanachilik – 2 376 ta, boshqa yo'nalishlarda 1 516 ta) ish o'rinlari yaratilgan¹.

2017-yilda qabul qilingan «Harakatlar strategiyasi»ning «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi asosida Samarqand shahrida aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish, har bir tuman markazida ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish va qayta tayyorlash bo'yicha kasb-hunar kollejlari bazasida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish, Toshkent va Samarqand shahrida Koreya Respublikasi mablag'i hisobidan tashkil etilgan kasb-hunarga o'qitish markazida kamida 300 nafar yoshlarni kasbga qayta tayyorlash, O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalarida talabdan ortiq hajmda tayyorlanayotgan gumanitar ta'lim yo'nalishlarini qisqartirish va mos ravishda agrar sektor, ishlab chiqarish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi mutaxassislarini tayyorlash amalga oshirildi². Aholiga yangi va zamonaviy xizmat turlarini tashkil etish maqsadida «Autsorsing» va «Keytering», «Organik zona»lar, «Landromat», «Glamping», «Karshering», «Klining», «Blokcheyn», «Konsalting», «Turist-taksi», «Kargo» kabi yangi xizmat turlarini joriy etish bo'yicha investitsiya loyihalari ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Samarqand viloyatida eksperiment tariqasida mahallabay ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, Samarqand viloyatida tuman (shahar) hokimliklari ta'sisichiligida davlat muassasasi shaklida mahallabay ishlash markazlari tashkil etildi. Markazlar faoliyati Pstdarg'om, Urgut va Bulung'ur tumanlarida 2021-yilning 1-iyunidan boshlab tashkil etilgan, Samarqand viloyatining qolgan tuman (shahar)larida – 1-avgustga qadar tashkil etildi³. Ularning asosiy vazifalari aholi bandligini ta'minlash

¹ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2015. 6-b.

² <https://urgut.uz/oz/node/170>

³ www.zarnews.uz

va doimiy daromad manbayini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish, mahallabay ishlash asosida tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, mahalladagi infratuzilma bilan bog'liq muammolarni hal etish kabilar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Samarqand shahar iqtisodiy respublikada o'zining keng ko'lamdagi o'rniga ega bo'ldi. Shahardagi yirik va kichik sanoat korxonalari, shuningdek, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi ortdi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida bu sohada qilinishi lozim bo'lgan yana bir qator vazifalar belgilab berildi. Shaharda xizmat ko'rsatish va servis sohasini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida muhim topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

3-§. Ilm-fan va ta'lim maskanlari

Juda qadimdan ilm-fan markazi, tamaddun o'chog'i hisoblangan Samarqand shahri bugungi kunda ham fan, ta'lim va madaniyat sohaslarida respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bunga istiqloq yillarida shu sohalarda olib borilgan ulkan va izchil islohotlar tufayli erishildi. Vaholanki, mustaqillik arafasida bu borada juda katta muammolar mavjud bo'lib, ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyati na shaklan, na mazmunan zamon va milliy taraqqiyot talablariga javob bera olmas, aholining ma'naviy ehtiyojlarini mutlaqo qondira olmas edi. Bunday muammo Samarqand shahrining ta'lim sohasida ham mavjud edi. Sobiq tuzumdan ana shunday meros bilan qolgan ijtimoiy-madaniy muassasalar mustaqillik yillarida tubdan qayta qurildi. Bu borada qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari, qaror va farmonlari¹ ijrosi davomida qator bunyodkorlik va ta'mirlash ishlari, moddiy-texnika bazasini yangilash va modernizatsiya qilish, zamonaviy shart-sharoit, texnologiya bilan ta'minlash ishlariga katta e'tibor qaratildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida, jumladan 1994-yilda Samarqand shahrida 141 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 69 ta umumta'lim maktablari qurilib, undagi o'quvchilar soni 67 762,0 mingni tashkil etdi. 2009-yilga kelib shaharda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 106 taga kamaygan, maktablar soni esa 71 taga va undagi o'quvchilar soni 59760,0 mingga² ko'paygan³. 2019-yilga Samarqand shahridagi maktablar soni 80

¹ «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom» hamda boshqa qaror va farmonlar.

² Bu davrda umumta'lim maktablari 9 yillik bo'lgan.

³ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika boshqarmasi. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Ташкент, 1991–2014-йил.

taga yetdi. Shahardagi maktabgacha ta'lim muassasalarining kamayishi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasining eskirganligi va xizmat ko'rsatishga yaroqsiz bo'lganligi sababli ularning faoliyati to'xtatilishi bilan izohlanadi. Shahardagi umumta'lim maktablari sonining ko'payishi esa shahar hududining kengayishi, qo'shni qishloqlarning shahar hududiga kiritilishi hisobiga sodir bo'lgan. 2017-yilda Samarqand shahrida maktabgacha ta'lim muassasalarining soni 108 tani, o'rta maxsus hamda kasb-hunar ta'lim muassasalari soni esa 28 tani tashkil etdi¹.

Mustaqillik yillarida shahar maktablari zamonaviy o'quv mebellari, qurollari va laboratoriya xonalari, yangi asbob-uskunalar bilan jihozlandi². Jumladan, shaharda 66 ta fizika kabineti, 29 ta kimyo-biologiya kabineti, 33 ta kimyo kabineti, 33 ta biologiya kabineti zamonaviy tartibda yangi uskunalar bilan jihozlandi. Shuningdek, ta'lim muassasalari kompyuter texnikasi, darsliklar, o'quv-uslubiy materiallari hamda sport anjomlari bilan jihozlanib, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Shahardagi 51, 35, 22, 6, 30, 27, 38, 59-sonli maktablarda sport zallari qurildi, 6 ta yangi bolalar musiqa va san'at maktablari bunyod etildi.

2010–2016-yilgacha Samarqand shahar xalq ta'limi muassasalarini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi 75 ta umumta'lim maktablardan 3 tasi, ya'ni 13, 53, 76-umumta'lim maktablari yangidan qurilib, 1230 o'rinli yangi binolar bunyod etildi. 15, 17, 22, 26, 32, 38, 46, 48, 62, 66, 67, 75, 77-umumta'lim maktablari qaytadan kapital rekonstruksiya qilinib, 7 242 o'rinli qo'shimcha yangi o'quv binolar qurildi. Shuningdek, 24 850 o'rinli 31 ta maktab kapital hamda 21 247 o'rinli 24 ta maktab joriy ta'mirlandi. Jami qurilish va ta'mirlash ishlariga davlat budjetidan 18 milliard 194 million so'mdan ortiq mablag' ajratilib, sarflandi.

Samarqand shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufida 108 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda, shulardan 3 tasi (57, 60, 78) maxsus tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan 57 tasi zamonaviy binoda, 38 tasi moslashtirilgan binoda joylashgan.

Samarqand viloyati hokimligining mahalliy Investitsiya dasturi asosida 2014-yilda 140 o'rinli 15-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida jami

¹ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi; Samarqand shahar pasport ma'lumotlari. Samarqand, 2017. 15-b.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi 493-sonli Qaroriga asosan.

441 million so'm mablag' sarflandi. 2015-yilda 700 o'rinli 3 ta 27, 81, 112-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarida 1 702 457 ming so'm mablag' sarflangan¹. Samarqand shahridagi ta'lim maskanlarida bunday qurilish va bunyodkorlik ishlari bugungi kungacha keng miqyosda davom etmoqda. Ta'lim muassasalarida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, jumladan, rayhon va gul ko'chatlari, manzarali va mevali daraxtlar ekilmoqda va maktab bog'lari yaratilmoqda.

2021-yilda Samarqand viloyatida chet el oliy ta'lim muassasalari filiallari bilan qo'shib hisoblaganda jami 10 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari mavjud. Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Ipak yo'li xalqaro turizm universiteti, Toshkent agrar universitetining Samarqand filiali, Toshkent iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali, Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali va Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti Samarqand filiali kabi yirik oliy ta'lim dargohlari O'zbekiston xalq xo'jaligiga malakali kadrlarni yetishtirib bermoqda.

Samarqand shahrida mavjud oliy ta'lim muassasalarida 2014-yilda 173 ta fan doktorlari va 863 ta fan nomzodlari, 2016-yilda esa 159 ta fan doktorlari va 851 ta fan nomzodlari faoliyat yuritdi². So'nggi yillarda Samarqandda OAK huzurida ko'plab ilmiy kengashlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Samarqand davlat universitetida fan ixtisosliklari bo'yicha 10 ta Ilmiy kengashlar faoliyat ko'rsatib, respublika ilm-fan salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining ahvoli haqida muhim ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan biri ta'lim muassasalarining bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonidir. 2016-yilda Samarqand shahridagi umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni quyidagicha: o'quvchilar soni 72 254 ta va o'qituvchilar 3 964 ta bo'lib, har bir o'qituvchiga 18,2 ta o'quvchi to'g'ri keladi.

¹ Samarqand shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tomonidan mustaqillik yillarida amalga oshirgan ishlar va qo'lga kiritilgan yutuqlar to'g'risida bergan ma'lumotlari asosida. Samarqand, 2015-yil.

² Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasport ma'lumotlari. Samarqand, 2017. 15-b.

Samarqand viloyat hokimining 2021-yil 25-iyundagi qarori bilan viloyatda 18 ta xorijiy tillarga ixtisoslashtirilib o'qitiladigan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari tashkil etildi. 2021-yilda viloyatda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari 25 ta bo'lib, ularning 19 tasi to'liq xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan. Jumladan, 11 tasi ingliz tiliga (Qo'shrabod tuman 82-, Urgut tuman 11-, Bulung'ur tuman 5-, Nurabod tuman 3-, Narpay tuman 23-, Toyloq tuman 26-, Paxtachi tuman 18-, Jomboy tuman 7-, Samarqand tuman 21-, Pastdarg'om tuman 54-, Kattaqo'rg'on shahar 16-umumta'lim maktablari) ixtisoslashtirildi¹.

Shuningdek, 1 ta fransuz tili (Samarqand shahridagi 43-IDUM), 1 ta nemis tili (Samarqand shahar 51-IDUM), 1 ta ingliz va yapon tili (Samarqand shahar 37-IDUM), 1 ta yapon va ispan tili (Samarqand shahar 8-IDUM), 1 ta fransuz, ingliz va xitoy tili (Kattaqo'rg'on tuman 25-umumta'lim maktabi), 2 ta nemis va ingliz tili (Oqdaryo tuman 22-, Ishtixon tuman 38-umumta'lim maktablari), 1 ta nemis va koreys tiliga (Payariq tuman 8-IDUM) ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari tashkil etildi.

Viloyatda boshqa fanlar bilan birgalikda ingliz tiliga chuqurlashtirilib o'qitiladigan 6 ta maktab mavjud. Shundan matematika va ingliz tili fanlari chuqurlashtirilib o'qitiladigan 2 ta (Kattaqo'rg'on tuman 1-IDUM, Urgut tuman 136-IDUM), matematika, ona tili va ingliz tili fanlari chuqurlashtirilib o'qitiladigan 3 ta (Jomboy tuman 40-IDUM, Ishtixon tuman 2-IDUM, Pastdarg'om tuman 28-IDUM), ingliz tili va tarix fanlari chuqurlashtirilib o'qitiladigan 1 ta (Samarqand tumani 2-IDUM) maktab tashkil etilgan².

Samarqandda bir qancha ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo ilmiy tadqiqotlar instituti (MITSAI), Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti, Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, R.R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand tayanch bo'limi, viloyat Qishloq xo'jaligi ilmiy markazi, Tibbiy parazitologiya ilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti, loyiha institutlaridan Samarqand davlat suv xo'jaliklarni melioratsiya va loyihalash instituti faoliyat yuritadi³.

2017-yil martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro il-

¹ www.samuzedu.uz

² www.zarnews.uz

³ Kuraxmedov A., Sidikova M. Mustaqillik yillarida Samarqand shahri: bunyodkorlik va taraqqiyot. – Samarqand, 2016. 52–53-betlar.

miy-tadqiqot markazini tashkil etish maqsadida qaror qabul qilindi¹. Davlat rahbarining shaxsan tashabbuslari bilan Imom Buxoriy markazi qoshida «Hadisshunoslik maktabi»ning tashkil etilishi bu yerda muqaddas islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan allomalar merosini o'rganish hamda keng targ'ib etish ko'zda tutilgan².

Xullas, so'nggi yillardan shaharda ilm-fan va ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar hajmi keng ko'lamga ega bo'ldi. Ta'lim muassasalarida olib borilgan qurilish va bunyodkorlik ishlari, ularning moddiy-texnika bazasi rivojlantirilib, zamonaviy o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

4-§. Madaniy-maishiy muassasalar

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Samarqand shahrida madaniy muassasalar faoliyatini tashkil etish va isloh qilish borasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Ularning moddiy-texnika bazasi, binolari, jihozlari bilan birga g'oyaviy asoslari ham yangilandi, zero istiqloq arafasida ular nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham ayanchli ahvolga kelib qolgan edi. Hukmron mafkura tazyiqi ostida mafkuraviy tashviqot quroliga aylangan ushbu maskanlar faoliyati istiqloq tufayli mutlaqo yangi qiyofa va mazmunga ega bo'ldi.

Samarqand Respublika miqyosidagi tantanalar o'tkaziladigan asosiy shaharga aylana borgan. Masalan, 2002-yildagi «Yapon madaniyati kunlari»ning asosiy tadbirlari Samarqandda o'tkazilib, unda viloyat hokimi Sh.Mirziyoyev jonbozlik ko'rsatdi. Madaniyat kunlari doirasida Registon maydonidagi konsertda Okinava oroli milliy cholg'u ansamblining chiqishlari va shahar kinoteatrlarida yapon badiiy filmlarining namoyish etilishi shahar ahlida yapon madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini bergan³.

2017-yilda Samarqandda 4 ta yirik ommaviy kutubxona, Samarqand badiiy muzey-qo'riqxonasi, 3 ta teatr – Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o'zbek davlat musiqali drama teatri, A.P.Chexov nomidagi rus drama teatri, qo'g'irchoq teatri hamda 2 ta kinoteatr va shahar telestudiyasi faoliyat ko'rsatdi.

¹ Новейшая история Узбекистана / Под ред. М.Рахимова. – Ташкент: Adabiyot uchqunlari, 2018. С. 346

² «Samarqand» gazetasi. 2017-yil mart.

³ Нуриддинов Э. Место Самарканда в современной мировой культуре/ Samarqand shahriining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahriining 2750 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. С. 444.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida Samarqand shahrida aholining mazmunli dam olishi uchun qator muassasalar barpo etildi: 2017-yilda shahar hududida 3 ta istirohat-dam olish bog'lari, 65 ta kutubxona, 6473 nusxa fondga ega Axborot-resurs markazlari faoliyat yuritdi.

Shahardagi Cho'ponota tepaligi yonida «Zarafshon» dam olish uyi, Markaziy va Sug'diyona madaniyat va istirohat bog'lari, «Afsona» bolalar akvaparki, ko'plab tennis kortlari, «Delfin», «Afrosiyob» suzish majmualari barpo etildi. Bundan tashqari, Samarqand shahrida 24 ta 2 650 o'rinli bolalar sporti obyektlari, 7 ta stadion, 125 ta sport zallari, 253 ta sport maydonchalari, 6 ta ochiq va yopiq suv havzalari¹, 15 ta 1100 o'rinli musiqa va san'at maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Biroq olib borilgan tadqiqot natijasida shahar aholisining yildan yilga ko'payishi hamda shaharga tashrif buyuruvchi mehmonlar sonining ortishi hisobida shahardagi istirohat bog'lari, cho'milish havzalari va turli xildagi ko'ngilochar maskanlar, ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyati zamon talablari darajasida tashkil etilmaganligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan «Harakatlar strategiyasi»da bu masalaga e'tibor qaratilib, 2017-yilda aholini, jumladan, yosh avlodning madaniy dam olishini ta'minlash maqsadida Samarqand shahrida hayvonot bog'ini qurish loyihasi rejalashtirilgan².

2019-yil 19-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan «Besh muhim tashabbus» g'oyasining ilgari surilishi natijasida Samarqand shahrida bir qator tadbirlar o'tkazildi. Mazkur tadbirlarda taniqli yozuvchi, shoirlar, san'atkorlarning yoshlar bilan uchrashuvi, kitob yarmarkasi, sportning voleybol, futbol, kurash, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqalar, bepul tibbiy ko'rik hamda «Deputat va yoshlar» uchrashuvi bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvlar mahalla markazlari, Oliy ta'lim muassasalari, harbiy qismlarda o'tkazildi. Shuningdek, mazkur tashabbus doirasida adabiyot va san'at, sportga jalb etish, kompyuter savodxonligini oshirish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda³.

Shaharda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish alohida diqqat-e'tibordagi vazifalardan biridir. 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida jami 2 589 ta madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 1 501 tasi arxeologiya merosi obyektlaridir. Viloyatdagi muzeylarda 243 mingdan ortiq muzey ashyolari saqlanadi, har yili viloyat muzeylari va tarixiy obidalariga o'rtacha 600–620 ming nafar (540–550 ming nafari

¹ www.samshahar.uz

² <https://urgut.uz/oz/node/170>

³ <http://sammitc.uz>

mahalliy aholi, 70–80 ming nafari xorijiy sayyohlar) tomoshabin tashrif buyuradi¹.

2010–2014-yillarda O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Mirzo Ulug‘bek muzey majmuasida, «Afrosiyob» Samarqand tarixi muzeyi, viloyat O‘lkashunoslik muzeyi, Sadridin Ayniy uy-muzeylarini saqlash maqsadida obodonlashtirish va ta‘mirlash ishlari olib borildi, yangi ekspozitsiyalar shakllantirildi².

Samarqand shahar tarixi muzeyi Afrosiyob shaharchasida – Samarqandning qadimiy qismida joylashgan. Muzey ekspozitsiya zallarida miloddan avvalgi I mingyillikning o‘rtalaridan XIII asrning boshlarigacha bo‘lgan davrda shahar tarixini yorituvchi eksponatlar namoyish etilgan. Muzeyda Samarqandning moddiy madaniyatini yorituvchi sopol, shisha, tosh, metall, suyak, koroplastika va me‘moriy naqshlardan iborat boy to‘plamlar saqlanadi. Bular qariyb 20 mingdan ortiq osori atiqalarni tashkil qiladi. Bu eksponatlarning asosiy qismi muzeyning 11 ta zalidan iborat ekspozitsiyalarida namoyish etilib, qolgan yordamchi materiallar muzey fondlarida saqlanmoqda.

2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi munosabati bilan muzeyning ikkinchi qavat ekspozitsiya zallari to‘liq qayta ishga tushirildi. Afrosiyob qazishmalaridan topilgan osori atiqalar asosida Markaziy Osiyoda musulmon uyg‘onish davri tarixi va madaniyati namoyish etilmoqda. Eksponatlar mavzusi Samarqandning IX–XIII asrlarga oid moddiy madaniyati tarixini aks ettiradi³.

Savdogar Abram Kalantarovning hovli-saroyida joylashgan O‘lkashunoslik muzeyi ekspozitsiyasi tarix va tabiatshunoslik bo‘limlaridan iborat. Binoning birinchi qavatida tarix bo‘limi, ikkinchi qavatida tabiat hamda «JOINT» xalqaro tashkiloti homiyliги ostidagi «O‘lka yahudiylari: kecha va buguni» nomli ekspozitsiyalar mavjud. Muzeydagi ekspozitsiyalar tomoshabinni o‘lkamiz tarixi, hayvonot va o‘simlik olami bilan tanishtiruvchi noyob durdonalar sanaladi⁴.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Samarqand shahar aholisi milliy tarkibida ana shu millat va elat vakillarining deyarli barchasi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining tashabbusi bilan 1992-yilda Respublika baynalmilal

¹ Viloyatda ijtimoiy sohalarida 2008–2014-yillar davomida amalga oshirilayotgan yutuqlar va o‘zgarishlar to‘g‘risida ma‘lumot. 2014-y.

² Kuraxmetov A., Sidiqova M. Mustaqillik yillarida Samarqand shahri: bunyodkorlik va taraqqiyot. ... 54-b.

³ www.samshahar.uz

⁴ www.samshahar.uz

madaniyat markazi tashkil etildi. Markaz faoliyati mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash, jamiyatda bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi¹. Aytib o'tish lozimki, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlarining Markaz negizida 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son Prezident Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi².

Samarqand shahrida joylashgan Baynalmilal madaniyat markazi turli millat farzandlarining o'ziga xos do'stlik uyiga aylangan. Bu yerda muntazam ravishda turli bayramlar, festival, seminar va boshqa tadbirlar o'tkaziladi. 2017-yilda shaharda arman, koreys, tatar va boshqirdlar, polyak, tojik va tojikzabonlar, nemis, yahudiy, grek, rus, ukrain, belorus, turk madaniy markazlari hamda ozarbayjonlar uyushmasi viloyat bo'limi faoliyat olib borgan.

E'tiborlisi shundaki, milliy madaniy markazlar shahar va tumanlarda yashayotgan milliy guruhlarning tili, madaniyati, an'alarining saqlanishi va rivojlanishida, millatlararo totuvlikni saqlashda alohida xizmat ko'rsatdilar.

2017-yilda Samarqand shahrida 10 dan ortiq masjidlar faoliyat yuritgan. Jumladan, Xo'ja Yusuf, Abdulla ibn Abbos, Xo'ja Abdu Mo'min, Xo'ja Abdu Darun, Xo'ja Safoyi Vali, Xo'ja Nisbatdor, Xo'ja Zudmurod, Namozgoh, Ruhobod, Obirahmat jome masjidlari mavjud³. Istiqlol yillarida ushbu masjidlarda juda katta qurilish va bunyodkorlik hamda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. Samarqand masjidlarining bunday obod va ko'rkam ko'rinishi mamlakatimizning islom dini qadriyatlariga berayotgan e'tiborining yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, mustaqillik yillarida shaharda boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar uchun ham teng huquq va imkoniyatlar yaratilganligi, ibodatxonalar faoliyat yuritayotganligi diniy bag'rikenglikning yaqqol ifodasidir.

Samarqand shahri jahon shaharlari bilan turli darajadagi aloqalarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, «Birodarlashgan shaharlar» sifati Samarqand va Xitoy davlati Shandun provinsiyasining Szinan va Sindao shaharlari keng madaniy aloqlarni yo'lga qo'yishmoqda. Ikki o'rtada tuzilgan kelishuvga ko'ra, turli darajadagi madaniy tadbirlar va hamkorlik-

¹ Муртазиева Р.Х. Толерантность – как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 2010. С. 85–86.

² «Xalq so'zi» gazetasi. 2017-yil 23-may. 101 (6795).

³ www.masjit.uz

lar oʻrnatish koʻzda tutilgan. Bu esa Samarqandning turistik salohiyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi omillardan hisoblanadi¹.

Sogʻliqni saqlash muassasalari. Oʻtgan asrning 90-yillari boshida Oʻzbekiston yetarli darajada rivojlangan sogʻliqni saqlash tizimiga ega boʻlgan. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari va shifoxonalarning rivojlangan tarmogʻi, profilaktika ishlari, bolalarni emlash, tibbiyot xodimlarini izchil tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yaxshi tashkil etilgan edi. Shu bilan birga, aholi salomatligi boʻyicha koʻrsatkichlar sobiq Ittifoq respublikalari orasida eng past darajada boʻlgan. Manbalarning maʼlumot berishicha, bu davrda bolalar va onalar oʻlimi darajasi juda yuqori boʻlgan. Bundan tashqari, tibbiyot muassasalari kasalliklariga yuqori sifatli tashxis qoʻyish va davolashni taʼminlay olmaydigan eski asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Hatto, ixtisoslashgan klinikalarda ham asbob-uskunalar va xodimlar malakasining yetishmasligi tufayli davolashning koʻplab yuqori texnologik turlaridan foydalanishning iloji yoʻq edi².

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlashning milliy modeli yaratilib, aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmat darajasining oshishiga va aholi salomatligi koʻrsatkichlarining yaxshilanishiga erishildi³. Samarqand shahrida 2002-yilda 5 626 oʻrinli 37 ta va 2006-yilda 5 791 oʻrinli tibbiy muassasalar mavjud edi⁴. Viloyat hokimi sifatida Sh.Mirziyoyev aholi salomatligi masalasiga ham birlamchi eʼtibor qaratgan. Jumladan, 2002-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Shoshilinch tibbiy markazning Samarqand filiali tashkil etilgan. Chaqaloqlarni gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ham 2002-yildan boshlab yoʻlga qoʻyildi⁵.

Soʻnggi yillarda Samarqand shahridagi kasalxonalariga berilgan eʼtibor va bemorlarga yaratilgan shart-sharoitlar zamon talab darajasiga mos keldi. 2016-yilga kelib statsionar shifoxonalar soni 48 tani va bir kecha-kunduzda kasallar oʻrinlari soni 4 935 tani tashkil etgan. 2017-yilda shahar kasalxonalaridagi har 1000 kishiga oʻrinlar soni 93,7 tani, undagi vrachlar soni 78,6 kishini va tibbiy hamshiralalar soni 166 kishini tashkil qildi⁶.

¹ <https://t.me/samshahar>

² Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi. Sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilishda zamonaviy bosqichning asosiy yoʻnalishlari. Samarqand, 2016-yil. № 298. 1-b.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi toʻgʻrisida»gi PF-2107-sonli Farmoni // www.lex.uz

⁴ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi; Statistik toʻplam. 1997–2006. Samarqand, 2007. 76-b.

⁵ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2017-yil. 15-b.

⁶ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasporti. Samarqand, 2017-yil. 15-b.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan choratadbirlar tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish, aholi turmushini yaxshilash imkonini berdi. Natijada, 2016-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rishi 67-yoshdan 72,5 yoshgacha, shu jumladan, erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi 66 yoshdan 72 yoshgacha, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi esa 70 yoshdan 74,6 yoshgacha uzaydi. Chechak, ich terlama, poliomyelit, bo'g'ma, kuydirgi, o'lat, vabo va boshqa ijtimoiy xavfli hamda yuqumli kasalliklar batamom tugatildi.

2007–2013-yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Samarqand filialiga Islom taraqqiyot banki hisobidan 78 turdagi, KFAER banki hisobidan 25 turdagi 435 ta tibbiy asbob-uskuna hamda 7 ta «HYUNDAI», 61 ta «DAMAS» sanitar avtomashinalari keltirilgan¹.

Samarqandda 2002-yilda 44 ta vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari², 2006-yilda esa 35 ta shifoxona hamda 76 ta vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat yuritayotganligi qayd etilgan. 2015-yil holatiga ko'ra, qayta tashkil qilish va modernizatsiya jarayonlari natijasida Samarqandda 21 ta davolash-profilaktika muassasalari, 1055 o'ringa mo'ljallangan 7 ta statsionarlar (jumladan, teri-tanosil kasalliklari dispanseri), bir smenada 3913,3 taga mo'ljallangan 15 ta ambulator-poliklinika muassasalari (11 ta oilaviy poliklinikalar, 1 ta shahar markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasi, 1 ta stomatologiya poliklinikasi va sil kasalliklari dispanseri) da aholiga yuqori darajada tibbiy xizmat ko'rsatib kelindi³.

2014-yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, shahar davolash-profilaktika muassasalarida 1 375 nafar vrach va 4 076 nafar o'rta tibbiy xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 262 nafari vrach (19,5%) va 904 nafari o'rta tibbiy xodimlar (22,5%) kasbiy toifasiga ega⁴.

Samarqand shahrida bugungi kunda davlat tibbiyot muassasalari bilan birgalikda xususiy shifoxona va klinikalar ham faoliyat yuritmoqda. Jumladan, shahardagi «Bionur», «Zarmed», «Innova», «Xurshida Nasimova», «Shifo Nur», «Firma Doctor», «Samarqand diagnostika markazi» kabi xususiy shifoxona va klinikalar bemorlarni davolashda ijobiy natijalarga erishgan. Shahardagi xususiy klinikalar eng zamonaviy tibbiyot texnikalari bilan jihozlangan bo'lib, ularda yuqori malakali tibbiyot xodimlari xiz-

¹Samarqand viloyati hokimligi. Viloyatda ijtimoiy sohalarida 2008–2014-yillar davomida amalga oshirilayotgan yutuqlar va o'zgarishlar to'g'risida. Samarqand, 2014-yil.

²Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Statistik to'plam. 1997–2006. Samarqand. 2007-yil. 77-b.

³Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishda zamonaviy bosqichning asosiy yo'nalishlari. Samarqand, 2016-yil. №298.

⁴Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasport ma'lumotlari. Samarqand, 2015-yil. 9-b.

matidan foydalaniladi. Shuningdek, bunday klinikalarda bemorlarga xizmat ko'rsatish yuqori darajada amalga oshirilib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalasi tibbiyotning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, 2016-yilning Sog'lom ona va bola yili deb e'lon qilinishi respublikada ayollar va bolalar salomatligiga ko'rsatilayotgan e'tibor, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirish muammolarining yechimi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir¹.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahridagi shifoxonalarda tug'ish yoshidagi ayollar har yili tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, turli xil ekstragenital kasalligi mavjud ayollar sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilindi. Shahar tug'uruq komplekslarida zamonaviy tartibdagi «Bexatar onalik», «Ona va bolaga do'stona munosabat» tamoyillari asosida xizmat ko'rsatish ishlari tashkil etildi. Samarqand shahar 3-son tug'uruq majmuasida «Onalar maktabi» faoliyat ko'rsata boshladi.

Samarqand viloyatida «Ona va bola skrining markazi» tashkil qilinib, bolalikdan nogiron tug'ilishning oldini olish, yangi tug'ilgan chaqaloqlar hamda homilador ayollarda tug'ma va boshqa kasalliklarni erta aniqlash maqsadida o'ziga xos davlat tizimi tashkil etildi. Ushbu markaz Yaponiya granti asosida umumiy qiymati 14 ming AQSH dollari miqdoridagi yuqori texnologiyali «DELPHIA» apparati, UTT skaneri va laboratoriya uskunalarini bilan jihozlandi. Shuningdek, tibbiyot tizimini modernizatsiyalash maqsadida shahar markaziy shifoxonasi qoshida ochilgan endojarrohlik markaziga 230 mln so'mlik UTT skaneri, bronxofibroskop, ezofagogastroduodenoskop, kolonoskop, «SIEMENS» rentgen teleuskunasi xarid qilindi. Oftalmologiya xizmatini optimallashtirish maqsadida 1991-yilda Germaniyaning «ZEISS» kompaniyasida ishlab chiqarilgan mikrojarrohlik mikroskopi, Yaponiyaning «NOUA» kompaniyasida ishlab chiqarilgan ko'zoynak linzalarini tanlash uchun qo'llaniladigan apparat, Fransiyada ishlab chiqarilgan UTT skaneri, oftalmoskop, oftalmologik kombaynlar xarid qilingan².

Mustaqillik yillarida viloyatda sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'lar salmog'i yildan yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. 2007-yilda viloyat hokimligi tomonidan 300 mln so'm mablag' ajratilib,

¹ 1991-yilning 27-fevralida Sog'liqni saqlash vazirligining 154-sonli «Tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirishga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar ijrosini ta'minlash to'g'risida»gi buyrug'i, 1999-yil – Ayollar yili, 2000-yil – Sog'lom avlod yili, 2001-yil – Ona va bola yili, 2002-yil Vazirlar Mahkamasining 32-sonli va 242-sonli, 2003-yil 25-avgustdagi 365-sonli «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorlari.

² Samarqand viloyat hokimligi bergan ma'lumotlar asosida. Samarqand, 2014-yil.

Samarqand shahridagi 4 ta oilaviy poliklinikalarga xizmat ko'rsatuvchi yangi 2 qavatli konsultativ-tashxislash poliklinikasi binosi qurildi.

Samarqand shahrining 1-sonli tug'uruq majmuasi to'liq yangi binoga ko'chirilib, «Mehr nuri» jamg'armasi tomonidan 270 ming AQSH dollari miqdoridagi zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskunalar bilan jihozlandi. 2000-yilda respublika miqyosida birinchilar qatorida 330 o'rinli Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi o'z faoliyatini boshladi. Ushbu markazda 22 ta klinik bo'limlar mavjud bo'lib, ularning 4 tasi reanimatsiya (neyroreanimatsiya, jarrohlik reanimatsiyasi, somatik va bolalar reanimatsiyalari)dir. Markazda 354 nafar vrach, jumladan, 3 nafar tibbiyot fanlari doktori, 20 nafar tibbiyot fanlari nomzodi va 4 nafar dotsent, 129 nafar oliy toifali, 73 nafar birinchi toifali vrachlar faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz negizida Samarqand tibbiyot institutining 10 ta kafed-rasi va 450 nafar o'rta tibbiy xodimi faoliyat ko'rsatadi¹.

«Harakatlar strategiyasi»ning hayotga tatbiq qilinishi natijasida hududlardagi «Muruvvat», «Saxovat», Mehribonlik uylari kabi muassasalarni ta'mirlash, jihozlash ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, 2017-yilda Samarqand «Saxovat» uyi bino, inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish, Kattaqo'rg'on shahridagi «Marvarid» sihatgohining 100 o'rinli yotoqxonasi, davolash korpusini qurish va oshxonasini rekonstruksiya qilish, Urgut tumanidagi «Muruvvat» nogironlar uyining bino-inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish amalga oshirilgan².

«Harakatlar strategiyasi» dasturiga muvofiq 2017-yilda 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash, qishloq vrachlik punktlarining muntazam faoliyatini ta'minlash uchun ularning vrachlariga ish joyi yonidagi hududlarda uy-joylar qurib berish loyihasi amalga oshirildi. 2017-yilda respublikamizning qishloq joylarda yangi namunaviy loyihalar asosida 15 000 ta arzon uy-joy qurish, Samarqand viloyatida barcha turlardagi uylardan 1758 ta, shundan Samarqand shahrining Rudakiy ko'chasida 405 ta xonadonga mo'ljallangan 9 ta 5 qavatli uylarni qurish rejalashtirildi. Bundan tashqari, Jahon banki ishtirokida Samarqand shahrining kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish, OPEK va Saudiya Arabistoni jamg'armasi ishtirokida Samarqand viloyati Qo'shrabod tumani qishloq aholisi ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash loyihasini amalga oshirish nazarda tutilgan³.

¹ Samarqand viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari. Samarqand, 2016-yil.

² <https://urgut.uz/oz/node/170>

³ <https://urgut.uz/oz/node/170>

Xulosa qilib aytganda, istiqbol yillarida Samarqand shahrida sog'liqni saqlash borasida olib borilgan ishlar natijasida shaharda tibbiyot xizmati yaxshilana bordi. Shahar kasalxonalarida davolanish uchun nafaqat qo'shni tuman bemorlari, shu bilan birga, qo'shni viloyatlardan ham ko'plab bemorlar murojaat qildi. Bu, o'z o'rnida, Samarqand tibbiyot muassasalarining malakali tibbiyot xodimlari hamda zamonaviy texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlanganidan dalolat beradi. Tibbiy muassasalarning qayta qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi, aholining bu sohadagi ehtiyojlarini qondirishda ijobiy natijalarga erishildi.

Sport inshootlari. Mustaqillik yillarida Samarqand shahrida sport sohasida ko'plab amaliy ishlar bajarildi. Shahardagi maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maskanlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari kabi ta'lim maskanlarida sport inshootlari to'liq ta'mirlandi va qayta qurildi. Bugungi kunda shaharda 2 ta – «Spartak» va «Dinamo» stadionlari va 24 ta 2 650 o'rinli bolalar sporti obyektlari mavjud¹.

Shu jumladan, Samarqand shahrida ham yoshlarni sportga jalb etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shahardagi mavjud 486 ta sport inshootlaridan samarali foydalanish natijasida sportning bir qator turlari bo'yicha yutuqlarga erishildi².

Samarqand shahrida 2013–2014-yillarda 5 ta xalqaro sport musobaqalari o'tkazildi. Tennis bo'yicha «Chelenjer» xalqaro turniri, gandbol bo'yicha «Asia Trophy»si kubogi, «Muay-tay» bo'yicha «Buyuk ipak yo'li» sovrini uchun xalqaro turnir, baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha XV Osiyo chempionati, akademik eshkak eshish bo'yicha yoshlar o'rtasida XIX Osiyo chempionati musobaqalari shular jumlasidandir³.

Samarqand shahrida bolalar sportini rivojlantirish, sport inshootlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy talablar asosida jihozlash borasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi.

2003–2015-yillar davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan shaharda jami 26 ta inshoot qurildi va rekonstruksiya qilindi. Jumladan, 6 ta sport zali, 3 ta sport majmuasi, 6 ta musiqa va san'at maktabi, 10 ta sport inshooti rekonstruksiya qilindi va 1 ta suzish hav-

¹ Samarqand viloyat statistika boshqarmasi; Samarqand shahar pasport ma'lumotlari. Samarqand, 2017. 15-b.

² Samarqand shahar hokimligi madaniyat va sport ishlari bo'limi. Samarqand shahrida madaniyat va sport sohasida erishilgan yutuqlar to'g'risida ma'lumot. Samarqand, 2016-yil. №78. 3-b.

³ Viloyat ijtimoiy sohalarida 2008–2014-yillar davomida amalga oshirilayotgan yutuqlar va o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar. Samarqand, 2014-yil.

zasi kapital ta'mirlandi. Mustaqillik yillarida sport sohasida erishilayotgan natijalar, qurilayotgan sport inshootlari 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 53,3 % iga sport bilan shug'ullanish imkoniyatini berdi.

Samarqand shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 3 ta Bolalar va o'smirlar sport maktabida futbol, taekvondo, muay-tay, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, boks, og'ir atletika, shaxmat, o'zbek jang san'ati va qo'l to'pi (11 ta bo'lim) seksiyalari faoliyat ko'rsatdi. Bolalar sporti obyektlaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinganda, xalq ta'limi tizimidagi mavjud 65 ta sport zallarining bir kunlik quvvati 35 840 nafarni, sport zallarining bir kunlik foydalanish samaradorligi 9,9 soatni tashkil etishi aniqlandi.

2021-yilda aholini ommaviy sportga jalb qilishda 28 ta qishloq va mahallada jami 17 ta sport maydonchasi («vork-aut») tashkil etiladi.

Samarqand shahrida bolalar sportini rivojlantirish nafaqat mahallalar kesimida sport obyektlarining qurilishi, balki har bir individ-shaxs va oila sportini rivojlantirish orqali bu boradagi ko'rsatkichlarning salmoqli oshishiga olib keldi. Bu borada shaharning barcha hududlarida tizimli targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish ko'zda tutildi. Umuman olganda, istiqlol yillarida shaharda sport sohasida e'tibor davlat siyosati darajasida ko'tarildi.

Ko'rib o'tilganidek, Samarqandda ijtimoiy-madaniy muassalalar sonining ko'payishi, ularning moddiy-texnik bazasining rivojlantirilishi zamonaviy shahar taraqqiyotiga xos tarzda kechdi va bu shahar aholisi turmush tarzining yuksalishiga xizmat qildi.

Tarixiy obidalarning ta'mirlanishi hamda muzeylar faoliyatini takomillashtirish. Samarqand nafaqat mintaqamiz, balki Sharqning ko'hna va mashhur shaharlaridan biri sifatida butun dunyoda tan olingan. XIX asr o'rtalarida yurtimizga kelib, shahar ko'rinishidan ta'sirlangan rus tadqiqotchilaridan biri bu haqda: «Butun jahonda Samarqandga o'xshab yaxshi joylashgan, chiroyli, muhtasham bo'lgan shaharlar juda kamdir. Asrlar davomida yashab kelayotgan madrasa, masjid va maqbaralar, Amir Temur qabridan to Shohizinda masjidigacha barcha hurmat bilan qarab, havas qiladi», – deb qayd etgan edi¹.

Bugungi kunda ham shahardagi qadimiy obidalar, ko'hna shahar xarobalari uning shonli o'tmishi haqidagi dalil sifatida g'oyat qimmatlidir. Shuningdek, Samarqand yuzlab aziz-avliyolar, buyuk sarkardalar mang'u qo'nim topgan tabarruk zamin hisoblanadi. Shahar mo'ysafidlarining aytishlaricha, hech bo'lmaganda haftada bir marta Samarqand shahridagi

¹ Голубков И.В. Путешествие в Бухару // Туркестанский сборник. – СПб., 1870. –Т. 38. С. 448.

muqaddas qadamjolarini ziyorat qilgan inson ruhan yangilanib, yengil tortadi.

Ana shunday tabarruk zaminning milliy-ma'naviy hamda madaniy merosi uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qolgan edi. 1960–1980-yillar oralig'ida shahar hududidagi tarixiy obidalarda qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilgan bo'lsa-da, unga berilgan e'tibor yetarlicha emas edi.

2005-yil 20-oktabrda YUNESKO tashkilotining Bosh konferensiyasida Samarqand shahri 2750 yoshga ega ekanligi haqida maxsus qaror qabul qilindi. Shuningdek, 2006-yil 25-iyulda O'zbekiston Prezidentining «Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi jahon hamjamiyati tomonidan keng nishonlandi. Yubiley arafasida shaharda keng ko'lamli qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan birga, tarixiy obidalar kapital ta'mirlanib, ularning atrofida obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Samarqandda jami mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Shaharda 73 ta yirik tarixiy me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lib, ular Samarqand viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi¹.

Samarqanddagi madrasa va masjidlarining ovozi butun musulmon dunyosiga yetib borgan bo'lib, ularni ko'rish, ziyorat qilish ishtiyoqida ko'plab xorijliklar shaharga kelishadi². Samarqand shahridagi Hazrati Xizr masjidi, Bibixonim jome masjidi, Ulug'bek, Sherdor madrasalari, Tillakori masjid-madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi kabi tarixiy-madaniy obidalar musulmon olamida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Respublikamizdagi tarixiy obidalarni muhofaza etish hamda ulardan foydalanishni tartibga solish maqsadida 2001-yilda «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» Qonun qabul qilindi³. 2002-yil 29-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi⁴. Qarorda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha viloyatlarida, shu jumladan, Samarqand viloyatida ham Idoralararo komissiya tuzi-

¹ Kuraxmedov A., Sidikov M. Mustaqillik yillarida Samarqand shahri: taraqqiyot va bunyodkorlik. ... 11-b.

² Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. – Toshkent: Fan, 2009. 111-b.

³ www.lex.uz

⁴ www.lex.uz

lib, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Shuningdek, 2011-yilda Samarqand tarixiy yodgorliklarini saqlash bo'yicha konsepsiya tayyorlangan bo'lib, unga ko'ra shahar bosh rejasiga kiritilgan tarixiy yodgorliklarni qayta ta'mirlash rejalashtirilgan. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Samarqand shahrida 1851 ta moddiy madaniy meros ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 1105 tasi arxeologik, 670 tasi me'moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental va 21 ta memorial toifaga kiruvchi obyekt hisoblandi¹. Shundan kelib chiqib Samarqand bashariyatning cheksiz hayrat, abadiy mehr-oqibat, nodir madaniyat va buyuk kelajak shahri deyish mumkin.

Samarqand shahrida ko'plab tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyat qismi mustaqillik yillarida qayta ta'mirlandi. Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniyat kompleksi bo'lmish mazkur maydonda mustaqillik yillarida keng ko'lamlı ta'mir ishlari amalga oshirildi. Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, Sherdor madrasasida restavratsiya ishlari boshlandi. 2013-yilda Sherdor madrasasining shimoli-g'arbidagi darsxonasi, Mirzo Ulug'bek madrasasi shimoli-sharqiy qismidagi darsxonaning ichki gumbazi tiklandi². 2017-yil 2-sentabrda ushbu maydon yana bir san'at asari bilan boyidi. U yerda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov haykali o'rnatildi.

1996-yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi va 2009-yilda allomaning 615 yilligi munosabati bilan Registonidagi maqbara qayta ta'mirlandi. Shuningdek, Samarqandning 2750 yillik yubileyi munosabati bilan Bibixonim kompleksi qayta ta'mirlandi.

Shuningdek, 2010-yilda Ulug'bek rasadxonasi ta'mirlanib, unda Registonning bir bo'lagini o'zida ifoda etgan muzey bunyod etildi va Mirzo Ulug'bekning haykali o'rnatildi³. Muzey ekspozitsiyalarida Sohibqiron Amir Temur davlatchiligiga oid xaritalar, temuriylar davriga oid turli manbalar, Yevropa davlatlari qirollari tomonidan yozilgan xat nusxalari saqlanmoqda. Muzeyda o'z davrining buyuk munajjimi – Mirzo Ulug'bekning tug'ilishiga oid miniatura nusxasi, uning davrida fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' olimlar Jaloliddin Rumiy, Ali Qushchi portretlari hamda o'sha davrda zarb qilingan tangalar saqlanmoqda.

¹ «Samarqand» gazetasi. 2018-yil 25- fevral.

² Абдулманов Р. Шердор и Регистан предстали в миниатюре // Самаркандский вестник. 29 июля 2013 www.registon.uz

³ Toshov F. Samarqand yana chiroy ochdi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2010-yil 10-sentabr. №37 (4072).

Alohida e'tirofga oid yana bir masala shuki, 2009-yilning aprel oyida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani kengliklaridagi «Maydanak» fazoni kuzatish rasadxonasida yangi sayyora aniqlanib, olamshumul voqeelikka asos solingan edi. Ushbu sayyora O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan «Samarqand» nomi berildi. Ekspozitsiyadan ana shu kenglikda olingan «Samarqand» nomi bilan ataluvchi sayyora surati ham o'rin olgan.

O'zbekiston hukumatining 2004-yil 16-iyulda qabul qilingan «Shohizinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi 337-sonli qarori Markaziy Osiyo mintaqasining me'moriy durdonasi hisoblangan Shohizinda me'moriy majmuasida qayta tiklash hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etdi¹. Shu asosda Shohizinda yodgorlik qurilmalarini mustahkamlash, yodgorliklarning saqlanib qolgan qismlarini texnik mustahkamlash, yo'qolgan me'moriy hajmlardagi devor qurilishini tiklash, saqlanib qolgan hujjatlar asosida dekorativ qoplamalarni konservatsiya va restavratsiya qilish, yog'ingarchilik suvlarini chiqarish hamda yodgorlikka kirishni qulaylashtirish bo'yicha hudud obodonchiligi ishlarini olib borish ishlari amalga oshirildi².

Xo'ja Doniyor maqbarasida hamda maqbara va uning tevarak-atrofigida 1996–2009-yillarda ta'mirlash va obodonchilik ishlari olib borildi. 2012-yil noyabr – 2013-yil avgust oylari oralig'ida bu boradagi eng salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, pishiq g'ishtdan qurilgan maqbaraga olib chiqadigan asosiy yo'l yillar davomida qor va yomg'ir natijasida xarobalashganligi sababli uning o'rniga keng va qulay marmar zinapoya qurildi. XIX asrning ikkinchi yarmida buzilib ketgan ayvon o'rniga, toshkentlik va samarqandlik mohir ustalar tomonidan yangi muhtasham ayvon barpo etildi.

2000-yilda Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, allomaning Samarqanddagi Chokardiza qabristonidagi qabri ustida yangi maqbara barpo etildi³. Uning atrofi obodonlashtirildi.

Samarqand shahar muzeylari faoliyatini jonlantirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Muzeylar va tarixiy obidalarni kapital ta'mirlash, jihozlash ishlari keng hajmda olib borildi. Bugungi kunda Samarqand shahrida Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tasarrufida O'zbekiston Madaniyati tarixi davlat muzeyi, Afrosiyob, O'lkashunoslik,

¹ www.lex.uz

² Abriyev R.B. O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari (Zarafshon vohasi misolida). – Toshkent: Fan, 2015. 109-b.

³ www.samshahar.uz

Ulug'bek muzey-majmuasi, S.Ayniy uy-muzeyi, Xo'ja Dorriyoz ziyoratgohi, Al-Moturidiy majmuasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Amir Temur maqbarasi, Hazrati Xizr va Bibixonim masjidleri mavjud.

2015-yil ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida 210 000 dan ziyod eksponat mavjud bo'lgan. Muzey fondini yanada boyitish maqsadida muzeyda xarid komissiyasi tashkil etilgan. 2015-yil 768 dona muzey ashyolari qabul qilingan va eksponatlarning sifati buzilishining oldini olish maqsadida ularga ishlov berish ishlari talab darajasida amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tizimida har yili 2-8-sentabr kunlari «Muzey haftaligi» tadbirlari o'tkazilib, unda ko'rgazma va ekspozitsiyalar namoyishlari o'tkazilib kelinmoqda¹. Bundan tashqari, yangidan ishga tushirilgan O'zbekiston Madaniyati tarixi davlat muzeyi zalida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlangan «Mustaqillik ekspozitsiyasi» ko'rgazmasi tashkil etilgan. 2015-yilning birinchi choragida bayram sanalariga asoslangan holda 5 ta ko'rgazmali tadbirlar, «Chorsu» tasviriy san'at galereyasida «Naqshin do'ppilar sehri», «Bolajon yurtning baxtli bolasiman», «Taronalar tantanasi» mavzusidagi ko'rgazmalar tashkil etilgan².

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qaroriga binoan Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'morchilik va badiiy muzey-qo'riqxonasi tassarrufiga kiruvchi Bibixonim me'moriy majmuasida keyingi davrda ta'mir ishlari olib borildi³. Muzey-qo'riqxonada tarkibidagi Hazrati Xizr masjidi ham bir necha bor mukammal ta'mirlandi, masjid yonida joylashgan Arzis qudug'i qayta tozalanib, qadimiy holiga qaytarildi⁴. Mazkur majmua 2018-yilda qayta ta'mirlanib, masjidning orqa qismida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasi qurildi.

Samarqand shahri 1996-yilda «Amir Temur ordeni» bilan taqdirlandi. Shundan beri har yili 18-oktabrda «Samarqand shahri kuni» nishonlanadi. 2008-2014-yillarda Samarqand shahridagi tarixiy obidalar, jumladan, Registon ansambli, Shohizinda kompleksi, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi obyektlari, Madaniy meros obyektlari ta'mirlandi⁵.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2014-yil 11-iyuldagi 189-sonli qaroriga asosan.

² www.ulugbekobservatory.parusinfo.com

³ O'ME. Tom 2. – Toshkent, 2001. 15-b.

⁴ www.samarkand.uz

⁵ Samarqand shahar hokimligi iqtisod bo'limi materiallari. Samarqand. 2014-y.

Samarqandning tarixiy-me'moriy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKO ning Finlandiyada o'tkazilgan 25-sessiyasida «Samarqand – madaniyat chorrahasi» nominatsiyasi bilan jahon merosi ro'yxatiga kiritildi¹.

Samarqand davlat universitetida qarori asosida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil etildi.

2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan shaharning tarixiy obidalarini qatorida qadimiy masjid va madrasalari ham qayta ta'mirlandi². Samarqandning asl tarixiy qiyofasini tiklash, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Barpo etilgan o'nlab ijtimoiy-maishiy inshootlar – ta'lim muassasalari va sport maydonchalari, tibbiyot maskanlari va mehmonxonalar, magistral yo'llar, bog' va xiyobonlar Samarqand aholisi va mehmonlariga har tomonlama munosib sharoit yaratishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahri dunyoning nufuzli davlatlari hamda xalqaro tashkilot rahbarlari tashrif buyuradigan, xalqaro anjumanlar o'tkaziladigan markazga aylandi. Prezident farmoniga binoan Samarqand «Forumlar majmuasi»da «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosining hozirgi zamon sivilizatsiyasidagi roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Konferensiyada AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Misr, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Fransiya, Rossiya, Ozarbayjon va Niderlandiya kabi 36 ta mamlakatdan olimlar, nufuzli xalqaro tashkilot rahbarlari va vakillari, ilmiy markazlar va institutlar mutaxassisleri, ekspertlar hamda YUNESKO tashkilotidan jami 149 nafar olim ishtirok etdilar. Anjuman qatnashchilari Samarqanddagi tarixiy va madaniy obidalar, istiqbol yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, o'quv va ilmiy muassasalar faoliyati bilan tanishdilar.

Samarqand shahrida 1997-yildan boshlab har ikki yilda «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. «Sharq taronalari» bugungi kunda jahon san'at ahlining eng sevimli festivallaridan biriga aylandi. 1997-yilda o'tkazilgan «Sharq taronalari» I xalqaro musiqa festivalida 31 ta davlat qatnashgan. Festival qatnashchilarining geografiyasi yildan yilga kengayib, bugungi kunda 80 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etmoqda. Dunyoning nufuzli gazeta va jurnallarida ushbu festival haqida turli maqolalarning chop etilishi o'zbek xalqi madaniyati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholanganligidan dalolat beradi. Jumladan, Germaniyaning «Berliner Blatt» gazetasi bosh muharriri Volker Neef: «Sharq

¹ O'ME. T.7. – Toshkent: O'ME, 2004. 461-b.

² www.toshvil.uz

taronalari» X Xalqaro musiqa festivali ochilish marosimini Registon maydonida turib kuzatib bordim. Prezident Islom Karimov raqsga tushib, bizga nisbatan qanchalik hurmati baland ekanligini ko'rsatib berdi. Ko'plab musiqa festivalarida bo'lganman, ammo «Sharq taronalari» festivaliga birontasi ham teng kelmaydi», – degan edi. Bundan tashqari, «Andre Gabrieland Provence's Tambouriner» guruhi musiqachisi, fransiyalik Giyom Gratsiya: «Samarqand menda katta taassurotlar qoldirdi. Shaharda joylashgan tarixiy obidalarni kuzata turib, o'zimni xuddi ertaklarga tushib qolgandek his qildim. Shunday shaharda yashayotgan samarqandliklarga havasim keldi. «Sharq taronalari»da qatnashayotganimdan baxtiyorman», – deb o'z quvonchini bildirgan edi¹.

2015-yilning 25–30-avgust kunlari «Sharq taronalari» X Xalqaro musiqa festivalini yanada jozibali va zamonaviy tarzda tashkil etish maqsadida Registon maydonida lazer-shou va 3D o'lchamdagi musiqali namoyish o'tkazildi. Majmua va amfiteatrn yoritish tizimi ham eng so'nggi rusumdagi texnologiyalar asosida butunlay yangidan yaratildi. Mazkur ishlarni «Toshshaharnur» korxonasi mutaxassislari germaniyalik hamkasblari bilan hamkorlikda amalga oshirgan edilar.

2019-yilning 26–30-avgust kunlari «Sharq taronalari» XII Xalqaro musiqa festivalining o'tkazilishi Samarqandning dunyoga tanilishida muhim omil bo'ldi. Unda jahonning 75 mamlakatidan 340 dan ziyod vakillar ishtirok etib, bayram tadbirlari 50 dan ortiq mamlakatga to'g'ridan to'g'ri efirga uzatildi.

Sharq xalqlarining milliy musiqa hamda qo'shiqchilik san'ati noyob namunalarini asrash, targ'ib etish va rivojlantirish, shu asosda xalqlar o'rtasida madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada mustahkamlashda «Sharq taronalari» musiqa festivalining ahamiyati beqiyos bo'lib, uning nufuzi yildan yilga oshib bormoqda. Ayni paytda ushbu festivalga dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlaridan mehmonlar – festival qatnashchilari, san'at namoyandalari, musiqashunoslar, jurnalistlar hamda sayyohlar tashrif buyurdilar.

Musiqa festivalining asosiy tadbirlari o'tadigan Registon maydoni, Amir Temur xiyoboni, «Mo'jiza» amfiteatri bayramona, turli anvoyi gullar bilan bezatiladi. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali bugungi kunda nufuzi jihatidan dunyoda o'tkaziladigan musiqa bayramlari ichida o'ziga xos o'rin tutadi. YUNESKO xalqaro madaniy tadbirlar doirasiga kiritilgan ushbu festival siyosiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, millati, tili, dini, irqidan qat'i nazar butun dunyo san'atkorlarining o'zaro ijodiy aloqa o'rnatishlariga imkon berganligi bilan ahamiyatlidir.

¹ <http://uz.sharqtaronalari.uz/yangiliklar?view=6624811>

5-§. Turizm xizmati va infratuzilmasining rivojlanishi

Tarixiy obidalarga boy Samarqand respublikadagi turizm sohasini rivojlantirish mumkin bo'lgan eng qulay shaharlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Samarqand shahri iqtisodiy-sayyohlik zonasiga aylantirilgan¹.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish hamda uning istiqbolini ta'minlash maqsadida 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmoni² va Vazirlar Mahkamasining qarori³ asosida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi va uning mintaqaviy bo'limlari tashkil qilindi⁴. 1999-yil 20-avgustda «Turizm to'g'risida»gi⁵ qonun qabul qilindi. 2004-yilda Samarqandda Jahon sayyohlik tashkiloti (JST)ning Buyuk ipak yo'lidagi mintaqaviy markazi ochildi.

Bugungi kunda respublikada turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, 2016-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi va ushbu qo'mita turizm sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi «2018–2019-yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada shaharda 108 ta sayyohlarni qabul qilish maskani, 85 ta turizm operatori faoliyati yo'lga qo'yildi⁶. Shuningdek, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham turizm sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi.

¹ O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyoti. Jamoaviy monografiya. (Mas'ul muharrir: Ziyayeva D.H.). – Toshkent: «Yangi nashr», 2017. 214-b.

² «O'zbekturizm» milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi PF-447-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil. №9. 375-modda.

³ «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining №484-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasi barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 210-sonli qarori.

⁴ O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyoti. ... 209-b.

⁵ «Turizm to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi // 1999-yil, №9, 227-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami // 14-son, 113-modda, 2006.

⁶ «Samarqand» gazetasi. 2018-yil 18-mart.

Ta'kidlash joizki, turistik xizmatlarni sotishda mahalliy, mintaqaviy va respublika hukumatining turistik tashkilotlarni qo'llab-quvvatlab turishi turizm taraqqiyotidagi muhim omildir. Ammo Samarqand misolida olib qaralganda ko'proq viloyat aholisining ko'p asrlik mehmondostligi shaharga yanada ko'proq sayyohlarning kelishini ta'minlovchi eng asosiy omil bo'lib qolmoqda. Asosiysi, sayohatlarga yaxshi tayyorgarlik, xodimlar va gid-tarjimonlarning ko'pligi va sifatli xizmati hamda shahar infrastrukturasi yaxshi holatda ekanligi Samarqandga jahon turizm bozorida boshqa raqobatchilar bilan bellashish imkonini beradi.

2001-yilda Samarqand shahri va uning hududidagi ko'plab madaniy obyektlar YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

Samarqandga tashrif buyurgan Jahon bankining prezidenti Jeyms D.Uolfenson: «Keyingi 40 yil davomida men qariyb butun dunyoni kezib chiqdim, biroq Samarqanddek shaharni hech qayerda ko'rmadim», – deb e'tirof etgan edi. Amerikadan kelgan sayyohlar esa: «Dunyoda bittagina Parij va bittagina Samarqand mavjud», – degan fikrlarni qayd etganlar. Ommaviy fransuz jurnallaridan birida esa: «Samarqand tasavvurni jumbishga keltiradigan shahar bo'lib boryapti. Ko'zingizni yumib, muloyim ohangda «Samarqand» so'zini talaffuz qilsangiz, tasavvuringizda xuddi ertaklardagidek go'zal va sehrli manzaralar oqimi paydo bo'ladi», – deb qayd etilgan¹.

Samarqand O'zbekistonga tashrif buyurayotgan barcha davlat rahbarlari, arboblari, fan va madaniyat vakillari tomonidan tan olinib, «Turizm Makkasi» deb e'zozlanmoqda. Samarqandga kelgan xorijiy sayyohlar uni «butun dunyoga yuz ochgan shahar», «Ming bir kechadagi afsona va ertaklar shahri» deb ataydilar. Dunyoning turli burchaklaridagi dindorlar ham Samarqandning «Alloh panohidagi shahar» ekanligiga ishonch hosil qiladilar².

Amerika Qo'shma Shtatlarining nufuzli «The Huffington Post» nashri Samarqandni jahondagi «inson o'z umri davomida albatta borib ko'rish zarur bo'lgan 50 ta shahar» ro'yxatiga kiritganligi³ uning xalqaro turizm-da tutgan o'rnini baholash uchun muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayoniga faol kirib bordi. Samarqandning qulay geopolitik holati, Markaziy Osiyo mintaqasidan o'tgan «Buyuk ipak yo'li» ustida joylash-

¹ Jan Pyer Adam (Fransiya) // Sharq yulduzi, 2007. №3. 128-b.

² O'rta asr manbalarida ham shaharni shunday deb ataganlar.

³ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. 194-b.

ganligi, qulay geografik va iqlim sharoiti, bu sohaning ravnaqiga xizmat ko'rsata oladigan mutaxassislar va zarur qonuniy bazalarning mavjudligi turizmni rivojlantirish uchun muhim omillardir. Hozirgi paytda butun dunyoda «Samarqand deklaratsiyasi» deb tan olingan deklaratsiyani qabul qilgan Butunjahon Sayyohlik tashkilotining Samarqandda bo'lib o'tgan kengashida (1994-yil 5-oktabr) shahar bir ovozdan «Ipak yo'lining yuragi» deb tan olindi. G'arb mamlakatlari ekspertlarining fikricha, O'zbekistonga keluvchi sayyohlar soni yaqin orada 15 % ga ko'payishi kutilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, istiqlolning dastlabki yillarida Samarqand shahridagi turistlar oqimi past ko'rsatkichga ega bo'lgan. Xorijiy tadqiqotchilar Devid Eyri va Mira Shaklining hammualliflikda olib borgan tadqiqotida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1990-yilda Samarqand shahrida 24 000 kishi sayyoh sifatida, 9700 kishi boshqa maqsadlarda kelgan. 1995-yilda esa 14 500 kishi sayyoh va 5000 kishi boshqa maqsadda tashrif buyurganliklari qayd etilgan¹. Ko'rinib turibdiki, mazkur yillarda sayyohlar soni kamaygan. Bu bevosita bojxona va bojxona to'lovlarining vujudga kelishi, barcha turdagi xizmatlarning, shu jumladan transport xizmati narxining ko'tarilishi va sobiq sovet davlatlarida aholi turmush darajasining pasayishi kabi holatlar bilan xarakterlanadi².

1998-yilda shahardagi mavjud 34 ta sayyohlik firmalari 21,7 ming mehmonga xizmat ko'rsatgan. 2005-yilda turistik firmalarning soni 67 tani tashkil qilib, 58,5 mingdan ortiq mehmonni qabul qilgan, shundan 63% xorijiy sayyohlardan iborat bo'lgan.

Shaharda turizm sohasini rivojlantirishga xizmat ko'rsatish hamda servis sohasini amalga oshiradigan mehmonxonalar faoliyati va transport xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Samarqandda mehmonxonalar soni tobora ortib bordi. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda 2800 o'ringa ega bo'lgan ikkita to'rt yulduzli, 500 o'rinli «Afrosiyob Palas» va 366 o'rinli «Prezident Otel» mehmonxonalari mavjud edi. Bulardan tashqari, milliy uslubda qurilgan xususiy mehmonxonalar tizimi sayyohlarga tegishli xizmat turlarini ko'rsatib kelgan. Shuningdek, sobiq «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Samarqand viloyati filialining bergan ma'lumotiga ko'ra, Samarqand viloyatida 2016-yilda 70 dan ziyod sayyohlik firmalari va biryola 4 mingdan ziyod mehmonlarni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan 90 dan ziyod mehmonxonalar faoliyat

¹ Airey David, Shackley Myra. Tourism development in Uzbekistan // Tourism Management, Vol 18, No.4, 1997. P. 203.

² Ходжаева Н. Совершенствование железнодорожного туризма в Узбекистане // Экономический вестник Узбекистана. 2010. №2. С. 68.

ko'rsatib kelgan. Mazkur muassasalarning aksariyati Samarqand shahriga to'g'ri kelgan¹.

Davlat rahbari M.Sh.Mirziyoyevning 2018-yil mart oyida Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Samarqandga kelgan sayyohlarni joylashtirish va ularning dam olishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida Samarqandda 2018–2019-yillarda 22 ta milliy choyxona va 25 ta 3, 4, 5 yulduzli mehmonxonalar qurish lozimligi vazifa qilib topshirildi. Bu esa, o'z navbatida, kelajakda Samarqandga tashrif buyuruvchi sayyohlar qatnovini va shaharning sayyohlik salohiyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil Samarqand viloyatiga tashrifi davomida viloyat hokimligi, Qurilish vazirligi va O'zmilliybankning «Ipak yo'li» jamg'armasi (Xitoy) hamda «ERIELL Group» kompaniyasi bilan hamkorlikda eshkak eshish kanali hududida turistik markaz qurilishi va undan foydalanish bo'yicha bergan taklifi ma'qullangan. Tashrif doirasida, shuningdek, «ARUP Group» kompaniyasi (Turkiya) – bosh loyiha tashkiloti etib, «Enter Engineering Pte.ltd» kompaniyasi (Singapur) – bosh pudrat tashkiloti etib belgilangan. Turistik markaz qurish davomida eshkak eshish kanaliga ziyon yetkazilmadi. Sportning eshkak eshish turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari Respublika bolalar-o'smirlar sport maktabiga qarashli ushbu kanal xalqaro talablarga javob beradigan holda rekonstruksiya qilindi. Samarqand turistik majmuasini tashkil etish doirasida eshkak eshish kanali qarama-qarshisida joylashgan turar-joy va noturar-joy obyektlarini zarurat bo'lganda ko'chirish hisobidan aholi uchun dam olish maskanlarini tashkil etish loyihasi takliflari ishlab chiqilmoqda. Dam olish maskanida suzish havzalari, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish shoxobchalari hamda ko'ngilochar obyektlarni o'z ichiga olgan 12 ta kichik turistik majmualar barpo etish ham rejalashtirilgan.

Shaharning turistik salohiyatini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Samarqand xalqaro aeroporti yangi terminalining loyihasi ishlab chiqilib, u 600 yo'lovchiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan Samarqandda 2018-yil «Ipak yo'li» xalqaro turizm universitetining tashkil etilishi sohaga malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Samarqand shahrida 4–5 ta mehmonxona va 3–4 ta sayyohlik firmasi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda bu sohada 184 ta tashkilot, shu jumladan, 102 ta mehmonxona

¹ Samarqand viloyati «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Samarqand mintaqa bo'limi ma'lumotlari asosida. Samarqand, 2016-yil.

hamda 82 ta turistik firma ish olib bormoqda. Xususan, 2012–2015-yillar davomida 27 ta mehmonxona, 22 ta sayyohlik tashkiloti yangidan ish boshlagan. 2017-yilda Samarqandda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida 7 ta mehmonxona qurilib, 94 ta yangi ish o'rnini yaratildi¹.

Samarqand shahrida tashqi turizmning rivojlanish holati, ya'ni bugungi kunda xorijiy turistlar tashrifining tahlili, eng ko'p turistlar oqimi (55 %) Yevropa mamlakatlaridan kelishini ko'rsatmoqda. Butunjahon turistik tashkilotlarining tasnifi bo'yicha, bunga sobiq Ittifoq mamlakatlari hamda Yevropa mintaqasi kiradi. Keyingi o'rinda Sharqiy Osiyo va Tinch okean mintaqasi mamlakatlari sayyohlari (22%) turadi. Uchinchi o'rinni esa O'rta Sharq mamlakatlaridan kelgan sayyohlar (11%) tashkil qiladi. Bundan tashqari, Janubiy Osiyo mamlakatlaridan kelgan sayyohlar 8 % ni, Amerika mamlakatidan kelgan sayyohlar 4 % ni tashkil qiladi.

Bugungi kunda shahardagi madaniy meros obyektlari, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda shaharning hayoti, urf-odatlarini, milliy taomlarini kelgan sayyohlarga manzur bo'lmoqda. Har yili yuz mingga yaqin xorijlik va ellik mingdan ortiq mahalliy sayyohlarga xizmat ko'rsatiladi. O'ndan ziyod sayyohlik firmalari ichki turizm bilan shug'ullanib, sayohatlar tashkil etmoqda.

Viloyatda turizmni rivojlantirishning hududiy manzilli dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda viloyatda turistik resurslardan oqilona foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish va sifatini zamon talablariga moslashtirish, foydalanilmayotgan yangi turistik imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha vazifalar belgilangan. Sayyohlikning ekologik, sog'lomlashtirish, agro va faol turlarini rivojlantirish, ichki turizmni qo'llab-quvvatlash, soha uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu asosda yirik savdo va xizmat ko'rsatish majmualari, milliy, zamonaviy restoran va choyxonalar, turli ko'ngilochar maskanlar qurilmoqda. Turistik salohiyati katta bo'lgan tumanlarda yangi sayyohlik yo'nalishlari ochilmoqda. Bu maskanlarda sayyohlik uchun zamonaviy infratuzilma yaratilmoqda. Dasturga ko'ra, sayyohlik mavsumidan tashqari vaqtda ham viloyatga sayyohlarni ko'proq jalb qilish maqsadida «Samarqand nonlari», «Samarqand hunarmandlari», «Milliy taomlar» va «Sharq shirinliklari» ko'rgazmalari, «Qovun sayli», milliy folklor guruhlari festivallarini doimiy ravishda o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Registon majmuasidagi Tillakori madrasasida respublika «Hunarmand» uyushmasi viloyat boshqarmasi-

¹ Sodiqov N. Barcha yutuqlar – mustaqillik sharofati bilan // «O'zbekiston Respublikasi arxitekturasi va qurilish» jurnali. 2016-yil, № 4–5. 41-b.

ning doimiy ishlaydigan xalq amaliy san'ati asarlari va hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil etilgan¹.

Sayyohlar ko'proq keladigan tarixiy obidalar va boshqa obyektlarda ma'lumotlar joylashtirilgan stendlar, Samarqand xalqaro aeroporti va temiryo'l vokzalida turistik-ekskursion xarita o'rnatilgan.

Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat chet tillar institutida soha uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha viloyatdagi sayyohlik firma va kompaniyalari bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Talabalar va o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti mazkur tashkilotlarda o'tkazilmoqda. «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi o'quv-konsalting markazi va viloyat muzeylar boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan gidlar tayyorlash markazida ham soha uchun malakali ekskursovod kadrlar tayyorlanmoqda².

Shu bilan birga, Samarqandda turizmni rivojlantirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasi hamda malakali «turizm menejeri» kadrlarni yetishtirish borasida ko'plab ishlar qilinishi zarur. Bugungi kunda Turkiya va Italiya davlatlarida bu borada jahon tajribasi qo'llanilgan³. Samarqandda turizmni rivojlantirish uchun ana shunday davlatlarning tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2014-yilda Samarqand shahriga kelgan sayyohlar va mehmonxonalarga 70 ta mehmonxona (jami xonalar soni 2 213 ta) va sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi 47 ta tashkilot xizmat qilgan⁴. 2010–2014-yillarda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 50 ga yaqin zamonaviy avtobuslar xarid qilingan. Sayyohlik xizmatlari ko'rsatish ulushi 2008-yilda 14,6 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014-yilda 34,3 mlrd so'mdan iborat bo'lgan. Shuningdek, bir yilda o'rtacha 100 ming chet ellik va 60 ming mahalliy aholiga sayyohlik xizmatlari ko'rsatilganligi shaharning turizm borasida salohiyati yil sayin o'sib borayotganligini namoyon etadi.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sayyohlik korxonalarini London, Berlin, Madrid, Milan, Tokio, Shanxay, Seul, Moskva va boshqa shaharlarda tashkil etilayotgan xalqaro turizm yarmarkalarida ishtirok etib kelmoqda.

¹ <http://turizm.kasaba.uz/uz/news/91>

² <http://turizm.kasaba.uz/uz/news/91>

³ Турцев Б. Туристско-рекреационный потенциал Самаркандской области // Бюджет, кредит, 2004. №10 (89). С. 53–54.

⁴ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi. Samarqand viloyati pasporti. Samarqand. 2015. 26-b.

2006-yil Samarqandda faoliyat ko'rsatayotgan «El Holding» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashabbusi bilan «EL MEROSI» tarixiy liboslar teatri tashkil etildi. «EL MEROSI» teatri jamoasi Afrosiyob, Patikent, Varaxsha va Bolaliktepa singari qadimiy shaharlar vayronalaridan topilgan devoriy suratlar asosida sug'diylar davriga oid kiyim-kechaklarning dastlabki chizgilarini tiklashga muvaffaq bo'ldi¹. Ushbu teatr Samarqand shahriga tashrif buyurgan sayyohlarning shahar tarixi, madaniyati va san'ati bilan real voqeliklar asosida tanishish imkonini beradi.

2014-yil 15–16-may kunlari Samarqand shahrida «O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosining hozirgi zamon sivilizatsiyasidagi roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Konferensiyada 36 ta xorijiy davlatlar hamda YUNESKO xalqaro tashkilotidan jami 149 nafar xorijiy mehmonlar ishtirok etdi.

2014-yil 1–3-oktabr kunlari Samarqand shahridagi «Forumlar majmuasi»da BMT Butunjahon turizm tashkilotining 99-sessiyasi o'tkazildi. Bunda 49 ta xorijiy davlatlardan jami 131 nafar (20 nafari Jahon sayyohlik tashkiloti vakillari) xorijlik mehmonlar ishtirok etdi². Shunga o'xshash xalqaro forumlar va konferensiyalar, simpoziumlarning o'tkazilishi jahon hamjamiyatida Samarqandning brend shahar sifatidagi mavqeyini mustahkamlashga imkon yaratadi.

Ma'lumki, qadimda Samarqand milliy hunarmandlari orasida qog'ozgar hunarmandlar alohida mavqega ega bo'lganlar. Ular tayyorlagan qog'ozlar butun Sharq va G'arb olamida ma'lum va mashhur bo'lgan. Samarqand qog'ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk ipak yo'li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rungacha yetib borgan. Ammo so'nggi asrlar davomida ana shunday milliy hunarmand qog'ozgar ustalarning faoliyati to'xtab qolgan edi.

1995-yilda Buxoro viloyatining Kogon shahrida YUNESKO tomonidan o'tkazilgan «Tarixiy yodgorliklarni saqlash» mavzusidagi xalqaro konferensiyada samarqandlik Z.Muxtorov olamga dong taratgan va asrlar davomida yo'qolib ketgan Samarqand qog'ozini ishlab chiqarishni qayta yo'lga qo'yish loyihasi bilan qatnashdi. Bugungi kunda Z.Muxtorov Samarqand qog'ozini yaratilishi sir-sinoatlarini to'la o'zlashtirib, «Konigil» qishlog'ining Siyob anhuri oqib o'tadigan eng so'lim go'shasida mamlakatimiz, YUNESKO va Yaponiyaning «JICA» xalqaro agentligi ko'magida «Konigil-Meros» qog'oz ishlab chiqarish hunarmandchilik markaziga asos soldi. Hozirgi kunda mazkur markazda Markaziy Osiyo hududlari-

¹ Shadiyev N. El merosi – asrlar jilosi // Jamiyat. 2007. 14-sentabr, №37 (50).

² Viloyatda ijtimoiy sohalarida 2008–2014-yillar davomida amalga oshirilayotgan yutuqlar va o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot.

da keng tarqalgan, mevasi iste'molga yaroqli bo'lgan, aholi orasida «balx tuti» deb ataladigan tut navi po'stlog'idan turli xildagi Samarqand qog'ozlari ishlab chiqarilmoqda¹.

2017-yilda Respublika Prezidentining topshirig'iga asosan Samarqand shahrining Amir Temur ko'chasida joylashgan eski «Alpomish» zavodi hududi va uning atrofidagi yaroqsiz yer maydonida zamonaviy shahar sozlik talablariga to'la javob beradigan yangi turistik shaharcha – «Samarqand city»ni barpo etish ishlari boshlangan. Mazkur turizm shaharchasi chet el muhandis va arxitektorlari tomonidan amalga oshirilmoqda. 2018-yil mart oyida davlat rahbarining Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida shahar ma'muriyati oldiga sayyohlarni joylashtirish va ularning dam olishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida Samarqandda 2018–2019-yillarda 22 ta milliy choyxona va 25 ta 3, 4, 5 yulduzli mehmonxonalar qurish vazifasi qo'yildi.

Shaharda turizm servisi sohasini rivojlantirish maqsadida 2018-yilda «Samarqand city» zamonaviy avtobusi xizmati yo'lga qo'yildi. Ushbu avtobus shahar mehmonlarini Samarqand shahri bo'ylab sayohat qilishlarida hamda shahar transporti infratuzilmasida muhim ahamiyat kasb etdi.

2019-yilda Samarqandning Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga (WTCF) a'zo bo'lishi uning kelajakda jahon turizm markaziga aylanishidan dalolat beradi. Samarqand – har bir inson umri davomida albat ta borib ko'rish shart bo'lgan dunyoning 50 ta eng mashhur shaharlari qatorida e'tirof etiladi, bu ro'yxatga MDH davlatlari shaharlaridan faqat Samarqand munosib ko'rilgan. Shu bois Samarqandga keluvchilar safi yildan yilga ortmoqda. 2016-yilda 178 ming nafar xorijlik, 980 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrifi kuzatilgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni mos ravishda 560 ming va 3 million nafardan oshdi. 2016-yilda sayyohlarning viloyatda qolish kunlari o'rtacha 1,5 kunni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 2,6 kunni tashkil etmoqda. 2020-yilgi pandemiya bu boradagi ishlarga ta'sir qilgan bo'lsa-da, bugun karantin tartiblari bosqichma-bosqich yumshatilib, sayyohlar oqimi ko'paymoqda. Bundan to'rt yil oldin viloyatda mehmonxonalar 99 tani tashkil etardi. 2021-yilga kelib mehmonxona, mehmon uylari va xostellar soni 410 tadan oshdi. Ular bir vaqtning o'zida 11 ming 491 ta mehmonga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega².

2020-yilda Samarqand tumanidagi Konigil qishlog'ida respublikadagi birinchi «turizm qishlog'i» tashkil etildi. Qishloqda 3 gektar hududda uzunligi 840 metr piyodalar yo'lasi tashkil etildi. 38 ta turistik hamda

¹ <https://meros.uz>

² www.zarnews.uz

xizmat ko'rsatish obyekti ishga tushirildi. 2021-yildan mazkur loyihaning ikkinchi bosqichi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Urgut tumanidagi Tersak va Payariq tumanidagi Choshtepa qishloqlari turistik go'shaga aylantirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida turizm markazi barpo etilmoqda. Ushbu markazning umumiy maydoni 212 gektar bo'lib, loyihaga ko'ra, bu yerda 10 ta inshoot, jumladan, kongress xoll, mehmonxonalar, dam olish maskanlari bunyod etilib, 2022-yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan¹.

2021-yilda Samarqand shahrida ilk bor gastronomik ko'cha tashkil etildi. Samarqand viloyatida joylashgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi butunlay yangicha, zamonaviy ko'rinish olmoqda. Majmuaga tutash hududdan 5,8 gektar yer maydoni ochilib, ilmiy markaz hamda markaz qarshisida 3 ta uch qavatli turar joy qurilishi uchun ajratib berildi. Prezidentimizning 2021-yil 17–18-mart kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida bergan topshirig'i bilan Imom Buxoriy majmuasini qayta qurish loyiha-taklifi va Xartang qishlog'ining bosh reja-loyihasi ma'qullandi².

Xalqaro ilmiy markaz qurilishining umumiy loyiha qiymati 122 mlrd so'mni tashkil etib, bugungi kunda qurilish-pudrat ishlari yakunlanish arafasida. Shu bilan birga, ilmiy markaz qarshisida 3 ta uch qavatli, 18 xonadonli turar joylar hamda majmuaga olib boruvchi Oqdaryo-Qo'lbosti avtomobil yo'li bo'yida 62 ta milliy ko'rinishdagi 2 qavatli kottejlar qurib bitkazildi³.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Samarqand shahrida turizm sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Shaharda ko'plab sayyohlik firmalari va mehmonxonalar o'z faoliyatini boshladi. Bu, o'z navbatida, shahar iqtisodining o'sishiga o'z hissasini qo'shdi. Milliy hunarmandchilik sir-asrorlari va mahalliy urf-odatlarining mahalliy aholi tomonidan shaharga kelgan sayyohlarga namoyish etilishi ularning tariximizga bo'lgan qiziqishining yanada oshishiga sabab bo'ldi.

6-§. Zamonaviy qurilish-bunyodkorlik ishlari va shahar ekologiyasi

Shahar bosh rejasi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy hayotni isloh qilish jarayonida moddiy madaniyatning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan shaharsozlikka alohida e'tibor

¹ www.samarkand.uz

² www.uzbektourism.uz

³ www.yuz.uz

qaratildi. Davlat budjeti va mahalliy hokimiyatlar mablag'i hisobidan shaharlarining bosh rejalarini tuzish tartibi belgilandi¹.

Shaharlar bosh rejalarini tuzishda kelajakni o'ylab ish tutish zarurligi asosiy omil etib belgilandi.

1935-yilda me'mor M.S. Bulatov tomonidan² Samarqand shahrining 3,9 gektar maydonida 139 ming aholiga mo'ljallangan birinchi bosh rejasini ishlab chiqilgan edi. 1968-yilda T.Kalinovskaya tomonidan ikkinchi va 1981–1984-yillarda uchinchi shahar bosh rejalarini ishlab chiqilgan. Ushbu bosh rejalarini tuzish nihoyatda murakkab bo'lib, har doim turli to'siqlar yuzaga kelib turgan. Chunki Samarqand markazi shaharning har ikki qismini birlashtiruvchi halqa hisoblangan. Shuningdek, shahar bosh rejasini tuzishda undagi noyob arxitekturaviy binolarning estetik ko'rinishini inobatga olish zarur bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan shahar bosh rejasini tuzishda arxitektorlardan katta mas'uliyat talab etilgan.

2005-yilda mahalliy me'morlar hamda «Toshkentboshloyiha» bosh arxitektori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan arxitektor, professor V.A. Akopdjanyan tomonidan Samarqand shahrining tarixiy qismi uchun 2020-yilgacha mo'ljallangan shahar bosh rejasini ishlab chiqilgan.

Rejada ko'rsatilishicha, Samarqandning kelajakdagi ravnaqi shaharning tarixiylikini saqlab qolishni taqozo etadigan muhim omil bo'lib, shaharning tarixiy qismidagi ta'mirlash ishlari loyihasi individual yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, ushbu bosh reja shaharning tarixiy qismini turizm markaziga aylantirishga yo'naltirilgan. Unga ko'ra, shahardagi tarixiy butunlik saqlab qolinsa, shaharga sayyohlar oqimi 2010-yilda 200 mingtagacha, 2020-yilga kelib 500 mingtagacha ko'payishi taxmin qilingan³.

2018-yilda keyingi davrda Samarqand shahridagi aglomeratsiyaning o'zgarishi va turli qurilishlarni hisobga olgan holda shahar bosh rejasini qayta ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi. Mazkur mas'uliyatli vazifa «ToshkentboshplanLITI» davlat unitar korxonasi zimmasiga yuklatilgan⁴.

Shuni aytib o'tish lozimki, mustaqillik yillarida bir necha bor arxitektor olimlar tomonidan Samarqand shahrining bosh rejasini ishlab chiqilgan. Ammo shaharning turizm shahri sifatidagi talabiga javob bermaganligi

¹ O'zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi. Kollektiv monografiya (Mas'ul muharrir Ziyayeva D.H.). – Toshkent: Yangi nashr, 2017. 30-b.

² Axmedov M.Q. Me'moriy meros: Samarqandnoma, Temurnoma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 50-b.

³ Акходжаев В.А. Концепция генерального плана города Самарканда в аспекте сохранения его исторического наследия // O'zbekiston arxitektura va qurilishi. 2005-yil, №1. 24-b.

⁴ «Samarqand» gazetasi. 2018-yil iyun.

bois shahar bosh rejasi tasdiqlanmagan. Bugungi kunda Samarqand shahrida olib borilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlari respublika prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmon va buyruqlari asosida olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikadagi tarixiy shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojiga, shaharsozlik va me'morchilik taraqqiyotiga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, Samarqand shahrida qurilish va bunyodkorlik ishlarining ko'lami yildan yilga oshib, sohaga ajratilayotgan mablag' hajmi ko'payib bordi. Mustaqillikning dastlabki yillarida shahar qurilish ishlarida sarflangan jami mablag' hajmi 72,7 million so'mni, 2002-yilda 14 442,5 million so'mni va 2008-yilda 61 534,5 million so'mni tashkil qilgan¹.

Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida Samarqandda bunyodkorlik ishlari avj olgan. Samarqand shahrini uzoq muddatli rivojlantirish rejasida belgilangan barcha dasturlar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan.

Bu davrda Samarqand shahrida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borildi. Birinchi yo'nalish – shahar ko'chalari, maydonlarining eng nufuzli tarkibiy qismlarini mustaqillik rivoji, istiqloq mafkurasi, aholining maishiy turmush tarzi va bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda tartibga tushirishda namoyon bo'ldi.

Ikkinchi yo'nalish esa, shahar hududi bo'ylab yangi ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga asoslangan maishiy-madaniy turmush, ta'lim-tarbiya, ilmfan va iqtisodiy taraqqiyot, sanoat va ishlab chiqarish obyektlarini qurish hamda joylashtirishda aks etdi.

Uchinchi yo'nalishda Samarqand shahrining tarixiy qiyofasini va umumjahon mavqeyini e'tiborga olib, shaharning tarixiy qismini, undagi me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash, qayta tiklash, zamonaviy ijtimoiy va sayyohlik maqsadlariga moslashtirish hamda shu yo'l bilan ularni ke-lajak avlodlar uchun asrab qolishga e'tibor qaratildi.

To'rtinchi yo'nalish – aholining dam olishi, shahar iqlimi, ekologiyasi va landshaftini yaxshilashga, ya'ni tashqi ochiq muhitni obodonlashtirish, yangi bog'lar, parklar, xiyobonlarni tashkil qilish hamda shakllantirishga qaratildi.

Beshinchi yo'nalish esa, shahar infrastrukturasini, kommunal hayotini yaxshilash, muhandislik obodonlashtirish va jihozlashdan iborat bo'ldi.

Bu yo'nalishlarning barchasi me'morchilik, shaharsozlik hamda shahar qurilishi ishlari bilan bog'liqdir. Aynan shu maqsadda, mustaqillik yilla-

¹O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Jadval ma'lumotlari asosida. Toshkent, 2014-yil.

rida Samarqand shahrini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan shaharsozlik bosh rejasi ishlab chiqilib, unda yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlardagi ishlar o'z aksini topgan. So'nggi yillarda Samarqand shahrida 50 dan ortiq zamonaviy uy-joylar qurilib, 16 tasida ta'mir ishlari olib borilmoqda.

2010–2014-yillar davomida Samarqand viloyati bo'yicha 401,3 mlrd so'm miqdorida 741 ta yangi qurilgan va ta'mirlangan ijtimoiy soha obyektlarida qurilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Shu jumladan, Samarqand davlat arxivida – kapital ta'mir, Samarqand shahridagi Saxovat uyi binosida – qurilish, Samarqand shahridagi savdo-sanoat palatasining sobiq binosini O'zbekiston madaniyat va tarixi muzeyiga moslab – rekonstruksiya, Samarqand shahri Dahbed ko'chasidagi yuqumli kasalliklar shifoxonasida – rekonstruksiya, Samarqand shahar tibbiyot instituti NXO va LFK klinikasi binosida – kapital ta'mir ishlari olib borildi. Shuningdek, Ko'ksaroy maydonidagi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi joylashgan bino, Davlat soliq boshqarmasi binosida rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Shahar ko'chalari bo'ylab zamonaviy binolar, uy-joy va turli xil ko'ngilochar maskanlar bunyod etilgan. Jumladan, V.Abdullayev ko'chasida Samarqand xalqaro aeroporti va aeroport ma'muriy binosi, «Regal» mehmonxonasi eng zamonaviy texnologiyalar asosida ta'mirlandi.

Shaharning Ibn Sino ko'chasida Sport va sog'lomlashtirish kompleksi, akademik litsey binosi, Avtosalon binosi, SamTI qoshidagi akademik litsey, Olimpiya zaxiralari sport kompleksi, Rudakiy ko'chasida akademik litsey qurib bitkazildi.

Shuningdek, shahardagi Mirzo Ulug'bek ko'chasining 2008–2009-yillarda rekonstruksiya qilinishi natijasida bu ko'chada ham yangi binolar qad ko'tardi. «Registon» mehmonxonasi, «Savdo» majmuasi, Xotira maydoni, Viloyat mahalla markazi, Savdo va maishiy xizmat binosi, «Korzinka» savdo majmuasi, San'at kolleji, Konsert zali binosi, Baxt uyi binosi, avtosalon binosi, 2 ta mehmonxona, UMS va sobiq SUM binolari, «Konstantin» mehmonxonasi va 4 qavatli turar joy binolari kapital ta'mirlandi, yangi binolar qurildi.

2010-yilda Bo'stonsaroy ko'chasida yirik rekonstruksiya ishlari olib borildi. Ushbu ko'chada 3 ta 5 qavatli turar joy binolari, Aloqabank, Milliy bank binosi, «Malika» mehmonxonasi, mehmonxona va kafe yangidan bunyod etildi.

2014-yilda Samarqand shahar Chuqurcho'l ko'chasi 112-uyda joylashgan «Patrul-post xizmati» batalyonini rekonstruksiya qilish uchun 4 010,468 million so'm, viloyat teleradiokompaniyasini joylashtirish maq-

sadida Samarqand shahri Ko'ksaroy maydoni 5-uydagi 4 qavatli binoni rekonstruksiya qilish uchun – 2 097,854 million so'm hamda viloyat Davlat soliq boshqarmasi ma'muriy binosini rekonstruksiya qilish maqsadida 1 179,325 million so'm mablag' ajratilib, belgilangan tartibda pudratchi qurilish korxonalari tomonidan qurilish-montaj ishlari olib borildi¹.

Samarqand shahrida ana shunday zamonaviy binolar qad ko'targan ko'chalar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. 1991–2016-yillar oralig'ida Samarqand shahrida 80 ta yirik bino va inshootlar qurilgan. Shunday zamonaviy binolar shaharning Beruniy, Jomiy, Gagarin, Toshkent, Bedil, Dahbed, Nurobod, Ko'ksaroy, Amir Temur, Panjakent ko'chalarida qad ko'tardi. Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Bo'stonsaroy, Spitamenshoh, Dahbed ko'chalaridagi arxitektura talablariga javob bermaydigan 13 800 ta turar hamda noturar joy binolari qaytadan qurildi yoki rekonstruksiya qilindi. 2016-yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, Rudakiy ko'chasi atrofidagi binolardan 76 tasi ta'mirlanib, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, 5 ta ko'p qavatli uy-joylar qurilgan. 2016-yilda jami Samarqand shahrida 47 ta ko'p qavatli uy-joy qurilib, 11 180 kishining turmush sharoiti yaxshilangan. Shu jumladan, yosh oilalar uchun 13 ta ko'p qavatli turar joy barpo qilinib, xonadon kalitlari topshirilgan². Shuningdek, 2017-yilning boshlarida 1060 ta xonadonga mo'ljallangan 32 ta ko'p qavatli uy-joy qurilishi yakunlandi³.

Samarqand shahrining eski shahar qismida joylashgan Registon maydoni va Bibixonim jome masjidini tutashtiruvchi Toshkent ko'chasi 20 yil avval eng tirband ko'chalardan biri edi. Toshkent ko'chasi Temuriylar davriga oid yagona saqlanib qolgan shahar ko'chasi bo'lib, bugungi kun avtomobillar qatnovi uchun juda tor, shuningdek, ko'chada avtomobillar qatnovi tarixiy obidalarni saqlashga salbiy ta'sir ko'rsatar, bularning barchasi shaharga kelgan sayyohlar uchun ham noqulayliklar tug'dirar edi. 2014–2015-yillarda katta hajmdagi qurilish ishlari amalga oshirildi. Registon maydonida yirik obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. Xiyobonda rangli favvoralarining o'rnatilishi shaharga keladigan mehmonlar va mahalliy aholi uchun eng shinam sayilgoh va dam olish maskaniga aylandi.

Samarqand shahridagi qurilish va bunyodkorlik ishlari ijtimoiy soha obyektlarida ham keng amalga oshirildi. Jumladan, 2014-yil Investitsiya

¹ Samarqand viloyat Injining kompaniyasining 2010–2015-yillarda investitsiya dasturi asosida qurilgan obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida. Samarqand, 2015-yil.

² Sodiqov N. Barcha yutuqlar – mustaqillik sharofati bilan // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2016-yil. №4–5. 36–40-betlar.

³ O'sha joyda.

dasturi asosida Samarqand shahar tibbiyot birlashmasidagi davolash-profilaktika muassasalarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Buyuk ipak yo'li ko'chasidagi shahar markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasi filiali binosi (so-biq 4-son bolalar poliklinikasi joylashgan Bog'ishamol tumani hokimligi binosining bir qismi)ni ta'mirlash-tiklash loyihasi «Samqishloqxo'jalikloyiha» MCHJ tomonidan 475 mln so'mga loyihalashtirilgan va «Samta'mir-servisplyus» MCHJ tomonidan tenderda yutib olingan bo'lib, demontaj ishlari, qavatlardagi elektr tarmoqlari montaji ishlari, santexnika va suvash ishlari bajarildi hamda SanPiN talablariga mos ravishda rekonstruksiya qilindi. 2015-yilda esa Buyuk ipak yo'li ko'chasidagi Markaziy ko'p tarmoqli poliklinika va boshqa oilaviy poliklinikalar kapital ta'mirlandi.

2016-yil hisobotlariga ko'ra, Samarqand shahrida yil davomida ijtimoiy soha obyektlarida olib borilgan qurilish-pudrat ishlarida sarflangan mablag'lar hajmi 624,9 milliard so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 127,5 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, ijtimoiy obyektlar ta'mirlanishiga sarflangan jami mablag'lar hajmi 9 596,4 million so'mni va kapital ta'mirlash ishlariga sarflangan mablag'lar hajmi 5 057,0 million so'mni tashkil etgan¹.

Samarqand shahri infratuzilmasi jadal rivojlandi. Bu borada qabul qilingan maxsus qaror va davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida shaharda mahalliy aholi va mehmonlarga yashash uchun qulay shart-sharoit ta'minlanishiga erishilmoqda. Samarqand shahrida jami uy-joy fondining umumiy maydoni 1997-yilda 5,2 mln kv metrni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilga kelib, 4,9 mln kv metrni tashkil etgan². Uy-joy fondi umumiy maydonining 2006-yilda 1997-yilga nisbatan qisqarib borishi shahar talabiga javob bermaydigan va shahar qurilishida ayrim muammolarni keltirib chiqaradigan ko'plab yakka tartibdagi uy-joylarning buzilishi va yangi inshootlarning qurilishi bilan bevosita bog'liq. Samarqand shahri bo'yicha bir kishi hisobiga aholining uy-joy bilan ta'minlanganligi jami umumiy maydoni 1997-yilda 11,1 kv metrni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilda 12 kv metrni tashkil etgan³. Bu esa shaharda zamonaviy talablarga javob beradigan ko'p qavatli markazlashgan kommunal tarmoqlarga ulangan uy-joylarning qurilishi hisobiga ortib borgan.

2017-yil Prezident Sh.M.Mirziyoyev ko'rsatmasi asosida Samarqand shahrining Amir Temur ko'chasida joylashgan eski «Alpomish» zavodi

¹ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasport ma'lumotlari asosida. Samarqand, 2017 yil. 5-11-betlar.

² Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Statistik to'plam. 1997-2006. Samarqand, 2007. 56-betlar.

³ Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi. Statistik to'plam. 1997-2006. Samarqand, 2007. 59-betlar.

hududida va uning atrofidagi yaroqsiz yer maydonida zamonaviy shaharsozlik talablariga to'la javob beradigan yangi turistik shaharcha barpo etish ishlari boshlangan. Mazkur turizm shaharchasi Janubiy Koreya Respublikasi muhandis va arxitektorlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Samarqand shahrining 3 ta hududida (Qorasuv, Shirin, Temiryo'l vokzali hududi) zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar qurish belgilangan bo'lib, Qorasuv massivi ularning dastlabkisidir. 2018-yildan mazkur massivda zamonaviy shaharsozlik andozalari asosida ko'p qavatli uylar qurila boshlandi. «Agromir Buildings» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan bu yerda 12–16 qavatli jami 47 ta turar joy qurilgan bo'lib, ularda 3588 ta xonadon mavjud. Turar joylarning fasadi uch qavatli qoplamadan iborat bo'lib, bu xonadonlar qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi. Binolarga videokuzatuv tizimi, yuqori texnologiyali yong'in xavfsizligi uskunalari o'rnatilgan. Har bir xonadon alohida isitish qozoni bilan jihozlangan. Uylar egalariga tayyor holda topshirilmoqda¹.

Qorasuv massivida qurilgan ko'p qavatli uylar soni 2021-yilga kelib 116 taga yetdi. Shuningdek, bu yerda 1 ming 600 o'rinli maktab, 120 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi, mahalla fuqarolar yig'ini binosi, savdo do'konlari, o'yin va sport maydonchalari barpo etildi. 2021-yilda yana 7 ta 16 qavatli, 2 ta 25 qavatli uylar qurilmoqda².

Yo'l qurilishi. Mustaqillik yillarida shaharning har ikkala, ya'ni yangi va eski shaharlar markaziy qismlari va ularga tutashuvchi magistral ko'chalar yo'nalishlari to'g'rilandi. Shuningdek, ularning eni kengaytirildi, yangi asfalt yotqizilib, mustahkamlandi, ko'chalar atrofidagi trotuarlar, ariqlar obod qilindi hamda daraxtlarning tashqi ko'rinishi tartibga keltirildi, yaroqsiz holga kelganlari o'rniga yangilari ekildi, yangi ko'chalar qurildi hamda ular tasviriy oynalar, reklama elementlari bilan bezatildi³. Shu bilan birga, bugungi kunda shaharning ayrim ko'chalari hamda trotuar yo'laklari ta'mirlalab bo'lib, Samarqand shahrining zamonaviy turizm rivojlangan shahar sifatidagi mavqeyini mustahkamlashda bu kabi kamchiliklarni bartaraf qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahardagi juda ko'p ko'chalar, jumladan, so'nggi yillarda Zehniy, Maxtumquli, Ogahiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Amir Temur, Al-Buxoriy, Maroqand, Chelak, Xo'ja Ahrori Vali, G'iyosiddin Jamshid, Gagarin, Bibixonim, A.Nabiyev va Jomiy ko'chalarini joriy ta'mirlash uchun 573 820 mln so'm miqdorida mablag' sarflandi⁴.

¹ www.samarkand.uz

² www.zarnews.uz

³ O'ralov A.S. Samarqand shahrining mustaqillik yillaridagi arxitekturasi // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007. № 3. 23–26-betlar.

⁴ www.samarkandavtoyul.uz

2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Samarqand shahrida jami 37 km yo'l ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi. Shundan xalqaro miqyosdagi yo'llar 16 kilometrni, respublika miqyosidagi yo'llar 10 kilometrni va mahalliy yo'llar 11 kilometrni tashkil qiladi¹. 2020–2021-yillarda 684,5 km, shundan 476,9 km yo'llarga asfalt-beton va 207,6 tuproq yo'llarga shag'al yotqizildi. 2021-yil oxirigacha yo'l infratuzilma obyektlarida 1039,9 km ichki yo'llar ta'mirlanishi ko'zda tutilgan².

Xulosa qilib aytish mumkinki, shahar arxitekturasida zamonaviy inshootlar va turar joy binolari qurilishiga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, shahardagi bunyodkorlik ishlari natijasida ayrim muammo va kamchiliklar ham yuzaga kelganligini qayd etib o'tish lozim. Eng avvalo, shahar bosh rejasining yaratilmaganligi ko'plab muammolar va nuqsonlarga olib kelmoqda. Shahar markazida qurilgan binolarning aksariyati sifatsiz hamda eski uslubda, ya'ni XX asrning 70–80-yillariga xos dizaynda qurildi. Shuningdek, shaharning mahalliy va zamonaviy qismida ko'plab tarixiy binolarning buzib tashlanishi viloyat madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish boshqarmasining e'tirozlariga sabab bo'ldi. Tarixiy obidalar (Go'r Amir maqbarasi, Shohizinda majmuasi, Siyob bozori) atrofida joylashgan mahalliy aholi uy-joylarining buzib tashlanishi hamda shahar ko'chalarining (Panjikent, Toshkent, Shohizinda, Dahbed ko'chalari) kengaytirilishi hisobida Samarqand shahrining tarixiy qiyofasiga katta putur yetkazildi³.

Shahar ekologiyasi muvozanati masalalari. Samarqand shahrining reja asosida obodonlashtirilishi va ko'kalamzorlashtirilishi XIX asrning ikkinchi choragiga to'g'ri keladi. Olim va bog'bon N.I.Korolkov Yevropa shaharlarini ko'kalamzorlashtirish tajribasini o'rganib, Samarqandda 100 turga yaqin manzarali, sersoya va uzoq umr ko'radigan noyob daraxt hamda butalarni ekishni tavsiya etgan. Shunga ko'ra, 1872–1880-yillar mobaynida Samarqand shahridagi Universitet xiyoboni, Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i va shunga o'xshash bir qancha joylarga nodir daraxtlar o'tqazilgan. Bu daraxtlarning ba'zilari hozirgi kunda ham yaxshi holatda saqlangan⁴.

Sovet davrida ham bu masalaga katta ahamiyat qaratilgan. 1960-yillar oxiriga kelib, Samarqand shahridagi ko'kalamzorlashtirilgan hududlar-

¹ Samarqand viloyat statistika boshqarmasi. Samarqand shahar pasport ma'lumotlari asosida. Samarqand, 2017-yil. 14-b.

² www.samarkand.uz

³ <https://www.ahor.uz/vzglyad-iznutri/rahim-avazov-samarkand-teryat-svoyu-arhitekturnuyu-samobitnosty>

⁴ Toshpulatov Y., Jo'raqulov Q., Tursunova I. Shaharlar iqlimini mo'tadillashtirishda manzarali daraxtlarning ahamiyati // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil. № 1. 34-b.

ning umumiy hajmi 989 gektarni tashkil etgan. Bu aholi jon boshiga o'rtacha 34 m²dan yashil maydon to'g'ri kelishini bildiradi¹.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida aholi turmush tarzini yaxshilash maqsadida shaharsozlik siyosatida ekologiya muammolariga alohida e'tibor qaratila boshlandi va ekologik muvozanatni saqlashga oid ko'plab qonun va qarorlar² qabul qilindi. Hozirgi paytda 20 dan ortiq qonunlar³ tabiatni muhofaza qilishga xizmat qilmoqda⁴. Eng avvalo, 1992-yil dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Unda davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari, aholining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhit sifatini normativlar orqali tartibga solish, tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat ostiga olish, ekologiya ekspertizasi va nazorat tartiblari belgilab berildi⁵. Bunday chora-tadbirlar respublikaning boshqa shaharlari qatorida Samarqand shahriga ham keng tatbiq qilindi.

2001–2003-yillar Samarqand viloyati hokimi bo'lgan Sh.Mirziyoyev Samarqand shahrining ekologiyasi va tozaligiga jiddiy e'tibor bergan. Viloyat hokimining shahar faollariga murojaatida (2002-yil 10-iyul) shaharni toza, ozoda tutish, ko'chalarga gullar ekish, ariqlarni tozalash, bir so'z bilan aytganda, shaharni saranjom-sarishta saqlash masalalari ilgari surilgan⁶. Shuningdek, Samarqand shahri aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash ham viloyat hokimining doimiy nazoratida turgan dolzarb masala hisoblangan. Shuni hisobga olgan holda Samarqand viloyati hokimi Sh.Mirziyoyev 2002–2003-yillarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida shaharga tutash hududlarda, jumladan, Sazag'on, Tapaqul, Oqsoy qishloqlarida artezian quduqlar qazilishini nazorat qilgan.

¹ *Tog'ayeva A.* O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950–1990-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2017. 141-b.

² «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 754-XII-son// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-y., I-son, 38-modda.

³ 1996-yilda «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, 1997-yilda «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, 1998-yilda Yer kodeksi, 2000-yilda «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi, 2002-yilda «Chiqindilar to'g'risida»gi, «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi, 2004-yilda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi va boshqa qonunlar.

⁴ Ekologiya va zamon // Ekologiya xabarnomasi. 2016-yil № 6. 5-b.

⁵ O'zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi: islohotlar va modernizatsiya jarayonlari // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016. 116–117-betlar.

⁶ Zarafshon. 2002-yil 11-iyul.

Samarqand shahridagi ko'p qavatli binolarda 59 km suv quvurlari yotqizildi¹.

Samarqand shahri azaldan viloyatning ma'muriy, siyosiy va madaniy markazi hamda sanoat korxonalarining keng hajmdagi ishlab chiqarish markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bugungi kunda respublikadagi yirik shahar sifatida shaharda ichki va tashqi transport tizimi faoliyat yuritadi. Ularning faoliyati natijasida shahar atmosferasi, suv resurslari, tabiati va aholi salomatligiga ko'plab zararli ta'sirlar vujudga kelishi tabiiydir. Shaharda toza ekologik muhitni yaratish borasida shahar ma'muriyati va mutasaddi tashkilotlar nihoyatda faol ish olib borishlari taqozo etiladi. Shu bilan birga, shaharlardagi ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatlarda chiqindilar miqdori keskin oshib bormoqda. Shu jumladan, Samarqand shahrida ham bu holatni kuzatish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, shahar ekologiyasining buzilishiga olib keluvchi sabablardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 3-dekabrda «Respublika aholi punktlarida sanitariya jihatidan tozalash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan chiqindilarni sanitariya normalari asosida saralash, tashish va ularni utilizatsiya qilish ishlarini zamonaviy talablar asosida tashkillashtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Qayd etilishicha, sanoatlashgan yirik shaharlarda yoz oyida havo harorati 50 °C dan ortib, havoning nisbiy namligi 30% ga pasayib ketadi. Daraxtlar qalin o'sgan xiyobonlarda bu ko'rsatkich 35–37% ni, havoning nisbiy namligi esa 40–45% ni tashkil etishi kuzatilgan². Bunday vaziyatda maydonning asosiy qismini xiyobonlar va bog'lar egallagan shaharlarning iqlimi mo'tadil va musaffo bo'ladi. Shu o'rinda aytish zarurki, tegishli tashkilotlar tomonidan Samarqand shahridagi daraxtlar sonining keskin qisqarib borishi hamda kesib tashlanishini nazorat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, Samarqand shahrining Zarafshon vodiysida joylashganligi uning ekologiyasi hamda atmosferasi holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zarafshon daryosi Samarqandning iqlimi va ekologiyasi holatini belgilashda asrlar davomida yagona daryo sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Shahar bo'ylab oqib o'tuvchi Siyob, Obi Rahmat, Darg'om kanallari bevosita shaharni suv bilan ta'minlab kelgan. Ammo mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida olib borilgan qurilish ishlari va boshqa maqsadlarda Zarafshon daryosi-

¹ Zarafshon. 2002-yil 9-mart.

² Toshpulatov Y., Jo'raqulov Q., Tursunova I. Shaharlar iqlimini mo'tadillashtirishda manzarali daraxtlarning ahamiyati // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil. № 1. 33-b.

dan noruda moddalarning, xususan, shag'al toshlarning o'zboshimchalik bilan kovlab olinishi daryo tubining oxirgi 5–6 yilda 2,5–3 metrga pasayishiga olib kelgan. Ma'lumki, daryo o'zani qancha chuqurlashib borsa, suv sathi pasayib, daryoda shuncha suv kam qoladi. Tegishli tashkilotlarning bergan xulosalariga ko'ra, bunday o'zboshimchalik asosida olib borilgan ishlar kelajakda shahar ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, daryo o'zamlarining qisqarishi va qurishiga hamda daryo uzellariga moddiy zarar keltirishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z o'rnida, tegishli tashkilotlar hamda davlat aralashuvini, qabul qilingan qarorlar¹ amaliyotiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirish lozimligidan dalolat beradi.

Samarqand viloyatida 2020–2021-yillarda 152,4 km suv tarmog'i tortildi va ikkita suv inshooti bunyod etildi. 2021-yilda 74 ta inshootni qurib rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi «2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2916-son Qarori hamda 2017-yil 21-apreldagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5024-son Farmoniga binoan shahar ekologiyasi va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shahar sanitar chiqindixonasi Zarafshon vodiysida, Samarqand viloyati Xishrav qishlog'i yaqinida, Samarqand shahridan 10 km g'arbda joylashgan³.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2017-yil 23-maydagi 21/1-sonli buyrug'iga asosan Samarqand viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasida maxsus chiqindilarning hosil bo'lishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiya bo'limi tashkil qilindi. Inspeksiya faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida malakali mutaxassislar biriktirilib, zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va anjomlar bilan ta'minlandi. Obodonlashtirish boshqarmalari qoshida «Toza hudud» unitar korxonasi tashkil etildi. Samarqand viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2017-yil 8-avgustdagi 27-D-sonli va Samarqand viloyati Moliya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-sentabrdagi «Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3286-son Qarori.

² www.zarnews.uz

³ Xoliqulov Sh. Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning integrallashgan tizimini yaratish // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil № 6. 31–32-betlar.

boshqarmasining 9-avgustdagi 34-sonli Qo'shma buyrug'iga asosan «Maroqand Obod» DUK va «Toza hudud» DUK o'rtasida shartnoma tuzildi. Natijada chiqindilarning to'planib qolishi orqali kelib chiqishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldi olinishiga erishildi¹. 2021-yilda chiqindilar bilan ishlash doirasida 12 ta qishloq va mahalladagi 22 ta chiqindixona yaxshilanib, joylarga 100 ta yangi turdagi modul va konteyner o'rnatilishi rejalashtirilgan edi. Amalda esa 12 ta chiqindixona qurilib, 79 ta yangi turdagi modul konteynerlar o'rnatildi². Umuman olganda, so'nggi yillarda shaharda chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish sohasi ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunday sa'y-harakatlar, albatta, shahar ekologiyasini yaxshilash va atrof-muhitini muhofaza qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shahar ekologiyasi muvozanati masalalarini mustahkamlashda istirohat bog'lari hamda favvoralarning mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida shaharning istirohat bog'lari, markaziy ko'chalari hamda dam olish maskanlarida jahon arxitekturasiga mos ko'plab landshaft dizayn namunalari yaratishga e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda shaharda bir qator qarag'ay, qoraqarag'ay, archa, tiss, botqoq kiparisi, soxta kashtan, yapon soforasi, shoyi akatsiya, kapalta, oq qayin, lola, magnoliya va shunga o'xshash sovuqqa hamda suvsizlikka chidamli turli xildagi daraxtlar ekildi. Bu daraxtlar shaharning zamonaviy ko'rinishi va ko'rkamligiga, uning ekologiyasi va aholisining salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarqand landshaft dizaynida qo'llanilgan ana shunday noyob manzarali daraxt va butalar, anvoyi gullar 1971-yilda asos solingan SamDU botanika bog'ida yetishtiriladi. Ushbu botanika bog'i Samarqand shahrining janubi-g'arbida, Zarafshon daryosining irmog'i Darg'om kanalining o'ng qirg'og'ida joylashgan. U dengiz sathidan 650–660 metr balandlikda joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 20 gektarni tashkil etadi.

Xullas, istiqlol yillarida Samarqand shahrida ham keng ko'lamdagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilishi natijasida shahar qiyofasi tubdan o'zgardi. Bunda zamonaviy landshaft arxitekturasini o'ziga xos maktab sifatida shakllandi. Ko'kalamzorlashtirishda daraxt, buta, gul yoki maysalarni manzarali landshaft kompozitsiyasi asosida ekish lozimligiga alohida e'tiborni qaratish asosiy tamoyil sifatida belgilandi. Bu yumushlarda hudud ekologiyasi, xususan, havoning tozaligini ta'minlash ham inobatga olindi³.

¹ www.uznature.uz

² www.zarnews.uz

³ Sodiqov N. Barcha yutuqlar – mustaqillik sharofati bilan // O'zbekiston arxitekturasini ta'minlash ham inobatga olindi. 2016-yil. № 4–5. 41-b.

Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlash arafasida shaharda olib borilgan obodonlashtirish uning ekologik muhitiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Samarqand tarixiy inshootlari atrofida ekobog'lar tashkil etildi hamda zamonaviy daraxtlar ekildi. Ayniqsa, Ruhobod maydonida keng ko'lamli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Maydondagi tarixiy obidalarga mos bo'lmagan imoratlar buzilib, Ruhobodning old qismida har tomondan ko'rinadigan tarzda manzarali daraxtlar va gazon o'tlari ekildi. Shuningdek, Ko'ksaroy maydoni, Al-Moturidiy, Xo'ja Doniyor ziyoratgohlari, Shohizinda ansambli va Afrosiyob muzeyi atroflari, Samarqand temiryo'l vokzali oldi maydoni, Ulug'bek bog'i, Ibn Sino va Universitet xiyobonlari rekonstruksiya qilinib, ko'kalamzorlashtirildi. Bunda zamonaviy o'rindiqlar, panjaralar, zamonaviy yoritkichlar o'rnatilib, yo'laklarga plitkalar qoplandi.

Mazkur dasturda yubiley munosabati bilan shahardagi bir qator obidalarni ta'mirlash ko'zda tutilgan edi. Xususan, Go'ri Amir majmuasi yonida joylashgan, so'nggi 80 yil davomida qarovsiz yotgan Oqsaroy maqbarasi, Registon maydonidagi Tillakori madrasasi va Saroymulxonim maqbaralari ta'mirlandi. Shohizinda majmuasidan Bibixonim maqbarasigacha go'zal bir xiyobon yaratildi.

Ilgari shahar o'rtasida joylashgan «Zarafshon» spirt ishlab chiqarish zavodi atrof-muhit musaffoligini buzishi bilan birga, Ruhobod maydoni va unga tutash Go'ri Amir maqbaralari ko'rinishiga soya solib turganligi sababli boshqa joyga ko'chirilib, uning o'rnida 4 gektar maydonni egallagan bog' barpo etildi. Me'moriy yodgorliklarning tashqi ko'rinishini to'sib turgan eski kinoteatr, univermag, maishiy xizmat uyi, «Tabassum» kafesi va «Yubiley» restorani o'rniga xiyobonlar tashkil etilib, sayyohlar va ziyoratchilar uchun keng yo'llar ochildi¹.

Xuddi shuningdek, Ko'ksaroy maydoni kengaytirildi, noyob daraxtlar va gul ko'chatlar ekilib, Universitet xiyoboni rekonstruksiya qilindi. Undagi o'rindiqlar va panjaralar yangidan o'rnatildi, yoritkich tizimlari bilan bezatildi va yo'laklarga plitkalar yotqizildi. Toshkent ko'chasida noto'g'ri ravishda qurilgan muzey binosi², Alisher Navoiy nomli kinoteatr va boshqa ko'rimsiz binolar buzib tashlanib, ularning o'rniga bog' barpo etildi. Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ko'rsatmasiga binoan bugungi kunda bu bog'da O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Kari-

¹ Rafiqov S.A. Qadimiy va abadiy shahar // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007. № 3. 14-b.

² Sobiq Akmal Ikromov muzeyi.

mov haykali o'rnatildi¹. Hozirda mazkur xiyobon mahalliy aholi hamda shaharga tashrif buyuruvchi mehmonlarning dam olishlari uchun so'lim go'shalardan biriga aylantirilgan.

Shahardagi Markaziy istirohat va madaniyat bog'ida ham qayta qurilish ishlari amalga oshirildi. Bog' hududi unga yot elementlar va obyektlardan tozalandi. Bog'da ochiq va yopiq yashil hududlar, sayr qilish uchun xiyobonlar shakllantirildi, bog' markazidagi maydonga Alisher Navoiy haykali o'rnatildi. Shuningdek, yangi gulzorlar, daraxtzorlar, xiyobonlar, raqs va konsert maydonlari, amfiteatr va suv havzalari, bolalar uchun attraksionlar, yangi darvozalar qurilib, bog' obod hamda ko'rkam shaklga keltirildi. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2018-yil mart oyida ushbu bog'ning kirish qismida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykalining o'rnatilishi xalqimizning azaliy millatlararo totuvlik hamda qo'shnichilik munosabatlariga bo'lgan hurmatning ramziy belgisi sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Samarqanddagi bunyokorlik va hamkorlik ishlari doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yilda Universitet xiyobonida xitoy mutafakkiri va faylasufi Konfutsiy sharafiga uning haykali o'rnatilib, haykal atrofi obodonlashtirildi.

Shaharning Sug'diyona turar joy mavzesidagi ilgari tashlandiq holda yotgan qarovsiz bog' ham mustaqillik yillarida yangidan qayta qurilib, zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi. Bog' hududi bir necha funksional zonalariga (akvatoriya, plyaj, bolalar uchun attraksionlar, sport zonasi, hayvonot bog'i, markaziy sayilgoh, «Eyfel minorasi», yapon bog'i, o'zbek bog'i, chorbog'lar va xiyobonlarga) bo'linadi. Shuningdek, bugungi kunda bog'da muz saroyi qurilishi ishlari olib borilmoqda.

Respublikada Xotira va qadrlash kunining tantanali nishonlanishi munosabati bilan Samarqandda ham ana shunday maxsus maydon va xiyobon bunyod etilib, unda Toshkentdagi «Ona siymosi»ning o'xshatmasi o'rnatildi. Uning old qismidagi ochiq maydonda ayvon qurilib, gulzor va maysazorlar barpo etildi. Ushbu hududga yaqin joyda joylashgan «Bolalar texnik va intellektual markazi» yonida shahar aholisining yozda cho'milishi uchun gidropark, «Ko'l bog'i» va suv o'yinlariga xos attraksionlar tashkil etildi².

¹ Avval bu bog' «Yo'lbarslar xiyoboni» deb atalgan bo'lib, bu yerda ramziy ma'nodagi ikki yo'lbars haykali mavjud edi. Hozirda bu ikki yo'lbars haykali sobiq «Zarafshon» araqspirt zavodi o'rnida barpo etilgan bog'ga ko'chirildi.

² O'rolov A.S. Samarqand shahrining mustaqillik yillaridagi arxitekturasi // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007. № 3. 31-b.

Shahar ko'chalari, xiyobonlar, bog'larini bezash uchun chet eldan qrim qarag'ayi, oq qayin, lola daraxti, manzarali behi, kashtan, moviy archa, lipa, sharsimon bez va shu kabi chiroyli gullar va manzarali daraxtlar keltirib ekilmoqda.

Bugungi kunda shaharda 36 ta favvora mavjud bo'lib, shundan 1 tasi nurli musiqali, 1 tasi nurli va 34 tasi oddiy favvoralar¹. Yorug'likdiodli, musiqali favvoralar zamonaviy shahar ko'rkiga ko'rk bag'ishlab kelmoqda. Mamlakatimizning yirik shaharlari – Toshkent va Samarqandda 2014-yildan buyon 1-may kunida «Favvoralar sayli» o'tkazib kelinmoqda. Samarqand shahrining Ko'ksaroy va Hamid Olimjon drama teatri maydonlari, Amir Temur xiyoboni, Shoirilar bog'i, Universitet xiyoboni, Samarqand temiryo'l vokzali maydoni kabi 10 ga yaqin maskanlardagi favvoralar atrofida madaniy dasturlar, konsert tomoshalari, samarqandlik rassomlarning rang-tasvir asarlari ko'rgazmalari namoyish etiladi.

So'nggi yillarda o'tkazib kelinayotgan Favvoralar sayli Samarqand xalqining eng ko'ngilochar bayramlari qatoridan joy egallamoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Samarqand shahrining tarixiy mavqeyi qayta tiklandi. Bunga qadar e'tibordan chetda qolib ketgan tarixiy obidalar restavratsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Shaharda xalqaro forumlar va konferensiyalar, simpoziumlarning o'tkazilishi uning jahon hamjamiyatida brend shahar sifatidagi nufuzini mustahkamlashga imkon yaratdi. Shaharda ko'plab sayyohlik firmalari, zamonaviy mehmonxonalar faoliyati yaxshi yo'lga qo'yildi. Mahalliy aholi tomonidan milliy hunarmandchilik, xususan, kashtachilik, yog'och o'yamkorligi, qog'ozgarlik shaharga kelgan sayyohlarga namoyish etilmoqda. Zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan kommunikatsiya, logistika, transport xizmati va yo'l qurilishi sohasida rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib borildi. Samarqand xalqaro aeroporti va temiryo'l vokzalida xizmat ko'rsatish va nazorat ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa, 2001–2003-yillarda shahar iqtisodida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar, sanoatda yangi yo'nalishlar (gilam, avtomobil, mebel ishlab chiqarish)ning yo'lga qo'yilishi, yangi qo'shma korxonalarining tashkil qilinishi, mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi, xususiy sektorning kengayishi eksport hajmining o'sib borishida namoyon bo'ldi.

2016–2021-yillarda Samarqandda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar sog'liqni saqlash tizimidagi islohot tufayli davlat tibbiy muassasalarining modernizatsiyasi, xususiy klinika va dispanserlar faoliyatining keng yo'lga

¹ www.samarkand.uz

qo'yilishi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilinishi, yangi texnologiya, diagnostika apparatlarining kirib kelishi, tibbiy xizmatning rivojlanishida namoyon bo'ldi. Shaharda madaniy muassasalar, xususan, madaniyat va istirohat bog'lari, sport maydonchalari va suzish havzalari yangicha qiyofada aks etdi. Xizmat ko'rsatish va servis zamonaviy asosda tashkil qilindi.

Samarqand shahrida ko'plab qurilish va bunyodkorlik ishlari olib borildi. Shaharda yangi binolar va inshootlar qad ko'tardi. Biroq shaharning tarixiy qismlarida qurilish va bunyodkorlik ishlarining tartibsiz ravishda olib borilishi madaniy obidalar holatiga salbiy ta'sir etayotganligi, bunga shaharning yaroqli bosh rejasining yo'qligi sabab bo'layotganligi kun tartibida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Shaharda migratsiya, immigratsiya, demografiya hamda aglomeratsiya masalalarida o'zgarishlar namoyon bo'ldi. Shahar aholisi salmog'ining mustaqillikning dastlabki yillarida (1990-yillarda) kamayishi boshqa millat vakillari (yahudiy, rus, belorus, polyak, koreys, ukrain, arman, ozarbayjon va b.)ning o'z tarixiy yurtlariga ko'chib ketishlari bilan izohlanadi. 2016-yildan boshlab shahar aglomeratsiya, ya'ni hududiy yaqin bo'lgan tuman shaharchalarining o'sishi hisobiga kengayib, aholi soni o'sib bormoqda.

2021-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3002 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 5329 kishini tashkil etdi. Migratsiyaning yuqori darajasi Samarqand shahri, Urgut, Qo'shrabod, Paxtachi va Pastdarg'om tumanlari hisobiga to'g'ri keldi. Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-apreldagi ma'lumotlarga ko'ra 3 962,5 ming kishini tashkil etadi. Jumladan, shahar aholisi soni 1 463,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 2 499,0 ming kishini (63,1 %) tashkil etadi. Eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 550800 kishi istiqomat qiladi, viloyatdagi ulush 14,0% ni, Urgut tumanida 13,2% ni, Pastdarg'om tumanida 9,1 % ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7 % ni tashkil etadi¹.

2016-yildan boshlab Samarqand shahrida gaz, elektr energiyasi, issiqlik manbayi, oqova tizimi, ichimlik suvi ta'minoti kabi sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni hal etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, bu sohadagi muammolar yechimini topganligi namoyon bo'lmoqda.

2021-yilda elektr energiya ta'minotida 1159,2 km elektr tarmoqlari tortilib, 309 ta transformator o'rnatildi va almashtirildi. 415,3 km elektr uzatish tarmog'i va 160 dona transformator punktlari ta'mirlandi².

¹ www.zarnews.uz

² www.samstat.uz

Gaz ta'minotida 18,1 km gaz tarmoqlari va 83 ta gaz taqsimlash punkti ta'mirlanib, aholiga 2740 ta gaz balloni yetkazildi. 22,3 km gaz tarmoqlari, 86 ta gaz taqsimlash punktlari va 2740 ta aholi xonadonlariga suyuqlashtirilgan gaz ballonlari yetkazib berildi¹.

Aloqa va axborotlashtirish tizimida 314 km masofada aloqa tarmoqlari va 171 ta bazaviy stansiya qurildi va ta'mirlandi. Amalda 413,9 km aloqa tarmoqlari, 140 ta bazaviy stansiyalar o'rnatildi va qolgan obyektlarda ishlar davom ettirilmoqda².

Xullas, mustaqillik yillarida Samarqand shahrida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohada amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari shahar taraqqiyotiga sezilarli ta'sir etdi. Ayniqsa, 2016–2021-yillarda turli sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va qo'lga kiritilgan natijalar yuksak bunyodkorlik samarasi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohaning barcha jihatlarida Samarqand shahri respublika shaharlari orasida yetakchi o'rinlarni egalladi. Bu 2017–2021-yillarda Samarqandda qurilgan yangi qo'shma va xorijiy korxonalar, xususiy zavod va fabrikalar, yangi erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, shahar infratuzilmasining yangilanishi (tramvay, tunnel, yo'llar, Qorasuv shaharchasi, «Samarkand city» va h.k.), turizmning rivojlanishi, ko'p qavatli turar joylar qurilishi kabi ijobiy o'zgarishlarda o'z aksini topdi. Shu bilan birga davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning bergan ko'rsatmalariga ko'ra, Samarqand shahrida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami talaygina. Bu vazifalarning bajarilishi, Samarqandda ishlab chiqarish hamda turizmni rivojlantirish maqsadida istiqbolda zamonaviy kommunikatsiya, innovatsiya, logistika, xizmat ko'rsatish va servis sohasini sifatli amalga oshirish jahon hamjamiyatida Samarqand shahrining brend shahar sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ www.samarkand.uz

² www.samstat.uz

XULOSA

Samarqand dunyo ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan Sug'd sivilizatsiyasi markazi hisoblanadi. Samarqand vohasi yodgorliklarining ko'pligi, xilma-xil va turli davrlarga oidligi bilan O'rta Osiyo madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi. Shahar hududi qadimgi tosh davrining o'rta bosqichidan boshlab o'zlashtirilgan. Shahar qadimgi madaniyatlarining xilma-xilligi, har bir davr va ularning tarixiy ketma-ketlikda jadal rivoj topgan bosqichlari insoniyat tarixida katta madaniy meros qoldirdi. Shuningdek, Zarafshon vohasida ibtidoiy madaniyatning qaror topishi, dehqonchilik manzillarining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyot davomida madaniyatlarning almashinuvi va davlatchilikning turli tarixiy bosqichlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarida Samarqand markaziy o'rin egallagan.

Samarqand Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bo'lib, u na faqat iqtisodiy markaz, balki turli din vakillari hamjihat yashab kelayotgan shahar hamdir. Samarqandning iqtisodiy salohiyati uning siyosiy barqarorligini ta'minlagan. Shu bois, Samarqand turli davrlarda qadim Sug'diyona markazi, Sug'd konfederatsiyasi markazi, qoraxoniylar davlati poytaxti, Amir Temur, temuriylar va shayboniylar (poytaxt Buxoroga ko'chirilgunga qadar) davlati poytaxti, 1868-yildan Zarafshon okrugi markazi, 1925-1930-yillarda O'zbekiston SSR poytaxti vazifasini bajargan. Shaharning taraqqiy etishi ko'proq uning geografik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu omillar Samarqandda shaharsozlik, san'at va madaniyatning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois bugungi kunda Samarqand qadimiy tarixi va me'moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan «ochiq osmon ostidagi muzey-shahar»ga aylangan.


Shaharda o'z davrida Mirzo Ulug'bek tomonidan «Ulug'bek akademiyasi»ga asos solingan. Sharq renessansining markazi ham Samarqand shahri edi. «Samarqandiy» taxallusi bilan yuzlab olimlar dunyoning turli mintaqalarida ilm-fan targ'ibotchisi bo'lganliklari, shaharning dunyo madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolatdir.

2007-yilda 2750 yilligi keng nishonlagan Samarqand shahrining infratuzilmasini tiklashga va shahar tarixiy obidalar restavratsiyasiga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov alohida e'tibor qaratgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ham shahar mavqeyini mustahkamlash va iqtisodiy salohiyatini ko'tarishga alohida e'tibor qaratdi. Barcha sohalar bo'yicha shaharni yanada rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Bu davrda shaharning turizm salohiyatini ko'tarishga alohida e'tibor berildi. Buning natijasi o'laroq, Samarqand shahri 2019-yilda «Jahon sayyohlik shaharlari» federatsiyasiga a'zo bo'lib, bugungi kunda tashkilot reytingida jahonda borib ko'rish lozim bo'lgan 50 ta shahardan biri maqomini saqlab kelmoqda.

SHARTLI QISQARTMALAR

- АРТ - Археологические разведки в Таджикистане.
ВДИ - Вестник древней истории.
ВИ - Вопросы истории.
Вып. - Выпуск.
ИАИ - Известия АН СССР.
ИВЛ - Издательство восточной литературы.
Изд. - Издательство.
ИМКУ - История материальной культуры Узбекистана.
КСИА - Краткие сообщения Института археологии АН СССР.
КСИВАН - Краткие сообщения Института востоковедений АН СССР.
КСИИМК - Краткие сообщения института истории материальной культуры.
Л - Ленинград.
ЛО - Ленинградский отдел.
ЛО ИВАН - Ленинградский отдел Института востоковедения Академии наук.
М - Москва.
МИА - Материалы и исследования по археологии СССР.
МИТТ - Материалы по истории туркмен и Туркмении.
МИЦАИ - Международный институт Центральноазиатских исследований.
НАА - Народы Азии и Африки.
ОНУ - Общественные науки Узбекистана.
ПВ - Проблемы востоковедения.
ППВ - Письменные памятники Востока.
РГАСПИ - Российский Государственный архив социально-политической истории.
СА - Советская археология.
Сб. Тр. - Сборник трудов.

CB	- Советское востоковедение.
SVDA	- Samarqand viloyati davlat arxivi.
CKCO	- Справочная книжка Самаркандской области.
CHB	- Страны и народы Востока.
СГЭ	- Сборник Государственного Эрмитажа.
СЭ	- Советская этнография.
СДГМ	- Согдийские документы с горы Муг.
СТ	- Советская тюркология.
СС	- Согдийский сборник.
СПб	- Санкт-Петербург.
Соч.	- Сочинения.
Т.	- Том.
ЭВ	- Эпиграфика Востока.
TDSHI	- Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
ТОЭВ	- Труды отдела Востока государственного Эрмитажа.
Тр. ТАЭ	- Труды Таджикской археологической экспедиции.
ТХАЭ	- Труды Хорезмской археологической экспедиции.
УМЭД	- Университет мировой экономики и дипломатии.
baqtr.	- baqtriycha.
sug'd.	- sug'diycha.
O'zMA	- O'zbekiston Milliy arxivi.
O'zME	- O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
O'zRPDA	- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining arxivi.
O'zSE	- O'zbek sovet ensiklopediyasi
AEMA	- Archivum Eurasiae Medii Aevi.
BGA	- Bibliotheca Geographorum Arabicorum.
CAJ	- Central Asiatic Journal.
SPAW	- Sitzungsberichte der Preussischen Akademie der Wissenschaften.
SI	- Studia Iranica.
JRAS	- Journal of the Royal Asiatic Society.
JOAS	- Journal of the American Oriental Society.
HJAS	- Harvard Journal of Asiatic Studies.



Samarqand makoni. Tosh buyumlar:

1, 2 – iskanasimon qurollar; 3–5, 8, 11, 19 – retushlangan plastinalar va uchirindilar; 6 – tosh bigiz; 7, 4 – qirg'ichlar; 9, 10, 12–16 – qirg'ichchalar; 18, 22, 23 – nukleuslar; 20 – ko'p fasetkali kesgich; 21 – chopper (D.N.Lev, M.D. Djuraqulov va G.F.Korobkovalar bo'yicha. 1987).




Afrosiyob shahri quyi qatlamlari g'ishtlari.



Ko'ktepa quyi qatlamlari g'ishtlari.



Afrosiyob shahar xarobasining yuqoridan ko'rinishi.




Afrosiyobdan topilgan sug'diy yozuvli tarozi toshi.



Afrosiyob devoriy suratlaridagi sug'diy yozuv.



«Xoqon» unvonida zarb etilgan Samarqand hukmdorligi tangalari.



Xitoy yilnomalari asosidagi Sug'dning ilk o'rita asdlar xaritasi.



Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek haykali.



Amir Temur qabrining ochilishi.



Aleksandr Morrissoning «Russian Rule in Samarkand» kitobidan olingan xarita.



XIX asr 60-yillarida Samarqand shahrining sxematik rejasi:


- 1 – Buxoro darvozasi, 2 – Xo'ja Ahror darvozasi, 3 – So'zangaron darvozasi,
 4 – Qalandarxonah darvozasi, 5 – Hazrati Shohizinda darvozasi,
 6 – Xayrobod darvozasi.



XIX asrda Samarqand shahri xaritasi.



Shahar qal'asining 1868-yil iyun oyidagi ko'rinishi.



Ko'ktosh (Buxoro amirlarini taxtga o'tqazish marosimi o'tkazilgan joy).



Qutbu-chahorduhum maqbarasi.



Temuriylar davri qal'asining XIX asrning 70-yillardagi ko'rinishi.




Gala-chashma mahallasi.




Registon maydonidagi Sherdor madrasasining XIX asr oxirlaridagi ko'rinishi.



Samarqanddagi savdo rastalari (XIX asr oxiri).



Hazrati Xizr majmuasining XIX asr oxiri va hozirgi kundagi ko'rinishi.



Registon maydoni. XIX asr oxiri va bugungi kundagi ko'rinishi.



Bibixonim majmuasi. XIX va XXI asrdagi ko'rinishi.



Xoja Doniyor maqbarasining o'tmishdagi va hozirgi holati.



Toshkent ko'chasi. XIX asr ikkinchi yarmi.



Izvosh (ot-arava) xizmati. Toshkent ko'chasi.




Shohizinda ansambli.



Choy rastalari. XIX asming so'nggi choragi.



Abramov bulvari. XIX asr.



Ofitserlar uyi.



Zarafshon okrugi gubernatori qarorgohi.



Xotin-qizlar gimnaziyasi.



Jamoatchilik kutubxonasi. XX asr boshlari.



Samarqand tramvayi. O'tmish va bugun.



O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovga atab Registon maydoni yonidagi xiyobonda o'rnatilgan haykal.



Samarqanddagi Amir Temur haykali.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zlamog'ida.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Абасов В.И.* Среднеазиатский политический термин афшин // ВДИ, 1959. – №2.
- Абдулмизова Н.* История национальной журналистики (генезис и эволюция). В 2-х томах. Т 1. – Ташкент: Шарк, 2012.
- Абдуллаев В.* Навоинские чтения и последователи Навои в Бухаре в XIX веке // Общественные науки в Узбекистане, 1962, №4.
- Абдуллаев Д.* О культурном наследии Согда в мусульманской Средней Азии // Раннесредневековая культура Средней Азии и Казахстана. Тезисы Всесоюзной научной конференции. – Душанбе: Донш, 1977.
- Abdullayev I., Hikmatullayev X.* Samarqandlik olimlar. – Toshkent, 1969.
- Абдуразаков А.А.* Сравнительное изучение химических составов средневековых стекол из разных частей Афрасиаба // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 23. – Ташкент, 1990.
- Абрамов М.* Бухарские евреи в Самарканде (1843–1917 гг.). – Самарканд, 1993.
- Абрамов М.М.* Из истории производства Самаркандской бумаги // Общественные науки в Узбекистане. 1968, №12.
- Abriyev R.B.* O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me'moriy obidalami ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari (Zarafshon vohasi misolida). – Toshkent: Fan, 2015.
- Agzamova G.* O'rta Osiyo xonliklari: poytaxt shaharlar tarixiga oid ayrim ma'lumotlar // O'zbekiston o'rta asrlarda: tarix va madaniyat. – Toshkent, 2003.
- Agzamova G.A.* XVI – XIX asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda Samarqandning tutgan o'rni // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007.
- Azamat Ziyov.* O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
- Акимюшкин О.Ф.* Ханах // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991.
- Аконджанян В.А.* Концепция генерального плана города Самарканда в аспекте сохранения его исторического наследия // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2005-yil, №1.
- Александр Галак.* Первые строители и архитекторы европейской части Самарканда // Самаркандский вестник. 17 ноября 2018 г. № 90, 91.
- Алимов А.* Развитие торговли в Туркестане конца XIX века // Общественные науки в Узбекистане. 1969, №6.

Alimov O. O'rta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi. – Toshkent, 1984.

Alimova D.A., Buryakov Y.F., Raxmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Tashkent: Art-Flex, 2009.

Алиблум А.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975.

Альмеев Р. Исследования и материалы по истории и этнографии Бухарских евреев. – Бухара, 1998.

Аминов Н., Иброхимов Н. Samarqand – frontga. – Samarqand: So'g'diyona, 1994.

Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: Sharq, 1996.

Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии (V – начало XIII в.). – Ташкент: Фан, 1981.

Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). – Алматы: Дайк-пресс, 2004.

Аржанцева И.А. Новые хозяева Азии // Материалы международной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения С.П.Толстова. – Нукус, 2007.

Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 1994.

Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура Южного Узбекистана // Под ред. М.П.Грязнова. – Ташкент: Фан, 1977.

Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии // Под ред. Н.И. Гуллева. – Самарканд, 1993.

Atadjanov Sh., Ilhomov Z., Ishqirvatov V., Allayeva N. O'zbek xonliklari tarix-shunosligi. – Toshkent, 2011.

Атаходжаев А.Х. К ранней истории Саманидского монетного чекана Шаша // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Материалы международной научной конференции, посвященной 2200-летию юбилею города Ташкента. – Ташкент: Фан, 2009.

Атаходжаев А.Х. Центральнаазиатские медные монеты VIII–X вв. как исторический источник: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1998.

Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.

Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (Qadimgi va o'rta asrlar). – Toshkent, 1991.

Ahmedov M.K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent, 1995.

A'zamova G.A. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – Toshkent, 2000.

Любов А.Р. Топонимы Уструшаны: истоки их происхождения и значения. – СПб., 2009.

Бабаяров Г. Государственный строй Западно-тюркского каганата: автореферат дисс. на соиск. ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 2012.

Бабаяров Г., Кубатин А. Заметки к происхождению некоторых титулов Карханидского каганата и их параллели в титулатуре Западно-тюркского каганата / История и культура Центральной Азии. History and Culture Central Asia. – Tokyo: 2012.

Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом «хатун» // Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari. V to'plam. 2-qism. – Toshkent: TDSHI, 2013.

Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу об употреблении титула МРҮ в Средней Азии (по нумизматическим данным) / Согдийский сборник. Выпуск 2. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане // Ред. Ш. Камалиллин. – Lambert Academic Publishing: LAP, 2015.

Бабаяров Г., Кубатин А. К новой интерпретации имени правящего рода Самарканда из надписей в росписях Афрасиаба // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rnini. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007.

Бабаяров Г., Кубатин А. К новому чтению и интерпретации легенд на некоторых доисламских монетах Самаркандского Согда // Tarix tafakkuri. «Barkamol avlod» yiliga bag'ishlangan respublika tarixchi olimlarining ilmiy ishlar to'plami / Mas'ul muhar. va tuzuvchi: Sh.H. Vohidov. – Vuxoro, 2010.

Бартольд В.В. Абу Муслим // Сочинения. Том 7. – Москва: Наука, 1971.

Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Сочинения. Том III. – Москва: 1965.

Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том I. – Москва: Наука, 1963.

Бартольд В.В. Улугбек и его время / Соч., Том 2, ч. 2. – Москва, 1964.

Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том. II. Часть 1. – Москва: Наука, 1963.

Бартольд В.В. Работы по исторической географии и истории Ирана // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том VII. – Москва: Наука, 1971.

Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии // Академик В.В. Бартольд. Сочинения. Том. II. Часть 2. – Москва: Наука, 1964.

Бартольд В.В. О христианстве в Туркестане в домонгольский период / Соч. – Москва: Наука, 1964. Том 2 (2).

Bahodirov I. Said Bahodirxon va Safoxo'ja. – Toshkent, 2018.

Беленицкий А.М., Маршак Б.И. Черты мировоззрения согдийцев VII-VIII вв. в искусстве Пенджикента // История и культура народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1976.

Беленицкий А.М. Вопросы идеологии и культов Согда (по материалам пенджикентских храмов) // Живопись древнего Пенджикента. – Москва, 1954.

Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись, скульптура. – Москва: Искусство, 1973.

Беленицкий А.М. Раскопки согдийских храмов // Москва, 1953, МИА. – №37.

Беленицкий А.М., Белтович И.Б., Больняков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973.

Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924). – Москва, 1960.

Бердимуратов А., Маттелини С., Матбабаев Б. Кафиркала – загородная резиденция Самаркандских правителей / Samarqand shahrining umumbashariy

madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rnini. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

Berdimurodov A.Э., Лебедева Т.И. Исследования 2000 года на мазаре Чакарниза в городе Самарканде // Археология, нумизматика и эпиграфика средневековой Средней Азии. Материалы научной конференции, посвященной 60-летию со дня рождения Б.Д.Кочнева. – Самарканд, 2000.

Berdimurodov A. Samarqand tarixidan tomchilar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

Berdimurodov A., Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo'li (qit'alar va asrlar osha). – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

Бернар П. Греческий город на Оксе / В мире науки. Scientific Amerikan. Изд. на русск. яз. – Москва, 1983. – №1.

Бернар П. Проблемы греческой колониальной истории и урбанизма эллинистического города Центральной Азии. Проблема античной культуры. – Москва, 1986.

Бернар П., Исамиддинов М., Соколовская Л. Основные результаты работы узбекско-французской экспедиции на Афрасиабе в 1990–1991 гг. / ОНУ. – Ташкент, 1994, № 3–4.

Бернар П., Исамиддинов М.Х., Соколовская Л. Первый полевой сезон узбекско-французской экспедиции на Афрасиабе / ОНУ. – Ташкент, 1990. №6.

Бертельс Е.Э. Навои и Джамии. – Москва, 1965.

Бенгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абул-Касима ибн-Хаукаля. Труды Среднеазиатского государственного университета им. В. И. Ленина. – Ташкент, 1957, вып. IV. Пер. Е. К. Бенгера, комментарии Д. Ю. Арапова. Материалы по истории СССР. Выпуск 1. – Москва, 1985.

Boboyorov G'. Turk xoqonligi tashqi siyosatida nikoh munosabatlarining o'rnini // O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011.

Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining o'z vassallarini boshqaruvida qo'llagan usul va vositalari masalasiga doir // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2011. №4.

Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ikk o'rta asrlar). – Toshkent: Yangi nashr, 2010.

Boboyorov G', G'oyilov B., Kubatov A. Ikk o'rta asr Samarqand tangalarida «Turon» toponimi / O'zbekiston arxeologiyasi. 2015. №2 (11).

Боймолулов С.Г. Земледельческо-скотоводческая культура верховья Зарафшана во II тысячелетии до н.э.: Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Душанбе, 1996.

Bodirov A. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida. – Samarqand: Zarafshon, 2015.

Большаков О.Г. Город в конце VIII – начале XIII в. // *Беленицкий А.М., Бенетович И.Б., Большаков О.Г.* Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.

Большаков О. Мазар // *Ислам. Энциклопедический словарь.* – Москва: Наука, 1991.

Большаков О. Минара // *Ислам. Энциклопедический словарь.* – Москва: Наука, 1991.

Большаков О. Масджид // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991.

Большаков О.Г., Негматов Н.Н. Раскопки в пригороде древнего Пенджикента // МИА. – Москва, 1959. №66.

Большаков О.Г. Отчет о раскопках северо-восточной части объекта III // МИА. – Москва, 1964. – №124.

Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгач-хана в Самарканде // Страны и народы Востока. Выпуск X. – Москва, 1971.

Буниятов Д.З., Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. // Восточное историческое источниковедение и вспомогательные исторические дисциплины. Вып. 2. – Москва: Наука, 1994.

Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. – Москва: Наука, 1986.

Буряков Ю.Ф. К вопросу о связях Согда и Индии в древности и раннем средневековье // Индия и Центральная Азия (доисламский период). – Ташкент, 2000.

Буряков Ю.Ф. Некоторые материалы к исторической топографии шахристана Самарканда. Афраснаб III. – Ташкент: Фан, 1974.

Буряков Ю.Ф. Христианство в Средней Азии в древности и средневековье / Культура народов Центральной Азии. Религия и демократия. – Самарканд: МИ-ЦАИ, 1999.

Буряков Ю.Ф., Садиев М., Федоров М.Н. Соборная мечеть Самарканда в XI – начале XIII вв. // Афраснаб. Выпуск IV. – Ташкент, 1975.

Буряков Ю.Ф. Христианство на Великом шелковом пути // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994.

Бурякова Э.Ю. Поселение Лолазор – предшественник города на Афраснабе. В кн. К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981.

Бурякова Э.Ю. Археологические раскопки и наблюдения в рабаде Самарканда IX–X вв. // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 13. – Ташкент: Фан, 1977.

Бурякова Э.Ю. Раскопки бань на территории средневекового Самарканда // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 20. – Ташкент, 1986.

Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры. Кочевники на границах Хорезма // ТХАЭЭ. Том IX. – Москва 1979.

Valixojayev B. Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

Вафлев Г., Иванитский И.Д. Лайлакуятепе – раннеантичное сельское поселение Самаркандского Согда / Тезисы докладов конференции молодых ученых республики «O'zbekiston qadimda va o'rta asrlarda». – Самарканд, 1992.

Вейлмарн Б.В. Регистан в Самарканде. – Ташкент, 1946.

Ворожейкина З.Н. Описание персидских и таджикских рукописей Института Востоковедения. Выпуск 7. – Москва: Наука, 1980.

Вороновский Д.Г. Астрономы Средней Азии от Мухаммеда ал-Харазми до Улугбека // Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965.

Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе: Ирфон, 1989.

Гинзбург В.В., Гохман И.И. Костные останки человека из Самаркандской палеолитической стоянки. Проблемы этнической антропологии и морфологии человека. – Л.: Наука, 1974.

Гойилов Б. К нумизматический истории Согда // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник. Samarqand, 2016. №4 (98).

Гойилов Б. Согдийская конфедерация: формирование и особенности // Отан тарихи. Ўғиллари журнал. – Алматы, 2015. №3. (71).

Голованов А.А, Саидов И.М. Вклад Узбекистана на победу над фашизмом. Часть I–II. – Самарканд: Изда. СамГУ, 2006.

Голубков И.В. Путешествие в Бухару // Туркестанский сборник. – СПб., 1870. Том 38.

Григорьев Г.В. Поселения древнего Согда (по данным исследования городищ Самаркандского района) / КСИИМК VI. – М. – Л., 1940.

Григорьев Г.В. Тали-Барзу как памятник домусульманского Согда. Архив республиканского Музея Истории, культуры и искусства Узбекистана. – Самарканд, 1941, № 636.

Гулямов Я.Г., Буряков Ю.Ф. Об археологических исследованиях на городище Афрасиаб в 1967–1968 гг. // Афрасиаб. Выпуск 1. – Т., 1969.

Гуманенко А. Октябрь в старом городе Самарканде. – Ташкент, 1933.

Давидович Е.А. Денежные хозяйства Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Масудбека (XIII в.). – Москва: Наука, 1972.

Dadaboyev X. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.

Dadaxonov F. Nodir qo'lyozmalar hazinasi // Jamiyat. 2008-yil 4-yanvar.

Джуракулов М.Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987.

Джуракулов М.Д., Сулейманов Р.Х. Новые находки останков первобытного человека на Самаркандской палеолитической стоянке // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1973. – № 10.

Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит введного Зарафшана. – Ташкент, 1991.

Djurakulova D.M. Zarafshon vodiysining tosh va bronza davri madaniyati. – Toshkent, 2011.

Додхудоева Л.Н., Эпиграфические памятники Самарканды XI–XIV вв. Т.1. – Душанбе: Донш, 1992.

Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Отв. ред. тома Г.А.Кошеленко. – Москва, 1985.

Дьяконов И.М. История Мидии. – М.-Л., 1956.

Yoqidov Z. Samarqand qog'ozining siri // Jamiyat. 2011. 14-yanvar. №2 (223).

Jau Puer Adam (Fransiya) // Sharq yulduzi, 2007. №3. 128-b.

Jo'raqulov M.J. O'rta Osiyo ibtidoiy arxeologiyasi. – Toshkent, 1984. I qism.

Jo'raqulov M.J., Avanesova N.A., Amirkulov B.A. Zarafshon vohasining ibtidoiy madaniyati. – Samarqand, 1995.

Jo'raqulova D.M. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda paleolit davrining o'rganilishi. – Toshkent: Fan, 2019.

Земсков В.Н. Судьба «кулацкой ссылки» (1930–1954 гг.) // Отечественная история. 1994. № 1.

Ziyayeva D. O'zbekiston shaharlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida). – Toshkent, 2013.

Зубов А.А., Гохман И.И. Некоторые дополнительные одонтологические данные в связи с описанием костных останков человека с палеолитической стоянки Самарканд // Вестник антропологии. Научный альманах. – Москва: Наука, 2003. – № 10.

Зубев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. – Алматы: Дайк-пресс, 2002.

Zuhra Zarshinos. Sug'd tiliga umumiy bir nigoj / SINO, ilmiy-adabiy, falsafiy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2010. 37–38–39–40-sonlari.

Ивантцкий И.Д. Христианская символика в Согде // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994.

Ивантцкий И.Д., Иневаткина О.Н. Периодизация и этапы развития водоснабжения Афрасиаба (по материалам раскопок магистрального канала в 1996–1997 гг.) // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 30. Под редакцией Т.Ш. Ширинова. – Самарканд, 1999.

Ивантцкий И.Д. К истории сложения соборной мечети на Афрасиабе. // Культура древнего и средневекового Самарканда и исторические связи Согда. Тезисы докладов советско-французского коллоквиума. – Ташкент, 1990.

Иванов Д.А. Русская земля Самарканд // Туркестанский сборник. – СПб., 1873–75. – №77.

Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – М., 1958.

Ильясов Дж.Я. Об этнической принадлежности правителей Пенджикента // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент, 2004. Вып. VIII.

Иневаткина О.Н. Акрополь древнего Самарканда в структуре города (VI в. до н.э. – V в. н.э.): Диссертация на соиск. ... канд. ист. наук. – Москва, 1995.

Иневаткина О.Н. Цитадель Афрасиаба (работы 1977–1979 гг.) // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 18. – Ташкент, 1983.

Irisov A., Nosirov A., Nizomitdinov I. O'rta osiyolik qirq olim. – Toshkent: O'zSSR FA, 1961.

Irisqulov O.J. XIX asrda Samarqandda qog'oz hunarmandchiligi // O'zbekiston davlatchiligi tarixi masalalari ilmiy to'plami. SamDU. 2015.

Исамиддинов М., Раниев К. Некоторые новые данные к проблеме ранней урбанизации на территории Самаркандского Согда. O'zbekiston urbanistik madaniyati. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2003.

Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблема взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент: Издательство народного наследия им. А.Кадыри, 2002.

Исамиддинов М.Х. Стратиграфия древнейших слоёв Еркургана // ИМКУ, вып. 17, 1982.

Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Ташкент: Фан, 1984.

Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х., Иваницкий И.Д. Раскопки в северной части «культового комплекса» и в «резиденции правителя» городища Коктепа. Археологические исследования в Узбекистане 2002 год. – Ташкент, 2003.

Исмаилов Ш. Народное образование в Узбекистане в конце XIX – начале XX в.: Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981.

История народов Узбекистана. – Ташкент, 1950.

История народов Узбекистана. Том 1. С древнейших времен до начала XVI в. – Ташкент, 1960.

История Самарканда. В двух томах / отв. ред. И.М. Муминов. Ташкент: Фан, 1969. Том I. С. 265.

История Узбекской ССР. В четырех томах. С древнейших времен до середины XIX века / отв. ред. Я.Г. Гулямов. – Ташкент: Фан, 1967. Том 1.

Исхаков М.М., Ташходжаев Ш.С., Ходжаев Т.К. Раскопки Коштепе // ИМКУ. – Ташкент, 1977. Вып. 13.

Is'hoqov M.M. Sug'diyona – tarix chorrahasida. – Toshkent: Fan, 1990.

Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992.

Кабанов С.К. Нахшабские монеты V–VII вв. // ВДИ. 1961. – № 1 (75).

Кабанов С.К. Раскопки лессовой стены на городище Афрасиаб. ИМКУ. Вып. 26. – Ташкент, 1992.

Кабанов С.К. Стратиграфический раскоп в северной части городища Афрасиаб. Сб. Афрасиаб. Вып. II. – Ташкент, 1973.

Кадырова Т. Из истории крестьянских восстаний в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965.

Камалиддинов Ш.С. «Китаб ал-ансаб» Абу Саъда Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Самани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент, 1993.

Камалиддинов Ш.С. Новые данные о потомках царя Согда Гурака // ОНУ. – 2003. – №3.

Камилов М. Ас-Самарканди // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Выпуск 3. – Москва, 2001.

Кандия Малая / Перевод с персидско-таджикского В.Вяткина // Справочная книга Самаркандской области. Выпуск 8. – Самарканд, 1906.

Карев Ю.В. Нижняя площадка цитадели Афрасиаба в домонгольский период – исследования узбекско-французской экспедиции 1991–2007 гг. // Древние цивилизации на Среднем Востоке. Археология, история, культура. Материалы международной научной конференции, посвященной 80-летию Г.В. Шишкиной. Под редакцией С.Б. Болелова. – Москва, 2010.

Кары-Ниязов Т.Н. Астрономическая школа Улутбека. – Москва–Ленинград: Изд. АН СССР, 1950.

Кармишева Б.Х. Этнические и территориальные группы населения северо-восточной части Кашкадарьинской области Узбекской ССР. – Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. Вып. XXXIII. – Москва, 1960.

Kattayev K. Samarqandning buyuk allomalari. – Samarqand: Zarafshon, 2006.

Kattayev K. Samarqand madrasalari, ilm-fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003.

Кельдиев Т.Х. Разгром контрреволюции в Ферганской и Самаркандской областях Туркестанской АССР (1918–1923 гг.). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959.

Кенджаев Ш.Ю. Государственно-правовые взгляды Джами: автореферат дисс. на соиск. кан. юридических наук. – Худжанд, 2003.

Qilichev R. Olamda yaxshi qog'az Samarqanddin chiqar... // Quyil Zarafshon vohasi: ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayoti tarixi (ikkinchi kitob). – Toshkent: Fan, 2007.

Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийский надпись из Бугута // СНВ. – Москва: Наука, 1971. Вып. X.

Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – Санкт-Петербург: Наука, 2006.

Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – Санкт-Петербург: филологический факультет СПбГУ, 2005.

Князятский Б.П. Очерки по истории медико-санитарного дела в Самарканде и Самаркандской области. – Самарканд, 1944.

Койлева О.П., Тухтайсков К. Очерки по истории торговли и предпринимательства в Узбекистане. – Ташкент, 2014.

Koriyev O. Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.

Коробкова Г.Ф., Джуракулов М.Д. Самаркандская палеолитическая стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии: (специфика техники расщепления и хозяйственно-производственной деятельности) // Stratoplus. – 2000. – Вып. 1.

Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865–1917 гг.). – Ташкент, 1966.

Кочнев Б.Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 16. – Ташкент, 1981.

Кочнев Б.Д. Караханидские монеты: источниковедческое и историческое исследование. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Москва, 1993.

Кочнев Б.Д. Караханидский каганат // Очерки по истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Шарк, 2001.

Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209). Часть 1. Источниковедческое исследование. – Москва: София, 2006.

Кочнев Б.Д. О так называемом мавзолее караханида Ибрахима б. Хусайна // Культура древнего и средневекового Самарканда и исторические связи Согда. – Ташкент, 1990.

Крачковская В.И. и акад. Крачковский И.Ю. Древнейший арабский документ из Средней Азии // СС. – Л., 1934.

Кубатин А.В. Система титулов в Тюркском каганате. Генезис и преемственность. – Ташкент: Yangi nashr, 2016.

Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. – Toshkent: Fan, 2009.

Kuraxmedov A., Sidikova M. Mustaqillik yillarida Samarqand shahri: bunyodkorlik va taraqqiyot. – Samarqand, 2016.

Курпалдис Г.М. Институт городских раисов при Сельджукидах (по «Атабат ал-катаба») // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – Москва: Наука, 1979.

Кыласов А.Р. Историко-культурное взаимодействие иранских и тюркских народов в средние века (язык, письменность, религия) // Вестн Московского Уни-верситета. Сер. 8. 2004. – № 3.

Латышев В.В. Известия древних писателей о Скифах и Кавказе // ВДИ. – 1947. – № 1.

Лебедева Т.И. Сельская округа и её роль в формировании раннесредневекового Самарканда (по материалам сельской округи Самарканда). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1994.

Лев Д.Н. Пещера эпохи палеолита в близ г. Самарканда / «Природа», № 6. – Москва, 1953.

Лев Д.Н. Поселение древнекаменного века в Самарканде. Исследования 1958–1960 гг. // Труды Самаркандского Государственного университета. Новая серия. – Самарканд, 1964. – Вып. 135.

Лившиц В.А. Надписи на фресках из Афрасиаба // Тезисы докладов сессии, посвященной истории живописи стран Азии. – Л., 1965.

Лившиц В.А. Правители Панча (согдийцы и тюрки) // НАА. – Москва: Наука, 1979. – № 4.

Лившиц В.А. Правители Согда и «цари хуннов» в китайских династических историях // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. IX годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР (аннотации и краткие сообщения). – Москва, 1973.

Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб., 2008.

Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, II) // ППВ. – Москва, 2008. №1 (8).

Лившиц В.А. Согдийские тексты, документы и эпиграфика / Источниковедение Кыргызстана (с древности до XIX в.). – Бишкек: Илим, 2004.

Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – Москва: Наука, 1981.

Лившиц В.А. Согдийские и бактрийские настенные надписи на городище Афрасиаб/ Royal Nauruz in Samarkand Proceedings of the Conference Held in Venice on the Pre-Islamic Paintings at Afrasiab. Pisa-Roma: 2006.

Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город (Местные традиции и иноземные модели) Древний Восток. Города и торговля (III–I тысячелетия до н.э.). – Ереван, 1973.

Литвинский Б.А. Домусульманские истоки среднеазиатской цивилизации X–XI вв. // Абу Али ибн Сино и его эпоха. – Душанбе, 1980.

Литвинский Б.А., Пичикян И.Р. Археологические открытия на юге Таджикистана. Вестник АН. – Москва, 1980. №7.

Литвинский Б.А., Пичикян И.Р. Тахти-Сангин – Каменное городище / АРТ. Вып. 19 (1970). – Душанбе, 1986.

Лурье П. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2004.

Лурье П.Б. Согдийские документы из раскопок раннесредневекового Мартшката // Индоевропейское языкознание и классическая филология – XVI. Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. г. Санкт-Петербург, 18–20 июня 2012 г. – СПб., Наука, 2012.

Лурье П.Б. О следах манихейства в Средней Азии // Согдийцы, их предшественники, современники и наследники: на основе материалов конференции «Согдийцы дома и на чужбине», посвященной памяти Б.И. Маршака. – Санкт-Петербург: издательство Государственного Эрмитажа, 2013.

Лушпенко О.Н. Раннежелезный век Южного Согда (по материалам памятников Китабского и Яккабагского районов). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Самарканд, 1998.

Malikov A. Samarqand qo'zg'oloni // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T. 7. – Toshkent, 2004.

Маликов А.М. Самарканд в начале XIX века // Эхо истории. №4. 2010.

Маликов А.М. Культура Самарканда второй половины XVIII – первой половины XIX в. // Культурно-исторические процессы в Центральной Азии (древность и средние века). – Алматы: Дайк-пресс, 2012.

Маликов А.М. Городское планирование и историческая топография Самарканда в эпоху Амира Темура // Temuriylar davri yozma merosining tarqalishi. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Mashhur press, 2016.

Маликов А. Преподаватели медресе Самарканда в начале XX века: дискуссии о реформах // O'rta asrlardagi Samarqand madrasayi oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta'lim tizimining taraqqiyotidagi roli. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand shahri, 2017-yil 13–14-oktabr. – Samarqand: TIKА, 2017.

Маликов А.М. История Самарканда (с древних времен до середины XIV века). Том I. – Ташкент: Paradigma, 2017.

Маликов А.М. Городское планирование и цитадель Самарканда в эпоху Амира Темура // Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o'rni. Respublika konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Mashhur press, 2017.

Маликов А.М. Благоустройство святых мест Самарканда в эпоху Амира Темура // Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib

qilinishning umumbashariy ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan, 2019.

Маликов А.М. Медресе Самарканд в государственной политике Бухарского эмирата и Российской империи (конец XVIII – начало XX в.) // История и археология Турана. №4. – Самарканд, 2019.

Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М. – Л., 1951.

Мамарахимова Б. Дворцовое хозяйство и управление хозяйственными отношениями в Согде (по данным документов с горы Муг) / Согдийский сборник. Выпуск 2. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согды в Узбекистане // Ред. Ш. Камалиддин. – Lambert Academic Publishing: LAP, 2015.

Мартьянов А.И. Вопросы истории и археологии Сибирского средневековья // Этнокультурные процессы в Южной Сибири и Центральной Азии в I–II тысячелетиях н.э. – Кемерово, 1994.

Массон М.Е. Самарканд времени Улугбека / Звезда Востока, 1958, №5.

Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Ташкент: Фан, 1973.

Массон М.Е. Фрагменты надписи Караханидского мавзолея с городища Афрасиаб // Эпиграфика Востока. Выпуск XX. – Ленинград: издательство АН СССР, 1971.

Массон М.Е. Местонахождение сада Тимура Давлатабад / Отдельный оттиск известии Средазкомстарпса, вып. 3. – Ташкент, 1928.

Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988.

Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. – Самарканд: Изд. ЦКР РУз, 1926.

Mahmudov M. Barhayot siymolar. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.

Meц Адам. Мусульманский ренессанс / Перевод с немецкого, предисловие, библиография и указатель Д.Е.Бертельса. – Москва, 1996.

Mingurov A. Turkistonda 1917–1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

Мончадская Е.А. О «царском городе» или «второй столице» Согдианы / ВДИ. – Москва, 1959, №2.

Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь // МИА. – Москва, 1953. – № 37.

Морган Л.Г. Древнее общество. – Лондон, 1877.

Мукминова Р.Г. К истории ремесленных мастерских кархана // Средневековый Восток. История, культура, источниковедение. – Москва, 1980.

Мукминова Р.Г. Народы Узбекистана в XVI – первой половине XVIII в. Государство Шайбанидов и Джанидов (Аштарханидов) // История Узбекистана Т. III. – Ташкент, 1993.

Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: Fan, 1971.

Murodova Sh. XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Samarqand viloyati misolida). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 1999.

Муртализаева Р.Х. Толерантность – как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 2010.

Мусакаева М. Монеты Гиркода // ИМКУ. 2004. – №34.

Мухамеджанов А.Р. К вопросу о водоснабжении Афрасиаба / Сб. Афрасиаб, вып. I. – Ташкент, 1969.

Мухамедов Ш.Б. Историко-источниковедческий анализ государственного регулирования ислама Российской империей в Туркестане (1864–1917). – Ташкент: BAKTRIA PRESS, 2013.

Мухтаров А. Джейхани о городах Мавераннахра // Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент, 1990.

Мухтаров А.М. Позднесредневековый Балх: Материалы к исторической топографии города XVI – половине XVIII вв. – Душанбе: Дониш, 1980.

Muqimov Z. Shayboniyalar davlati va huquqi. – Toshkent: Adolat, 2007.

Muhammadjonov A., Rajabov Q. Amir Temur. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.

Muhammadjonova B. Saidahmad Vasliy Samarqandiyning madrasalar faoliyati haqidagi mulohazalari // O'rta asrlardagi Samarqand madrasai oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta'lim tizimining taraqqiyotdagi roli. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2017.

Nabiyev F. 1612–1642-yillarda Samarqand shahri boshqaruvi / Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2018. – №3 (81).

Назарьян Р.Г. Армяне Самарканда. – Москва, 2007.

Nazimov A. Qizlar tarbiyasi. – Toshkent: Kamalak, 1994.

Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913.

Наливкин В.П., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганской области. – Казань, 1886.

Несматов Н.Н. Государство Саманидов. – Душанбе: Дониш, 1977.

Немцева Н.Б. Стратиграфия южной окраины Афрасиаба. Афрасиаб. Вып. – I. – Ташкент, 1969.

Немцева Н.Б. Медресе Тамгач Богра-хана в Самарканде (из археологических работ в ансамбле Шахи-Зинда) // Афрасиаб. Выпуск 3. – Ташкент, 1974.

Никитин А.Б. Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье). Восточный Туркестан и Средняя Азия. – Москва, 1984.

Остонова Г.Р. Темурийлар даври миниатюра санъати / Міжнародний науковий журнал. 2016. №6.

Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. К.П. фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. 1899.

Остроумов Н.П. Народное образование. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. Т. 418. – Ташкент, 1889.

Otaxo'jayev A. İlk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. – Toshkent, 2010.

Очерки становления и развития экстренной медицинской помощи в Самарканде / Под ред. д.м.н. Садикова Р.А. – Ташкент: Издательство медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино, 2004.

Ochil Dov. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li / Nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif. – Toshkent: O'zadabiynashr, 1963.

Паикова А.В., Маршак Б.И. Сирийская надпись из Пенджикента // КСИА. – Москва, 1976. – № 147.

Пален К.К. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенный по величайшему повелению сенатором графмейстром графом К.К.Паленом. 1910.

Pardayev M. IX–X asrlarda Jizzax – g'oziyar shahri // Tarix va qadriyatlar. – Toshkent, 2015.

Пардеев М.Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1997.

Пачос М.К. К изучению стен городища Афрасиаб / СА. 1967, №1.

Петрушевский И.П. Применение рабочего труда в Иране и сопредельных странах в позднее средневековье (К проблеме рабовладельческого уклада в феодальных обществах Передней и Средней Азии // XXV Международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. – Москва, 1960.

Петрушевский И.П. Иран и Азербайджан под властью Хулагуидов (1256–1353) // Татаро-монголы в Азии и Европе. Издание 2-е переработанное и дополненное. – Москва: Наука, 1977.

Петрушевский И.П. Поход монгольских войск в Среднюю Азию в 1219–1224 гг. и его последствия // Татаро-монголы в Азии и Европе. Издание 2-е переработанное и дополненное. – Москва: Наука, 1977.

Пидаса Ш.Р. Стратиграфия городища Старого Термеза в свете новых раскопок. Городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. Античность, раннее средневековье. – Ташкент: Фан, 1987.

Pirimqulov Sh.D. XIX asri oxiri – XX asr boshlarida Samarqanddagi xorijiy tadbirkorlar faoliyati tarixidan / Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007.

Полякова Е.А., Рахимова З.И. Миниатюра и литература Востока. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987.

Пузаченкова А.Г., Ремпель А.И. Выдающийся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1958.

Пузаченкова Г.А., Ремпель А.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – Москва: Искусство, 1965.

Пузаченкова Г.А. Древности Мианкаля. – Ташкент: Фан, 1989.

Пузаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии эпохи Темура и темуридов / Труды САГУ, Вып. XXIII. – Ташкент, 1951.

Пьянков И.В. Мараканды / ВДИ. – Москва, 1970.

Раджабов К.К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского хакимията (1918–1924 гг.). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2005.

Rajabov B. Ommaviy qatag'on siyosati // «Turkiston». 2001, 24-oktabr.

Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

Rajabov Q. Ma'muriy-hududiy bo'linish // O'zbekiston Respublikasi. Toshkent: O'zME, 2006.

Rajabov Q. Muzaffar // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent, 2003.

Rajabov Q. Ochilbek va Bahrombek qo'rboshilarning Samarqanddagi faoliyati // «O'zbekiston tarixi va arxeologiya fanlarining dolzarb muammolari» Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2003-yil 27–28-noyabr. – Samarqand, 2003.

Rajabov Q. O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida (1925–1991-yillar) // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent: O'zME nashriyoti, 2006.

Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud «Amiri ma'sum» // Buxoro mavjlari. 2006. 1-son.

Rajabov Q., Rajabov D. Selday kelgan ofat (Davr fojiasi hujjatlar nigohida) // Muhofaza. 2007. № 1.

Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917–1924-y.). – Toshkent: Universitet, 2002.

Rajabov Q.K. Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand. Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni / Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

Rajabov Q.K. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat (1918–1924-yillar). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005.

Rajabov Q., Qandov B. Jahon tarixidagi sulola va davlatlar: qisqacha siyosiy tarixi va muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Uchta kitob. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. 1-kitob (Eng qadimgi davrlardan 1795-yilgacha). – Toshkent: O'zbekiston, 2015.

Раимкулов А. Подземные культовые сооружения христиан Средней Азии // Qadimgi Qarshi. O'rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1999.

Раимкулов А.А. Из истории древних религий Самарканда (христианство) // Роль Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы международного научного симпозиума, посвященного 2750-летию юбилею города Самарканда. – Ташкент–Самарканд: Фан, 2007.

Раимкулов А.А., Асанов А.Р. Самарқанд vohasining O'rta asr rustoqlari va ularning lokalizatsiyasi masalalari xususida // История материнской культуры Узбекистана. Выпуск 37. – Самарканд, 2012.

Рапов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе, 1973.

Рапов К., Исамиддинов М.Х., Грицина А.А. Раскопки в центральной части городища Коктепа. Археологические исследования в Узбекистане. 2002 год. – Ташкент, 2003.

Распопова В.И. Жилище Пенджикента (опыт историко-социальной интерпретации). – Ленинград: Наука, 1990.

Rasulzoda P.N. Из истории среднеазиатско-индийских связей второй половины XIX – начала XX вв. – Ташкент: Фан, 1968.

Rafiqov S.A. Qadimiy va abadiy shahar // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007. №3.

Rahimjonov D. Abu Hafs Umar an-Nasafiy // O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob. – Toshkent, 2010.

Rivveladze Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и права. – Ташкент: Адолат, 2000.

Rivveladze Э.В. Великий шелковый путь / Энциклопедический справочник. – Ташкент: УМЭ, 1999.

Рубцов Л.И. Проектирование садов и парков. – Москва, 1979.

Сагдуллаев А.С. Бактрия и Согд (эволюция древнейших границ оседлого населения) / Тезисы докладов научной конференции «Теоретическое наследие народов Средней Азии в памятниках искусства, архитектуры и археологии». – Ташкент, 1985.

Сагдуллаев А.С. Два редких сосуда из Даратепы / ОНУ. – Ташкент, 1986. №3, рис.1.

Sagdullayev A.S., Lushpenko O.N. Kesh vohasidagi eng qadimgi shahar// Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1998.

Sagdullayev A., Aninov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – Toshkent: Akademiya, 2000.

Sadiyev M. Новые данные о соборной мечети Афраснаба // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 14. 1978.

Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины. – Самарканд, 1970.

Саидов А. Важнейший памятник шарната мусульманского мира // Хидоя. Комментарии мусульманского права. Том I. – Ташкент, 1994.

Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'ri // Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007.

Samarqand tarixi / I.Mo'minov tahriri ostida. 1-jild. Toshkent, 1969.

Samarqand tarixi // mas'ul muharrir I.M. Mo'minov. 2 jildlik. – Toshkent: Fan, 1971.

Samarqand. Самарканд. Samarkand – 2750 (o'zbek, rus, ingliz tilida). Kitob-albom / Mas'ul muharrirlar: T.Shirinov, Sh.Pidayev, M.Qarshiboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.

Samarqand: kecha va bugun. Samarqand viloyat hokimligi. – Samarqand, 2015.

Sarianidi V.II. Исследования памятников Дашлинского оазиса // Древняя Бактрия. Материалы 1969–1973 гг. – Москва: Наука, 1976.

Sa'diyev S. Samarqand adabiy muhiti tarix ko'zgisida. – Toshkent: Fan, 2009.

Сн Ю Цзи или описание путешествия на Запад. Перевел с китайского, с примечаниями архимандрит Палладий // Труды членов Российской духовной миссии в Пекине. Том 4. – СПб., 1866.

Смирнова О.И. Каталог монет с городища Пенджикент. – Москва: Наука, 1963.

Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970.

Смирнова О.И. Места домусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимики) // СНВ. – Москва: Наука, 1971. – Вып. X.

Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981.

Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Вып. II. – Москва: Наука, 1962.

Sodiqov N. Barcha yutuqlar – mustaqillik sharofati bilan // O'zbekiston arxitekturası va qurılıshı. 2016-yil №4-5.

Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar hazinasi. – Toshkent, 1981.

Соколов Ю.А. Бухара, Самарканд, Келиф в 1813 г. Публикация отрывка из «Путешествия мир-Иззатуллы в Среднюю Азию 1812–1813 гг.» / Труды ТашГУ. Новая серия. Вып. X. Исторические науки. Кн. 14. – Ташкент, 1957.

Соколовская Л.Ф. Новые данные о керамической мастерской квартала керамистов X–XI вв. на городище Афрасиаб // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 24. – Ташкент, 1990.

Спилицки Б.Я., Большаков О.Г., Мончадская Е.А. Пенджикентский некрополь // МИА. – М., 1953. – №37.

Судейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII вв. до н.э. – VII в. н. э. Самарканд–Ташкент: Фан, 2000.

Султанов Т.И. Чингизхан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва: АСТ, 2006.

Сухарев И.А. Дворец сад Тимура Давлат-Абад // Труды УзГУ. Новая серия, №14. История, вып. 2. 1940.

Сухарева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (ку, махалла, гузар) // Народы Азии и Африки. 1965, №6.

Tashkenbayev N.X., Isaniddinov M.X. Samarqand qadimiy davrdan boshlab to XIII asr boshlarigacha (Afrosiyob materiallari asosida). – Samarqand, 1995.

Tashkenbayev N.X., Судейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, 1980.

Ташходжаев Ш.С. Археологические исследования древнего Самарканда в 1973 году // Афрасиаб. Выпуск 3. – Ташкент, 1974.

Ташходжаев Ш.С. Самаркандский жилой дом IX–X вв. // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 13. – Ташкент, 1977.

Тереножкин А.И. Археологическая рекогносцировка в западной части Узбекистана // ВДИ. 1947. №2.

Тереножкин А.И. Вопросы историко-археологической периодизации древнейшего Самарканда / СА., Москва, 1972. №3.

Тереножкин А.И. К вопросу о столице кидаритов / ВДИ. Вып. 2. 1953.

Tog'ayeva A. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950–1990-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2017.

Tojiboyev B.M. Samarqand viloyatida sovet hokimiyatiga qarshi qit'ali harakat (1918–1926-y.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Andijon, 2019.

Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва, 1948.

Toshiev F. Samarqand yana chiroy ochdi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2010-y. 10-sentabr. №37 (4072).

Toshpo'latov Y., Jo'raqulov Q., Tursunova I. «Shaharlar iqlimini mo'tadillash-tirishda manzarali daraxtlarning ahamiyati» // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil. № 1.

Трагедия Среднеазиатского кизлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929–1955 гг. Документы и материалы. Том I–III. Составители: Р.Т. Шамсутдинов и Б.М. Расулов / Под редакцией Д.А. Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006.

Тревер К.В. Александр Македонский в Согде. (Из истории народов Средней Азии) / Вопросы истории, 1947. №5.

Тревер К.В. Гопадшах – пастух-царь. Труды отдела культуры Востока Государственного Эрмитажа. Том II. – Л., 1940.

Три еврейских путешественника. – Москва: Мосты культуры, 2004.

Тураев Б. Туристско-рекреационный потенциал Самаркандской области // Bozor, pul va kredit. 2004. №10 (89).

Turdiyev S. Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlarining ko'chirib keltirilgan bolalarga g'amxo'rliqi. – Toshkent: Fan, 1987.

Турбеков М. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда (VII–VI вв. до н.э. – VII в. н.э.). – Нукус, 1990.

Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости / Научный редактор Р.Я. Раджапова. – Ташкент: Шарк, 2000.

Tursunov H.T. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining barpo etilishi. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958.

Uvatov U. Imom al-Buxoriy // O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob. – Toshkent: Mo'vazounnahr, 2010.

Умаров Э.А. Еще раз о надписи на самаркандском дирхеме чекана 663 г.х. // Общественные науки в Узбекистане, 1999. №3–4.

Fayziyev X. Shohruh Mirzoning Temuriylar davlatida tutgan o'rni: tarix fanlari nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012.

Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992.

Филанович М.И. К характеристике древнейшего поселения на Афраснабе. / Афраснаб. Вып. I. – Ташкент, 1969.

Xayrettin Iygin. Ulug'bek madrasasining mudarrisi bursalik Qozizoda Rumiyning aniq fanlarni rivojlantirishdagi xizmatlari // O'rta asrlardagi Samarqand madrasayi oliylarining islom sivilizatsiyasi va ta'lim tizimining taraqqiyotidagi roli. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Samarqand shahri, 2017-yil 13–14-oktabr. – Samarqand: TIKA, 2017.

Xayrullayev M.M. O'rti Osiyoda IX–XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uyg'onish davri madaniyati). – Toshkent: Fan, 1994.

Халидов А.Б. Мадраса. // Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 1991.

Хасанов Х. Памятники Средней Азиатской картографии // «Известия» узбекского географического общества. – 1962.

Хасанов Х. Географическое наследие ученых Средней Азии: Автореферат диссертации доктора географических наук. – Ташкент, 1967.

Ходжаев А. Сведения древнекитайских путешественников о Самарканде // Цивилизация и культура Центральной Азии в единстве и многообразии. 2009 г. 7–8 сентябрь. – Самарканд, 2009.

Ходжаева Н. Совершенствование железнодорожного туризма в Узбекистане // Экономический вестник Узбекистана. 2010. №2.

Xoliqulov Sh. Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning integrallashgan tizimini yaratish // Ekologiya xabarnomasi. 2017-yil. №6.

Xubiy Samarqandiy. Avroqi nosuxta. – Samarqand: So'g'diyona, 1997.

Хо'jayев А. Talos jangi // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'ME, 2004. – Tom 8.

Чабров Г. Страницы истории Самарканда (1808–1916). – Ташкент, 1962.

Чехович О.Д. Городское самоуправление в Средней Азии феодального периода // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – Москва, 1979.

Чехович О.Д. Городское управление и самоуправление в средневековой Средней Азии // Бартольдские чтения. 1976. Год третий. Тезисы докладов и сообщений. – Москва, 1976.

Шамансурова А.Ш. К вопросу среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. В кн.: Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII – начале XIX вв. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1963.

Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rti Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003.

Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. – Toshkent: Sharq, 2001.

Шарипов С.И. Из истории общественных бань в Самарканде в XVI – первой половине XIX вв. // Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Toshkent–Samarqand: Fan, 2007.

Шефер Э.Х. Золотые персики Самарканда. – Москва: Наука, 1981.

Шишкин В.А. Афрасиаб – сокровищница древней культуры. – Ташкент, 1966.

Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. Выпуск 1. – Ташкент, 1969.

Шишкин В.А. Кала и Афрасиаб // Афрасиаб. Выпуск 1. – Ташкент, 1969.

Шишкина Г.В. Древнейшая оборонительная стена Самарканда / ОНУ. – Ташкент, 1970. №9.

Шишкина Г.В. Древний Самарканд и его округа. В кн. Городская культура Бактрии – Тохаристана и Согда античности, раннее средневековье. Материалы международного коллоквиума (Самарканд, 1986). – Ташкент: Фан, 1987.

Шишкина Г.В. Городской квартал VIII–XI вв. на северо-западе Афрасиаба // Афрасиаб. Выпуск 2. – Ташкент, 1973.

Шишкина Г.В. К топографии западной окраины средневекового Самарканда // К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981.

Шишкина Г.В., Сулейманов Р.Х., Кошеленко Г.А. Согд. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – Москва, 1985.

Shodiyev N. El merosi – asrlar jilosi // Jamiyat. 2007. 14-sentabr, №37 (50).

Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: Fan, 1990.

Ekologiya va zamon // Ekologiya xabaromasi. 2016-yil № 6.

Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002.

Юй Т. Сведения о ранней Согдиане в официальных историях HAN, WEI, JIN Южной и Северной династии / Согдийский сборник. Выпуск 4. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане // Ред. Ш. Камалиддин. – Lambert Academic Publishing: LAP, 2017.

Юй Т. Эфталиты и Согдиана / Согдийский сборник. Выпуск 4. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане // Ред. Ш. Камалиддин. – Lambert Academic Publishing: 2017.

Yunusov M., Saidov M. O'zbekiston me'moriy yodgorliklari. – Toshkent: Navro'z, 2018.

Якубов Ю. Паргар в VII–VIII веках нашей эры. – Душанбе: Доннш, 1979.

Якубовский А. Образы старого Самарканда / Восток, № 5, 1925.

Yahyojev N. Tilsim. Xotira-roman. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2004.

O'zbek pedagogikasi antologiyasi (II jild). – Toshkent: O'qituvchi, 1999.

O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2014.

O'zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi. Jamoaviy monografiya. (Mas'ul muharrir: Ziyayeva D.H.) – Toshkent: Yangi nashr, 2017.

O'zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi: islohotlar va modernizatsiya jarayonlari // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016.

O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyoti. Jamoaviy monografiya (Mas'ul muharrir: Ziyayeva D.H.) – Toshkent: «Yangi nashr», 2017.

O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar I. / Mas'ul muharrir D.Alimova. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015.

O'n sakkizlar guruhi. Дело восемнадцати (Arxiv hujjatlarining izohli to'plami) / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari: Q.K. Rajabov, A.J. Yaxshiyev. Izoh va sharhlar muallifi: Q.K. Rajabov. – Toshkent: Akademiya, 2012.

O'rolov A.S. Samarqand shahrining mustaqillik yillaridagi arxitekturasi // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007. № 3.

O'rinxo'jayev M. Unutilmas kunlar (Memuarlar). – Toshkent: O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1961.

Qosimov B. Karvonboshi // Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

G'oyibov B. Ilk o'rta asrlarda Sug'd konfederatsiyasida Panchning o'ri. Toshkent: Navro'z, 2012.

G'oyibov B. Maymurg' to'g'risida tarixiy ma'lumotlar // O'zbekiston arxeologiyasi. Samarqand, 2013. – №1 (6).

G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi xususida // Ilmiy xabarnoma. Научный вестник. Andijon, 2015. – №1.

G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasida Panchning o'ri (Ilk o'rta asrlar). – Toshkent: Navro'z, 2012.

G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasining tarixiy-ma'muriy bo'linishi xususida ayrim mulohazalar // Ilmiy xabarnoma. Научный вестник. – Andijon, 2014. №1.

G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasining shakllanishiga doir yangicha qarashlar // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand, 2012. №6. (76).

G'oyibov B. Sug'diy yozuv – madaniyatimiz ko'zgusi // Imom al-Buxoriy saboqlari. – Toshkent, 2013. – №4.

G'oyibov B., Qo'shbaqov H. Ilk o'rta asrlar Miyonqol vohasi – Ishtixonning Sug'd konfederatsiyasidagi o'ri va hukmdorlik xususiyatlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. 2018. – №4.

Habibullayev N. O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish. – Toshkent: Fan, 1992.

Hamidov H. O'zbekiston ma'naviy madaniyati tarixi, taraqqiyoti, muammolari. – Toshkent, 1999.

Hasanboyev O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.

Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati / mas'ul muharrir Ne'matilla Ibrohimov. – Toshkent: Sharq, 2005.

A chronicle of the early Safawis being the Ahsanut – tawarikh of Hasan-i-Rumlu. Volume II. Translated by C.N.Seddon. Calcutta: Orientalinstitute Baroda, 1934.

Airey David, Shackley Myra. Tourism development in Uzbekistan // Turism Management, Vol 18, No.4, 1997.

Ali Bademci. 1917–1934. Turkistam Milli Istiklal Hareketi ve Enver Pasa. Korbasilar. – Istanbul, 1975. 1-cilt.

Al-Khemir Sabiha. De Cordoue a Samarcande. Masterpieces from the museum of Islamic art in Doha. Paris: Musee du Louvre editions, Doha: Museum of Islamic art, Milan: 5 continent editions, 2006.

Beckwith C.I. Aspects of the Early History of the Central Asian Guard corpus of Islam // AEMAe. Wiesbaden: 1984. Tom IV. P. 36–38.

Benveniste E. L'Eran-vezet l'origine Kegendaire des Iraniens / Bulletin of the School of Oriental Studien. London, vol. VII, pt. 1, 1936. P. 269.

Bernard P., Grenet F., Isamiddinov M. Et. alii. Fouilles de la mission franco-uzbeke a l'ancienne Samarkand (Afrasiab), deuxieme et troisieme campagnes (1990–1991).

Comptes - rendus de l'Académie des inscriptions et Belles-Lettres. Paris, 1992. fig. 3-5.

Besim Selim Hakim. Arabic-Islamic cities. Building and planning principles. Kegan Paul international. London and New-York, 1968.

Biblioteka geograforum arabicorum edidit M.J.De.Goeje. I-III. Lugduni Batavorum, I, Viae regnorum..... auctore Abu Ishak al-Istakhri, 1870; III, Descriptio imperii moslemici auctore.... Al-Mokaddasi, 1877.

Biran Michal. The empire of the Qara Khitay in Eurasian history. Between China and the Islamic world. Cambridge university press, 2005.

Bosworth C.E. The medieval history of Iran, Afghanistan and Central Asia. London: Variorum reprints, 1977.

Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul: Selenge, 2007.

Curzon Georg N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. FrankCass&CoLTD, 1967.

Elwell-Sutton L.P. Introduction in Ali Dashti, In search of Omar Khayam Translated from the Persian by L.P. Elwell-Sutton London. GeorgeAllen & Unwin Ltd, 1971.

Frye R.N. Jamuk, sogdian peal? // JOAS, 1952.

Gayibov B. About Confederative Administration Ruling of Sogd // International Journal of Central Asian Studies. South Korea. Volume 20. 2016.

Gayibov B. About to the Question of the Main Origin of Sogdian Rulers // International journal of Humanities & Social Science Studies. Volume-III, Issue-I. July. Karimganj-Assam, India: 2016.

Gayibov B. Sogdian Confederation: The Kingdoms Pocityon and Peculiarity // The international journal of Humanities & Social Studies. Vol. 4. Issue 6. June. India: 2016.

Gayibov B., Xujanov N. Turkish - Sogdian impact on the epoch of Turkish Khaganate in Southern Tokharistan / International journal of scientific Research and Education. Volume-7, Issue-3. March, 2019.

Gibb H.A. Orta Asya'da Arap Fütuhati. Çev. M.Hakkı. İstanbul: 1930.

Gibb H.A.R. The Arab conquests in Central Asia. London: 1923.

Goyibov B. Soğd merkezi yönetimi ve onun Köktürk kağanlığına bağlılık şartları // Gazi Türkiyat. Ankara, 2013. №13. S. 81-90.

G'oyibov B. Samarqand - Sug'd konfederatsiyasining boshqaruv markazi sifatida // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник. - Samarqand, 2014. - № 4 (86).

G'oyibov B. Sug'diy hukmdorlar shajarasi xususida (Panch misolida) // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник. - Samarqand, 2014. №2 (84).

Goyibov B. From the history of relations between Sogd and India / South and Central Asia: insights and commentaries // Edited by A. Sengupta, M. Rakhimov // - New Delhi: KW Publishers Pvt Ltd, 2015.

Goyibov B. Sogd and China: priority trade ties // III Международная научная конференция «История и археология». г. Пермь май, 2014 г. - Пермь, 2014.

G'oyibov B. «Ishtixon» toponimi va uning mohiyati xususida // Tarixshunoslik va manbashunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. I qism. - Samarqand, 2015.

Grenet F. «Les «huns» dans les documents sogdiens du mont Mugh» / Études irano-ariennes offertes à Gilbert Lazard. Ed. C.H. de Fouchecour and P. Gignoux. – Paris: 1989. – Volum 7.

Grenet F. Regional interaction in Central Asia and Northwest India in the Kidarite and Hephthalite period / Proceedings of the British Academy CXVI. – London: 2002.

Grenet F., Sims-Williams N. The Historical Context of the Sogdian Ancient Letters. Trancityon Periods Iranian History. Actes du Symposium de Fribourg-en-Brisgau, Studia Iranica. (22-25 mai 1985). – Cahier-Leuven: 1987. – vol. 5.

Harmatta J. Sogdian Sources for the history of Preislamic Central Asia // Prolegomena to the History of Preislamic Central Asia. – Budapest, 1979.

Heming W.B. The date of Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – vol. 12.

Hersfeld. Altpersische Inschriften. Berlin. 1938.

Hudud al-Alam 'The regions of the world' A persian geography 372 A.H. – 982 A.D. Translated and explained by V.Minorsky. Second edition. With the preface V.V.Barthold. Edited by C.E.Bosworth. London: Messrs. Luzac& Company, Ltd. 1970.

Humbach H. Die Soghdischen inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Allgemeine und vergleichende Archäologie – Beiträge. Bd 2. – München, 1980.

Kafesoglu I. Turk Milli kulturu. Istanbul, 1993.

Karev Yury. Qarakhanid wall paintings in the citadel of Samarqand: first report and preliminary observations in Muqarnas. Annual on the visual culture of the Islamic world. Editor Gutru Necipoglu. Volume 22. Leiden-Brill, 2005.

Kennedy E.S. The exact sciences in The Cambridge history of Iran. Volume 4. Edited by R.N Frye. Cambridge university press, 1975.

Kheirabadi Masoud. Iranian cities. Formation and development. Syracuse university press, 2000.

Kurat A.H. Kuteybe bin Muslim'in Hvarizm ve Semerkend'I zebti (higri 93-94-miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gografiya dergisi. – 1948. CiltVI. – № 4.

Lapidus Ira M. Muslim cities and Islamic societies in Middle Eastern cities. Edited by Ira M. Lapidus. University of California press. Berkeley and Los-Angeles, 1969.

Lapidus Ira M. The evolution of Muslim Urban society in Comparative Studies in Society and History, volume 15, no 1. (January 1973).

Livsic V. The Sogdian Wall Inscriptions on the Site of Afrasiab // Royal Nauruz in Samarkand Proceedings of the Conference Held in Venice on the Pre-Islamik Paintings at Afrasiab. Rivista Degli Studi Orientali, Nuova Serie Vol. LXXVIII, Supple mento N. 1 (2004). Ed. M. Comparetti, E. de la Vaissiere. – Pisa-Roma: 2006.

Lurje P.B. The element – *kath/kand* in the place names of Transoxiana // ST. 32, fascicule 2, 2003.

Lyonnet B., Isakov A., Avanesova N. Sarazm (Tadjikistan) ceramiques (chalcolithique et Bronze Ancien). Memoires de la mission archeologique francaise en Asie Centrale, tome VII, Paris. 1996.

Mingana A. The Early Spread of Christianity in Central Asia and the Far East A New Document // Bulletin of the John Rylands Library. – Manchester, 1925. – vol. 9. – pt. 2.

Mori M. Soğdluların Orta Asya'daki Faaliyetleri. TTK, Belleten, Ocak. Ankara: 1983.

Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868–1910 A Comparison with British India. – Oxford University Press. 2008.

Nasr S.H., Mutahhari M. The religious sciences in The Cambridge history of Iran. Volume 4. Edited by R.N Frye. Cambridge university press, 1975.

Paul Jurgen. The histories of Samarqand // Studia Iranica, 22, 1993.

Rapin Cl., Isamiddinov M., Khasanov M. La tombe d'une princesse nomade a Koktepe pres de Samarkand // Akademie des inscriptions et belles lettres. Comptes rendus de seances. – Paris: 2001.

Richard van Leentwen. Waqfs and urban structures. The case of Ottoman Damascus. Brill. Leyden. Boston. Koln, 1999.

Schacht J. Abu'l-Layth al-Samarqandi in The Encyclopedia of Islam. New edition. Edited by an editorial committee consisting of H.A.R.Gibb, J.H.Kramers, E.Levi-Provencal, J.Schacht. Volume 1. Leiden: E.J.Brill 1986.

Shaban M.A. Khurasan at the Time of Arab Conquest // Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky. Edinburg: 1971.

Shistikina G.V. Ancient Samarkand, Capital of Soghd. The Archaeology and art of Central Asia. Studies From the Former Soviet Union. Bulletin of the Asia Institute. Vol. 8, 1994.

Sims-Williams N. The Sogdian inscriptions of Kultobe: text, translation and linguistic commentary // Труды Центрального Музея. – Алматы, 2009. Том 2.

Sims-Williams N. The Sogdian Inscriptions of the Upper Indus // Antiquities of North Pakistan / Reports and Studies. Ed.K.Yettmar. Mainz, 1989.

Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe // Shygyys. – 2006. – № 1.

Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // Turks, 2. Ankara: 2002.

Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasien– und Zentralasien // Grenzüberschreitungen. Formen des Kontakts zwischen Orient und Okzident im Altertum. Stuttgart: 2002.

Szuppe Maria. The female intellectual milieu in Timurid and post-Timurid Herat: Faxri Heravi's biography of poetesses, „Javaher al-Ajayeb« in Oriente Moderno, Nuova serie, Anno 15 (76) Nr. 2, La civiltà Tumuride come fenomeno internazionale. Volume I (Storia – I Timuridi e l. Occidente) (1996).

Tarn W.W. Alexander conquests of the Far East, - The Cambridge ancient history. Vol. VI. Cambridge, 1933.

The Fihrist of al-Nadim. A tenth-century survey of muslim culture. Bayard Dodge editor and translator. Volume 2. New York & London. Columbia university press, 1970.

The history of al-Tabari, (Tarikhal-rusulwa'l-muluk). Volume V. The Sasanids, the Byzantines, the Lakhmids, and Yemen. Translated and annotated by C.E. Bosworth. State university of New York press, 1999.

Turkistanli Abdullab Receb Baysun. Turkistan Milli Hareketleri. Istanbul, 1945.

Vaissière de la É. Samarcande et Samarra. Elites d'Asie centrale dans l'empire Abbaside. Paris: 2007.

W. Madelung. Abu Bakr Kalabadi, Encyclopedia Iranica, volume I, edited by Ehsan Yarshater., 1985.

W. Madelung. Abu'l-Qasem Eshaq B. Mohammad B. Esmail B. Ebrahim B. Zayd Samarqandi, Encyclopedia Iranica, volume I, edited by Ehsan Yarshater. 1985.

Zeki Velidi Togan. Hatiralar. Turkistan ve Dider Musluman Dogu Turklerini Milli Yarlik ve kultur Mucadeleleri. 2-baski. Ankara, 1999.

O'zbekiston hukmdorlari / Tuzuvchi mualliflar: Farhod Sulonov, Farruh Bozorboyev. – Toshkent, 2007.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
I bob. Samarqand vohasining eng qadimgi va qadim davri (M.D. Djuraqulov, O.T. Ergashev).....10	
II bob. Samarqand shahrining vujudga kelishi va antik davri (M. Isamiddinov)	
1-§. Samarqandning vujudga kelishi va Sug'dda ilk shahar markazlari.....	28
2-§. Samarqand to'g'risida yunon-rim tarixchilari asarlaridagi ma'lumotlar tavsifi.....	43
3-§. Makedoniyalik Aleksandrning Samarqandga yurishi.....	49
4-§. Shaharning suv ta'minoti, yo'llar va turar joylar.....	65
III bob. Ilk o'rta asrlarda (V–VIII) Samarqand (B.S. G'oyibov)	
1-§. Sug'd hukmdorliklarining Samarqand atrofida birlashishi.....	69
2-§. Samarqand hukmdorlarining etnik mansubligi.....	77
3-§. Samarqand Sug'dida boshqaruv va uning xususiyatlari.....	83
4-§. Samarqandning Sug'd konfederatsiyasi tarkibidagi maqomi.....	93
5-§. Samarqand arab xalifaligi hukmronligi davrida.....	106
6-§. Ilk o'rta asrlarda Sug'dda din, tasviriy san'at va yozuv.....	111
IV bob. IX – XIV asrning birinchi yarmida Samarqand (A.M. Malikov)	
1-§. IX – XIV asrning birinchi yarmidagi siyosiy jarayonlar.....	130
2-§. Iqtisodiy hayot va ijtimoiy tuzum.....	138
3-§. Shahar tuzilmasi.....	144
4-§. Ta'lim, ilm-fan, adabiyot va diniy vaziyat.....	158
V bob. Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand (Q.K. Rajabov, B.S. G'oyibov)	
1-§. Samarqand – Amir Temur va Temuriylar davlati poytaxti.....	172
2-§. Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda ilm-fan va madaniyat.....	182

**VI bob. O'rta Osiyo xonliklari davrida Samarqand
(K. Kattayev)**

1-§. Samarqand shayboniylar hukmronligi davrida.....	190
2-§. Ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand.....	203
3-§. Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand.....	209

**VII bob. Samarqand Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida
(O.J. Irisqulov, S.I. Muxiddinov)**

1-§. Rossiya imperiya istilosi arafasida Samarqand shahrining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.....	221
2-§. Samarqand shahrining boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar.....	224
3-§. Samarqand shahri «yangi qismi»ning shakllanishi va shaharsozligi.....	228
4-§. Shahar aholisining ijtimoiy hayoti va xizmat ko'rsatish sohalari.....	235
5-§. Hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlari.....	241
6-§. Yangi iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi: sanoat korxonalari, transport va kommunikatsiya masalalari.....	246
7-§. Samarqand shahrida ta'lim va uning xususiyatlari.....	251
8-§. Ilm-fan va madaniyat.....	274

VIII bob. Samarqand 1917–1991-yillarda (Q.K. Rajabov)

1-§. Samarqandda milliy-siyosiy tashkilotlar faoliyati hamda sovet hokimiyatining majburan o'rnatilishi.....	284
2-§. Samarqandda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.....	293
3-§. Samarqand – O'zbekiston SSR poytaxti (1925–1930-yillar).....	310
4-§. XX asrning 30-yillaridagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida Samarqand.....	317
5-§. Samarqand Ikkinchi jahon urushi yillarida.....	326
6-§. O'zbekistonning muhim iqtisodiy markazi (1945–1991-yillar).....	331
7-§. Samarqand muhim madaniyat markazi va shahardagi madaniy jarayonlar.....	337

**IX bob. 1991–2021-yillarda Samarqandda ijtimoiy-iqtisodiy,
madaniy hayot (B.S. G'oyibov, M.X. Sidikova, O.J. Irisqulov)**

1-§. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	343
2-§. Xizmat ko'rsatish, shahar budjeti va aholi bandligi masalalari.....	358
3-§. Ilm-fan va ta'lim maskanlari.....	363
4-§. Madaniy-maishiy muassasalar.....	367
5-§. Turizm xizmati va infratuzilmasining rivojlanishi.....	383
6-§. Zamonaviy qurilish-bunyodkorlik ishlari va shahar ekologiyasi.....	391
Xulosa.....	408
Shartli qisqartmalar.....	410
Ilovalar.....	412
Adabiyotlar ro'yxati.....	444

Ilmiy-ommabop nashr

B.S. G'OIYIBOV, **J.M. DJURAQULOV**, M.X. ISAMIDDINOV,
Q.K. RAJABOV, A.M. MALIKOV, K. KATTAYEV, O.T. ERGASHEV,
M.X. SIDIKOVA, O.J. IRISQULOV, **A.J. BODIROV**,
S.I. MUXIDDINOV

O'ZBEKISTON TARIXI

(Samarqand tarixi)

IX JILD

(O'zbekiston tarixi va manbalari)

Muharrir Toshpo'lat Mirzayev
Rassom-dizayner Behzod Zufarov
Texnik muharrir Yekaterina Stepanova
Kichik muharrir Matluba Salimova
Musahhah Maqsuda Ishanxanova
Kompyuterda tayyorlovchi Nodira Ahmedova

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.09

Bosishga 2023-yil 31-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 70x100/16. Ofset qog'oz.
«Palatino Linotype» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 38,35.
Nashr tabog'i 39,67. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 3405.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

«COLORPACK» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangishahar ko'chasi, 1-A.

O'zbekiston tarixi. Samarqand tarixi [Matn] IX jild, O'zbekiston tarixi va manbalari / B.S. G'oyibov [va boshq.]. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2023. – 472 b.

ISBN 978-9943-8054-5-3

UO'K 94(575.141)

KBK 63.3(5O'-2Samarqand)

@tarixchi_kutubxonasiga

@tarixchi_kutubxonasi



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-8054-5-3



9 789943 805453